



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI

**“HAYOT FAOLIYATI XAVFSIZLIGI” VA “TEXNOLOGIK
TA'LIM” BAKALAVRIAT YO'NALISHLARIDA TEXNIK
FANLARNI O'QITISHNING DOLZARB MUAMMOLARI”**

**RESPUBLIKA ILMIY-TEXNIKAVIY
ANJUMAN MATERIALLARI**



NAMANGAN-2021

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI

**“HAYOT FAOLIYATI XAVFSIZLIGI” VA “TEXNOLOGIK
TA'LIM” BAKALAVRIAT YO'NALISHLARIDA TEXNIK
FANLARNI O'QITISHNING DOLZARB MUAMMOLARI”**

***RESPUBLIKA ILMIY-TEXNIKAVIY
ANJUMAN MATERIALLARI***

NAMANGAN-2021

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI

**“HAYOT FAOLIYATI XAVFSIZLIGI” VA “TEXNOLOGIK
TA'LIM” BAKALAVRIAT YO'NALISHLARIDA TEXNIK
FANLARNI O'QITISHNING DOLZARB MUAMMOLARI”**

***RESPUBLIKA ILMIY-TEXNIKAVIY
ANJUMAN MATERIALLARI***

NAMANGAN-2021


“Hayot faoliyati xavfsizligi” va “Texnologik ta’lim” bakalavriat yo’nalishlarida texnik fanlarni o’qitishning dolzarb muammolari” mavzusidagi Respublika ilmiy-texnik anjuman materiallari. Namangan 2021 yil.

To’plamga 2021 yil 27-28 may kunlari universitetda o’tkazilgan Respublika ilmiy-texnik anjumanda ishtirok etgan Oliy o’quv yurtlari professor-o’qituvchilari, aspirantlari, magistratura mutaxassisligi va bakalavriat yo’nalishi talabalari hamda ilmiy-tadqiqot institutlari xodimlarining ma’ruza materiallari kiritilgan. Chop etilgan materiallarining mazmuni va haqqoniyligiga mualliflar mas’ul hisoblanadilar.

Konferentsiya tashkiliy qo’mitasi

Tur’gunov.S.T	- NamDU rektori, rais
Qodirxonov M.R	- NamDU Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo’yicha prorektori
Abdullayev O’E	- NamDU San’atshunoslik fakulteti dekani
Akramov X.M	- NamDU Texnologik ta’lim kafedrası mudiri
Nabiev A.B	- NamDU Hayot faoliyati xavfsizligi kafedrası mudiri
Uluxanov I.T	- NamDU Texnologik ta’lim kafedrası dotsenti
Matkarimov A	- NamDU Texnologik ta’lim kafedrası katta o’qituvchisi
Sayfitdinov A.S	- NamDU Texnologik ta’lim kafedrası katta o’qituvchisi
Mamadboyev Sh.B	- NamDU Hayot faoliyati xavfsizligi kafedrası o’qituvchisi

NamDU San’atshunoslik fakulteti ilmiy kengashining 2021 yil ____ may ____ - sonli qaroriga asosan konferentsiya materiallari chop etishga tavsiya qilingan.



КИРИШ

Бугунги кунда жадал суратларда ривожланаётган ижтимоий-сиёсий муносабатлар даврида Мухтарам Президентимиз Ш.М.Мирзиёевнинг шахсий ташаббуслари билан мамлакатимизни ижтимоий-иқтисодий жиҳатдан ривожлантиришнинг муҳим устувор вазифаларини белгилаб берувчи зарурий фармон ва қарорлар қабул қилинди.

Хурматли меҳмонлар, конференцияни номланиши ва иккита кафедрани масъуллиги давр талаби билан белгиланади. Сабаби 2013 йил Хаётий фаолият хавфсизлиги йўналиши очилган бўлиб, бу йўналишни инсонларга қанчалик зарурлиги нафақат президент қарорлари, балки ҳаёт ва табиат ўз талаблари билан кўрсатиб турибди. Бугунги кунда мамлакатимизда изчил ислохотлар натижасида юрт истиқболи учун масъулиятни ўз зиммасига олишга қодир, ташаббускор, шижоатли ёшларни тарбиялаш билан бир қаторда, уларда хавфсиз ҳаётий фаолият маданиятини шакллантиришнинг педагогик имкониятларини кенгайтириш зарурати мавжуд. Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегиясида “жисмонан соғлом, рухий ва интеллектуал ривожланган, мустақил фикрлайдиган, қатъий ҳаётий нуқтаи назарга эга, Ватанга содиқ ёшларни тарбиялаш, демократик ислохотларни чуқурлаштириш ва фуқаролик жамиятини ривожлантириш жараёнида уларнинг ижтимоий фаоллигини ошириш” каби талаблар қўймоқда, шу сабабдан конференция номида **“ҲАЁТ ФАОЛИЯТИ ХАВФСИЗЛИГИ” БАКАЛАВРИАТ ЙЎНАЛИШЛАРИДА ТЕХНИК ФАНЛАРНИ ЎҚИТИШНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ**” деб кўрсатилган.

2015 йил 11 августдаги “Умумий ўрта ва ўрта махсус, касб-хунар таълимнинг умумтаълим фанлари бўйича ўқувчиларда компетенцияларни шакллантиришга йўналтирилган Давлат таълим стандартлари ва ўқув дастурлари лойиҳаларини тажриба-тадқиқотдан ўтказиш тўғрисида”ги 229-ҚБ, 29-ҚҚ, 36/ҚБ-сонли қўшма буйруғида “Меҳнат таълими” фани номини “Технология” фани номи билан ўзгартирилиши Умумий ўрта таълим мактабларида технология фанининг тутган ўрни ёритилган.

Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 7 февралдаги “Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича ҳаракатлар стратегияси тўғрисида”ги ПФ-4947-сон Фармони, ҳамда мазкур соҳага тегишли бошқа меъёрий-ҳуқуқий ҳужжатларда белгиланган вазифаларни амалга ошириш мақсадида НамДУда 2018 йилдан “Технология таълими” йўналиши очилди. 2017 йилгача мактаб дастурида “Меҳнат таълими” фани мавжуд бўлган бўлиб, бунда инсонларнинг онгида ўқувчиларни фақат меҳнатга ўргатиш кўринар эди.

Меҳнат бозорининг замонавий эҳтиёжларига мос юқори малакали кадрлар тайёрлаш сиёсатининг устуворлиги сабабли, маънавий “Меҳнат таълими” фани номи “Технология” фани номи билан ўзгартирилди.

Демак, ҳозирги кунда давлатимизга фақатгина меҳнатсевар эмас, балки ишни негизини биладиган, ҳар бир ишга онгли равишда ёндашадиган ва энг асосийси мустақил фикрловчи шахс кераклиги асос бўлган.

Шу сабабдан, конференциянинг иккинчи қисми **“ТЕХНОЛОГИК ТАЪЛИМ” БАКАЛАВРИАТ ЙЎНАЛИШЛАРИДА ТЕХНИК ФАНЛАРНИ ЎҚИТИШНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ**” деб номланган.

Ҳозирги кунда барча соҳалардаги технологик таълимни хавфсиз ҳаётий фаолият маданиятисиз, ҳамда маданиятли инсонни технологик билимларсиз тасаввур қилиб бўлмайди.

Бугун университетимизда **“ҲАЁТ ФАОЛИЯТИ ХАВФСИЗЛИГИ” ВА “ТЕХНОЛОГИК ТАЪЛИМ” БАКАЛАВРИАТ ЙЎНАЛИШЛАРИДА ТЕХНИК ФАНЛАРНИ ЎҚИТИШНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ**” мавзусида ўтказилаётган ушбу Республика илмий-техник анжуманининг мақсади ҳам, рақобатбардош кадрлар тайёрлашдаги муаммоли масалаларини ҳал этишнинг илмий ва амалий ечимларига қаратилган.

Сизлар томонингиздан тақдим этилаётган маърузалар ва тавсиялар, улардаги кўрсатмалар таълим соҳасида мавжуд бўлиб турган муаммоларни ижобий ҳал этишда ўз самарасини беради, деб ўйлайман ва анжуман ишини самарали ва мазмунли бўлишини тилаб қоламан.

НамДУ ректори, профессор С.Т.Турзунов

РИВОЖЛАНГАН МАМЛАКАТЛАР ОЛИЙ ТАЪЛИМ МУАССАСАЛАРИДА ТАЪЛИМ, ФАН, ИШЛАБ ЧИҚАРИШ ИНТЕГРАЦИЯСИНИНГ ШАКЛЛАНИШИ ВА РИВОЖЛАНИШ ТАЖРИБАСИ

проф. А.Х.Алиязаров, доц. А.А.Атамов. (Наманган муҳандислик-
қурилиш институти)

Аннотация: Мақолада ривожланган мамлакатлар олий таълим муассасаларида таълим, фан, ишлаб чиқариш интеграциясининг шаклланиши ва ривожланиш тажрибаси тўғрисидаги маълумотлар келтирилган.

Калит сўзлар: Таълим, фан, ишлаб чиқариш, интеграция, инновация, корпоратив ҳамкорлик, илмий тадқиқот.

Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича ҳаракатлар стратегияси тўғрисида”ги фармонида “Мамлакатимиз босиб ўтган таракқиёт йўлининг чуқур таҳлили, бугунги кунда жаҳон бозори конъюнктураси кескин ўзгариб, глобаллашув шароитида рақобат тобора кучайиб бораётганида давлатимизни янада барқарор ва жадал суратлар билан ривожлантириш учун мутлақо янгича ёндашув ҳамда тамойилларни ишлаб чиқиш ва рўёбга чиқаришни тақозо этмоқда” деб қайд этилган.

Ҳаракатлар стратегиясида таълим ва фан соҳасини ривожлантиришга алоҳида урғу берилиб, “.. илмий- тадқиқот ва инновация фаолиятини рағбатлантириш, илмий ва инновация ютуқларини амалиётга жорий этишнинг самарали механизмларини яратиш, олий ўқув юртлири ва илмий тадқиқот институтлари ҳузурида ихтисослаштирилган илмий экспериментал лабораториялар, юқори технология марказлари ва технопаркларини ташкил этиш” вазифалари қўйилган. [1].

Жаҳондаги йирик инновацион марказларнинг ҳар бири ўзига хос бетакрор тарихга эгадир. Уларнинг шаклланиш ва ривожланиш тарихи ўзига хос бўлиб, иш юритишга ёндашув, халқнинг билим даражаси ва менталитети, ишлаб чиқариш ҳолати, давлат сиёсати, академик ва таълим муассасалари салоҳияти, инсон капитали каби қатор омиллар билан ҳамбарчас боғлиқдир.

Калифорниянинг Стенфорд университети менежмент ва компютер фанлари профессори, машҳур “Кремний воҳаси”даги бир қатор компаниялар асосчиси Уильям Миллернинг фикрига кўра, ушбу географик воҳа тарихининг дастлабки саҳифалари Стенфорд университети билан боғлиқдир. Юз йиллар олдин айнан шу университетнинг собиқ талабаси нисбатан юқори технологик компанияга асос солган, бир неча профессор-ўқитувчилар ҳамда университет ректори ҳудуднинг ривожланиши ва истикболини кўра билганлар ҳамда кам бўлса-да, молиявий сармоя киритганлар. Бу таълим муассасасида яратилган юқори технологик ғоя воҳанинг 20 йил ичида дунёда учинчи ўриндаги биотехнологик ҳудудга айланишига олиб келган. Шунинг учун ҳам олий таълим тизимида Америка моделини намуна сифатида курсатиш мумкин. [2].

Биринчи навбатда олий таълим тизимининг барча босқичларида илмий тадқиқот университетлари моделига ўтиш ва илмий тадқиқот кириб бориш фаолиятларини алоҳида эътибор билан қузатишимиз лозим. АҚШнинг

тадқиқотчилик университетлари ҳозирги кунда йирик лойиҳаларини амалга оширмоқдалар. Улар турли фондлар ва бюджет томонидан молиялаштирилган бўлиб турли хил ишлаб чиқариш корпорациялари билан яқиндан боғланган. Атрофларида турли бизнес-инкубаторлар, инфратузилма мажмуаларини бирлаштирган. Мазкур инфратузилма мажмуаларининг мавжудлиги инновацион тизимнинг инновацион маҳсулотлари ва технологияларни инновацион тизим ва фаннинг уйғунлашуви доирасида бошқа соҳалар ва йўналишларга татбиқ этиш имкониятларини беради. Америка моделининг алоҳида аҳамият берадиган томонларидан бири шуки, уларда “ғоялар фабрика”си, яъни махсус илмий тадқиқот ва аналитик таҳлил фаолияти билан боғлиқ ташкилотларининг мавжудлигидир.

Тайван тажрибаси ҳам қайси бир жиҳати билан “Кремний воҳаси” никига ўхшашидир. Бу мамлакатда салоҳиятли таълим муассасаларининг иктисодиёт, саноат билан самарали ҳамкорлигининг аҳамиятини яхши тушунганлар. Шу сабабли тайванликлар бизнес билан уйғунлашган чуқур фундаментал ва назарий муаммолар билан шуғулланганлар. Тайваннинг “Саноат технологиялари тадқиқот институти” бу борада локомативга айлангандир. Кўплаб ходимлар институти ишланмалари асосида ўз компанияларини очганлар ёки технологияларини бошқа компанияларга берган ва уларнинг ривожланишини таъминлаганлар.

Сингапурда эса кўплаб муваффақиятли компаниялар асосан давлат назоратида ёки улар давлат томонидан очилгандир. Ўқув муассасаларида асосий эътибор тадқиқотларга йўналтирилгандир.

Бир катор мамлакатларда инновацион ривожланиш, ушбу жараёнлар ривожига ёндашув маданияти билан ҳам боғлиқдир. Масалан, Хитоёда мутахассис-ҳодим таълим тизимида бир неча йилга компанияга ишга ўтиши ва яна ўз ўрнига қайтиши, ўзининг ёки ўзганинг компаниясини очишга кўмаклашиши мумкинлиги конунан белгилаб қўйилган.

Ҳозирги замонавий дунёда кўплаб ёндашувлар жамоавий уйғунлашувни талаб этмоқда, бу инновация ва инновацион жараёнлар учун аини муддаодир. Valeo компаниясининг бош директори Жак Ашенбройх (Jacques Aschenbroich) НННг фикрича инновация - бу бозорда ўз ўрнини топган ихтиродир. [3].

Олий таълим муассасалари илмий тадқиқотларин ишлаб чиқаришга жорий этишда, миллий инновацион тизимининг интеграцияси муаммоларини ҳал этишда, хорижий тажриба таҳлили, ҳамда миллий, минтақавий ва бошқа даражалардаги янгиликларни ташкилий шаклларини хилма - хиллиги, янгиликлар жараёнини назорат этиш интеграциянинг хусусиятларидан бири ҳисобланади, деб хулоса қилиш мумкин. Бироқ бу жараён тўғридан - тўғри миллий иқтисодиётнинг ўзига хос хусусиятлари, олий таълимни ҳамда молиявий оқимларни ташкиллаштириш билан боғлиқ. Шунинг учун, аниқ бир ҳудуд алоҳида кўриб чиқилиши мумкин эмас. Турли мамлакатларнинг ишлаб чиқариш жараёнига инновацияларни ривожлантириш шакл ва усуллари ҳозирги кунда кам тадқиқ этилган мавзу ҳисобланади. Шунингдек, маҳаллий шароитларга қўлланиладиган янгиликларни ривожлантиришининг аниқ механизми мавжуд

эмас. Хўш, инновация, инновацион марказлар, уларнинг лойиҳалари қачон ва қандай муҳитда шаклланади? Мавзуга мое адабиётлар ва тадқиқотлар таҳлилининг курсатишича:

Биринчидан, барча инновацион марказларнинг лойиҳалари инқироз муҳитида ва мавжуд муаммоларни бартараф этишнинг бирдан-бир чораси инновациялар эканлигини тушуниб етилганда пайдо бўлади;

Иккинчидан, барча инновацион марказлар амалиётида тўқнашган умумий муаммолар мавжуд. Ўз навбатида ушбу муаммоларнинг ечимига йўналтирилган технология ҳам шаклланган. Булар: бизнес-инкубация, лойиҳани молиялаштириш, инновацион марказ иштирокчиларининг горизонтал алоқалари, технопарк инфратузилмаси, жамоатчилик алоқаларининг шаклланиши, бошқарув ҳамда инновацион менежментнинг намунавий технологиясидир;

Учинчидан, соҳа ва ихтисослик бўйича фан, таълим ва ишлаб чиқаришнинг ўзаро бир-бирини тўлдириши ва тугал интеграциялашуви муҳитидагина инновациялар шаклланишини ҳаётий жараёнлар исботлади.

Албатта, ҳар қандай технология ўзаро боғлиқ бир қатор оддий босқичлардан ташкил топганидек, инновацион марказларнинг фаолияти ҳам ўзаро боғлиқ.

Фойдаланилган адабиётлар

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг фармони. Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида. -Тошкент. Адолат. 2017-1126.

2. А.Х.Алиязаров Олий таълим муассасаларида таълим, фан ишлаб чиқариш интеграциясини ташкил этиш бўйича илмий методик- қўлланма. - Наманган, 2018 й.

3. Жак Ашенбройх. Революционные фундаментальные инновации. Составяние инноваций в 2016. statejfinnovatijn.com

“Ҳаёт фаолияти хавфсизлиги” фанини ўқитиш долзарблиги ва унинг ҳуқуқий асослари

Раззоқов Ҳабиб Холиқович – Самарқанд давлат архитектура –қурилиш институти “Ҳаёт фаолияти хавфсизлиги” кафедраси мудири, т.ф.н., доцент. khabibion_91@mail.ru Тел: +998 91 5245362.

Аннотация. Мақолада таълим тизимида Ҳаёт фаолияти хавфсизлиги фанини ўқитишнинг долзарблиги ва фанини ўқитишнинг меъёрий ҳуқуқий асослари тўғрисида, фаннинг аҳамияти ва ўқитишнинг долзарблиги тўғрисида тўхталиб утилган.

Аннотация. В статье рассматривается актуальность преподавания предмета "Безопасности жизнедеятельности" в системе образования и нормативно-правовые основы преподавания предмета, значимость науки и актуальность преподавания.

Annotation. The article deals with the relevance of teaching the subject of "Life Safety" in the education system and the regulatory framework for teaching the subject, the importance of science and the relevance of teaching.

Калит сўзлар. фавқулдда вазиятлар, Ўзбекистон Республикаси қонунлари, Меҳнатни муҳофаза қилиш, ҲАРАКАТЛАР СТРАТЕГИЯСИ.

Ключевые слова. чрезвычайные ситуации, законы Республики Узбекистан, охрана труда, стратегия действий.

Keywords. emergency situations, laws of the Republic of Uzbekistan, labor protection, action strategy

Аҳоли ва ҳудудларни ижтимоий, табиий, техноген, экологик ва биологик хусусиятга эга бўлган фавқулдда вазиятлар, ҳалокатлар ва бошқа нохуш ҳолатлар ва омиллардан ҳимоя қилиш соҳасидаги давлат сиёсати - жамият барқарор ривожланишининг асосий шартларидан биридир.

Аммо кейинги йилларда кўпгина олий таълим муассасаларида таълим йўналишлари ўқув режаларида касбий фанлар ёки алоҳида курс сифатида ўрин олган "Ҳаёт фаолияти хавфсизлиги" фани тўлиқ ёки қисман чиқариб қўйилган. Асосий сабаб сифатида таълим йўналишидаги касбий ва мутахассис фанларга юкламанинг етишмовчилиги кўрсатиляпти. Аммо Ўзбекистон Республикаси қонунлари ва бошқа меъёрий ҳужжатлар талабларига мувофиқ, ишлаб чиқаришда меҳнат муҳофазаси ва фавқулдда вазиятларда аҳолини ҳимоя қилиш ва хавфсизликни таъминлашга ўргатиш соҳасида аҳолининг барча қатлами камраб олган ҳолда босқичма-босқич ўқитиш ва мажбурийлиги борасида ўз аксини топган.

Ўзбекистон Республикасининг қонуни «Меҳнатни муҳофаза қилиш тўғрисида»ги Ўзбекистон Республикаси Қонунига ўзгартиш ва қўшимчалар киритиш ҳақида (Қонунчилик палатаси томонидан 2016 йил 10 мартда қабул қилинган. Сенат томонидан 2016 йил 25 августда маъқулланган ва 2016 йил 22-сентябрдан амалга жорий этилган) асосан [1]:

17-модда. Меҳнатни муҳофаза қилиш бўйича мутахассисларни тайёрлаш, қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш

Олий ва ўрта махсус, касб-ҳунар таълими муассасаларида меҳнатни муҳофаза қилиш бўйича мутахассисларнинг тайёрланиши белгиланган тартибда таъминланади.

Олий ва ўрта махсус, касб-ҳунар таълими муассасалари иқтисодиётнинг турли тармоқларидаги ишлаб чиқариш ҳамда ижтимоий соҳа хусусиятлари ҳисобга олинган ҳолда талабалар ва ўқувчилар томонидан меҳнатни муҳофаза қилиш курси мажбурий ўрганилишини ташкил этиши керак.

Давлат ва ҳўжалик бошқаруви органлари ҳамда иш берувчилар меҳнатни муҳофаза қилиш бўйича мутахассислар қайта тайёрланишини ва уларнинг малакаси оширилишини таъминлайди.

Меҳнатни муҳофаза қилиш бўйича мутахассисларни қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш тартиби Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси томонидан белгиланади.

Жумладан 2017 йил 7 февралда қабул қилинган «Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналиши бўйича ХАРАКАТЛАР СТРАТЕГИЯСИ» нинг бешинчи йўналишида [2]:

«...атроф-табiiй муҳит, аҳоли саломатлиги ва генофондига зиён етказадиган экологик муаммоларни олдини олиш;

фавқулодда вазиятларни олдини олиш ва бартараф этиш тизимини такомиллаштириш»

ҳаёт фаолияти хавфсизлигини таъминлаш масаласи муҳим вазифа сифатида ўз аксини топган.

«Аҳолини ва ҳудудларни табiiй ҳамда техноген хусусиятли фавқулодда вазиятлардан муҳофаза қилиш тўғрисида» ги қонуннинг 18 моддаси;

Вазирлар Маҳкамасининг 2018 йил 31 декабрда қабул қилинган «Ўзбекистон Республикаси Бандлик ва меҳнат муносабатлари вазирлиги фаолиятини такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида» ги №1066 сонли қарори [3];

Вазирлар Маҳкамасининг 2019 йил 09 сентябрдаги 754-сонли «Аҳолини фавқулодда вазиятларда ҳаракат қилишга ва фуқаро муҳофазаси соҳасида тайёрлаш тартибини такомиллаштириш тўғрисида» ги қарорида барча таълим йўналишларида ўқув дастурларни замонавий талаблар асосида такомиллаштириш ва 2020/2021 ўқув йилидан бошлаб таълим жараёнига жорий этилишини таъминлаш кўрсатиб ўтилган [4].

Жумладан, Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг «2015-2030 йилларда офатлар хавфини камайтириш бўйича Сендай ҳадли дастури» ни Ўзбекистон Республикасида амалга ошириш чора-тадбирлари тўғрисида» қарорни қабул қилиниши, халқаро миқёсда ҳамкорликни амалга оширилишини яққол намунасиدير [5].

Хабарингиз бор, ўз вақтида барча олий ўқув юр்தларининг ўқув режасида ўқитилган “Меҳнат муҳофазаси” фани 1999 йилда “Ҳаёт фаолияти хавфсизлиги” фани билан алмаштирилди. Шу билан қаторда мазкур фан дастуридаги мавзулари фуқаро муҳофазаси ва фавқулодда вазиятлар бўйича мавзулар билан бойитилди. Бунга Ўзбекистон Республикаси Олий ва ўрта махсус таълим Вазирлигининг 2008 йил 28 октябрдаги 318-сонли буйруғи асос бўлди. Буйруқнинг:

“1.2. “Ҳаёт фаолияти хавфсизлиги” фани илмий методологияга асосланган бўлиб, мазкур фан дастури қуйидаги тўрт бўлимни қамраб олиши белгиланган бўлиб:

- *ҳаёт фаолияти хавфсизлигининг назарий асослари;*
- *фуқаро муҳофазаси;*
- *ёнгин хавфсизлиги;*
- *биринчи тиббий ёрдам.*

1.3. “Ҳаёт фаолияти хавфсизлиги” фани давлат таълим стандартларида биноан мос равишда олий таълим муассаларида жами 135 соат, Академик лицей ва касб ҳунар коллежларида 10 соат ҳажмида тавсия этилсин.”

Аммо ҳозирги кунгача ушбу буйруқни юридик ўз кучини йўқотилганлиги тўғрисида тасдиқловчи ҳужжат ҳам мавжуд эмас.

Муболагасиз, Республикамиздаги олий таълим тизими, мамлакатнинг миллий хавфсизлигини таъминлаш, шахс ва жамиятдаги ҳаёт барқарорлиги ва хавфсизлигини таъминлашга алоҳида ўз ўрнига эга эканлигини таъкидлаш лозим.

Шу сабабли олий ўқув юртларида "Ҳаёт фаолияти хавфсизлиги" таълим йўналиши бўйича мутахассисларни тайёрлаш ва уни сифатини ошириш ва кенгайтириш долзарб масалардан бири бўлиб қолмоқда.

Юқоридагилардан келиб чиққан ҳолда, Олий таълим муассалари барча таълим йўналишлари учун (5640100-Ҳаётий фаолият хавфсизлиги таълим йўналиши бундан мустасно) «Ҳаёт фаолияти хавфсизлиги» фанини касбий фанлардан бири сифатида ўқув жараёнига жорий қилиш мақсадга мувофиқдир.

Адабиётлар.

1. Ўзбекистон Республикаси Қонуни. «Меҳнатни муҳофаза қилиш тўғрисида». Тошкент 2016 йил 22 сентябрь. <https://lex.uz/docs/3031427>

2. «Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналиши бўйича ҲАРАКАТЛАР СТРАТЕГИЯСИ». Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 7 февралдаги ПФ-4947-сонли Фармони. <https://lex.uz/docs/3107036>

3. Вазирлар Маҳкамасининг 2018 йил 31 декабрда қабул қилинган «Ўзбекистон Республикаси Бандлик ва меҳнат муносабатлари вазирлиги фаолиятини такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида» ги №1066 сонли қарори. <https://lex.uz/docs/4143044>

4. Вазирлар Маҳкамасининг 2019 йил 09 сентябрдаги «Аҳолини фавқулудда вазиятларда ҳаракат қилишга ва фуқаро муҳофазаси соҳасида тайёрлаш тартибини такомиллаштириш тўғрисида»ги 754-сонли қарори. <https://lex.uz/docs/4508476>

5. Ўзбекистон Республикаси Олий ва ўрта махсус таълим Вазирлигининг 2008 йил 28 октябрдаги ««Аҳолини фавқулудда вазиятларда ҳаракатланишга тайёрлашга оид йўриқнома» ни ўқув жараёнига татбиқ этиш тўғрисидаги» 318-сонли буйруғи.

TALABALARDA XAVFSIZ HAYOTIY FAOLIYAT MADANIYATINI SHAKLLANTIRISHNING PEDAGOGIK IMKONIYATLARI

Akramov X.M.-NamDU, Texnologik ta'lim kafedrası dotsenti.

Sayfitdinov A.S. –NamDU, Texnologik ta'lim kafedrası katta o'qituvchi.

Jahondagi rivojlangan mamlakatlarda ta'lim barqaror taraqqiyotni ta'minlovchi asosiy omil sifatida e'tirof etilib, 2030 yilgacha belgilangan xalqaro ta'lim konseptsiyasida "sifatli ta'lim olish va yoshlarni faol ijtimoiylashtirish" dolzarb vazifa sifatida belgilandi. Bu, o'z navbatida, talaba-yoshlarda farovon xavfsiz hayotini

ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan jadal rivojlantirishga xizmat qiladigan mehnat turlari bilan tanishtirish, ilg'or xorijiy tajribalar va talabalarda xavfsiz hayotiy faoliyat madaniyatini shakllantirishning pedagogik imkoniyatlari ishlab chiqish zaruriyatining yuzaga kelishiga sabab bo'lmoqda.

Dunyoning rivojlangan davlatlaridagi talabalarni xavfsiz hayotiy faoliyat madaniyatini shakllantirishga bag'ishlangan tadqiqotlar tahlili shuni ko'rsatmoqdaki, fuqarolik jamiyatida talabalarda ilmiy tafakkurni shakllantirish jarayoni o'z-o'zidan yuzaga kelmaydi, balki muntazam tarzda maqsadli ravishda olib borilgan pedagogik faoliyat natijasida shakllantiriladi. SHuningdek, mehnat va kasb ko'nikmalari shakllantirishda talabalarni xavfsiz hayotiy faoliyatga yo'naltirish jarayoniga qo'yilayotgan zamonaviy talablar bilan ularning bilim, ko'nikma, malaka va kompetensiyalari, mavjud faoliyat tizimi o'rtasidagi nomutanosiblik jamiyat taraqqiyoti ehtiyojlariga mos kelmasligiga sabab bo'lmoqda. Bu, o'z navbatida, talabalarda xavfsiz hayotiy faoliyat madaniyatini shakllantirish muxim axamiyat kasb etadi.

Bugungi kunda mamlakatimizda izchil islohotlar natijasida yurt istiqboli uchun mas'uliyatni o'z zimmasiga olishga qodir, tashabbuskor, shijoatli yoshlarni tarbiyalash bilan bir qatorda ularda xavfsiz hayotiy faoliyat madaniyatini shakllantirishning pedagogik imkoniyatlari kengaytirish zarurati mavjud. O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasida "jismonan sog'lom, ruhiy va intellektual rivojlangan, mustaqil fikrlaydigan, qat'iy hayotiy nuqtai nazarga ega, Vatanga sodiq yoshlarni tarbiyalash, demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish jarayonida ularning ijtimoiy faolligini oshirish" kabi yo'nalishlar belgilangan bo'lib, bu o'z navbatida mazkur jarayonni tadqiqiy va tahliliy yo'nalishga ega bo'lgan didaktik tizim sifatida ko'rib chiqish zaruratini izohlaydi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947-son Farmoni, 2019 yil 29 apreldagi "Xalq ta'limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish Kontseptsiyasi" to'g'risidagi PF-5712-sonli Farmoni, hamda mazkur sohaga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda muayyan darajada xizmat qiladi.

Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. "Demokratik va huquqiy jamiyatni ma'naviy-axloqiy va madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish" ustuvor yo'nalishi doirasida bajarilgan.

Respublikamizda talabalarni mehnat va kasb ko'nikmalari bilan qurollantirish, yoshlarni kasb-hunar o'rgatishda o'zbek xalqiga xos an'analardan foydalanish, talabalarida xavfsiz hayotiy faoliyat madaniyatini shakllantirishning imkoniyatlari masalalari bo'yicha M.Tojiev, I.Nigmatov, M.IIhomov, A.Boymirzaev, R. Bakirov, A. Dehqonov, M. Tinibekov, Azimov A., X. Komilov, O.Husanova, N Saidxanova, F.Mingulova, L.Galimovalarning izlanishlarida kuzatishimiz mumkin.

SHu bilan bir qatorda ko'nikmalarini shakllantirish orqali talabalarni xavfsiz hayotiy faoliyat madaniyatini rivojlanish ijtimoiy rivojlantirish muammolari ko'plab xorijiy tadqiqotchilar ushbu masalaga e'tibor qaratishgan (A. Adler, P. Maslow, B.

Paskal, G. Ford, 3. Freyd, E. Fromm, V.G. Aseev, L.I. Bozovich, A.R. Luriya, S.L.Rubinshtein, B.M.Teplov, V.D. Shadrikov).

V.I. Bachevskiy, E.N.Litvinov, V.V.Polyakov, Yu.V.Repin, A.G. Rixnov, V.A.Sereda, A.T.Smirnov, M.P.Frolov, R.A. Shabunin va boshqalar xavfsiz turmush tarzini qabul qilish uchun talabalarning ijobiy faoliyati sabablari asoslashgan.

Sog'lom turmush tarzini shakllantirish va pedagogik valeologiyani rivojlantirish nuqtai nazaridan tarbiyalash tizimida shaxsni shakllantirish kontseptsiyasi (O. A. Aleksandrov, I. I. Brexman, O. V. Grinina, G. K. Zaitsev, D. I. Kicha, V. V. Kolbanov, YP Lisitsin, VA Lishchuk, AV Saxno, IN Smirnov, GI Tsaregorodtsev); ta'limni insonparvarlashtirish jarayonida ijodiy shaxsni shakllantirishning pedagogik kontseptsiyalari (V.I. Andreev, N.V. Kuzmina, Yu.N. Kulutin, I.P. Rachenko, V.A. Slastenin, E.N. Shiyanov); ta'lim mazmunini shakllantirishga integratsion yondashuv g'oyalari (A.G. Asmolov, N.N. Trubaneva, V.M. Filatov, E.N. Shepel), ta'limda integratsiya tamoyilini amalga oshirish (M.N.Berulava, T.G. Brazhe, A.Ya.Danilyuk, AV Kiryakova, V.P. Kaznacheev, J. Piaget, Yu.S. Tyunnikov, A.O. Usova) muammolari o'z ishlarida yoritishgan.

Sog'liqni saqlash va hayotni saqlash sohasida amaliy ko'nikmalarni shakllantirishda o'qitishning interaktiv usullaridan foydalanish g'oyalari (D.N. Kavtaradze, V.Ya.Syunkov, L.I.Shershnev, I.A. Shegolevlar ilgari surishan. Shaxsga yo'naltirilgan, ijtimoiy-madaniy, shaxsni rivojlantiruvchi ta'lim va tarbiyalashning ijtimoiy-pedagogik texnologiyalarini tahlilini (V.V.Davidov, A.A. Derkach, V.P. Zinchenko, L.V. Zankov, N.F. Maslova, N.D. Nikandrov, D.B. Elkonin) o'z ishlarida yoritishgan.

Talabalarda **xavfsiz hayotiy faoliyat madaniyatini shakllantirishning pedagogik imkoniyatlari**, ularning kasb ko'nikmalarini tadqiq etish yuzasidan turli soha olimlari tomonidan ilmiy izlanishlar amalga oshirilgan bo'lsa-da, biroq pedagogika fanida bu borada o'zining mantiqiy yechimini topmagan muammolar mavjud. Jumladan, **talabalarida xavfsiz hayotiy faoliyat madaniyatini shakllantirishning pedagogik imkoniyatlarini** ishlab chiqilmaganligi bu borada chuqur ilmiy yondashuvlar, yangi bilimlarga bo'lgan ehtiyoj yuzaga kelganligini ko'rsatmoqda. SHu sababli pedagogik yo'nalishlar talabalarida xavfsiz hayotiy faoliyat madaniyatini shakllantirish jarayoni mazmunini aniqlash va takomillashtirishni o'z oldimmizga maqsad qilib:

o'qitishda talabalarda xavfsiz hayotiy faoliyat madaniyatini shakllantirish modelini yaratish;

ilg'or xorijiy va tarixiy tajribalar asosida talabalarda xavfsiz hayotiy faoliyat madaniyatini shakllantirish jarayonining mazmuni, shakllari, vositalari, usul va metodlarini tanlash;

o'quv-ishlab chiqarish majmualarida amalga oshiriladigan pedagogik jarayonlar orqali talabalarda xavfsiz hayotiy faoliyat madaniyatini shakllantirishga yo'naltirilgan ilmiy-metodik tavsiyalar ishlab chiqishni qo'ydik. Bunda :

talabalarda xavfsiz hayotiy faoliyat madaniyatini shakllantirish fani mazmunini aniqlash, ilg'or xorijiy va tarixiy tajribalarni integratsiyalash va mashg'ulot mazmunini ehtiyojlarni hisobga olishga yo'naltirish asosida takomillashtirish;

talabalarda xavfsiz hayotiy faoliyat madaniyatini shakllantirishning mazmuni, ularning individual xususiyatlarini hisobga olgan holda faollashtiruvchi metodlarini qo'llash;

Fanni o'qitishda talabalarda xavfsiz hayotiy faoliyat madaniyatini shakllantirish omillar (atrof-muhitdagi ishlab chiqarish munosabatlari, ijtimoiy-demografik munosabatlar, oila a'zolarining kasbiy savodxonligi, shaxsning ijodiy layoqatlari, psixologik maslahatlar, sinf rahbarining yo'naltiruvchi funktsiyasi, maktabda o'qitiladigan fanlar)ning ijobiy ta'siri asosida kasbiy xavfsiz hayotiy faoliyat madaniyatini shakllanganlik ko'rsatkichlari aniqlash;

talabalarda xavfsiz hayotiy faoliyat madaniyatini shakllantirishga yo'naltirilgan maktablarda amalga oshiriladigan pedagogik jarayonlarni kreativ, evristik, faoliyatli yondashuv asosida tashkil etishga oid ilmiy-metodik tavsiyalar ishlab chiqish.

Yuqorida ko'rsatilgan ishlarni amalga oshirilsa, biz o'ylaymizgi, talabalarda xavfsiz hayotiy faoliyat madaniyati va shu bilan birga umumiy madaniyat xam rivojlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947-son Farmoni.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 29 apreldagi "Xalq ta'limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish Kontsepsiyasi" to'g'risidagi PF-5712-sonli Farmoni.
3. Mikryukov V.Yu. Obespechenie bezopasnosti jiznedeyatel'nosti. V 2 kn. Kn. 1. Lichnaya bezopasnosts: Ucheb. posobie. — M.: Vyssh. shk., 2004. 479 s.
4. Yuldoshev O'., Raximov O.D. Hayot faoliyat xavfsizligidan amaliy mashg'ulotlar. – Toshkent, TDTU, 2010y.
5. Nigmatov A., Muxamedov SH., Xasanova N. Haet faoliyati xavfsizligi va ekologiya menejmenti (chizmalar, tushunchalar, faktlar va raqamlarda): darslik /– T.: Navro'z. 2014. – 199 b.

ЎҚУВЧИЛАРНИНГ ИЖОДКОРЛИК ҚОБИЛИЯТИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ МАСАЛАЛАРИ

И.Каримов, Қўқон ДПИ профессори в.б., п.ф.н.

Мазкур мақолада ўзбекистонлик, россиялик ва америкалик айрим тадқиқотчиларнинг ўқувчилар ижодкорлик қобилиятларини ривожлантириш борасидаги қарашлари келтирилган ва таҳлил қилинган.

В статье изложены некоторые методические рекомендации исследователей из Узбекистана, России и Америки по организации творческой работы учащихся.

This article presents and analyzes the views of some Uzbek, Russian and American researchers on the development of students' creative abilities.

eywords: In the state of some methodical recommendations of researchers from Uzbekistan, Russia and the United States on the organization of creative work students.

Педагогик адабиётларни, шу жумладан, диссертацияларни ўрганиш натижалари шуни кўрсатадики, ўқувчиларнинг ижодий қобилиятларини ривожлантириш бўйича кўпгина тадқиқотлар ўтказилган бўлиб, уларда ўқувчиларнинг ижодий фаолиятини ташкил этишнинг турли хил шакл ва усуллари очиб берилган. Ўрганилган тадқиқот ишларида ижодий фаолият орқали шахсни тарбиялашда катта имкониятлар мавжудлиги таъкидланган. Психологияга оид адабиётларда таъкидланишича, умумий ҳолда **фаолият** деганда кишининг англаниган мақсад билан бошқарилиб туриладиган ички (психик) ва ташқи (жисмоний) фаоллигига айтилади [6]. Инсон фаолиятининг мазмуни шу фаолиятни вужудга келтирадиган эҳтиёжларнинг бир ўзи билан эмас, балки фаолият мотивлари билан белгиланади. Мақсадга эришиш фаоллигини талаб қилади, фаоллик эса ирода билан боғлиқдир. Шунинг учун ҳам фаолият воқеаликка бўлган фаол муносабатларнинг шундай шартидирки, бунда яшаб турган одам ва олам ўртасида реал алоқа ўрнатилади. Фаолият ўйин фаолияти, таълим фаолияти ва меҳнат фаолияти турларига бўлинади. Ўйин фаолияти ҳаракатли ва ақлий ўйинлардан ташкил топади. Таълим фаолияти эса субъектнинг ўрганиш мақсад қилиб олинган ўзига хос фаолият бўлиб, бу фаолият билим олиш, кўникма ва малакалар ҳосил қилиш билан яқунланади. Меҳнат фаолияти бу – маълум бир ижтимоий фойдали моддий ёки маънавий маҳсулотни ишлаб чиқаришга йўналтирилган фаолият туридир.

Ижодий фаолият ёки ижодкорлик фаолияти эса анча кенг маънодаги тушунчадир. Бу фаолият меҳнатнинг ижодий йўналиши (меҳнатни ташкил этиш, унинг мазмуни, усулларини тадқиқ этиш) билан тавсифланади. Ижодий фаолият ечими илгари маълум бўлмаган масалаларни қўйишни ёки фикрларни шакллантиришни тақозо этади. Муаммони ечишга қаратилган ижодий фаолият муаммонинг ечимларини топиш, таққослаш ва танлаш – изланувчанлик кўринишига эгадир [6].

Маълумки, ихтирочилик, рационализаторлик тақлифи – ижодий фаолиятнинг, ижодкорликнинг муҳим кўринишидир. **Ихтиро** деганда халқ хўжалиги ёки мамлакат мудофааси учун фойдали бўлган, тубдан фарқ қилувчи техник ечимга эга бўлган янгилик тушунилади. **Рационализаторлик тақлифи** эса илгаридан маълум бўлган ихтироларни маълум бир корхона, муассаса фаолиятига жорий этиш билан боғлиқ бўлган, юқори самара берадиган (материаллардан, вақтдан иш кучидан, иқтисод қилишга ёки маҳсулот сифатини оширишга қаратилган) янгиликдан иборат [7]. Шу боисдан бўлса керак ижодкорлик масаласи кўпдан бери тадқиқотчиларнинг диққат марказида бўлиб келмоқда. Турли вақтларда турли соҳа тадқиқотчилари, масалан, педагоглар, психологлар, физиологлар, социологлар ва бошқалар ижодий фаолият жараёнининг турли аспектларини – кирраларини ўргандилар ва бу соҳанинг ўзига хос қонуниятларини очдилар. Масалан, рус олимлари И.П.Павлов ва И.М.Сеченовларнинг таълимотига кўра, ижодкорлик физиологик-психологик асосга эга бўлиб, ўзига хос мураккаб психологик жараёни ташкил этади. Физиологларнинг нуқтан назарича, ижодий

ғоя инсон мия-асаб фаолиятининг янги тизими ҳисобланади. И.П.Павловнинг аниқлашчи, олий мия-асаб тизими ташқи воқеа-ҳодисаларни ва турли нарсаларни фақатгина қабул қилувчигина эмас, балки уларни аналитик-синтетик таҳлил этиш хусусиятига ҳам эгадир [5]. Бунинг натижасида турли хил воқеа-ҳодисаларнинг, буюмларнинг фарқини, алоҳида томонларини, ўзига хос хусусиятларини, шартли боғлиқлик томонларини ажратиш имконияти юзага келади. Бу эса ўз навбатида инсонга буюм ва ҳодисалардаги янги ўхшашликларни илғай олиш, олдиндан маълум бўлган тушунчалар асосида уларга турли хил янгича қарашларни юзага келтиришда қўл келади. Бундай қарашларнинг вужудга келиши эса турли объектлар ва бошқа буюмларни лойиҳалаш, тайёрлаш жараёнлари билан боғлиқ бўлган ижодий фаолият учун асос бўлиб хизмат қилади. Умуман олганда, ижодий фаолият ёки ижодкорлик ниҳоятда кенг тушунча бўлиб, у илмий, бадий, техник, амалий ижодкорлик каби соҳаларга бўлиниб кетади. Ижодий фаолиятнинг бу соҳалари умумий асосга эга бўлган ҳолда ўзига хос хусусиятларга ҳам эгадир. Жумладан техник ижодкорлик ҳам ўзига хос хусусиятларга эга. Масалан, атоқли психолог С.Л.Рубинштейн ихтирочиларнинг фаолиятини таҳлил этиб, шундай фикр билдирган эди: “Ихтирочиларнинг бошқа ақлий фаолиятлардан ажратиб турадиган хусусияти шундан иборатки, бунда маълум муаммони ҳал этадиган аниқ буюм, механизм ёки усулни яратиш туради. Ихтирочининг ижодий ишини ўзига хослиги воқеа ва ҳодисалар жараёнига қандайдир янгилик киритиши билан аниқланади” [8]. Ижодкорлик жараёнида инсоннинг асаб-мия тизимига хос бўлган, мавжуд вақтинчалик маълумотларни умумлаштиришга ва янгиларини яратишга имкон берадиган хусусиятлари яққол намоён бўлади. В.С.Василейский, Г.В.Кирия, А.Н.Лук, Е.А.Милерян, Б.М.Теплов, П.М.Якобсон каби психологлар томонидан олиб борилган тадқиқотларга кўра ижодий жараён ўзига хос маълум қонуниятлар асосида юз беради. Жумладан П.М.Якобсон ҳам ихтирочиларнинг фаолиятини ўрганар экан, “ҳар қандай қутилмаган ички четланишлар маълум қонуниятлар асосида юзага келади”, - деган фикрни билдирган эди [9]. Академик Б.Кедровнинг ёзишича, ижодкорлик – билиш жараёнида инсон онгида юзага келадиган психологик тўсиқларни енгиб ўтишдан иборат [1].

Шундай қилиб, ижодий фаолият фавқуллодда мураккаб психологик жараён бўлиб, бир қатор ички ва ташқи, объектив ва субъектив омиллар, хусусиятлари билан ифодаланади. Буларга ижодий жараённинг турли босқичларида ақлий фаолиятнинг, ички туйғу (интуиция) ва ҳаёлот (фантазия)нинг ривожланганлиги қай даражада эканлиги қабиларни кўрсатиш мумкин.

Инсоннинг ҳар қандай соҳадаги, жумладан, ижодий фаолиятдаги ютуғи энг аввало ундаги мавжуд қобилиятларга боғлиқ эканлиги сир эмас. Чунки қобилият – инсоннинг маълум ишларни бошқаларга ва бошқа ишларга нисбатан тез ва қулай амалга оширишига имкон берувчи ўзига хос шахсий психологик хусусиятидир.

Педагогика ва психология фанларидан маълумки, қобилият инсонда туғма ҳолда юзага келади. Кейинчалик бирор фаолият орқали бу қобилиятлар шакллантирилади ва ривожлантирилади. Ижодий қобилият, бу қобилиятнинг

даражаси, уни ривожлантириш ҳар бир инсоннинг шахсий рухий ҳолати, ташаббусқорлиги, мустақиллиги билан чамбарчас боғлиқдир. Айрим тадқиқотчилар ижодқорликни ахлоқий ва ғоявий қарашларни тез ўзлаштириш имконини беради, деб таъкидлайдилар. Демак, юқоридагилардан кўринадики, ўқувчиларнинг ижодий ишларини, ижодий фаолиятини ташкил этиш мураккаб жараён бўлиб, бу жараённинг ўзига хос педагогик ва психологик жиҳатлари, томонлари мавжуддир. Жумладан, психологик жиҳат инсондаги маълум ижодий қобилиятнинг юзага келиши ва ривожланиши (масалан, бирор фикрни ўзгартириш, бошқа соҳада қўллаш олиш; муаммони кўра олиш ва баҳолаш; объектнинг тузилишини идрок қилиш; маълум нарсаларни четлаб ўтиб янгича ёндашиш усулларини яратиш; стандарт ҳолатни янгича кўра олиш; ҳодисалардаги янги боғлиқликларни топиш ва х.) дан иборат бўлса, педагогик жиҳат муайян ижодий фаолиятга жалб этиш, бу фаолиятнинг мазмуни, уни ташкил этиш усуллари ва шароитларини ишлаб чиқиш, бу фаолиятнинг инсонга кўрсатган таъсирини ўрганишдан иборат. Юқорида таъкидланганидек, ижодқорлик тушунчаси кенг қамровли бўлиб, ижодқорлик деганда инсоннинг эҳтиёжлардан келиб чиққан ҳолда табиий ва маънавий дунёни ўзгартириш фаолияти тушунилади. Демак, ижодқорлик инсоннинг янгилик яратиш, илгари мавжуд бўлмаган нарсаларни яратиш, қонуниятларни очиш, уларни сифат жиҳатдан янгилаш соҳасидаги фаолиятидир. Биз ўқувчиларнинг ижодқорлик фаолияти деганда айнан уларнинг янгилик ёки унинг элементларини яратиш ва уни қўллашга онд фаолиятини ифодалашни тушунаемиз [2].

Ижодқорликка бўлган эҳтиёж, психофизиологик жиҳатдан қаралганда, ўз ривожланишида бир нечта босқичларда амалга ошади. Булардан биринчиси майл бўлиб, у эҳтиёжнинг энг содда шакли ҳисобланади ва инсон томонидан онгли бошқарилади. Иккинчи, нисбатан юқорироқ ривожланиш босқичи бўлган ҳавас ҳам инсон томонидан онгли бошқарилиб, у шахснинг маълум буюм ёки ҳодисага нисбатан муносабатлари мажмуасини ифодалайди. Учинчи, энг мураккаб босқич бўлган қизиқиш эса хоҳиш ва у билан боғлиқ бўлган тушунчалар асосида юзага келади. Қизиқиш ҳаётдаги ташқи таъсирлар, шахс фаолияти ҳамда таълим-тарбия жараёни таъсирида шаклланиб боради. Бу ҳолатлар психологик омиллар – диққат, идрок, тушунча, хотира, фикрлаш, сезги ва ирода хислатларига сезиларли таъсир кўрсатиб, шахснинг шаклланишида алоҳида муҳим аҳамият касб этади.

Бир қатор олимларнинг тадқиқотлари натижаларига кўра ихтирочилик ғояларини ишлаб чиқишдан то расмийлаштиришгача бўлган даврни амалга оширишда, ундаги жараёнларнинг муҳимлиги, мураккаблиги ва аҳамиятига боғлиқ ҳолда фикрлаш жараёни турли даврларда амалга ошиши аниқланган. Бу ўринда энг катта қийинчиликлар аниқ, ҳақиқатда мавжуд буюм ва кўрсаткичлардан абстракт, яратилажак мавҳум моделларга ўтиш ва назарий тажриба-синов ишларини бажариш билан боғлиқ бўлади.

Мана шу кўрсатмаларни бевосита ўқувчилар фаолиятига ҳам татбиқ этиш мумкин. Ўқувчилар технология фани машғулотида материалларга ишлов бериш жараёнида буюмларни лойиҳалаш, конструкциялаш, моделлаштириш ишларини бажаради. Бундай вазиятларда ўқувчилардан мустақил фикрлаш,

мустақил ишлай олиш, ижодкорлик талаб қилинади. Ўқувчилар ўзлари яратаётган буюмларни кундалик ҳаётдаги ўрни, аҳамияти, яратилшдан мақсади, уни такомиллаштириш масалалари юзасидан ҳам мустақил фикр юрита олишлари лозим. Мана шу ҳолат ўқувчиларида мустақил фикрлаш, ўз қобилиятларини имкон даражасида намоён этиш меҳнатга ижодий ёндошиш, яратувчанлик кўникма ва малакалари шакллантирилса, кейинги синфларда ижодий ишларда учрайдиган муаммоларни осонгина бартараф эта оладилар. Ўқувчилар юқори синфларда мураккаб буюмларни лойиҳалашда, конструкциялашда, моделлашда технология дарсларида 5-7-синфларда олган билим, кўникма ва малакалари ёрдамида мустақил ижод қила одилар. Бу эса бозор иқтисодиёти даврида ишлаб чиқаришнинг асосий талаби эканлигини англатади.

Мазкур муаммо бўйича адабиётларни, диссертацияларни ўрганар эканмиз, таълим-тарбия ишлари жараёнида ўқувчиларда ижодкорлик қобилиятларини ривожлантириш масалалари деярли юз йилдан бери муҳим педагогик муаммолардан бири сифатида ўрганиб келинаётганлигини кўриш мумкин. Айниқса, 1950-60 йилларда америкалик олимлар томонидан мазкур масала кенг ўрганилган. Жумладан Д.Ж.Гилфорд, М.Воллач, Р.Коган, П.Торренс ва бошқалар томонидан ўқувчиларда ижодкорлик қобилиятларини ривожлантириш бўйича айрим назариялар яратилган эди. Ўқувчиларнинг ижодкорлик қобилиятлари бўйича олиб борилган тадқиқотлар натажасида ўтган асрнинг 60-йилларида америкалик тадқиқотчилар шундай хулосага келадилар: *ижодий қобилиятлар таълим олишдаги қобилиятларга ўхшамайди, яъни синоним эмас. Шу билан бирга таълим олишдаги қобилият ва ижодий қобилиятни инсоннинг умумий ақлий салоҳияти билан боғлиқлиги ҳам бир хил эмас.* Бундан келиб чиққан ҳолда Гилфорд ижодкорлик қобилиятини универсал қобилият сифатида қарайди ва уни *креатив* деган ном билан атайди. Гилфорд инсоннинг ижодий фикрлаш жараёнини иккита типга ажратади:

1. *Конвергент фикрлаш (тафаккур қилиш).* Бу фаолият турида масала моҳиятини изчил, мантикий ўрганиш орқали ягона ечим топилади.

2. *Дивергент фикрлаш (тафаккур қилиш).* Бу фаолият турида масалага бир неча муқобил ечимлар, қутилмаган ҳолатлар, ички ҳиссиёт асосида ечим топилади [12].

Гилфорднинг фикрича ижодкорлик фақатгина талантли, буюк шахсларгагина эмас, балки, оддий, нормал ҳолдаги ҳар бир инсонга хос бўлган хусусиятдир. Бу фикрни ўзларининг илмий тадқиқотларида Г.Я.Буш, Д.Б.Богоявленская, Л.А.Волович, М.Г.Давлетшин, Ф.Джумабоева, Т.В.Кудрявцев, А.Н.Лук, З.Т.Нишонова каби тадқиқотчилар ҳам тасдиқлаган. Таниқли ўзбек психолог олими Э.Ф.Фозиевнинг фикрича ижодкорлик ишларида тафаккурнинг мустақиллиги катта аҳамиятга эга. "Тафаккурнинг мустақиллиги деганда, - деб таъкидлайди профессор Э.Ф.Фозиев, - кишининг шахсий ташаббуси билан ўз олдига конкрет мақсад, яъни вазифалар кўя билиши, улар юзасидан амалий ва илмий характердаги фараз (гипотеза)лар қилиш, натижани кўз олдига келтира олиш, қўйилган вазифани ҳеч кимнинг кўмагисиз, кўрсатмасисиз, ўзининг ақлий изланиши туфайли турли йўл, усул ва воситалар топиб мустақил

равияшда ҳал қилишдан иборат ақлий қобилиятини тушуниш керак” [11]. Таниқли психолог Т.В.Кудрявцевнинг фикрича, техник тафаккур техник ижодкорликнинг асосини ташкил этади. У техник тафаккурни масала моҳиятини англаш ёки тушуниш, уни ҳаёлан тасаввур қилиш ва амалда бажара олиш қобилиятларидан иборат, деб ҳисоблайди [3]. Демак, юқоридаги фикрларга асосланиб, шуни айтиш мумкинки, ижодкорлик фаолиятининг натижаси болалар ва катталардаги тафаккур доирасига боглиқ экан. Тафаккур доираси қанча кенг бўлса, мустақил бўлса, ижодкорлик фаолияти ҳам шунча юқори савияда бўлади.

Америкалик яна бир тадқиқотчи Поль Торренс эса ижодкорликни етишмовчиликларни бартараф этиш воситаси сифатида қарайди ва ижодкорликнинг қуйидаги босқичларини кўрсатади: муаммони тушуниш, англаш; муаммога ечим излаш; муаммо ечиминини топишга қаратилган ғояни яратиш ва ифодалаш; ғояни мослаштириш; натижани топиш [16].

Мазкур ғояларни ижодий давом эттирган ҳолда кейинги пайтларда ҳам бир гуруҳ америкалик тадқиқотчилар томонидан ўқувчиларнинг ижодкорлик қобилиятларини ривожлантириш масалалари ўрганиб келинмоқда. Жумладан Колорадо давлат универсисети тадқиқотчиси М.А.Моррел ўзининг илмий ишида ёшларда ижодкорлик кўникмаларини шакллантириш ҳақида фикр юритиб, Жан Пеаджетнинг “Когнитив ривожланиш” назариясига асосланган ҳолда “Ўқувчиларнинг ижодкорлик кўникмалари уларнинг когнитив ривожланиб боришига боглиқ” деб, ҳисоблайди [15]. Яъни Пеаджетнинг “Когнитив ривожланиш” назарияси бўйича болалар билимларни ўзларининг шахсий тажрибаларини тушуниш орқали эгаллай бошлайди. Бола ўсган сари унинг ўз тажрибаларидан олган билим ва кўникмалари ҳамда тушунишларига бўлган қобилияти ўзгариб, ривожланиб боради. Ҳар бир бола ўзининг тажрибаси билан англаб етиш қобилиятининг интерфаол алмашинуви натижасида улғайиб боради. Ж.Пеаджет болаларнинг ёшларини ҳисобга олган ҳолда бу жараёни 4 босқичга бўлган:

1-босқич. Бу босқич сенсоримотор босқичи деб аталади. Бунда бола туғилгандан бошлаб 2 ёшгача бўлган даврдаги шаклланиш жараёнида маълумотларни нарсаларга тегиниш орқали ўрганиб боради.

2-босқич. Бу босқич преоперацион босқич деб номланган бўлиб, бундаболада 2 ёшдан 7 ёшгача бўлган даврда символли маълумотлар, белгилар ёки шунга ўхшаш ишоралар билан ишлаш қобилияти шаклланади.

3-босқич. Бу босқич аниқ операцион босқич бўлиб, бунда болада 7 ёшдан 11 ёшгача бўлган даврда аниқ маълумотлар устида мантиқий фикрлаши ошиб боради.

4-босқичда эса 11 ёшдан бошлаб, яъни ўсмир ёшдаги болалар энди нафақат аниқ маълумотлар устида, балки тасаввурдаги ёки абстракт маълумотлар устида ҳам ишлай бошлайди [15].

Босқичлар ўртасида фарқлар болаларнинг ёши, уларнинг фикрлаши ва билим эгаллаш қобилиятига қараб ўзгариши мумкин. Болалар фақат ўзлари тушуниб еча оладиган маълумотлардан фойда олишлари мумкин. Бу маълумотлар уларнинг билимини ошишида ва ўқиб олишида етакчи восита ёки манба бўлиб хизмат қилади.

Бошқа бир тадқиқотчи – Лиза Майер эса (Виржиния политехника университети, АҚШ) PhD доктори илмий даражасини олиш учун ёзган диссертациясида ўқувчиларга бериладиган амалий топшириқларни реал ҳаётда учрайдиган муаммолардан олиш кераклигини таъкидлаб ўтган [13]. Бинобарин кундалик турмушда учрайдиган амалий топшириқларни ечиш ўқувчиларнинг ижобий натижаларга эришишида энг муҳим воситаларлардан бири ҳисобланади. Таълим масканлари дарсликлариди эса мураккаб ва аниқ қонун-қоидаларга асосланган топшириқлар берилди. Бу топшириқлар кундалик турмушда учрайдиган муаммоларга ўхшамайди. Бу ҳолат эса ўқувчиларни чалғитиши, зериктириши ёки уларда қизиқиш уйғотмаслиги мумкин.

Шунингдек, россиялик тадқиқотчиларидан Г.С.Альтшуллер, П.Н.Андрянов, А.В.Андренко, Ю.Г.Бельмач, О.А.Белякина, Р.У.Богданова, Д.Б.Богояв-ленская, Г.Я.Буш, В.А.Горский, Д.П.Ельников, В.И.Коваленко, В.В.Куленёнок, Д.М.Комский, В.Г.Разумовский, Н.С.Сайниев, Ю.С.Столяров, И.А.Торопов, Е.Е.Туник, О.В.Шелякина; Ўзбекистонлик тадқиқотчилардан Б.Адизов, В.Е.Алексеев, А.Алиев, Н.Алимов, Н.А.Бекмуратова, А.П.Худойберганов, Ш.С.Шарипов ва бошқаларнинг илмий тадқиқот ишларида ҳам ижодкорлик, хусусан ўқувчилар ижодкорлик фаолиятини ташкил этишнинг турли томонлари очиб берилган. Булардан, айниқса, Ш.С.Шариповнинг “Ўқувчилар касбий ижодкорлиги узвийлигини таъминлашнинг назарияси ва амалиёти” мавзусида ёзган докторлик диссертацияси бизда катта қизиқиш уйғотди [10]. Диссертант мазкур илмий ишида ўқувчиларни ижодкорликка ўргатишни мактабдан бошлаб, уларнинг бу фаолиятини мактабдан кейинги таълим муассасаларида – КХҚларида ҳам давом эттириш керак, деган ғояни илгари суради. Яъни ўқувчиларнинг ижодкорлик ишларини узлуксиз давом эттириш зарурлигини таъкидлайди. Шу мақсадда диссертацияда зарур кўрсатмалар ва тавсиялар берилган.

Маълумки, ҳар қандай ижодкорлик фаолиятининг пировард натижаси бирор янгилликни, ихтирони кашф этиш билан тугайди. Мазкур янгиллик ўз мазмунига кўра объектив (ҳамма учун янгиллик), субъектив (фақат ўзи учун янгиллик), хусусий (фақат ўзи ёки алоҳида-алоҳида ҳолда фойдаланиш) ва умумий ёки ижтимоий (бутун жамият ёки кўпчилик фойдалана оладиган) кўринишларда бўлади [7]. Агар катталарнинг ижодий фаолияти кўпинча объектив ва ижтимоий кўринишдаги янгилликларни кашф этиш билан тугалланса, ўқувчилардаги бундай ижодий фаолият натижалари эса кўпинча субъектив ҳамда хусусий кўринишдаги янгилликларни яратиш билан ниҳоясига етади. Шунини алоҳида таъкидлаш зурурки, айрим ҳолларда ўқувчиларнинг ижодий фаолияти ҳам объектив янгилликларни яратиш билан боғлиқ бўлиши мумкин. Шунга кўра болалардаги, яъни ўқувчилардаги ижодкорлик қобилиятини шартли равишда уч хил даражага бўлиш мумкин:

1-даража – *қуйи даража*. Бунда ўқувчилар томонидан топиладиган янгилликлар асосан субъектив кўринишда бўлади. Яъни бунда ўқувчилар илгаридан маълум бўлган янгилликларни бошқатдан “кашф” этадилар. Натижада бу янгиллик фақат шу ўқувчининг ўзи учунгина янгиллик бўлади. Бирок бу жараён ҳам осон кечмайди. Чунки мазкур жараёнда ҳам ўқувчи кучли психологик

ҳолатларни – масала моҳиятини тушуниш, англаш, тасаввур этиш, масала ечимини қидириш, айрим ечимларни таққослаш каби жараёнларни бошидан кечиради. Шу сабабли, гарчи, натижа илгаридан маълум бўлса ҳам, айнан шу натижага келяшнинг ўзиёқ ўқувчида келгусида уни объектив ижодий фаолиятга ўтиши учун замин вазифаси бўлиб хизмат қилади.

2-даража – *ўрта даража*. Бунда ўқувчилар томонидан топилган янгиликлар ҳам субъектив, ҳам объектив кўринишларда бўлади. Яъни бу даражага эришган ўқувчиларда янгилик яратиш усулларини бир мунча яхши эгаллаганлик, янгилик яратиш соҳасида бир мунча тажрибалар ҳосил тўпланган ҳолатларини кузатишимиз мумкин. Шу даражага эришган ўқувчиларга келгусида яхши эътибор берилса, уларнинг ижодкорлик қоби-лиятлари янада ривожлантирилса – улар айрим қийинчиликларни енгиб ўтиб, учинчи, яъни энг юқори даражага чиқа оладилар.

3-даража – *юқори даража*. Бунда ўқувчиларнинг топган янгиликлари асосан объектив кўринишида бўлади. Бироқ бу даражага эришиш осон эмас. Бунинг учун аввало ўқувчининг ўзида интилиш, қизиқиш бўлиши, ўқитувчи эса буни ўз вақтида пайқай олиши ҳамда ўқувчининг ижодкорлик қобилиятини ўстириш тadbирларини амалга ошириб бориши керак.

Маълумки, V-VII синфларда технология фани бўйича ўқув дастурида ўқувчиларнинг иш усулларини ўрганишлари ва меҳнат малакаси ҳосил қилишлари учун турли хил амалий машғулотлар ўтказиш ва буюмлар ясаш кўзда тутилган. Маълумки, бу синфларда, янги ўсмирлик даврида айни бир хил ёшдаги ўқувчилар ўзларининг ақлий ва жисмоний ривожланиш хусусиятларига кўра турлича тушуниш, фикрлаш ва иш бажариш қобилиятларига эга бўладилар. Буни айниқса, амалий ишларни бажаришда ҳисобга олиш зарур. Шу сабабли технология фани дарсларида ўқувчиларнинг амалий, ижодий ишларини ташкил қилишда улар томонидан тайёрланадиган буюмларни тузилиши, уларнинг қисмларини бириктириш усуллари, уларни тайёрлашда ишлатиладиган материалларнинг, иш асбоблари ва иш усулларининг турлари ҳамда сонига қараб қуйидаги 5 та тоифага ёки даражага бўлиб олиш мақсадига мувофиқдир:

1. Бир деталли энг оддий буюмлар. Буларга кўрсаткич таёқча, қистирма, чизгич, зулпин каби буюмларни киритиш мумкин.

2. Бир-икки хил материалдан қилинадиган кўп деталли оддий бирикмали буюмлар. Буларга куракча, қутича, замбил, пол ювгич (швабра), нутромер, кронциркуль каби буюм ва асбобларни кўрсатиш мумкин.

3. Бир ёки бир неча хил материаллардан қилинган кўп деталли, мураккаб бирикмали буюмлар. Буларга сурат ромчалари, ром, эшик, дарвоза, курси, сандиқ, сандал каби буюмларни мисол қилиб кўрсатиш мумкин.

4. Оддий механизмли буюмлар. Буларга дастаки – қўл тискилари, винтли қотиргичлар, коловорот кабилар мисол бўлади.

5. Ҳаракатланувчи буюмлар ва радиоқурилмалар. Бу тоифага механик ёки электр қурилма ёрдамида ҳаракатланадиган, радио орқали бошқариладиган автомобиль, трактор, кема, самолёт, ракета моделлари, турли хил ўйинчоқлар, роботлар, радио сигналларни тарқатувчи, қабул қилувчи, овоз ва тасвирларни

ёзиб олувчи ва қайта эшиттирувчи ҳамда кўрсатувчи қурилмалар ва шу кабиларни киритиш мумкин [2].

Ўқувчилар томонидан тайёрланадиган буюмларни бундай оддийдан мураккабга қараб борувчи хусусият асосида даражаларга бўлиб олиниши уларнинг ўсмирлик давридаги ақлий ва жисмоний ривожланиш жараёнидаги ўзгаришларга мос ҳолда беш хил йўналиш бўйича амалий, ижодий машғулотларни ташкил этиш имконини беради. Бу эса ўқувчиларнинг зерикмай, толиқмай, ўз имкониятлари даражасида мустақил ва ижодий ишларига катта ёрдам беради.

Юқорида келтирилган маълумотларни таҳлил қилар эканмиз, уларда ёритилган фикрларни XIX-асрда яшаган машҳур педагог ва маърифатпарвар бобомиз А.Фитратнинг “Бериладиган билимларнинг бола ёши ва билим даражасига мос келиши, боланинг билимларни онгли ўзлаштиришга эришиши, билимнинг болага моддий ва маънавий фойда келтириши” кераклиги тўғрисида айтган ўғитлари билан ҳамоҳанг эканлигини кўришимиз мумкин [4]. Бундан шундай хулоса қилиш мумкинки, болаларни ўқитиш, тарбиялаш, хусусан, уларни ижодкорлик руҳида тарбиялаш – умуминсоний иш бўлиб, бу макон, миллат, ирк ва жинс танламайди. У ҳар бир инсонга, ҳар бир болага хос, тааллуқли бўлади.

Фойдаланилган адабиёт:

1. Кедров Б.В. О творчестве науке и технике. М., 1989. – 172 с.
2. Каримов И. Меҳнат таълимида ўқувчилар ижодкорлик фаолиятини ташкил этишнинг уйғунлашган технологиялари: Монография. Т.: Наврўз, 2015. – 172 б.
3. Кудрявцев Т.В. Психология технического мышления. М., 1975.
4. Маънавият юлдузлари (Марказий Осиёлик машҳур сиймолар, алломлар, адиблар). – Т.: А.Қодирий номиядаги халқ мероси нашриёти, 2001. – 320 б.
5. Павлов И.П. Двадцатилетний опыт объективного изучения высшей нервной системы животных. – М., 1973.
6. Педагогика: Большая современная энциклопедия. /Сост. Е.С.Рапацевич. – Минск: Современное слово, 2005. – 720 с.
7. Политэнический словарь. М.: Сов.энциклопедия, 1989. – 656 с.
8. Рубинштейн С.Л. Основы общей психологии. – СПб.: Питер, 2006. – 713 с.
9. Якобсон П.М. Психология художественного творчества. – М., Знание, 1981. – 47 с.
10. Шарипов Ш.С. Ўқувчилар касбий ижодкорлиги узвийлигини таъминлашнинг назарияси ва амалиёти: Пед. фан. док. дисс. Т., 2012. – 306 б.
11. Ғозиев Э. Тафаккур психологияси: Ўқув қўлланма. Т.: Ўқитувчи, 1990. – 184 б.
12. Guilford J. P., Hoepfner R. The analysis of intelligence. N.Y., 1971. – 212 p.
13. Lisa A. Moyer, Engaging Students in 21st Century Skills through Non-Formal Learning, Dissertation submitted to the faculty of Virginia Polytechnic Institute and State University, Blacksburg, Virginia, The USA, March 10, 2016.

14. Torrance E.P. Guiding Creative Talent – Englewoodcliffs. N.V.: Prentice–Hall, 1962. – 250 p.

15. Michelle A. Morrell. The development of creativity in adolescents: A qualitative study of how and where creativity develops. For the degree of master of arts Colorado state university, Fall 2015.

16. Torrance E.P. Guiding Creative Talent – Englewoodcliffs. N. V.: Prentice–Hall, 1962. – 250

17. Wollach M., Kogan N. Modes of Thinking in Young Children. N.V.: Holt, 1965. – 222 p.

ПРОФЕССИОНАЛ ТАЪЛИМ ТИЗИМИДА МАХСУС ФАНЛАРНИ ЎҚИТИШДА ИННОВАЦИОН ЭЛЕКТРОН ПЛАТФОРМАЛАРДАН ФЙДАЛАНИШ

Зияев Йомали Нигматуллаевич Тошкент политехника техникуми,
директор ўринбосари (adamantiy_077@mail.ru)

***Аннотация.** Ушбу мақолада Ўзбекистон Республикаси профессионал таълим тизими ҳолати, масофавий таълимни ташкил этишида мавжуд муаммо ва камчиликлар, уларни бартараф этиш ҳамда рақобатбардош кадрларни тайёрлаш масалалари акс эттирилган.*

***Аннотация.** На данном статье описываются состояние системы профессионального образования Республики Узбекистан, существующие проблемы в организации дистанционного обучения, их устранении и подготовке конкурентоспособных кадров.*

***Annotation.** This article describes the state of the vocational education system in the Republic of Uzbekistan, the existing problems in the organization of distance learning, their elimination and the training of competitive personnel.*

***Калит сўзлар:** таълим, ҳалқаро стандартлар, классификатор, масофавий таълим, электрон платформалар, шимий салоҳият.*

***Ключевые слова:** образование, международные стандарты, классификатор, дистанционное обучение, электронные платформы, научный потенциал.*

***Key words:** education, international standards, classifier, distance learning, electronic platforms, scientific potential.*

Республика иқтисодийнинг барқарор ва жадал тараққиётини таъминлашда келажак учун кенг қамровли, оқилона асосланган устувор вазибалар ва йўналишлар, ижтимоийиқтисодий ривожланишнинг режа ва дастурлари ишлаб чиқилмоқда. Мамлакатимизда шакллантирилаётган, кўпгина жабҳаларда чуқурлашиб бораётган янгича бозор муносабатлари узлуксиз таълим тизимига, шу жумладан, иқтидорли, ташаббускор юқори малакали кадрлар сони ва салоҳиятини оширишга хизмат қилаётган профессионал таълим муассасалари фаолиятига ҳам ўз таъсирини ўтказмоқда. Ҳозирги замон шароитида

професионал таълим муассасаларида ўқув жараёни белгиланган ўқув меъёрий хужжатлар асосида амалга ошириладиган бўлиб, фанлар бўйича ўқув дастурлари худуднинг ижтимоий-иқтисодий ривожлантириш дастурлари ҳамда ишлаб чиқариш тармоқлари эҳтиёжлари асосида интеграциялаштирилган ҳолда ҳамкорликда ишлаб чиқилмоқда. Халқаро андозаларга мос келувчи професионал таълим тизимида қандай муаммо ва камчиликлар мавжуд? деган саволлар туғилиши табиий. Бу саволларга жавоб беришда муаммо ва ечимларни қуйидагича изоҳлашимиз мумкин.

Биринчидан, яқин йиллар ичида бутун дунёда инсон саломатлигига салбий таъсир этувчи юқумли касалликлар жумладан, коронавирус инфекцияси каби вируслар аҳоли ўртасида гигиена қоидаларига риоя этиш, ижтимоий масофани сақлаш каби профилактик чора-тадбирлар таълим муассасаларида ҳам ўқув жараёнини анъанавий шаклидан масофавий таълимга ўтишга эҳтиёж туғилди. Олий таълим тизимида аксарият олий таълим муассасаларида MOODLE дастурий таълим платформаси асосида масофавий таълим ташкил этилди. Бироқ айни шу вақтда професионал таълим тизимида ҳам ўқув жараёнини масофавий тарзда амалга оширишда “Ақли таълим” платформалари мавжуд эмаслиги сабабли ижтимоий тармоқлар ва турли хил месенджерлар орқали ўқув машғулоти олиб борилди. Бу эса ўз навбатида таълим сифатини пасайиши, назорат тизимидаги муаммолар, ўқув машғулоти билан олувчиларнинг ўз вақтида қатнашмаслиги, худудлардаги интернет тармоғидаги муаммолар, машғулот материаллари бит-хажми турлича бўлгани сабабли улардан фойдаланишдаги қийинчиликлар ҳамда педагог ходимлар ва билим олувчиларда ортиқча интернет трафиклари сарфланиши оқибатида харажатларнинг кўпайишига ва бунинг натижасида айрим билим олувчилар дарс машғулотига қатнашмаслиги каби таълим узлуксизлигига салбий таъсир этувчи муаммолар келиб чиқишига сабаб бўлди. Мисол ўрнида шуни таъкидлаш лозимки, 2020 йилда биргина Сирғали политехника касб-ҳунар коллежида пандемия сабабли ташкил этилган “онлайн дарс” самарадорлиги бўйича ўтказилган сўровномада билим олувчилар ҳамда уларнинг ота-оналарининг фақатгина 17 фоизи ижобий фикр билдирган, 83 фоиз сўровнома иштирокчилари билим сифати пасайгани ҳақида фикр юритишган. Ваҳоланки, ушбу таълим муассасаси кўп йиллар давомида билим бериш сифати ҳамда рейтинги бўйича Тошкент шаҳри ва Республика миқёсида етакчи ўринларни эгаллаб келган.

Иккинчидан, янги ташкил этилган професионал таълим тизимида олдинги касб-ҳунар таълими тизимидан фарқли кундузги, кечки, сиртки таълим шакллари мавжуд бўлиб, пандемия шароити бўлмаган тақдирда ҳам сиртки таълим шаклида билим олувчиларнинг ўқув юкмаси бошқа таълим шаклларида анча фарқ қилиши таълим сифатининг пасайиши, билим олувчиларнинг нисбатан кам билим ва қўникмаларга эга бўлиши кузатилади.

Юқорида кўрсатилган айрим муаммо ва камчиликларни бартараф этишда ҳар бир таълим муассасасида “Ақлли таълим” электрон платформаларини яратиш мақсадга мувофиқ бўлиб, яратилган инновацион ўқитиш электрон платформаларига таълим муассасасида ҳар бир таълим йўналишлари бўйича мавжуд ўқув жараёни электрон платформада акс этиши лозим. Бунда платформа фойдаланувчиларини уч гуруҳга бўлиш мумкин:

1. Билим олувчи(ўқувчи, талаба, тингловчи)лар
2. Педагог ходим(ўқитувчи, ишлаб чиқариш таълими устаси, йўриқчи ва бошқалар)лар
3. Маъмурий ходим(администратор)

Профессионал таълим муассасаларида инновацион электрон платформаларни яратиш ҳамда улардан фойдаланиш, доимий равишда такомиллаштириб бориш мақсадида ҳар бир муассаса маъмурий ходимларини инновацион электрон платформалар яратиш бўйича Давлат бюджети ҳисобидан махсус ўқитиш ҳамда домий равишда малакасини ошириш тизимини жорий қилиниши педагог ходимларнинг ахборот технологиялари соҳасидаги билим, кўникма ва малакаларини оширишга ҳамда тизимда ёш авлодни ўқитишда янгича ёндашувга эришишга замин яратади.

Хулоса ўрнида шуни таъкидлаш лозимки, ҳозирги замон глобаллашув шароитида ахборот технологиялари воситасида кадрлар тайёрлаш муҳим ўрин тутди. Зеро, кундалик ҳаётимизда, иқтисодиётда, ишлаб чиқаришда ва ҳаёт фаолиятимизнинг барча соҳаларида ахборот технологияларидан кенг фойдаланишимиз муқаррардир.

Фойдаланилган манба ва адабиётлар рўйхати

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 6 сентябрдаги “Профессионал таълим тизимини янада такомиллаштиришга доир қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги ПФ-5812-сонли Фармони.

2. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2020 йил 11 ноябрдаги “Ўзбекистон Республикаси профессионал таълим муассасаларига ўқишга қабул қилишни ташкил этиш чора-тадбирлари тўғрисида”ги 715-сон Қарори.

3. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2021 йил 29 мартдаги “Профессионал таълим тизимида дуал таълимни ташкил этиш чора-тадбирлари тўғрисида”ги 163-сон Қарори.

4. Ибраймов А. Масофавий ўқитиш тизимини ташкил этиш ва ўқув курслари мазмунини ишлаб чиқишнинг ўзига хос хусусиятлари. ЎЗМУ хабарлари. – Тошкент, 2016 йил.

5. Мавлонова Р.А., Раҳмонқулова Н.Ҳ., Матназарова К.О., Ширинов М.К. Умумий педагогика. -Т.: «Фан ва технология», 2018 йил.

6. www.lex.uz

ҲАЁТ ФАОЛИЯТИ ХАВФСИЗЛИГИ ФАНИНИНГ ЎҚИТИШДА БУГУНГИ КУНДАГИ МУАММОЛАР

Ш.Б.Мамадбоев Наманган давлат университети ўқитувчиси
И.М.Абдиев Наманган давлат университети талабаси

Аннотация

Мамлакатимизда “Ҳаёт фаолияти хавфсизлиги” фани ўқитишдаги бугунги кундаги муаммолар кўтарилган. Яъни ушбу фанни ўқитишда тизимли равишда ўқитилмаслиги ва хориж тажрибалари асосида инновацион технологиялар қўлланилмаслиги баён этилган. Шунингдек, ушбу муаммоларни бартараф этишда истикболли режаларга тавсиялар кўрсатиб ўтилган.

Калит сўзлар: Ҳаёт, фаолият, хавф, хавфсизлик, меҳнат муҳофазаси, фавулодда вазият, фуқаро муҳофазаси, авария-қутқарув, маданият.

Аннотация

Бугунги кунда мамлакатимизда таълим ва фан соҳасини ривожлантиришга катта эътибор қаратиб келинмоқда. Бу борада қилинаётган ишларнинг яна бир исботи сифатида қуйидагиларни келтириш мумкин.

Ўзбекистон Республикаси Президенти 2017 йил 7 февраль кунги ПФ-4947-сонли фармони билан 2017–2021 йилларда Ўзбекистонни ривожлантиришнинг бешта устувор йўналиши бўйича ҳаракатлар стратегиясини тасдиқлади. Ушбу устувор йўналишларнинг тўртинчиси “Ижтимоий соҳани ривожлантиришнинг устувор йўналишлари” бўлиб, унинг 4-бандида “Таълим ва фан соҳасини ривожлантириш” этиб белгиланган ва унда бир қатор устувор вазибалар белгилаб қўйилган. Ушбу бандга асосан таълим соҳасини янада ислоҳ қилишда таълим жараёнларини инновацион технологиялардан кенг фойдаланиш асосий мақсад сифатида қаралиши белгилаб берилган [1].

Шунингдек, бешинчи устувор йўналишда “хавфсизлик, миллатлараро тотувлик ва диний бағрикенгликни таъминлаш, чуқур ўйланган, ўзаро манфаатли ва амалий руҳдаги ташқи сиёсат юритиш” устувор вазибалар белгилаб берилган.

Мамлакатимиз ва жамиятимизнинг хавфсизлигини таъминлашда, албатта фаннинг роли бекиёс. Чунки, фанларни мукамал ўрганиш орқали тингловчиларда етук савод ва чуқур билим юзага келади. Натижада келажакдаги ушбу билим ва салоҳиятлардан фаолиятнинг олий даражаси бўлиши – Меҳнат фаолиятида кенг фойдаланади. Демак, фан ишлаб чиқариш билан чамбарчас бўғлиқ деган фикрнинг яна бир исботини кўришимиз мумкин.

Бугунги кунда турли хил хавфлардан муҳофазаланиш ва хавфсизлик чораларини мустақил ҳамда жамоавий белгилашни ўргатадиган фан - Ҳаёт фаолияти хавфсизлиги фанидир. Демак, ушбу фанни ўқитиш долзарблигини кўрсатмоқда.

Ушбу фан бўйича умумий тўхталиб ўтсак. Ҳаёт фаолияти хавфсизлиги фани тарихан шаклланган фанидир. Чунончи, тарихда ушбу фаннинг номи Ҳаёт

фаолияти хавфсизлиги деб алоҳида юритилмаган бўлсада бошқа фанлар тизимида шаклланганлигини буюк шахслар ва олимларнинг асарлари мисолида келтириш мумкин.

Жумладан, немис врачлари ва металлурги Агрикола (1494-1555) ўзининг “Тоғ ишлари тўғрисида” деб номланувчи асарида инсон фаолиятида меҳнат муҳофазаси масалалари ҳамда шахсга қаратилган хавфсизликка алоҳида баён қилганлигини кўришимиз мумкин [4].

Шунингдек, италиялик врач Рамаццини (1633-1714) касбий гигиенага асос солган, у “Хунармандлар касалликлари” деган китобида инсон фаолиятида касб касалликлари ва уларни соғлигига бевосита ҳамда билвосита таъсир этувчи хавфларни таъкидлаб ўтган [5].

XIX асрда саноатнинг жадид ривожланиши билан хавфсизлик муаммолари билан шуғулланувчи бир қанча кўзга кўринган олимлар пайдо бўлишди: Д.Л.Кирпичев (1845-1913), А.А.Пресс (1857-1930), Д.П.Николский (1855-1918), В.А.Левицкий (1867-1936), А.А. Скоринский (1874-1960), С.И. Каплун (1897-1943) ва бошқа олимларнинг асарларида хавфсизлик масалаларига биғишланган маълумотлар келтириб ўтилган. Бу эса ўз навбатида “Ҳаёт фаолияти хавфсизлиги” фанининг вужудга келишига ўз хиссасини қўшганлигини барчага маълумдир [5].

Бугунги кунда МДХ давлатлар орасида Россия Федерациясида “Ҳаёт фаолияти хавфсизлиги” фани биринчилардан бўлим жорий этилиб ўқувчи ва тингловчиларга ўқитилиб келаётганлиги ҳамда ушбу фан ўргатилиши натижасида аҳолисини турли хил офатлардан муҳофазаланишга тайёрлаб келинмоқда.

Муастақилликка эришганимиздан сўнг мамлакатимизда “Ҳаёт фаолияти хавфсизлиги” фанини ўқитиш босқичма-босқич амалга оширилиб келинди. Жумладан, Олий таълим тизимида “Ҳаёт фаолияти хавфсизлиги” фани жорий этилиб, барча бакалавр таълим йўналишдаги талабаларга белгиланган стандарлар асосида таълим бериб келинди. Бу эса барча бакалавр таълимида барча йўналишларига меҳнат фаолиятларида шахсий ва умумий хавфсизлигини таъминлаш бўйича билим ва кўникмага эга бўлиб келмоқда.

Шунингдек, Ўрта махсус таълим тизимида “Ҳаёт фаолияти хавфсизлиги” фани 2012-йилдан буён ўқитилиб, меҳнат фаолиятида юзага келиши мумкин бўлган хавфлардан муҳофазаланиш бўйича кўникма ҳосил қилиниб келинмоқда.

Умумий ўрта таълим муассасаларида ўз навбатида бошланғич синфларда одобнома ва табиатшунослик, юқори синфларда эса физика, кимё, зоология, биология, география, чакрикка қадар бошланғич тайёргарлик ва бошқа айрим турдаги фанларга мавзулар интеграллаштирилган ҳолда ўқитилиб келинмоқда.

Таълим муассасаларида хавфсизликни олдини олишга қаратилган фанлар ўтилиши мамлакатимиз аҳолисини турли хил салбий хавфлар таъсирлардан муҳофазаланишга ўргатиб келинаётганлигидан долалат бермоқда.

Ҳаёт фаолияти хавфсизлигини ўқитишда хориж давлати тажрибасига муҳим рол ўйнайди. Дарҳақиқат, Ю.Л.Воробьевнинг “Аҳолини ҳаёт фаолияти хавфсизлиги маданиятини шакллантириш асослари” асарида Россия Федерациясининг тажрибасини қуйидагича ўрганишимиз мумкин. Россия

Федерациясида “Ҳаёт фаолияти хавфсизлиги” фанининг ўқитишда бошқа фанларга нисбатан алоҳида ўрин тутади. Ҳаёт фаолияти хавфсизлиги фани ўқитиш тизими равишда ўқитилади, яъни мактабгача таълим, умумий ўрта таълим, олий таълим ва олий таълимдан кейинги таълимда таҳсил олишга эътибор қаратилган [2].

Мактабгача таълимда ўқувчи болаларга турли хил хавфларни олдини олишга қаратилган анимациялар, такдимотлар, видео-роликлар ва виртуал тизимдаги ўқитиш йўлга қўйилган. Болаларни хавфлар ва улардан ҳимояланиш бўйича кўргазмалар материаллар орқали тушунчага эга бўлади.

Умумий ўрта таълим муассасаларида 1-11-синф ўқувчилар учун “Ҳаёт фаолияти хавфсизлиги” фани ўқитиш йўлга қўйилган [3]. Шунингдек, ўқитишда бошланғич синф адабиётларида фавқуллодда вазиятлар ва инсон организмга салбий этувчи таъсир хавфлар бўйича умумий тушунчалар ва улардан ҳимояланиш бўйича маълумотларга асосланган. Бошланғич синф ва мактабгача таълим муассасалари ўқувчилари учун махсус хавфсизлик муҳофазаслини учун журнал ва тарқатма материаллар жорий этилган. Жумладан, “Фавқуллодда вазиятларда хавфсизлик болалар энциклопедияси”, “Хавфсиз ҳаёт”, “Ҳаёт фаолияти хавфсизлиги асослари кулгили (масхаробоз шаклида) дастурлар” ва бошқа турли хил ахборот ташувчи манбалардан кенг фойдаланиб ўргатилади. Юқори синфларда эса потенциал хавфлар реал хавфга айланганда уларда ҳаракат қилиш ва жабрланганларга биринчи тиббий ёрдам кўрсатиш алгоритмлари ўргатилади. Шунингдек, ўқувчилар иштирокида ҳаёт фаолияти хавфсизлигини таъминлашга қаратилган тўғарақлар, умуммиллий ва халқаро миқёсдаги амалий мусобақалар ўтказилиши йўлга қўйилган [2].

Олий таълим тизимининг барча бакалаврият мутахассисларига “Ҳаёт фаолияти хавфсизлиги” белгиланган тартибда ўтилиши жорий этилган. Фан доирасида амалий ва лаборатория машғулотларини ўтказиш учун керакли жиҳозлар модели яратилган. Агар лаборатория ва амалий машғулотларни ўтказишда керекали жиҳозлар мавжуд бўлмаса уларнинг виртуал ўтказиш жорий этилган. Талабалар машғулотларни ўтказиш икки усулда амалга ошириди. Натижада тингловчиларда назарий ва амалий тушунчага эга бўлади.

“Ҳаёт фаолияти хавфсизлиги” мутахассислиги бўйича таълим олувчи бакалавр тингловчилари дарсларни ўтказишда амалий машғулотларга эътибор қаратган. Амалий машғулотларни ўтказишда Олий таълим тизими ва Фавқуллодда вазиятлар вазирлик тизими ўзаро ҳамкорлигида махсус дарс ишланмалари ишлаб чиққан. Бунга мувофиқ, “Ҳаёт фаолияти хавфсизлиги” бакалавр мутахассислик таълим олувчи тингловчилар фавқуллодда вазиятларда ҳаракат қилиш, кучли таъсир этувчи захарли моддалардан (КТЭЗМ) ҳимояланиш ва бошқа турли офатлардан муҳофазаланиш бўйича йўриқномаларни ишлаб чиқиш ҳамда жойларда ижроси бўйича амалий ишларни олиб боради.

Олий таълимдан кейинги таълим тизимида таҳсил олувчилар учун йиллик қабул квота миқдори бошқа соҳаларга нисбатан кўп. Ушбу фан бўйича мингдан ортиқ фан номзодлари ва фан докторлари мавжуддир.

Мамлакатимизда бугунги кунда “Ҳаёт фаолияти хавфсизлиги” фанини ўқитишда юзага келаётган муаммоларни қуйидагича изоҳлаш мумкин.

биринчи, ҳаёт фаолиятини ўқитиш мамлакатимизда тизимли равишда ўқитилиб келинмаслиги, яъни мактабгача, умумий ўрта таълим тизимларида алоҳида фан сифатида ўтилмаслиги. Бугинги кунда жамиятимизда айрим фанларга интеграллаштирилган ҳолда ўқитилиб келинмоқда, лекин ушбу фаннинг таянч дарсликлардан фойдаланмаслиги ҳамда мутахассис педагоглар томонидан таълим бериб борилмаслигини келтиришимиз мумкин.

иккинчи, Олий таълим тизимида “Ҳаёт фаолияти хавфсизлиги” фанининг ўқитиш тизимидан фойдаланишда етарли даражада ўқув моддий-техник базаси мавжуд эмаслиги. Яъни фан доирасида ўқув мажмуаларни намунаси олий таълим муассасаси томонидан ишлаб чиқиб, барча таълим муассасаларига жорий этилмаганлиги.

учинчи, Ҳаёт фаолияти хавфсизлиги фанининг амалий ва лаборатория машғулотларини ўтказиш учун керакли жиҳозлар ва воситалар етишмаслиги ёки уларнинг виртуал машғулот бажариш жиҳозлари таълим муассасаларида жорий этилмаганлиги.

тўртинчи, Ҳаёт фаолияти хавфсизлиги бакалавр мутахассисларини ўтиладиган фанларни “Фан дастурлар”ни ўзаро мувофиқлаштириш. Чунки, мутахассислик йўналишларга ўтиладиган “Йўналишга кириш, меҳнат муҳофазаси, авария-қутқарув ишлари, фавқулодда вазиятлар ва фуқаро муҳофазаси” фанларнинг мавзулари такрорланиб келиши. Мисол тариқасида, “Фавқулодда вазиятлар ва фуқаро муҳофазаси” фанида “Фавқулодда вазиятлар таснифи” мавзуси “Ҳаёт фаолияти хавфсизлиги ва Авария-қутқарув ишлари” фанида ҳам такрорланади. Бу эса бир хил мавзулар ўтилишда талабалар учун дарс машғулотларидан янги мавзуга эҳтиёж сезилишини кўришимиз мумкин.

бешинчи, Таълим муассасаларида “Ҳаёт фаолияти хавфсизлиги” фани ўқитишда мутахассис ўқитувчилар томонидан ўтказилмаслиги ҳамда ушбу соҳа бўйича академик даража олиш учун Олий таълим тизимларида қабул квоталар сони камлигини кўришимиз мумкиндир.

Юқорида таъкидлаб ўтилган муаммолар “Ҳаёт фаолияти хавфсизлиги” фанининг ривожланишига ҳамда фан доирасида салоҳиятни ўсишига тўсқинлик килаётган сабаблардан бири ҳисобланиб келмоқда. Ушбу муаммоларни ҳал этиш ва фаннинг ривожланиб, истиқболини ривожлантиришга қуйидаги тавсияларни илгари суриш мумкин деб ҳисоблайман.

биринчи, таълим тизимларида янги фан “Ҳаёт фаолияти хавфсизлиги маданиятини шакллантириш” фани жорий этиш лозим. Бунинг натижасида ўқувчилар ва талабалар орасида “Хавфсизлик маданияти” тушунчаси пайдо бўлиб, жамиятимизда хавфдан сакланиш усуллари ва тамойилларини илгари суради. Ўз навбатида жамиятимизда табиий, техноген ва экологик хавфсизликка ўзларида интилиш бўлади.

иккинчи, умумий ўрта таълим муассасаларида ҳаёт фаолияти хавфсизлиги фанини ўтилишини жорий этиш ҳамда фан доирасида ўқув қўлланмаларни яратиш. Ўқув қўлланмаларнинг ишлаб чиқишда умумий ўрта таълим муассасаларининг қуйи ва юқори синфлар учун алоҳида-алоҳида тайёрлаш лозим. Фан доирасида қўлланмалар ва дарсликлар тайёрлашда Россия ва Беларусь мамлакатлари тажрибасидан фойдаланиш лозим. Яъни Бошланғич

синфлар учун “Болалар хавфсизлиги енсиклопедияси”, юкори синфлар учун эса “Омон қолиш асослари”, “Ёнгиндан кутқариш асослари” ва бошқа қўлланмалар жорий этиш лозим.

учинчи, мактабгача таълим муассасасида таҳсил олувчи болалар учун “Хавфдан ҳимояланиш”, “Умумий хавфлар” ва турли хавфлар ҳақида муҳофазаланиш бўйича мултфилмлар, видео-роликлар тайёрлаб номойиш этиб бориш мақсадга мувофиқдир. Чунки, 3-6 ёшли болалар инсонлар ва ташқи муносабатларга тақлид қилиб улгайишади. Ушбу даврда биз хавфлардан муҳофазаланиш бўйича видео-роликларни кизиқарли ва раван этиб номойиш этиш орқали уларда салбий таъсирлардан муҳофазаланиш бўйича тушунча пайдо бўлади.

Хулоса қилиб айтганда, Ҳаёт фаолияти хавфсизлиги фанининг таълим муассасаларида тизимли ўқитишни жорий этиш, мамлакатимиз аҳолисини табиий ва техноген хусусиятли фавқулдда вазиятлар муҳофазаланишни, саноат корхоналарида меҳнат хавфсизлиги, санитар-гигиеник ҳолатлар ҳамда инсон ва атроф табиий муҳитга келтириладиган зарарларни олдини олишга қаратилган чора-тадбирларнинг мажмуаси демакдир.

Фойдаланилган адабиётлар

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 7 февралдаги 4947-сонли фармони.
2. Mark. A., Friend.P., “Fundamentals of Occupational Safety and Health” berman press, Германия, 2007
3. Воробьев Ю.Л “Основы формирования культуры безопасности жизнедеятельности населения” МЧС России. – М.: Деловой экспресс, 2006. 55-68-б.
4. Юлдашев Ў.Р “Меҳнат муҳофазаси махсус курси” дарслик. “Тафаккур қаноти”. Тошкент-2015. -536 б.
5. Хасанова Т.О. ва бошқалар “Ҳаёт фаолияти хавфсизлиги” дарслик “Тошкент-иктисод”, Тошкент-2014. -268 б.
6. Ёрматова Ф.Ё. ва бошқалар “Ҳаёт фаолияти хавфсизлиги”. “Алоқачи”, Тошкент-2009, -348-б.
7. www.gov.mchs.ru
8. www.edu.uz
9. www.ziyonet.uz
10. www.arxiv.uz

ТЕХНИКА ЙЎНАЛИШИ ТАЛАБАЛАРИНИНГ КАСБИЙ ҚИЗҚИШЛАРИНИ РИВОЖЛАНТИРИШДА МАТЕМАТИКА

Ў.Х.Ҳалимов Ўзбекистон Миллий университети, Жиззах филиали таянч доктаранти

Б.С. Пулатов Ўзбекистон Миллий университети, Жиззах филиали Табиий фанлар ва иқтисодиёт кафедраси ассистенти

Аннотация: Ушбу мақолада техника йўналишларида тахсил олаётган талабаларнинг касбий қизиқишларини шакллантиришда математика аудиториясининг муҳити ҳақида тушунчалар келтирилган.

Калит сўзлари: касб, математика, қизиқиш, техника.

Аннотация: Эта статья дает представление о среде аудитории математиков в формировании профессиональных интересов студентов инженерных специальностей.

Ключевые слова: профессия, математика, интерес, техника.

Annotation: This article provides insights into the environment of the mathematics audience in shaping the professional interests of students majoring in engineering.

Keywords: profession, mathematics, interest, technique.

Амалдаги таълим тизимида узлуксиз таълим тизимини жорий қилинганлиги ўсиб келаётган ёш авлодни ҳар тамонлама билимли, келажакда соҳалар бўйича керакли мутахассисларни тайёрлаб давлатимизнинг гуллаб яшнашига, ҳар томонлама ривожланишига ўз хиссаларини қўша оладиган етух қадирлар бўлиб камол топишларига асос бўлади. Ўрнатилган таълим тизимининг ҳар бир бўғинида Давлат таълим стандартлари жорий қилинган бўлиб, бу таълим мақсад, вазифаларини белгилаб беради. Ўқувчи ёшларнинг касбий қизиқишларини ҳисобга олиб, уларни айнан қизиқиш соҳасига йўналтириш ўқитувчиларнинг фаолияти билан боғлиқ. Ўқитувчи ўз фанидан келиб чиқиб ўқувчининг қизиқишларини ўз вақтида англаб олиш таълимга йўналтириши лозим. Қизиқиш деганда инсоннинг у ёки бу фанга қаратилган фаол билиш фаолияти тушунилади. Касб танлашга нисбатан олганда қизиқишлар бу инсоннинг муайян меҳнат соҳасига ижобий муносабати, уни билишга ва фаолият кўрсатишга бўлган интилишидир. Қизиқишлар ўзининг мазмуни, кўлами, узоқ давом этиши ва теранлигига қараб бир-биридан фарқ қилади. Қизиқишларнинг мазмуни ва кўлами инсоннинг билим даражасини ҳамда ҳар нарсага қизиқувчанлигини акс эттиради. Қизиқишларнинг теранлиги ва узоқ вақт давом этиши уларнинг барқарорлигини кўрсатади.

Айтайлик ўқувчи ўз қизиқишлари билан тайёргарлик асосида техника соҳасида олиш таълим муассасасига ўқишга қабул қилинди ва талаба бўлди. Талабанинг касбий билимларини шакллантиришда фанларнинг ўзаро боғлиқлиги аҳамиятлидир. Айниқса математика фани машғулотларини олиб борувчи профессор-ўқитувчилар талабаларнинг касбий қизиқишларидан келиб

чиқиб, машгулотларда масалалар қўйишлари ва математик ечимларини курсатиб беришлари лозим.

Талабаларнинг қизиқишлари ўз тараққиёти мобайнида бир нечта босқичдан ўтади. Дастлаб улар вақтинча, эпизодик характерда бўлади ҳамда муайян бир фанга нисбатан ижобий муносабатда намоён бўлади. Бундай қизиқишлар ривожлантириб борилмаса, улар тез орада сусайиб кетади ёки мутлақо сўнади. математика фанини чуқур ва мунтазам равишда ўрганиб борилиши, келгусида меҳнат фаолиятининг қизикан соҳасига синчковлик билан киришиб кетилишига қараб қизиқишлар мустаҳкамланиб, кучайиб бориши ва аста-секин барқарор қизиқишга айланиб қолиши мумкин. Бундай қизиқишлар кўпинча ўсиб, ривожланиб, талабанинг муаян фаолият билан шуғулланишига бўлган интилишига ҳамда мазкур фаолият турига мувофиқ келадиган маҳорат ва малакаларни такомиллаштириб, доимий равишда ўз билимини ошириб бориш учун интилишига айланади. Қизиқишлар, ўрганишлар ва малака оширишларнинг махсули албатта касбий қобилятларнинг пайдо бўлишига олиб келади. Бўлажак муҳандисларда қуйидаги қобилятлар шаклланиши зарур. Жумладан: 1) Техник қобилият - техникани эгаллашга ва техника фанларини ўзлаштиришга бўлган қобилият Техникага, техника ижодиётига бўлган қизиқиш, машина ва станокларда асбоблар билан ишлашга интилиш, Математика, химия, чизмачилик ва шу каби фанларни муваффақият билан ўзлаштириш. 2) Математик қобилият- фикрлашнинг математик методларини эгаллаш қобилияти математикага бўлган қизиқиш, мантиқий фикрлаш, анализ қилиш ва умумлаштириш қобилияти, математик билимларни муваффақиятли эгаллаш ва шу кабилар. 3) Педагогик қобилият - ўқитиш ва ўргатиш мақсадида бошқа бир кишига таъсир кўрсатиш. 4) Ташкилотчилик қобилияти - қандайдир бир ишни қила олиш ва одамларни уюштира олиш маҳорати ишчилар билан тезда тил топиб кетиш, одам психологиясини тушуниш, ишчилар ўртасида меҳнатни тўғри тақсимлай олиш, ўз вазифасини ҳалол бажариш, тиришқоқ бўлиш, ўз хатти ҳаракатларига танқидий қараш ва шу кабилар.

Фаолият кўрсатиш мобайнида муҳандиснинг касбий малакаси намоён бўлибгина қолмасдан, шу билан бирга унинг шахсий фазилатлари ҳам шаклланиб боради. Шунинг учун меҳнатнинг ҳар хил тури тасодифан дуч келишини кутиб ўтирмай, муҳандис ишларга онгли равишда киришиб кетавериш керак. Шундай қилиб, касбни барқарор қизиқиш ва мойиллигига мувофиқ танлаш керак.

Ахборот ресурслари аср ҳисобланган 21 асрда ҳар бир давлатнинг, жумладан бизнинг мамлакатимизнинг ҳам иқтисодий тараққиёти кўп жиҳатдан мамлакат аҳолисининг ақлий имконияти, қобилияти ва ишбилармонлигига боғлиқ бўлиб, бунда юксак даражадаги қобилятлилик, ишбилармонлик меҳнат унумдорлигини белгилаб беради. Меҳнат унумдорлиги ишлаб чиқаришга илғор фан техника ютуқларини жорий қилишгагина боғлиқ бўлиб қолмасдан балки, ишлаб чиқариш бошқарувидаги муҳандисларнинг малакаларига, ўз касби ҳақида чуқур билим ва тасаввурларга эга бўлишларига ҳам боғлиқдир.

Демак, қайсики жамиятда унинг ҳар бир аъзоси ўзининг қизиқиши ва қобилиятига мос касб танласа ҳамда мазкур касб сирларини мукамал эгалласа, ўша жамиятни ҳар томонлама тараққий эттириш имконияти юқори бўлади.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Муслимов И.А., Болтабоев С.А., Шарипов Ш. Махсус фанларни ўқитиш методикаси. Касб таълими йўналиши магистрантлари учун қўлланма. Тошкент: Низомий номидаги ТДПУ 2003 йил.

2. Туракулов Х. А., Туракулов О.Х., Файзиматов Б., Убайдуллаев С., Хамидов Ж.А. "Техника фанларини ўқитишга янги педагогик технологияларни қўллашнинг илмий-педагогик асослари" Укув қўлланма. Фаргона - 2003 й. ФарПИ "Техника" булими.

HAYOT FAOLIYATI XAVFSIZLIGI MUAMMOLARI

A.O.Ochilov Qarshi davlat universiteti Mehnat ta'limi kafedrasida katta o'qituvchisi

Bugungi kunda yer sayyorasida ro'y berayotgan tabiiy, texnologik, ekologik, ijtimoiy, harbiy-siyosiy xarakterdagi favqulodda holatlarni bartaraf etish, talofatlar ko'lamini toraytirish, insonlar hayoti va ular tomonidan yaratilgan moddiy boyliklarga yetadigan zararlarining oldini olish yoki ularni kamaytirishni ta'minlash o'ta muhim va dolzarb muammolar sirasiga kiradi.

O'zbekiston respublikasi geografik jihatidan shunday bir mintaqada joylashganki, biror bir turdagi injiqliklari respublika hududlarini chetlab o'tmagan;

Jumladan: tabiiy hodisalardan zilzilalar, o'pirilishlar, qor ko'chkilari, kuchli yog'ingarchiliklar, dovullar va boshqa fojiali oqibatlariga olib kelishi mumkin bo'lgan favquloddagi holatlar mintaqamizda bo'lib turadi.

Tabiiy ofatlar insoniyat boshiga og'ir kulfatlar soluvchi muhitda, iqtisodiyot obyektlariga beqiyos zarar yetkazuvchi omil bo'lib, ular har yili respublikamizning turli hududlarida sodir bo'lib turadi.

Masalan: respublikamizning tog'li viloyatlarida (Toshkent, Qashqadaryo, Namangan, Fag'ona, Samarqand, Surxondaryo, Jizzax) yerta bahorda sel kelishi, suv toshqinlari va tog'larni ko'chishi bilan bog'liq favqulodda holatlar sodir bo'lib turadi.

Respublikamizning cho'l zonalari jumladan: Qashqadaryo, Surxondaryo, Buxoro, Navoiy, Xorazm viloyatlarida hamda Qoraqalpog'iston Respublikasi kuchli chang-to'zonli shamollar esib fuqarolar sog'ligiga va davlatimiz iqtisodiyotiga o'z ta'sirini o'tkazib kelmoqda.

Sodir bo'lgan favqulodda vaziyatlarning kelib chiqish sabablarining 80 foizga yaqini inson faoliyati bilan bog'liq. Qurbon bo'lganlarning 40 foizidan ortig'i tabiiy va texnologik xususiyatli favqulodda vaziyatlar sharoitiga to'g'ri baho bera olmasligi, ayniqsa ushbu sharoitda to'g'ri harakatlanish yo'llarini topa olmasligi oqibatida hayotdan ko'z yummoqda.

Shuning uchun ham respublikamiz hududlarida favqulodda yuzaga keladigan xavfli hodisalar haqida aholiga to'la ma'lumot berish, ularning yuz berishini oldini olish

mumkinligi, sodir bo'lganda bajarilishi zarur bo'lgan tadbirlar haqida yo'l-yo'riqlar ko'rsatish, hodisalar mohiyatni ularga o'rgatish nihoyatda dolzarb masala hisoblanadi. O'zbekistonda mazkur muammolarni hal etishda ishtirok etadigan barcha xizmatlarning o'zaro munosabatlarini belgilovchi va tartibga soluvchi qator qonunlar qabul qilingan. Jumladan, "Aholini va hududlarni tabiiy va texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish to'g'risidagi", "Fuqaro muhofazasi to'g'risidagi", "Radiatsiyaviy xavfsizlik to'g'risidagi", "Terrorizmga qarshi kurash to'g'risidagi" va boshqa O'zbekiston Respublikasi qonunlari va shu sohaga taaluqli bo'lgan Vazirlar Mahkamasining qarorlari va boshqa meyoriy-huquqiy hujjatlar qabul qilingan va hayotga joriy etilmoqda.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, XXI asming boshlaridanoq xavfsiz hayotni ta'minlash masalalari eng dolzarb muammoga aylanib qoldi, chunki ishlab chiqarish jarayonining misli ko'rilmagan yuksak taraqqiy etgan texnologiyalar bilan ta'minlanishi, tabiiy rivojlanishdagi ayrim nohush vaziyatlarning murakkablashuvi aholi salomatligi, atrof-muhit tozaligi va iqtisodning barqaror rivojlanishga tahdid solib turibdi. BMTning "Xalqaro fuqaro muhofazasi tashkiloti" xujjatlarida dunyoda taraqqiyot shiddat bilan rivojlanib borishi bilan yonma-yon, xavf-xatar ham ortib boradi, shu bois "barqaror rivojlanish kafolati bu fuqarolar muhofazasi"dir deb bejiz yozib qo'yilmagan. Shuning uchun fuqarolarni favquloddagi holatlarda fuqaro muhofazasiga tayyorlashga alohida e'tibor berish muhim ahamiyat kasb etadi. Lekin yildan-yilga soni ortib borayotgan favquloddagi holatlar, ularni bartaraf etishga sarflanayotgan iqtisodiy xarajatlar bunday hatti-harakatning samaradorligi pastligini ko'satmoqda va alohida yo'l tutish kerakligini taqozo etmoqda; ya'ni sodir bo'lishi mumkin bo'lgan favqulodda holatlarni oldindan bashorat qilish, aholini xavf haqida mumkin qadar erta ogoh etish, uni oldini olish va undan himoyalaniş tadbirlariga ko'proq e'tiborni qaratish zaruriyati vujudga kelmoqda.

Butun jahon "Qizil Xoj" hamjamiyati tashkilotining ma'lumotlariga ko'ra oxirgi 30 yil mobaynida butun dunyoda tabiiy ofatlardan qariyb 1 mlrd. insonlar jabrlangan va ko'rilgan moddiy zarar miqyosi yiliga 100 mlrd. dollardan ortiqni tashkil etgan. Shu sababdan ham O'zbekistonda o'z mustaqilligiga erishgan dastlabki yillardanoq, eng muhim vazifalar qatoridan mamlakat aholisi va hududini turli xil favqulodda holatlardan muhofaza qilish, ekologik xavfsizlikni ta'minlash masalalari alohida e'tibor qaratib kelmoqda.

Ushbu davr orqali o'simlik va hayvonot dunyosining genofondiga salbiy tasiri, biologik xilma-xillikning qisqarishi, katta hajmdagi sanoat va boshqa tur zaharli chiqindilarning tashqariga chiqarilishi, yerlarning cho'llanishi, yyer va suv resurslarining degradatsiyasi, Orol dengizining halokati kabi mintaqaviy hamda global miqyosda echilishi lozim bo'lgan ekologik muammolar meros bo'lib qoldi. Shu kabi muammolar tufayli inson manfaatlari muhofazasi ayniqsa, O'zbekistonda davlat siyosatining birlamchi darajasiga ko'tarildi.

Shu nuqtayi nazardan xalqimizni dushman tomonidan bo'ladigan ham ichki, ham tashqi ta'sirlardan saqlash, hozirgi kunning eng dolzarb vazifalaridan biri hisoblansa, ikkinchi tomondan bizning o'lkamiz tabiiy ofatlar (yer silkinishi, yer surilishi, sel, suv toshqini, kuchli shamol va boshqalar), bo'lishiga moyil o'lka bo'lganligidan hamda texnogen avariylar, halokatlar va ekologik muvozanatni buzilishi natijasida uning

oqibatlaridan fuqarolarni, iqtisodiyot tarmoqlarini, moddiy resurslarni, texnikalarni va tabiatni asrash, zarar ko'rgan hududlarda qutqarish va kechiktirib bo'lmaydigan tiklash ishlarini olib borish ham juda muhim dolzarb muammolardan hisoblanadi.

Albatta, yuqoridagi muammolarni hal qilishda O'zbekiston mintaqasi uchun harakterli bo'lgan tabiiy ofatlarni, ishlab chiqarish avariylarni va yuzaga keladigan ekologik vaziyatlarni chuqur tahlil qilish natijasidagina (har bir vaziyatni kelib chiqish sababini, kuchini, ta'sir doirasini, odamlarga, atrof-muhitga ko'rsatadigan oqibatlarini o'rganish) ularga qarshi eng qulay chora-tadbirlar belgilanadiki, natijada har qanday favqulodda holatlardagi ham moddiy, ham ma'naviy yo'qotishlar miqyosini shunchalik qisqartirishga erishish mumkin.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasining "Aholi va hududlarni tabiiy hamda texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish to'g'risida"gi Qonuni.

2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "O'zbekiston Respublikasi favqulodda vaziyatlarda ularning oldini olish va harakat qilish davlat tizimini yanada takomillashtirish to'g'risida"gi 242-sonli Qarori 24 avgust 2011y.

3. O'zbekiston respublikasi Prezidntining Matbuot markazi sayti: www.press-service.uz

4. O'zbekiston respublikasi Davlat Hokimiyati portali: www.gov.uz

5. Axborot-kommunikaiya texnologiyalari izohli lug'ati: 2004, UNDP DDI Programmewww. Lug'at.uz.glossariy.uz

ДАРСНИНГ СИФАТИ ВА САМАРАДОРЛИГИНИ ТАЪМИНЛОВЧИ СУБЪЕКТЛАР

Н.В.Носиров Фаргона вилояти, Куvasой шахар 5-умумий ўрта таълим мактаби технология фани ўқитувчиси

Анотация: Мақолада таълим-тарбия жараёни давомида дарснинг сифати ва самарадорлигини оширишни таъминлаш масалалари ёритилган

Annotation: The article addresses the issues of improving the quality and effectiveness of the lesson during the educational process

Аннотации: В статье рассматриваются вопросы обеспечения качества и эффективности урока в учебном процессе

Таянч сўз ва иборалар: таълим-тарбия жараёни, дарснинг сифати, дарснинг самарадорлигини таъминлаш, асосий субъектдир

Keywords and expressions: the educational process, the quality of the lesson, the effectiveness of the lesson, is the main subject

Ключевые слова и выражения: учебный процесс, качество урока, эффективность урока, это основной предмет

Ҳозирги кунда дунёнинг ривожланган ва ривожланаётган мамлакатлари ўзларининг келажаги бўлган ёш авлоднинг умумий ўрта таълим даражасидаги таълим турини қамраб олиш каби муаммони ҳал қилиш бўсағасида турган бир

вақтда мамлакатимизда ушбу муаммо аллақачон ўз ечимини топган. Мамлакатимизда ёш авлодни умумий ўрта таълим мактабларига таълим-тарбия олишга жалб этиш даражаси 99,7 % ни ташкил этади.

Таълим тизимида, хусусан мамлакатимизнинг таълим йўналишининг навбатдаги устувор вазифаси таълим-тарбия жараёнини ташкил этишда сифат ва самарадорликни янада юқори босқичга кўтаришдан иборат бўлган долзарб муаммо эканлиги эътироф этилган.

Ушбу долзарб муаммони изчил ҳал этиш учун салоҳиятли, ижодкор ва ташкилотчи - педагог, яъни яхши муаллим, ўқитувчи ва тарбиячининг самарали меҳнатига боғлиқ. Ушбу ишнинг мақсади таълим тизими ходимларининг виждонан меҳнат қилиши, ёш авлодни тарбиялашда масъулиятлилик ва дарсни сифати ва самарадорлигини оширишда юқсак эътибор билан фаолият кўрсатишларидан иборат.

Мамлакатимиз халқ таълими тизимида ҳам сифатли таълимни ташкил этиш ва ўқув самарадорлигини янада юқори босқичга кўтариш мақсадида “Дарс муқаддас”, “Ўрган-ўргат”, “Соғлом муҳит - соғлом жамоа”, “Узлуксизлик ва узвийлик”, “Яхши муаллим - сифатли таълим” каби инновацион тадбирлар комплекси ўқув жараёнига жорий этилган.

Халқ таълими вазирининг 2015 йил 25 мартдаги 02-655-сонли хати ва иловасида яхши муаллим қандай сифатларга эга бўлиши, жумладан ўқитувчи ўз фани бўйича Давлат таълим стандарти талаблари даражасида касбий тайёргарликка эга бўлиши, дарс жараёнида педагогик ва ахборот - коммуникация технологиялари воситаларидан ўз ўрнида самарали фойдалана олиши, дарсга қўйилган мақсадларга эришиши, ҳар бир дарсга масъулият билан ёндашиб, пухта тайёргарлик кўрган ҳолда кириши, ўқитувчи дарсни кузатишга келган компетентли комиссия аъзолари олдида ўзини йўқотиб қўймаслиги, фан тўғарақларини ташкил этиш, инсон ва устоз сифатида ўз ўқувчилари ҳамда ҳамкасбларига шахсий намуна бўлиши, яъни жамиятда ва жамоада обрў - эътиборга эга бўлиши лозимлиги баён этилган.

Сифатли таълимда эса кўп жиҳатдан қуйидаги омилларга боғлиқ бўлиб, унда ўқитувчининг дарсга пухта тайёргарлиги, ўқув йили бошланиши олдида ДТС, ўқув дастури, ўқув режа ҳамда уларга берилган тушунтириш хатларини ўрганиб чиқиши, ўқув фанига оид янги илмий ва методик адабиётларнинг мазмунини билан танишиб чиқиши лозим бўлади.

Фанига оид тегишли кўرғазмали ва дидактик материаллар, ўқув - жихозларини тайёрлаш, дарс ишланмаси (конспекти) тайёрлаш, илгор ўқитувчиларнинг иш тажрибаларини ўрганиш ва таҳлил қилиш орқали ўз билимини кенгайтириш, АКТ воситаларидан фойдаланиш, электрон дарсликлар, матн муҳаррирлари, “ZiyoNet” ахборот таълим порталига жойланган маълумотлардан самарали фойдаланиш малакаларига эга бўлишлари талаб этилади.

Сифатли таълимнинг яна бир жиҳати, ўқитувчиларнинг ўзаро тажриба алмашиш ва илгор иш тажрибаларини фаолиятларида жорий этиб боришидир.

Меҳнат таълими амалиётида кўпинча комбинациялашган (аралаш) дарслардан фойдаланилади. Бу дарснинг ўзига хос хусусиятлари шуки, унда бир

вақтнинг ўзида аҳамияти ҳар хил бўлган, бир қанча таълимий вазифалар бажарилади, жумладан халқ таълими тизимида интернет ресурсларидан онлайн режимида очик ахборотлардан фойдаланишни кун тартибига қўйиш зарур. Ўқувчиларга дарс жараёнида турли хил график тасвирлар, схемалар, расмлар ва шу кабилар кўрсатилиши лозим бўлади. Масалан: график тасвирда молекулалар тузилишини уч ўлчамли шаклда тасвирлаш ва намойиш этиш кўриш имконини беради. Хулоса қилиб айтганда, шу каби мавзуларни “яхши муаллим” томонидан ўқувчиларга баён этишда деворий кўرғазмалари қуроллар, техник воситалар ва ахборот коммуникация технологиялари воситаларидан унумли фойдаланиш, ўқувчиларнинг фикрлаш қобилияти ривожланишида, таълим-тарбия жараёнини янги сифат даражасига кўтаришда муҳим аҳамиятга эга бўлади. Демак, яхши муаллим таълим-тарбия жараёнида дарс сифати ва самарадорлигини таъминловчи, “сифатли таълим” берувчи асосий субъектдир.

Фойдаланган адабиётлар

1.Р.Жўраев, М.Юлдашев, И.Рахмонқулова, А.Бахромов, А.Зокиров. Педагог кадрлар малакасини узлуксиз ошириш механизмини такомиллаштириш. Ўқув-методик қўлланма. Тошкент: “Адабиёт учқунлари” 2014 йил 160 бет.

2.“Мақтаб таълимини ривожлантиришнинг замонавий аспекти” Халқ таълими вазирлигининг ҳудудий йиғилишининг тезислар тўплами. Ноябрь-декабрь. Тошкент: 2009 йил 50 бет.

3.Н.Аҳмедова. Умумий ўрта таълим муассасалари фаолияти самарадорлигини ошириш технологиялари.”Наманган” нашрети. 2014 йил 124 бет.

ASSISTING WOMEN'S REHABILITATION

A.Abdullaev teacher at Namangan State University
D.Musaeva a student at Namangan State University

Annotatsiya: Ushbu maqolada jamiyatning poydevori bo'lmish oila institutini mustahkamlash va rivojlantirish, oilada ayollar manfaatini himoya qilish va ularning xavfsizligini ta'minlash, shuningdek, og'ir ijtimoiy ahvolda qolgan shu jumladan, jismoniy, axloqiy, mulkiy zarar yetkazish natijasida sodir etilgan huquqbuzarliklar tufayli jabr ko'rgan ayollarga ko'maklashish va har tomonlama yordam ko'rsatishning ahamiyati to'g'risida fikr yuritilgan, turli manbalardan misollar keltirilgan.

Kalit so'zlar: oila, ayol, rehabilitatsiya, depressiya, oila va mahalla, ota-ona, farzand, hayotga qaytarish, jismoniy zo'rlik.

Annotation: This article emphasizes the significance of comprehensive support for women who suffered from offences as a result of physical, moral, property damage as well as strengthening and developing the institution of family, which is the cornerstone of society, protecting the interests of women in the family and providing security.

Key words: family, woman, rehabilitation, depression, family and mahalla, parents, child, bringing back to life, physical violence

A great deal of work has been done in strengthening and further developing family institution as a foundation of the society, protecting family interests and providing security and women employment, encouraging unity and closeness, promoting women's role in consolidation of families. It is well known that the family is the cell of every society. When a family is strong, prosperous, peaceful, honest, and clean, the community becomes peaceful, stable, and prosperous. On the contrary, if there is disorder, violence, and if there is no difference between halal and haram, that society will be destroyed, won't be peaceful and eventually will disappear. With the development of our society today, there are widespread suicides women, serious damage to the central nervous system, and mental illness some of them resulted from physical violence. This is, of course, a controversial problem. An effective system of medical and social care for lonely elderly people, pensioners, disabled grown-ups and children has been formed in the country during the past period.

Over the past year, more than 150 centers for rehabilitation and adaptation of victims of domestic violence and suicide prevention have been established at the nationwide regional offices of the Ministry of Makhalla and Family Support. They are called "Rehabilitation Centers".

Rehabilitation is a set of medical, pedagogical, and social measures aimed at restoring disturbed functions of the body and the abilities of patients and the disabled. Rehabilitation is one of the important conditions for building a lawful state and a just civil society. Patients with severe illnesses, severe damage to the central nervous system, mental disorders, and many other mental, physical and spiritual disabilities are in need of rehabilitation. As the President of the Republic of Uzbekistan, Shavkat Mirziyoyev said: "The woman will have to go her marital home with her child because of serious disagreement aroused between the husband and his wife. In most cases the house will be owned by husband or his father, so the wife will leave for her own relatives'. However, her birth home won't be convenient anymore because her brother will be married and have grown-up children. Then, suddenly, her sister comes back and begins living and owning in part of the house. There, the woman's sister-in-law, her brother's wife will be opposed to her. Sometimes, sister-in-laws even use physical violence to their husband's sister¹". Unfortunately, this is not a rare case. The Order "On measures to improve the system of social rehabilitation and adaptation, as well as prevention of domestic violence" by the President, Shavkat Mirziyoyev, was issued in order to avoid these kind of cases in future. The resolution states that the Republic of Uzbekistan guarantees the equality of citizens, including women and men, as well as responsibility for torture, oppression and other cruel or degrading treatment. The Decree sets out the important tasks of improving the legal awareness and legal culture in the society, strengthening the legitimacy of family and interpersonal relations, enhancing the sense of involvement in social rehabilitation and adaptation processes.

Rehabilitation centers provide women with legal, psychological and medical support. The main task of the centers is to prevent depression and suicide and support social adaptation of women. Women can stay in rehabilitation centers for up to five days. They have to go back to their families after rehabilitation. When they return

¹ Shavkat Mirziyoyev Miromonovich, the President of the Republic of Uzbekistan. The Order No. PQ-3827 02.07.2018

home, law enforcement agencies, together with neighborhood committees, monitor the family's situation and atmosphere. Today, the centers provide psychologists, lawyers and doctors. They give women a sense of self-confidence and a desire to live in peace. They will also be helping women acquire sewing, culinary and other occupations during their rehabilitation. They are also helped to obtain loans to start their own businesses. At present, the Ministry of Makhalla and Family Support is working to control and restore such families. Thus, the system of medical interventions based on the basic principles of rehabilitation will allow not only physical health, but also restoration of the social and labor position of patients in society.

The Ministry of Mahalla and Family Support has set up a nationwide emergency number (1146), "The Helpline". There is a 24-hour women's referral system and over 12,000 applications have been received so far. The legal framework for improving the socio-political activity of women and their equal work in all spheres has been created in the country.

Obviously, the protection of women's rights in the Republic is becoming a worldwide standard. In each regional and district center, a lot of work is being done to strengthen families, to develop family institutions and their activities in the community. This, in turn, contributes not only to the empowerment of women, but also to the welfare of the population.

References:

1. Shavkat Mirziyoev Miromonivich, the President of the Republic of Uzbekistan. The Order No. PQ-3827 02.07.2018
2. Shermukhamedov S., Ochildiev A. *Culture and Civilization*. - Fergana, 2000.
3. Yusupov E, Yusupov O'. *Family is a spring of spirituality*. – Tashkent, 2003
4. *Spirituality: A dictionary of key concepts*. – T.: Gafur Gulom Publishing House, 2009

ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ПРОБЛЕМЫ В СФЕРЕ ЗАЩИТЫ НАСЕЛЕНИЯ И ТЕРРИТОРИИ ОТ ЧС В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН.

Л.Г. Галимова старший преподаватель Института гражданской защиты
А.Ж. Курбонов преподаватель Ташкентский институт инженеров ирригации и механизации сельского хозяйства

Актуальность изучения психологии человека, оказавшегося в чрезвычайной ситуации, обусловлена необходимостью осуществлять теоретически и практически обоснованную подготовку населения, спасателей, руководителей к действиям в экстремальных ситуациях. Но, как правило, обычное население, оказывается не готово к такого рода ситуациям. Если гражданские лица, не имеющие специальной подготовки, оказываются в особых условиях, это, как правило, вызывает психологическую и эмоциональную напряженность, служит причиной психологического и физиологического стресса. У одних это сопровождается мобилизацией внутренних жизненных ресурсов; у других -

снижением или даже срывом работоспособности, ухудшением здоровья, физиологическими и психологическими нарушениями. Особенности реагирования зависят от индивидуальных особенностей человека, длительности и интенсивности воздействия стресс генных факторов, от осведомленности относительно происходящих событий и понимания степени их опасности. Значительную роль играет психическое состояние человека, сила и устойчивость нервной системы, предыдущий опыт действий в подобных ситуациях. Прежде чем говорить о реагировании и поведении населения на чрезвычайную ситуацию, рассмотрим сущностные характеристики этой ситуации. Под чрезвычайной ситуацией понимают обстановку на определенной территории, сложившаяся в результате аварии, катастрофы, опасного природного явления стихийного или иного бедствия, которые могут повлечь или повлекли за собой человеческие жертвы, ущерб здоровью людей или окружающей природной среде, значительные материальные потери и нарушение условий жизнедеятельности людей [1].

Каждый человек может попасть в экстремальную ситуацию, в такой ситуации возникает стрессовое состояние, которое вызывает возбуждение всех систем организма и оказывает значительное влияние на состояние, поведение и работоспособность человека. Чрезвычайные ситуации, независимо от источника происхождения, приводят к психозмоциональному перенапряжению. При эмоциональном стрессе происходят эмоциональные сдвиги в психике человека, изменяется процесс восприятия и мышления, нарушается двигательное и речевое поведение. В таком состоянии у него тормозятся другие психологические процессы.

Необходимо отметить, что в экстремальной ситуации психологическое состояние человека проходит ряд этапов, хотя имеются индивидуальные различия в характере реакций на чрезвычайную ситуацию. 1. «Острый эмоциональный шок», который характеризуется общим психическим напряжением с преобладанием чувства отчаяния и страха при обостренном восприятии происходящего. 2. «Психофизиологическая демобилизация», то есть существенное ухудшение самочувствия и психозмоционального состояния с преобладанием чувства растерянности, панических реакций, понижением моральных норм поведения, уменьшением уровня эффективности деятельности и мотивации к ней, депрессивными тенденциями. На втором этапе степень и характер психогенных нарушений во многом зависят не только от самой экстремальной ситуации, внезапности ее возникновения, интенсивности и продолжительности действия, но и от особенностей личности пострадавших, а также от сохранения опасности новых стрессовых воздействий. «Стадия разрешения», на которой постепенно стабилизируется настроение и самочувствие, однако сохраняются пониженный эмоциональный фон и ограниченность контактов с окружающими. Происходит сложная эмоциональная и когнитивная переработка ситуации, оценка собственных переживаний и ощущений. 4. «Восстановление». На этой стадии активизируется межличностное общение, в некоторой степени восстанавливаются психофизиологические и психозмоциональные функции человека. У людей,

переживших экстремальную ситуацию, значительно снижается работоспособность, а также критическое отношение к своим возможностям. При рассмотрении в современной научной литературе проблемы поведения человека в условиях ЧС большое внимание уделяется психологии страха. В экстремальных условиях человеку приходится преодолевать опасности, угрожающие его существованию, что вызывает страх, т.е. кратковременный или длительный эмоциональный процесс, порождаемый действительной или мнимой опасностью [2].

Поведение человека в ЧС определяет страх, вызванный травмирующими событиями. Страх в отдельных случаях настолько выражен, что вызывает психические расстройства. В результате ЧС часто у человека развиваются реактивные психозы по типу аффективно-шоковых реакций и истерических психозов, а также не психотические расстройства по типу острой реакции на стресс. По мнению российских ученых [3], поведение людей в экстремальных ситуациях делится на две категории:

Рациональное, адаптивное поведение с психическим самоконтролем и способностью к управлению эмоциональным состоянием и поведением.

2. Патологический характер поведения. Масса людей становится растерянной, безынициативной. Частным случаем является паника, при которой страх перед опасностью овладевает группой людей. Паника проявляется как дикое беспорядочное бегство, когда людьми руководит сознание, низведенное до примитивного уровня. В экстремальных ситуациях паническая толпа представляет наибольшую опасность. Толпа понимается как бесструктурное скопление людей, лишенных ясно осознаваемой общности целей, но связанных сходством эмоционального состояния и общим объектом внимания. Признаки толпы: одновременная вовлеченность большого количества людей, иррациональность (ослабление сознательного контроля), слабая структурированность, т.е. размытость позиционно ролевой структуры. При землетрясении от 25% до 45% травм возникает от падающих конструкций зданий и 55% - от неправильного поведения людей (паника, неумение укрыться и т.д.). Одним из решающих факторов поведения населения в условиях чрезвычайной ситуации является наличие возбуждающих и стимулирующих панику слухов, например преувеличивающих предстоящую опасность или степень ее негативных последствий. Так нередко было на радиоактивно загрязненных территориях после Чернобыльской катастрофы, произошедшей 26 апреля 1986 года. Взрывом был полностью разрушен реактор и повреждено здание энергоблока, начался пожар. На место аварии быстро прибыли пожарные, которые к 6 часам утра полностью справились с огнем. Уже через час после начала тушения у многих пожарных стали появляться симптомы радиационного поражения. Люди получили большие дозы радиации, и 28 из пожарных умерли от лучевой болезни в последующие недели. С первых после взрыва начались мероприятия по ликвидации последствий катастрофы, активная фаза которых продолжалась несколько месяцев, а фактически длилась вплоть до 1994 года. Когда началась эвакуация населения из зараженных территорий, многие люди не хотели уезжать и бросать свои дома, опасаясь мародеров, не имея возможности

забрать домашних животных, вещи и т.д. Позже, спустя месяцы после аварии, многие люди, зачастую насильно эвакуированные из зараженных местностей, проявили спекулятивное поведение, завышая показатели радиационного заражения, чтобы получить больше компенсаций, льгот и т.п.

Опыт зарубежных стран показывает, что возможность противостоять чрезвычайной ситуации включает три составляющие: 1) физиологическую устойчивость, обусловленную состоянием физических и физиологических качеств организма (конституционные особенности, тип нервной системы, вегетативная пластичность); 2) психическую устойчивость, обусловленную подготовкой и общим уровнем качеств личности (специальные навыки действий в экстремальной ситуации, наличие положительной мотивации и др.); 3) психологическую готовность (активно-деятельностное состояние, мобилизованность всех сил и возможностей на предстоящие действия).

Также местные СМИ (по сравнению с центральными) в период стихийных бедствий и ликвидации их последствий обладают большей эффективностью воздействия на сознание людей, поскольку газеты, телевидение, радио того или иного района непосредственно включаются в экстремальные условия его жизнедеятельности, в процесс ликвидации последствий ЧС. Информационные сообщения для жителей населенных пунктов, подвергшихся стихийному бедствию, должны проходить оперативную психологическую экспертизу. Для всех источников информации следует готовить соответствующие рекомендации, основанные на знании психологических закономерностей восприятия и переработки людьми информации в условиях стресса. Мероприятия по ликвидации последствий стихийных бедствий желательно «привязывать» к естественным циклам и суточным ритмам жизнедеятельности человека (за исключением случаев, когда приостановка аварийно восстановительных работ или их замедление грозит появлением новых жертв). В чрезвычайных ситуациях, при экстремальных воздействиях на психику человека зачастую развиваются массовые психогенные расстройства, вносящие дезорганизацию в общий ход спасательных работ.

Известно, что защита населения и территорий от ЧС – одна из важнейших функций государства наряду с обеспечением национальной безопасности. Формирование таких морально-психологических качеств как инициатива, быстрота реакции, решительность, способность противостоять страху и панике, выдерживать предельные физические нагрузки, должно стать неотъемлемой частью системы обучения и воспитания населения Узбекистана к действиям в чрезвычайных ситуациях.

Для эффективной работы спасателей, как специалистам-психологам, так и самим сотрудникам МЧС необходимо знать признаки этих расстройств и способы оказания воздействия на людей в условиях паники, носящей массовый характер. Максимально эффективна возможность изначального предотвращения возникновения панических настроений. Оптимальным условием для этого является обладание необходимой информацией о ситуации, паническом страхе, способах функционирования толпы и о мерах её ликвидации [4].

Для оптимизации состояния людей в условиях ЧС следует: учитывать, что человек, перенесший психическую травму, восстанавливается быстрее, если его привлекать к физической работе, причем не индивидуально, а в составе группы; готовить население к действиям в чрезвычайных ситуациях, формировать психическую устойчивость, воспитывать волю. Уровень психологической подготовки людей – один из важнейших факторов, обуславливающий эффективное противодействие чрезвычайным ситуациям и их последствиям. Малейшая растерянность и проявление страха, особенно в самом начале аварии или катастрофы, могут привести к тяжелым, а порой и к непоправимым последствиям. В первую очередь это относится к должностным лицам, обязанным немедленно принять меры, мобилизующие коллектив, проявляя при этом личную дисциплинированность и выдержку.

Из всего вышеизложенного можно сделать вывод, что необходимо подготавливать население, не только к грамотным действиям в экстремальных ситуациях (в т.ч. по оказанию первой помощи пострадавшим), но и подготавливать морально-психологически, для развития способности реально оценивать ситуацию, принимать правильное решение и заставлять себя действовать адекватно ситуации, в противном случае в стрессовом состоянии человек опасен, он не в состоянии действовать рационально и грамотно. Что часто приводит к увеличению жертв среди населения.

Список использованной литературы:

1. Закон Республики Узбекистан «О защите населения и территорий от чрезвычайных ситуаций природного и техногенного характера».
2. Гуренкова Т.Н. Психология экстремальных ситуаций для спасателей и пожарных / Т.Н.Гуренкова, И.Н.Елисеева, Т.Ю.Кузнецова и др. / Под общ. ред. Ю.С.Шойгу. – М.: Смысл, 2007.-319 с.
3. Дружинин В.Ф. Мотивация деятельности в чрезвычайных ситуациях / В.Ф.Дружинин. – М.: Из-во МНЭПУ, 2001.-168 с.
4. Шойгу С.К. Учеб. спасателя / С.К.Шойгу, С.М.Кудинов, А.Ф.Неживой, С.А.Ножевой. – 2-е изд., перераб. и доп. – Краснодар: Советская Кубань, 2008.

FVV TIZIMI HARBIY XIZMATCHILARI VA QUTQARUVCHILARINING PSIXIK HAMDA PSIXOFIZIOLOGIK HOLATLARINI BAHOLASH

A.J.Kurbonov Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muxandislari instituti o'qituvchisi.

S.A.Ziyavaddinova Yashnobod tumani XTBga 255-maktab o'qituvchisi.

Annotatsiya: Maqolada harbiy xizmatchilar va qutqaruvchilarning psixik va psixofiziologik holatlari, ijtimoiy hayotda o'zga kishilar bilan qiladigan turli munosabatlarida o'zini anglashi, o'zini «men» deb his qilishining vujudga kelishi va taraqqiy etishi hamda psixikaning nerv fiziologik asoslari haqidagi masalalar yoritilgan.

В статье: освещены вопросы психического и психофизиологического состояния военнослужащих и спасателей, их восприятия в различных отношениях с другими людьми в общественной жизни, формирования и развития чувства «я», а также нервно-физиологические основы психики.

The article: deals with the issues of mental and psycho-physiological state of soldiers and rescuers, their perception in different relationships with other people in public life, the formation and development of the sense of "I", as well as the neurological and physiological basis of the psyche.

Kalit so'zlar: Psixika, psixofiziologiya, individ, shaxs, harbiy psixologiya, ekstremal psixologiya, fikr, motiv, hissiyot.

Ключевые слова: Психика, психофизиология, индивид, личность, военная психология, экстремальная психология, мысль, мотив, эмоциональность.

Keywords: Psyche, psychophysiology, individual, personality, military psychology, extreme psychology, thought, motive, emotionality.

Bugungi kunda respublikamizda aholining xavfsizligini ta'minlash, jumladan aholini va hududlarni tabiiy hamda texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish sohasida bir qator ishlar amalga oshirilmoqda. Mazkur tadbirlarni amalga oshirishda Favqulodda vaziyatlar vazirligining harbiy xizmatchi va qutqaruvchilari kechayu-kunduz xizmat qilmoqdalar. SHU boisdan vazirlik harbiy xizmatchi va qutqaruvchilari tomonidan hayoti xavf ostida qolgan insonlarni qutqarish jarayonida ulardan kuchli psixologik tayyorgarlik talab etiladi.

Ta'kidlash kerakki, harbiy xizmatchi va qutqaruvchilarning psixologiyasi muammolarini izchil va atroflicha, muayyan yo'nalishda, ma'lum konsepsiya asosida o'rganish, ularda psixik holatlarning aks etishi, namoyon bo'lishi, rivojlanishi va o'zgarishlarini o'rganish dolzarb muammolardan biridir.

Ma'lumki, harbiy psixologiya – harbiy faoliyatning inson psixikasiga ta'siri, uning xususiyatlarini, psixologik qonuniyatlarini o'rganuvchi, tadqiq qiluvchi sohadir. Jangchi shaxsining psixologik faktorlarini tekshirish – harbiy psixologiyaning asosiy muammolaridan biridir. Harbiy jamoalarda shaxslararo munosabatlar, komandirlar bilan bo'ysunuvchilar muloqotining psixologik xususiyatlari, favqulodda vaziyatlarda harbiy xizmatchilar psixikasining o'zgarishi, bo'linmalarda barqaror psixologik muhitni yuzaga keltirish masalasi, harbiy-vatanparvarlik tuyg'usini shakllantirish birlamchi muammo hisoblanadi.

Harbiy xizmatchi va xizmatchi qutqaruvchilarning harbiy harakatlar sharoitidagi xulq-atvori bilan bog'liq hodisalar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarini, psixologik targ'ibot metodlarini, harbiy texnikani boshqarishning psixologik muammolarini o'rganadi. Harbiy psixologiya o'z oldiga qo'ygan vazifalarni ma'lum usullar yordamida hal qiladi. Har qanday usul nazariy metodologiyaga asoslanadi. Kuzatish va eksperiment axborot yig'ishning eng muhim usullari hisoblanadi. Kuzatish harbiy psixologiya usullari orasida eng keng qo'llaniladigani bo'lib, uning vositasida ma'lum bir inson yoki jamoa (ularning psixologik xususiyatlari) haqida faktlar aniq maqsad bilan izchil ravishda yig'ib boriladi. SHuni alohida qayd qilib o'tish kerakki, kuzatish uslubi bilan o'rganilayotgan ob'yekt faoliyatining tashqi tomonlarigina emas,

balki uni yuzaga keltirgan ichki kuchlarni - fikr, motiv, hissiyot, maqsad va ehtiyojlarni ham kuzatish, o'rganish mumkin. SHubhasiz tafakkur insonlar, jumladan, harbiy xizmatchi va qutqaruvchilarning aqliy faoliyatining yuksak shaklidir. Tafakkur orqali ular sezgi a'zolari bilan bevosita aks ettirib bo'lmaydigan narsa va hodisalarni ongida aks ettiradi.

Ma'lumki, psixofiziologiya – odamlarning individual psixologik va psixofiziologik farqlarini tadqiq qiluvchi, psixikaning genetikasini o'rganuvchi sohadir. Psixofiziologiyani ikkita asosiy tadqiqot yondashuvi mavjud: a) mustaqil amaliy tadqiqotlarda olingan fiziologik va psixologik natijalarni o'zaro solishtirish, qiyoslash; b) biron bir faoliyatda fiziologik funksiyalar o'zgarishini o'rganish [1].

Darhaqiqat, harbiy xizmatchi va qutqaruvchilarning psixofiziologik holatlarini kuzatish jarayonida ularning har biri individuallikka ega ekanligini ko'rishimiz mumkin. Bu holatlarga ta'sir etuvchi omillar bu shaxsning ijtimoiy, ma'naviy va ishlab chiqarish faoliyatiga tayyorlash maqsadida uning ma'naviy, jismoniy kamolotiga muntazam ravishda ta'sir ko'rsatishidir. Ma'lumki, odam ongining yuksak belgilaridan biri uning o'zini anglashidir. Odamning o'zini anglashi o'z navbatida shaxsning muhim belgisi hisoblanadi. Odam o'z tevarak-atrofidagi olamni biluvchi va shu olamga ta'sir etuvchi sub'yektdir. Odam idrok etadigan, tasavvur qiladigan narsalari uchun ob'yektdir. Ana shu nuqtai-nazarni olganda, odamning o'zini anglashi sub'yektiv ravishda o'zini «men» deb his qilishida ifodalanadi.

Ta'kidlash lozimki, Favqulodda vaziyatlar vazirligi faoliyati boshqa qo'shin turlarining faoliyatidan o'zining xarakteristikligi, ekstremal holatlarning ko'pligi va buning natijasida kelib chiqadigan psixologik zo'riqishlarning yuqori darajadali bilan farq qiladi. Buning uchun Favqulodda vaziyatlar vazirligi xodimidan maxsus psixologik tayyorgarlikka ega bo'lish talab qilinadi va bugungi kunda ko'pgina harbiy jihatdan ilg'or hisoblangan mamlakatlarda tayyorgarlikning bu turiga e'tibor katta. SHu boisdan, jangovar xizmat faoliyati ta'minotining bu turi O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tizimida yangi yo'nalish bo'lib, globallashuv davrida keskin sur'atlarda rivojlanib borayotgan informativlashuv jarayonlarining mahsuli hisoblangan psixologik qarama-qarshiliklar va urush omillarining inson ruhiyati, jumladan harbiy xizmatchilarning ruhiy holatiga ta'sirini aniqlash, uni yo'naltirish va talab qilinishiga ko'ra qarshi turishda muhim ahamiyatga ega.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, FVV tizimida favqulodda vaziyatlarning oldini olish va ularni bartaraf etish sohasida harbiy xizmatchi va xizmatchi qutqaruvchilarning psixologik va psixofiziologik holatlarini o'rganishda bir qator muammolar mavjud. Xususan:

-Favqulodda vaziyatlarni bartaraf etishda yuzaga keladigan sinovlarga ongli munosabatning to'liq shakllantirilmaganligi;

-Tabiiy ofat, texnogen yoki antropogen halokat va boshqa favqulodda vaziyatlarda unga ta'sir qiluvchi omillarning tabiatini chuqur anglamaslik;

-Xavf va og'ir vaziyatlarda ularning faoliyatiga ta'sir qiladigan ichki keskinlik holatiga olib kelish mumkinligini anglamaslik;

-Olingan bilim va ko'nikmalarni favqulodda vaziyatlar sharoitida ro'yobga chiqarishda, motivitsiya bilan o'z irodasini namoyon etish mumkinligini anglamaslik va hokazo.

Shuning uchun favqulodda vaziyatlarda to'g'ri harakatlanish uchun ularning psixologik barqarorligini mustahkamlash talab etiladi hamda psixologik treninglar o'tkazib boriladi. Bu harbiy xizmatchi va xizmatchi qutqaruvchilarning psixologik va psixofiziologik xususiyatlarini optimallashtiradi. Fazilatlarini favqulodda vaziyatlarning o'choqlarida ishlashga moslashtiradi. Favqulodda vaziyatlarda qutqarish ishlarini yetarli psixologik fanni boshlashdan oldin ularni yaratishga qaratilgan maxsus tadbirlar majmui favqulodda vaziyat sharoitini his qilish bilan bog'liq stressni minimallashtirishga yordam beradi. SHuningdek, sog'liqni saqlash holati va mutaxassislarning professional ish qobiliyatini saqlab qolishga yordam beradi. Psixologik tayyorgarlik orqali harbiy xizmatchi va xizmatchi qutqaruvchilarning psixologik xususiyatlari, bilimlari va ko'nikmalari, favqulodda vaziyatlarning haqiqiy talablari o'rtasida maksimal muvofiqlik ta'minlanadi [2].

Shu boisdan, har bir harbiy xizmatchi va bir butun harbiy jamoaning ongi, ruhiyati va xulq-atvorida urush va tinchlik davrida jamiyat barqarorligini himoya qilish bo'yicha jangovar-xizmat vazifalarini samarali bajarishni ta'minlovchi yuqori darajadagi ma'naviy shaylik va psixologik barqarorlik shakllantiriladi. Psixologik barqarorlik o'z-o'zidan psixologik ta'minotni yuzaga keltiradi.

Psixologik ta'minot bir-biri bilan bog'liq bo'lgan uch yo'nalishdagi faoliyatdan iborat bo'lib, ulardan:

- Birinchisi – harbiy xizmatchilarning jangovar-xizmat vazifalarini bajarishdagi xulq-atvorini belgilovchi va tartibga soluvchi dunyoqarashlari, maslaklari, ma'naviy-ahloqiy me'yor va tamoyillarni shakllantirishga yo'naltirilgan harakatlar majmusini qamrab oladi;

- Ikkinchisi – harbiy jamoalar psixologiyasi, ularning jangovar-xizmat vazifalarini bajarish samarasini oshirish maqsadiga yo'naltirilgan ma'naviy-ruhiy tayyorgarligiga aloqador bo'lgan barcha harakatlarni o'zida mujassam etadi;

- Uchinchisi shaxsning ijtimoiylashuvi, uning ijtimoiy munosabatlar tizimiga integratsiyasi, harbiy xizmatchilar va ularning oila a'zolari ijtimoiy himoyasi jarayonlari bilan bog'liq bo'ladi [3].

Bundan tashqari, ijtimoiy muhitdagi turli hodisalar harbiy xizmatchi va qutqaruvchilarning ongiga bevosita ta'sir qilib, unda chuqur iz qoldiradi.

Harbiy xizmatchi va xizmatchi-qutqaruvchilarning tabiatini o'zgartiradigan, uning shaxsini tarkib topishiga ta'sir qiladigan kuch ijtimoiy omillar yoki boshqacharoq qilib aytganda, jamiyat ishlab chiqarish kuchlari hamda ishlab chiqarish munosabatlarining o'sishi va o'zgarishidir. Bundan tashqari, harbiy xizmatchi va xizmatchi-qutqaruvchilar shaxsining tarkib topishiga ta'sir qiluvchi kuchli omil - inson orttirgan tajribalarining avloddan-avlodga tarbiya vositasi orqali berilishidir. SHunday qilib, inson shaxsi juda murakkab psixologik kategoriya bo'lib, u kishining individual hayoti davomida ma'lum konkret omillarning ta'siri ostida sekin-asta tarkib topadi. Ilmiy manbalarga qaraganda, inson shaxsi uchta faktorlar ta'sirida tarkib topadi. Ulardan birinchisi odam tug'ilib o'sadigan tashqi ijtimoiy muhitning ta'siri bo'lsa, ikkinchisi odamga uzoq muddat davomida sistemali beriladigan ijtimoiy ta'lim-tarbiyaning ta'siridir va nihoyat uchinchisi, odamga nasliy yo'l bilan beradigan irsiy omillarning ta'siridir. Shunday qilib, harbiy xizmatchi va xizmatchi-

qutqaruvchilarning psixik taraqqiyotida va shaxsiy sifatlarining tarkib topishida tashqi ijtimoiy muhitning roli hal qiluvchi ahamiyatga egadir.

Shu o'rinda ta'kidlash kerakki, ekstremal psixologiya harbiy xizmatchi va xizmatchi-qutqaruvchilarning o'zgargan muhit shart-sharoitlarida psixik faoliyatining kechish qonuniyatlarini o'rganadi. Ekstremal sharoitda harbiy xizmatchi va xizmatchi-qutqaruvchilarga bir qancha faktorlar ta'sir qiladi: monotoniya, makon o'zgarishi, xavf omili, vaqt, shaxsiy ahamiyatga molik axborotning o'zgarishi, yolg'izlik, guruhiy izolyatsiya va hayotiy xavf. Ekstremal sharoitga harbiy xizmatchi va xizmatchi-qutqaruvchilar moslashishining biologik vazifasi ekstremal sharoitda xarakatlanganlarni tanlab olish, mashqlantirish, trening o'tkazishdan iborat.

Harbiy xizmatchi va xizmatchi-qutqaruvchilarda jangovar holat (ekstremal holatlar) ta'sirlariga nisbatan psixologik barqarorlikni hosil qilish, psixologik jipslikni shakllantirish va jangovar holatlarda talab darajasidagi psixologik holatni ta'minlash zarur. SHu o'rinda favqulodda vaziyatlarda asosiy psixologik omillarni keltirib o'tamiz:

- Xavf – o'z sog'lig'i va hayotiga tahdid borligini anglashi;
- Kutilmaganlik – vazifani bajarish vaqtidagi holatning kutilmaganda o'zgarishi;
- Noaniqlik – vazifani bajarish shartlari yoki dushman to'g'risidagi ma'lumotlarning kamligi yoki zidligi;
- Harakatlar sur'atining o'sishi – vazifani bajarishga sarflanadigan vaqtning qisqaligi;
- Vaqt taqchilligi.

Yuqorida keltirilgan omillar tufayli odam bilimlarni, ko'nikma va malakalarni, kishining sotsial tajribalarini o'zlashtiribgina qolmay, balki o'zining idroki, tafakkuri, hayoli, hissiyotlari va irodasini bir so'z bilan aytganda, voqelikka bo'lgan ongli munosabatini hamda o'z harakatlari va hulk-atvorining motivlarini tarkib topitiradi.

Harbiy xizmatchi va xizmatchi-qutqaruvchilar shaxsining tarkib topishida tashqi ijtimoiy muhitning roli haqida gap borar ekan, shuni ham ta'kidlab o'tish zarurki, ayrim g'ayri tabiiy hodisalar inson shaxsining tarkib topishida tashqi muhit ta'sirining hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanligini to'la tasdiqlaydi.

FVV harbiy xizmatchi va xizmatchi-qutqaruvchilari favqulodda vaziyatlar va qutqaruv ishlarini olib boradi. SHuning uchun bugungi kunda ularning ruhiy barqarorligi, ruhiy tomondan ta'minlanishi muhim ahamiyatga ega.

O'zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligida 2014 yilda Psixologik yordam ko'rsatish bo'limi tashkil etilgan. Mazkur bo'lim ikkita asosiy vazifani bajaradi:

Birinchisi, huquqni muhofaza qilish idoralari uchun an'anaviy, qutqaruv xodimlari, xodimlar, shifokorlar va boshqa turdagi mutaxassislarining favqulodda vaziyatlardagi faoliyatini psixologik qo'llab-quvvatlash vazifasi. Bu professional tanlash, psixologik tayyorgarlik, professional vazifalarni bajarish bilan bog'liq muammolarni hal qilishdan iborat.

Ikkinchi vazifasi - favqulodda vaziyatlarda birinchi psixologik yordam ko'rsatish.

Favqulodda vaziyatlardan jabrlanganlarga favqulodda psixologik yordam ko'rsatish bo'limning vazifasi bo'lib, u asosan vazirlikning psixologik bo'linmasini shakllantirishni belgilaydi. Vazirlik psixologlari o'z faoliyatlarida ekstremal

psixologiya sohasida olingan tajribaga tayanib, psixologik diagnostika va psixologik tayyorgarlikda zamonaviy yondashuvlarni faol ravishda ishlab chiqishadi. Favqulodda vaziyatlarda va favqulodda holatlarda jabrlanganlarga favqulodda psixologik yordam ko'rsatish O'zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligining psixologik bo'limi faoliyatining eng muhim yo'nalishlaridan biridir. Qutqaruv va boshqa shoshilinch ishlarni psixologik qo'llab-quvvatlash favqulodda vaziyatlarda harakat qilishning ajralmas qismi hisoblanadi. Mazkur ish favqulodda vaziyat zonasida ijtimoiy-psixologik vaziyatni barqarorlashtirish, qurbonlarga favqulodda psixologik yordam ko'rsatish, O'zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligining qurbonlari va mutaxassislari uchun salbiy psixologik oqibatlariga olib kelishining oldini olish bo'yicha bir qator chora-tadbirlarni o'z ichiga oladi. Favqulodda psixologik yordam shoshilinch tibbiy yordam bilan taqqoslanadi - qanchalik tez ta'minlansa, shikastlangan kishi ruhiy sog'lig'ini saqlab qolishi va normal hayotga qaytishi ehtimoli ko'proq. Shuning uchun O'zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligining psixologlari favqulodda vaziyat zonasiga yetib kelishadi va favqulodda vaziyat bartaraf etilgunga qadar soatlab ishlaydi.

Favqulodda vaziyatlarda psixologning birinchi harakatlari - ta'sirlangan kishiga eng kuchli hissiy munosabat bilan kurashishga yordam berishdan iborat. Bu qo'rquv, jahl, tajovuz, nafrat, xavotir, umidsizlik, zararlanish hissi bo'lishi mumkin. Bu o'tkir stress reaksiyalari inson uchun ham, uning atrofidagilari ruhiy salomatligi uchun ham juda kuchli energiya va xavflidir. Favqulodda vaziyat hududida faoliyat yuritayotgan psixologlarning vazifalari nafaqat favqulodda psixologik yordam ko'rsatish, balki o'lganlar va yaradorlarning yaqinlari uchun axborot va psixologik yordamni ham o'z ichiga oladi. Noaniqlik omili va axborot vakumining ta'siri daxldor odamlarning ruhiga eng zararli ta'sirlardan biridir. Favqulodda vaziyat oqibatlarini bartaraf etishda odamlar jabrlanganlarning qayerda va qanday ahvolda ekanligi, o'liklarni aniqlash tartibi, hozirgi holatlar va favqulodda vaziyatlarni bartaraf etishga qaratilgan harakatlarni to'g'risida ma'lumot olish uchun juda zarur. Ta'kidlash kerakki, Favqulodda vaziyatlar vazirligining psixologlari turli xil favqulodda vaziyatlarda jabrlanganlarga qisqa vaqt ichida yordam berib kelmoqda [4].

O'zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligining mutaxassislari - qutqaruvchilar, shifokorlar, ekstremal sharoitlarda ishlaydigan mina qutqaruvchilari katta jismoniy va hissiy stresslarga duch kelishmoqda. SHuning uchun O'zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligida psixologik ko'mak ko'rsatish, psixologik diagnostika, o'qitish va profilaktika qilish bo'yicha barcha ishlar kasbiy faoliyatning salbiy oqibatlarini kamaytirishga qaratilgan.

Psixodiagnostika dasturlarining bir qismi sifatida har xil psixologik tekshiruvlar sinash va maxsus uskuna usullari yordamida amalga oshiriladi. Ushbu so'rovlar nafaqat O'zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligiga xizmat safari uchun nomzodlarning tayyorgarlik darajasini baholashga, balki O'zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligi xodimlarining ruhiy holatini dinamik monitoringini amalga oshirishga imkon beradi. Tashxis tadbirlarining natijalari professional faoliyat bilan bog'liq bo'lgan salbiy psixologik ta'sirlarni o'z vaqtida aniqlash imkonini beradi. Psixologik treninglar doirasida O'zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligining xodimlari bilim va ko'nikmalarga ega bo'lib, ular

bir tomondan o'zlarining kasbiy vazifalarini yanada samarali bajarishiga imkon berishadi, ikkinchidan esa ularning ruhiy salomatligini saqlab qolishga erishiladi.

O'zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligining xodimlarini psixologik tayyorlash kasbiy tayyorgarlikning ajralmas qismi hisoblanadi. U O'zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligining mutaxassislari uchun ma'ruzalar va o'quv mashg'ulotlari, o'quv-metodik seminarlar, psixologik mavzular bo'yicha malaka oshirish kurslarini, shu jumladan zamonaviy interfaol texnika va innovatsion pedagogik usullardan foydalanishni o'z ichiga oladi.

O'zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligining Psixologik yordam bo'limi mutaxassislari xalqaro ilmiy anjumanlarda, o'quv-uslubiy yig'ilishlarda, simpoziumlarda va seminarlarda ishtirok etadilar.

Bundan tashqari respublikada Qurolli kuchlar tizimida harbiy xizmatchilarning psixologik tayyorgarligini ta'minlash borasida bir qator ishlar olib borilmoqda [3].

Xususan:

-kasbning faoliyatiga, ijtimoiy mavqeiga, ahamiyatiga va nufuziga bo'lgan g'ayratini oshirishga qaratilgan harbiy xizmatchilar mehnatining ma'naviy-psixologik asoslarini shakllantirish;

-harbiy xizmatchilar tomonidan xizmatlarning shartlari va mazmuniga yo'naltirish maqsadida professional ahamiyatga ega psixologik va psixofiziologik hislatlarni (harbiy xizmatchilarning umumlashtirilgan "portreti") o'rganish;

-harbiy xizmatchilarning professional jihatdan muhim psixologik va psixofiziologik xususiyatlarini o'rganishga asoslangan shaxsiy tavsiyalar;

-harbiy xizmatchilarning shaxsiy xususiyatlarini hisobga olgan holda, bilim, ko'nikmalarni ro'yobga chiqarish qobiliyatini o'rgatish orqali favqulodda vaziyatlarda harakat qilishga psixologik tayyorgarlikni shakllantirish;

-maxsus ta'lim va tarbiya jarayonida ekstremal vaziyatlarni modellashtirish orqali psixologik tayyorgarlikni amalga oshirish;

-xizmatlarni olib borishda ruhiy holatni mustaqil boshqarishning maxsus usullarini o'rgatish;

-ekstremal sharoitlarda jamoa harakatlarining muvaffaqiyati ijtimoiy-psixologik omillarini harbiy xizmatchilar tomonidan o'rganish;

-psixologik tayyorgarlikda ruhiy holatni tuzatishning maxsus usullari bilan harbiy xizmatchilarning ruhiy holatini psixoprofilaktika va optimallashtirish bo'yicha chora-tadbirlarni amalga oshirish va hokazo.

Ammo ta'kidlash kerakki, soha tizimga to'liq integratsiya qilinmaganligi bois, olib borilayotgan ishlarni talab darajasida deb bo'lmaydi. SHu boisdan, ilg'or xorijiy davlatlarning tajribalarini o'rganish talab etiladi. Jumladan, Rossiya Federatsiyasining psixologik yordam xizmatiga nazar soladigan bo'lsak, bu xizmat 1995 yilda tashkil etilgan bo'lib, qarindoshlari vafot etgan yoki favqulodda vaziyatlarda azob chekayotgan, shuningdek, jabrlanganlarni va ekstremal sharoitlarda ishlaydigan mutaxassislarni qo'llab-quvvatlashga xizmat qiladi.

Rossiya Federatsiyasi Favqulodda vaziyatlar vazirligi psixologlari ikkita asosiy yo'nalishda ishlaydilar. Xususan:

–birinchi navbatda, qutqaruvchilar, o't o'chiruvchilar va Rossiya Favqulodda vaziyatlar vazirligining Oliy o'quv yurtlariga kiruvchi abituriyentlar bilan ishlaydilar. Ish psixologik diagnostika (kundalik ishlarning juda muhim yo'nalishi), ruhiy salomatlikni tayyorlash, tuzatish va tiklash, kasbiy vazifalarni bajarish bilan bog'liq muammolarni hal qilish, shuningdek, Rossiya Favqulodda vaziyatlar vazirligiga qabul qilinadigan xodimning psixologik muvofiqligini tekshirishdan iborat.

-Ikkinchi yo'nalish, aholiga turli xil psixologik yordam ko'rsatishdan iborat bo'lib, psixologlar favqulodda vaziyatlarda har kuni telefon orqali maslahat berishadi, shuningdek, rasmiy portalda aholi bilan yozishmalar bo'yicha psixologik yordam ko'rsatiladi. (<http://psi.mchs.gov.ru/>) Ta'kidlash kerakki, har bir inson ochiq rejimda ham, anonim tarzda ham, Rossiya Favqulodda vaziyatlar vazirligi psixologidan yordam so'rashi mumkin.

Shuningdek, Rossiya FVV psixologlari o'z ishlarida ekstremal psixologiya sohasida to'plangan tajribaga tayanadilar va ekstremal profil mutaxassislarini psixofiziologik diagnostika, psixologik tayyorgarlik va psixologik reabilitatsiya qilishda zamonaviy yondashuvlarni faol rivojlantiradilar. Markaz psixologlari soatlab ishlaydi, mutaxassislar doimo "jangovar" tayyorgarlikda bo'lishadi. Favqulodda yordam bo'limida psixologlar favqulodda psixologik yordam ko'rsatish uchun favqulodda vaziyatlar bo'limiga borishga tayyordirlar. Bundan tashqari, Smolensk, Voronej, Belgorod, Bryansk va Moskva viloyatlarida harbiy xizmatchilar va xizmatchi qutqaruvchilar uchun haqiqiy jangovar harakatlarga taqlid qilish uchun psixologik to'siqlar yaratilgan [5].

Belarus' Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligining psixologik xizmati 2012 yilda tashkil etilgan bo'lib, Belarus' Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligi xodimlarining kasbiy faoliyatlarini psixologik qo'llab-quvvatlash bo'yicha choratadbirlarni amalga oshirish, Favqulodda vaziyatlar vazirligining ta'lim muassasalari, favqulodda vaziyatlarda, shu jumladan, chet ellarda jabrlanganlarga psixologik yordam ko'rsatish yo'lga qo'yilgan.

Belarus' Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligining psixologik xizmati quyidagilarni o'z ichiga oladi: Fuqaro muhofazasi universitetining psixologik yordam markazi; Hududiy, Minsk shahar hokimiyatlarini psixologik qo'llab-quvvatlash sektori; «Respublika maxsus maqsadli bo'linmasi» davlat yong'in-qutqaruv institutining mutaxassis psixologi; yong'inni qutqarish guruhlarining psixologlari; Ta'lim muassasalari psixologlari.

Belarus' Respublikasida psixologik xizmatning asosiy vazifalari: Favqulodda vaziyatlar organlari va bo'linmalarida psixologik ishlarni tashkil etish; Favqulodda vaziyatda fuqarolarga grant asosida psixologik yordam ko'rsatish; Favqulodda vaziyatlar qurbonlariga, tabiiy va texnogen favqulodda vaziyatlarda ishlaydigan xodimlarga, shuningdek Favqulodda vaziyatlar vazirligining xodimlariga psixologik yordam ko'rsatish bo'yicha tadbirlarni tashkil etish va amalga oshirish; Xodimlarning faoliyatini psixologik qo'llab-quvvatlashdan iborat.

Favqulodda vaziyatlar vazirligi Fuqaro muhofazasi universiteti psixologik yordam markazi faoliyati Favqulodda vaziyatlar vazirligining xodimlariga psixologik yordam ko'rsatish va ularni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan bo'lib, vazirlik xodimlari tomonidan rasmiy vazifalarni bajarish bilan bog'liq psixologik, sog'likni saqlash va

kasb-hunar stressining oqibatlarini bartaraf etishga qaratilgan faoliyatni o'z ichiga oladi. SHuningdek, vazirlik xodimlarining professional faoliyatini psixologik qo'llab-quvvatlash quyidagilarni o'z ichiga oladi: ularning ruhiy-emotsional holatini psixodiagnostik baholash; professional jihatdan muhim fazilatlarini, psixologik bilimlarni, ko'nikma va qobiliyatlarni, shuningdek, hissiy va hissiy stresslarni kamaytirishga qaratilgan ma'ruzalar va amaliy mashg'ulotlarni tayyorlash va o'tkazish; xodimlar va ularning oilalari uchun psixologik maslahat berish; favqulodda vaziyatlar uchun jismoniy shaxslar va jamoalarda ijtimoiy-psixologik muhitni o'rganish; inqiroz va ekstremal psixologiya sohasida tadqiqotlar va faoliyatni tashkil qilish.

Shu bilan birga Belarus' Respublikasida ekstremal psixologiyasi va ekstremal vaziyatlarning psixologiyasi sohasidagi ilmiy-tadqiqot ishlariga alohida e'tibor qaratiladi. Xizmat psixologlari ekstremal psixologiyasi va ekstremal vaziyatlarning psixologiyasi dolzarb masalalari bo'yicha metodik seminarlar, ilmiy-amaliy anjumanlarda ishtirok etadilar [6].

Qozog'iston Respublikasi Ichki ishlar vazirligining Favqulodda vaziyatlar qo'mitasi tarkibida Shoshilinch psixologik yordam xizmati favqulodda vaziyatlarda zarar ko'rgan aholiga favqulodda psixologik yordam ko'rsatish bo'yicha tadbirlarni tashkil qilish, shuningdek favqulodda vaziyatni qutqarish operatsiyalari vaqtida xodimlarning kasbiy faoliyatiga psixologik yordam berish ishlarini amalga oshiradilar.

Qo'mitaning shoshilinch psixologik yordam xizmati favqulodda holatlarga javob berish uchun kuchlar va psixologik xizmatlarni rejalashtirish va o'qitish, to'g'ridan-to'g'ri javob berish, aholiga psixologik yordam ko'rsatishning to'liq hajmini qamrab oladigan favqulodda vaziyatlar uchun favqulodda psixologik javob berishning yagona tizimidir.

Bugungi kunda Qo'mitaning favqulodda psixologik yordam xizmati hududiy bo'linmalar psixologlarini, kasbiy favqulodda vaziyatlar xizmati va tuzilmalarini, Kokshetau texnika institutini, ofatlarga qarshi tibbiyot markazi va uning filiallarini birlashtiradi. Qo'mita psixologlari jabrlanganlarga 50 dan ortiq yirik favqulodda vaziyatlarda yordam ko'rsatganlar. SHuningdek, psixologlar yong'inlar, yo'l-transport hodisalari va boshqa favqulodda vaziyatlarda qutqaruvchilar bilan birga sayohat qilishadi. Favqulodda vaziyatlarda jabrlangan aholiga axborot yordami va favqulodda psixologik yordam ko'rsatish, shuningdek, aloqa vositalaridan foydalanib, halok bo'lganlarning yaqinlari, qarindosh-urug'lari va yaradorlarga xabar berishni amalga oshirish orqali "Ishonch telefoni" rolini e'tiborga olish muhimdir. Amaliyot shuni ko'rsatadiki, Favqulodda vaziyatlarda Favqulodda vaziyat telefonining yaratilishi va faoliyat ko'rsatishi favqulodda psixologik yordamning sifati va tezligini yaxshilashga o'z samarasini ko'rsatadi. Vaqti-soati bilan psixologik yordam va tezkor psixoterapiya aralashuvi, shikastlanishga imkon qadar yaqin bo'lib, ko'plab noxush oqibatlarga va jarayonning surunkali shaklga o'tishiga yordam beradi [7].

Xulosa o'rnida ta'kidlash mumkinki, harbiy xizmatchilar va xizmatchi-qutqaruvchilarning psixologik tayyorgarligining muhim shartlaridan biri-qutqaruvchilarni xavf-xatarga javob berish usullari, tashvishlarni minimallashtirish vositalari haqida zarur bilimlarga ega bo'lishidir. Ushbu bilimlar har bir harbiy xizmatchilar va xizmatchi-qutqaruvchilarning o'z mehnat faoliyati va psixologik

barqarorligining asosini tashkil etuvchi fazilatlarni mustaqil ravishda rivojlantirish imkonini beradi. Xuddi shu narsa, albatta, harbiy xizmatchilar va xizmatchi-qutqaruvchilarga ob'ektiv ravishda xos bo'lgan shaxsiy psixologik va psixofiziologik xususiyatlar haqida, uning aqliy moslashuvining xususiyatlarini oldindan belgilab beruvchi mavjud shaklda taqdim etilgan ma'lumotlarga hissa qo'shadi. Harbiy xizmatchilar va xizmatchi-qutqaruvchilarning, shuningdek ekstremal sharoitlarda, ayniqsa, uzoq muddatli avariya-qutqaruv ishlarida, uning funksional kuchlanishi tabiiy ravishda oshib borishi, ishlashi va psixologik barqarorlik zaxiralari kamayishiga tayyor bo'lishi kerak. SHu munosabat bilan, u jabrlanganlarga, ba'zan esa o'z hamkasblari bilan ziddiyatlarda ortiqcha ish bilan qanday munosabatda bo'lishni bilishi kerak [2].

Shunday qilib, psixologik tayyorgarlik harbiy xizmatchilar va xizmatchi-qutqaruvchilarning aqliy holatini optimallashtirish, inson hayotini saqlab qolish, moddiy qadriyatlarni asrash, uning axloqiy qiyofasi va fidoyilikni shakllantirishga qaratilgan faoliyatining asosiy motivatsiyasini yaratadi. U harbiy xizmatchilar va xizmatchi-qutqaruvchilarga o'z bilimlari va qobiliyatlariga ishonch, o'z ishining ahamiyatini anglash, uni har qanday holatda oxiriga yetkazish kerakligini beradi.

Umuman olganda, psixologik tayyorgarlik qutqaruvchiga o'z-o'zini nazorat qilish, qiyinchiliklar va xavf-xatarlarga qarshi turish qobiliyatini beradi. Bunday holatda paydo bo'ladigan stress, uning samaradorligi va sog'lig'iga salbiy ta'sir ko'rsatmasdan o'z faoliyatini va harakatlarining maqsadga muvofiqligini oshiradi.

Respublikada harbiy xizmatchilar va xizmatchi-qutqaruvchilarning psixologik tayyorgarligi bo'yicha amaldagi tizim tahlili, shuningdek ilg'or xorijiy davlatlar tajribasini inobatga olgan holda quyidagilar taklif etiladi:

1. Harbiy xizmatchilar, xizmatchi-qutqaruvchilar va vazirlik Akademiyasiga kiruvchi abituriyentlar bilan psixologik diagnostika, ruhiy salomatlikni tayyorlash, tuzatish va tiklash, kasbiy vazifalarni bajarish bilan bog'liq muammolarni hal qilish, shuningdek tizimga qabul qilingan xodimning psixologik muvofiqligini tekshirishdan o'tkazish tizimini yaratish;

2. Favqulodda vaziyat xavfi yuzaga kelishi yoki real favqulodda vaziyatlar sharoitida aholining barcha qatlamiga psixologik yordam ko'rsatishni amaliyotga joriy etish;

3. Favqulodda vaziyatlar davrida "Ishonch telefon"ni orqali psixologlar tizimli maslahat berishi, shuningdek rasmiy veb-saytida aholi bilan yozishmalar orqali psixologik yordam ko'rsatishni tashkil etish;

4. Vazirlik tizimida aholining barcha qatlami uchun kundalik faoliyat rejimida professional psixologik yordam ko'rsatish tizimini yaratish;

5. Vazirlik tizimida ekstremal profil mutaxassislarni psixofiziologik diagnostika, psixologik tayyorgarlik va psixologik reabilitatsiya qilishda zamonaviy innovatsion yondashuvlaridan foydalanishga o'rgatish;

6. Hududiy, shu jumladan, Toshkent shahar FVB psixologik qo'llab-quvvatlash sektorlarini tashkil etish va faoliyat olib borishini ta'minlash;

7. Favqulodda vaziyatlar qurbonlariga, tabiiy va texnogen favqulodda vaziyatlarda ishlaydigan xodimlarga, shuningdek vazirlik xodimlariga ekstremal psixologik yordam ko'rsatish bo'yicha tadbirlarni tashkil etish va amalga oshirilishini ta'minlash;

8. Vazirlik tizimida harbiy xizmatchi va xizmatchi qutqaruvchilarning ruhiy-emotsional holatini, psixodiagnostik baholashni tizimli yo'lga qo'yish;

9. Ekstremal psixologiya sohasida tadqiqotlar olib borilishini tashkil qilish va natijalarini amaliyotga tabiiy etib borish.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati:

1. G'oziyev E. "Umumiy psixologiya" // 1-kitob, Toshkent, 2002, 238 bet.
2. Tyurin A.A. «Psixofiziologicheskiye xarakteristiki voyennoslujashix s raznim urovnem adaptatsii» // Dissertatsiya kandidat psixologicheskix nauk, str 51.
3. Samarov R, Mahmudov R. "Favqulodda vaziyatlar vazirligi tizimida psixologik tayyorgarlik" // Jurnal "Muhofaza +" // Toshkent, 2007, 16-18 betlar.

Elektron saytlar:

4. <https://fvv.uz/ru/psychology/about>
5. (<http://psi.mchs.gov.ru/>)
6. <https://mchs.gov.by/ministerstvo/psixologicheskaya-sluzhba/>
7. <http://emer.gov.kz/ru/898-2016-09-28-05-10-26>


MONITORING VA PROGNOZ QILISHDA, SEYSMIKANING ASOSIY VAZIFALARI

A.J.Kurbonov Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muxandislari instituti o'qituvchi.

A.Abdulazizov Axror, Sh. Hayitaliyeva. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muxandislari instituti talabasi

Annotasiya: Seysmik stansiyalar mexanik tebranishlarni ya'ni yer tebranishlarini qabul qiladi, uni analogli elektr tokiga aylantiradi, raqamli stansiya yordamida raqamli formatga keltiradi, SOM-port orqali kompyuterga uzatadi, kompyuter saqlash va qayta ishlash imkoniyatini beradi.

Bundan tashqari seysmik monitoring uchun asosiy nazorat asbobidir. Seysmik stansiya majmuasi (komplekti) ga kiruvchi barcha texnikalarning ishga shay xolatda saqlanishi, stansiyaga kelayotgan elektr toki quvvatining doimiyliigi va kuchini saqlash, seysmik kabellarning turli omillar sababli shikast yetkazilganligi, bir komponentli stansiya turgan bo'lsa uning o'qi nolga to'g'rilanganligi. Seysmik to'liqinni seysmopriyomniklar orqali qabul qilinadi, seysmograflar yordamida yoziladi yoki stansiya yordamida raqamli xolatda saqlab qolinadi. Seysmik stansiya majmuasiga qabul qiluvchi uskunalar (turiga qarab),



Webtronics stansiya, GPS antenna, akkumulyator batareyasi, quyosh paneli, kompyuter protsessori, monitor va qo'shimcha uskunalar (klaviatura va sichqoncha), moslangan turli kabellar. Seysmopriyomnik mexanik tebranishni qabul qiluvchi va uni elektr tokiga aylantirib beruvchi uskuna. Akselerometr siljishni qayd qilishga asoslangan bo'lib, o'ta sezilarli va kuchli

zilzilalarni qabul qila oladi. Seysmometr esa kuchli zilzilalarni qabul qilishda texnik imkoniyatlari to'g'ri kelmaydi va kuchli zilzilalarning seysmogrammasidan foydalanishning imkoni kamayib ketadi. Lekin seysmometr 4-5 balgacha zilzilani yaxshi qayd qiladi, akselerometr esa 4 balgacha bo'lgan zilzilani qayd qila olmaydi va 4 baldan yuqori zilzilani sifatli qayd qiladi. Stansiya ulangan kompyuter WinSDR dasturi yordamida ishlaydi. Seysmogramma seysmik to'lqinlarning chizilgan (grafikli) ko'rinishi, ular qog'ozga tushirilgan bo'ladi yoki elektron ko'rinishda bo'ladi, biz elektron ko'rinishdagi seysmogrammalardan foydalanamiz. Seysmogrammalarni ko'rish, kerakli hodisa fayllarini saqlab olishimiz uchun WinSDR dasturidan



foydalanamiz. Webtronics stansiya vazifasi, 3 yoki 6 kanalli bo'ladi. Seysmopriyomnikdan kelayotgan elektr tokni qabul qiladi va ATSP orqali raqamli ko'rinishga keltirib kompyuterga kabel orqali uzatadi. Bundan tashqari aloxida bo'lgan komponentlarni birlashtiradi va ko'rish xamda ishlashni osonlashtiradi. Magnituda (M) zilzila

energiyasining shartli o'lchovi hisoblanadi. Zilzila kuchini aniqlaydi va zilzila o'chog'ida yig'ilgan energiyaning bir vaqtning o'zida mexanik to'lqin bo'lib tarqalishi va ushbu to'lqinning stansiyaga kelgandagi kuchi magnituda. Stansiyada aniqlangan formulalar asosida energiyasi, magnitudasi, bali hisoblanadi. GPS – Geografik Xolat Tizimi bo'lib, yerning sun'iy yo'ldoshlari orqali yer yuzida tutgan o'rni va xolatini vaqt bilan birga aniq ko'rsatish. Biz Grinвич vaqti bo'yicha +5 soat xisobidadir. Sinxronlashda stansiyaning vaqti turli sabablar bilan o'zgarib qolsa yoki 1, 2, 10 daqiqalarga oldig yoki orqaga surilib qolsa sinxronlash amalga oshiriladi.

Tabiatda asosiy bo'lgan 4 xil seysmik to'lqin mavjud: R, S, L-Lyava va R-Reley. Ularning so'nish qonuniyatlaridan kelib chiqib zilzilaning chuqurligiga, epitsentral masofaga, zilzilaning magnitudasi va energiyasiga bog'liq. (1-rasm) Seysmik stansiyalar maxalliy vaqt bo'yicha emas Grinвич vaqti bo'yicha ishlaydi. Sababi dunyoning barcha seysmik stansiyalari Grinвич vaqti bo'yicha ishlashga moslashtirib qo'yilgan. Agar xar bir stansiya o'zining maxalliy vaqti bo'yicha to'g'rilansa zilzilalarni qayta ishlash va ko'rsatkichlarini aniqlashda turli kelishmovchiliklar kelib chiqadi. Xalaqit beruvchi to'lqinlar seysmik stansiya o'rnatilgan maydon bo'ylab maydonning tabiiy, o'ziga xos tebranib turishi, agarda pomexalar kuchli bo'lsa sodir bo'lgan zilzilalar pomexaning fonida yo'qolib ketadi va zilzilani ajratib olish, qayta ishlash xamda zilzila ko'rsatkichlarini aniqlashning iloji bo'lmaydi. Data.file seysmik stansiyaning 24 soatlik uzluksiz qayd qilgan ma'lumoti xisoblanadi, event.file esa seysmik stansiyasining triggeri ishlagan vaqtdagi qisqa (1-6 daqiqalik) ma'lumot.

Zilzila o'chog'ining koordinatasini qo'lda, WinQuake va ElWin dasturida kompyuterda aniqlanadi.(2-3 rasm) Zilzila o'chog'ining chuqurligi qo'lda yoki

kompyuter dasturi yordamida xisoblanadi. Qo'lda xisoblash uchun zilzilaning ma'lumotlari jamlanadi, S to'liq kelgan vaqtdan R to'liq kelish vaqti ayriladi (S-R), chiqqan javobga mos keluvchi avvaldan qurilgan godografga qo'yiladi va chuqurlik aniqlanadi. (1-rasm) Hozirda zilzila ko'rsatkichlarini aniqlab olish uchun WinSDR, WinQuake va ElWin dasturlaridan foydalaniladi. Stasiyalarni doimiy elektr toki bilan ta'minlash uchun quyosh paneli zahira elektr ta'minoti bilan ta'minlangan, quyoshdan olgan va akkumulyator batareyasiga to'plagan quvvatini o'zgaruvchan tok bo'lmaganida stansiyaning ishlashi uchun sarflaydi. Quyosh paneli – asosiy panel, akkumulyator batareyasi, taqsimlagich-trobl va moslangan kabeldan iborat.

Zilzila katalogi ma'lum vaqt va ma'lum maydonlarda sodir bo'lgan zilzilalar ro'yxati. Zilzila kataloglari vaqt bo'yicha tezkor, interaktiv va to'liq (svodniy) turlariga ajratiladi. Maydon bo'yicha maxalliy, mintaqaviy va global (mirovoy) turlari mavjud.

Zilzila o'chog'i mexanizmi zilzila sodir bo'lganda o'choqda zilziladan oldin, zilzila vaqtida va zilziladan keyin qanday xolat yuzaga kelganini aniqlash, bunda mumtoz mexanizmlar – uzilma, ko'tarilma va siljima xarakterining qaysi biri bo'lganini aniqlaydi. Mexanizmini xisoblash usullari qo'lda, kerakli ma'lumotlarni jamlagan xolda paletkalar yordamida yoki kompyuterning NewMex dasturi yordamida amalga oshiriladi.


Seysmik ma'lumotlarni dastlabki qayta ishlaydigan WinSDR, SeisComr, Winquake va ElWin dasturlari yordamida zilzilaning o'chog'i va koordinatasini aniqlanadi.

Ma'lumotlar bazasi seysmik ma'lumotlarning turlari, ishlanganligiga qarab to'plangan arxivi deb yuritish mumkin. Bunga ko'ra sutkalik, yillik data fayllar, hodisa fayllari, kataloglar, kartochkalar, xar bir zilzilaning qayta ishlab chiqilgan ish papkalari ma'lumotlar bazasi hisoblanadi.

Bizning ixtiyorimizda mavjud ma'lumotlar bazasi foydalanamiz


- 1- barcha stansiyalar bo'yicha hodisa fayllar arxivi (seysmogrammalar)
- 2- barcha stansiyalar bo'yicha uzluksiz sutkalik ma'lumotlar arxivi
- 3- barcha stansiyalar bo'yicha kalibrovka materiallari arxivi

Er qatlamlarining geologik tarkibi bir hil emas va turli xil geologik tuzilishlarga



ega. Respublikamiz hududlari ham turli xil geologik tuzilishga ega. SHuning uchun SHarqiy O'zbekiston, Toshkentoldi hududi va G'arbiy O'zbekiston uchun alohida godograflar qurilgan. Ular zilzila koordinatasini to'g'ri topish uchun kerak. Zilzilaning geografik koordinatasi, chuqurligi, magnitudasi, klass, bali, epitsentral

masofasi, R va S davrlari. ishoralari qo'lda, kompyuterda aniqlanadi. Aniqlashda WinSDR, WinQuake va ElWin dasturlaridan foydalaniladi.



Zilzila ko'rsatkichi aniqligi va ishonchligi zilzilani qayta ishlashda qatnashgan stansiyalar soniga va ushbu stansiyalarning joylashgan joyi xamda texnik ko'rsatkichlariga bog'liq. Sezilarli zilzila sodir bo'lsa biz bu holatda stansiya ulangan kopyuterni kutish xolatidan chiqariladi, WinSDR dasturi ishga tushiriladi, sodir bo'lgan zilziladan oldinroq (1-daqiqa oldin) hodisa fayli saqlab olinadi, Events papkasidan saqlab olgan fayl belgilanadi va WinQuake yordamida hodisani filtrlab olinadi(4-rasm). P va S to'lqinlari belgilanadi(5-rasm), S to'lqin maksimal amplitudasidan magnituda olinadi, 3ta komponent bo'yicha R to'lqin ko'rsatkichi (+ yoki -) belgilanib, stansiyaga nisbatan zilzilaning kelish yo'nalishi aniqlanadi. Agar boshqa stansiyalar ma'lumotini olishning iloji bo'lsa ularning ma'lumotlarini qo'shib zilzila ko'rsatkichlari aniqlab olinadi, bu ishlarni bajarish uchun ko'pi bilan 3 daqiqa vaqt kerak, so'ngra raxbariyatga zilzila ko'rsatkichlari ma'lumoti beriladi.

Z – vertikal, E, N – gorizontal tashkil etuvchilari, seysmopriyomniklarning farqi vertikal tashkil etuvchisi zilzilaning vertikal tebranishini qabul qiladi, gorizontal tashkil etuvchilar esa shimoliy-janubiy yoki sharqiy-g'arbiy tebranishlarni qabul qilishga asoslanadi va shuning uchun 3 xil komponent deyiladi.

Postament – stansiya o'rnatish uchun maxsus qurilma bo'lib, stansiya uning ustiga o'rnatiladi. Stansiya tekis joylashishini ta'minlaydi. Stansiya o'rnatiladigan maydon gruntli, lyosli yoki yumshoq jinsli bo'lsa, postament quriladi va stansiya uning ustiga o'rnatiladi. Postament pomexani kamayishiga xam sabab bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. A.Q.Nurxo'jayev, M.YU.YUnusov, I.X.Xabibullayev "Favqulodda vaziyatlar va muhofazasi tadbirlari", Toshkent, 2001 yil.
2. I.Raxmon "Favquloddagi vaziyatlarda birinchi shoshilinch yordam", Toshkent, 2004 yil.
3. K. T. Tursunov. "Sovremennoye sostoyaniye izucheniya, prognoza seley i snejnix lavin v Uzbekistane", Tashkent, IGZ, 2006 god.
4. A. Nurxodjayev. "Tabiiy ofatlar, hosil bo'lishi, tasnifi, aholi va hududlarni muhofaza qilish qoidalari", Toshkent, FMI, 2006 yil.
5. «Sovremennoye sostoyaniye i perespektivi razvitiya Grajdanskoy zashiti», Tashkent, IGZ, 2006 god.
6. Favqulodda vaziyatlarda shoshilinch tibbiy yordam tashkil etish yuzasidan uslubiy va normativ materiallar to'plami. Toshkent, Ibn Sino 2006 yil.
7. "Fuqaro muhofazasigaoid me'yoriy-huquqiy" hujjatlar, 1-tom, Toshkent, fvv, FMI, 2007 yil.

KUCHLI TA'SIR ETUVCHI ZAHARLI MODDALAR TA'SIRIDA JABRLANGANLARGA TIBBIY YORDAM KO'RSATISH QOIDALARI

A.Egamberdiyev Namanagan davlat universiteti o'qituvchi

A.Ahmadxanov Namanagan davlat universiteti talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqolada kuchli ta'sir etuvchi zaharli moddalar, ularning inson organizmiga ta'siri, ular bilan bog'liq favqulodda vaziyatlarda aholini muhofaza qilish usullari, shuningdek kuchli ta'sir etuvchi zaharli moddalar ta'sirida jabrlanganlarga tibbiy yordam ko'rsatish bilan bog'liq muammolar va ularni bartaraf etish bo'yicha tavsiyalar keltirib o'tilgan.

Kalit so'zlar. Kuchli ta'sir etuvchi zaharli modda, jabrlanuvchi, birinchi yordam, birinchi tibbiy yordam, xavfsizlik, favqulodda vaziyat, fuqaro muhofazasi, fuqaro muhofazasi kuchlari, zaharlanish, shaxsiy himoya vositalari.

Asosiy qism.

Kuchli ta'sir etuvchi zaharli moddalar - yuqori zaharlilik xususiyatiga ega bo'lgan va ma'lum sharoitlarda (asosan kimyoviy xavfli obyektlardagi avariyalarda) odamlar va jonivorlarning ommaviy zaharlanishini keltirib chiqara oladigan, shuningdek atrof muhitni zararlay oladigan kimyoviy birikmalardir [3].

1988 yilda tasdiqlangan "Kuchli ta'sir etuvchi zaharli moddalarning vaqtinchalik ro'yxati"ga ko'ra atrof muhitga real xavf soluvchi 34 xil modda sanab o'tilgan. Bular xlor, vodorod sulfid, oltingugurt, fluor va ularning kislorodli va vodorodli birikmalaridir. Ushbu ro'yxatga faqat yuqori uchuvchanlik va zaharlilik xususiyatiga ega bo'lgan hamda avariya holatlarida odamlarning ommaviy zaharlanishiga olib keluvchi kimyoviy moddalar kiritilgan [3].

Kuchli ta'sir etuvchi zaharli moddalarning zaharlovchi holatiga o'tishi ularning agregat holati, suvda eruvchanligi, organik moddalarda erish qobiliyati, zichligi, uchuvchanligi, qaynash temperaturasi va shu kabi fizik-kimyoviy xossalari bog'liq.

Kimyoviy muhofaza - kuchli ta'sir etuvchi zaharli moddalarning aholiga va kimyoviy xavfli obyektlar xodimlariga ta'sirini kamaytirish yoki yumshatish, kimyoviy avariya holatlarining oqibatlarini ko'lamini kamaytirishga qaratilgan chora-tadbirlar majmui [5].

Kuchli ta'sir etuvchi zaharli moddalar aholi hayoti va sog'ligi uchun jiddiy xavf tug'diradi. Ularning yuqori zaharlilik xususiyati, ta'sir ko'rsatish davrining qisqaligi jabrlanganlarga birinchi tibbiy yordam ko'rsatishni va ularning hayotini saqlab qolishni qiyinlashtiradi. Shu sababli ham jarohatlanganlarga zudlik bilan tibbiy yordam ko'rsatilishi zarur.

Bunda quyidagi tamoyillarga rioya qilish lozim [4]:

1. Zaharning organizmga tushishini to'xtatish (gazniqob kiydirish, zaharli hududdan olib chiqish);

2. Zaharga qarshi vositalarni qo'llash. Zahar organizmga teri yoki tashqi shilliq pardalar orqali kirgan bo'lsa, uni ko'p miqdordagi suyuqlik - ichimlik sodasi yoki limon kislotasi qo'shilgan eritma bilan yuvish;

3. Zaharni organizmdan zudlik bilan tozalash. Oshqozonni zahardan tozalash uchun 0,25-0,5% li ichimlik sodasi eritmasi yoki kaliy permanganat (margansovka)ning nim pushti rang yoki osh tuzining iliq eritmasi (1 stakan suvga 2-4 choy qoshiq)dan - 4-6 stakan iliq suv ichirib quzdirish;

4. Zahar ta'sirida buzilgan organizm faoliyatini tiklash.

Favqulodda vaziyatlar, ayniqsa KTZMlar ta'siri natijasida jabrlanganlarga birinchi tibbiy yordam kim tomonidan, qanday darajada, jarohat olgandan keyin qancha vaqt ichida ko'rsatilishi jabrlanuvchining tirik qolishi, sog'ligining keyingi tiklanishida va qanday darajada tiklanishida muhim ahamiyat kasb etadi. Jarohat olganlarni zaharlanish zonasidan olib chiqib, o'z vaqtida va to'g'ri tibbiy yordam ko'rsatilsa, vafot etishi mumkin bo'lgan odamlarning 80-85 % ining hayotini saqlab qolish mumkin.

Bu o'rinda kimyoviy xavfli ob'ektda ishlaydigan xodimlar, uning atrofida yashaydigan har bir fuqarodan KTZMlar bilan bog'liq FVda jabrlanganlarga birinchi tibbiy yordam ko'rsatish qoidalarini bilishlarini, qo'l ostida vositalardan tibbiy yordam ko'rsatishda to'g'ri va o'z vaqtida foydalana olishlarini hamda jabrlanganlarni xavfli zonadan olib chiqish va davolash profilaktika muassasalariga jo'natishni to'g'ri tashkil etishni bilishlarini talab etadi.

Jabrlanuvchilarga birinchi tibbiy yordam ko'rsatishda 2 ta asosiy qoida bor.

1-qoida. Voqea joyini ko'zdan kechirish [4]

Voqea sodir bo'lgan joy jabrlanuvchi va qutqaruvchi uchun qo'shimcha xavf tug'dirmasligini aniqlash lozim. Bunda atrofdagi bino va inshootlarning mustahkamligi, biror zaharli, yong'inga xavfli modda chiqmayaptimi, ko'chki yoki portlash xavfi yo'qmi, obyekt elektr manbasidan uzilganmi yoki yo'q? Bular barchasi ko'zdan kechirilishi, agar lozim bo'lsa bartaraf etilishi yoki jabrlanuvchi xavfsiz joyga olib chiqilishi lozim.

So'ngra qanday hodisa ro'y berganligini aniqlash lozim. Yuz bergan hodisaga aniqlik kiritib, uning sabablarini aniqlash, KTZM turi, miqdorini bilish va vaziyatni to'g'ri baholash orqali jabrlanganlarga tibbiy yordam ko'rsatishni tashkil etish lozim.

Jabrlanganlar soniga aniqlik kiritish lozim. Bularni bilish jarohatlanganlarga tibbiy yordam ko'rsatishni tashkil etish va uning hajmini belgilashga yordam beradi.

Atrofdagi sizga yordam bera oladiganlarni aniqlash. Atrofdagi sizga yordam bera oladigan kimlar yoki nimalar bor, ulardan qanday maqsadlarda foydalansa bo'ladi? Shu savollarga to'g'ri javob topish va amalda foydalanish lozim bo'ladi.

2- qoida. Jabrlanuvchini birlamchi ko'zdan kechirish va hayoti uchun xatarli holatlarda zaruriy yordam ko'rsatish [4]

1. Nafas olishni tekshirish.

2. Tomir va yurak urishini tekshirish lozim.

3. Tez tibbiy yordamni chaqirish.

4. Jabrlanuvchini ikkilamchi ko'zdan kechirish va tibbiy yordam ko'rsatish. Ko'zdan kechirilib, KTZM qay darajada ta'sir qilgani, kimyoviy kuyish bor-yo'qligi aniqlanadi. Agar lozim bo'lsa hayot uchun zarur bo'lgan birinchi tibbiy yordam ko'rsatiladi.

Kimyoviy kuyishda birinchi yordam [4]

- Terini kimyoviy moddadan tozalash;
- Kamida 20 daqiqa sovuq suv bilan yuvish;
- Zaharli modda tekkan kiyimlarni echish;

▪ Jabrlanuvchining ko'zini e'tibordan qoldirmaslik. 20 daqiqa davomida sovuq suv bilan yuvish.

Xlor bilan zaharlanganda birinchi tibbiy yordam [4]:

Ko'z, nafas yo'llari, badanning ochiq joylarini ko'p miqdordagi suv bilan yuvish, halqum achishsa, bo'yiga hantalli yoki isituvchi kompress qo'yish va oyoqqa issiq vanna qilish kerak.

Ammiak bilan zaharlanganda birinchi tibbiy yordam [4]:

1. Fuqaro gazniqoblariga qo'shimcha DPG-3 patronni ulash.
2. Zudlik bilan zaharlanish maydonidan chiqish.
3. Ko'z, nafas yo'llari va badanning ochiq joylarini ichimlik sodasining 2%li eritmasida yuvish.
4. Zaharlanuvchiga issiq sut berib, yotqizib qo'yish.
5. Zaruriyat bo'lsa, nashatir spirti hidlatib, «og'zidan og'izga» usulida sun'iy nafas oldirish va yurakni bilvosita uqalash kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasining 1999 yil 20 avgustdagi "Aholini va hududlarni tabiiy hamda texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish to'g'risida"gi Qonuni.
2. O'zbekiston Respublikasining 2008 yil 26 dekabrda "Qutqaruv xizmati va qutqaruvchi maqomi to'g'risida"gi Qonuni.
3. Abidova F.A., Abidov A.B. "Kuchli ta'sir etuvchi zaharli moddalarning hususiyatlari". - O'zR FVV FMI: 2013 y. – 530 b.
4. Boymirzaev A. "Hayot xavfsizligi va birinchi tibbiy yordam". - T: "Zilol buloq". 2019 y. - 396 b.
5. Gazinazarova S., YUldoshev O. "Avariya qutqaruv ishlari, o'quv qo'llanma". - Toshkent irrigatsiya va melioratsiya instituti: 2013 y. - 160 b.

Internet resurslari:

6. <https://arxiv.uz>
7. <http://www.natlib.uz/>
8. www.Lex.uz - O'zbekiston Respublikasining milliy qonunchilik bazasi.
9. www.Referat.uz - referat ma'lumotlari bazasi.
10. www.Zivonet.uz

ELEKTR TOKIDAN JAROHAT OLGANLARGA BIRINCHI YORDAM KO'RSATISH QOIDALARI

A.Egamberdiyev Namangan davlat universiteti o'qituvchisi

A.Xakimjonov Namangan davlat universiteti talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqolada elektr toki, elektr tokining xavfli omil sifatidagi o'ziga xos xususiyatlari, elektr tokidan jarohatlanganlarga birinchi yordam ko'rsatish qoidalari to'g'risida ma'lumot keltirilgan. Shuningdek, birinchi yordam ko'rsatish bilan bog'liq muammolar va ularning yechimlari bo'yicha tavsiyalar keltirilgan.

Kalit so'zlar. Elektr toki, zaryadli zarracha, jarohat, birinchi yordam, birinchi tibbiy yordam, shikastlanish, yong'in, jabrlanuvchi, nafas olish organlari, shaxsiy himoya vositalari, dori qutichasi.

Asosiy qism. Zaryadlangan zarralarning tartibli harakatiga elektr toki deyiladi [5].

Elektr tokining xavfli omil sifatida o'ziga xos xususiyatlari quyidagilardan iborat [5]:

- elektr toki ta'siriga tushib qolish xavfining tashqi belgilari yo'qligi;
- elektr toki bilan jarohatlanish oqibatining og'irligi;
- insonning o'tkazgichga tok ta'sirida "yopishib qolish" holatining yuzaga kelishi;
- tok ta'siri oqibatida inson tomonidan mexanik jarohat olish ehtimolining mavjudligi.

Birinchi yordam — bu baxtsiz hodisada jabrlangan kishining hayoti va sog'lig'ini saqlash yoki tiklashga qaratilgan chora-tadbirlar majmuasi [2].

Bunday yordamni, tibbiy xodim yetib kelgunga qadar, jabrlangan kishining yonida bo'lganlar (o'zaro yordam) yoki jabrlangan kishining o'zi (o'ziga yordam) ko'rsatishi kerak.

Jabrlanuvchining hayoti birinchi yordamning qanchalik tez va mohirona ko'rsatilishiga bog'liq bo'ladi. Shuning uchun ham har bir odam birinchi yordam ko'rsatishni bilishi va jabrlanganlarga hamda o'ziga birinchi yordam ko'rsata olishi kerak.

Jabrlangan kishida nafas olish yoki puls urishi singari tirikligini bildiruvchi alomatlar bo'lmasa uni o'lgan deb hisoblash va unga yordam ko'rsatishdan bosh tortib bo'lmaydi.

Korxonaning har bir xodimi o'zining kasbiy vazifalarini qanday mohirona bajarsa, birinchi yordamni ham shunday ko'rsata bilishi kerak. Shuning uchun ham kasbiy mahoratga va shifokordan oldingi yordam ko'rsatishni bilishga qo'yiladigan talablar bir xil bo'lishi lozim.

Birinchi yordam o'z vaqtida ko'rsatilishi va samarali bo'lishi uchun doimiy navbatchilik joylarida quyidagilar bo'lishi kerak:

- birinchi yordam ko'rsatish uchun kerakli dori-darmonlar va tibbiy buyumlar to'plami solingan tibbiy yordam qutichasi (yoki korxonada hududidan tashqarida ishlanganda brigadirlarda turadigan birinchi yordam xaltasi);
- ko'rinadigan joylarda baxtsiz hodisalarga jabrlanganlarga birinchi yordam ko'rsatish, sun'iy nafas va yurakka tashqi massaj qilish usullari tasvirlangan plakatlar;
- birinchi yordam qutichalarini va tibbiy yordam ko'rsatish punktlarini topishni osonlashtiruvchi ko'rsatkich taxtachalari va belgilari.

Ishlar chet tashkilotlarning xodimlari tomonidan bajarilganda ushbu tashkilotlarning xodimlariga birinchi yordam qutichalari turgan va tibbiy yordam ko'rsatish punktlari o'rnatilgan joylari ma'lum qilinishi kerak.

Jabrlanganga birinchi yordamni ko'rsatishda amalga oshiriladigan harakatlarning ketma-ketligi [2]:

1) jabrlanganning organizmiga xavfli va zararli omillar ta'sirini (elektr tokining ta'siridan xalos etish, zararlangan muhitdan olib chiqish, yonayotgan kiyimlarini o'chirish, suvdan chiqarib olish va h.) bartaraf qilish;

2) jabrlanganning holatini baholash;

3) jabrlanuvchini hayoti uchun eng ko'p xavf solayotgan jarohatning hususiyatlarini va uni qutqarish bo'yicha qilinadigan harakatlarning ketma-ketligini aniqlash;

4) jabrlanuvchini qutqarish bo'yicha zarur chora-tadbirlarni eng kerakligi tartibida bajarish (nafas yo'llari o'tkazuvchanligini tiklash; sun'iy nafas, yurakning tashqi massaji muolajalarini o'tkazish; qon oqishini to'xtatish; singan joylarni mahkamlab qo'yish, bog'lamlar qo'yish va h.);

5) tibbiyot xodimlari yetib kelishiga qadar jabrlanuvchining asosiy hayotiy funksiyalarini saqlab turish;

6) tez tibbiy yordam yoki shifokorni chaqirish yoxud jabrlanuvchini eng yaqin tibbiyot muassasasiga yetkazish choralarini ko'rish.

Insonni elektr tokidan shikastlanishining asosiy omillariga: tokning turi, inson tanasidan o'tayotgan tokni davom etish muddati, tokni o'tgan yo'li, tokni chastotasiga, insonni shaxsiy hususiyatlarga bog'liq [7].

a) inson tanasidan o'tayotgan tokning turi.

Tokni kuchini insonga turli ta'sir ko'rsatadi. Ko'rsatgan ta'siriga qarab quyidagi tok qiymatlariga ajratiladi:

- tokni sezish chegarasi. O'zgaruvchan tokni 50 gs va miqdori 0.1-1.5 mA, o'zgarmas tokni miqdori 5-7 mA. Shu holatda inson qo'l panjalari titraydi va issiqlini sezadi;

- qo'yib yuboradigan tok. O'zgaruvchan tokni miqdori 8-10 mA, o'zgarmas tok uchun 20-25 mA. Shu holatda inson og'riq sezadi badani qiziydi.

-ushlab qoladigan tok. O'zgaruvchan tokni miqdori 10-15 mA, o'zgarmas tok uchun 50-80 mA. Shu holatida qo'l mushaklari keskin qisqariladi, shok holati kuzatiladi, nafas olish qiyinlashadi, va inson o'zini tanasini boshqarib ololmaydi.

- fibrilyasion tok. O'zgaruvchan tok miqdori 100 mA, o'zgarmas tok uchun 300mA. Shu holatda insonni yurak mushaklari tartibsiz qisqariladi, ishlash tartibi buziladi, natijada qon aylanish tizimi ishdan chiqadi.

b) inson tanasidan o'tayotgan tokni davom etish muddati.

Inson tanasidan o'tayotgan tokni davom etish muddati ham katta ta'sir ko'rsatadi, qanchali tok vaqti ko'p bo'lsa, shunchalik havfi oshaveradi. Shu holatda insonni yurak mushaklari tartibsiz qisqariladi, ishlash tartibi buziladi, natijada qon aylanish tizimi ishdan chiqadi.

d) inson tanasidan tokni o'tgan yo'li.

Inson tanasidan tokni o'tgan yo'li ham katta ahamiyatga ega. Agar elektr tok muhim organlaridan yurak, o'pka, miyalaridan o'tgan bo'lsa o'ta xavfli, boshqa yo'llardan o'tgan bo'lsa, hatari kamroq bo'ladi.

Inson tanasidan o'tayotgan tok eng ko'p uchraydigan yo'llari aniqlangan. Tez uchrab turadigan yo'l o'n qo'l-oyoqlar, undan keyin, qo'l-qo'l va chap qo'l-oyoqlar.

c) Inson tanasidan o'tgan tokning chastotasi .

O'zgaruvchan tok xatarligi tokni chastotasiga bog'liq. Tadqiqotlar bilan aniqlanganki, tokni chastotasi 10 gs dan- 500 gs gacha birdek xavfli. 500 gs dan oshgan sari fibrilyasyon tok miqdori oshib boradi, va chastotasi 1000 gs dan oshgandan keyin yahshigina havsizligi kamayadi.

O'zgarmas tok xatarligi kamroq va chastotasi 50 gs li o'zgaruvchan tokga nisbatan fibrilyasyon tok miqdori 3-4 barobar yuqoriroq. Lekin o'zgarmas tok ta'sirida inson o'tkir o'g'riqlarni sezadi. O'zgarmas tokni xatarligini, o'zgaruvchan tokga nisbatan, faqat tok kuchlanishi 400 V gacha haqiqat desa bo'ladi. O'zgarmas tok kuchlanishi 400-600 V oraliq'ida va 50 gs li o'zgaruvchan tokni xatarligi tahminan bir xil. O'zgarmas tokni kuchlanishi 600 V dan oshgan sari inson uchun xatarliroq bo'lib boradi. Buni fiziologik jarayonlari ta'siri bilan tushuntiriladi. Demak, insonga elektr tokni ta'siri turli va har xil faktlar bilan chambarchas bog'liq. Inson tanasidan tokni o'tkazuvchanligi fizikaviy biokimyoviy va biofizikaviy jarayonlaridan bog'liq, shu uchun elektr tokiga inson tanasini qarshiligi bir tekis emas.

e) Elektr jarohatni insonni shaxsiy hususiyatiga bo'g'liqligi.

Elektr jarohatni og'irligi insonni shaxsiy hususiyatlarga ham bo'g'liq. Misol uchun "ushlab qoladigan" tokni miqdori ayrim tanaga "sezish chegarasi" ayrimlarga "qo'yib yuboradigan" chegarasi bo'lishi mumkin. Bundan tashqari inson tanasini o'g'irligiga va uning baqvatligiga ham bo'g'liq. Shuni aytish kerakki ayollar uchun tokni miqdori tahminan 1,5 barobar pastroq, erkaklarga nisbatan. Tokni ta'sirini darajasi insonni asab tizimi va organizmning holatiga ham bog'liq. Agar inson asabiylashgan, depressiya yoki kasal (ayniqsa teri kasalligi, yurak tomir tizimi, asab tizimi va hakazo) yoki mast holatida bo'lsa tokni havfi yanada oshadi.

Elektr qurilmalarini ishlatish xavfligini taxlili inson tanasidan o'tayotgan tokni meyorida, turli holatida kuchlanish ostida qolishi va turli tarmoqdagi turli faktor va parametrlarini ulanib qolishi ta'sirini baholashiga keltiradi.

Elektr tokidan shikastlanganlarga birinchi yordam ko'rsatishda muammolar yetarli. Ulardan biri birinchi yordam ko'rsatish bo'yicha insonlarda bilim yetarli emas. Har bir fuqaroda birinchi yordam ko'rsatish bo'yicha bilimlarini oshirish kerak. Yana bir asosiy muammolardan biri elektr tokidan ximoyalani, ya'ni xavfsizlik madaniyati degan tushuncha yo'q. Har bir fuqaroda shu tushunchalarni shakllantirib, o'zini xavf ostida qoldirishini o'rgatish lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abidova F. A, Abidov A.B "Kuchli ta'sir etuvchi zaharli moddalarning xususiyatlari". -O'zR FVV FMI: 2013 y. 530 b.

2. Boymirzayeva A. "hayot faoliyat xavfsizligi va birinchi tibbiy yordam" . -T: "Zilol buloq " . 2019 y. -39 b.

3. Gazinazarova S, Yo'ldashev O. "Avariya qutqaruv ishlari, o'quv qo'llanma".- Toshkent irrigatsiya va melioratsiya instituti: 2013 y. -160.

4. Nigmatov I. M.Tojiyev "Favqulodda vaziyatlarda fuqaro muhofazasi" Toshkent 2011

5. Qudratov O, T.G'aniyev, O'.Yo'ldashev, G'.Y.Yormatov, N.Habibullayev, A.D.Hudayev "Hayotiy faoliyat xavfsizligi" Toshkent 2005

6. Timinbekov M., "Birinchi yordam ko'rsatish qoidalari" Toshkent 2016

7. Qudratov O., G'aniyev T. "Hayotiy faoliyat xavfsizligi" Toshkent 2004

МЕХНАТ ЖАРАЁНИДА ИНСОН РУХИЙ ХУСУСИЯТЛАРИНИНГ БАХТСИЗ ХОДИСАЛАР, ЖАРОХАТЛАНИШ ЭХТИМОЛЛИЛИГА ТАЪСИРИ

М.Ш.Камалова Самарқанд давлат архитектура-қурилиш институти
“Ҳаёт фаолияти хавфсизлиги” кафедраси ассистенти

Аннотация: В данной статье рассмотрены эффекты и рекомендации психических характеристик рабочего на вероятность несчастных случаев и травм, происходящих в процессах труда на производстве.

Мақолада бугунги кунда ишлаб чиқаришдаги меҳнат жараёнида ишчининг рухий хусусиятларининг руй бераётган бахтсиз ходисалар ва жароҳатланишлар эҳтимоллиликка таъсирлари ва тавсиялари ёритилган.

Калит сўзлар. Меҳнат муҳофазаси, бахтсиз ходисалар, ишлаб чиқариш, ишлаб чиқаришдаги хавфли ва зарarli омиллар, меҳнат психологияси.

Қириш. Ўзбекистон Республикасида фуқароларнинг меҳнатини муҳофазалаш ва фаолият хавфсизлигини таъминлаш умумдавлат миқёсидаги масала даражасига кўтарилган. Шу билан бир қаторда, Вазирлар Махкамаси томонидан 2000 йил 12 июлда “Меҳнатни муҳофаза қилишга доир меъёрий ҳужжатларни қайта кўриб чиқиш ва ишлаб чиқиш тўғриси”даги №267 қарор қабул қилинди. 2008 йил 10 сентябрда “Ишлаб чиқаришдаги бахтсиз ходисалар ва касб касалликларидан мажбурий давлат ижтимоий суғуртаси тўғрисида”ги, 2009 йил 16 апрелда эса “Иш берувчининг фуқаролилик жавобгарлигини мажбурий суғурта қилиш тўғрисида”ги № 153 қарор қабул қилинди. Бунинг натижасида меҳнат муҳофазаси соҳасида меъёрий ҳужжатларни қайта кўриб чиқиш, ҳамда амалга татиқ қилиш янада жадаллашди. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Махкамасининг “Ишлаб чиқаришдаги бахтсиз ходисаларни ва ходимлар саломатлигининг бошқа зарарланишини текшириш ва ҳисобга олиш тўғрисидаги низомни тасдиқлаш ҳақида”ги 1997 йил 6 июндаги 286 сонли қарори қабул қилинди.[4]

Ишлаб чиқаришда кузатиладиган бахтсиз ҳодиса ва касб касалликлари туфайли Ер юзида 2 миллион инсон ҳалок бўлади ва қўйидаги асосий сабаблар бахтсиз ходисаларни келтириб чиқариши мумкин: касбий тайёргарликнинг пастлиги, таълимдаги камчиликлар, хавфсизлик техникасидаги қондабузарлик, низомлар, қондалар, стандартларга риоя қилмаслик, чарчоқ, интоксикация, гиёҳвандлик таъсирида бўлган ишчиларнинг меҳнат қилиши, шикастланиш хавфини кучайтириш ёки хавфли муаммолар тажрибаси туфайли юзага келадиган шахснинг ўзига хос рухий ҳолати ва бошқалар.[1]

Усул ва услублар. Меҳнат психологияси иш жойининг талаблари бўйича касбий маҳоратга риоя қилиш жараёнида юзага келиб, индивидуал психология принциплари ва усулларига асосланади. Меҳнат психологиясининг асосий бир йўналиши- бу инсон омилини ҳисобга олишидир. Ушбу йўналишдаги тадқиқотнинг асосий мақсади - "Инсон - машина" тизимини ўрганишидир ва бу

соҳадаги тадиқотлар инсон ва машинанинг ўзаро таъсирининг учта асосий жараёнларига йўналтирилган:

- маълумотларни қабул қилиш;
- қарор қабул қилиш;
- ҳаракатларни бажариш.

Хаддан ташқари рухий ҳолат билан ишлашда меҳнат қобилиятининг кескин пасайиши, мувофиқлаштиришни йўқолиши, хатти-ҳаракатларнинг зарарли шакллари кузатилади. Кишининг рухий ҳолатининг ўзгариши алкоғолдан узоқ муддатли фойдаланиши, гиёҳханд моддалар, стимуляторлар, тинчлантирувчи воситаларни ўз ичига олган дориларни истеъмол қилиш таъсиридан бўлиши мумкин. Бундай ҳолда, шикастланиш хавфи оғиб ишлаб чиқаришдаги ўлим ҳолати билан яқунланиши мумкин.

Олинган натижалар. "Инсон-иш" тизимида "инсон" қуйи тизими ўзига хос малакаси ва иш юкламаси даражаси билан, "иш" қуйи тизими эса ишлаб чиқариш муҳитидаги хавф даражаси, рационализация, механизациялаш ва автоматлаштириш даражаси билан таъсирланади. Оптималлаштирилган тизимда иш юкламаси инсоннинг ҳақиқий имкониятларига, унинг ишлаш кўрсаткичларига, қобилиятларига мос келиши керак, яъни етарли даражада бўлиши керак. [3]

Инсон фаолияти, ўз навбатида, учта асосий омилларга боғлиқ:

- физиологик функцияларнинг ишлашга мослашувчанлигидан, яъни тинимсиз машқларнинг такрорийлигидан янада ошиши мумкин;
- одамнинг рухий ҳолатидан;
- меҳнат шароитларидан.

Толиқиш - бу танандаги ортикча зўриқишда организмнинг реакцияси ва шу билан у танани ҳимоя қилади. Толиқиш - қайтариладиган жараён бўлиб, у доимий равишда ўзгариб туради. Қуйидаги физиологик ишчи юкламаларга ажратиш мумкин:

- 1) оғир ишлар;
- 2) тананинг ярми оёқ-қўллари томонидан бажарилган мушакларнинг динамик иши (кичик мушак гуруҳлари);
- 3) статик мушаклар ёрдамидаги меҳнат;
- 4) ақлий иш (диққат ва эътибор функциясининг зўриқиши);
- 5) монотон муҳитдаги меҳнат;
- 6) атмосфера шароитидаги таъсирлар (харорат ва намлик, шамоллатиш, инфрақизил нурланиш, тананинг иқлимга реакцияси даражаси);
- 7) бошқа экологик омиллар туфайли тананинг зўриқиши (масалан, шовқин, тебранишлар, шахсий ва гуруҳий муаммолари).

Иш юкламаларининг оғиб кетиши эса салбий оқибатларга иш унумдорлигининг пасайиши, касбий касалликларни, шикастланишларни кўпайишига олиб келади. Инсоннинг физиологик ва рухий ҳолатидан ташқари, иш муҳити-бу маълум бир ишлаб чиқариш тури учун ўзига хос муҳит бўлиб, унда ишчига хавф туғдириши мумкин бўлган хавфли ва зарарли омиллар таъсири ҳам етарли.

Ҳаёт фаолияти хавфсизлигининг таркибий қисмларидан бири-*меҳнат хавфсизлиги стандартлар тизимга* асосланган иш жараёни ва иш ўринлари

ташқиллаштирилиши лозим. Жумладан Давлатлар стандартлар тизими (ГОСТ 12.0.02-2003) қўйидаги таърифларни беради.

Ишлаб чиқариш зарарли омили – маълум бир шарт-шароитда хавфли, уларнинг муайян шароитларда ишловчиларга таъсир этиши натижасида касалланиш, иш қобилиятининг пасайишига олиб келадиган ишлаб чиқариш омили.

Ишлаб чиқаришдаги хавфли омил – маълум бир шарт-шароитда ишловчиларга таъсир этиши натижасида шикастланишга, ўткир захарланишга ёки ўлимга олиб келадиган ишлаб чиқариш омили.

Ишлаб чиқаришдаги зарарли ва хавфли омиллар таъсир этиш хусусиятига қараб кўра бўлинади;

-актив- мавжуд бўлган энергия туфайли намоён бўладиган (ионлаштирувчи нурлар, тебранишлар ва бошқалар)

-актив-пассив- инсоннинг ўзида мавжуд бўлган энергия туфайли намоён бўладиган (баландликдаги ишлар, сирпанчиқ сиртлардаги хавфлар, ўткир тигли ускуналар билан ишлаш ва бошқ.)

-пассив- билвосита намоён бўлиши (материалнинг узоқ вақт фойдаланиш натижасидаги парчаланishi, коррозия, трубаларда оҳак ва қурумнинг тупланиши бошқалар)

Бунга мувофиқ хавфли ва зарарли омиллар тўрт гуруҳга бўлинади:

- физик (машиналар ва механизмлар ҳаракати, ишлаб чиқариш ускуналарининг ҳаракатланувчи қисмлари, инфрақизил ва ултрабинафша нурланишлар, ҳароратнинг ошиши ёки пасайиши, лазер нурланиши, ионлаштирувчи нурланиш, ҳаво намлигининг ошиши ёки пасайиши, электр токи, статик электр ва бошқалар).

- кимёвий моддалар (ҳаво, сув, тупроқ, озиқ-овқат маҳсулотларида мавжуд бўлган кимёвий моддалар);

- биологик (патоген микроорганизмлар, вируслар, бактериялар, кўзқоринлар);

- психофизиологик (стресс, монотония, чарчоқ, толиқиш, уйқусизлик, алкоголь захарланиши ва бошқалар);

Хулоса ва тавсиялар. Мехнатни муҳофаза қилишда, шунингдек ишлаб чиқариш хоналари, ёрдამчи хоналар ва ишлаб чиқариш майдончалари “Қурилиш меъёри ва қоидалари”га (ҚМК) га мос келиши керак. Иш жойларида хавфли ва зарарли таъсирлар даражаси меъёрий кўрсаткичлардан, чегаравий рухсат этилган қийматлари (шовқин, овоз даражаси, электр ва магнит майдонлари, нурланишлар ва бошқалар) нормаларидан ошмаслиги шарт. Ишлаб чиқариш жиҳозлари ГОСТ 12.2.003-74 (1991) га ва технологик лойихалаш меъёрларига мос келиши шарт.

Инсон замонавий эргатик (эрготехника) тизимларининг асосий ҳаволаси. Шу билан бирга статистика шуни кўрсатадики, 10-15% бахтсиз ҳодисалар ва фалокатлар, барча муваффақиятсизликлар инсон хатоси билан бевосита ва билвосита боғлиқ (тўғридан-тўғри ёки билвосита) “Инсон-машина” ўзаро таъсирини амалга ошириш жараёнида шахс томонидан рухсат берилган барча қўплаб хатолар қўйидагича таснифланиши мумкин.

Инсон-операторнинг хатоси- қўйилган мақсаднинг бажарилмаганлиги, мақсад қилиб қўйилган жараённинг бузилишига олиб келади. Операторнинг хатоларини уч катта гуруҳларга гуруҳлаш мумкин: 1) операторнинг хатолари туфайли қўйилган мақсадга эришмаганлик; 2) операторнинг хато мақсадлар сари интилиши; 3) операторнинг керакли пайтдаги этиборсизлиги.

“Инсон – машина” ўзаро таъсирини амалга ошириш жараёнида инсон томонидан содир этиладиган барча кўп хатоларни қўйидагича таснифлаш мумкин.

1. Лойихалашдаги хатолар – сифатсиз лойихалаш туфайли;

2. Ишлаб чиқариш хатолари: ишлаб чиқариш босқичида содир бўлади (ишнинг қониқарсиз сифати, материални нотўғри танлаш ва бошқалар).

3. Операторнинг хатолари: белгиланган тартибда нотўғри бажариш.

4. Техник таъминотдаги хатоликлар: иш пайтида юзага келадиган (сифатсиз таъмирлаш, нотўғри ўрнатиш ва бошқалар).

5. Бошқарув хатолари: сифатсиз элемент ёки қурилмани қабул қилиш билан боғлиқ.

6. Ишлашдаги хатолар (маҳсулотларни қониқарсиз сақлаш, ташиш).

7. Иш жойини ташкил этиш хатолари: зичлик, зарарли омиллар мавжудлиги ва бошқалар.

8. Коллектив бошқарувдаги хатолар (психологик номувофиқлиги, имтиёзлар, шарт-шароитларнинг етишмаслиги ва бошқалар).

9. Хатолар қилиш. Бунга уларнинг пайдо бўлишини аниқлаш қийин бўлган хатолар қиради.

Операторнинг ишончлилиги унинг хатоси, тайёргарлик, ўз вақтида дам олиш ва аниқлик билан тавсифланади. Меҳнат жараёнини ташкил этишда қўйидаги усуллардан фойдаланиш лозим: профессионал танлов, меҳнатнинг психологик хусусиятларини ўрганиш ва ўқитиш.

Меҳнат психологиясининг муҳим соҳаларидан бири бу кадрларни танлаш, мослаштириш ва ўқитишдир. Иш берувчига номзоднинг психофизиологик хусусиятлари бўйича тадқиқот маълумотларига таянишга имконини берадиган кадрларни танлаш учун объектив усуллардан фойдаланишдир. Ходимларни танлаш ва кенгайтиришда ишлатилиши мумкин бўлган кўплаб синовлар мавжуд. Шахсий фазилатларни баҳолаш, ҳосилдорлик ва турли суҳбатлар усулларини баҳолаш учун тестларни ўтказиш тавсия этилади бу эса ишлаб чиқариш шароитида ходимнинг мослашувчан имкониятларини ошириш воситалари самарадорлигини оширади.[5]

Синов нафақат ходимларни танлаш учун, балки касб ёки синфларни танлаш бўйича, шунингдек, касб ёки дарсларни танлашда, шунингдек, диагностика бўйича клиник текширув воситаси сифатида қўлланилади. Бу ишлаб чиқаришдаги хавфли ҳолатларни камайтиради. Шунингдек, соғлом ва хавфсиз меҳнат шароитларни яратиш учун қўйидагиларни амалга ошириш кўзда тутилади: технологик жараёнларни автоматлаштириш ва масофадан бошқариш, гуруҳий химоя қилиш воситаларини қўллаш, ускуналарни герметизациялаш, ишловчиларга чарчаш, монотон ва гиподинамия ҳолатларини олдини олиш учун рационал ишлаш ва дам олиш тартибини ўрнатиш, меҳнат оғирлигини чегаралаш, ҳар бир алоҳида технологик жараёнда юзага келган зарарли ва

хавфли ишлаб чиқариш омиллари тўғрисида ўз вақтида маълумот олишни таъминлаш ва бошқалар. [2]

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Ў.Р.Йулдошев ва бошқалар “Хаёт фаолияти хавфсизлиги” Дарслик. Ўзбекистон нашриёти. 2015й.-65-76 б.

2. Кисляков П.А. Инновационные образовательные технологии подготовки будущих педагогов // В мире научных открытий. 2011. Т. 15. № 3.1. С. 554-559.

3. Кисляков П.А. Профессиональная подготовка будущих педагогов к безопасной жизнедеятельности в социуме: технологии интеграции // Интеграция образования. 2011. № 2. С. 14-18.

4. www.lex.uz

АҲОЛИ ЎРТАСИДА ҲАЁТ ФАОЛИЯТИ ХАВФСИЗЛИГИНИ ТУШУНТИРИШ ОРҚАЛИ БАХТСИЗ ҲОДИСАЛАРНИ КАМАЙТИРИШ УСУЛЛАРИ

Бахриддинов Н.С. НамМҚИ, доцент
Игамбердиева Д.А., Алимова М.Ш. НамМҚИ, ўқитувчи

Аннотация: Ушбу тезисда Ўзбекистон фуқаролари учун ўз фаолияти даврида турли кўринишдаги жараҳатланиш, бахтсиз ҳодиса ёки касб касаллигига йўлиқишини олдини олиниши мақсадида уларга Ҳаёт фаолияти хавфсизлиги фанидан турли курслар ташкил этиш орқали тушунчалар бериш мақсада мувофиқ бўлиши баён этилган.

Калит сўзлар: ишчи, ходим, меҳнат муҳофазаси, хавфсизлик, жараҳатланиш, касб касалликлари, хавфсизлик техникаси, ишчиларни ўқитиш, хавф, хавфли омил, зарарли омилар, хавфсизликни таъминлаш.

Мамлакатимизда ишчилар меҳнатини муҳофаза қилишнинг давлат сиёсати даражасига кўтарилганлигининг асосий сабаби Ўзбекистон Республикаси Конституциясининг 22-моддасида берилган: “Ўзбекистон Республикаси ўз ҳудудида ҳам, унинг ташқарисида ҳам ўз фуқароларини ҳуқуқий ҳимоя қилиш ва уларга ҳомийлик кўрсатишни кафалатлайди” – деб белгилаб қўйилганлигидадир. Шунга биноан ҳар бир фуқаро давлат муҳофазасида эканлигини унутмаслик лозим.

Ҳозирги кунда ҳар бир ишчи-ходимнинг меҳнат муҳофазасидан аниқ бир билимга эга бўлиши уларнинг иш турига боғлиқ ҳолда қандайдир касб касаллиги ёки бахтсиз ҳодисага учраши олди олинишида муҳим ҳисобланади. Агар шу ишчиларни ушбу йўналиш бўйича таҳлил қиладиган бўлсак, деярли ярми тадбиркорлик ва хусусий корхоналар ишчисига тўғри келади. Шунинг учун ҳам барча ишчилар меҳнат муҳофазаси бўйича етарли билимга эга эмасликларини кўрсатиб ўтиш мумкин.

Маълумки, ишлаб чиқариш жараёнлари мамлакатимиз равнақида муҳим ўринни эгаллайди. Айнан қурилиш, озиқ-овқат ва аграр саноатларни ҳам шу даражада кўрсатиш мумкин. Бу соҳаларда банд бўлган фуқароларни жараҳатланишга қарши хавфсизлик техникаси қондалари билан таништириш,

уларни ушбу қондаларга риоя этишликларини таъминлаш мақсадида турли курсларни ташкил этиш мақсадга мувофиқ бўлади. Бундай ўқув курсларини ташкил этишда айтиб ўтилган фуқароларнинг ишдан бўш вақтларини билиш муҳим ҳисобланади. Агар ҳар бир ишчи учун бўш вақтларини билиш мақсадида ўтказилган сўровнома таҳлил қилиб кўрилганда, кишки мавсумга тўғри келиши айти ҳаққиқат саналади.

Инсон яшаши учун унинг яшаш муҳитига кўрсатадиган таъсири билан бир қаторда фаолият натижасида ёки табиий ҳолда инсоннинг ўзига салбий таъсирлар мавжудлиги уларнинг эҳтиёт бўлишликка мажбур этади. Яъни, инсон ўз эҳтиёжи учун зарурий моддаларни табиатдан олади, бунинг учун табиатга нисбатан қандайдир таъсир кузатилади. Масалан, инсон эҳтиёжи учун озиқ-овқатни – табиатнинг тупроқ ва сув қисмига таъсир этиш орқали, қолаверса, турли даражада қондирилишини тақозо этадиган эҳтиёжлар учун табиатда қандайдир техникага нисбатан таъсир этиш орқали амалга оширилади. Жамият ривожланиши жадал суръатларда бўлишига мос ҳолда инсон фаолияти таъсирида биосферанинг ўзгариши жуда тезлик билан бормокда. Биосферанинг ўзгаришидаги меъёрий ҳолатдан чиқилиши эртами-кечми экологик ҳалокатга олиб келади. Бу эса инсоннинг ўзига салбий таъсир эканлигини англатади.

Инсон яшаши учун меҳнат фаолияти билан шуғулланиши натижасида юзага келувчи хавфлар, зарарли омиллар инсон салаоматлигига салбий таъсир кўрсатиши натижасида инсоннинг салаоматлиги меъёрий ҳолатдан чиқади. Айнан ҳозирги куннинг энг кўп учрайдиган бу омилларни қўйидагича кўрсатиш мумкин:

А. Асосий хавфли омиллар:

- транспорт воситаларида юзага келувчи авариялар;
- электр токининг инсон организмга таъсири;
- юқоридан тушиб кетиш хавфи;
- юқларнинг босиб қолиш хавфи;
- дастгоҳ ва турли машина ва механизмлардан деталлар синиб учишидан юзага келадиган салбий таъсирлар;
- ёнувчи газнинг портлаш хавфи;
- хандақ, яъни қавланган чуқурга химоявий тўсиқларсиз тушиш натижасида тупроқ қатламининг босиб қолиш хавфи ва ҳоказо.

Б. Асосий зарарли омиллар:

- турли модда ва материалларнинг чанглари;
- иш жойидаги ҳароратнинг меъёрида эмаслиги;
- шовқин ва титрашларнинг меъёридан ортиқча бўлиши;
- электромагнит майдон ва радиотўлқинлар;
- меъёридан ортиқча ёруғлик, Қуёш радиацияси ва ҳоказо.

Оддий халқ учун кўрсатиб ўтилган асосий хавфли ва зарарли омилларнинг юзага келиши, уларнинг инсон организмга кўрсатадиган салбий таъсирлари ҳамда улардан эҳтиёт бўлиш чораларини тушунтиришнинг радио, телевидение, матбуот газета ва журналлари ҳамда телефон алоқа воситаларидан фойдаланиш усуллари мавжуд. Бироқ, ҳозирги кунда кузатилаётган бахтсиз ҳодисалар ва касб касалликларининг мавжудлиги бу усулларга қўшимча равишда маҳалла

фуқаролар йигини ходимлари ҳамда жоме масжидларда ташкил этиладиган маърузалар кўринишидан фойдаланишни йўлга қўйиш мумкин. Булардан тапқари “Ҳар бир маҳаллага бир зиёли” тадбири асосида белгиланган масъул педагогнинг ёрдамидан фойдаланиш орқали бахтсиз ҳодиса ва касб касалликларини олдини олишга эришилиши мумкин.

Маълумки, ҳозирги кунда ҳар бир олий ўқув юртида ҳаёт фаолияти хавфсизлиги таълим йўналишида таҳсил олувчи талабалар ўзларининг хавфли, зарарли омиллар ва улардан эҳтиёт бўлиш усулларидан хабардорлар. Шунинг учун уларнинг маҳаллага боғланган педагог билан биргаликда бориб, маҳаллада Ҳаёт фаолияти хавфсизлигини таъминлаш учун қилинадиган ишлар бўйича тушунча ва кўрсатмалар беришда иштирок этишлари мақсадга мувофиқ бўлади.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. Тўхтаев А. С. Экология. Педагогика институтларининг талабалари учун ўқув қўлланма. Т., «Ўқитувчи», 1998. — 192 б.
2. Биология ва экология журнали. Тошкент, 2020 й., 1-сон, 2-жилд, 14-19-бб.

ЭЛЕКТРОН АХБОРОТ ТАЪЛИМ МУҲИТИДА ЎҚУВЧИЛАРНИНГ ҲУНАРМАНДЧИЛИККА ОИД ТАЯНЧ КОМПЕТЕНЦИЯЛАРИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ

М.А.Иброхимов НамДУ ўқитувчи,
З.Ф.Рустамова НамДУ талаба

Аннотация: Ушбу мақолада умумий ўрта таълим мактаб ўқувчиларига ҳунармандчиликни электрон ахборот таълим муҳитида синфда ва синфдан ташқари машгулотлар жараёнида ўргатиш ва уни ривожлантириш каби масалалар таъкидлаб ўтилган.

Аннотация: В этой статье освещаются такие вопросы, как обучение и развитие ремесел для учащихся общеобразовательной средней школы в классе и внеклассные мероприятия в электронной информационной среде обучения.

Annotation: This article highlights issues such as teaching and developing crafts to general secondary school students in the classroom and extracurricular activities in an electronic information learning environment.

Жаҳон микёсида инсоният жамият тараққиётининг жадал суръатларда ривожланиши, яъни, глобаллаштириш ва электронлаштириш деб аталувчи умумтарихий жараёнга қадам қўйган. Ушбу жараён ҳар бир шахс учун маълумот манбаларига йўл очиб, таълим, ахборот технологиялари, илм-фан, ишлаб чиқариш соҳаларига кириб бориш ва уларга хизмат кўрсатишнинг юқори савиясини талаб қилади. Электрон муҳитнинг таълим тизимига кириб келиши янгича мулоқот муҳитини яратиб бераётганлиги ЮНЕСКО ташкилоти томонидан эътироф этилиб, бу жараёнда ўқитувчидан нафақат электрон муҳитда ишлаш малакаси, балки “Simple abilities” - маълумот қидириш ва ахборотларни

яҳлит идрок этиш, ахборотлар моҳиятини ижобий ва танқидий тарзда баҳолаш, жамоавий ишлаш ҳамда ижодий, мантиқий фикрлаш каби қобилиятларни эгаллаш талаб этилади.

Ҳозирги замон ахборотлаштириш жараёнининг етакчи йўналишларидан бири - таълимда электрон ахборот муҳитини яратишдир. Бу муҳитда инновациялар таълимни янада ривожлантиришнинг асосий йўналишини белгилайди. Ахборотлашган жамиятда илмий-техника жадал ривожланиши ва бунинг ҳаётимиздаги акс этаётганлиги кўплаб муаммоларни ҳал этиш имкониятини беради. Халқаро педагогик тажрибалар ва замонавий таълим стандартларига ҳар томонлама мос мутахассислар тайёрлашни йўлга қўйиш, меҳнат бозори талабларига жавоб берадиган юқори малакали, рақобатбардош, юксак касбий ва интеллектуал, танлаган касби бўйича замонавий билимларга эга бўлган кадрлар тайёрлаш устувор йўналишлардан бири сифатида эътироф этилмоқда. Хунармандчилик инсониятнинг ишлаб чиқариш фаолияти билан вужудга келиб, инсон тафаккури ва жамиятнинг ривожланиши билан чорвачилик ва деҳқончиликдан ажралиб чиқиб, турли даврларда техника ривожланиши билан бир қаторда такомиллашиб келган. Хунармандчилик ўймакорлик, темирчилик, мисгарлик, дуродгорлик, кулолчилик, бўйрачилик, тикувчилик, тўқувчилик, заргарлик, бинокорлик, зардўзлик, бўёқчилик, тунукасозлик ва шу каби турларга бўлинади. Хунармандчилик дастлаб инсонлар ўртасида товар-пул муносабатларида чуқурроқ фойдаланилиб келинган.

Ўзбекистонни ривожлантиришнинг бешта устувор йўналиши бўйича ҳаракатлар стратегиясида таълим муассасаларини қуриш, реконструкция қилиш, капитал таъмирлаш, уларни замонавий ўқув-лаборатория ускуналари, компьютер техникаси ва ўқув-методик қўлланмалар билан таъминлаш бўйича ишларни амалга ошириш орқали уларнинг моддий-техник базасини мустаҳкамлаш юзасидан аниқ мақсадга қаратилган чора-тадбирларни қўриш устувор вазифалардан бири сифатида кўрсатиб ўтилган. Шунингдек, Республикамизда хорижий таълим тажрибалари асосида эришилган ижодий тажрибаларни бирлаштириш ва такомиллаштириш, умумий ўрта таълим бўйича ягона ахборот таълим порталини яратиш, фанларнинг ягона ахборот-методик таъминотини шакллантириш имконини берадиган фан порталларини яратиш, ахборот ресурсларидан умумий ўрта таълим мактаблари ўқувчиларини ўқитиш жараёнида қўллаш методикаларини ишлаб чиқиш, умумий ўрта таълим муассасаларини замонавий ахборот-коммуникация технологиялари, воситалари билан жиҳозлаш, ўқувчилар ва ўқитувчиларнинг жаҳон таълим ресурслари, замонавий ахборот ресурс марказлари маълумотлар базаларига кириш имкониятларини кенгайтириш муҳим вазифалардан ҳисобланади.

Умумий ўрта таълим мактабларида технология фанини ўрганиш жараёнида ўқувчиларда хунармандчиликка оид таянч компетенцияларини ривожлантириш борасидаги олиб борилган тадқиқотлар таҳлили ва бизнинг амалий иш тажрибаларимиз натижалари бу борада қуйидагилар муҳим аҳамият касб этишини кўрсатди:

- электрон ахборот таълим муҳитида ўқувчиларда ҳунармандчиликка оид таянч компетенцияларини ривожлантиришнинг назарий асосларини ишлаб чиқиш;

- ўқувчиларда ҳунармандчиликка оид таянч компетенцияларини ривожлантиришда электрон ахборот таълим муҳитини ярата олиш даражасини аниқлаш ҳамда уни такомиллаштириш;

- ҳунармандчиликка оид электрон ахборот таълим муҳитини яратиш;

- электрон ахборот таълим муҳитида ўқувчиларнинг ҳунармандчиликка оид таянч компетенцияларини ривожлантириш методикасини ишлаб чиқиш.

Юқоридаги вазифаларни амалга ошириш учун қуйидаги тавсияларни берамиз:

- фан-техника ва технологияларнинг энг сўнги ютуқлари ва уларнинг амалий аҳамияти ҳақидаги маълумотлар базаси ҳамда уни мунтазам равишда такомиллаштирилиб бориш имкониятига эга бўлиш;

- ўқувчиларда ҳунармандчиликка оид таянч компетенцияларини ривожлантиришга мос келувчи педагогик технологиялар базасига эга бўлиш;

- турли хил ҳунармандчилик элементларига мос келувчи дидактик воситалар (хомашё, технологик харита, асбоблар, керакли жиҳозлар ва бошқалар) билан муносабатда бўлиш ҳақидаги маълумотлар базасини ташкил этиш ва улардан технологик жараённи олиб боришда (билим, кўникма ва малакадан амалий фаолиятда фойдаланишда) таълимий ахборот сифатида фойдалана олиш;

- янги инновацион ишлаб чиқаришнинг илмий асослари билан танишиш;

-техник объектлар ва технологик жараёнлар асосида амалий кўникмаларга (ўлчов, ҳисоблаш, қайта ишловчи монтаж қилиш) эга бўлиш;

- турли хил ҳунармандчилик касблари эгаси учун зарур бўлган турли шахсий ҳислатлар, фазовий билим, наққошлик, амалий безак санъати ва дизайнерлик қобилиятларига эга бўлиш керак.

Бундай билим ва кўникмаларни эгаллаш, ўқувчиларда технологик билимларнинг такомиллашувига олиб келади ҳамда олган билим ва кўникмаларини бошқа фаолият турларига қўллашга имкониятлар яратади.

Фойдаланилган адабиётлар

1. Мирзиёев Ш.М. Танқидий таҳлил, қатъий тартиб-интизом ва шахсий жавобгарлик – ҳар бир раҳбар фаолиятининг кундалик қондаси бўлиши керак. – Т.: “Ўзбекистон”, 2017

2. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2002 йил 6 июндаги “Компьютерлаштиришни янада ривожлантириш ва ахборот коммуникацион технологияларини жорий этиш чора-тадбирлари тўғрисида”ги 200 - сонли қарори

3. Белеяев А.П. Педагогическая характеристика образовательной среды в различных типах образовательных учреждений – М.: Изд-во МПСИ. 2008

4. Маҳмудов Ю.Ф., Қодиров Э.Х. Ўқувчиларда ҳунармандчилик касбларига фанларо қизиқишини шакллантириш. Услубий қўлланма. - Т.: “Дизайн Пресс”, 2011.

“ТЕХНОЛОГИЯ ФАНИНИ ЎҚИТИШ МЕТОДИКАСИ” ФАНИ БЎЙИЧА МУЛЬТИМЕДИАЛИ ЭЛЕКТРОН ДАРСЛИК ЯРАТИШ МЕТОДИКАСИ

Ф.С.Турабеков Тошкент давлат иқтисодиёт университети “Инновацион таълим” кафедраси доценти

Аннотация: Мазкур мақолада Технология фанини ўқитиш методикаси фанидан мультимедиа ли электрон дарслик яратиш методикаси тўғрисида фикр билдирилган. Мультимедиа ли электрон дарслик мазмунининг энг аҳамиятли жиҳати виртуал топшириқларни бажаришда маълум қийматларни танланганда юза ғадир-будирлигининг катталаштирилган тасвирда кўриниши ҳисобланади.

В статье рассматривается методика создания мультимедийного электронного учебника по теме методики обучения технологиям. Важнейшим аспектом содержания мультимедийного электронного учебника является появление шероховатости поверхности на увеличенном изображении при выборе определенных значений при выполнении виртуальных задач.

The article discusses the methodology for creating a multimedia electronic textbook on the topic of technology teaching methods. The most important aspect of the content of a multimedia electronic textbook is the appearance of surface roughness in an enlarged image when certain values are selected when performing virtual tasks.

Ахборот технологияси – бу турли масалалар ечимини топиш мақсадида ахборотларни йиғиш, қайта ишлаш, сақлаш, ифодалаш, тақсимлаш, узатиш ва уни истеъмолчиға етказиб бериш жараёнларини компьютер ва телекоммуникация воситалари ёрдамида амалға оширадиган, тартибға солинган ва ташкиллаштирилган тизимли ва амалий дастурлар мажмуидир.

Замонавий тушунишда эса ахборот технологияси – бу ахборот билан ишлаш учун махсус усуллар, дастурий ва техник воситалар фойдаланиладиган педагогик технология.

Ахборот технологияларидан педагогика олий таълим муассасаларида ўқув режаларида кўзда тутилган фанларни ўқитиш жараёнида фойдаланиш бўлажак ўқитувчилар касбий тайёргарлигини сезиларли даражада ошириш учун улкан имкониятларни тақдим этади.

Ахборот технологиясидан таълим муассасаларида ташкил этиладиган ўқув жараёнида ўрганиш фанини, объекти, худди шунингдек ўқитиш воситаси сифатида фойдаланиш мумкин. Ахборот технологияси ўқитиш воситаси сифатида талабалар билиш фоалигини оширишнинг муҳим омили ҳисобланади ва уларға ўзларини кизиктирган саволлар бўйича қўшимча билимлар олишиға имконият яратади ҳамда уларда ахборотни йиғиш, қайта ишлаш, таҳлил қилиш кўникмаларини шакллантиради ва такомиллаштиради.

Компьютер, худди шунингдек ҳар бир талабанин г индивидуал имкониятини эътиборға олиб уларға ишлашнинг кучи етадиган темпи тақлиф этилган вақтда сифат жиҳатдан янги даражада ўқитишни индивидуаллаштириш ва дифференциялаш имкониятини тақдим этади ва натижаларға зарурий тузатишлар киритишни таъминлайди. Қайд этилган имкониятлар педагогика

олий таълим муассасаларида бўлажак ўқитувчилар шу жумладан технологик таълими ўқитувчиларининг касбий фаолиятга тайёргарлиги фаоллигини кучайтиради.

Таълимга ахборот технологияларининг жорий этилиши ахборотни қайта ишлаш ва узатишнинг электрон воситаларига асосланган янги ўқитиш технологияси ва ўқитиш шакли фойда бўлишига олиб келади. Кучли мультимедиа тизими ва интерактив ўқитиш воситаларининг пайдо бўлиши эса ўқитишнинг жадал ривожининг асоси бўлиб хизмат қила бошлади. Аммо, ўқув жараёнида фойдаланилаётган техник воситаларнинг хилма – хиллигига қарамадан шуни таъкидлаш лозимки, ўқитиш сифати энг аввало ўқув материали мазмунига уни ўрганувчига тақдим этиш шаклига ва ўқув жараёнининг ташкил этилишига боғлиқ.

Шунинг учун ҳам ҳатто ўқитишнинг анъанавий схемасида янги ахборот оқимининг кескин ўсиши, билимлар тизими мураккаблашуви, иллюстратив материаллар мавжуд эмаслиги билан боғлиқ кўплаб муаммолар вужудга келади. Мультимедиа технологияси ва воситасининг пайдо бўлиши эса бу муаммоларни ечишга имкон яратди. Чунки, компьютерни ўқув жараёнига жорий этиш матн, графика, анимация, товушли ва видео элементли, уч ўлчовли модел кўринишидаги иллюстратив материаллар яратишга имкон беради. Интерактив компьютер дастурлар эса талабанинг нутқли, фикрий, жисмоний ва перцептивли фаолиятини фаоллаштиради. Компьютерли тренажёрлар эса амалий кўникмаларни эгаллашга имкон беради. Бир сўз билан айтганда, ўқув жараёнига мультимедиа технологияси ва воситаларини қўллаш, ўқув жараёнини ташкил этишнинг анъанавий ва компьютерли шаклининг онгли равишда бирлашиш натижасида билимлар тизими сифатли узатиладиган ва ўзлаштриладиган ўқитиш схемасини қуришга имкон беради.

Самарали компьютерли ўқитиш воситаларини яратиш – бу етарли даражада мураккаб ва қийин иш. Бу айниқса, мультимедиа дастурларига бевосита таллуқли. Чунки **биринчидан** мультимедиа дастурларини яратишда талабаларнинг мультимедиа технологиясига ва умуман компьютерга индивидуал муносабати эътиборга олиниши лозим; **иккинчидан**, мультимедиа дастурини яратувчи ўқитувчидан нафақат касбий билим, балки ундан компьютер технологияси соҳасидаги билимлар, дизайн ва бошқа кўпгина билим ва малакалар талаб этилади; **учинчидан**, мультимедиа дастурларини яратиш учун замонавий ускунавий ва дастурий воситалар зарур.

Мультимедиа элекрон дарслик янги авлодининг тузилиши жуда мураккаб бўлиб, асосий матн билан бир қаторда қўшимча ахборотларни беришга йўналтирилувчи “ёрдамчи” элементларнинг турли шакллари ушбу манбанинг ташкил этувчилари ҳисобланади. Мазкур ташкил этувчиларининг китоб (ёки экран майдони) даги матнга нисбатан жойлашуви матн лавҳалари билан узвий боғлиқликда бўлиши тақозо этади, натижада матн баёнининг мантикий кетма-кетлиги таъминланади. Матннинг коммуникативлик хусусияти талабада мустақил ҳолда мантикий фикрлашни шакллантиришга хизмат қилади.

Мультимедиа элекрон дарслик:

1) ўқув дастури ва ўқув-методик ишларни нашр этилишига нисбатан қўйилувчи талабларга жавоб бера олиши ва муайян соҳа йўналиши бўйича биринчи бор тақдим этилаётган ёки аввал нашр этилган методик қўлланманинг электрон версияси сифатида тайёрланган бўлиши;

2) маълум ўқув фани (ёки унинг бир қисми) нинг мазмунини очиб бериш ҳамда ўқув-методик мақсадларга эришишга имкон яратадиган даражадаги ҳажмга эга бўлиши;

3) ўқув-методик мақсадларга эришишга ёрдам берувчи кўргазмалӣ элементлар (яъни, максимал даражада компьютернинг мультимедиалӣ имкониятларидан фойдаланиш имконияти) га эга бўлиши;

4) материални монитор экранидан кўриш ва тармоқ бўйлаб жойлаштириш хусусиятини инобат олиши;

5) матнда мурожаат қилишларнинг мавжудлиги билан бирга, зарур ҳолларда WEB манбалари ва бошқа ахборот ресурсларининг кўрсатилиши;

6) материални ўзлаштириш даражасининг талаба томонидан мустақил баҳоланишига имкон берувчи назорат саволларининг мавжуд бўлиши каби талабларга жавоб бериши керак.

Мультимедиалӣ электрон дарсликнинг асосий мазмуни қўйидагилар асосида шакллантирилади:

- таянч конспект;
- маърузалар матни;
- деталлаштирилган курс;
- курснинг чуқурлаштирилган алоҳида бўлимлари.

Мультимедиалӣ электрон дарслик ва унинг ҳар бир бўлимида асосий материал баёнидан аввал албатта кириш қисм мавжуд бўлиши керак. Унда фаннинг умумий таркиби, қисмлари ҳамда улар ўртасидаги боғлиқлик тўла акс эттирилган бўлиши керак.

Кириш қисмида:

- фаннинг давлат таълим стандартига мос келувчи дастури, асосий масалалар рўйхати, уларнинг моҳияти, шунингдек, уларни ҳал этишнинг долзарблиги ва аҳамияти;
- бўлим ёки бирорта мавзунинг асосларини пухта ўзлаштириш имкон берувчи фанлар;
- фаннинг асосларининг пухта ўзлаштирилиши, мазкур фан мазмунини ёритишда бошқа фанлар билан ўзаро алоқадорлик;
- фаннинг тузилиши, бўлимлари ўртасидаги функционал ва мантиқий боғлиқликлар;
- фанни ўрганиш тартиби бўйича (қайси бўлимларни мустақил ўзлаштириш имкониятининг мавжудлиги борасидаги) умумий тавсиялар;
- фан ўқув дастури доирасидан ташқарида бўлган масалаларни ўрганишга имкон берувчи омиллар ҳамда мутахассисларнинг алоҳида гуруҳлари учун фаннинг муайян бўлимларини ўрганиш борасидаги кўрсатма ва шарҳлар, шунингдек, адабиётларга иловалар акс эттирилиши зарур.

Ҳар бир бўлим (мавзу) да кириш қисмидан ташқари қўйидагиларнинг ўрин олиши мақсадга мувофиқдир:

- 1) масаланинг қўйилиши (муаммонинг моҳияти);
- 2) асосий масалалар ва уларни ечишнинг аҳамияти;
- 3) фан (ёки бўлим) нинг турли қондалар, тасвирлар билан бойитилиши;
- 4) аудио лавҳалар;
- 5) ечишда фойдаланиладиган, шунингдек, ушбу ечимдан фойдаланадиган бўлимлар рўйхати;
- 6) намоёиш этиш усул ва методлари ҳамда улардан амалий жиҳатдан фойдаланиш шартлари;
- 7) аниқ далил мавжуд бўлганида натижаларни тушунтириб (формуласиз, техник-технологик жиҳатдан изоҳлаб) бериш йўллари;
- 8) мумкин бўлган вазиятларда, шунингдек, мазмунга мувофиқ муайян масалани ечишнинг бошқа методлари;
- 9) натижалардан фойдаланиш жараёнида фойдаланувчи кўп бора дуч келадиган техник иловалар;
- 10) материаллар асосида ўзлаштирилган таянч билимларнинг изоҳлари.
Ҳар бир мавзу мисол ва масалалар ёрдамида очиқ берилиши зарур, яъни:
 - кўрсатмаларнинг (тулақонли ечимлар билан) баён этилиши;
 - жавоблари кўрсатилган ҳолда мустақил ечиш учун топшириқларнинг берилиши;
 - назорат ечимларининг (фаннинг ўрганилган бўлимларини қайта ўрганиш зарурлигини кўрсатиш) берилиши;
 - фаннинг ўрганилган бўлимларини боғловчи назорат саволларининг тавсия этилиши керак.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Турабеков Ф. С. Булажак меҳнат таълими ўқитувчиларини тайёрлаш жараёнида ахборот технологияларини қўллаш методикаси: Пед. фан. ном.... дисс //Тошкент: ТДПУ. - 2011. - Т. 177.
2. Турабеков Ф. С. Основные подходы к созданию электронного учебника по методике трудового обучения //Вестник Университета Российской академии образования. – 2010. – №. 4.
3. Turabekov F. «Axborot texnologiyalari texnologik ta'limi o'qituvchilarini tayyorlashda mustaqil ta'limni samarali tashkil etish vositasi sifatida». Архив научных исследований, т. 1, вып. 44, февраль 2021 г.

AKADEMIK LITSEY VA KASB-HUNAR KOLLEJLARIDA FIZIKA FANINING O'QITISH USULI

A.B.Nabiyev Namangan davlat universiteti HFX kafedra mudiri

M.A., Usmanov, Namangan davlat universiteti

A.A.Botirjanov Namangan davlat universiteti talabasi

Аннотация. Обобщенные уроки по курсу физики в профессиональных колледжах имеют важное значение, поскольку в процессы обучения достигается глубже изучат суть материала и установит взаимосвязь между разделами изучаемого материала.

Abstract. The generalized lessons on course physics in professional college has important significance in processes of the education which is reached deeper studies the essence of the material and will install inter connection between sections of the under study material.

Umumlashtirish deganda shunday bir bilim jarayoni tushuniladiki, unda haqiqiy borliq hodisalarining muhim tomonlarini fikrlash orqali aniqlanadi va birlashtiriladi, hamda xulosalar chiqariladi. Umumlashtirishlarda muhim bo'lmagan belgilardan muhim belgilar ajratib olinadi, ya'ni differensiyalanadi, abstraksiyadan aniqlikka o'tiladi, umumiy bilan alohida hodisalar orasidagi bog'lanishlar aniqlanadi.

Umumlashtirish o'qitish jarayoning muhim zvenolaridan biridir. U o'rganiladigan materialning yetakchi g'oyasini chuqurroq tushunib yetishga imkon beradi, bilimning alohida zvenolari orasida bog'lanishlar o'rnatishga o'rgatadi. Hozirgi vaqtda o'quvchilar bilimini umumlashtirishga katta ahamiyat berilmoqda, chunki bunda o'quvchilarni bilimlari sifati yaxshilanadi, fikrlash qobiliyatlari ortadi. Umumlashtirish jarayonida o'quv materiali o'quvchilar oldida sistemalangan holda namoyon bo'ladi. Bu esa o'rganilayotgan tushuncha, qonun va nazariyalar orasida bog'lanishlar o'rnatishda, hodisalarning muhim tomonlarini aniqlashga imkon beradi. Bilimlarni umumlashtirish jarayonida o'quvchilarning fikrlashlari va bilim qobiliyatlari rivojlanib boradi; analiz, sintez, abstraksiyalash va qat'iyashtirish kabi mantiqiy amallarni bajaradilar.

O'quvchilar bilimini umumlashtirishni sistemalash ravishda (har bir tushuncha, hodisa, qonunni o'tgandan keyin, deyarli hamma darslarda) yoki alohida mashg'ulotlarda (biror bo'limni yoki butun kursning oxirida) o'tkazish mumkin. Umumlashtirishni ikki yo'nalishda olib borish mumkin: fundamental bilimlarni umumlashtirish; amaliy bilimlarni sistemalashtirish.

Fundamental bilimlarni turli darajada olib borish: Mavzu (bob)ni oxirida tushuncha qonunlar darajasidagi bilimlar umumlashtiriladi; bo'limlar oxirida esa nazariya darajasidagi bilimlar umumlashtiriladi. Masalan, ideal gazning molekulyar kinetic nazariyasi va holat tenglamalari o'tilgandan keyin gaz qonunlari haqidagi bo'limlar umumlashtiriladi.

Amaliy bilimlarni umumlashtirish ilmiy texnika progressini asosiy yo'nalish atrofida sistemalashtirish orqali amalga oshiriladi.

Misol tariqasida umumlashtiruvchi darsni moddalarning har xil agregat holatlardagi xossalari solishtirgan holda quyidagi rejaga asosan o'tkazish mumkin [1].

Gazlar (bug'lar), suyuqliklar va qattiq jismlar molekulyar tuzilishining o'ziga

xos xususiyatlari va ularning bir-biridan farqini ko'rsatadigan asosiy xossalari.

1. Jismlar har xil agregat holatlarda bo'ysunadigan asosiy fizik qonunlar.

2. Jismlarning har xil agregat holatlardagi ichki energiyalari.

3. Gazlar, suyuqliklar va qattiq jismlarning fizik xossalari sanoatda, qishloq

xo'jaligida va turmushda foydalanish. Darsni konferensiya tarzda o'tkazish mumkin. Buning uchun mavzuning berilgan rejalari o'quvchilarga oldindan berib qo'yiladi. Sinf o'quvchilarini to'rtta guruxga bo'lib, har bir guruxga mavzuning tegishli qismi taqsimlanadi. Ular shu qismlar bo'yicha doklad tayyorlaydilar. O'quvchilarga ma'lumki, bir moddaning, masalan, suvning uch xil holati bir-biridan molekularining qanday joylashganligi bilan va qanday harakatlanishi bilan farq qiladi, jism molekularining harakat tezligi esa uning temperaturasi bilan bog'liq. Gazlarda molekular bir-biridan o'rta hisobda shunday masofada joylashgan bo'ladiki, bunda ular orasidagi amalda o'zaro tortilish kuchi bo'lmaydi.

Bosim ortganda (gaz siqilganda) bu masofa kamayadi, lekin molekular orasida vujudga keladigan molekular tezligi har qanday bo'lgandan ham ular bir-biri bilan yonma-yon tutib turishga qodir bo'lavermaydi. Bundan xulosa shuki, molekularning zich joylashuviga erishuvi (gazni suyultirish) uchun ularning harakat tezligini pasaytirish, ya'ni gazning temperaturasini pasaytirish kerak. Hosil bo'lgan suyuqlikni siqish davom ettirilsa, u arzimagan darajada deformatsiyalanadi xolos.

Molekularning —o'troq hayotil davri tushunchasi o'quvchilar uchun suyuqlikning tuzilishini va xossalarni harakterlovchi yangi tushuncha hisoblanadi. Asalari to'dasining yoki tiqilinch avtobus ichidagi odamlarni suyuqlikning molekulyar tuzilishiga o'xshatish mumkin, chunki ular zich joylashgan bo'lishiga qaramay, har holda bir-birlari bilan o'rin almashib turadilar [2].

Jismning ichki energiyasi doimiy kattalik bo'lmay, temperatura o'zgarishi bilan molekularning o'rtacha tezligini va hajmini o'zgarishi bilan molekular orasidagi o'rtacha masofaning o'zgarishiga bog'liq bo'ladi. Binobarin, umumiy holda ichki energiya temperatura bilan hajmga bog'liq bo'lgan fizik kattalik ekan.

Bundan moddaning holatiga qarab, zaralarning potensial va kinetik energiyalari o'zaro turlicha nisbatda bo'lishi mumkin, degan xulosaga kelamiz, haqiqatdan ham:

1. Modda gaz holatda bo'lganda (ayniqsa past bosimlarda) molekular orasidagi o'zaro ta'sir kuchi kichik bo'lib, molekularning o'rtacha potensial energiyasi o'rtacha kinetik energiyasidan ancha kam bo'ladi, ya'ni ichki energiyasining asosiy qismi deyarli molekularning kinetik energiyasidan deb hisoblash mumkin.

2. Modda suyuq holatda bo'lganda molekularning kinetik va potensial energiyalari taxminan teng, shuning uchun uning ichki energiyasi ularning yig'indisidan iborat bo'ladi.

3. Modda qattiq holatda bo'lganda molekular orasidagi o'zaro ta'sir kuchlari

katta bo'lganligi sababli molekularning o'rtacha potensial energiyasi kinetik energiyasidan juda katta, bo'ladi. Bu holda modda ichki energiyasining ko'proq qismini molekularning o'rtacha potensial energiyasi tashkil etadi. Sistema bir holatdan boshqa holatga o'tganda uning ichki energiyasining o'zgarishi ichki energiyaning bu holatlardagi qiymatlari ayirmasiga hamisha teng bo'lib, sistemaning bir holatdan boshqa holatga o'tishidagi jarayonlariga bog'liq emas [3].

Xulosa qilib, shuni aytish mumkin, umumlashtirish darslari o'tilgandan keyin o'quvchilarni bilimini sinash maqsadida turlicha savollar berib, ulardan javoblar olindi. Masalan, o'quvchilarga ilmiy – texnika progressiga oid savollar qo'yilganda ular to'g'ri va aniq javoblarni berib, materialni to'g'ri tushunganliklarini namoyish qildilar. Ular avvallari texnika fandan ilgari ketgani, keyin fan ilgari lab ketgani, fan bilan texnikaning o'zaro ta'siri fan va kashfiyotlarning texnikaning rivojlanishiga qanday ta'sir etishi, texnikaning fan taraqqiyotiga ahamiyati, fandagi buyuk kashfiyotlarni fan va texnikaning rivojlantirish, avtomatlashtirishi, lazer va yarim o'tkazgichlar texnikasi, atom energetikasi va boshqalar haqidagi bilimlarni o'zlashtira olganliklarini ko'rsatdilar.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Shamash S. Ya. va boshqalar. —O'rta maktabda fizika o'qitish metodikasi va II qismlar. T. 1992.
2. O'Imasova M. X. Fizika Akademik litsey va kollejl uchun darslik I va II qismlar.
3. G'aniyev A. T. va boshqalar. Fizika. Akademik litsey va kollejl uchun darslik. I va II qismlar. T. 2003 y.

INTERFAOL USULLARDAN FOYDALANIB FIZIKA FANINI O'QITISH

A.B. Nabiyev NamDU Fizika kafedrası

A.A. Botirjanov, M.A Usmanov.Namangan davlat universiteti

Ta'lim jarayoniga ilg'or pedagogik texnologiyalarni joriy etish o'quv jarayonining tashxis etishga o'ziga xos innovatsion yondashishdir. CHunki pedagogik texnologiya va ular asosidagi interfaol usullar dedaktika prinsiplarini inkor etamagan holda ta'lim jarayonini tashkil etishga ko'p jixatdan yangicha yondashuvni taqazo qiladi. Xususan bu usul tarafdorlari dars maqsadini aniqlashning an'anaviy usullarini ularga o'quv materialini mazmuni, o'qituvchi faoliyati va o'quvchi faoliyati orqali belgilashni tanqid qiladilar. Interfaol usullaridan biri o'quvchilarni ijodiy fikrlashni rivojlantirish.

Kadrlar tayyorlash milliy dasturida o'quv jarayoniga ilg'or pedagogik texnologiyalarni joriy etish muhimligi alohida ko'rsatib o'tilgan ilg'or pedagogik texnologiyalar mujassamlashganligi uchun o'qitishning interfaol usullari hisoblanadi.

Hozirgi kunda zamonaviy kompyuter texnologiyalarini ishlab chiqarishga, iqtisodga, biznesga va o'qitish jarayoniga tadbiri tobora kengaymoqda zamonaviy axborot texnologiyalari asosida yaratilgan yangi pedagogik texnologiyaning muammolaridan biri bu o'quv jarayonida interfaol muhitni yaratishdir.

Interfaollik-foydalanuvchining informatsion vositasi ishiga bevosita ta'sir ko'rsata olish imkoniyatidir.

Yoshlarning kompyuter savodxonligini oshirib borish jarayonida interfaol muhit tushunchasi, uning afzalligi va imkoniyatlari alohida olib borilishi zarur.

Televizion o'quv ko'rsatuvlari asosan interfaollik muxiti imkoniyatiga ega emas. SHu ko'rsatuvlarda zamonaviy axborot texnologiyalari imkoniyatlaridan

jumladan: multimedia imkoniyatlaridan to'la foydalanish ushbu muhitni yaratish imkonini beradi.

Zamonaviy axborot va kommunikatsion texnologiyalarga asoslangan internet tarmog'i orqali amalga oshirilayotgan masofaviy ta'limda inieraktiv muhitni yaratish salohiyatini o'quv jarayonini tashkil qilishda amalga oshirish zarur.

Fan kishilari davlatimizning buyuk kelajagini nazarda tutishlari mumkin ekan, xalqimizning informatsion savodxonligini hamda madaniyatini oshirish borasida zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida olib borish zamon talabidir. Bu talablarni ro'yobga chiqarishda interfaol muhit imkoniyatlaridan to'laqonli foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Fizika fanini o'qitishda ham interfaol usullarini tadbiiq qilish.

O'rta maktabda fizika fanini o'quvchilarga tushuntirish va ularni darsga jalb qilish uchun ham eng qulay va eng ijobiy usul hisoblanadi.

Kadrlar tayyorlash milliy dasturi o'qitishning faol shakllarini bo'lajak mutaxassisni xaqiqiy faoliyatni o'quvchilarning o'quv tarbiya va ilmiy tekshirish ishlarini tashkil qilishda imitatsiya qilish nazariy bilim va malakalardan kasbiy-amaliy bilish va malakalarga o'tish imkonini boricha mustaqillik berishni nazarda tutudi.

Ma'lumki, faol o'qitishning ko'p turli-tuman ko'rinishdagi metodikalari mavjud. Ular turli kelishlari bo'yicha klallifikatsiyalanadi. O'quvchilarni faollashtirish darajasi va ularni o'qish-bilim tadqiqiy loyixa konstruktorlik va xokazo faoliyatlari quyidagilarda farqlanadi.

Faol o'qitishning imitatsion metodlari ular o'z navbatida o'yinni ish o'yinlari o'yinli loyihalashtirish va o'yinsiz konkret vazifalarni tadqiq qilish vaziyatliy masalalarini ochishdagi pedagogik usullar mashg'ulot o'tkazishning maxsus malakalari qulay mashg'ulotlarda o'quv tarbiyaviy va ilmiy tekshirish faoliyatli talabalarning bo'lajak kasbiy amaliy faoliyatlarini imitatsiya qilish asosida quriladi.

Noimitatsion – bu metodlar haqiqiy nisbiy amaliy faoliyatlarni imitatsiya qilish asosida quriladi.

Maktablarda o'qitish texnologiyalarni rivojlantirishda eng samarali faol o'qitish metodlari quyidagilar hisoblanadi. O'yinli loyihalashtirilib interfaolliklarni taxlil qilish konkret ishlab chiqarishning (fanning) masalalari va muammolarini yechish.

O'yinli loyihalashtirish bunda asosan ob'ektni yaratilish va takomillashtirish jarayoni qayta tiklanadi o'quvchilar o'quv bilish va tadqiqot faoliyatlari bunda bevosita o'rganilayotgan ob'ektni bevosita loxilash xarakteriga ega bo'ladi. U funktsional roli va tiklanadigan pozitsiada amalga oshiriladi. Bunday pozitsiyalar odatda muayyan ob'ektni yoki sinfdan tashqari ishlar orqali o'rganishda qatnashayotgan talabalarning maqsadalar majmualari va qiziqishlarini hisobga oladi.

Mashg'ulotlar o'yini loyixalar ko'rinishida o'tkazish texnologiyalari turli-tuman bo'lishi mumkin. Ular asosida 3 asoiy element yotadi.

1. Loyixali ishlar algoritmi
2. Eksprement baxolash mexanizimi yoki loyixani o'yin tarzida xarakatda sinash

3. Bo'lajak mutaxassislar o'yinli loyixalash qatnashuvchilarni funksional roli qiziqishlarini aniqlash mexanizimi.

Bu elementlarning har biri o'qituvchi darsni loyixalashda muxim rol o'ynaydi. Dastlabki ikki elementda qatnashish ularni ishlab chiqishda (fanda) innovatsion jarayonlaridan tashkil qilishni o'rganishlariga sharoit yaratadi.

Adabiyotlar

1. M.H.O'lmasova. «Fizika» 2-kitob Akademik litseylar uchun o'quv qo'llanma Toshkent «O'qituvchi» 2004.

2. K. Tursunmetov, A. Xudayberganov. «Fizikadan praktikum» 2-nashri. Toshkent. «O'qituvchi» 2004.

3. Axmadjonov "Elektr va magnetizm", "O'qituvchi", 1989 y..

SANITARIYA GIGIENIK VA EPIDEMIYAGA QARSHI TADBIRLAR O'TKAZISH UCHUN JALB ETILADIGAN KUCH VA VOSITALAR

**A.B. Nabiyev NamDU HFX kafedra mudiri,
B.M., Haydarov NamDU o'qituvchisi
R.K. Nuriddinov NamDU talabasi**

Annotsatsiya "Sanitariya gigienik va epidemiyaga qarshi tadbirlar o'tkazish uchun jalb etiladigan kuch va vositalar" nomli maqolada respublikamizning turli hududlari va aholi o'rtasida yuzaga keladigan turli xildagi favqulodda vaziyatlarga tayyor turish va unda ishtirok etadigan kuch va vositalar shayligiga muhim e'tibor qaratishimiz zarurligi takidlab o'tilgan.

Аннотация. В статье под названием «Потенциал и средства санитарии и противо эпидемические меры» подчеркивается важность подготовки к различным чрезвычайным ситуациям в различных частях страны и среди населения и реагирования на них.

An article titled "Capacity and Tools to Sanitation and Anti-epidemic Measures" emphasizes the importance of preparing for and responding to various emergency situations in various parts of the country and among the population.

Favqulodda vaziyatlarda shoshilinch sanitar-gigienik va epidemiyaga qarshi tadbirlarni tashkil etish va amalga oshirish, aholi sog'ligini saqlash, halokatlar sodir bo'lgan hududlarda tibbiy yordam ko'rsatish, yuqumli kasalliklar yuzaga kelishi va tarqalishining oldini olish umumiy printsiplari asosida tashkil etiladi va amalga oshiriladi. bunday vaziyatlarda zararlanish, aholini sanitariya-gigiyena ta'minotining tibbiy-ijtimoiy xususiyatlari, ularning yashash sharoitlari o'zgarishini inobatga olish lozim.

Sodir bo'lgan favqulodda vaziyatlar chog'ida aholi o'rtasida epidemiyaga qarshi tadbirlarni o'tkazishning asosiy printsiplari quyidagilardan iborat: " sanitariya-gigiyena xizmati davlat ahamiyatiga molik darajada, dolzarb, uning kuch va vositalari harakat qilishga doimiy tayyor holatda, yuqori harakatchan, aniq vazifalarni bajarishga yo'naltirib tayyorgarliklari ta'minlangan bo'lishi hamda hudud xususiyatlarini inobatga olgan holda tuzilishi;

➤ " epidemiyaga qarshi tadbirlarni yagona usulda tashkil etilishi;
➤ " sanitariya-gigiyena xizmati kuch va vositalarining doimiy shayligi, ularning tarkibidagi tuzilmalarning favqulodda vaziyatlarda shoshilinch epidemiyaga qarshi tadbirlarni amalga oshirish uchun mobil bo'lishi (harakatchanligi);

➤ " amalga oshirilayotgan tadbirlarning mohiyati va hajmi, epidemik vaziyat, tibbiy muassasalar va fuqaro muhofazasi tuzilmalarining imkoniyatlari hamda faoliyat turlariga muvofiq bo'lishi;

➤ " xizmat kuch va vositalarini tuzishda, hududning xususiyatlari, undagi mavjud xavfning darajasi va xos tomonlarni inobatga olgan holda yondoshish;

➤ " sanitariya-epidimologiya xizmatining sog'liqni saqlash vazirligi tizimidagi tuzilmalar va boshqa idoralar bilan hamkorlikda faoliyat yuritishi.

sodir bo'lgan favqulodda vaziyatlar chog'ida aholi o'rtasida epidemiyaga qarshi tadbirlar o'tkazishning asosiy maqsadlari quyidagilardan iborat:

➤ " aholi o'rtasida yuqumli kasalliklar bilan kasallanishning oldini olish, kamaytirish hamda favqulodda vaziyat hududi va uning tashqarisida xavfli yuqumli kasalliklar tarqalishiga yo'l qo'ymaslik;

➤ " favqulodda vaziyat sodir bo'lgan va ko'chirilgan aholini vaqtincha joylashtiriladigan hududlarda barqaror sanitariya-gigiyenavaziyatni ta'minlash, ichimlik suvi, oziq-ovqatlar, kommunal va boshqa ob'ektlarning epidemiologik jihatdan xavfsizligini ta'minlash. sog'liqni saqlash organlari, xususan sanitariya-gigiyena xizmatining profilaktik va epidemiyaga qarshi tadbirlarni tashkil etish va olib borish bo'yicha faoliyatini ikki yo'nalishga bo'lish mumkin. birinchi yo'nalish - yuzaga kelgan xavfli yuqumli kasalliklar o'choqlarida, amaldagi me'yoriy hujjatlar asosida zarur tadbirlarni tashkil etish va amalga oshirish.

ikkinchi yo'nalish - tabiiy ofat, qo'poruvchilik-terrorchilik hurujlari oqibatida va boshqa favqulodda vaziyatlarda, aholining yashash sharoiti jiddiy yomonlashishi hamda epidemiyaga qarshi tadbirlarni o'tkazishga mo'ljallangan tizimning faoliyati qisman yoki to'la to'xtashiga sabab bo'luvchi ikkilamchi (bilvosita) omillar ta'sirini kamaytirish.

favqulodda vaziyatlarda, bir tomondan mavjud zahiralardan oqilona foydalanish, ikkinchi tomondan esa mavjud vaziyat to'g'risida axborotga ega bo'lish hamda aholini vaziyat to'g'risida xabardor qilib turishga imkon beruvchi qattiq epidemiologik nazorat o'rnatilishi katta ahamiyat kasb etadi.

bunda, favqulodda vaziyat sodir bo'lgunga qadar va sodir bo'lgandan so'ng quyidagi choralar ko'rilishi mumkin:

- turli, nazoratga olingan, favqulodda vaziyatlar sodir bo'lgan taqdirda, ular ustidan qattiq nazorat o'rnatilishini talab etadigan kasalliklarni oldindan aniqlash. jumladan, favqulodda vaziyat tufayli yuqish jarayoni o'zgaradigan yuqumli kasalliklar, avval mazkur hududda epidemik ko'rinishda tarqalgan kasalliklar hamda lokal o'choqlar yuzaga kelish vaqtidan qat'iy nazar sog'liqni saqlash xizmati xodimlarini xavotirga soladigan kasalliklar ustidan;

- eng tez o'zgaruvchan ko'rsatgichlarni aniqlash. bunda, kasallanish to'g'risida, uning ma'lum klinik ko'rinishlariga asoslangan holda, muntazam axborot berib turish nazarda tutiladi. masalan, vabo kasalligi o'choqlarida o'tkaziladigan kompleks tadbirlar qatoriga, etiologik turi aniqlanishidan ham avval, o'tkir ichak kasalliklari bilan kasallanish holatlari bo'yicha joriy epidemiologik tahlilni o'tkazish lozim. shu kabi, o'lat kasalligi o'choqlarida esa - limfadenit va pnevmoniya kasalliklari bilan kasallanish holatlari bo'yicha joriy tahlilni o'tkazish lozim;

- kasallanish to'g'risida axborot berish usullarini o'zgartirish. krizis holat sharoitlariga, odatda o'llaniladigan xabar berish tezligi va qabul qlingan tartiblar talabga javob bermaydi. tezkor aloqa vositalaridan (telefon, etkazib berish) foydalanish hamda muvofiq-lashtiruvchi markazga tez-tez (imkoni bo'lsa har kuni) hisobot taqdim etish - sog'liqni saqlash va sanitariya-gigiyena xizmatlarining kechiktirib bo'lmaydigan harakatlar rejasi maxsus tadbirlari qatoriga kiradi;

- sodir bo'lgan favqulodda vaziyatlar oqibatida yuzaga keladigan sharoitlarda, epidemiologik holat to'g'risidagi ma'lumotlarni zudlik bilan va keng tarqatilishi alohida ahamiyat kasb etadi.

favqulodda vaziyatlarda epidemiyaga qarshi tadbirlarni tashkil etish va amalga oshirish taktikasini tanlashda, sog'liqni saqlash tizimining sanitariya-gigiyena va davolash-profilaktik xizmatlarida ishchi holatda saqlanib qolgan muassasalar soni, yuzaga kelgan vaziyat hamda kasallik o'chog'i tashqarisidan qo'shimcha ravishda tibbiy kuch va vositalarni jalb qilish imkoniyatlarini inobatga olish lozim.

favqulodda vaziyatlar sodir bo'lganda tashkil qilinadigan sanitar-gigienik va epidemiyaga qarshi tadbirlarning samaradorligini oshirish maqsadida quyidagilarni amalga oshirish zarur:

➤ " yuzaga kelishi mumkin bo'lgan sanitariya-gigiyenavaziyatni oldindan modellashtirish, aholi va qutqaruvchilar sog'ligi yomonlashuviga sabab bo'lishi mumkin bo'lgan holatlarni aniqlash va dolzarb sog'lomlashtirish tadbirlarni amalga oshirish;

➤ " halokatning birinchi soatlarida toksikolog, radiolog, epidemiolog va gigienist shifokorlar hamda ekstremal holatlarda ishlash tajribasi va ko'nikmalariga ega bo'lgan, aholi hayotini ta'minlab beruvchi xizmatlar vakillari ishtirokida chuqur sanitariya-gigiyenarazvedka o'tkazish.

yuzaga kelishi mumkin bo'lgan favqulodda vaziyatlarda fuqaro muhofazasi tibbiy xizmati kuch va vositalarining asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

➤ " mavjud epidemiologik vaziyatni tahlil qilish, baholash va uni rivojlanishini bashoratlash;

➤ " sanitariya-gigiyenaholat to'g'risida o'z vaqtida axborot berish;

➤ " boshqaruv tizimi, tibbiy xizmat kuch va vositalarining favqulodda vaziyatlarda harakat qilishga tayyorgarligini ta'minlash;

➤ " epidemiya bilan bog'liq favqulodda vaziyatlarda amalga oshirilishi lozim bo'lgan vazifalarni bajarish maqsadida, tibbiy xizmat muassasalari va tuzilmalarni moddiy-texnik ta'minlanishini tashkil etish;

➤ " tibbiy xizmat xodimlarini favqulodda vaziyatlarda harakat qilishga tayyorlash;

➤ " epidemiya bilan bog'liq favqulodda vaziyatlarning oldini olishga yo'naltirilgan tadbirlarni ishlab chiqish va amalga oshirishda qatnashish.

- epidemiologik razvedka guruhlari ;
- harakatdagi epidemiyaga qarshi otryad ;
- ixtisoslashgan epidemiyaga qarshi brigada .

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi.—T.: 2015.
1. O'zbekiston Respublikasining Mehnat qonunlar Kodeksi. — T.: 2014. 268 b.
2. Mehnatni muhofaza qilishga oid me'yoriy hujjatlar to'plami. T. SHarq, 2013.
3. A'zamov A., Tursunov T., Pulatov X.I. Mehnatni muhofaza qilish fanidan amaliy mashg'ulotlar uchun uslubiy qo'llanma. T., ToshKTI, 2011.
4. M.X.Tojiev, I.Nigmatov. Hayot faoliyati xavfsizligi. O'quv qo'llanma. T: «Tafakkur bo'stoni» MCHJ bosmaxonasi, 2012. 272 b.
5. A'zamov A., T.Tursunova. mehnatni muhofaza qilish. O'quv qo'llanma, T: 2Sano-standart bosmaxonasi, 2013. 232 b.
6. Semexin Yu.T. Bezopasnost' jiznedeyatel'nosti. M: Direkt Media, 2015 g. 412 s.
7. Arustamov E.A. Bezopasnost' jiznedeyatel'nosti. Uchebnik dlya bakalavriatov. M-Izdatels'tva -Torgovaya korporatsiya. 2015 g.

SANITARIYA-GIGIYENA MUHOFAZA QILISH QONUNLARINING AHAMIYATLILIGI

B.M.Haydarov NamDU o'qituvchisi,

I.Y.Jakbarov NamDU talabasi

Annotatsiya "Sanitariya-gigiyena muhofaza qilish qonunlarining ahamiyatliligi" nomli maqolada Sanitariya-gigiyena qonunlarining dolzarb jihatlari haqida so'z yuritganmiz. Ishlab chiqarish obyektlari va aholi o'rtasida sanitariya-gigiyena muhofaza qilish qonunlarini keng targ'ib qilish yuridik va jismoniy shaxslarning osoyishtaligi va havfsizligini ta'minlash demakdir.

Аннотация.Статья под названием «Актуальность санитарно-гигиенических законов» подчеркнула актуальность санитарно-гигиенических законов. Обширные исследования санитарно-гигиенических законов о защите между промышленными объектами и населением означают обеспечение мира и безопасности юридических и физических лиц.

Anarticle titled The article titled "Relevance of Sanitary and Hygienic Protection Laws" hashigh lighted the relevance of sanitary and hygiene laws. Wide spread coverage of sanitary and hygienic protection laws between industrial facilities and the population means ensuring the safety and well-being of legal entities and individuals.

Normativ-texnik hujjatlarni ishlab chiqayotgan yuridik va jismoniy shaxslar aholining sanitariya-gigiyena osoyishtaligini ta'minlashga qaratilgan sanitariya qoidalari, normalari va gigiena normativlariga rioya etishi shartligi;

Yangi kimyoviy moddalar va biologik vositalarni, ionlashtiruvchi nurlanish manbalarini hamda tarkibida shu manbalar mavjud bo'lgan priborlarni, materiallarni, texnologik jarayonlarni, uskunalarini, atir-upa va pardoz maqsulotlarini hamda boshqa xalq iste'moli tovarlarini joriy etishdan oldin aholining sanitariya-epidemi xavfsizligini ta'minlashga doir normativlar bo'yicha asoslantirilgan takliflarni, ushbu normativlarga rioya etilishi ustidan nazorat qilish uslublarini, zararli mahsulot va chiqindilarni zararsizlantirish, utilizatsiya qilish usullarini ishlab chiqib, ularni kelishib olish uchun o'zbekiston respublikasi bosh davlat sanitariya vrachiga taqdim etishi kerakligi;

Yuridik va jismoniy shaxslar ob'ektlarni rejalashtirish, loyihalashtirish va qurish, korxonalarini texnik va texnologik jihatdan qayta jihozlash hamda ishga tushirish paytida sanitariya qoidalari, normalari va gigiena normativlariga rioya etishili;

yuridik va jismoniy shaxslar hududlarning, inshootlarning, davolash-profilaktika, ta'lim, madaniyat, sport muassasalari hamda boshqa muassasalar binolarining saqlanishini, shuningdek uskunalardan, transport vositalaridan foydalanilishini sanitariya qoidalari, normalari va gigiena normativlariga muvofiq ta'minlanishi;

yuridik va jismoniy shaxslar kimyoviy moddalarni, biologik vositalarni va materiallarni tashish, saqlash, qo'llash, zararsizlantirish, utilizatsiya qilish hamda ko'mib tashlash paytida aholining sanitariya-gigiyena osoyishtaligini ta'minlash maqsadida sanitariya qoidalari, normalari va gigiena normativlariga rioya etishlari;

yangi kimyoviy moddalarni, biologik vositalar va materiallarni, polimer va plastik massalarni, atir-upa qamda pardoz maqsulotlarini O'zbekiston Respublikasiga olib kirishga va ishlab chiqarishga faqat toksikologiya-gigiena jihatidan baholangandan keyingina O'zbekiston Respublikasi bosh davlat sanitariya vrachining ruxsatnomasi bilan yo'l qo'yilishi;

yuridik va jismoniy shaxslar radioaktiv moddalarni hamda boshqa ionlashtiruvchi nurlanish manbalarini qazib olish, ishlab chiqarish, hosil qilish, qayta ishlash, ulardan foydalanish, ularni saqlash, ularga xizmat ko'rsatish, ularni tashish, zararsizlantirish, utilizatsiya qilish va ko'mib tashlash paytida sanitariya qoidalari, normalari va gigiena normativlariga rioya etishlari;

davlat tashkilotlari va boshqa mulkdorlar tomonidan berilayotgan turar joylar sanitariya qoidalari, normalari va gigiena normativlariga muvofiq bo'lishi;

sanitariya qoidalari, normalari va gigiena normativlariga javob bermaydigan turar joylarda fuqarolarning yashashiga yo'l qo'yilmasligi;

yashovchilar hovli, uy atrofi hududlarini saqlash va turar joylardan foydalanishning mahalliy davlat hokimiyati organlari tomonidan tasdiqlangan qoidalarni bajarilishi;

oziq-ovqat xom ashyosini, oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish, tashish, saqlash va realizatsiya qilish bo'yicha faoliyatni amalga oshiruvchi yuridik shaxslar qamda yakka tartibdagi tadbirkorlar sanitariya qoidalari, normalari va gigiena normativlariga rioya etishi shartliligi;

yangi oziq-ovqat qo'shimchalarini, maxsus qo'shiladigan biologik faol moddalarni o'zbekiston respublikasiga olib kirishga va ishlab chiqarishga faqat toksikologiya-gigiena jihatidan baholangandan keyingina O'zbekiston Respublikasi bosh davlat sanitariya vrachining ruxsatnomasi bilan yo'l qo'yilishi;

yuridik va jismoniy shaxslar xorijdan olib kirilayotgan texnologiyalarni, materiallarni, xom ashyoni va mahsulotni yetkazib berish, realizatsiya qilish hamda ulardan foydalanish paytida sanitariya qoidalari, normalari va gigiena normativlariga rioya etilishi;

xo'jalik va ichimlik suvi bilan ta'minlash sohasida faoliyatni amalga oshiruvchi yuridik shaxslar yetkazib berilayotgan suvning sifati sanitariya qoidalari, normalari va gigiena normativlariga, shuningdek davlat standartlariga muvofiqligini ta'minlanishi;

markazlashtirilgan tartibda xo'jalik va ichimlik suvi yetkazib beriladigan suv quvurlari hamda ularning manbalari uchun maxsus tartibli sanitariya muhofazasi zonalari belgilanib, ular mahalliy davlat hokimiyati organlari tomonidan tasdiqlanishi;

yuridik va jismoniy shaxslar xo'jalik va maishiy maqsadlar hamda markazlashtirilmagan tartibda suv bilan ta'minlash uchun foydalaniladigan suv qavzalaridagi suvning sanitariya qoidalari, normalari va gigiena normativlariga muvofiq bo'lishini ta'minlanishi;

ish beruvchilar ishlab chiqarish binolariga va sanitariya-maishiy binolarga, ishlab chiqarish jarayonlariga, texnologik uskunalarga, ish joylarining tashkil etilishiga, xodimlarning mehnat qilish, dam olish tartibiga hamda xodimlarga maishiy xizmat ko'rsatilishiga doir sanitariya qoidalari rioya etishi shartliligi;

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi.—T.: 2015.
2. O'zbekiston Respublikasining Mehnat qonunlar Kodeksi. — T.: 2014. 268 b.
3. Mehnatni muhofaza qilishga oid me'yoriy hujjatlar to'plami. T. SHarq, 2013.
4. A'zamov A., Tursunov T., Pulatov X.I. Mehnatni muhofaza qilish fanidan amaliy mashg'ulotlar uchun uslubiy qo'llanma. T., ToshKTI, 2011.
5. M.X.Tojiev, I.Nigmatov. Hayot faoliyati xavfsizligi. O'quv qo'llanma. T: «Tafakkur bo'stoni» MCHJ bosmaxonasi, 2012. 272 b.
6. A'zamov A., T.Tursunova. mehnatni muhofaza qilish. O'quv qo'llanma, T: 2Sano-standart bosmaxonasi, 2013. 232 b.
7. Semexin Yu.T. Bezopasnost' jiznedeyatel' nosti. M: Direkt Media, 2015 g. 412 s.
8. Arustamov E.A. Bezopasnost' jiznedeyatel' nosti. Uchebnik dlya bakalavriatov. M- Izdatels'tva -Torgovaya korporatsiya. 2015 g.

FIZIKA DARSLARIDA O'QUVCHILAR ISHLARINI FAOLLASHTIRISH

A.A. Botirjanov NamDU Fizika kafedrasi talabasi

Annotatsiya: O'quv materialini mustahkamlashda mustaqil ravishda masala yechishdan foydalanish ham foydalidir. Vatanimizning oldiga qo'ygan ulkan vazifalardan biri yosh avlodga kasb-hunar sirlarini o'rgatish va mehnat turlariga bo'lgan ko'nikma, malaka, qiziqish hosil qildirishdir.

O'quvchilarning bilish qobiliyatlarini faollashtirishda dars jarayonida ularning mustaqil ishlarini tashkil qilish katta ahamiyatga egadir.

Mustaqil ishlarni yangi materialni o'rganishda, o'rganilganni mustahkamlashda, takrorlash va umumlashtirish vaqtida o'tkazish mumkin.

O'quv materialini mustahkamlashda mustaqil ravishda masala yechishdan foydalanish ham foydalidir. Buning uchun o'quvchilarga tarqatma materiallar berilib,

undagi masalalarning yechimini daftarlari yozadilar (shartini yozmaydilar). Masalalar sonli, grafik va sifatli bo'lishi mumkin. Masalan, 6-sinfda quyidagicha savol va masalalarni berishimiz mumkin. Vatanimizning oldiga qo'ygan ulkan vazifalardan biri yosh avlodga kasb-hunar sirlarini o'rgatish va mehnat turlariga bo'lgan ko'nikma, malaka, qiziqish hosil qildirishdir.

Kasb-hunar kollejlari fizika fani bo'yicha mashg'ulotlar: ma'ruza amaliy-laboratoriya shaklida o'tiladi. Mashg'ulotlarning har turi o'z maqsadi mazmuni tashkiliy shakllari hamda usullariga ko'ra farq qilsada bir birini to'ldirib boradi. Ma'ruza mashg'ulotlari jarayonida talabalar fizika fanidan yo'nalishlari bo'yicha chuqur nazariy bilimlarni egallaydilar.

Amaliy-laboratoriya mashg'ulotlari jarayonida esa talabalar fizika fani bo'yicha olib boriladigan har bir dars jarayonida o'qituvchi rahbarligida boshqa talabalar bilan ma'ruza bo'yicha fikr almashadilar, uni muhokama qiladilar hamda nazariy o'rgangan bilimlari asosida amaliy va laboratoriya mashg'ulotlarini bajaradilar.

SHu nuqtai nazardan maqolaning maqsadi fizika darslarining laboratoriya mashg'ulotlarida elektrotravmaning oldini olishda texnika xavfsizligi qoidalarini bilish va ularga rioya qilishning ahamiyati katta ekanligini ko'rsatishdan iborat.

Zichlik

1. Temir choynakning massasini tarozida tortmasdan qanday aniqlash mumkin?
2. Hajmi 2 dm^3 va zichligi 18 g/sm^3 bo'lgan g'ishtning nechitasi 3600 kg bo'ladi?
3. Stakanda to'la simob bor. SHu simob massasiga teng massali suv shu stakanga sig'adimi? Tushuntiring.
4. Bir kilogramli qo'rg'oshin va temir bor. Ularni idishdagi suvga tushursak qaysi birida suv sathi balandroq ko'tariladi? Tushuntiring.

Bosim

1. Nima uchun temir yo'l rel'slari yerga qo'yilmasdan shpolalar ustiga qo'yiladi?
2. Nima uchun tanklar gusinitkali qilinadi?
3. Oyoqlari ostining yuzasi 360 sm^2 bo'lgan odam yerga 20 N/sm^2 bosim beradi. Unin og'irligi qancha?
4. Nima uchun yuk mashinasining orqa g'ildiraklari 4 ta oldingisi 2 ta ?

Mexanik harakat

1. Nima uchun tez kelayotgan mashina oldidan yugurib o'tish xavfli?
2. Nima uchun tajribali velosipedchi ko'tarilish yerlarga (qiyalikka) yaqinlashganda tezligini orttiradi?
3. Erning birinchi kosmik sun'iy yo'ldoshining orbitadagi tezligi 8 km/sek . U bir soatda qancha yo'lni bosib o'tadi?
4. 54 km/soat tezlik bilan ketayotgan mashinaning tortish kuch 20000 N bo'lsa, quvvati qancha bo'ladi?

SHu kabi boshqa tushuncha va hodisalarga mustaqil ishlash uchun masalalar berish orqali o'quvchilarning fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirib beramiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Shamash S. Ya. va boshqalar. —O'rta maktabda fizika o'qitish metodikasi va II qismlar. T. 1992.
2. O'lmasova M. X. Fizika Akademik litsey va kollejlarda uchun darslik I va II qismlar.
3. G'aniyev A. T. va boshqalar. Fizika. Akademik litsey va kollejlarda uchun darslik. I va II qismlar. T. 2003 y.

FUQARO MUHOFAZASINING ASOSIY VAZIFALARI, FM TASHKILOTINING TARKIBIY TUZILISHI

**A.B.Nahiyev Namangan davlat Universiteti HFX kafedra mudiri
K.A. Qayumova NamDU HFX yo'nalishi talaba**

Annotatsiya: FVVning asosiy vazifalari va faoliyat yo'nalishi asosan: favqulodda vaziyatlarni bartaraf etish, fuqoralar hayoti va salomatligini muhofaza qilish, favqulodda vaziyatlar yuz berganda ularning oqibatlarini tugatish hamda zararini kamaytirish sohasida davlat siyosatini ishlab chiqish va amalga oshirish, favqulodda vaziyatlarning oldini olish va bunday hollardagi harakatlarni boshqarishning davlat tizimi (FVDT)ni tashkil etish va uning faoliyatini ta'minlash, fuqaro muhofazasiga rahbarlik qilish, vazirliklar, idoralar, mahaliy davlat organlari faoliyatini muvofiqlashtirib borish, maqsadli ishlab chiqarish va hokozalarga qaratilgan.

Kalit so'zlar: Fuqarolar muhofazasi, Evakuatsiya, Harbiy tizim, Radiatsiyaviy, kimyoviy biologik vaziyat, Qutqaruv.

Fuqarolar muhofazasi – umumdavlat mudofa siyosatlaridan biri bo'lib, u har qanday favqulodda holatlarda fuqorolarni, halq ho'jaligi tarmoqlarini muhofaza qilishda, ularning muttasil ishlashini ta'minlashda hamda qutqarish va tiklash ishlarini bajarishda katta ahamiyat kasb etadi.

Fuqaro muhofazasining vazifasi quydagilardan iborat:

Aholi va ob'ektlarni harbiy harakatlar olib borish paytida yoki shu harakatlar oqibatida yuzaga keladigan havlardan himoyalash harakatlari va usullariga tayorlash.

Boshqaruv, habar berish va aloqa tizimlarini tashkil qilish, rivojlantirish va doimiy shay holatda saqlab turish.

Xalq ho'jaligi ob'ektlarining barqaror ishlashini ta'minlash yuzasidan tadbirlar kompleksini o'tkazish.

Aholini, moddiy va madaniy boyliklarini havfsiz joylarga evakuatsiya qilish.

Fuqoro muhofazasi harbiy tizimlari shayligini ta'minlash.

Aholini umumiy va shahsiy saqlovchi vositalari bilan ta'minlash tadbirlari o'tkazish.

Aholini harbiy davrdagi hayot faoliyatini ta'minlash.

Radiatsiyaviy, kimyoviy biologik vaziyat ustidan kuzatish va laboratoriya nazorati olib borish.

qutqaruv va boshqa kechiktirib bo'lmaydigan ishlarni o'tkazish.

harbiy davrlarda ham zarar ko'rgan hududlarda jamoat tartibini yo'lga qo'yish va saqlab turish.

Aholini va hududlarni muhofaza qilish yuzasidan boshqa tadbirlarni amalga oshirish.

Mana shu vazifalarni muvaffaqiyatli olib bormay turib, zararlangan hududlarda, ob'ektlarda mo'tadil hayot faoliyatini yaratib bo'lmaydi. Bu ishlarni davlat organlari orqali, fuqaro muhofazasi boshchiligida butun xalq yordamida amalga oshiriladi.

Aholini favqulodda vaziyat sharoitida himoyalash, shu hodisaning nohush oqibatiga yo'l qo'ymaslik yoki uni maksimal darjada pasaytirish bo'yicha kompleks

tadbirlardir. Aholini himoyalashning yuqori samarasi ishlatilayotgan barcha vosita va usullar to'la ishlatilganda va havfsizlikni ta'minlash printsiplari to'raligicha anglab etilgan taqdirdagina bo'lishi mumkin.

Havfsizlikni ta'minlash printsiplarini ularni qo'llash bo'yicha uch guruhga bo'linadi:

Oldindan tayorgarlik ko'rmoq himoya vositalarini to'plash, ularni tayyor holda saqlash hamda aholini havfli zonadan evakuatsiya qilish bo'yicha tadbirlarni tayyorlash va amalga oshirish.

Differentsiyalashgan yo'nalish shundan iboratki, bunda himoya tadbirlari hajmi va karakteri havfli va zaharli omillar manbaining turiga va mahalliy sharoitlarga bog'liq.

Tadbirlar kompleksi FV oqibatlaridan himoyalash usullari va vositalaridan samarali foydalanish, zamonaviy tehnosotsial muhitda hayotiy faoliyat havfsizligini ta'minlash bo'yicha tadbirlar bilan birga olib borishni taqozo qiladi.

FV larda aholini himoya qilishning asosiy usullari, aholini evakuatsiya qilish, himoya inshootlariga berkitish, shahsiy himoya hamda tibbiy profiaktik vositalarni qo'llashdan iboratdir.

Siyosiy-harbiy nizolarni ayniqsa zamonaviy qurol-yarog'lar bilan hal qilishda qirg'indan saqlab qolish uchun eng samarali usullardan biri aholini himoya inshootlariga berkitishdir. Ayniqsa, radioaktiv va kimyoviy moddalardan saqlanish samarasi yuqoridir.

Himoya inshootlari-bular fizik, kimyoviy va biologik havfli va zararli omillardan himoyalash maqsadida mahsus qurilgan muhandislik inshootlaridir.

Shahsiy himoya vositalari-odam organizmining ichki a'zolariga, terisiga va kiyimiga radioaktiv, zaharlovchi va bakterial vositalarning ta'siridan saqlaydi.

Favqulodda vaziyatlarda hayotiy faoliyat havfsizligini ta'minlash odam faoliyatining barcha jarayonlarida sog'ligini va hayotini saqlashga qaratilgan tashkiliy, muhandis-tehnika tadbirlar va vositalar kompleksidir.

hayotiy faoliyat havfsizligini ta'minlashga qaratilgan asosiy yo'nalishlar quydagilardan iborat:

- FV larni va ularning oqibatini oldindan aytish;
- FV paydo bo'lishi ehtimolini yo'qotish yoki kamaytirish tadbirlarini rejalashtirish, hamda ular oqibatlari ko'lamini kamaytirish;
- FV larda halq ho'jaligi ob'ektlari ishining muntazamligini, uzluksizligini ta'minlash;
- FV lardagi aholini o'qitish;
- FV oqibatlarini tugatish.

Ushbu yo'nalishlarning qisqacha mazmunlari quydagilardir.

FV ni ularning oqibatlarini oldindan aytish va baholash.

Bu-tabiiy ofatlar, avariya va falokatlar tufayli yuzaga kelgan vaziyatini tahminiy aniqlash va baholash usulidir.

Hozirgi vaqtda seysmik rayonlar, tuproq siljishi mumkin bo'lgan, sel oqimlari yo'nalishlari, plotinalar buzilganda, suv toshqini bo'lganda, odamlarga va hududga zarar keltirishi mumkin bo'lgan zonalar chegaralari aniqlangan.

HFH bo'yicha prognoz qilish masalalariga FV larning sodir bo'lish vaqtini tahminiy aniqlash ham kiradi. Bu prognoz bo'yicha aholining havfsizligini ta'minlash

bo'yicha operativ choralar ko'riladi. hozirgi vaqtda ko'pgina olim va mutahasislarning fikri FV larning boshlanishi va rivojlanishi oldindan aytib berishga qaratilgan.

Ko'rilayotgan muammoni ushbu sharoitda hal qilishda FV larga odamning havfsizligini ta'minlash bo'yicha havfning oldini olish va paydo bo'lish ehtimolini kamaytirish, hamda uning oqibatlari masshtabini kamaytirish masalalarini qamrab oladigan sistemali yondoshish kerak.

Ushbu metodologik asosda o'zimizning va chet el amaliy tajribasini hisobga olgan holda samaradorligi tobora ortib boruvchi tadbirlar kompleksi oldindan tayorlash, boshqacha qilib aytganda zamonaviy tehnosotsial muhitda odamning HFH ni ta'minlashning ko'p tabaqali sistemasini joriy qilish kerak.

FV lar oqibotida ko'riladigan zararlarning oldini olish tadbirlarini quyidagi guruhlar bo'lish mumkin:

Doruvchi o'tkaziladigan tadbirlar. Ular uzoq muddatli prognoz asosida tuziladi: standart tashkilotni hisobga olgan holda qurilish-montaj ishlarini olib borish, aholini havf-baxar haqida habardor qilishning ishonchli sistemasini yaratish. Aholini SHHV tujari ta'minlash va himoya tashkilotlarining etarli fondini tuzish, nurlanish, kimyoviy va biokimiyoviy kuzatuv ishlarini tashkil etish, aholini FV chog'ida o'zini qanday muhofaza va faollashtirish haqida muvofiqlik o'quvlarini tashkil etish, epidemiyaga qarshi va muhofaza-gigiyena tadbirlarini o'tkazish.

FV vaqti aytib berilgach, ko'rilishi kerak bo'lgan himoya tadbirlari: prognoz uchun zarur bo'lgan razvedka va kuzatish sistemasini jonlantirib yuborish. Aholiga FV haqida habar beruvchi sistemani tayor holga keltirish, iqtisodiy va jamoat hayotini mahsus qo'lda asosida qayta qurish, hattoki favqulodda holatgacha, yuqori havfli manbalarni FV holatida neytrallashtirish ular ishini to'xtatib qo'yish, qo'shimcha mustahkamlash yoki demontaj qilish, avariya qutqaruv xizmatini tayor holga keltirib qo'yish, aholini qisman evakuatsiya qilish.

FV da HFH ni ta'minlashda rejalashtirish asosiy omillardan biridir. U maqsadga erishish borasida vaqt, mablag' va ijrochilarni aniqlashtiradi. U sharoitni ilmiy asosda prognoz qilish, har tamonlama tahlil qilish, moddiy va ma'naviy resurslarni baholash va aholini FV holatida himoya qilishning zamonaviy, nazariy va amaliy tadbirlarga asoslanadi.

Rejalashtirishning natijasi sifatida ma'lum hujjat-reja tuziladi. U quyidagi elementlarni o'z ichiga olishi kerak: aniq ko'rsatkichlar (ish turlari, tadbirlar), bu ishlarni bajarish muddati, rejani bajarish uchun zarur resurslar (turlari, soni, manbalari) har bir punktni bajaruvchi mutassadi shahslarga topshiriqlar, reja bajarilishining borishini nazorat qilish usullari va h.k.

Rejaning matn qismi ikki bo'limdan tashkil topgan bo'lishi mumkin: birinchi qismdan sharoitni baholash natijasida qilingan hulosalar bo'lsa, ikkinchi bo'limni FV vujudga kelganda va havf tug'dirganda aholining havfsizligini ta'minlash bo'yicha tadbirlar tashkil etadi. Ularning asosiylari quyidagilardir: habar berish tartibi, razvedka va nazoratni tashkil qilish, qutqaruv va boshqa kechiktirib bo'lmaydigan ishlarni o'tkazish uchun kuch va vositalarni tayorlash, FV oqibatlarini ogohlantirish va yumshatish tadbirlari, odamlarni va moddiy boyliklarni zudlik bilan himoyalash choralari, tibbiy ta'minot, dozimetrik va kimyoviy nazorat, korxonani avariya-siz to'xtatish tadbirlarini qo'llash tartibi, odamlarni himoya qilishni tashkil etish, aholiga

SHV tarqatish, evakuatsiya qilish tadbirlarini tashkil etish, boshqaruvni tashkil etish, har hil sharoitlarda qutqaruv va boshqa kechiktirib bo'lmaydigan ishlarin olib borish tartibi va navbati, yuqori tashkilotlarga, FV komissiyasiga ahborat berish tartibi.

Rejaga turli ma'lumotnoma va tushuntiruvchi materiallar (chizma, matn) ilova qilib qo'yilishi mumkin.

Reja aniq, mazmunan to'liq, qisqa, iqtisodiy jihatdan maqsadga muvofiq va ob'ektning haqiqiy imkoniyatlarini hisobga olgan bo'lishi kerak. Rejaning hayotiyligi kelib chiqishi bo'yicha tabiiy va tehnogen FVlarda hFH ta'minlash bo'yicha ishlarni tashkil qilishda muntazam mashq va uquvlar jarayonida sinab boriladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. P. Baratov. Tabiatni muhofaza qilish. -Toshkent: O'qituvchi, 1991.-187b.
2. Shodimetov. Yu. Sh. Ijtimoiy ekologiyaga kirish. Toshkent: O'qituvchi, 1994yil, 240 bet.
3. Otaboev Sh., Nabiev M. Inson va biosfera. -Toshkent: O'qituvchi, 1995-yil, 310bet.
4. O'zbekiston Respublikasida atrof-muhit holati va tabiiy resurslardan foydalanish to'g'risida "Milliy maruza". Toshkent. Chinor ENK, 2008yil, 151 bet.
5. X. T. Tursunov. Ekologiya asoslari va tabiatni muhofaza qilish. -Toshkent, 1996yil, 103 bet.
6. A. Ergashev, T. Ergashev. Ekologiya, biosfera va tabiatni muhofaza qilish. T.: Yangi asr avlodi. 2005 yil, 433 bet.

AHOLINI XAVFLI HUDUDDAN XAVFSIZ HUDUDGA KO'CHIRISH CHORA-TADBIRLARI

A. Nabiyev Namangan davlat universiteti, PhD

A. Xakimjonov Namangan davlat universiteti talabasi

Annostatsiya. Aholini ko'chirish, ko'chirish turlari, aholini ko'chirishda yuzaga keladigan muammolar va ularning yechimlari haqida ma'lumot berilgan.

Kalit so'zlar. Aholini ko'chirish, ofat, cheklangan ko'chirish, mahalliy ko'chirish, mintaqaviy ko'chirish, umumiy ko'chirish, qisman ko'chirish, transport, piyoda, aralash.

Aholini ko'chirish-ehtimoli bo'lgan yoki yuz bergan tabiiy, texnogen xususiyatli favqulodda vaziyat hududidan aholini transportda, piyoda olib chiqish va avvaldan tayyorlab qo'yilgan xavfsiz, ya'ni, favqulodda vaziyat ta'siri bo'lmagan joylarga vaqtincha joylashtirish tadbirlari majmuidir.

Axolini turli xususiyatlardagi favqulodda vaziyatlardan muhofazalash, barcha ob'yektlar, tashkilot va muassasalar rahbarlarini eng asosiy vazifalaridan bo'lib, ushbu "Aholi va hududlarni muhofaza qilish to'g'risida"gi Qonunning 11-moddasida bayon etilib belgilangan tartibda evakuatsiyaga oid tadbirlarni o'tkazish va odamlarni joylashtirish maqsadida oldindan bazalar tayyorlab qo'yish lozimligi qayd etilgan.

Shu sababli hozirgi vaqtda ham favqulodda vaziyatning ko'lamiga qarab muhofaza qilishni eng maqbul usullaridan biri, imkon darajasida aholini xavfli

joylardan olib chiqib ketish, ya'ni evakuatsiya tadbirlarini o'tkazish xisoblanadi. Lekin ushbu tadbirlarni o'tkazish ancha murakkab bo'lib, unda barcha davlat organlarini tayyorgarligini oshirish, fuqarolarni qanday harakat qilishga o'rgatish masalalariga alohida e'tibor qaratish muhim ahamiyat kasb etadi.

Chunki, ofat yuz bergan joyga maxsus xizmatlarni yetib kelguncha bir muncha vaqt kerak bo'ladi. Tezlik bilan harakat qilinmasa, favqulodda vaziyatlar ayanchli oqibatlariga olib kelishi mumkin.

Misol uchun 1999-yil Turkiyada sodir bo'lgan zilzila tufayli 30 ming odam halok bo'lgan. Yoki bo'lmasa 1995-yilda Yaponiya davlatini Kobe shahrida bo'lgan zilzila oqibatida 6 mingdan ortiq odam nobud bo'lgan, ko'rilgan moddiy zara 100 mlrd. AQSh dollariga teng deb baholangan, Ruminianing Baya-Borla shahri yaqinida joylashgan yarim metal tog' jinslarini qayta ishlash korxonasida sodir bo'lgan favqulodda vaziyat tufayli 20 ming tonna o'ta kuchli zaharlovchi moddalar Visheu va Tisa daryolari irmog'iga oqib ketgan. Braziliya, Indoneziya, Rossiya davlati, Yevropaning bir qator davlatlarida sodir bo'lgan suv toshqinlari, o'rmonlarning yonishi, kuchli shamollar ham, ko'lami har xil bo'lgan favqulodda vaziyatlarni sodir bo'lishiga olib kelgan.

Havfni oldini olishga tayyorgarlik, aloqa va axborot vositalarining doimiy shayligini nazorat qilishga, takomillashtirishga, evakuatsiya rejalarini o'z vaqtida o'tkazishga tibbiy yordamni ko'rsatishga chorlaydi.

Bundan tashqari aholini, ma'sul shaxslarni tayyorlash va malakalarini oshirish, qutqaruv kuchlarini halokat o'chog'lariga tezlik bilan etib kelishi, to'g'ri harakat qilishga o'rgatish tayyorgarlikni yuqori saviyaga ko'tarishga olib keladi.

2005-yilda Amerika Qo'shma Shtatlarining Novo-Orlean shtatida kuchli shamol oqibatida 450 ming aholi xavfsiz joyga ko'chirilgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2006 yil 9-fevraldagi PQ-279-sonli Qarori asosida, joriy yilning bahor-yoz oylarida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan geologik va gidrometeorologik jarayonlar bilan bog'liq favqulodda vaziyatlardan aholini va hududlarni muhofaza qilish borasida sel kelishi, yer ko'chishi havfi mavjud bo'lgan hududlardan 1251 ta xo'jalikdagi 6277 nafar fuqarolar havfsiz hududlarga ko'chirilgan. Tadbir o'tkazilish vaqti va muddatiga qarab, aholini ko'chirish 2 turga ajratiladi;

-oldindan o'tkaziladigan ko'chirish;

-shoshilinch (kechiktirib bo'lmaydigan) ko'chirish.

Oldindan o'tkaziladigan ko'chirish - favqulodda vaziyat (havfli ob'ektlardagi falokatlar yoki tabiiy ofatlar) yuzaga kelish ehtimoli yuqori darajada ekani haqida, ishonchli ma'lumot olinganda o'tkaziladi. Bunga bir necha o'n daqiqadan bir necha sutkagacha davr ichida favqulodda vaziyat sodir bo'lishi mumkinligi haqidagi oldindan taxminlash asos hisoblanadi.

Shoshilinch (kechiktirib bo'lmaydigan) ko'chirishlar - odamlarning hayoti va salomatligiga havf tug'iladigan darajada texnogen yoki tabiiy tushadigan favqulodda vaziyat yuzaga kelgan, aholining risoladagidek kun kechirishi buzilgan taqdirda o'tkaziladi.

Favqulodda vaziyat rivojlana borishi va favqulodda vaziyat zonasidan olib chiqiladigan aholi soniga qarab, ko'chirishning 3 xil turi bo'ladi:

- cheklangan (lokal) ko'chirishlar;
- mahaliy ko'chirishlar;
- mintaqaviy ko'chirishlar.

CHeklangan (lokal) ko'chirishlar-favqulodda vaziyat manbai shikast omillarining ehtimol bo'lgan ta'sir zonasida shahar kichik tumani yoki qishloq aholi yashash joyi chegarasi ichidan chiqmay, ko'chiriladigan aholi soni bir necha ming kishidan oshmagani taqdirda o'tkaziladi. Bunday hollarda ko'chirilgan aholi, odatda, favqulodda vaziyat zonasiga tutash aholi yashash joylariga yoki shaharning shikastlanmagan tumanlariga (favqulodda vaziyat manbaining shikastlovchi omillari ta'sir zonasidan tashqarida) joylashtiriladi.

Mahalliy ko'chirishlar - o'rtacha kattalikdagi shaharlar, yirik shaharlarning alohida tumanlari, qishloq tumanlari favqulodda vaziyat zonasiga tushib qolgan hollarda o'tkaziladi. Bunda ko'chiriladigan aholi soni bir necha mingdan o'nlab ming kishigacha etishi mumkin bo'lib, ular, odatda, favqulodda vaziyat zonasida bilan yondosh havfsiz joylarga joylashtiriladi.

Mintaqaviy ko'chirishlar - shikastlovchi omillar anchagina keng maydonga yoyilib, yirik shaharlarni ham o'z ichiga olgan, aholisi juda zich joylashgan bitta yoki bir necha mintaqada hududini qamrab olganda amalga oshiriladi. Mintaqaviy ko'chirishda favqulodda vaziyat zonasidan transportda (piyoda) olib chiqiladigan aholi doimiy yashab turgan joylaridan anchagina uzoqqa ko'chirilishi mumkin.

Favqulodda vaziyat zonasiga tushib qolgan aholining qanchasi ko'chirish tadbirlari bilan qamrab olinganiga qarab, ko'chirishning ikki turi (varianti) bo'lishi mumkin;

- umumiy ko'chirish;
- qisman ko'chirish.

Umumiy ko'chirish -favqulodda vaziyat zonasidan hamma toifa aholi olib chiqilishini nazarda tutadi.

Qisman ko'chirish -favqulodda vaziyat zonasidan mehnatga layoqati bo'lmagan aholi, maktabgacha yoshdagi bolalar, maktab, kasb-hunar, texnika bilim yurtlari o'quvchilari olib chiqilishi zarur bo'lganda o'tkaziladi.

Aholini ko'chirishning ko'rsatilgan variantlari havfning yoyilish ko'lamiga va tavsifiga, uning amalga oshirishining oldindan taxminlashni qanchalik ishonchligiga, shuningdek favqulodda vaziyat manbai shikastlovchi omillarining ta'sir zonasidagi ishlab chiqarish ob'ektlaridan xo'jalikda foydalanish istiqboliga qarab tanlanadi.

Odamlar hayoti va salomatligiga havf borligi aholini ko'chirish haqida qarorga kelish uchun asos hisoblanadi.

Aholini ko'chirish haqida qarorga kelish huquqi O'zbekiston Respublikasi sub'ektlarining hududida favqulodda vaziyat yuzaga kelgan yoki favqulodda vaziyat havfi oldindan taxmin qilinayotgan hokimiyat idoralarining mahalliy o'zini-o'zi boshqarish tashkilotlarining rahbarlarida (fuqaro muhofazasi boshliqlarida) bo'ladi.

Fuqaro muhofazasi ko'lamiga va ko'chirishning qanchalik shoshilinchligi talablariga qarab, mahalliy yoki mintaqaviy ko'chirishdagi shoshilinch (kechiktirib bo'lmaydigan) yoki oldindan o'tkaziladigan ko'chirish, tegishli fuqaro muhofazasi boshliqlarining ko'rsatmalarini yoki farmoyishlariga binoan amalga oshiriladi.

Kechiktirmay qarorga kelish talab qilinadigan hollarda cheklangan harakterdagi shoshilinch ko'chirish potensial havfli ob'ektning navbatchi-dispatcherlik xizmati

boshlig'ining ko'rsatmasiga binoan o'tkazilishi mumkin. Boshqaruvning hududiy, idoraviy, ob'ekt idoralari fuqaro muhofazasi boshliqlari ko'chirishga umumiy rahbarlik qiladi. Aholini ko'chirish tadbirlarini bevosita tashkil etish va o'tkazishga esa viloyat, shahar, tumanlar ma'muriyati va iqtisodiyot ob'ekti boshqaruv organlari tashkil etadigan aholini ko'chirish komissiyalari (guruhlari) rahbarlik qiladi.

Aholini ko'chirish tadbirlari yaxshilab o'ylab rejalashtirishni hamda transportni, yo'llarni, ko'chiriladigan tashkilotlarni, aholi boradigan havfsiz joylarni oldindan tayyorlab qo'yishni, shuningdek aholining favqulodda vaziyat sohasida har tomonlama tayyorgarlik ko'rishini talab qiladi.

Bunday tayyorgarlikni mahalliy hokimiyat idoralarining va iqtisodiyot ob'ektlari boshqaruv tashkilotlarining fuqaro muhofazasi boshlig'i bo'lgan rahbarlari tashkil etadi va o'tkazadi.

Aholini ko'chirish ishlab chiqarish-hududiy yoki hududiy asosda rejalashtiriladi, tashkil etiladi va amalga oshiriladi.

Ishlab chiqarish-hududiy tartibi favqulodda vaziyat zonalaridan ishchilar, xizmatchilar, talabalar, o'quvchilarni, korxonalar, tashkilotlar, muassasalar, o'quv yurtlari bo'yicha, ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sohasida ishlamaydigan boshqa aholini esa turar joydan foydalanish organlari orqali turar joylari bo'yicha transportda (piyoda) olib chiqishni nazarda tutadi.

Muayyan hollarda ko'chirishni hududiy tartibida, ya'ni aholini ko'chirish e'lon qilingan paytda bevosita aholi yashab turgan joyidan amalga oshirilishi mumkin.

Aholini ko'chirish usullariga qarab, 3 ta ko'chirish usuli bo'ladi:

- transportda;
- piyoda tartibda;
- aralash usulda.

Aralash usul eng samarali va eng maqbul usul hisoblanadi, u mavjud transport yordamida iloj boricha eng ko'p ishlovchilar bilan bir vaqtda aholini qolgan qismini birga qo'shib olib chiqishga asoslanadi. Bunda, asosan piyoda tartibda yura olmaydigan aholini transportda olib chiqish rejalashtiriladi.

Aralash usul FV zonalaridan aholini ko'chirish tadbirlarini eng qisqa muddatda o'tkazish talablariga juda mos keladi.

Ko'chirilgan aholi havfsiz joylarda maxsus buyruq bo'lgan joylashtirib turiladi.

Tegishli davlatlararo kelishuvlar bo'lsa, O'zbekiston Respublikasining ko'chirilgan aholisi mustaqil davlatlar hamdo'stligi qatnashchilari bo'lgan mamlakatlar va boshqa qo'shni davlatlar hududlarida joylashtirilishi mumkin. O'z navbatida O'zbekiston Respublikasi hududi ham boshqa davlatlardan ko'chirib keltirilgan aholi uchun berilishi mumkin. Bunda hamkorlik qiladigan davlatlar vakolatli idoralarining birgalikda ish tutishi halqaro huquq me'yorlariga, ikki tomonlama va ko'p tomonlama davlatlararo kelishuvlarga, O'zbekiston Respublikasi va boshqa mamlakatlar qonunlariga asoslanadi.

Ko'chirish tadbirlarining hajmi ko'pligi, tashkil etish va o'tkazishdagi murakkabliklari ko'chirishni o'tkazuvchi organlarini tuzishga hamda ular aholini ko'chirishi vaqtida va tayyorgarlik ko'rishiga oshirilgan talablar qo'yadi.

Aholini ko'chirishni tashkil qilishni rejalashtirish, tashkil etish va o'tkazish bevosita shahar, tuman va viloyatlarning ko'chirish tashkilotlariga, hokimiyat idoralariga, favqulodda vaziyat boshqarmalari va bo'limlariga yuklatiladi.

Quyidagilar ko'chirish tashkilotlari tarkibiga kiradi:

- aholini ko'chirish hay'atlari;
- ko'chirilganlarni qabul qilish hay'atlari;
- ko'chiriladiganlarning yig'ilish joylari;
- ko'chirilganlarni qabul qilish joylari;
- ko'chirishning oraliq joylari;
- piyoda ko'chirilganlarning yo'llaridagi boshqarish guruhleri;
- ko'chiriladigan aholini transportda (piyoda) olib chiqish tezkor guruhleri.

Hozirgi kunda aholini ko'chirish bo'yicha ham ko'plab muammolar mavjud.

Shulardan biri evakuatsiya qiluvchi hodimlarni bilimi past.Ya'ni favqulodda vaziyat sodir bo'lgan vaqtda qanday harakat qilish kerak, nima qilish kerak, aholiga nima deyish kerak shu holatlarda hodimlarni bilim saviyasi pastlik qiladi.Shuning uchun har bir hodimni bilimini oshirib tayorgarligini tekshirib nazorat qilib turish kerak.Har bir hodimni favqulodda vaziyat sodir bo'lganda qanday harakat qilish kerakligi haqida o'qitib bilimini oshirish lozim va shart bo'ladi.

Yana asosiy muammolaridan biri bu aholini evakuatsiya qilish to'g'risidagi nizomlarning juda eskiligi.Bu nizomlarni hozirgi vaqtga moslab boshqatdan ishlab chiqish kerak.

Favqulodda vaziyat bo'lgandan ko'ra uni oldini olsak aholiga zarari kamroq bo'ladi yoki umuman aholiga zara yetmaydi.Shuning uchun shu va shu kabi muammolarni favqulodda vaziyat sodir bo'lishidan oldin o'rganib chiqib, oldini olsak maqsadga muvofiq bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. G'.Yormatov, O.R.Yo'ldashev, A.L.Hamrayeva "Hayot faoliyat xavfsizligi"
2. I.Nigmatov, M.Tojiyev "Favqulodda vaziyatlarda fuqaro muhofazasi" Toshkent 2011
3. A.Qudratov, T.G'aniyev, O'.Yo'ldashev, G'.Y.Yormatov, N.Habibullayev, A.D.Hudayev "Hayotiy faoliyat xavfsizligi" Toshkent 2005
5. O.Qudratov, T.G'aniyev "Hayotiy faoliyat xavfsizligi" Toshkent 2004

FAVQULODDA VAZIYATLARNI BARTARAF ETISH, FUQORALAR HAYOTI VA SALOMATLIGI

A.B.Nabiyev. Namangan davlat Universiteti PhD

Abduxamidov K.A. Namangan davlat Universiteti talabasi

Annotatsiya: FVVning asosiy vazifalari va faoliyat yo'nalishi asosan: favqulodda vaziyatlarni bartaraf etish, fuqoralar hayoti va salomatligini muhofaza qilish, favqulodda vaziyatlar yuz berganda ularning oqibatlarini tugatish hamda zararini kamaytirish sohasida davlat siyosatini ishlab chiqish va amalga oshirish, favqulodda vaziyatlarning oldini olish va bunday hollardagi harakatlarni boshqarishning davlat tizimi (FVDT)ni tashkil etish va uning faoliyatini ta'minlash, fuqaro muhofazasiga rahbarlik qilish, vazirliklar, idoralar, mahaliy davlat organlari faoliyatini muvofiqlashtirib borish, maqsadli ishlab chiqarish va hakoza qaratilgan.

Kalit so'zlar: Fuqarolar muhofazasi, Evakuatsiya, Harbiy tizim, Radiatsiyaviy, kimyoviy biologik vaziyat, Qutqaruv.

Fuqaro muhofazasi mahsus tadbirlarining bajarilishini ta'minlash hamda ushbu maksadlarda kuch va vositalarni tayyorlash uchun respublika, viloyat, tuman, shahar, shuningdek, ob'ekt miqyosidagi fuqaro muhofazasi xizmatlari tashkil etiladi. Fuqaro muhofazasi xizmatlarining turlari O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanadi.

Fuqaro muhofazasi kuchlari fuqaro muhofazasi kushinlari, tizimlaridan tarkib topadi. Fuqaro muhofazasi kuchlari va vositalarining tarkibi, ularning tarkibiy tuzilishi, shuningdek, muhofaza turlari faoliyatining boshqa jihatlari O'zbekiston Respublikasi fuqaro muhofazasi boshligi tomonidan belgilab kuyiladi.

Fuqaro muhofazasi vazifalarini hal etishda FVV kuchlaridan tashkari O'zbekiston Respublikasi kurolli kuchlarining kutkaruv tizimlari, kislari ham jalb etilishi mumkin. Favqulodda vaziyatlar vazirligi fuqaro muhofazasining kushinlari O'zbekiston Respublikasi fuqaro muhofazasi kuchlarining asosini tashkil etadi.

Fuqaro muhofazasi qo'shinlarining harbiy davrdagi asosiy vazifalari kuyidagilardan iborat:

1. a) zararlanish uchoqlarida va zaharlanish hududlarida muhandislik, radiatsiyaviy, kimyoviy va boshka kidiruv turlarini olib borish;
2. b) kutkaruv va boshka kechiqtirib bulmaydigan ishlarni amalga oshirish;
3. v) aholini va halk hujaligi ob'ektlarini evakuatsiya qilishda ishtiroq etish;
4. g) aholi hayot faoliyatini ta'minlash, ob'ektlarni tiklash ishlarini amalga oshirishda ishtiroq etish hamda fuqaro muhofazasining boshka vazifalarini bajarishdan iborat.

Fuqarolar muhofazasi tizimlari kutkaruv va boshka kechiqtirib bulmaydigan tiklov ishlarini amalga oshirish uchun hududiy ishlab chiqarish tamoyillariga kura tashkil etiladi.

Fuqaro muhofazasi tizimlari buysunishiga kura — hududiy (viloyatlar, tumanlar va shaharlar miqyosida) hamda ob'ekt (halk hujaligi ob'ektlaridagi) tizimlariga bulinadi.

Ob'ekt fuqaro muhofazasining boshligi etib usha korhonaning yoki tashkilotning boshligi tayinlanadi.

Fuqaro muhofazasi yana belgilangan vazifasiga kura — umummaksadli hamda hizmatli tizimlarga bulinadi. Umummaksadli tizimlar zararlangan uchoqlarda kutkaruv ishlarini olib boradilar. Hizmatli tizimlar esa mahsus tadbirlarni bajaruvchi hizmatlar — kidiruv ishlarini olib borish, tibbiy yordam kursatish, yonginlarning tarkalishiga yul kuymaslik va ularni uchirish, jamoat tartibini saklash, insonlar salomatligini tiklash, razvedka utkazish, avariya va tehnikalarni tiklash, himoya inshootlarida hizmat kursatish va boshka mahsus vazifalarni bajaruvchi tizimlarga bulinadi

Fuqaro muhofazasi tizimlariga O'zbekiston Respublikasi fuqarolari: 18 yoshdan 60 yoshgacha bulgan erkaklar, 18 yoshdan 55 yoshgacha bulgan ayollar kabul kilinadi, safarbarlik kursatmasiga ega bulgan harbiy hizmatga mansublar, 1,2,3guruh nogironlari, homilador ayollar, 8 yoshga tulumagan bolalari bor ayollar, ayni paytda 3 yoshga tulumagan bolalari bor urta yoki oliy tibbiy ma'lumotli ayollar bundan mustasno.

Har bir korhonaning FM boshligi FMni tashkil etilishini, uning holatini, kuchlarini, tehnikasini doimiy tayyor holatda bulishligini nazorat etadi, hamda kutkaruv va kayta tiklash ishlariga boshchilik kyladi. Korhona FMning boshligi shu

korhona joylashgan rayon FMga va shu korhonaning yukori tashkiloti FMsigga buysunadi.

Har bir korhonaning FM boshligiga urinbosar tayinlanadi. Katta korhonalarda bir necha urinbosarlar tayinlanadi, jumladan:

a) Ishchi hizmatchilarni joylashtirish (yoki evakuatsiya buyicha);

b) Muhandis-tehnika ishlari buyicha;

v) Moddiy tehnika ta`minoti buyicha. FMning ishchi hizmatchilarni joylashtirish buyicha urinbosari joylashtirish rejalarini tashkil etadi, ularning oilalarini evakuatsiya etish, jamoat tartibini saklash ishlariga boshchilik qilish hamda ishchi hizmatchilarni bir joydan ikkinchi joyga tashish ishlarini tashkillashtirish vazifalarini bajaradi.

FMning muhandis-tehnika bulimi urinbosari korhonaning bosh muhandisi hisoblanadi. Buning vazifasi ishlab chiqarishni alohida rejim asosida ishlash rejasini tuzish, tinchlik davrida ishlab chiqarishni muttasil ishlashini ta`minlash, ekstremal holatlarda avariya-tehnika va yonginga karshi hizmatlarni, kugkarish ishlarini olib boradi.

Bundan tashkari, tabiiy ofatlar, avariya, haloqat bulganda kutkarish va avariyanı tusish hamda kayta tiklash ishlariga boshchilik kiladi.

FMning moddiy-tehnika ta`minoti buyicha urinbosari kilib korhonaning ta`minot buyicha boshlik urinbosari tayinlanadi. Bu mansabdor shahs mahsus jihozlarni, tehnika, transport va muhofazaga taallukli jihozlar bilan ta`minlaydi va saklaydi. Yana u boshpanalarni kurish va uz kul ostidagi ishchi hizmatchilarni evakuatsiya qilishni ta`minlaydi haoda inshootlarni ta`mirlash ishlarini bajaradi.

Korhonada FMning shtabi tuziladi. Bu shtabda har hil buyruklar, bajariladigan choratadbirlar va FMning yukori tashkilot talabnomalari, ish rejalari ishlab chiqiladi, uning bajarilish hisobotlari tuziladi. Korhona shtab boshligi etib, shu korhonaning FM boshligining birinchi urinbosari tayinlanadi. FMning shtabi zimmasida ishchi hizmatchilarni va korhona hodimlari oilalarini kirgin kurollar ta`siridan, dushmanning bevakg hujumidan uz vaqtida ogoh qilish vazifasi turadi.

FM shtabi asosida kuyidagi hizmatli tizimlar tashkil etiladi:

- Aloqa va tashvikot;
- Meditsina;
- Radiatsiya va kimyoviy kurollar ta`siriga karshi;
- Jamoat tartibini saklash;
- elektr ta`minoti;
- Avariya-tehnika ta`mirlash;
- Panada va kochoqlar maskanida hizmat kursatish;
- Transportda hizmat kursatish;
- Moddiy ta`minot va boshka vazifalar.

Bularga mahsus topshiriklarni bajarish vazifalari topshiriladi. Yuqoridagi har bir hizmatga FM boshligi tomonidan rahbar etib, bulim, tseh, smena boshliklari tayinlanadi.

Yuqorida ta`kidlangan fuqarolar muhofazasining hizmatli tizimlaridan tashkari tehnika va transport vositalariga mahsus kayta ishlov berishda FMning bir kator hizmatli kismalari keng ishlarni tashkil etadi. Jumladan, FM laboratoriyalari radioaktiv va zaharli moddalarni aniklash uchun radiometrik va kimyoviy tahlil ishlarini olib

boradi. Ular asosan korhona yoki tashkilotlarning laboratoriyalari tarkibida tashkil etilib, unga mutahassislar jalb kilinadi va kerakli asbob-uskunalar bilan jihozlanadi.

Radioaktiv moddalar va biologik vositalar bilan zaharlangan odamlarni tulik sanitar kayta ishlovdan utkazish uchun yuvinish maskanlari tashkil etiladi. Bu maskanlar asosan hammom va dushhonalar asosida tashkil etilib, ular oldindan tayyorlab kuyiladi. Bu maskanlarda kiyim-kechaklar, poyafzal va shahsiy saklovchi vositalarni dezaktivatsiya kiluvchi maydonchalar tayyorlanib jihozlanadi. Bir yuvinish maskani bir soatda 80 odamni sanitar kayta ishlovdan utkazadi.

Kiyimkechak, poyafzal shahsiy saklovchi vositalarni degazatsiya, dezaktivatsiya va dezinfektsiya qilish uchun kiyim-kechaklarni zararsizlantiruvchi maskanlar tashkil etiladi. Bular asosan hammom va kiyimkechaklarni yuvuvchi maskanlar tarkibida tashkil etiladi. Bunday maskanlar 1 soat ichida 50100 kg kiyimkechaklarni kayta ishlash kuvvatiga ega.

Transport vositalarni degazatsiya, dezinfektsiya va dezaktivatsiya qilish uchun esa zararsizlantirish shahobchalari tashkil etiladi. Bu zararsizlantirish shahobchalari asosan transportlarni yuvuvchi kismalari tarkibida tashkil etilib, ular 1 soat mobaynida 45 ta yuk avtomashinalarini zararsizlantirish imkoniyatiga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. P. Baratov. Tabiatni muhofaza qilish. -Toshkent: O'qituvchi, 1991.-187b.
2. Shodimetov. Yu. Sh. Ijtimoiy ekologiyaga kirish. Toshkent: O'qituvchi, 1994yil, 240 bet.
3. Otoboev Sh., Nabiev M. Inson va biosfera. -Toshkent: O'qituvchi, 1995-yil, 310bet.
4. O'zbekiston Respublikasida atrof-muhit holati va tabiiy resurslardan foydalanish to'g'risida "Milliy maruza". Toshkent. Chinor ENK, 2008yil, 151 bet.
5. X. T. Tursunov . Ekologiya asoslari va tabiatni muhofaza qilish. -Toshkent, 1996yil, 103 bet.
6. A. Ergashev, T. Ergashev. Ekologiya, biosfera va tabiatni muhofaza qilish. T.: Yangi asr avlodi. 2005 yil, 433 bet.

KASB HUNAR KOLLEJLARIDA INGLIZ TILI DARSLARINI O'QITISHDA KASBGA YO'NALTIRISH TAMOYILINI AMALGA OSHIRISHNING AHAMIYATI

S.R. Ismatova NamDU talaba

Har bir fan o'qituvchisi dars jarayonida o'qitishning asosiy didaktik tamoyillarini, ya'ni tushunarlilik, sistematiklik, nazariya bilan amaliyotning birligi, kasbga yo'naltirish tamoyili, o'qitishning tarbiyaliligi, fanlar o'rtasidagi o'zaro bog'lanish kabilarni amalga oshiradi. Bu tamoyillarni amalga oshirishda ularning ayrimlari o'rta maktabdagidan keskin farq qilib kasb hunar kollejlarning o'ziga xos xususiyatlari va mutaxassislik yo'nalishlarini xisobga olish kerak bo'ladi.

Ma'lumki kasb hunar kollejlarda o'quvchilar uchta yo'nalishdagi fanlarni o'qiydilar:

1. umumta'lim fanlari

2.umumtexnika fanlari

3.kasbiy fanlar

SHuning uchun kasb hunar kollejida kasbga yo'naltirish tamoyilini amalga oshirishda bu o'quv yurtlaridagi kasbiy va texnik fanlar o'qitilishini ham xisobga olish kerak. Ingliz tili o'qitishda kasbga yo'naltirish tamoyiliga amal qilinganda o'quvchilarning o'zlashtirishlari ortadi. Jumladan, kasb hunar kollejarida, shu narsani ko'rish mumkinki, o'quvchiga berilgan materiallar ichida qaysi material o'quvchining tanlagan mutaxassisligiga bog'lab olib borilgan bo'lsa, shu materialni o'quvchilar tezroq va to'laroq o'zlashtiradilar.

Kasb hunar kollejida ingliz tili fanini texnika va texnologiya bilan bog'lab o'qitish muhim amaliy ahamiyatga ega bo'lgan jarayondir. Ingliz tili o'qitishda asosan kasbga yo'naltirish, ishlab chiqarish ta'limi materiallaridan o'quv jarayonida foydalanish orqali bajariladi. Bundan tashqari kasbga yo'naltirish tamoyili o'quvchilarda kasb malakasi, bilimi, ko'nikmasini xosil qilish uchun tadbiiq etishni aniqlab beradi.

Masalan, iqtisod yo'nalishida ta'lim olayotgan o'quvchilar quyidagi terminlarni bilishlari zarur: moliyaviy inqiroz-financial crisis, bankrot-bankrupt, qarz-credit, inflyatsion konyuktura-inflatory tend, devalvatsiya-devaluation, siyosiy iqtisod-political economy, dinamika-dynamics...

qishloq xo'jaligi yo'nalishida ta'lim olayotgan o'quvchilar uchun esa quyidagi terminlarni bilish zarur: traktor-tractor, tuprok-soil, tuprok xususiyatlari-the features of soil, namlik-moisture, qurg'oqchilik -drought, sugorish-irrigation, paxta-cotton, bug'doy-wheat, don-dun-corn, yem-xashak-fodder ...

Kasb hunar kollejarida turli yo'llar bilan ingliz tili fanini kasbiy fanlar bilan bog'lab olib borish kasb hunar kollejarida ingliz tili o'qitishning eng muhim xususiyatlaridan biridir. Ingliz tili o'qituvchisi kasbga yo'naltirishni quyidagicha amalga oshirishi mumkin:

1. Mavzuga oid yangi kasbiy so'zlar va iboralar orqali
2. Kasbiy so'zlardan foydalangan holda gaplar tuzish orqali
3. Ingliz tilida kasbiy mazmundagi o'yinlar tashkil etish orqali
4. O'quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish uchun kasbiy mazmundagi terminlardan mustaqil topshiriqlar berish orqali

1. Kasbiy mazmundagi turli dialoglar tashkil etish orqali va hokazo Ingliz tili darslarida o'quvchilar texnik qurilmalar va ularning tuzilishini ingliz tilidagi ko'rinishlari, bunday so'zlarning talaffuzi va ma'nosini bilib oladilar. Bunday vazifa kasb hunar kolleji ingliz tili o'qituvchisi oldiga qo'yilgan asosiy vazifa bo'lib, yuqori malakali, keng qamrovli profildagi ishchi mutaxassislar tayyorlashning, barkamol avlodni tarbiyalashning muhim omillaridan bo'lib hisoblanadi.

SHunday qilib, kasb hunar kolleji o'quvchilariga ingliz tilini o'qitishda tanlagan yo'nalishlariga har bir mavzuni bog'lab, uni bo'lajak kasbidagi ahamiyatli tomonlarini ko'rsatib o'tilsa, o'quvchilar darsni puxta o'zlashtiradilar xamda o'z kasblariga qiziqishlari yanada ortib boradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. A.P.Sulaymonov. "Amaliy fanlarni o'qitish va o'quv- tarbiya jarayonining sifat va sanaradorligi: muammolar va yechimlar " Toshkent- 2017 y.

2. A.Jalolov . “ Kasb qanday tanlanadi” Baxt – saodatga intiluvchilar uchun Toshkent “ Yangi asr avlodi”. 2010 y.

3. Ziyonet.uz

O'QUV USTAXONALARIDAGI TA'LIM METODIKASI

A.B Nabiyeu NamDU, PhD

B.M. Haydarov NamDU o'qituvchisi

E.E.Xudayberganov NamDU talabasi

Bilim yurtidagi ishlab chiqarish ta'limi dastlabki paytlarda bilim yurti ustaxonalarida shuningdek korxonalar tomonidan ajratilgan maxsus uchastkalarda amalga oshiriladi. O'quv ustaxonalarida o'quvchilar tomonidan bajariladigan ish turlariga qarab mashg'ulotlarning quyidagi xillarini ko'rib o'tish mumkin : mashq darslari, o'quv-ishlab chiqarish buyumlarini mustaqil tayyorlash darslari, aralash darslar, instruktiv va kontrol tekshirish darslari.

Mashg'ulot darslaridan mashq qilish davrida foydalaniladi. Bu yerda yetakhi element, o'quvchilar tomonidan mashqlarni ishlab chiqarish harakatlari va operatsiyalarida qayta bajarish hisoblanadi. O'quv-ishlab chiqarish buyumlarini mustaqil tayyorlash darslari ishlab chiqarish ta'limining asosiy sharti sifatida o'tiladi. Bunda o'quv ishlarini mustaqil bajarish individual, brigadali va frontal bo'lishi mumkin. Bir xil ish quroli va aynan bir asbob qo'llab bir xil ishni umumguruppaviy bajarayotganda master guruppaga faqat umumiy rahbarlik qilishi bilan har bir o'quvchiga yordam beradi. Mustaqil ish, agar o'quvchi brigadada o'zining mustaqil topshirig'ini bajarayotgan bo'lsa, brigadali bo'lishi ham mumkin.

Aralash dars deb barcha aytib o'tilgan dars xillariga xos bo'lgan elementlar qo'llaniladigan darsga aytiladi. Har bir darsning bosh vazifasi va maqsadi o'quvchilar tomonidan programma materialini frontal hamda planli ravishda o'zlashtirilishidir. Instruktiv darslar, garchand instruktaj har bir dars xilining zaruriy elementi sanalsada, kam uchraydi.

Instruktiv darslardan ekspluatsion harakterdagi kasblar bo'yicha ta'lim berishda foydalaniladi. Bunday hollarda, darslarda apparat va mexanizmlar namoyish qilinadi, ularning tuzulishi, ishi, alohida qism hamda uzellarining o'zaro harakati tushuntiriladi.

Darsning bu xiliga masterning mashina haydashga o'rgatishdagi instrukrajini ham kiritish mumkin (traktorlar, avtomobillar, avtokranlar va boshqalar). Kontrol-tekshirish darslari odatda, o'quv davrining oxirida o'quvchilarning mustaqil ishga bo'lgan qobiliyatini, ularning ishlab chiqarishga ulgurishini baholash, shuningdek o'quv ishlab chiqarishda faqat o'quvchilar emas, balki master faoliyatidagi kamchilik va ijobiy tomonlarini ham hisobga olish maqsadida o'tkaziladi. Ishlab chiqarish ta'limining asosida o'z ichiga quyidagilarni oluvchi operatsion-kompleks sistemasi yotadi:

O'quvchilarning mazkur operatsiyani tashkil etuvchi alohida harakat va usullarini bajarishdagi trenitovka madhqlari; operatsiyada o'zlashtirilgan mashqlarni qo'shish, ya'ni mazkur operatsiyani tashkil etuvchi harakat va usullarni kompleks

ravishda o'rganish; kasblarni o'rganishda muayyan bosqichni tashkil etuvchi bir necha asosiy operatsiyalarni o'rganish va o'zlashtirish;

uncha murakkab bo'lmagan, ammo mazkur buyumlarga oid kasb uchun tipik bo'lgan buyumlarni tayyorlashda, bir necha o'rganilgan operatsiyalarni kompleks ravishda izchil qo'llash;

o'quvchilar tomonidan o'quv ishlab chiqarish harakteriga ega bo'lgan predmetlar juda murakkab komplekslarda o'rganiladigan operatsiyalarning katta miqdorini qo'shib olib borgan holada mustaqil tayyorlash;

shunday qilib, o'quvchilar kasblarni kvalifikatsiya harakteristikalari va o'quv programmalariga muvofiq planli ravishda egallaydilar.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. A.P.Sulaymonov. "Amaliy fanlarni o'qitish va o'quv- tarbiya jarayonining sifat va sanaradorligi: muammolar va yechimlar" Toshkent- 2017 y.

2. A.Jalolov. " Kasb qanday tanlanadi" Baxt – saodatga intiluvchilar uchun Toshkent " Yangi asr avlodi". 2010 y.

3. N.A. Muslimov, Sh.S.Sharipov, O.A.Qo'ysinov Mehnat t'limi o'qitish metodikasi, kasb tanlashga yo'llash. Toshkent - 2014.

3. Ziyonet.uz

ЎЗБЕК АЁЛЛАРИГА ХОС МИЛЛИЙ ХАРАКТЕРЛАРНИ БАДИИЙ АСАРЛАРДА ЁРИТИЛИШИ

М.Б.Усмонова, НамДУ Мактабгача таълим методикаси кафедраси ўқитувчиси

Ж.Р.Мухитдинова, НамДУ Технологик таълим кафедраси катта ўқитувчиси

Аннотация: ушбу мақолада бадий асарларда миллий характерларни ўзбек аёлларига хос қиёфада акс эттириш хусусиятлари баён этилган бўлиб, қахрамонлар тимсолида ижобий фазилат ва салбий хислатларнинг қай даражада акс эттирилганлигига ахамият қаратилган.

Калит сўзлар: бадий асар, ижобий фазилат ва салбий хислатлар

Аннотация: В данной статье описаны особенности изображения национальных персонажей в литературных произведениях в образе узбекских женщин, а также акцентируется внимание на степени отражения в образе героев положительных и отрицательных качеств.

Abstract: This article describes the features of the image of national characters in literary works in the image of Uzbek women, and also focuses on the degree of reflection in the image of heroes of positive and negative qualities.

Бадий асарлар таъсирида шахсда миллий характер хислатларини ривожлантиришда қахрамонлар қиёфасида акс этадиган сифатлар, уларнинг ижобий ва салбий мазмунга эгаллиги, ўқувчиларда хиссий муносабатларни уйғота олиш имконияти ҳисобга олинади. Жумладан, бадий асар қахрамони тимсолида намоён бўлаётган мардлик, саботлилик, ростгўйлик, софдиллик каби

хислатларнинг ўқувчиларда ижобий фазилатларни тарбиялашдаги имкониятлари юқори. Аммо бу ўринда шуни ҳам таъкидлаб ўтиш керакки, бадий асарлар қаҳрамонларининг манмансираш, ўз шахсий манфаатларини жамоа манфаатларидан устун қўйиш, худбинлик, ёлгончилик, атрофдагиларни менсимаслик каби иллатларга эга эканликлари ҳам ўзига хос тарбиявий аҳамиятга эга. Уларнинг тарбиявий аҳамияти шундаки, ўқувчилар бадий қаҳрамон образида инъикос этаётган иллатга нисбатан ўз муносабатини билдиради, улардан нафратланади, баъзан шахсий тасаввурлар орқали улар билан кураш олиб боради. Демак, бир сўз билан айтганда салбий образлар ҳам ўқувчиларнинг хиссиётини тарбиялайди.

Адабий таълим ёки таълим муассасасидан ташқари шароитда ўқувчиларни миллий ҳаёт тарзи, миллий қадриятлар мазмунини ёритувчи бадий асарлар билан таништиришда қаҳрамонлар тимсолида ижобий фазилат ва салбий хислатларнинг қай даражада акс эттирилганлигига алоҳида эътибор қаратиш лозим. Зеро, шахс ҳаёти ва фаолияти жараёнида унинг қиёфасида акс этадиган барча ижобий фазилат ҳамда салбий иллатлар ҳам ҳар доим ҳам характер хислатлари сифатида намоён бўлавермайди. Жумладан, агарда асар қаҳрамонининг маълум вазиятдаги хатти-ҳаракати, юриш-туриши, муомаласи, атрофдагилар билан муносабати, ўзини тутатилиши юзасидан сўз юритилганда “у мардлик қилди”, “бекиёс саховат, меҳр-мурувват кўрсатди”, “унинг бу иши номардликдан ўзга нарса эмас эди”, “у атрофдагиларга нисбатан адолатсизлик қилди” деган иборалар ишлатилади. Бироқ, мазкур иборалар шахсининг мард, саховатли, номард ёки адолатсиз эканлигини аниқламайди. Балки унинг шахси муайян вазият нуқтаи назаридан баҳоланади. Мардлик, саховатлилик, номардлик ёки адолатсизлик кабиларнинг айнан бадий асар қаҳрамонига хос характер хислати сифатида таърифланиши учун у талқин этилаётган воқеликнинг умумий жараёнида, турли вазиятларда ҳам ана шу сифат ёки иллат соҳиби эканлиги кўрсатиб берилиши зарур. Асар муаллифи томонидан қаҳрамон шахсининг характер хусусиятларини яққол кўз олдига келтирилганлиги, унинг муайян шароитлардаги хатти-ҳаракатлари моҳиятини олдиндан тўғри тахмин қилинганлиги ўспирин-ўқувчиларда характер хислатларини тарбиялашга хизмат қилади.

Айрим асарларда бадий қаҳрамонлар феъл-атвори, хулқининг тез-тез ўзгариб туриши характер хислатларининг бетайинлиги, мужмаллигини билдиради. Айнан ана шундай характер хислатларига эга қаҳрамонларнинг ҳаёти ва фаолияти ҳеч қандай тарбиявий таъсирга эга бўлмайди.

Бадий асарлар ва уларда сурилган ғоялар нуқтаи назаридан таҳлил қилинганда қаҳрамонларнинг ўз фаолиятларида, шунингдек, атрофдагиларга бўлган муносабатларида аниқ мақсадни кўзлай олишлари, мақсадга эришишнинг самарали ва таъсирчан йўл, воситаларини муваффақиятли танлай олишлари улар характерида иродавий хислатлар намоён бўлишидан далолат беради. Ўзбек адабиётида ана шундай сифатларга эга қаҳрамонлар сирасида Широқ (“Широқ” достони), Тўмарис (“Тўмарис” достони), Алпомиш (“Алпомиш” достони), Зардушт (“Авесто”), Фарҳод (Алишер Навоийнинг “Фарҳод ва Ширин” достони), Юсуфбек Ҳожи (Абдулла Қодирийнинг “Ўтган кунлар”),

Отабек (Абдулла Қодирийнинг “Ўтган кунлар”), Махамат чаток (Одил Ёкубовнинг “Гирдоб” романи), Шораҳмат (Ҳамид Ғулومнинг “Тошкент – нон шаҳри” асари”) каби образларни мисол сифатида келтириб ўтиш мумкин. Номлари келтирилган қаҳрамонларнинг ҳар бирлари ўз хатти-ҳаракатларининг йўналиши, улар негизида кечиши мумкин бўлган жараёнлар моҳияти, оқибатларини тўғри баҳолай олганлар.

Ўқувчиларда миллий характер хислатларини ривожлантиришда “Тўмарис” афсонасининг ҳам аҳамияти бекиёс. Тўмарис гарчи аёл бўлса-да, бироқ, у ўз жасорати, мардлиги билан бутун бошли қабилани форсларнинг Кайхисрав (Кир) бошчилигидаги қўшинига қарши курашга рағбатлантира олган. Достоннинг бош қаҳрамони Тўмарис характерида акс этган иродавий хислатлар – журъатлилик, қатъиятлилик, дадиллик, саботлилик, оқиллик, матонатлилик ва энг муҳими, ҳар вазиятда ҳам ўзини тута билиши, оғир кулфат олдида ҳам ўзини йўқотиб қўймаслиги, аксинча, янада шиддат билан душман устига бостириб бориши академик лицей, касб-хунар коллежлари ўспирин-ўқувчиларини ўзларида иродавий сифатларни ривожлантиришга ундайди.

Тўмарис образида ёрқин чизмалар орқали тасвирланган иродавий хислатлардан бири қатъиятлилик саналади. Қатъиятлилик – бу ҳеч иккиланмай, тезкорлик билан қарор қабул қилиш (бир қарорга келиш) бўлиб, мазкур сифатга эгаллик, айниқса, уруш ҳаракатлари бораётган вазиятларда ҳал қилувчи аҳамият касб этади. Зеро, бундай вазиятда бир оз бўлса-да, кечикиб қабул қилинган қарор ҳеч қандай наф келтирмайди. Аксинча, олдини олиш мумкин бўлган фожиаларнинг рўй беришига замин яратади. Тўмарис шахсида қатъиятлилик ижобий характер хусусияти сифатида акс этишини таъминлай олган.

Шунингдек, бу ўринда айрим бадиий асарлар ва уларнинг қаҳрамонлари мисолида ҳиссий кечинмалар, руҳий истироблар таъсирида қарор қабул қилмаслик инсон ҳаёти ва соғлигини муҳофазалашнинг энг самарали йўли эканлигини тушунтириш талаб қилинади. Масалан, Ўлмас Умарбековнинг “Фотима ва Зухра” асарида эгизаклардан бирининг иродавий хислатларга эга эмаслиги, рўй берган ходиса, аянчли воқеани хис-туйғулар асосидагина баҳолаши, бунинг натижасида нафақат Исломи дини, шунингдек, бошқа динлар ғояларига кўра ҳам даҳрийлик (худосизлик), ўта оғир гуноҳ саналадиган ҳолатнинг содир этилишига олиб келганлигини алоҳида уқтириб ўтиш лозим. Бу ўринда, аввало, ўз жонига қасд қилиш, яъни суицид ҳолатининг моҳиятини очиб бериш лозим.

“Суицид (лот. “sui” – ўзимни-ўзим, “suides” – ўлдирмақ) – салбий ижтимоий-психологик ходиса бўлиб, оғир руҳий зўриқиш ёки касалликнинг натижаси бўлиб, тушқунлик (кризис) вазиятлардан қутилишнинг энг осон воситаси сифатида қабул қилинади. Мазкур ҳолат инсон учун ҳаёт мазмунининг тугаши ва уни қадрият дея баҳоламаслигини, аксинча, охири йўқ азобларнинг тугаш манбаси сифатида тушунилишини аңглатади”.

Характернинг иродага боғлиқ бўлган хислатларидан яна бири – бу ироданинг кучли ва мустақамлиги саналади. Ушбу хислат ўзбек халқига хос миллий характерда ёрқин намоён бўлади. Ўқувчилар ўқувчиларида ироданинг кучли ва мустақам бўлишини таъминлашда ҳам бадиий асарлар ва уларда

ифодаланган образлар намунасида фойдаланиш кутилган натижаларни қўлга киритиш имконини беради. Жумладан, синфдан ва мактабдан ташқари шароитларда Ўткир Ҳошимов ҳамда Абдулла Қахқорларнинг ижодларини ўрганиш орқали ўқувчиларда иродани кучли ва мустаҳкам бўлишига интилиш ҳиссини тарбиялаш имконияти мавжуд. Бу ўринда адибнинг “Дунёнинг ишлари” қиссасидаги Зеби хола образлари орқали ўқувчиларда энг оғир дамларда ҳам ўзини тута олиш, бардошли, кучли бўлиш лозимлиги тўғрисидаги қарашларни ривожлантириш мақсадга мувофиқдир.

Иккинчи жаҳон уруши даврида ҳам турмуш ўртоғи, ҳам яққаю ёлғиз ўғли Кимсанбойдан ажралган Зеби холанинг рухий кечинмалари кўпчиликни дрдиратиб,эсанкиратиб қўяди. Бирок, бу кўргулик қанчалик оғир мусибат бўлмасин бадий қахрамон ҳам таҳликага тушмайдилар. Аксинча, қайгуларини атрофдагиларга билдиравериш, ошқор қилишдан ор қилишади. Зеби хола ўз қайгусини дутор чалиб, қўшиқ айтиш орқали бир оз унутади. Зеби холанинг қалб истироблари тўлалигича у томонидан куйланган куйдаги қўшиқда ўз ифодасини топган:

Жон болам, жоним болам, қайлардасан, бергил хабар,

Ғамда бошим, кўзда ёшим, ичганим бўлди заҳар.

Заъфарондек сарғаюрман, ҳасратингда қон ютиб,

Кўзларимнинг нури кетди, йўлларингга кўз тутиб .

Ўқувчиларида бадий асарлар орқали миллий характер хислатларини ривожлантиришда халқ томонидан олиб борилган улкан меҳнат ва шиддатли курашлар жараёнида намоён бўлган матонатнинг намуналари ҳақида маълумотлар бериб бориш мақсадга мувофиқдир.

Шундай қилиб, бадий асарлар воситасида ўқувчиларда миллий характер хислатларини ривожлантиришнинг самарали йўл ва воситалари аниқлаш бу борада амалга ошириладиган амалий фаолият муваффақиятини таъминлайди. Педагогик фаолиятни ташкил этишда унинг самарали шакл ва методлар ёрдамида амалга оширилиши ҳам муҳим аҳамиятга эга.

Фойдаланилган адабиётлар

1.Ғозиев Э.Ғ. Психология /Қасб-хунар коллежлари учун дарслик. Иккинчи нашр. – Т.: “Ўқитувчи” нашриёт-матбаа ижодий уйи. 2008. – 351 б.

2.Ҳайдаров А. Инсон камолоти ва миллий-маънавий кадриятлар. – Т.: Мухаррир, 2008. – 95-б.

3.Ҳасанбоев Ж., Туропова М., Ҳасанбоева О. Маънавий-ахлоқий тарбия асослари / Методик қўлланма. – Т.: Ғ.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 2000. – 112 б.

ТЕХНОЛОГИЯ ФАНИНИ ЎҚИТИШДА ЎҚУВЧИЛАРДА ИЖОДИЙ-ИЖТИМОЙ ФАОЛЛИКНИ ШАКЛЛАНТИРИШ ЙУЛЛАРИ

Ж.Мухитдинова НамДУ Технологик таълим кафедраси катта ўқитувачиси

М.Хайитмирзаева НамДУ

Аннотация: ушбу мақола ўқувчиларда ижодий-ижтимоий фаолликни шакллантиришда айнан Технология фани дарс машғулоти ва дасрдан ташқари машғулотлардан фойдаланиш масалаларига бағишланган.

Калит сўзлар: касбий ҳамда педагогик компетентлик, қобилият, фаоллик, дидактик таълим воситалари

Технология фанини ўқитишда ўқувчиларда ижодий-ижтимоий фаолликни шакллантириш учун касбий ҳамда педагогик компетентликларини ривожлантиришда дарс жараёнида ва дарсдан ташқари мустақил фойдаланишлари учун асосий матн, видео-тасвир, график-тасвир, анимация ва тестларни ўз ичига олиб, ўқувчининг соҳа бўйича билим ва кўникмаларини мустақамлашга ҳамда янги либослар яратишда ўйлаш, фикрлаш қобилиятларини ўстиришга ёрдам беради.

Технология фанини ўқитишда ўқувчилар ижодий-ижтимоий фаолликни шакллантириш мақсадида таълим олишда, фан бўйича билимни мустақамлашда тест топшириқларини ечишда фойдаланадилар, ўқувчиларнинг мустақил равишда билим олишлари учун қулайлик яратади. Шунингдек қўлланмада турли ижодий топшириқлар, “Кейс-стади” вазиятлари бўйича топшириқлар ва ностандарт тестлар, ролли ўйинли машғулотлар олиб бориш ҳам яхши самара беради.

Технология фанини ўқитишда ўқувчиларда ижодий-ижтимоий фаолликни шакллантириш жараёнида қўлланиладиган дидактик воситалар таълим самарадорлигини сезиларли даражада оширишга хизмат қилади. Педагогик адабиётларда дидактик воситалар қуйидагича гуруҳланади:

1. Технология фанини ўқитишнинг асосий воситалари – бу асосий ўқув мазмунига эга бўлган режалар, ўқув дастурлари, дарслик ва ўқув қўлланмаларидир;

2. Технология фанини ўқитишнинг қўшимча воситалари – бу таълим оловчилардаги билим, кўникма ва малакаларни шакллантирувчи масалалар, машқлар тўплами, маълумотномалар, таркатма материаллар, кўрсатмали ва кўргазмали воситалар, дисклар ва бошқалардир;

3. Технология фанини ўқитишни такомиллаштирувчи дастур воситалари – бу мутахассислар гуруҳи томонидан ишлаб чиқилган ва фандаги тегишли мавзулар бўйича дарс жараёнини такомиллаштиришга имкон берувчи интеллектуаллаштирилган дастурлар ва уни амалиётга жорий этишга шароит яратувчи дастурий – техник воситалардир.

Демак, дидактик таълим воситалари муайян ўқитиш методи ёки усулларини муваффақиятли амалга ошириш учун зарур бўлган ёрдамчи ўқув материалидир. Улар: асбоб – ускуналар, дастгоҳлар, лаборатория жиҳозлари,

ахборот коммуникацион технологиялари воситалари, кўрсатмали қуроллар, расмий белгилар, макетлар, дарслик ва ўқув қўлланмалари, услубий тавсияномалар ва кўрсатмалар, радио, телевидение ва интернет тармоғи ва шу кабилар.

Таълим жараёнида ўқитиш воситаларидан фойдаланиш табиий ёки тасвирий кўргазма материаллари (предмет, схема, ташкилий – тузилмавий модел, диаграмма, гистограмма, суръат ва ҳ.к.), лаборатория ёки демонстрация (намойишли) машғулотларида қўлланиладиган асбоб–ускуналари, ўқув қуроллари, макетлар, шунингдек, мавзуга оид далиллар (справочник маълумотлар, таъриф, қонун, қоида, тамойил, хосса, хусусият, формула ва ҳ.к.)нинг дарс жараёнида ишлатилишини англатади.

Технология фанини ўқитишда ўқувчиларда ижодий-ижтимоий фаолликни шакллантиришнинг муҳим воситаси фанларнинг дидактик таъминоти ҳисобланади. Ишлаб чиқилган ўқув-методик материаллар: тикиладиган кийимларни лойиҳалаш ва тайёрлаш бўйича ўқув-услубий қўлланмалар, ўқув-методик ишланмалар, тақдимотлар ўқувчиларда ишлаш учун ижодий ёндашувни шакллантириш, компьютер технологияларидан самарали фойдаланиш, билим, кўникма, малака ва компетенцияни шакллантириш имконини беради.

Таъриба-синов ишларида ўқувчиларда ижодий-ижтимоий фаолликни ошириш мақсадида илғор таълим усуллари қўллаш орқали ўқувчиларнинг билим, кўникма, малака ва компетенцияларни ривожлантириш мезонлари ишлаб чиқилди:

а) ўқувчиларнинг Технология фани орқали келажакдаги касбий фаолиятнинг ижтимоий аҳамияти ва ўзига хос хусусиятларини англаш;

б) Технология фанини ўқитиш орқали ижодий-ижтимоий фаолликни шакллантиришга қўйиладиган талаб, муваффақият ва ютуқларга интилишга эришиш;

в) Технология фанини орқали ижодий-ижтимоий фаолликни шакллантиришга ижобий ва ҳиссий муносабатни шакллантириш;

г) Технология фанини ўқитишга қаратилган қизиқиш ва мотивациянинг шакллантириш;

д) Технология фанини ўқиш орқали ижодкорлик билан ҳал қилиш қобилияти шакллантириш.

Технология фанини ўқитишда ўқувчиларда ижодий-ижтимоий фаолликни шакллантиришлик даражасини аниқловчи ижодий лойиҳа топшириқлари тузиб чиқиш ҳам яхши самара беради.

Замонавий кийимларни лойиҳалаш ва ишлаб чиқариш йўналишларидан бири кийимнинг амалий вазифаси - ким учун мўлжалланганлиги ва у нима учун ишлатилишини ўз ичига олади.

Биринчидан, кийим ким учун лойиҳаланаётганлиги аниқланади, кейин нима учун мўлжалланганлиги, кийимга қўйиладиган дизайн талаблари аниқланади.

Мақсад: Кийимни лойиҳалаш ва тайёрлашда индивидуал истеъмолчи эҳтиёжларини аниқлаш. Ишнинг мазмуни:

1) Лойиҳаланаётган маҳсулотга қўйиладиган талабни аниқлаш.

2) Истеъмолчиларнинг кийим сифати кўрсаткичларини аниқлаш.
Ўқувчиларни ишга тайёрланиш учун қуйидаги саволлар ўртага ташланади:

1. Кийим моделини яратиш гоёсининг моҳияти нима ва у нимани ифодалайди?

2. Ким учун мўлжалланган, қандай эҳтиёжларни қондиради?

3. Кийимнинг вазифаси нима?

4. Кийимнинг вазифасига кўра қандай шакл, услубни танлаш мақсадга мувофиқ ҳисобланади?

5. Гоёни шаклда кўрсатиб бериш учун қандай композицион гоёлар (ҳажми, ранги, услуби)ни қўллаш керак, унинг конструкцияси қандай?

6. Гоёни амалга ошириш учун қандай материаллар ва воситалар қўллаш керак?

7. Таклиф қилинаётган маҳсулот тежамқорми?

8. Танланган кийим модели сизга янги нима беради?

Кейин эса услубий тавсиялар ишлаб чиқилади. Дизайн талабларига ижтимоий, функционал, эстетик, эргономик, гигиеник, операцион, технологик ва иқтисодий талаблар кирди.

Ижтимоий – кийимга қўйиладиган талаб, унинг мақсади, рақобатбардошлиги, истеъмолчилар талабига мослигини аниқлайди.

Функционал – вазифани бажаришга мослигини белгиловчи даража, кийимнинг замонавий турмуш тарзига мувофиқлик даражаси, кийимни кийиш муҳити, инсон фаолияти тури, ташқи кўриниши, индивидуал услуби, истеъмолчи ўлчами ва ёш гуруҳини аниқлайди.

Эстетик - кийимларни эстетик фикрга мослиги, замонавий услуб ва модага мувофиқлиги (силуэт, бичим, ранг, материаллар тўқимаси, кичик ва декоратив деталлар шакллари), композицияни такомиллаштириш даражаси (мёморчилик, пластик ифода, шакл тектоникаси), савдо кўриниши.

Архитектоника – шакл яхлитлиги, функциянинг мувофиқлиги ва мослиги, шакли ва ранги, қисмлари ва бутунлиги ўлчамлари мутаносиблиги, маҳсулот ички тузилишини таъкил қилиш.

Пластик ифода - барча конструкторлик элементларининг аниқлиги ва гузаллиги.

Шакл тектоникаси - материалларнинг шакли, конструкцияси ва хусусиятларининг ўзаро боғлиқлиги.

Маҳсулотнинг савдо кўриниши - ташқи кўриниш, ички безатиш, фирма белгилари ифодаси билан тавсифланади.

Эргономик - маҳсулотнинг инсонга мослигини аниқлаш, инсоннинг функционал имкониятлари ва психофизиологик хусусиятларига мувофиқлиги, гигиена, маиший шароитларда фойдаланиш қулайлигини белгилайди, инсон танасининг ўлчами кийим конструкциясига мутаносиблиги, инсон танасининг шакли - мувозанат даражаси билан мувофиқлигини аниқлаш.

Гигиеник талаблар материалларни тўғри танлаш орқали таъминланади. Тола тури, тўқилиши, матонинг зичлиги, ҳаво ўтказиш хусусияти каби омилларни ҳисобга олиш керак.

Эксплуатацион – фойдаланиш жараёнида кийим сифатининг сақланиш даражаси, унинг ишончилиги, материалларнинг барқарорлиги ва чокларнинг

бириктирилиши, кийим деталлари шакли ва чегараларининг барқарорлиги, материалларнинг ва кийим конструкцияси элементларининг мустаҳкамлиги, ишқаланишга чидамлилиги, киришувчанлиги, ёруғликка таъсири, чўнтак ва тақилмаларнинг қулай жойлашиши, кийимни тозалашнинг соддалиги.

Технологик – конструкциянинг тараққиёти, ишлаб чиқаришнинг мураккаблигини, янги рационал материалларни қўллаш (қотирма, поролон, синтепон), замонавий техник жиҳозлардан самарали фойдаланишни аниқлайди. Технологик кўрсаткичлар кийим конструкцияси технологиклигини белгилайди. Кийимни технологик конструкциялаш деганда кам харажат қилиб, ишлаб чиқаришнинг прогрессив методларини қўллаш, деталлар, узеллар ва яхлит кийимнинг конструктив ечими, минимал таннарх, эксплуатацион, эргономик ва эстетик талабларга мослиги тушунилади.

Иқтисодий кўрсаткичлар ишлаб чиқариш харажатларининг иқтисодий самарадорлиги, тайёрлаш ва фойдаланишни белгилайди.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Комилова Х.Х., Хамраева Н.К. Тикув буюмларини конструкциялаш. Т., "Молия", 2003.
2. Мартынова А.И., Андреева Е.Г. Конструктивное моделирование одежды. М., 2002г.
3. Z.Davletsheva Tikuv buyumlarini tayyorlash texnologiyasi. O'quv qo'llanma. Toshkent "Sano standart" nashriyoti 2017
4. Gaipova N.S.va boshqalar. Tikuvchilik texnologiyasi asoslari. O'quv qo'llanma. T.: "Adabiyot" 2006
5. Сунцова Т.А. Легкая женская одежда. Конструирование и моделирование. М.2001 г.
6. Arzimurodova M.S., Anorqulova G.M., Qayumova F.E. Ayollar milliy ko'yilagini bichish va tikis'hni o'qitish bo'yicha o'quv-uslubiy tavsiyanoma. T.: O'MKHTTKMO va UQTI. 2007

TEHNOLOGIYA FANI MASHG'ULOTLARINI SAMARALI TASHKIL ETISH METODLARI

M.S.Usmonova, Qo'qon DPI o'qituvchisi,

M.M.Aminov, Qo'qon DPI talabasi

Respublikamizda bo'lajak texnologik ta'lim o'qituvchilarining kasbiy sifatlarini shakllantirishga qaratilgan axborot-ta'lim muhiti joriy etildi, kasbiy sifatlarni rivojlantirishni ta'minlovchi moddiy-texnik baza, me'yoriy-huquqiy hujjatlar ishlab chiqildi. O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasida "ilmiy-tadqiqot va innovatsiya faoliyatini rag'batlantirish, ilmiy va innovatsiya yutuqlarini amaliyotga joriy etishning samarali mexanizmlarini yaratish"² ustuvor vazifa sifatida belgilandi. Bu bo'lajak texnologik ta'lim o'qituvchilarining

²O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi "2017-2021-yillarda O'zbekistonda Rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida" gi PF-4947-sonli Farmoni //O'zbekiston Respublikasi Qonuni hujjatlar to'plami – T., 2017 – b. 37.

kasbiy sifatlarini shakllantirish metod va vositalarini takomillashtirish va joriy etishga sharoit yaratadi.

Bo'lajak texnologik ta'lim o'qituvchilarining (motivatsion, konstruktiv, tashkilotchilik, boshqaruvchilik, mehnatsevarlik, intizomlilik, ishlab chiqarish-texnologik kabi) kasbiy sifatleri operatsional-texnologik funksiyalarning xususiyatlarini pedagogik refleksiya tamoyillariga o'zaro o'quv va amaliy vaziyatlarni integratsiyalash muhim ahamiyatga ega.

Kadrlar tayyorlash milliy dasturida ta'lim tizimiga ilg'or pedagogik texnologiyalarni joriy qilish va o'zlashtirish zarurligi ko'p marta takrorlandi. Biz xalqimizning dunyoda hech kimdan kam bo'lmasligi, farzandlarimizning bizdan ko'ra kuchli, bilimli, don ova albatta baxtli bo'lib yashashi uchun bor kuch va imkoniyatlarimizni safarbar etayotgan ekanmiz, bu borada ma'naviy tarbiya masalasi hech shubhasiz, beqiyos ahamiyat kasb etadi. Ta'lim va tarbiyani zamonaviy texnikaning eng so'nggi yutuqlaridan foydalangan holda olib borish ham sohaning rivoji sari yetaklaydi. Kasbiy kompetensiyaga yo'naltirilgan faoliyat tuzilmasi gnostik, individual-psixologik xislatlar va umumkasbiy muhim sifatleri modellashirish orqali interfaollashtirish bosqichlari mazmunini texnologik ta'lim o'qituvchilarining kasbiy sifatlarini belgilash hamda Texnologiya fani mashg'ulotlarini samarali tashkil etish uchun multimedia, Case-study, rolli o'yinlar, Smart texnologiy kabi interfaol texnologiyalardan foydalanilsa texnologik ta'lim o'qituvchilarining kasbiy sifatlarini shakllantirish modeli texnologik ta'lim o'qituvchisiga qo'yilgan talablar asosida takomillashtirilgan bo'lar edi. Bu borada o'qituvchi va murabbiylar faoliyatini yanada takomillashtirish davr talabi hisoblanadi. Zero zamonaviy o'qituvchi endi nafaqat o'zining funksional majburiyatlarini yaxshi bajarishi, shuningdek turli jarayonlarni loyihalay olishi, yechimlar qabul qilishi va ijodiy ishlarni bajara olishi kerak. Tehnologiya fani mashg'ulotlarida ham ta'lim texnologiyalaridan biri bo'lgan multimediani qo'llash bo'yicha real ehtiyoj mavjudki, bu esa tizimda multimedia vositalarini joriy qilish bo'yicha to'xtovsiz ishlashni va tinimsiz yangilanishni talab qiladi. Chunki multimedia ta'lim va tarbiya oluvchilarga axborotning noan'anaviy manbalariga, yangi shakllariga va o'qitish metodlariga yo'l ochib beradi.

Multimedia dasturlarida axborot uchta vosita – grafika, audio va video yordamida uzatiladi. Kompyuter grafikasi yordamida shakl tuzilmasining estetik qonunlarini maksimal amalga oshirish imkoniyati paydo bo'ladi. Shu tarzda o'zida ilmiy (mazmun) va estetik (shakl) komponentlar aralashmasini namoyon qilgan tasvir yaratiladi. Bunday tasvimi yaratilishi o'quvchidan (qabul qiluvchidan) axborotni qabul qilishda minimum kuch talab qiladi. Xorijiy tadqiqotchilar o'quv materiallarining ko'rgazmaliligining quyidagi shakllarini ajratadi: illyustratsiya, mantiqiy tasvirlar va tasviriy analoglar.

Ilyustratsiyalarga fotografik tasvirlar, real voqelikning u yoki bu ob'yektining videoyozuvlari kiradi. Bu ko'rgazmalilik o'zida tasvirlanadigan obektning real dunyo bilan almashtirish elementlarini birlashtiradi. Ikkinchi belgilangan kategoriya – mantiqiy tasvirlar – o'z ichiga grafiklar, chizmalar, diagrammalar kabi shakllarni oladi. Ko'rgazmalilikning bunday kategoriyasi o'zining mental ko'rinishli tasvimi sxematikligi va shifrlanganligi bilan tasniflanadi. Mantiqiy tasvir illyustratsiyalanadigan murakkab tuzilmani iriysoddalashgan namoyishi sifatida aks

etadi. Tasviriy analoglar bevosita kuzatilayotgan tuzilmalar, obektlar yoki dalillar taqdim qilmay, balki ular murakkab g'oya va dalillarni o'zlashtirish uchun yaxshi illyustratsiya bo'lib xizmat qiladi. Tasviriy – analoglar hamma uchun yaxshi tanilgan information maydondagi butunlay yangi shakllardagi yangi kombinatsiyalar shubhasiz analoglarni qurishga asoslangan.

Multimediani yuqorida keltirilgan barcha formatlarini taqdim etishda o'quvchilarga turli multimediali darsliklar, qo'llanmalar va boshqa o'rgatuvchi dasturlardan foydalaniladi. Bunday o'rgatuvchi dasturlarni yaratishda turli dasturiy vositalar va dasturlash tillaridan foydalaniladi. Zamonaviy o'rgatuvchi dasturni yaratish uchun quyidagilar zarur:

- Dastur turini tanlash (belgilash) kerak. Bu bosqichda dasturni asosiy maqsad va vazifalari va shuningdek uni amalga oshirish vositasi belgilab olinadi.

- O'rgatuvchi dasturning nomiga mos mazmundagi joriy materiallarni to'plash – matnlar, fotosuratlar va illyustratsiyalar, audioyozuvlar, videokassetalar, kompyuter fayllari. Bu to'plangan materiallarning to'liqligi dasturni yaratishga tayyorligimiz va uning sifat darajasini anglatadi.

- Dasturning senariysini va o'qituvchini u bilan o'zaro bog'lanishlarini yozish. Bunda barcha to'plangan materiallarning dastur ichidagi qurilishi, joylashuvi belgilanadi. Ana shu yerda dasturning barcha mantiqiy imkoniyatlari belgilanadi. Senariy o'zida slaydlar (yoki fayllar) o'rtasidagi bog'lanishlarni, tuzilmasini va bu slaydlardagi o'zgarishlarni, shuningdek, tovushli va videoeffektlarni ifodalaydi.

- To'plangan materiallarni kompyuterda qayta ishlab, o'rgatuvchi dasturga qo'shish uchun tayyorlash. Ya'ni matnli, grafikli, animatsion, video, tovushli fayllarni yaratish va qayta ishlash. Ularni yaratish uchun turli dasturiy vositalardan foydalaniladi. Bunday dasturlarni qanday tipdagi material bilan ishlashiga qarab bir nechta guruhga bo'lish (grafik muharrirlar, animatorlar, audio-video muharrirlar, web-muharrirlar) va har bir guruhga bir nechta dasturlarni kiriyish mumkin.

- Senariyni muomiladagi dasturlar ko'rinishida amalga oshirish kerakki, tajribali foydalanish jarayonida materiallar va senariyga zarur o'zgartirishlar kiritish mumkin bo'lsin. Dasturlash tillarini bilmaydigan mualliflar (o'rgatuvchi dasturlar yaratuvchilari) esa vizual loyihalash dasturlaridan foydalanishlari mumkin. Professional dasturchilar esa bir qancha dasturlash tizimlarini qo'llashlari mumkin: C, C#, Visual C++, Visual Basic, Delphi, Java va boshqalar. Bu dasturlash tizimlari yuqorida keltirilgan o'rgatuvchi dasturlarning funksional imkoniyatlarini kengaytirish maqsadida foydalaniladi.

- O'qituvchilar – dastur foydalanuvchilari uchun metodik materiallar tayyorlash. Bunday materiallar dasturni ishlatish uchun foydalanuvchilarga ko'rsatma berish maqsadida mualliflar tomonidan ishlab chiqiladi.

Multimediali jo'rlik rejimida o'qituvchi doimiy nazoratni qo'lda ushlashi, o'quvchilarning ta'sirlanishlarini ko'rishlari va o'z vaqtida holatni o'zgartirish uchun ta'sir javob qaytarishi lozim. Undan tashqari multimedia darsni o'rgatuvchi samarasini kuchaytirish uchun qo'llaniladi. Bunday darsda o'qituvchi ta'lim jarayonining bosh qatnashchilaridan biri bo'lib qoladi. Ko'pincha axborotning asosiy manbasi bo'lib qoladi. O'qituvchi xoxlagan vaqtida giper havola orqali axborotning batafsil yoki to'ldiruvchi qismga o'tishi, shuningdek berilgan axborotni boshqa shakldagi (masalan,

animatsiya, video, audio va b) taqdim qilinuvchi qismlariga o'tishi va kerakli formatdagi axborotni olishi va yana ortga qaytishi mumkin bo'ladi.

Bir so'z bilan multimediyadan ta'lim va tarbiya jarayonlarida foydalanish samarali deb aytish mumkin. Ammo aynan multimediali dars nima uchun mo'ljallangan?

Quyida multimediali dars nimalarga mo'ljallangani keltirilgan:

- yangi materialni o'rganish, yangi axborotni taqdim qilish uchun;
- o'quv ko'nikma, malaka va mahoratlarni o'zlashtirish va o'tilganlarni mustahkamlash uchun;
- takrorlash, olingan bilim, ko'nikma, malakalarini amaliyotda qo'llash uchun;
- olingan bilimni umumlashtirish, tizimlashtirish uchun.

Yuqoridagilardan ko'rinib turibdiki multimedia orqali taqdim qilinayotgan mavzu bo'yicha berilayotgan materiallar o'quvchi tomonidan oson va yengil o'zlashtiriladi. Ortiqcha savol-javob va baxs munozaraga ham o'rin qolmaydi.

Foydalanilgan adabiyot:

Tursunov S.K. Elektron o'quv resurslari ta'lim samaradorligini oshiruvchi vosita sifatida. //O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi "YOsh olimlar axborotnomasi", 2011, №1, 67-b.

ТЕХНИКА ФАНЛАРИНИ ЎҚИТИШНИНГ ЎЗИГА ХОСЛИГИ

Х.Рахмонов, Қўқон ДПИ доценти в.б., т.ф.ф.д.,

И.Каримов Қўқон ДПИ доценти, п.ф.н.

Ўқитувчи ўқитиш мақсадини белгилаши ва уни албатта амалга ошириши керак. Муаммоли таълим материални танлашда ўқитувчи материални ўқувчилар ёш хусусиятига мувофиқ келишинигина эмас, балки ўша дарс ўтиладиган гуруҳ ривожланишининг умумий даражасига мослигини ҳам ҳисобга олиши, дарсни ташкил этиш шаклини, амалга ошириш метод ва воситаларини танлаш ҳам унинг вазифасига киради.

Ўқитиш индивидуал ва гуруҳ тарзида оляб борилиши мумкин. Дарснинг мақсадидан келиб чиққан ҳолда қуйидагиларни: *биринчидан*, назарий билим бериш (тушунчалар, ғоялар, қонун ва қоидаларни шакллантириш), *иккинчидан*, амалий машғулотлар (Ўқувчиларда мотор ва сенсор малакаларни, шунингдек, ўқувчининг ёши улғайган сари уни мустақил фикрлашга етаклайдиган ақлий фаолият малакаларини ҳосил қилиш), *учинчидан*, образли фикрлаш, эмоционал таълим, энг аввало этик ва эстетик таълим бериш (айрим нарсалар тўғрисида яхлит тушунчаларни шакллантириш ҳамда шу асосда ҳис-туйғу, ҳулқ-атвор кўринишларини шакллантириш ва шахснинг эмоционал жиҳатдан етуқлигини вужудга келтиришни белгилаб берадиган муносабатларни шакллантириш) сингари талабларни ажратиб кўрсатиш мумкин.

Дарснинг мақсадини белгилаш, аввало, ўқув методикасининг мазмуни ва унинг предмети билан боғлиқ. *Аниқ фанлар* ўқитилаётганда деярли ҳар бир

дарсда осонлик билан дарс мақсадини белгилаб олиш, хусусан, тушунчалар, қонунларни ўқувчи онгида шакллантиришни мақсад қилиб олиш мумкин. Физика ва химиядан лаборатория ишлари ва амалий машғулотлар, математика ва рус тилидан масала, машқлар ечиш ўқувчиларда фанга оид кўникма ва малакалар ҳосил қилишни мақсад қилиб қўяди. Бу фанлардаги айрим тушунчалар одатда кўмакчи аҳамиятга эга бўлади: улар тушунчаларни шакллантириш учун ҳиссий негиз бўлиб хизмат қилади.

Ижтимоий фанларда якка тушунчаларнинг шакллантирилиши ўқувчиларга эстетик ва этик тарбия бериш ва уларда дунёқарашни шакллантириш билан боғлиқ бўлади. Адабиёт ва тарих дарсларида ўқувчилар турли тушунча ва қонунларни ўрганиш билан бир қаторда адабий асарларнинг қаҳрамонларини, тарихий арбобларни, улар яшаган даврни ҳаёлан тасаввур қиладилар. Бу образлар уларда хис-туйғу уйғотади, конкрет мисолларда инсоннинг оламга муносабатини кўрсатиб беради. Ягона тасаввурлар мустақил этик ва эстетик мазмунга эга бўлади.

Таълим мақсадини белгилаб олиш ва уни а алга ошириш ўқитишнинг турли педагогик технологиялар орқали ҳам амалга оширилади. Бунда кишлоқ хўжалиги фанларини ўқитишда “Муаммоли вазият” технологияларидан фойдаланишни кўриб чиқамиз.

“Муаммоли вазият” – таълим олувчиларда муаммоли вазиятларнинг сабаб ва оқибатларини таҳлил қилиш ҳамда уларнинг ечимини топиш бўйича кўникмаларини шакллантиришга қаратилган методдир.

Талаба тафаккурида бирор-бир вазифа ёки муаммо юзага келиши биланок ўз функциясини бошлайди.

“Муаммоли вазият” *босқичлари*. Нарса ва ҳодисаларни чуқур таҳлил қилиш топшириқ ёки объектни ҳар томонлама мустақил мулоҳаза этиш ва муаммо тўғрисида фикр юритишга асосланади. Муаммоли вазият ўз ичига қуйидаги муҳим томонларни камраб олиши мумкин. Биринчидан, муаммонинг қўйилишини таълим олувчи тушуниб етиши, яъни топшириқ (масала ёки муаммо) англаниши (ифодаланиши)ни тушуниши; иккинчидан, муаммони ҳал этишга ёрдам берувчи восита, усул, йўл-йўриқ, операция, ақлий ҳаракатларни инсоннинг ўзи излаб топиши ва уларни маълум тизимга солиши; учинчидан, шахс муаммони ҳал этиши учун сараланган усулларни аввалги усуллардан ажратиш, яъни уларнинг салбий томонларини олиб ташлаши, қолганларидан ўз ўрнида ва тўғри фойдаланиши; тўртинчидан, инсон муаммо ечимининг тўғрилигига ишонч ҳосил қилиши учун танқидий нуқтаи назардан текшириб чиқиши кабилардир.

Юқорида ажратиб кўрсатилган босқичлар шартли, муваққат хусусиятга эга бўлиб, одамларнинг фикр юритишида алоҳида ажралиб турмасдан, балки қисқа дақиқалар (сониялар) оралиғида ўтиб кетиши мумкин. Шунинг учун бу ўринда шахс ўта зийраклик билан уларни англаб олишга ҳаракат қилиши лозим.

Муаммоли вазиятни ечишда қуйидаги таркибий қисмларга алоҳида эътибор берилиши лозим: а) муаммо мохиятига кириш; б) муаммони ечиш учун оқилона йўл, воситалар танлаш (саралаш); в) энг оптимал (мақбул) восита ёки усулни ечишга татбиқ этиш; г) муаммо ечимини текшириш; д) натижани баҳолаш.

“ТУПРОҚ ЧУҚУРЛИГИ ВА СИФАТИНИ АНИҚЛАШ” МАВЗУСИДА ИННОВАЦИОН ТАЪЛИМ ТЕХНОЛОГИЯСИНИ ҚўЛЛАШ

Х.Т. Рахмонов Қўқон ДПИ доценти в.б., т.ф.ф.д.

Таълим жараёнида инновацион технологиялардан фойдаланиш муҳим аҳамиятга эга. Айниқса қишлоқ хўжалиги соҳасига оид фанларни ўқитишда педагогик технология элементларини қўллаш орқали талабаларнинг ўзлаштириш даражасини орттиришга эришиш мумкин.

Маълумки тупроқ чуқурлиги ва сифатини аниқлаш қишлоқ хўжалигида муҳим кўрсаткичлардан бири ҳисобланади. Шунга асосан “Дехқончилик, “Қишлоқ хўжалик асослари”, “Ишчи касбини эгаллаш” каби бир қатор фанларнинг календар-тематик режасига юқорида номи келтирилган мавзу киритилган.


Таълим методининг самарадорлигини ошириш учу ўқув мақсадига дарс давомида ўқувчи-талабаларнинг ўз меҳнати, мустақил ҳаракати орқали эришмоғимиз мумкин. Бунинг учун машғулотда таълим технологиясини қуйидаги кўринишини қўллашимиз мумкин.

1. Тайёргарлик босқичи. Мавзунинг мақсади: Ерга ишлов беришда тупроқда қандай технологик жараёнлар бажарилиши, ерни сифатли ҳайдаш учун нималарга эътибор берилиши, қайси муддатларда ва чуқурликларда ўтказилишини ўрганишдан иборат эканлиги таъкидлаб ўтилади (Таълим берувчи) 10 минут.


2. Кириш босқичи. Ушбу мавзу бўйича талабаларни аввалдан эга бўлган билим ва малакалари эслатилади. Сухбат давомида таълим олувчиларнинг алоҳида мулоҳазалари умумлаштирилади. Сухбатда ҳамма таълим олувчилар фаол иштирок этишларига ҳаракат қилинади (Таълим берувчи) 10 минут.

3. Асосий қисм. Синфни 2 та кичик гуруҳга бўламиз (тенг тақсимланишига эътибор берган ҳолатда). Сўнгра бу кичик гуруҳларга етакчилар – сардорлар сайланади. Уларга А4 форматли қоғоз, рангли бўёқ қаламлар, скоч тарқатилади. Мавзу юзасидан вазиятни мустақил таҳлил қилишни, муаммони ифодалашни, ечиш топшириғи берилади.

I гуруҳ учун – “Қандай?” схемаси асосида



II гуруҳ учун – “Нима учун” схемаси асосида



Вазифа бажариб бўлингандан сўнг “Қандай?”, “Нима учун?” чизмалари кўрсаткичлари таълим олувчининг қидирувларнинг дастлабки ҳолатидан изланишгача бўлган йўналиши гуруҳ сардорлари томонидан шарҳланади (ҳар бир гуруҳ учун 5 минут).

Қондаси қуйидагича: Гуруҳдан чиққан талаба тақдимот қилиб бўлгандан сўнг камчиликни кўрсатиш ёки қўшимча қилиш ўзларининг кичик гуруҳидан сўралади, кейин навбат бошқа гуруҳга берилади (таълим олувчи). Кузги тупроқ баҳорги ҳайдовга нисбатан қандай афзалликларга эгалиги, кузги тупроқни қайси муддатларда ва чуқурликларда ўтказилиши ва талабаларнинг касбий фаолиятларида бу мавзу катта аҳамиятга эга эканлиги тушунтириб берилади (таълим бурувчи) - 15 минут.

Яқуний боскич: Уйга вазифа (ҳар бир ўқувчи-талабага кишлоқ хўжалигида ерни сифатли ишлашда қўлланилаётган янги иш қуроолларнинг тузилишини, яъни плуг корпусининг шакли ва ишчи органларини расмини дафтарга чизиб келиш топширилади.

Машғулот сўнггида ўқитувчи гуруҳларнинг ишлашини баҳолаш мезони асосида рағбатлантирилади.

- Машғулот шакли – кичик гуруҳларда ишлаш.
- Тушунтириш – тақдимот қилиш усулларидан ва “нима учун” ва “қандай” схемаси орқали етказилади.

Техник воситалардан компьютер, проектор, плакатлардан фойдаланилади.

Хулоса ўрнида айтиш жоизки, таълимда ўқитишнинг ноъананавий усулларини қўллаш орқали талабаларни мавзуларни чуқурроқ ўзлаштиришига, илмий дунёқарашни ривожлантиришига, шу билан бир қаторда уларга мустақил изланиб ўрганиш учун имконият яратишига эришилади.

МИЛЛИЙ ҚАДРИЯТЛАР АСОСИДА ТАЛАБАЛАРДА КАСБИЙ СИФАТЛАРНИ МАСЪУЛИЯТ ХУСУСИЯТИНИ, ШАКЛЛАНТИРИШ ОМИЛИ

К. А.Қутлымуратдов Ажиниёз номидаги Нукус давлат педагогика институти таянч докторанти

Таянч сўзлар: индивидуал психологик хусусият, ўқув фаолияти, масъулият, ўз-ўзига баҳо бериш.

Ключевые слова: индивидуальные психологические особенности, учебная деятельность, ответственность, зрелости, самооценка.

Key words: specific psychological peculiarities, educational activity, responsibility, youthful period, self-assessment.

Ўзбекистон ўз мустақиллигининг дастлабки йилларидан бошлаб соғлом авлодни тарбиялаб, маънавий юксалтириб вояга етказишни ўстивор вазибаларидан бири сифатида белгилаб олди. Илм - фан ва иқтисод жадал сўратлар билан тараққий этаётган бугунги кунда, талабаларда касбий сифатларни миллий қадриятлар ва ахлоқий - эстетик тарбияни шакллантириш ва мустахкамлаш долзарб ижтимоий - педагогик муаммо бўлиб келмоқда. Ҳар тамонлама баркамол шахсни тарбиялашда ахлоқий маданиятни шакллантириш энг муҳим омил ҳисобланади, чунки, ҳар бир мутахассис ахлоқий ва эстетик маданиятга эга бўлган баркамол шахс бўлиб етишмоғи лозим.

Талабаларни ҳар томонлама камол топган, жамиятда турмушга мослашган, таълим ва касб-хунар дастурларини онгли равишда танлаш ва кейинчалик пухта узлаштириш учун ижтимоий-сиёсий, ҳуқуқий, психологик-педагогик ва бошқа тарздаги шароитларни яратишни, жамият, давлат ва оила олдида уз жавобгарлигини ҳис этадиган фуқароларни тарбиялашни назарда тутати. [1,6]. Шундай экан, бугунги таълим соҳасида таълим олувчи ҳар бир ёш эртанги кун мутахассиси ҳисобланади.

Ёш авлодни ҳар жиҳатдан камол топтириш ҳозирги кунда долзарб муаммога айланган экан, талабаларнинг шахсий ва касбий сифатларини шакллантириш юқоридаги вазибаларнинг асоси ҳисобланади. Чунки инсон уз индивидуал хусусияти билан бошқалардан ажралиб туради ва ўз хатти-харакати интилиши туфайли максадлари сари муваффақиятга эришади. Инсоннинг олдига қўйган максадига эришишида асосий ролни, албатта унинг иродавий сифатларидан бири - масъулият эгаллайди. Чунки масъулият инсон ҳаётининг ҳар бир қадамида, ҳар бир ишни бажариш жараёнида зарур бўлган хусусият. Талабалар учун асосий фаолият, асосий мақсад яхши билимга эга бўлиб касбий билим ва куникмаларга эга бўлиш, келажакда ўз соҳасининг етук мутахассиси бўлиш ҳисобланади.

Х.Г.Гадамернинг таърифи буйича, масъулиятли бўлиш - воқеанинг маъзани тушунишга интилиш ва шу тушунчага мувофиқ ҳаракатланиш демакдир. Бунинг учун эса инсон тафаккури ва унинг тулаконли фаолияти зарур бўлади. Инсон агар воқеа-ҳодисанинг асосий муаммосини топса, унинг сабабини аниқлаштирсангина бу муаммонинг ечимини топиш осон бўлади. Бундай ҳолатларда инсондан кучли масъулият ҳисси талаб этилади. [1,28]. Масъулиятни тарбиялаш - ўқувчиларда ўз-ўзини бошқаришни, интизомини, ўзига-ўзи баҳо беришни тарбиялаш, уларни жамоа интизомига мустақил буйсунишга, бурчга садоқатли булишига ургатишдир [1,6].

Масъулият - булажак мутахассисларнинг керакли ва муҳим касбий сифатларидан биридир. Жамиятда мутахассисларга керак бўладиган ҳислатлар: мустақил қарор қабул қилиш ва эркин ҳаракат қила олиш, ҳоҳлаган касбий вазиятларда ўз буйнига масъулиятни олишга тайёр бўлиш, фаолияти буйича жамоада мақсад қўя олиш муваффақиятига эришишда оптимал йўлни танлай олиши керак. Айтиш мумкинки, ҳар бир касбнинг ўз мутахассисига қўйиладиган талаблари, конун қоидалари бор, ўларни бир

моделга киритадиган булсак, ўларнинг энг асосий марказида масъулият муҳим урин эгаллайди.

С.Ф. Анисимовнинг фикрича, ахлоқ масъулиятини таҳлил қилишнинг ижтимоий жиҳати, масъулият объект талаблари тўплами сифатида, жамоада жамоавий меъёр, ахлоқ принциплари кўринишида керак булган алоҳида сифат тарзида қурилади. Масъулият психологик мазмун сифатида, ўзига хос хиссиётлар: масъулият ҳисси ва ҳиссиёт формаси, мажбурият сифатида кўриниши мумкин. [5,115].

Ўқоридаги фикрни биз тадқиқотимиз объекти талабалар ўқув жараёнига мос бўлади. Чунки улар ўқиш давомида гуруҳдаги тенгдошлари билан ўзаро шахслараро муносабатга киришади ва юксак инсонийлик фазилатлари ёрдамида инсонда шахсий масъулияти бир-бирига нисбатан номоён бўлади. Инсон бирор бир ишни бажариш жараёнида ундаги иродавий сифатлар синовдан ўтади.

Ҳар қандай муаммонинг ечими - ишни талаб даражасида бажариш учун ҳам масъулият ҳисси керак бўлади. А.Ф. Плахотный [7,128] ижтимоий масъулиятни “Ўз-ўзига тегишли умуммуносабатларнинг ўзига хос бир шакли”, деб тушунтиради. Бунга кура масъулият даражаси ижтимоий аниқланган меъёрлар ва талаблар интериоризация (ижтимоий фаолият сифатида)сининг даражаларини аниқлайди. Назаримизда масъулият доирасида шахсий фикрга эга булиш, шахсий тизим сифатида ташқи хулқ ифодаланиши керак. А.Ф.Плахотный масъулиятнинг функцияларини белгилаб, у ён атрофдаги ҳаракатлар, воқеалар хулқнинг бошқарилиши ва баҳоланишида муҳим эканига катта эътибор қаратиш кераклигини уқтиради. Бундан кўринадики, тадқиқотчи масъулиятни ижтимоий фаолият сифатида тадқиқ қилган. К.Муздибаевнинг фикрича, масъулият шахснинг ижтимоий типларидан бирини характерлайди. Бунга кура, инсонга роли мажбуриятларни бажаришда ва узининг ишларига ҳисоб беришда, хулқида жамоадаги умумқабул қилинган ижтимоий нормаларга буйсинош такоза этилади. [7,183]

Ўқув фаолияти инсон шахсининг камол топишида энг муҳим жиҳатлардан биридир. Шу жумладан талаба шахси учун ҳам бу жараён уларнинг асосий фаолият тури булибгина қолмасдан, характер сифатларини шакллантирувчи жиҳат ҳисобланади. Фаолият нуктаи назаридан масъулият рус олимлари томонидан урганганидан бўлиб, масъулият бажарилаётган ишда муваффақиятга эришишга таъсир қилишини, фаолиятни шакллантириши ва ривожлантиришини асослаб беришга ҳаракат қиладилар.

Бизнинг фикримизча, масъулият ўзи ва бошқалар, жамоа олдидаги ўз ҳатти-ҳаракатлари учун масъулликни буйнига олиб, шахснинг ўз-ўзини бошқариши ва хулқ-атворини шакллантирувчи энг асосий характер сифатидир.

Талабаларга ахлоқ - ижтимоий онг, таъсир этиш ва тарбия шакли эканлиги, шарқ мутафаккирларининг ахлоқий қарашлари, ахлоқий тарбиянинг моҳияти ва мазмуни, оилавий ҳаётга ахлоқий тайёргарлик нималардан иборат эканлигини ўргатишимиз мумкин. Масалан, шарқ мутафаккирларининг бир нече ахлоқий

қарашларини келтиришимиз мумкин: Фаробийнинг фикрича “Ўзида ун икки тугма ҳислатни бирлаштирган кишигина ахлоқли бўла олади” [2,186] - деб таъкидлайди. Абу Райхон Беруний ўзининг бир неча асарларида комил инсон тарбияси ахлоқий фазилатлар билан юксак бўлишини таъкидлайди ва уни инсон руҳияти билан бевосита боғлайди. У ахлоқ тарбияси ҳақида тухталиб, «Кишиларни юқтимой камолга етказиш ипи фан ёрдами билан тарбияланадиган юксак ақлий ва ахлоқий мезонларни ҳамма жойда жорий қилиш жараёнида амалга оширилади» [10,127] деб таъкидлайди. “Ахлоқ - бу одамнинг ўзини идора қила олишидир” [11.5] ва «Билим яхши ахлоқ билан мустаҳкамланмоғи керак» [12,198] - деб таъкидлайди Абу али Ибн Сино. Алишер Навоий инсон ҳаётининг асл мақсади одамийлик, ана шу мезонга эга булган инсон комил инсон була олади деб уқтирган. [4,232]

Машҳур ўзбек педагоги Абдулла Авлоний ахлоқ тушунчасига тўхталар экан “Инсонларни яхшиликка чакирувчи, ёмонликдан қайтарувчи бир илмдир. Яхши хулқларнинг яхшилигини, ёмон хулқларнинг ёмонлигини далил ва мисоллар ила баён қиладургон китобни ахлоқ дейилур» [5.7]- деб таъриф беради.

Ўзбек халқининг огзаки ва ёзма манбаларини, халқ дostonлари орқали мардлик, халоллик, ватанпарварлик каби хусусиятларни, Ўзбек оилаларидаги фарзандга бўлган муносабатларни ва тарбия турларини ҳамда ривожланган мамлакатларнинг таълим-тарбия масалаларини ўрганиб олишлари мумкин. Соф инсоний фазилатлар: саҳийлик, хушмуомалалик, олийжаноблик, халоллик, инсонпарварлик ва бошқа ахлоқий - эстетик сифатлар сингдирилади.

Хулоса ўрнида шуни айтишимиз мумкинки, барча педагогик фанлар талабарни юксак маънавиятли, мустақил фикрловчи, комил инсон учун зарур булган барча ҳислатларни шакллантиришга ва ривожланган мамлакатлар даражасида рақобатбардош кадр тайёрлашга хизмат қилади.

Резюме: Маколада талабаларда касбий сифатларни миллий кадриятлар ва ахлоқий ва эстетик тарбияни шакллантиришга қаратилган вазифалар ёритиб берилган.

Адабиётлар

- 1.Алламуратова М. «Уқув фаолиятига масъулият ҳиссини тарбиялаш». - Т.;1990.59
- 2.Абу Наср Форобий. Фозил одамлар шаҳри. -Т; “Абдулла Қодирий номидаги Халқ мероси нашриёти”, 1993.
3. Абдулла Авлоний. Туркий гулистон ёхуд ахлоқ -Т; “Уқитувчи”, 1992.
- 4.Алишер Навоий “ Хайрат - ул аброр” 7 том -Т; “Фан”, 1991.
5. Анисимов. С. Ф. Мораль и поведение. -М.; 1979.
- 6.Муздибаев К. Психология ответственности. -Л.; «Наука», 1983.
7. Плахотный А.Ф. Проблемы социальной ответственности. Вища Школа, Изд.во при ХГУ, 1981г. -Харьов
8. Кадрлар тайёрлаш миллий дастури. (Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг Ахборотномаси, 1997 й., 11-12-сон.

9. Ходиев Б.Ю., Болтабоев М.Р., Хошимова М.К., Акрамова Ф.А., Эргашева Д.Д. Олий ўқув юртидаги тарбиявий ишларга психологик ёндашувлар -Т; "Иктисодиёт", 2008.

10. Қодиров.Б. Комил инсон тарбиясининг педагогик асослари -Т; "Мехнат", 2001.

11. Юсупов.Э, Исмоилов. Ф. Одабийлик сабоқлари -Т; "Фан",1997.

12. Носирхужаев., Лафасов И, Зарипов. Маънавият асослари -Т; "Фан", 1995.

UMUMIY O'RTA TA'LIM MAKTABLARIDA O'QUVCHILARNI KASB - HUNARGA YO'NALTIRISH

L.Atabekova, N.Nosirov- Farg'ona viloyati Quvasoy shaxar 5-umumiy o'rta ta'lim maktabi texnologiya fani o'qituvchilari

Анотация: Maqolada umumiy orta ta'lim maktablarida o'quvchi-yoshlarni kasb-hunarga yo'naltirish ishlari bo'yicha tavsiyalar berilgan

Annotation: The article provides recommendations for career guidance in general secondary schools

Аннотации. В статье даны рекомендации по профориентации в общеобразовательных школах

Таянч сўз ва иборалар: kasb-hunar, o'quvchi-yoshlar, maktab, oila, maxalla, kim bo'lsam ekan, qanday inson bo'lish kerak

Keywords and expressions: profession, students, school, family, community, who I am, what kind of person I should be

Ключевые слова и выражения: профессия, студенты, школа, семья, район, кто я, каким человеком я должен быть

Har bir shaxs tug'ilib balog'at yoshiga yetgunga qadar kimgadir havas qilib bir kasbni tanlashga harakat qiladi. Kasbni to'g'ri tanlash insonning hayot turmushida muhim qadamdir, yosh avlodning butun hayotidagi muvaffaqiyati ko'p jihatdan kasbning qanchalik to'g'ri tanlanishiga bog'liqdir. Kasbni to'g'ri tanlash har bir maktab o'quvchisining xarakteriga, qiziqishiga, mayliga, qobiliyatiga va imkoniyatlariga mos bo'lishi uchun, uning sog'lig'ini, qiziqishini egallashi lozim bo'lgan kasb talabalariga javob berishini hisobga olish lozim. Inson bajarayotgan ishlariga ijodiy munosabatda bo'lib, mehnat unumdorligini doimo oshirib borsa, o'z ishining ijtimoiy ahamiyatini tushunsa, uning qobiliyatlari mehnatda takomillashib borsa, o'shandagina u mehnatdan qoniqish hosil qiladi va xursand bo'ladi, bunday holatda har bir shaxsni jamiyatga eng ko'p naf keltiradi. Kasb-hunar egalari qadimdan e'zozlanib kelingan. Bizning yurtimizda ham ularga nisbatan hurmat-extirom ko'rsatilib, o'zligimizni anglash tufayli yanada jamiyatimizda bilimdon mustaqil fikrlovchi, ijodiy izlanuvchi, yuqori malakali, ma'naviyatli turli sohalar bo'yicha moxir kasb egalari tobora ko'proq talab qilinmoqda. O'zbekiston Respublikasi hukumati tomonidan ishlab chiqarilayotgan qaror va nizomlarida mutaxassis va kadrlar tayyorlash masalasiga juda katta ahamiyat berilmoqda va ular uchun alohida shart-sharoitlar, imkoniyatlar yaratib berilmoqda. "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" da ko'rsatib o'tilganidek, mehnat va kasbiy tayyorgarlik sifatini yanada yaxshilash,

uzluksiz ta'limning faol metodlarini qo'llash, yangi pedagogik texnologiyani amaliyotga tatbiq etish, ta'limi va tarbiya birligi tamoilini sobitqadamlik bilan amalga oshirish lozimligi ta'kidlanadi. Bugungi kunda Davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan ta'lim jarayonida amalga oshirilayotgan islohatlar jarayonida asosiy bo'g'in bo'lib hisoblangan umumiy o'rta ta'lim maktablari faoliyatining muhim vazifalaridan biri, o'quvchi-yoshlarni hayotga tayyorlash hamda ularning qiziqayotgan kasb-hunarlariga yo'naltirishdan iboratdir. Bu jarayon to'g'ri tashkil etilganida o'quvchi-yoshlarda bo'lgan kasbiy faoliyat sub'ekti sifatida shakillanishi ta'minlanadi.

Kasbning to'g'ri tanlanishi kelgusida etuk hunarmandlar va malakali mutaxassislar tayyorlash omilini ko'paytiradi. Shuni ta'kidlash joizki, kasbga to'g'ri yo'naltirish o'quvchi-yoshlarning hayotida o'z o'rnini egallashga yordam beradi. Umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'quvchilarining kasb tanlash borasidagi fikrlari bir tomonlama xususiyatga ega bo'lib tanlagan kasbining mazmun-mohiyatini va ijtimoiy o'rnini to'laqonli ochib bera olmaydi. Umumiy o'rta ta'lim maktablarida kasb-hunarga yo'naltirish ishlari direktorning ma'naviy-axloqiy ishlar muovini boshchiligida, sinf rahbari, maktab psixologi, kasb-hunarga yo'naltiruvchi fan o'qituvchilari tomonidan amalga oshiriladi. Ularning asosiy vazifalari quyidagidan iborat:

Mehnatga nisbatan ijobiy munosabat hosil qilish.

Kasbiy faoliyatining tarkibini tushuna olish.

Tanlangan kasbi bo'yicha o'quvchi-yoshlar tomonidan talab etiladigan shaxs xususiyatlarini bilish va ularni tashkil etish.

O'z imkoniyatlarini va qobiliyatlarini ob'ektiv baholay olish va ulardan foydalanish.

Umumiy o'rta ta'lim maktablarida kasb-hunarga yo'naltiruvchi mutaxassislarning asosiy vazifasi o'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirishni ta'minlovchi barcha ma'lumotlar bankini yaratishdan iboratdir. Umumiy o'rta ta'lim maktablarida kasb-hunarga yo'naltiruvchi mutaxassislar tomonidan o'quvchilarni kasbiy qiziqishlarini, kasblar haqidagi ma'lumotlarni to'liqroq anglab yetishi, shuningdek, ularning kasb-hunar tanlashdagi reallikni vujudga keltirish maqsadida umumiy o'rta ta'lim maktablarida ilg'or, o'rnak bo'la oladigan kasb egalari, kasb faxriylari bilan uchrashuvlar, davra suhbatlari, kechalar va ma'ruzalar etilishi lozim. Bu tadbirlar o'quvchining tanlagan kasbga bo'lgan qiziqishini yanada rivojlanishini vujudga keltiradi. Kasb-hunar tanlashga to'g'ri yo'naltirish chora tadbirlari dolzarb masala darajasiga qo'yilishi o'quvchilarni o'zining hayot yo'lini, hayotda o'rnini topishini ta'minlashga xizmat qiladi. Buning uchun umumiy o'rta ta'lim maktablarida quyidagi ishlar amalga oshirilishi tavsiya etiladi:

Maktabda kasbiy ma'lumotlar berish;

Kasb-hunarga yo'llash ishlari bilan hamma birdek shug'ullanish;

Video, televideniya, kino, matbuotlarda tashviqot qilish;

Kasb-hunar yuzasidan maslahatlar uyushtirish;

Kasb-hunar bo'yicha layoqatlarini aniqlash (anketa o'tkazish);

Kasbni saralash (qobiliyatiga binoan mos holatdagisini taklif etish);

Kasb-hunar bo'yicha dastlabki ko'nikma va malakalar hosil qilish va boshqalar.

Har qanday kasb-hunarni egallash eng muhimi uning sitqi-dildan qilinadigan mehnatiga, sabr-toqatiga va matonatga ega bo'lishidir. Shu boisdan o'quvchi-

yoshlarda ham mehnatsevarlikni, urf-odatlarimizni qadrlash va ularni mehnat qiyinchiliklarini o'tishga o'rgatish kasb-hunarga tayyorlashning bosh negizidir. Oilada bolani mehnatsevarlik ruvida tarbiyalash odatda maktabgacha bo'lgan yoshdan boshlanishi kerak. Ana shu paytdan e'tiboran bolalarni bo'lg'usi kasb-hunarni tanlashga tayyorlash ishlarini amalga oshirilishi lozim. Bunda bolalarning qiziqishlari, mayllari, qobiliyat va imkoniyatlarini muntazam ravishda kuzatib borish zarur bu albatta ona-onaning vazifasi bo'ligi darkor. Kasb-hunar tanlashda xato qilmaslik uchun o'quvchi-yoshlarga asosan umumiy o'rta ta'lim maktablari, oila hamda maxilla yordam berib kelmoqda. O'quvchilar yaxshi, aqliy, jismoniy, axloqiy, mehnat va estetik tarbiyani va shu bilan birga politexnik ma'lumotni ola turib shu asosda o'zlarini kasbiy faoliyatiga tayyorlashlari mumkin. "Kim bo'lsam ekan?", "Qanday inson bo'lish kerak" muammosi birgalikda hal qilinishi lozim. Xulosa qilib aytganda, o'quvch-yoshlarni kasb-hunarga yo'naltirishdagi oldimizda turgan muammolarni bartaraf qilish yo'llarini ishlab chiqish, berilgan tavsiyalarga to'g'ri amal qilgan holda o'quvchilarimizni hayotda o'z o'rnini topishda tanlagan kasbning ahamiyati nechog'li muhim ekanligi namoyon bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. T.: 1997. y.
2. "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi". T.: 1997 yil.
3. Sh.M.Mirziyoyev "Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz.Toshkent: - „O'zbekiston“ 2017 yil.
4. Sh.M.Mirziyoyev "Niyati ulug' xalqning ishi ham ulug', hayoti yorug' va kelajagi farovon bo'ladi" -Toshkent, O'zbekiston, 2019 yil.
5. O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2017-2021 yillarda O'zbekistonni rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha harakat strategiyasi. 7 yanvar 2017 yil.
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Sh.M Mirziyoyevning Oliy majlisga murojatnomasi 24 yanvar 2020 yil.
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF - 4947 sonli farmoni.
8. Sh.S.Sharipov, K.Davlatov, G.S.Nasriddinova "Kasbga yo'naltirishning ilmiy-pedagogik asoslari" O'quv qo'llanma. Toshkent. 2007 yil.

Internet saytlari

<http://ziyonet.uz>
www.uzkitob.uz
www.kitobim.uz
www.google.uz

ТЕХНОЛОГИЯ ДАРСЛАРИНИНГ ТАРБИЯВИЙ АҲАМИЯТИ

В.А. Хамдамова ҚДПИ кўқитувчиси

АННОТАЦИЯ: Технология таълими амалий машғулотларининг тарбиявий хусусияти ва техник билимларнинг билан узвий боғланиши. Технология таълими жараёнида ўзлаштирилган билимлар ва кўникмаларнинг

Ўзaro боғланиши ҳамда узвийлигини ифодаловчи ўқув ахбороти мазмунидан фойдланиш асосида меҳнат таълимнинг мавжуд йўналишлари асосида ихтисосларга қизиқишни шакллантириш бўйича ўқитувчи билан ўқувчиларнинг ўзaro ҳамкорлиги ташкил этиш оид масалалари ёритилган.

АННОТАЦИЯ: Раскрыты основные вопросы и тенденции взаимосвязи технических знаний и воспитательных аспектов практических занятий технологии подготовки. Преemptственность усвоенных знаний и навыков в данных условиях, а также формирование интереса к специальности на основе использования учебно-информационного материала.

Mustaqillik yillarida mamlakatda huquqiy demokratik davlat, kuchli fuqarolik jamiyati qurishga, erkin bozor munosabatlariga va xususiy mulk ustuvorligiga asoslangan iqtisodiyotni rivojlantirishga, xalq osoyishta va farovon hayot kechirishi uchun shart-sharoitlar yaratishga, ta'lim, madaniyat, ilm-fan, adabiyot, san'at va sport sohalarini rivojlantirishga, xalqaro maydonda O'zbekistonning munosib o'rin egallashiga qaratilgan kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yilning 7 fevraldagi PF-4947-son "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi farmoni³ asosida 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi qabul qilindi.

Harakatlar strategiyasida mamlakatni rivojlantirishning quyidagi 5 ta ustuvor yo'nalishi belgilangan:

1. Davlat va jamiyat qurilishini takomillashtirish;
2. Qonun ustuvorligini ta'minlash va sud-huquq tizimini yanada isloh qilish;
3. Iqtisodiyotni yanada rivojlantirish va liberallashtirish;
4. Ijtimoiy sohani rivojlantirish;
5. Xavfsizlik, millatlararo totuvlik va diniy bag'rikenglikni ta'minlash, chuqur o'ylangan, o'zaro manfaatli va analiy ruhdagi tashqi siyosat yuritish.

Технология дарсларининг тарбиявий аҳамияти вазифаларни ўқитишнинг мазмуни, шунингдек ўқув ишларининг ташкилий шакл ва методлари орқали амалга оширишдан иборат. Хар бир тараққиёт босқичига ўтишнинг шартли фақат меҳнат унумдорлигини мунтазам ошириш ва моддий неъматлар мўл-қўллигини яратишдан иборат бўлиб қолмасдан, балки ёш авлодда юксак ахлоқий сифатларни тарбиялашдан ҳам иборат. Бу энг аввало жамият манфаатлари йўлида қилинадиган жараёнида шаклланади.

Технология жараёнида ўқувчиларда асбоб-ускуналар, материаллар, устахона биноларига, ўқув вақтида тежамкорлик билан муносабатда бўлиш хисси тарбияланади. Ўқув устахоналаридаги меҳнат маданияти – иш ўрнини ташкил этиш ва ўқув-меҳнат машгулотларини тўғри режалаштириш; меҳнат ва касб таълим дарсларини қўл асбоблари билан бир қаторда турли мосламалар билан таъминлаш ҳам катта аҳамиятга эга, негаки улар фақат ўқувчиларнинг иш сифатини яхшилаб қолмасдан, айни вақтда меҳнат унумдорлигини ҳам оширади.

³ O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017 y., 6-son, 70-moddasi.

Ўқитувчининг меҳнат ва ҳунар усуллари кўрсатиш вақтидаги шахсий намунаси, унинг умумий маданияти ўқувчилар учун кучли тарбиявий восита бўлиб ҳисобланади.

Технология дарсларининг амалий машғулот жараёнида дастур мавзунинг мазмунини очиқ беришда, меҳнат ва касб таълими ҳамда тарбиясининг мақсадлари, вазифалари амалга оширилади.

Демак, амалий машғулот деганда ўқувчиларнинг ўқув материаллини фаол, онгли ва мустақкам ўзлаштириши мақсадида меҳнат ўқитувчиси (ишлаб чиқариш таълими устаси) раҳбарлигида амалга оширилсагина ҳам жамоа, ҳам яқка тартибдаги иш турларини ўз ичига оладиган ўқув-меҳнат фаолиятини аниқ ташкил этишни тушуниш керак.

Технология соҳасидаги амалий машғулотлар турли типда бўлиши, яъни янги техник-технологик маълумотларни ва меҳнат жараёнларини ўрганишга, билимларни, меҳнат кўникмалари ва малакаларини мустақкамлашга, назорат қилиш-текшириш ишлари, корхоналарга экскурсиялар ўтказиш ва ҳоказоларга бағишланган машғулотлар бўлиши мумкин. Лекин ўқув устахоналарида ўтказиладиган амалий машғулотларнинг турлари хилма-хил бўлишига қарамасдан, уларнинг ҳаммаси қуйидаги умумий талабларга мос келиши лозим:

1. Машғулотнинг мақсади ҳамда вазифалари аниқ ва равшан ифодаланган бўлиши лозим.
2. Машғулотнинг тузилиши дидактик жиҳатдан ўзини оқлаган ва ўқув материаллининг мазмунига тўлиқ жавоб берадиган бўлиши керак.
3. Амалий ишларнинг объектлари тўғри танланиши, ижтимоий фойдали аҳамиятга эга бўлиши ва ўрганиладиган технология жараёнлари ва усуллари талабларига мувофиқ келиши зарур.
4. Машғулотларда фойдаланиладиган методлари дарс талабларига ва ўқув материалларининг мазмунига тўлиқ жавоб бериши лозим.
5. Ўқув устахоналаридаги машғулотларнинг ташкилий-методик тузилиши ўқувчилар билан жамоа тарзида ва яқка тартибда иш олиб боришини назарда тутиши керак.
6. Технология фани бўйича амалий машғулотларда ўтказиладиган таълим ишлари тарбиявий аҳамиятга эга бўлиши, яъни мактаб ўқувчиларида маънавий сифатларни таркиб топтиришга ёрдам бериши лозим.

Амалий машғулот турларининг хилма-хиллигига қарамасдан, улардаги умумий дидактик томонларни ҳам таъкидлаб ўтиш керакки, булар ўқувчиларни навбатдаги ўқув материаллини ўзлаштириш учун жалб қилишга қаратилган машғулотларни уюштириш; ўқувчилар илгариги машғулотда ўзлаштирган билимлар, меҳнат кўникмалари ва малакалари даражасини текшириш; янги материаллини тушунтириш ва меҳнат жараёнларини ҳамда амалий ишларни бажариш вақтида меҳнат усуллари кўрсатиб бериш; ўқувчиларнинг янги мавзуга оид жараёнларни ва ишларни бажариш вақтида уларнинг билими, меҳнат усуллари даражасини аниқлаш; меҳнат усуллари машқлар билан

мустаҳкамлаш ва уларни дастлабки меҳнат кўникмалари даражасига етказиш, бунда технология ўқитувчисининг пухта назорат қилиши ва ўқувчиларнинг ўз-ўзини назорат қилишига эришиш; амалий топшириқнинг мустақил бажарилиши ва ўтган машғулотнинг натижаларига яқун ясашдан иборат.

Технология дарсларида методларини ривожлантириш ва такомиллаштиришда психолог ва физиологларининг, айниқса ўқувчиларда меҳнат кўникмалари ва малакаларини таркиб топтириш, уларнинг мазмуни ва таснифи соҳасидаги, меҳнат фаолиятининг ақлий жиҳатларини, шаклларини, ҳозирги замон ишлаб чиқариши ходимлари учун хос бўлган ижодий фаоллик, ташаббускорлик ва бошқа муҳим сифатларини текшириш соҳасидаги тадқиқотлари муҳим аҳамиятга эгадир.

Таълим жараёнининг, хусусан ўқувчилар меҳнат ва касб фаолиятининг тезлашувчи хилма-хил махсус тренажёрлар рўйхатга олувчи ва текширувчи қурилмалар ишлаб чиқиш ва улардан фойдаланишни зарур қилиб қўйдики, бу қурилмалар ўқувчиларнинг меҳнат ҳаракатларини қайд қилиш ва иш вақтида йўл қўйиладиган камчиликлар тўғрисида тезда хабар етказиш имконини беради. Ўқувчиларнинг ана шундай тренажёрлардан ва текширувчи қурилмалардан фойдаланган ҳолда турли машқлар ўтказиш, айниқса меҳнат усулларини таркиб топтиришнинг бошланғич босқичида, меҳнат ва касб таълимининг энг муҳим методларидан биридир.

Фойдаланган адабиётлар:

1. Муслимов Н. ва б. Т. Меҳнат таълими ўқитиш методикаси. Ўқув қўлланма. –Т.: 2009 427 б.
2. Қўйсинов О.А., Сатторов.В.Н., Якубова Ҳ.С. Меҳнат таълимидан амалий машғулотларни ташкил этиш методикаси. (Методик қўлланма). Т.: Низомий номли ТДПУ, 2011. 79 б.
3. Шарипов Ш. С., Абралова М. Мактаблар ўқув ва ўқув ишлаб чиқариш устахоналари учун ҳавфсизлик техникаси ва ишлаб чиқариш санитарияси қоидалари. Методик ёрликнома. –Т: РТМ. 2002.
4. Шарипов Ш.С., Жалилов Т. Меҳнат таълими устахоналари учун давлат таълим стандартларига мувофиқ кўргазмали қурооллар рўйхати. Методик қўлланма. Тошкент, Республика таълим маркази. 2002.
5. Шарипов Ш.С, Якубова Ҳ.С. Меҳнат таълими методикаси фанидан лаборатория машғулотлари. Методик қўлланма. Тошкент-2008.

Электрон таълим ресурслари

1. <http://www.istedod.uz>
2. <http://www.pedagog.uz>
3. <http://www.zivonet.uz>
4. <http://www.tdpu.uz>
5. <http://www.Abduodirov.pbnet.ru>

OLIV TA'LIM TIZIMIDA FAOLIYAT KO'RSATUVCHI PEDAGOGLARNI TAYYORLASHDA TA'LIM JARAYONIDA QO'LLANILADIGAN INNOVATSION USULLAR

Sh.Sh.Shuxratov Farg'ona davlat universiteti, PhD
Sh.Shuxratova Farg'ona davlat universiteti katta o'qituvchi,
X.X.Axmadjonova Farg'ona davlat universiteti, magistr

Annotatsiya. Ushbu maqola zamonaviy ta'lim sharoitida innovatsion ta'lim texnologiyalarini qo'llay oladigan kadrlarni qanday tayyorlashni o'rganadi. Bundan tashqari, zamonaviy ta'lim muassasalarida qo'llanilishi mumkin bo'lgan bir qator innovatsion usullar o'rganilmoqda.

Аннотация. В данной статье исследуется, как подготовить кадры, которые могут применять инновационные образовательные технологии в современной образовательной среде. Кроме того, ряд инновационных методов изучаются, которые могут быть применены в современных образовательных учреждениях.

Annotation. This article examines how to train personnel who can apply innovative educational technologies in the modern educational environment. In addition, a number of innovative methods are being studied that can be applied in modern educational institutions.

Zamonaviy sharoitda talabalarining o'quv-bilish faolliklarini kuchaytirish, o'qitish sifatini oshirish va samaradorligini yaxshilash maqsadida innovatsion xarakterga ega ta'lim shakllaridan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Bugungi kunda amaliy o'yinlar, muammoli o'qitish, interfaol ta'lim, modul-kredit tizimi, masofali o'qitish, blended learning (aralash o'qitish) va mahorat darslari ta'limning innovatsion shakllari sifatida e'tirof etilmoqda.

O'yin shaxsning tarbiyalash, rivojlantirish, unga ta'lim berish xususiyatlariga ega. Mavjud hususiyatlari tufayli o'yinlar qadim-qadimdan xalq pedagogikasining muhim asoslaridan biri bo'lib kelmoqda. Bevosita o'yinlar bolalarda idrok, sezgi, xotira, tafakkur, nutqni rivojlantirishga yordam berish orqali ularni ma'naviy-axloqiy, aqliy, jismoniy va estetik jihatdan tarbiyalashga xizmat qiladi "Maktabgacha yoshdagi bola o'yin faoliyatida o'qish va mehnatga tayyorlanadi. Yosh ulg'aygan sari o'yinning roli biroz kamayib boradi. O'yinlarning tarbiyaviy ahamiyati bolaning butun hayoti davomida saqlanib qoladi" [1].

O'yin texnologiyalari. Pedagogik maqsadda foydalanilayotgan o'yinlar o'yin texnologiyalari deb nomlanadi. O'yin texnologiyalari (o'yin ta'limi) – ijtimoiy tajribalarni o'zlashtirishning barcha ko'rinishlari: bilim, ko'nikma, malaka hamda hissiy-baholovchi faoliyat jarayonini hosil qilishga yo'naltirilgan shartli o'quv vaziyatlarini ifodalovchi shaxsga yo'naltirilgan ta'lim (pedagogik texnologiya) turlaridan biri [2].

Pedagogik o'yinlar. O'quv jarayonida o'yin texnologiyalarining o'rni, roli, shuningdek, o'yin elementlari hamda ta'limning o'zaro uyg'unligi ko'p jihatdan o'qituvchi tomonidan pedagogik o'yinlar mohiyati, funksiyasi va turlarining qanchalik tushunilishi bilan belgilanadi. Har qanday o'yinlar kabi pedagogik jarayonlarda foydalaniladigan o'yinlar ham o'zining aniq maqsadi va natijasiga ega bo'ladi [3].

Hozirgi oliy maktabdagi samarali o'qitish texnologiyasi muammoli ta'limdir. Uning vazifasi faol bilish jarayoniga undash va tafakkurda ilmiy-tadqiqot uslubini

shakllantirishdir. Muammoli ta'lim ijodiy faol shaxs tarbiyasi maqsadlariga mos keladi [4].

Muammoli ta'lim – bu talabalarda ijodiy izlanish, kichik tadqiqotlarni amalga oshirish, muayyan farazlarni ilgari surish, natijalarni asoslash, ma'lum hulosalarga kelish kabi ko'nikma va malakalarni shakllantirishga yo'naltirilgan ta'limdir.

Muammoli ta'limning asosini **muammo** (yun. "to'siq", "qiyinchilik") yoki **muammoli vaziyat** tashkil etib, muammoli ta'lim texnologiyasi ularning yechimini topishga xizmat qiladi. Ko'p holatlarda muammo va muammoli vaziyat sinonimlardek qabul qilinadi. Aslida esa ular bir-biridan farq qiladi.

Muammo (yunon. "to'siq", "qiyinchilik", arab. "jumboqli", "sirli", "tushunilishi qiyin") – hal qilinishi muhim nazariy va amaliy ahamiyatga ega bo'lgan masaladir.

Pedagogika sohasida ko'p holatlarda "muammo" tushunchasi tashkiliy-pedagogik, psixologik, ta'limiy va tarbiyaviy masalalarni hal qilishda qo'llaniladi. Soha nuqtai nazardan pedagogik jarayonda didaktik xarakterdagi, amaliy xarakterdagi, ilmiy-metodik xarakterdagi, sof ilmiy xarakterdagi muammolarga murojaat qilinadi va ma'lum bilimlar, noma'lum bilimlar va mavjud tajriba muammoning tarkibiy qismlari sifatida namoyon bo'ladi [5].

Pedagogik muammo – hal qilinishi zarur, biroq, hali yechish usuli noma'lum bo'lgan pedagogik xarakterdagi masaladir.

Pedagogik jarayonda talaba "muammo"ga emas, balki muammoli vaziyatga ro'para qilinadi.

Muammoli ta'lim texnologiyalari – bu talabalarda ijodiy izlanish, kichik tadqiqotlarni amalga oshirish, muayyan farazlarni ilgari surish, natijalarni asoslash, ma'lum hulosalarga kelish kabi ko'nikma va malakalarni shakllantirishga xizmat qiladigan ta'lim texnologiyalaridir [6].

Zamonaviy sharoitda talabalarning o'quv-bilish faolliklarini kuchaytirish, o'qitish sifatini yaxshilash va samaradorligini oshirish maqsadida amaliy o'yinlar, muammoli o'qitish, interfaol ta'lim, modul-kredit tizimi, masofali o'qitish, blended learning (aralash o'qitish) va mahorat darslari ta'limning innovatsion shakllari sifatida e'tirof etilgan ta'lim tizimida muvoffaqiyat bilan foydalanilmoqda. Biz quyida amaliy o'yinlar, o'qitishning modulli-kredit, "Assesment" va "Vebinar" texnologiyalarining o'qitish jarayonida innovatsion faoliyat ko'rsatuvchi pedagoglarni tayyorlashdagi ahamiyati haqida quyidagicha hulosaga kelindi:

- o'qitish sifatini yaxshilash va samaradorligini oshirishda o'qitishning amaliy o'yinlar dars shakli shaxsni tarbiyalash, rivojlantirish, unga ta'lim berish hususiyatlariga ega bo'lib, mavjud hususiyatlari tufayli o'yinlar qadim-qadimdan xalq pedagogikasining muhim asoslaridan biri bo'lib kelmoqda. Bevosita o'yinlar bolalarda idrok, sezgi, xotira, tafakkur, nutqni rivojlantirishga yordam berish orqali ularni ma'naviy-axloqiy, aqliy, jismoniy va estetik jihatdan tarbiyalashga xizmat qiladi.

- o'qitishning "Modulli-kredit tizimi" dars shakli zamonaviy ta'limning eng takomillashgan shakli bo'lib, talabalarga rivojlangan xorij davlatlarida ta'lim jarayonini o'rganish va shu asosida mamlakatimiz oliy o'quv yurtlarida ushbu tizimni joriy etish, jumladan kelgusi o'quv yilidan Farg'ona davlat univesitetida ham mazkur "Modul-kredit tizimi" asosida o'quv jarayonining joriy etilishini e'tiborga olib,

innovatsion faoliyat ko'rsatuvchi pedagoglarni tayyorlashdagi ahamiyati muhim ekanligi izohlandi.

- o'qitish jarayonida "Assesment" texnologiyasidan foydalanib talabalarning bilim, ko'nikma va malakalari darajasini har tomonlama, xolis baholash imkoniyatini ta'minlovchi topshiriqlar to'plamidan iborat ekanligi va o'qituvchi tomonidan talabalarning topshiriqlarni qay darajada o'zlashtirganligi bo'yicha o'z-o'zini tekshirish orqali hulosa chiqarishni nazarda tutilishi talabning bilim sifati va ta'lim-tarbiya jarayoni samaradorligini oshirishda asosiy rol ni o'ynaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Podlasiy I. Pedagogika. –M.: VLADOS,1999. – 567s.
2. V.A.Salastenin, A.F. Isaev, A.I. Mishenko, E.M. SHiyonov. Pedagogika. Moskva. Vldos. 1997.
3. Шухратов Ш.Ш., Максудов Р.Х., Отажонов С.М., Ахмедов М.М., Хожикаримова Г. Инновацион таълимда дарс шакли, методи ва воситаларини танлаш. Фергана. 2021г. 136б.
4. Shukhratova Yu. "Dramatic works and the sad concept of speech". 5th International Multidisciplinary Scientific Conference. Germany. 2021 y 30 march. pp266-268.
5. Shukhratova Yu. Expression of the analogy relation at the syntactic level. ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal. 2021 y March.
6. Shukhratova Yu. Syntactic Valence, Syntactic Relation. The American Journal of Interdisciplinary Innovations and Research, 3(04), pp.129-132.

AZOTLI O'G'ITLARNING QISHLOQ XO'JALIGIDAGI AHAMIYATI

G.A. Isxakova Namangan davlat universiteti Noorganik kimyo kafedrası o'qituvchisi,
B.E. Sultonov Namangan davlat universiteti Noorganik kimyo kafedrası professori, t.f.d.,

Insonni oziqlanishi o'simlik mahsulotining miqdori va sifatiga bog'liq. Bundan tashqari, o'simlik mahsuloti sanoat uchun xom ashyo bo'lib xizmat qiladi. Hosil miqdori juda ko'p omillarga bog'liq, shularning ichida eng muhimlaridan biri qishloq-xo'jalik ekinlarini ozuqa elementlar (N,P va K) bilan kerakli miqdorda va o'z vaqtida ta'minlashdir. Ko'pchilik tuproqlar tabiatan o'simlik oladigan shaklda oziqa elementlarni (azot, fosfor, kaliy, kalsiy, magniy, oltingugurt, mis, bor, marganes, rux, molibden, kobalt va boshqa elementlar) kam miqdorda saqlaydi.

O'simliklarning o'sishi, rivojlanishi, fitomassa hosil qilishida va hosilni yetishishida mineral o'g'itlar, shu jumladan azotli o'g'itlarni ham maqbul miqdorlarda yerga berish katta foyda beradi, ularning ortiqchasi esa ko'p ziyon keltiradi. Azot o'simlik va umuman tirik organizmlarning hayot komponentlari tarkibiga kiruvchi muhim elementdir. Azot tanqisligi oqsil, ferment, xlorofil moddalar sintezini susaytiradi, uglevodlar sintezi esa xlorofilsiz bormaydi, o'simliklarning rivojlanish

jarayoni susayadi. O'simliklar rivojlanish jarayonida tuproqdan qabul qilgan azotning aminokislota va oqsillarni sintez qilishda to'g'ri foydalanmaganliklari tufayli ular tanasida azotning nitrat formalari to'planib boradi. O'simliklar tomonidan nitratlar assimilyatsiya jarayonlarining buzilishiga, o'g'itlarning yerga berilish vaqti, dozasi, ob-havo sharoiti, o'simliklar navi, ekish vaqti va berilgan oziq moddalarning bir-biriga nisbati kabi omillar sabab bo'ladi. Azotli o'g'itlar dozasini oshirish o'z navbatida yetishtirilgan mahsulotlarda nitratlar miqdori ortishiga ularda C vitaminining kamayishiga va mahsulot biologik sifatining buzilishiga olib keladi. Azot ayniqsa yangidan tashkil topayotgan hujayralar uchun juda zarur. Shunga ko'ra o'simlik avj olib rivojlanayotgan, ya'ni hosil tugishi davrida azotni ko'p talab qiladi. Azotli o'g'itlar o'simlikni oziqlantiruvchi elementlardan biri bo'lganligi tufayli ham ular dehqonchilikni rivojlantirishning asosiy o'zagi va bazasi hisoblanadi. Ekinlardan normal hosil olish uchun har gektar yerga 100 kg dan 300 kg gacha sof azot hisobida o'g'it solinadi. Shuning bilan birga ekinlarning azotga nisbatan talabi har xil bo'lib, bu o'simlikning turi, tuproq unumdorligi va joyning ekologik sharoitiga bog'liq. O'g'itlardan to'g'ri foydalanish uchun ana shu ko'rsatkichlarni bilish kerak bo'ladi. Yetishtirilgan hosilning bir qismini inson o'z ehtiyojlarini qondirish uchun iste'mol qiladi. Demak, o'simlik tomonidan to'plangan azotning bir qismi qaytib tuproqqa tushmaydi. Shuning uchun ham tuproqda yetishmaydigan azot o'rnini to'lidirish maqsadida har yili yerga mineral va organik o'g'itlar solinadi. Azotli o'g'itlardan o'z vaqtida kerakli miqdorda foydalanish hosilni ko'paytiribgina qolmay, balki atrof muhitni ortiqcha azot birikmalari bilan itloslanishdan saqlaydi. Tuproqdagi azot miqdori meyordagidan ortib ketsa, o'simlikning vegetativ organlarining generativ organlariga nisbatan rivojlanishini tezlashtirib yuboradi. Tuproqdagi ortiqcha azot asosan nitratlar shaklida to'planadi. Nitratlar tuproqqa singmay, tezda yuvilib ketishi yoki gaz holatida tuproqdan atmosferaga uchib yo'qotilishi mumkin. Azotli o'g'itlardan foydalanishda: 1) tuproq, suv va havodagi azotni yerda to'planishini inobatga olish kerak; 2) ekinlar o'zlashtiradigan, lekin tuproqdan sekin yuviladigan azot birikmalarini ishlatish; 3) ekin maydonlariga mineral o'g'it berish bilan almashtirib ekishni olib borish; 4) turli tuproqlarda o'simlik kasalligi va zararkunandalarning ko'payib ketish sabablarini aniqlash; 5) azotli o'g'itni kam to'playdigan mevali va boshoqli ekinlar ekilgan yerlarga berish; 6) ekin maydonlariga biologik azotni ko'paytirish yo'lini ishlab chiqishni joriy etish kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. J.Sattorov, S. Sidiqov, S. Abdullayev, A. Ergashev, Z. Xaidmuhamedova, Ya. Kulmurodova, U. Qosimov, N. Akbarov Agrokimyo Toshkent, 2011.
2. Gafurova L.A., Abdullayev S .A , Nomozov X. Meliorativ tuproqshunoslik. Milliy ensiklopediya, 2004.
3. Musayev B.S., Qosimov U.S. Agrokimyo. Cho'lpon, 2007.

PROFESSIONAL TA'LIM JARAYONIDA O'QUV DIDAKTIK VOSITALARDAN SAMARALI FOYDALANISH

**Sh. S.Xudayqulov Shavkatbek Soyibjonovich. Norin maishiy xizmat ko'rsatish
va servis texnikumi direktori, PhD**

Аннотация. Maqolada professional ta'lim tizimi o'qituvchi va ishlab chiqarish ta'lim ustalariga dars mashg'ulotlarida o'quv didaktik vositalardan samarali foydalanishlari uchun tavsiyalar berilgan. Professional ta'lim tizimida umumkasbiy va maxsus fanlarni o'qitishda didaktik vositalar bilan birga ta'lim texnologiyalarini birgalikda tashkil etish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Калит сўзлар: kasb-hunar maktablari, kollejlari, texnikumlar, prezentatsiya, vosita, modul, nazariy va amaliy mashg'ulotlar, qiziqtirish (motivatsiya), o'quv uslubiy materiallar.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Professional ta'lim tizimini yanada takomillashtirishga doir qushimcha chora tadbirlar to'g'risida" 2019 yil 6-sentyabrdagi PF-5812-son farmoni qabul qilindi. Mazkur farmon O'zbekiston tarixida yangi professional ta'lim tizimi tashkil etishga asos bo'lgan bo'lsa, 2020 yil 24 yanvarda davlatimiz rahbari o'z Murojatnomasida "Joriy o'quv yilidan boshlab, mutlaqo yangi professional ta'lim tizimi yo'lga qo'yilib, kasb-hunar maktablari, kollejlari va texnikumlar tashkil etiladi" deb mazkur tizimni ahamiyatini yana bir bor alohida takidlagi.

Bunda iqtisodiyotning barcha tarmoqlari barobarida tadbirkorlik, kichik biznes, oilaviy biznes, tomorqa biznesi, qurilish, xizmat ko'rsatish, chorvachilik, parrandachilik, asalarichilik, baliqchilik kabi tez sur'atlarda ravnaq topayotgan sohalar uchun ishchi kasblar bo'yicha malakali kadrlar tayorlash ko'zda tutilgan.

Professional ta'limda tizimida maxsus fanlarni o'qitishning zamonaviy o'quv-didaktik materiallar, prezentatsiyalar, mutimediya vositalari elektron resurslardan foydalanish bilan ta'lim sifatini oshirish uchun asos bo'lib xisoblanadi.

Zamonaviy axborot texnologiyalarining o'quv jarayonida qo'llanilishi natijasida elektron o'quv qo'llanmalar, virtual stendlar orqali murakkab texnologiyalarni qisqa vaqtda mukammal o'zlashtirib, masofali o'qitishda qo'llash uchun yuqori faollikka ega bo'lish lozim. Har bir fanga mo'ljallangan elektron o'quv qo'llanma eng kamida uchta: ta'limiy, mashqli va nazorat qilish kabi asosiy qisimlarga ega bo'lishi zarur.

Bugungi kunda ta'lim sohasida fan va tenikaning so'nggi yutuqlari asosida ishlab chiqirilgan audio, video, telekommunikatsiya va informatsion texnika va texnologiyalarining qo'llanilishi kata axamyat kasb etmoqda. Shuning uchun ularning didaktik imkoniyatlari bilan tanishib chiqish va mashg'ulotlarda ularni qo'llanilishini o'rganish bo'lajak o'qituvchilar uchun ularning kelajak faoliyatida kata yordam beradi.

Prezentatsiyalar tayyorlashda eng effektiv va universal vositalardan biri—bu Microsoft Office ilovasidagi Power Point dasturi. Ushbu dastur grafik axborotlar, slaydlar, ovoz, video kliplar, animatsiyalardan foydalanib sifatli prezentatsiyalar yaratish imkonini beradi.

Texnologik jarayonlar bajarilishi, mashina va mexanizmlarning ishlashi to'g'risida; videofilmlar, virtual stendlar, tovushli mag'sulotlar, kompakt disklar (SD-

Rom), fotosuratlar va tasvirlar, eskiz, chizma va sxemalar, rasmiy tasvirlar, reja-jadvallar, simvollar, diagramma va grafiklar.

Ovoz va tovushli (audio), shuningdek, tasavvurlarni shakllantiradigan audio-vizual vositalar texnologik jarayonlar va funktsiyalar to'g'risidagi keng qamrovli real tasavvurlarni vujudga keltiradi.

Maxsus adabiyotlar, o'quv-didaktik adabiyotlar, modulli o'quv dasturlari tarqatma materiallar, sinov va naazorat varaqlari, matnli-vizual vositalar, tasvirli-vizual vositalar, audio-vizual vositalar.

O'quv jarayonini vizuallashtirish vositalari, ta'lim yo'nalishiga mos bo'lgan detallar asl nusxalari, ya'ni mahsulotlar, jihozlar va asboblarni nazariy yoki amaliy mashg'ulot paytida didaktik funktsiyaga ega bo'lsa, u holda o'quv vositasi sifatida qo'llanilishi mumkin.

Ushbu vositalardan foydalanishda ularni muayyan maqsad, maxsus soha va usullarga mos holda tanlash muhim o'rin tutadi. Va nihoyat, amaliy mashg'ulotlar o'qituvchisi o'quv va ko'rgazmali vositalarni ishlata olishni maqsadga muvofiq va oqilona tarzda foydalanishni bilishi kerak. Texnik vositalardan foydalanilayotganda yuzaga keladigan texnik muammolarni hal qila oladigan bo'lishi lozim.

Modul tarkibidagi nazariy va amaliy mashg'ulotlar uchun manbaviy material sifatida foydalanilgan vositalar quyidagicha farqlanadi.

Ko'pincha o'quv materiallari bir paytning o'zida didaktik materiallar sifatida, ya'ni o'qitish va o'rganish uchun ishlatiladi. O'quv va didaktik materiallarni tayyorlash deganda, o'qituvchi tomonidan ularning tanlanishi va nazariy yoki amaliy mashg'ulotlar maqsadiga moslashtirilishi tushuniladi.

Agar tayyor vositalar yo'q bo'lsa, u holda ularni o'qituvchining o'zi tayyorlashi lozim: Amaliyot o'quvchilari tomonidan darsni ko'rgazmali o'tkazish va bilim berish uchun qo'llaniladi.

-o'quv va didaktik materiallarni tayyorlashda o'qituvchi chegaralangan vaqt va texnik imkoniyatlarini inobatga olgan holda e'tiborini quyidagilarga qaratishi lozim:

-ish varaqalari, tarqatma materiallar (bosilgan matnlar nusxalari), slaydlar, doska tasvirlari uchun eskizlar;

-yozma topshiriqlar, yozma va og'zaki testlar uchun so'rov qog'ozlari;

-baholash varaqasi, nazorat qog'ozi;

-ish rejaları, tashkiliy hujjatlar;

Nazariy darslarni o'tkazish paytida amaliy ko'rsatmalar quyidagi vositalar orqali ishlatiladi. O'quv kitoblari, kitobning muayyan betlarini belgilab, dars rejasiga kiritiladi.

Tarqatma materiallar-o'quv kitoblari yoki boshqa manbalardan saylanma nusxalar tayyorlanadi va ko'paytiriladi.

Doska tasvirlari-mavzu va grafiklarga oid eskizlar tayyorlash.

Slaydlar-nusxalash apparatida yoki kompyuterda tayyorlanadi. Agar o'quv va didaktik materiallar mavjud bo'lsa, u holda ularning fan va modulning o'quv maqsadlari va mazmuniga mos kelish-kelmasligini tekshirishi kerak.

Modul tarkibidagi nazariy mashg'ulotlarni quyidagi ketma-ketlikda o'tkazish tavsiya etiladi.

Qiziqtirish (motivatsiya); ma'lumot berish; bilim berish; o'rganilgan bilimlardan foydalanib, topshiriqlar berish; tahlil va sintezlar; baholash. Umumkasbiy fanlarni modulli o'qitishda nazariy mashg'ulotlarni qiziqarli, hattoki, darsga ta'lluqli bo'lmagan mavzularga oid suhbatlar bilan boshlash tavsiya qilinadi.

Iloji bo'lsa, mashg'ulot paytida darsga bog'liq bo'lmagan modul yuzasidan suhbatni boshlash kerak. Masalan suhbat mavzusi uchun qiziqarli kashfiyot, yangilik yoki hikoyat tanlanishi mumkin. Bularning barchasi birinchi dars mobaynida o'quvchilarning kayfiyatiga, shu sohaga qiziqishiga yoki keyingi darslarda o'quvchilar o'rganadigan o'quv materialiga e'tiborini qaratishga yordam beradi.

Modul tarkibidagi nazariy mashg'ulotning maqsadini bayon etish orqali motivatsiya va muayyan mavzuga kirish amalga oshiriladi. Intrinzi (ichki) va ekstrinzi (tashqi) motivatsiya uchun sabab va argumentlar topishga harakat qilish lozim. Motivatsiya qilish bilan o'qish va o'rganishga bo'lgan tayyorgarlik uchun shart-sharoit yaratiladi.

Ma'lumot va bilim berish. O'qituvchi o'quvchilarga kasbiy soha bo'yicha yangi materialni tushuntiradi, qisqa ma'ruzalar o'qiydi, munozaralar uyushtiradi, o'quv suhbatlari, o'yin-mashg'ulotlari va muammolarni hal qilish haqida suhbatlar o'tkazadi. Keyingi darslarda yangi modul birligini boshlashdan avval o'tilgan modul birliklari mazmuni qisqacha, umumlashtirilgan holda qaytarilishi kerak.

O'quvchilarga modul birligiga mos tarqatma materiallar tarqatilishi lozim. Bu o'quv jarayonini engillashtiradi. Ularni modul birligiga monand ravishda birin-ketin tarqatish, ularni qo'yib chiqish uchun etarli vaqt berish va o'quvchilar e'tiborini axborotga qaratish uchun ovoz chiqarib o'qitish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Xar bir dars mashg'ulotlarini rejalashtirish vaqtida mashg'ulot o'tkazish ketma-ketligi (darsning kirish, asosiy qism va yakunlovchi qismi) ning xar-bir elementi uchun o'quv didaktik materiallar bilan boyitib borilishi zarur. Natijada o'quvchi-talabalarni mashg'ulotlarga bo'lgan qiziqishlari oritib borishi bilan ularning faolligi ortib boradi.

Professional ta'lim muassasalarida ta'lim mazmuni, soni va sifati, ta'lim dasturlari, darsliklar, o'quv uslubiy materiallar, texnologiyalarining isloh qilinishi oqibatida bir qancha o'zgarishlar amalga oshiriladi. Ushbu vazifalarning amalga oshirilishi esa ta'lim tizimida ta'lim olayotgan o'quvch va talabalarni xalqaro mehnat bozori talablari, integratsion jarayonlarning jadallashuvi, raqamlashtirish, sanoatdagi texnologik inqiloblar davrida zamon talablariga mos malaka va ko'nikmalarga ega raqobatbardosh o'rta bo'g'in mutaxassislarini tayyorlashda o'qituvchi va ishlab chiqarish ta'lim ustalari dars mashg'ulotlarida o'quv didaktik vositalardan foydalanish tavsiya etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Professional ta'lim tizimini yanada takomillashtirishga doir qo'shimcha chora tadbirlar to'g'risida" 2019 yil 6-sentyabrdagi PF-5812-son farmoni
2. Yangi professional ta'lim -yangi missiya. M. Xolmuhamedov, Oliy va o'rta maxsus ta'lim vaziri o'rinbosari. Maqola 2020.24.08.
3. Axmedjanov M.M. To'xtaeva Z.SH. Didaktik vositalar majmuasi. O'quv qo'lanma. T. "Fan texnologiyalar", 2008. 100-b.

4. Olimov Q.T. Maxsus fanlardan o'quv adabiyotlari yaratishning nazariy va uslubiy asoslari. disertasiya. T.: TDPU 2005. –274-6.

5. G'afforov F.H. Zamonaviy o'quv-didaktik vositalardan ta'lim jarayonida samarali foydalanish imkoniyatlari. Maqola. Zamonaviy ta'lim. 2017 y

ZAMONAVIY TA'LIM TIZMIDA TASVIRIY SAN'AT DARSLARINI GUMANITAR O'QUV FANLARI BILAN BOG'LASH METODLARI.

X.U.Rahimov Namangan Davlat Universiteti Tasviriy san'at va muhandislik grafikasi kafedraasi o'qituvchisi

O'quvchilarga berilayotgan ta'lim-tarbiyani zamon talabida, yani DTS va yangi dasturlar talabida bo'lishi asosan o'qitishning didaktik printsiplariga amal qilish, ta'lim metodlaridan samarali foydalanishiga bog'lik ekanligi, davrimizning ilg'or-tajribali o'quvchilari va maxsus sinov-tajriba tadqiqotlarini olib borayotgan yetakchi olimlar tomonidan to'la e'tirof etilmoqda.

Maktab o'quv fanlarining o'qitilishi didaktikasida – har bir darsning mavzusi, o'quv materialini bshqa o'quv fanlari bilan bog'lanishi asosida o'quvchilarga etkazilishi ta'lim didaktikasining asosiy mezonini sifatida talqin etiladiki, buni Jahon pedagogikasining atoqli namoyondasi Ya.A.Komenskiydan boshlab, qator pedagoglar ta'kidlab kelishadi.

Maktab tasviriy san'atini o'qitilishi metodikasida predmetlararo bog'lanishini zarurligi, foydasi va berilayotgan bilim-malakalarni samarali bulishi haqida ham Evropaning ko'plab pedagog-rassom-olimlari shug'ullanib kelganlar. Ular: A.Dyupyui, Petr Shmit, N.Shmit, G.Pestalotstsi, P.Pavlinov, N.Rodlov, Ya.Bashilov, E.Kandaxchan, G.Lubanskiy, P.Chistyakov, A.Sapojnikov, I.Preysler, K.Ushinskiy, E.Rojkov, N.Rastovtsev, V.Kuzin, E.SHoroxov kabi pedagoglar maktab tasviriy san'atini o'qitish metodikasi bilan shug'ullanib keldilar.

O'zbekistonda XX-asrning 60-80-90 yillarda O'z.PFITIning "Estetik tarbiya" sektori tashkil etilib, unda maxsus tasviriy san'atni o'qitish metodikasi bilan shug'ullanib keldilar. Shu sektor raxbarligida mustaqil tadqiqotchi B.N.Oripov tomonidan "Tasviriy san'atni biologiya bilan bog'lanishi" mavzusida ish olib borildi. Bu ish ijobiy natijalar beradi. Tadqiqotchi maktab tasviriy san'atini botanika va zoologiya fanlari bilan bog'lanishi metodikasini ishlab chiqildi. Shu tadqiqot tajribalariga asoslangan holda tasviriy san'at o'quv predmeti darslarini gumanitar o'quv fanlari bilan bog'lanishi xususida mavzusida izlanishlar olib borildi. Buning natijalari ham yaxshi bo'lib, bu tasviriy san'atni til-adabiyot, tarix, geografiya kabi o'quv fanlari bilan bog'lanishi ilmiy va amaliy ishlar asosida urganib chiqildi.

Shularga ko'ra biz tasviriy san'atini gumanitar adabiyot, tarix, geografiya o'quv fanlari bilan bog'lanishi bo'yicha metodik tavsiyalar ishlab chiqish lozim deb hisoblaymiz. Olib borilgan tajriba-sinov darslari natijalariga ko'ra-eng avval maktabda mutaxassis pedagog-rassom bo'lishi zarurligi ko'riladi.

Maktabga yangi kelgan tasviriy san'at o'qituvchisi eng birinchi ishi maktabda tasviriy san'at kabinetini tashkil etishdir.

Kabinet tasviriy san'atni o'qitish shart-sharoitlarini yaratish imkoniyatini beruvchi didaktik materiallar bilan ta'minlanadi. Kabinetni oldi tomoni maxsus jixozlanadi, kabinetni orqa tomoniga stellyaj shkaflar qo'yiladi. Shkaflar oldiga texnika vositalari joylashtiriladi. Kabinetni devorlariga tasviriy san'atni o'rganish buyicha didaktik materiallar, metodik qo'llanmalar mazmunidagi stendlar, yana san'at asarlarini va rassomlar ijodini o'rganish bo'yicha tavsiyalar, san'at nazariyasi bo'yicha materiallar quyiladi. Yana kabinetga boshqa o'quv fanlarining darsliklari o'quv-qo'llanmalari, O'zbekiston Badiiy Akademiyasining "San'at" jurnali qo'yiladi.

Kabinetga yoki yaqin karidor devorlariga o'quvchilar ijodidan namunalar kurgazmasi-sifatidagi stendlari qo'yiladi. Kabinetda 4-5 yoki 6-7-sinflarning matematika, botanika, zoologiya, anatomiya-fiziologiya, til adabiyoti, tarix, geografiya, fizika kabi fanlarning darsliklari qo'yiladi. Kabinet geometrik shakllarning gipsli modellari, meva-sabzavotlarning mulyajlari, ruzg'or buyumlari, mexnat qurollari, san'at sport buyumlari, turli rangdagi gazmol-materiallari, naturani qo'yish uchun podstavka (tagli) naturani yoritish uchun reflektor-svetil'nik bilan ta'minlanadi. Yana kabinet 25-30 o'quvchiga yetadigan o'quv qurollari bilan ta'minlanadi.

Maktabdagi bayon etilgan darajadagi tayyorgarlik va kabinet-tasviriy san'atni har bir darsini boshqa o'quv fanlari: matematika, botanika, zoologiya, geografiya va til adabiyot, tarix, tabiatshunoslik fanlari bilan bevosita bog'lana olish imkoniyatini beradi.

Tasviriy san'at o'quv fanining "Narsani o'ziga qarab rasm chizish" mavzusi matematika fani bilan bog'lanadi. Bu darsda kub, prizma, ko'pyoqli, piramida, tsilindr, konus va shar rasmini chizish darslari uchun g'oyat foydali buladi. Keyingi darslarda meva-sabzavotlar, "Qush va xayvonlar" rasmini chizish darsida o'qituvchi "botanika" va ikkinchi darsda esa zoologiya fanlari bilan bog'lanadi, bu fanlarning o'quv-materiallari vositasida darsni muvaffaqiyatli o'tkazadi.

Maktab tasviriy san'ati mazmunida "tematik kompozitsiya ishlash" badiiy-bezash va san'at asarlarini o'rganuvchi "San'atshunoslik" dars turlari bo'lib, bu turkumdagi darslarda ko'proq gumanitar, badiiy ijod fanlariga yaqinroq mazmundagi faoliyat namunalari mavjud. Bu mazmundagi darslar asosan gumanitar o'quv fanlari bilan bog'lanadi.

Chunki bu darslarda o'qituvchi, darsni, asosan, suxbat, savol-javob, kollokum shaklida olib boradi. Tematik kompozitsiya darslari sinf doskasiga mavzuni yozib, darsni shu mavzuni izoxlash bilan boshlanadi. Bu darsni boshlanishyoq adabiyot bilan bog'langan holda so'z va jummalarni aniq, to'g'ri, so'z qurilishi gramatikasiga bog'langan xolda olib boriladi.

So'ngra tuziladigan kompozitsiya syujet tuzilishi, syujetdagi voqea, uning qaysi davrda sodir bo'lishi, unda ishtirok etgan predmetlar, ishtirok etgan odamlar, xalq xo'jaligi buyumlari, tabiat kurinishlari, er re'lefi, geografik maydon, geobiologik ko'rinishlar haqida suhbat, savol-javoblar bo'lib, ularni bayonida boshqa o'quv fanlarining o'quv materiallaridan foydalaniladi.

Bu bog'lanishning har ikkalasi faqat ijodiy bog'lanishi bilangina uni yuqori samaradorligini ta'minlaydi.

Maktab tasviriy san'ati – "San'atshunoslik" darslarida taxlil etiladigan san'at asari xususida boradigan suxbat mazmunida boradi. Masalan: K.P.Bryullovnin

“Pompeyniy sunggi kuni” (1830-1833) asarni o’rganishda avval V-sinfda o’rganiladigan “Tabiiy geografiya” darsidagi “Vulqonlar” mavzusi bilan bog’lanadi. Shunga ko’ra “Qadimgi dunyo tarixi” fani bilan, “Qadimgi Rim san’ati” mavzulari bilan bog’lanadi. Bu ikki bog’lanish asosida tasviriy san’at o’qituvchisi rassom Bryullovn 1830-33-yillarda Italiyaning qadimgi Pompeya shaxrining 30 mingdan ortiq aholisini eramizdan 79-yilda “Vezuviy” vulqoni otilishi natijasida nobut bo’lishi. Bu haqdagi Pleniy yozib qoldirgan ma’lumot asosida rassom “Pompeyaning sunggi kuni” asarini yaratilganligi haqida suxbat materialiga ega buladi va u tarix, geografiya o’quv fanlari bilan bog’lanish imkoniyatiga ega bo’ladi.

Maktab tasviriy san’atini dekorativ kompozitsiya darsida “Oyguil bilan Baxtiyor” dostoni asosida rasm ishlash darsi bulib, bu darsni o’qitishda darsni adabiyot va fani bilan bog’lanadi. Chunki bu mavzuda rasm ishlash uchun o’quvchilarga badiiy ijod, adabiy asar, adabiyot haqida ma’lumot beradi. Sungra adabiyotni hikoya, ertak, doston kabi turlari bilan tanishtirib, o’zbek xalq dostonlardan biri “Oyguil bilan Baxtiyor” asari bilan tanishtiriladi. Sungra o’quvchilarga adabiy asarlarga bezak ishlash va bezatish ishlari haqida bilim-malakalar beriladi. Sungra darsdagi vazifalar – yani “Oyguil bilan Baxtiyor” dostoni bo’yicha rasm ishlash mavzusi e’lon qilinadi.

So’ngra dostonning mazmuni bilan o’quvchilarni tanishtiriladi.

Uni qo’yidagi savollar asosida tanishtiriladi.

1. Doston voqealari sodir bo’lgan Jambil qaysi o’lkada joylashgan?
2. Dushman xalqning bo’yin sindirishi uchun nima qildi?
3. Quzg’olonchilar qanday qurollangan?
4. Isyon natijalari nima buladi?
5. Xon Oyguilni nima qildi?
6. Tarxon kim edi?
7. Oyguil shoxdan qutulish uchun nima qildi?
8. Baxtiyor kim, u Oyguil bilan qanday uchrashdi?
9. Dostondagi bosh qaxramonlar kimlar edi?
10. Oyguil bilan Baxtiyorni tashqi kurinishi qanday edi?

kabi savollar asosida asar taxlil qilinadi va bu asar buyicha qanday rasm ishlash mumkinligi aniqlab olinadi.

Shuningdek rasm ishlash buyicha suxbatda O’zbekistonning Chambil elini geografik o’lmi va uning hududiy chegarasi, tabiati, bu o’lka tarixi – Qashqadaryo, Surxandaryo o’lkasidagi etnik xalqlar san’ati-madaniyati xaqida ma’lumotlar beriladi. Yana asarni ayrim urinlari o’qib beriladi. Asarni qiziqarli urinlari buyicha rasm ishlaydilar. Bu doston uchun yaratilgan asarni o’quvchilarga kursatib, rassomdagi tarixiy davr: podshox, uning atrofidagi kishilar rasmdagi kishilarni usti-boshlari, bog’langan ota va qiz Oyguil kabi tasvirlar urganiladi.

Rasm ishlash uchun olingan mavzuni taxlili jarayonida o’qituvchi doston bilan tanishib, badiiy asar, unda tasvirlangan tarixiy davr, usha davrdagi jamiyat (feodalizm), undagi xukmron sinf, shu davrmi uzi, undagi tabiat tog’i-toshlar, daryo-kanal, yo’l kupriklar xaqida ma’lumotlar beriladi-ki, bularning hammasi o’qituvchini izlanishi asosida adabiyot, tarix, geografiya, tabiatshunoslik o’quv fanlari bilan bog’lanishi asnosida yuzaga keldi. Albatta bunday darsni o’tkazish uchun “Til adabiyot”

kabinetida adabiyot kitoblar, adabiyot darsi uchun tayyorlangan kurgazma materiallar tayyorlanadi.

Maktab tasviriy san'at o'quv fani mazmunida "Suv osti dunyosi", "Alpomish", "Buri bilan tulki", "Bug'irsoq", "Buri bilan mergan", "Dorbozlar", "Zumrad va Qimmat" asari kabilar asosida rasm ishlash darslarining hammasi adabiyot, tarix, geografiya, tabiatshunoslik kabi o'quv fanlari bilan bog'lanadi

ADABIYOTLAR.

1. Mualliflar uyushmasi. Pedagogika tarixi. T. 1967 yil.
2. B.Ziyomuxammedov. Pedagogika. T. 2006 yil.
3. Mualliflar uyushmasi. Pedagogika tarixi. T. 2002 yil.
4. В.С.Кузан. Психология. М. 1972 йил.
5. М.А.Скаткин. "проблемы современной дидактики". М. 2.Т1980-82 йил.
6. А.С.Высотский. "Психология искусство". М. 1987 йил.
7. В.А.Федорова. Д.М.Кришкин. "Межпредметные связи". М. 1972 йил.
8. П.Г.Кулогин. Межпредметные связи в процессе обучения.М.1988 йил.
9. Г.Батурин. Межпредметные связи Советской педагогике.М.1972 йил.
10. N.Saidaxmedov. Yangi pedagogik texnologiyalar. T. 2013 yil.

НОФИЗИК ТАЪЛИМ ЙЎНАЛИШЛАРИ ТАЛАБАЛАРИГА ФИЗИКА ФАНИНИ ЎҚИТИШНИНГ ЎЗИГА ХОС ХУСУСИЯТЛАРИ

Ф.М. Ирматов Жиззах давлат педагогика институти

Хозирги ижтимоий-иқтисодий шароитда тадбиркор, фаол, мустикал шахсни тарбиялаш ва шакллантириш, унинг келажакдаги касбий фаолиятига йўналтирилганлиги алоҳида аҳамият касб этади. Таълимни модернизация қилиш жараёнида ихтисослаштирилган таълим каби муҳим соҳани жорий этиш зарурати пайдо бўлди. Ҳар бир ўқув шакли турли хил ўқув фанларини бирлаштириш йўли билан яратилади, муайян вазифаларни юклайди, ўзига хос хусусиятларга эга, материал таркибидаги устуворликларга, мета-мавзу муносабатларининг ўзига хос хусусиятларига эга. Бироқ, ўқув шаклини танлашдан қатъи назар, талаба фан сифатида физика, илмий билиш усуллари, атрофдаги дунё ва ундаги одамнинг ўрни, билим олиш жараёнида назария ва экспериментнинг ўзаро алоқаси, олам ҳақида фикрга эга бўлиши керак.

Олий таълимнинг нофизик бакалавр йўналишларида физика дастури физика ихтисослашган фан бўлган дарслар дастуридан кескин фарқ қилиши керак.

Нофизик бакалавр йўналишдаги талабаларга физика фанини ўқитишда қуйидаги вазифалар қўйилади:

• физик ҳодисалар ва табиат қонунлари ҳақида тушунчаларни шакллантириш, материянинг таркибий хилма-хиллигини очиш, табиатшуносликнинг ривожланишида тажриба ва назария ўртасидаги ўзаро боғлиқлик;

- замонавий одам ҳар қадамда дуч келадиган техник қурилмалар ишлашининг асосий принциплари ҳақида оддий тушунчани бериш;
- ҳозирги замон ҳаётида ушбу фаннинг аҳамиятини тушунтириш асосида ахлоқ, фуқаролик ва физикани ўрганишга қизиқишни тарбиялаш;
- физика фанининг ривожланиш тарихи ва уни яратувчилар ҳаёти тўғрисида билимларни шакллантириш;
- физикани ўрганиш жараёнида турли даражадаги мураккабликдаги лойиҳаларни амалга ошириш қобилиятини шакллантириш;
- оламнинг кўп қиррали қиёфасини шакллантириш, бунда мумтоз табиатшунослик тасвири билан бир қаторда, табиатга замонавий илмий қараш элементлари мураккаб, ўзаро боғлиқ, механик бўлмаган, ривожланаётган яхлитлик, шунингдек уни бадий идрок этиш;
- асосий ўқув дастурини ишлаб чиқишда ахборот технологияларидан фойдаланиш кўникмаларини шакллантириш.

Шуни алоҳида таъкидлаш лозимки, нофизик бакалавр йўналишларида физика фанини ўқитишнинг ўзига хос талаблари ва шартлари мавжуд. Таълимнинг нофизик бакалавр йўналиши гуруҳларида физикани ўқитишда асосий эътибор талабалар ўртасида илмий фикрлаш тарзини шакллантиришга қаратилиши лозим. Курс дастурида талабанинг ушбу фанга қизиқишини, физикани мустақил ўрганиш имкониятини яратиш учун зарур бўлган назарий материаллар ва вазибалар тизими бўлиши керак.

Нофизик бакалавр йўналиши учун физика дарсларини ўқитишда талабаларнинг фикрлаш тарзининг ўзига хос хусусиятларини ҳисобга олиниши мақсадга мувофиқдир: кўпгина қонунлар формулаларсиз ўрганилиши (талабаларга яқиний формулалар берилди), мураккаб ҳисоблаш муаммолари амалга оширилмасдан берилиши аҳамиятлидир. Макро ва микрожараёнларнинг мураккаб схемаларини, техник қурилмаларнинг тузилиши ва ишлаш принципини, видеофилмларнинг парчаларини, ноёб фотосуратлар, графикалар, формулалар, ўрганилаётган жараёнлар ва ҳодисаларнинг анимациясини намойиш этишни, ҳаракатланиш ва ривожланишдаги объектларни намойиш этиш имконини берадиган ахборот технологияларидан фойдаланиш лозим. Масалан, ядро ўзгаришларини, магнит майдонидаги электронларнинг ҳаракатини ва бошқаларни бевосита кузатишнинг имкони йўқ, шунинг учун, бундай ҳодисалар ва тажрибаларни моделлаштириш орқали намойиш қилиш мумкин бўлади. Талабалар визуал ёрдам билан фаол ва мазмунли ҳаракат қиладилар. бу эса уларнинг ақлий ривожланишига ва ўқув материалларини ўзлаштиришга таъсирининг самарадорлигини оширади.

Хулоса қилиб шуни таъкидлаш лозимки, талабалар улар учун физикавий билимларни муваффақиятли эгаллашлари учун электрон ўқув қўлланмалари ва намойишлар ёрдам берадиган ҳодисанинг тасвирини яратиш уларнинг физикавий дунёқарашини шакллантиришда жуда муҳим бўлиб ҳисобланади.

АДАБИЁТЛАР

1. Дьякова Е.А. Методика преподавания физики в направлениях гуманитарного профиля: Дисс. канд. пед. наук. – М., 2002. – 180 с.

2. Ирматов, Ф. М. Эффективность современных образовательных технологий в педагогическом процессе (на примере обучения физике). научное знание современности, (8), 34-37.

2. Ирматов, Ф. М. ОСОБЕННОСТИ ОБУЧЕНИЯ НЕФИЗИЧЕСКИМ СПЕЦИАЛЬНОСТЯМ СТУДЕНТОВ. Образование и культура. –С. 130-132.

3. Ирматов, Ф. М. Эффективность модульного обучения физики для нефизических специальностей. инновационные технологии в современном образовании. –С. 228-231.

4. Irmatov, F. (2019). ADVANTAGES OF TEACHING PHYSICS ON THE CREDIT SYSTEM. European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol, 7(12).

ПРОФЕССИОНАЛ ТАЪЛИМДА ИЖТИМОЙ ҲАМКОРЛИКНИ АМАЛГА ОШИРИШ ВА ТАКОМИЛЛАШТИРИШ

М.А.Иброхимов НамДУ ўқитувчи

М. Д.Рахимжонова НамДУ талаба

Аннотация: Ушбу мақолада мутахассис кадрларни тайёрлашда касб-хунаар коллежлари, иш берувчи корхона ва ташкилотлар, қасаба уюшмалари, ёшлар иттифоқи ва бошқа жамоат ташкилотларининг ўзаро манфаатли ҳамкорлигини ташкил этиш ва амалга ошириш имкониятлари ҳақида фикр юритилган.

Аннотация: В этой статье определены возможности организации и осуществления взаимовыгодного партнерства профессиональных колледжей, предприятия и организации работодателя, профсоюзов, союза молодежи и других общественных организаций в подготовке специалистов

Annotation: This article disclosed mutually beneficial and promising opportunities for social partnership are through the expansion of the sphere of territorial and administrative structures that organize the activity of professional colleges and the activation of their participation on the basis of the principles of integrity, stability and innovation

Жаҳон миқёсида профессионал таълими соҳасидаги рақобатбардош кадрлар тайёрлашда таълим муассасалари билан иш берувчилар, меҳнат бозори субъектлари ва институтлари, давлат ва маҳаллий ҳокимият органлари ҳамда жамоат ташкилотлари билан ўзаро манфаатли ҳамкорликни йўлга қўйиш зарурлигини кўрсатмоқда. Бу борада Германияда дуал таълим тизими (Dualität Bildung)га ва Австралияда кадрлар бўйича маслаҳат агентлиги (Skills Australia)га асос солинган ҳамда Францияда ишсизлик билан курашиш мақсадида ёшлар учун “Танаффусли ўқиш” (Études de percée) дастури қабул қилинган. Шунингдек, барча минтакаларда касб-хунаар таълими дастурлари коллеж ва ишлаб чиқариш орасида боғловчи восита бўлиши, таълим ва касбий ҳамкорликни узвий боғлаш муаммолари долзарб бўлиб қолмоқда.

Халқаро ҳамжамиятда ўзининг салоҳияти ва имкониятларини тўлиқ рўёбга чиқарувчи ижодкор ва компетент кадрларга эҳтиёж юқори бўлиб, ижтимоий ва

моддий ишлаб чиқариш соҳалари учун мутахассислар тайёрлаш билан бир қаторда ёшларга касб-ҳунарга йўналтиришда ҳам амалий ёрдам кўрсатиш лозим. Чунки, меҳнат бозоридаги вазият, давлат ва жамият истиқболи бугунги ёшларнинг қанчалик даражада касбни тўғри танлаётганлигига боғлиқ бўлиб қолмоқда. Жумладан, бугунги бозор иқтисодиёти шароитида инсонни ўз имкониятига мос касбга йўналтириш, аниқ фаолиятга йўналтириш ва унга мувофиқ шахсни камол топтириш учун иш берувчилар, жамоат ташкилотлари ва бошқа манфаатдор ташкилотлар билан касб-ҳунар мактаблари орасида мустаҳкам ва узвий ижтимоий ҳамкорлик алоқаларини ривожлантириш муҳим аҳамият касб этади.

Мамлакатимизда таълим ислохотларига оид қатор қонун ва қарорларда узлуксиз таълим тизимини такомиллаштириш ҳамда ҳозирги замон истиқболи талабларига жавоб берувчи юқори малакали кадрлар тайёрлаш миллий тизимини яратиш кўзда тутилган. Жамият раванқини таъминлашда ишлаб чиқариш билан таълим жараёнининг узвийлигини ва самарадорлигини таъминлаш бугунги куннинг энг асосий вазифаларидан биридир. Бунда ишлаб чиқариш технологиялари билан таълимдаги ўқитиш жараёнини уйғунлаштириш вазифаси етакчи ўрин тутаети. Бу борада Республикаимизда турли хил йўсиндаги илмий - методик изланишлар олиб борилмоқда. Аммо, ҳар қандай педагогик жараён учун мултаносибликни таъминлаб бўлмайти.

Ижтимоий ҳамкорлик моҳиятини изоҳловчи ёндашувлар мавжуд бўлиб, уларга қуйидагилар қиради:

Уйғунлашган утопик. Бу ёндашув вакиллари хусусий мулкчилар ва ишчилар умумий манфаати асосида бирлашадилар. «Ортиқча зиддиятларсиз барча иштирокчилар ишлаб чиқариш жараёнига бир тан бўлиб, ҳаққоний иқтисодий қонунга таяниб бирлашади», - деб тасдиқлайди ёндашув асосчилари.

Интерактив ёндашув. Бу ёндашув вакилларининг тасдиқлашча, ижтимоий ҳамкорлик-манфаатларнинг тенгликда таъминлаши натижасидаги муносабатларнинг ўзига хос тури ҳисобланади.

Ўйлаймизки қуйидаги учинчи ёндашув ижтимоий ҳамкорлик тушунчасини етарлича очиб беришга имконият туғдиради.

Ижтимоий ҳамкорлик-бозор иқтисодиёти асосида цивилизациялашган жамиятдаги ўзаро муносабатларнинг ўзига хос тури бўлиб қуйидаги белгилари мавжуд:

-бу муносабат манфаатлари бир хил ва қарама-қарши ижтимоий, иқтисодий, сиёсий манфаатлари принципал жиҳатдан ҳар хил субъектлар ва томонлар орасида бўлади;

-бунда томонларнинг қарама-қаршилигига эмас, балки барқарор фойда келтирувчи ижтимоий муроасага эришиш йўлини излаш учун ишончли маълумотга эга эркин ишчи кучига йўналтирилган муносабатдир;

-бундай муносабатларга жамиятнинг ижтимоий-иқтисодий тараққиёти, барқарорлиги учун муҳим барча ижтимоий гуруҳлар қиради.

Ўзбекистон Республикасининг Ижтимоий шериклик тўғрисидаги Қонунининг 3-моддасида - "Ижтимоий шериклик давлат органларининг

нодавлат нотижорат ташкилотлари ва фуқаролик жамиятининг бошқа институтлари билан мамлакатни ижтимоий-иқтисодий ривожлантириш дастурларини, шу жумладан тармоқ, ҳудудий дастурларни, шунингдек норматив-ҳуқуқий ҳужжатларни ҳамда фуқароларнинг ҳуқуқлари ва қонуний манфаатларига дахлдор бўлган бошқа қарорларни ишлаб чиқиш ҳамда амалга ошириш борасидаги ҳамкорлигидир”, деб таъриф берилган. Ушбу қонуннинг ижросини амалга оширилиши тадқиқотимизнинг асосий аҳамияти ва долзарблигидан, мамлакатимиз профессионал таълимида ижтимоий ҳамкорликни амалга ошириш билан боғлиқ муаммонинг педагогик ва методик жиҳатдан ҳал этишга бағишланганлигидан далолат беради.

Халқаро тажрибалар таҳлили шуни кўрсатадики, ижтимоий ҳамкорлик соҳасига профессионал таълими муқаррар равишда жалб этилиши, ишлаб чиқариш корхоналарининг касб-ҳунар коллежлари ҳаётидаги ўрни, уни жиҳозлар билан таъминлаш, шунингдек битирувчиларни ишга жойлашишдаги иштироки кўп қиррали ва ўта муҳим ҳисобланади. Аммо бугунги кунда касб-ҳунар коллежларининг кичик ва ўрта ишлаб чиқариш корхоналари билан боғланиши ва ўзаро ҳамкорлиги амалда мустаҳкам ва фаол эмас. Ҳамкорликни ўрнатишда кучли мазмун ва аҳамиятли жараён шароитларидан ташқари муҳим тамойилларни ишлаб чиқиш ҳам аҳамиятли.

Биз томонидан ижтимоий ҳамкорликни амалга ошириш учун самарали бўлган куйидаги тамойиллар асослаб берилди:

Ўзаро манфаатлар тамойили. Ҳамкорликка жалб этилган барча томонлар профессионал таълимида ўзларининг махсус манфаатлари ва мақсадларини аниқлаб олишлари лозим. Шунингдек, томонлар ҳамкорликнинг натижалари сифатида ўзларининг манфаатларини белгилашлари лозим;

Мақсадларни тақсимлаш тамойили. Томонлар профессионал таълимида мақсадларни аниқлаб, ўзаро келишиб олишлари ва танишиб чиқишлари керак;

Масъулиятлилиқ тамойили. Томонлар тақсимланган мақсадларни амалга ошириш учун шароитлар яратишади, имкониятларини излайдилар ҳамда коллеж билан мустаҳкам алоқада ишлайдилар. Бунда томонларда юксак масъулият пайдо бўлади;

Ўзаро ҳурматлилиқ тамойили. Яқин ҳамкорлик иқлимини ва тақсимланган мақсадларни амалга ошириш учун, томонлар манфаатини ҳурмат қилиш ва тушуниш муҳим ҳисобланади ва “табиий” кўринишда ўзларининг манфаатларини кўтаришда рағбатлантирилади;

Ўзаро боғлиқлик. Ўзаро ҳурмат билан яқин боғлиқлик биргаликдаги ижтимоий ҳамкорлик ўзаро йўналтирилган тармоқ ҳисобланади, бунда барчанинг муваффақияти ягона томон муваффақияти ҳисобланади; Келишувлилиқ тамойили. Ижтимоий ҳамкорлик танлаш имконини беради, яъни ҳамкорлик умумий асосдаги келишувларга эришиш истиғини ўз ичига олади ва томонларни келишув бўйича иш олиб боришда қўллаб-қувватлайди.

Бозор муносабатларининг ривожланиши даврида шахснинг касб-ҳунарга тайёргарлик даражаси унинг асосий ижтимоий ҳимояси ҳисобланади. Бу эса касб-ҳунар таълимининг самарали фаолият кўрсатишини талаб қилади.

Бандлик ҳамда профессионал таълими соҳасидаги ижтимоий сиёсатнинг вазифаси иқтисодий мавжуд бўлишнинг шарт-шароитларини яратишдан иборат бўлганлиги туфайли ижтимоий ҳамкорлик тизими ҳам бандлик имкониятларини, уни амалга ошириш шароитларини, касб-хунар таълимнинг самарали ривожланишини таъминлашга даъват этади.

Ижтимоий ҳамкорлик таълим муассасалари фаолият юритаётган ҳудуддаги меҳнат бозори талабларини, мутахассислар малакасига бўлган эҳтиёжларни ўз вақтида аниқлаш имкониятини беради. Кенг миқёсдаги ташқи ўзгаришлар ва корхоналар ичидаги янгиланаётган жараёнлар ижтимоий ҳамкорликни йўлга қўйиш имкониятларини яратиш заруратини тақозо этди ва бу зарурат касб-хунар таълимида ҳам мавжуддир. Бизнинг фикримизча, ижтимоий ҳамкорлик доирасида ўқув режа ва дастурлар бўйича коллеж миқёсидаги ҳар бир ўзгартириш ҳудудий хусусиятлардан келиб чиққан ҳолда иш берувчилар талабларини инобатга олиб амалга оширилиши лозим.

Ўтказилган таҳлиллар шуни кўрсатдики, ҳозирги кунда касб-хунар коллежларида биринчи ўқув йили давомида асосан умумтаълим фанлари ўқитилади. Мавжуд ўқув режаларида таълим жараёнида ўқув ва ишлаб чиқариш амалиётлари ҳам кўзда тутилган бўлиб, улар иккинчи ўқув йилидан бошлаб ўтказилади. Биринчи ўқув йилида ўқувчиларга касб бўйича умуман тушунча берилмайди ва натижада уларда ўқишга бўлган иштиёк сусаяди. Фанларнинг ўқитилиш кетма-кетлиги ва фанлар бўйича соатлар миқдорини ўзгартирмаган ҳолда, ўқув режасини қайта тузиш имконияти ҳам мавжуд.

Шунга биноан биринчи ўқув йилида «умумқасбий ва мутахассислик» фанларини киритиш, умумтаълим фанларини кейинги курсларга ўтказиш ва айрим умумтаълим фанларини умумқасбий фанлар билан ўзаро алоқадорлигини ўрнатиш мумкинлиги асослаб берилди.

Фойдаланилган адабиётлар

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида”ги Фармони // Ўзбекистон Республикаси Қонун ҳужжатлари тўплами. -Т., 2017.

2. Олимов Қ.Т., Ашурова С.Ю., Ўринов У.А. Замонавий таълим технологиялари. Монография. – Тошкент: Фан ва технологиялар. 2007.

3. Нуридинов Б.С. Бўлажак кичик мутахассисларни қасбий тайёрлашнинг муҳим масалалари // Касб-хунар таълими. – Тошкент, 2017.

TEKNOLOGIK TA'LIMI YO'NALISHIDA HUNARMANDCHILIK SOHALARINI MILLIYLIK ASOSIDA AMALIY O'RGATISH ASOSLARI

SH. Doniyorova, JDPI o'qituvchi

B.Norboyev JDPI o'qituvchi

Umum o'rta ta'lim maktab texnologiya ta'limi uchun qabul qilingan DTSni maqsadi yosh avlodni milliyligimizdan, o'tmishdagi va hozirda faoliyat kursatayotgan milliy xalq hunarmandchilik sohasiga oid boshlang'ich bilimlar berish, boshlang'ich

tayanch ko'nikma va malakalarga ega qilishdan iboratdir. Texnologiya ta'limi o'qituvchilari ushbu DTS asosida tuzilgan o'quv dasturlari bo'yicha rivojlanish toqozosi bilan ayrim hollarda o'zgartirish va qushimchalar kiritgan holda, yog'och, metal, gazlama va turli xil materiallarga ishlov berishga asoslagan milliy xalq hunarmandchilik sohalarini bo'yicha 5-9 sinf o'quvchilariga boshlang'ich bilimlar berish va boshlang'ich ko'nikmalarga ega qildirishlari kerak. Buning uchun texnologiya ta'limi(hozirgi DTS bo'yicha) o'qituvchilari 5-7 sinflarda ajratilgan ma'lum o'quv soati mobaynida milliy xalq hunarmandchilik turlari, tarixi, ularda tayyorlanadigan mahsulot buyumlar turlari, xalq hunarmandchilik maktablari, xalq hunarmandchilik sohalarini asoschilari haqida, 8-9 sinflarda ajratilgan o'quv soatlari mobaynida bevosita milliy xalq hunarmandchilik texnologiyalarini, hunarmandchilik korxonalarini ishlab chiqarishining uslubiy asoslarini, ularni bozor sharoitida faoliyat ko'rsatish va rivojlanish istiqbollari o'rgatish lozim bo'ladi.

Texnologiya ta'limi o'qituvchisi oldida mavjud o'quv dasturlari asosida texnologiya ta'limi yo'nalishlari bo'yicha yog'och, metal, gazlama va turli xildagi materiallarga ishlov berishga asoslangan milliy xalq hunarmandchilik turlarini, qaysi tartibda o'quvchilarga o'rgatish kerak degan muammoni hal qilish vazifasi turadi. Ko'p yillik tajribalarimizdan kelib chiqqan holda, o'quvchi yoshlarni yosh xususiyatlari va hunarmandchilik texnologiyasi mohiyati bo'yicha milliy xalq hunarmandchilik sohalarini qo'yidagi tartibda o'qitish maqsadga muvofiqdir.

1. Milliy xalq hunarmandchilik sohalarini ularda ishlatilayotgan material turiga qarab umumlashtirish, yani yog'ochga ishlov berishga asoslangan milliy xalq hunarmandchilik sohalarini, metalga ishlov berishga asoslangan, gazlamaga ishlov berishga asoslangan, turli xil material(tosh, suyak, tuproq gelina, plastmassa va boshqalar)larga ishlov berishga asoslangan milliy xalq hunarmandchilik sohalariga bo'lish kerak.

2. Texnologiya ta'limini bo'yicha yog'och va metal hamda gaz lamalarga ishlov berishga ta'luqli hunarmandchilik sohalaridan o'quv dasturi bo'yicha qaysi birini o'qitishni soha murakabligiga qarab, sinflarga taqsimlash kerak.

3. Yosh avlodni o'tmishdagi milliy xalq hunarmandchilik texnologiyalaridan imkon qadar xabardor qilish zaruriyati bo'yicha ayrim mavzularni tugaraklarda o'qitish lozim bo'ladi.

Xalq hunarmandchilik sohalarini ishlov berilayotgan materiali bo'yicha umumlashtirish va sinflararo qo'yidagicha o'qitish maqsadga muvofiqdir.

Yog'ochlarga ishlov berishga asoslangan milliy xalq hunarmandchilik soha lariga yog'och o'ymakorligi, beshikchilik, aravachilik, egarchilik, sandiqchilik, sandalchilik, savatchilik, buyrachilik, karovot(suri)chilik, musiqa cholg'u asbob larini tayyorlaydigan hunarmandchilik, mebelchilik, milliy rom va eshiklar, o'y jihozlari tayyorlaydigan hunarmandchilik va boshqalar kiradi.

Metallarga ishlov berishga asoslangan milliy xalq hunarmandchilik sohalariga degrezlik, pixtakorlik, o'ymakorlik, chilangarlik, zargarlik, pichoqsozlik, misgarlik, qandakorlik va boshqalar kiradi.

Gazlamalarga ishlov berishga asoslangan milliy xalq hunarmandchilik sohalariga kashtachilik, quroqchilik, zardo'zlik, choponchilik, duppichilik, gilam chilik,

kiygizchilik, kunchilik, muynachilik, so'zana-pardachilik, poyafzal kosibchiligi va boshqalar kiradi.

Turli xil materiallarga ishlov berishga asoslangan milliy xalq hunarmandchilik sohalariga ganchkorlik, haykaltaroshlik, qo'lolchilik, suyak va tosh o'ymakorligi, tandirchilik, qandolatchilik va boshqalar kiradi.

Sinflararo o'qitilish qo'yidagicha bo'lsa maqsadga muvofiq bo'lardi.

5 va 8-9(yuqori sinflarda bevosita mahsulot tayyorlash) sinflarda yo'nalishlarga mos holda yog'ochga ishlov berishga asoslanganlardan yog'och o'yimakorligi, o'ymakorlikka asoslangan beshikchilik, egarchilik, metallga ishlov berishga asoslangan degrezlik, qo'ymakorlik, chilangarlik, gazlamaga ishlov berishga asoslangan kashtachilik, quroqchilik, kashtachilikka asoslangan choponchilik, do'ppichilik, kabi hunarmandchilik sohalarini o'qitish.

6 va 8-9 (yuqori sinflarda bevosita mahsulot tayyorlash) sinflarda yo'nalishlarga mos holda yog'ochga ishlov berishga asoslangan sandiqchilik, arava chilik, karovot(suri)chilik, metallga ishlov berishga asoslangan zargarlik, pichoq sozlik, gazlamaga ishlov berishga asoslangan gilamchilik, kunchilik kabi hunarmandchilik sohalarini o'qitish.

7 va 8-9(yuqori sinflarda bevosita mahsulot tayyorlash) sinflarda yo'nalishlarga mos holda yog'ochga ishlov berishga asoslangan savatchilik, buyrachilik, sandalchilik, metallga ishlov berishga asoslangan misgarlik, qandakorlik, gazlamaga ishlov berishga asoslangan kiygizchilik, so'zana – pardachilik kabi hunarmandchilik sohalarini o'qitish maqsadga muvofiqdir.

To'garaklarda yosh avlodga yog'ochga ishlov berishga asoslangan musiqa cholg'u asboblari tayyorlaydigan hunarmandchilik, mebelchilik, milliy rom va eshiklar, o'y jihozlari tayyorlaydigan hunarmandchilik, metallga ishlov berishga asoslangan pixtakorlik, gazlamaga ishlov berishga asoslangan muynachilik, poyafzal kosibchiligi va turli xil materiallarga ishlov berishga asoslangan milliy xalq hunarmandchilik sohalaridan ganchkorlik, haykaltaroshlik, qo'lolchilik, suyak va tosh o'ymakorligi, tandirchilik, qandolatchilik kabilarini o'rgatish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Texnologiya ta'limini buyicha qabul qilingan DTSlarga tahlil asosida etibor qilsak, har qanday hunarmandchilikni asosi va uni yuzaga chiqaradigan hamda bezash vazifasini bajaradigan naqqoshlik haqida kam e'tibor qilingan. qaysi xalq hunarmandchiligi sohasi bo'lmasin, uni o'rgatishdan oldin o'quvchilarga albatta naqqoshchilik haqida o'rgatish lozimdir. Chunki, xalq hunarmandchilida tayyorlanayotgan mahsulotini naqqosh solmasdan mahsulotni bezak naqqoshsiz tayyorlay olmaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Tolipov o'.Q., Sharipov Sh.S., Xolmatov P.Q. Umumiy o'rta ta'lim maktablari va maktabdan tashqari muassasalar to'garak rahbarlari uchun namunaviy dastur. Toshkent, Nizomiy nomidagi TDPU, 2003.

2. Tohirov O'. Mehnat ta'limi. O'qituvchilar uchun metodik qo'llanma. (7-9 sinflar. "Texnologiya va dizayn" yo'nalishi bo'yicha). Toshkent: "Tafakkur bo'stoni", 2013. 292 b.

3. Muslimov N.A., Sharipov Sh.S. Qo'ysinov O.A. Mehnat ta'limini o'qitish metodikasi, kasb tanlashga yo'llash. Darslik. Toshkent 2014 y.

4. Sharipov Sh.S., Qo'ysinov O.A., Abdullayeva Q. //Texnologiya. 6-sinf uchun darslik. Toshkent: "Sharq", 2017. -240 b.

ТЕХНОЛОГИЯ ДАРСЛАРИДА ЎҚУВЧИЛАРДА КРЕАТИВЛИК СИФАТЛАРИНИНГ РИВОЖЛАНГАНЛИГИНИ БАҲОЛОВЧИ МЕЗОНЛАР

Т.Ч.Алибоев Жиззах ДПИ "Технологик таълим" кафедрасининг катта ўқитувчиси

Резюме: Таълим жараёни ўқувчиларда креативлик сифатларини ривожлантиришда кенг имкониятларга эга. Мавжуд имкониятлардан самарали фойдаланиш бу борада қутилган натижаларни қўлга киритишга хизмат қилади. Фан ўқитувчилари тегишли фазилатларнинг ривожланганлик даражасини баҳоловчи мезонларга эга бўлиши ўқувчиларда креативлик сифатларини ривожлантириш йўлидаги амалий ҳаракатларнинг изчиллиги ва самарадорлигини таъминлайди. Мақолада ўқувчиларнинг креативлик сифатларининг ривожланганлигини баҳоловчи мезонлар ҳақида сўз юритилган.

Таянч тушунчалар: ўқувчилар, креативлик, креативлик сифатлари, креативлик сифатларининг ривожланганлиги, баҳолаш, мезон, баҳоловчи мезонлар.

Резюме: Учебный процесс имеет широкие возможности для развития творческих качеств в учащихся. Эффективное использование имеющихся возможностей послужит достижению ожидаемых результатов в этом отношении. Наличие у учителей естественных наук критериев оценки уровня развития соответствующих качеств обеспечивает последовательность и эффективность практических усилий по развитию творческих качеств у учащихся. В статье рассматриваются критерии оценки развития творческих качеств учащихся.

Основные понятия: учащиеся, креативность, творческие качества, развитие творческих качеств, оценка, критерии, критерии оценки.

Бугунги кунда шахсни шакллантириш, ривожлантириш ва ижтимоийлаштириш муаммоларини тадқиқ этувчи соҳалар – социология, педагогика ҳамда психологияда "ижодкорлик" тушунчаси билан бир қаторда "креативлик" атамаси ҳам қўлланилиб, баркамолликни ифодаловчи асосий сифатлар тарзида ифода этилмоқда.

Шахсда креативликни ривожлантиришда самарали бўлган омиллар қаторида яна қуйидагиларни эътироф этиш мумкин: кенг қўламдаги, шу жумладан, катта ёшли ижодкорлар билан мулоқот; тақлид қилишга имкон берувчи образ сифатида катта ёшлилар муҳитининг мавжудлиги; ота-оналар ва фарзандлар ўртасидаги ўзаро муносабатнинг демократик услубга асосланганлиги; болага ўз фикрини билдириш имкониятини бериш; катта

Эпилиларнинг фаол, амалий позицияси; болани жуда ёшлигиданоқ меҳнат қилишга ўргатиш; турли тўғаракларга аъзо бўлишини таъминлаш орқали болада ижодкорлик сифатларини изчил ривожлантириб бориш; болага шахсий тажриба, саёҳат орқали борлиқни англаш қувончини ҳис қилишига имкон бериш; боланинг тадқиқотчилик фаолиятини қўллаб-қувватлаш.

Маълумки, шахсга хос ҳар бир сифат муайян белгилар асосидат намоён бўлади. Педагогика ва психология йўналишларида тадқиқотчилар томонидан шахс креативлигини белгиловчи сифатларни аниқлаш, тизимлаштиришга эътибор қаратилган. Хусусан, О.В.Буторина [1] турли муаллифлар томонидан илгари сурилган фикрларга таянган ҳолда креативлик негизида акс этувчи белгиларни қуйидагича тизимлаштирган: ижодий лаёқатга эгалик; интеллектуал ижодкорлик; оригиналик, ўзига хослик; бевосита боғланмаган ассоциация; ахлит тизим таркибий тузилмасининг қайта ўзгартирилиши; ахборотнинг одатий бўлмаган ҳолда (махфийлаштирилиши) кодлаштирилиши; дивергент тафаккур (тафаккурнинг кўчиши); ички зиддиятлар натижаси (ёки ички зиддиятнинг йўқлиги); мавжуд билимлар доирасидан чиқиш; муаммоли вазиятни тезкор ҳал қилишга имкон берувчи ноанъанавий фикрлаш ва бошқалар.

Патти Драпеау [4] нуқтаи назарига кўра креатив фикрлаш, энг аввало, муайян масала юзасидан ҳар томонлама фикрлаш саналади.

Ҳар томонлама фикрлаш талабалардан ўқув топшириғи, масаласи ва вазибаларини бажаришда қўллаб қўйларга таянишни талаб этади. Бундан фарқли равишда бир томонлама фикрлаш эса биргина тўғри ғояга асосланишни ифодалайди. Мушоҳада юритишда масала юзасидан бир ва кўп томонлама фикрлашдан бирини инкор этиб бўлмайди. Бинобарин, бир ва ҳар томонлама фикрлаш креативликни шакллантиришда бирдек аҳамият касб этади. Яъни, топшириқни бажариш, масалани ечишда талаба ечимнинг бир неча вариантини излайди (кўп томонлама фикрлаш), кейин эса энг мақбул натижани қафолатловчи биргина тўғри ечимда тўхталади (бир томонлама фикрлаш).

Бизнинг фикримизга кўра, шахсда креативлик сифатларини ривожлантиришда уни фикрлашга, маълумотларни умумлаштиришга, таҳлил этишга, турли мураккаб вазиятларда тўғри қарор қабул қилишга ёшлиқдан одатлантиб бориш мақсадга мувофиқдир.

Креативлик фикрий эркинликни такозо этади. Бунинг учун шахс фикрлаш жараёнида таҳлилга эътибор қаратмаган ҳолда дастлабки талқинни баён эта олиши зарур. Таълим жараёнида интерфаол характердаги “Ақлий ҳужум” методини қўллашда ҳам айнан мана шу мақсад кўзланади. Белгиланган талабга кўра, таълим олувчилар асос қилиб олинган жараён, объект, предмет ёки ҳодисанинг моҳиятини денотация (бевосита тааллуқли) тушунчалари билан эмас, балки коннотация (кўчма маъноларини ифодаловчи) атамалари (масалан, тулки баҳо берилганда “айёр”, куён намоён бўлганда “қўрқок”, бўри ҳақида сўз борганда “очкўз”, оққуш ёритилганда “садоқат” каби тушунчалар қўлланилади).

Ўсмир ҳамда ўспиринларнинг билим даражаси, ҳаётий тажрибасини инобатга олган ҳолда уларни креатив фикрлашга одатлантириб бориш мақсадга мувофиқдир. “Креативликни ривожлантириш учун алоҳида психологик тайёргарлик такозо этилади. Борди-ю, шахс ўзини омадли ҳисобласа, маскур

ишонч уни янги гоъларни ишлаб чиқарувчи генераторга айлантиради. Кўрқув, иккиланиш ва онг остидаги негатив кўрсатма ижодий гоъларни инкор этишга хизмат қилади” [3]. Шунга кўра, гарчи ўсмир ва ўспиринлар ўзларининг билим даражаси ва ҳаётий тажрибаларига кўра баҳолаш объектига муносабат билдиришда реалликка, денотацияга таяниб иш кўришса-да, изчил равишда бир масаланинг ечимини топишга ҳар томонлама ёндашиш, турли ечим вариантларини топишга ундаш, ечим юзасидан билдираётган фикрини асослашга даъват этиш, масаланинг ечими бўйича камида бешта мантиқий фикр айта олиш масаласини ҳосил қилиб бориш уларда креативлик сифатларини самарали ривожлантиришга ёрдам беради.

Ўқув фанлари ўқувчиларда креативликни ривожлантиришда ўзига хос ўрин тутди. Зеро, ижтимоий, гуманитар, табиий ёки амалий характерга эга бўлишидан қатъи назар ўқув фанлари бўйича ташкил этиладиган машғулотларда ўқувчиларга бериладиган топшириқлар уларни фикрлашга, ўйлашга, мантиқий тафаккур юритиш, ўрганилаётган мавзу бўйича оригинал фикрларни илгари суришга ундайди.

Тадқиқотни олиб боришда Т.Ф. Башина, О.В.Буцик, Т.И.Виноградова (Грицай), А.Г.Герцов, Дж.П.Гильфорд, В.М.Голубова, В.Н.Дружинин, И.А.Малахова, Т.С.Мамонтова, Е.Л.Содатова, Е.Туник, М.Х.Усмонбоева, П.Дрепеау (Patti Drapeau), Эллис Пол Торренс каби тадқиқотчиларнинг нуқтаи назарларига таянган ҳолда креативлик сифатларига эга, яъни, креатив томонидан ташкил этиладиган ҳаракатлар тизимини ҳам ўрганишга эътибор қаратилди. Ўрганиш натижасига кўра креатив шахс томонидан қуйидаги ҳаракатлар тизимини ташкил этилади, деган хулосага келинди: янгиликни ҳис қила олиш, креативлик сифатларини намоён қилишга интилиш, ижодий муҳитни ҳис қилиш, объектнинг таркибий тузилмасини қайта шакллантириш, ўз-ўзини ижобий баҳолаш, ўз кучи, имкониятларига ишониш, гўзалликни севиш туйғусига эгалик, бир муаммодан бошқасига ассоциатив кўчиш, алоҳида элемент (гоя)лар ўртасидаги ўхшашликларни топишга интилиш, бир гоъяни билвосита ўзгача талқинда ифодалаш, ўзининг ва ўзгаларининг ҳаёлий, янги ва гайриоддий гоъяларини қабул қилиш, ноаниқ, мураккаб вазиятларга нисбатан юқори даражада ижобий муносабатда бўлиш, ноаниқ, мураккаб вазиятларда конструктив фаоллик кўрсатиш.

Маълумки, ҳар қандай маҳсулот сифати ва амалий қиймати муайян мезонлар асосида баҳоланади. Тадқиқот жараёнида креатив маҳсулотнинг сифати ва амалий қиймати қандай мезонларга кўра баҳоланади, деган саволга ҳам жавоб топилди. “Технология” дарсларида ўқувчиларнинг креативлик сифатларини ривожлантиришга йўналтирилган тадқиқотнинг етакчи назарий гоъялари, педагогик кузатиш натижалари, қолаверса, креатив маҳсулотнинг умумий тавсифи унинг сифати ва амалий қийматини қуйидаги мезонларга мувофиқ баҳолаш мақсадга мувофиқлигини тасдиқлади:

1. Мукамаллик (креатив гоъянинг ҳар томонлама пухта асосланганлиги; креатив маҳсулотнинг шакл, ранг, фазовий ва композицион жиҳатларининг ўзаро мутаносиблиги).

2. Мазмун ва шакл уйғунлиги (креатив ғоянинг пухта назарий асосга эгаллиги, мантикий яқунланганлиги; назарий ғоянинг креатив маҳсулот шаклий тузилмасида ўз ифодасини топанлиги).

3. Ўзига хослик (бошқалар томонидан билдирилмаган креатив ғоянинг илгари сурилганлиги; бошқалар “қўл урмаган” мавзу, ғоя бўйича креатив маҳсулотнинг яратилганлиги).

4. Тугалланганлик (яқунига етганлик; креатив ғоя мазмунида бошланғич, яқуний фикрий ҳаракат (операция)ларнинг тугал ифодаланганлиги; креатив маҳсулотда барча деталларнинг тўлиқ яқунига етказилганлиги).

5. Ҳиссий-эстетик таъсирга эгалик (креатив ғоя ва маҳсулотнинг ҳиссий ифодаланганлиги ва атрофдагиларга эстетик таъсир эта олиши).

6. Мавжуд ҳиссий-эстетик эҳтиёжни қондира олиш (креатив ғоя ва маҳсулотнинг ижтимоий субъектларда ҳиссий кечинмаларни уйғота олиши ва эстетик эҳтиёжларини қондиришга хизмат қилиши).

7. Амалий қийматга эгалик (креатив ғоя, маҳсулотнинг шахслараро ижтимоий, иқтисодий, маданий муносабатларни ташкил этишга хизмат қилиши).

Педагогик ва психологик йўналишларда илмий тадқиқотларни ташкил этишда муҳим жараён мавжуд бўлиб, бу жараён синов учун тавсия этилган дастур бўйича респондент сифатида танланган ўқувчиларда назарий билим ёки амалий кўникма-малакаларнинг шаклланганлик даражасини баҳолашга имкон берадиган мезон ҳамда даража кўрсаткичларини ишлаб чиқиш саналади. Мезон ва даража кўрсаткичларини ишлаб чиқишда танланган муаммо ечимини белгиловчи назарий тамойиллар ҳамда респондент-ўқувчиларнинг хатти-ҳаракатлари (фаолияти)да намоён бўлувчи асосий белгилар инobatта олинади. Шунга кўра мезон ва даража кўрсаткичларининг ўз моҳиятига кўра татқиқ этилаётган жараённинг умумий моҳиятини яққол акс эттира олиши талаб этилади.

“Технология” дарсларида ўқувчиларнинг креативлик сифатларини ривожлантиришга йўналтирилган педагогик жараённинг кечишини назарий ва амалий жиҳатдан ўрганиш, асосий, муҳим ҳолатларни таҳлил қилиш, респондент-ўқувчилар фаолиятини бевосита кузатиш натижасида куйидаги мезонлар ёрдамида тажрибадан аввалги ва кейинги вазиятларни объектив баҳолаш мумкин деган фикрга келинди:

1. Креатив сифатларга эгалик.

2. Ўзига хос креатив ғояларни асослаш малакасига эгалик.

3. Фаолиятга креатив ёндашиш лаёқатига эгалик.

4. Креатив маҳсулотларни яратиш қобилиятига эгалик.

Шахснинг ривожланишига қўйиладиган замонавий талабларга кўра муайян сифатнинг шаклланиш ёки ривожланиш даражаси, респондент-ўқувчилар томонидан қайд этиладиган кўрсаткичлари тегишли тадқиқот натижаларини баҳолаш имконини берадиган мезонларга мос келиши ҳамда муайян даража кўрсаткичларини ифодалай олиши зарур. Тадқиқотни олиб бориш даврида “Технология” дарсларининг дидактик имкониятларига таянган ҳолда ўқувчиларнинг креативлик сифатлари, ўзига хос креатив ғояларни асослаш малакаси ҳамда креатив маҳсулотлар яратиш қобилиятига эгаликлари англаш

(назарий билимларга эгаллик), амалий-фаолиятли (бажариш; амалий кўникма ва малакаларга эгаллик) ва рефлексив-баҳолаш (ўз-ўзини таҳлил асосида креативлик сифатларга эга бўлишни назорат ва таҳлил қилиб бориш) ҳолатлари паст, ўрта ва юқори даражада ривожланган бўлиши тадқиқотнинг самарали бўлганлигини тасдиқлаши зарур, деган қарорга келинди. Ушбу қарорга кўра “Технология” дарсларида ўқувчиларнинг креативлик сифатлари ривожланганлигини ифодаловчи даража кўрсаткичлари қуйидагилардан иборат қилиб белгиланди:

1) **юқори даража** – креатив сифатларга эга ва уларни изчил тақомиллаштириб боради; ўзига хос креатив ғояларни асослаш малакасига эга; фаолиятга креатив ёндаша олади; мураккаб ечимларга эга креатив маҳсулотларни ярата олади;

2) **ўрта даража** – креатив сифатларни изчил ўзлаштириб боришга ҳаракат қилади; пухта асосланмаган бўлса, ўзига хос креатив ғояларни илгари суришга, шунингдек, фаолиятга креатив ёндашишга интилади; баъзан мураккаб бўлмаган ечимларга эга креатив маҳсулотларни ярата олади;

3) **паст даража** – креатив сифатларни ўзлаштириб боришга ҳаракат қилади; баъзан пухта асосланмаган бўлса-да, ижодий ғояларни илгари суришга интилади; фаолиятга креатив ёндашишда қийинчиликка дуч келади, шу сабабли креатив маҳсулотларни яратишга қаратилган ҳаракати қутилган натижани бермайди.

Шундай қилиб, шахснинг муайян сифатларга эгаллиги ташхис методлари ва воситалари ёрдамида аниқланади. Бунда ташхис методлари ва воситаларининг самарали бўлиши муҳим аҳамият эга. Бироқ, шахснинг муайян сифатларга эгаллигини ташхислашда, энг аввало, унинг мавжудлиги ёки ривожланганлиги (шаклланганлиги)ни баҳолаш имкониятини таъминловчи мезонлар ҳамда даража кўрсаткичларини аниқ белгилаб олиш педагогик-психологик фаолиятни тўғри, оқилона ташкил этиш, натижаларни ҳолис баҳолашга ёрдам беради. Шу боис шахсда муайян сифатларга эгалликни баҳоловчи мезонларни асослаш муҳим аҳамият касб этади. Умумий ўрта таълим мактабларида ўқитувчиларнинг ўқувчиларда креативлик сифатларининг ривожланганлик даражасини баҳоловчи мезон ва даража кўрсаткичларига эга бўлиши улар томонидан таълим олувчиларнинг креатив фаолияти натижаларининг ҳолис баҳоланишига имкон яратади.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Буторина О.В. Кросскультурное исследование креативности в управленческом потенциале руководителя / “Психология XXI века». Мат.международной научно-практ.конференции студентов и аспирантов. – СПб.: СПбГПИ, 2003. – С. 277.

2. Жолдасбеков А.А., Ажибеков К.Ж., Мамбетов М.К., Жолдасбекова К.А., Сихымбаев К.С. Развитие креативного мышления студентов в процессе обучения // Международный журнал экспериментального образования. – м.: 2015. – № 2-2. – С. 136-137.

3. Drapeau Patti. Sparking student creativity (practical ways to promote innovative thinking and problem solving). – Alexandria – Virginia, USA: ASCD, 2014. – p. 9.

ҲАЁТ ФАОЛИЯТИ ХАВФСИЗЛИГИ ФАНИНИНГ АМАЛИЙ МАШҒУЛОТЛАРИНИ ПЕДАГОГИК ТЕХНОЛОГИЯ АСОСИДА ЎҚИТИШ

Ш.Раҳмонов НамМҚИ Катта ўқитувчи

Ш.Юлдошев НамМҚИ ўқитувчи

Ҳозирги замон ўқитиш тизимининг асосий мақсади талабалар билимини мавзуларга мос келадиган педагогик технологиялардан фойдаланган ҳолда оширишдир. Бу ўз навбатида ўқув машғулотига ажратилган вақтдан унумли фойдаланишни тақозо этади.

Амалий машғулот дарсини ташкил этишда қуйидаги босқичлар эътиборга олинади:

-мавзуга доир асосий атама ва тушунчалар бериш;

-мавзуни тушунтириш учун зарур бўлган материаллар тўғрисида қисқача тушунча бериш;

-амалий машғулотдан қўзланган мақсад;

-олинадиган натижалар.

Амалий машғулотни гуруҳ талабалари сонидан келиб чиққан ҳолда икки гуруҳга ажратиб, уларга олдинги ўтилган мавзудаги муаммолар йўналишидаги олдиндан тайёрлаб келинган саволлар берилади. Саволларга олинадиган жавобларни баҳолаш учун фаол талабалар белгиланади.

Талабалар гуруҳчаларига бериладиган саволлар шаклини ўзгартириш орқали талабалар билимини синаш даражасини ошириш учун мумкин. Бунда жавоблар тўпламини талабаларга ҳавола этиш усулидан фойдаланиш мумкин. Масалан, “Зарарли омилларни аниқлаш усуллари” мавзуси бўйича “Зарарли омиллар деб нимага айтилади?”, “Зарарли омилларга нималар киради”, “Зарарли омиллар инсон организмга қандай таъсир қилади?” саволлари берилиши оддий усул. Агар уларнинг жавобларини талабалар ўртасига ташланса, ўқувчи уларни оsonлик билан англаши қўзатилади. Буларни қуйидагича кўринишда кўрсатилиши мумкин:

-узoқ муддат таъсирида инсон организмга таъсир этиши натижасида унинг саломатлигини бузадиган ёки бирор касб касаллигига олиб келадиган омиллар нима деб аталади?

-чанг, тутун, турли хил газлар, шовқин, титраш кабилар инсонга кўрсатадиган салбий таъсирга кўра нима деб аталади?

-инсоннинг нафас олиш органи орқали таъсир кўрсатадиган зарарли омилларни тушунтириб беринг, каби жавоб кўринишидаги жумлалар ҳавола этилади. Айтиш мумкинки, талабанинг бу кўринишдаги саволларга жавоб беришлари учун қисқа вақт сарфланади. Моҳияти жиҳатидан қарайдиган бўлсак, талабаларга бериладиган ҳар қандай саволларга берадиган жавоблари бир вақтни ўзида: берилган жавобларини исботлаш бўйича дастлабки фикрларини, танлаган ечим усулини, исботлашнинг бориши тарикасида овоз чиқариб гапирадилар. Ўз усулларининг самарадорлигини ўзлари баҳолайдилар, уни қайта кўриб чиқадилар, тенг кучли ижодий ёндашишларни излайдилар. Айнан шуларни эътиборга олиб, талаба билими баҳоланишидан олдин албатта, талабаларга

уларнинг берган жавобларидан келиб чиқадиган саволлар тузишлари топшириги берилади.

Форобий(879-950) ўқувчиларнинг билиш қобилиятларини ривожлантиришга оид бир қатор тавсиялар ишлаб чиққан. «Яхши назариячи бўлиш учун - дейди у, қандай фан бўлишидан қатъий назар қўйидаги уч шартни бажариш зарур: 1) бу фан асосини ташкил этувчи барча принципларни билиши; 2) бу принцип ва маълумотларни муайян фанга қўллаб хулоса яшаш, яъни мулоҳаза юритиш(фикрлаш) қобилиятига эга бўлиши; 3) хато назарияларни инкор қилиш ва бошқа муаллифлар фикрларини таҳлил қилиб, ҳақиқатни ўрнатиб, хатоликни тузатиш» амалга оширилиши зарур. Бу фан ўқитувчиси албатта, ўз устида ишлайдиган, билимдон бўлишини талаб этади.

Талабадан берилган жавоб асосида яратиш мумкин бўлган саволлари шакли турлича бўлиши мумкинлигини ҳисобга олган ҳолда ўқитувчи томонидан ўша саволларнинг жавобларига алоҳида кўрсатиб ўтиши лозим. Кўрсатилган усул бўйича биринчидан, талабаларнинг билими ошиши тезлашса, иккинчидан битта савол бўйича икки марта фикр юритилиши билан уларда малака ва кўникманинг ошиши кузатилади. Дастлабки босқичларда тўла бўлмаган жавоблар иккинчи гуруҳчага ҳавола этилади ва ўқитувчининг тўлдириши билан якунланади. Савол ва жавоблар талабалар онгига етиб боргач, унинг моҳиятини англаб етганидан сўнг янги мавзу баёни давом эттирилади. Бунинг асосида талабалар томонидан аниқ берилган жавоблар туриши эслатиб ўтилади.

Янги мавзуну баён этишнинг бошланғич даврида талабаларга мавзуга доир бўлган барча материаллар ва асбобларнинг тузилиши, ишлаш принциплари тўла кўрсатиб ўтилади. Кўрсатилган мавзу асосида ўтиладиган дарслар учун – зарарли омиллар ва уларнинг инсон организмга салбий таъсирига доир рангли плакатлар, зарарли омиллар – ҳаво таркибидаги газлар ёки чанглар бўлса уларни аниқлаш учун ишлатиладиган универсал газанализатор, чанг бўлса ротаметрик чанг сўргичлар талабага ҳавола этилиб, уларнинг ишлаш принциплари баён этилганидан сўнг, ушбу зарарли омиллардан айримларига доир санитария талаблари асосида белгилаб қўйилган рухсат этилган чегаравий меъёрлар тушунтирилади. Дарс сўнггида ушбу мавзуга доир берилиши мумкин бўлган саволлар ва уларга бериладиган жавоблар тайёрлаш топшириги берилади. Бунда ҳам кўриб ўтилган тескари, яъни жавоблар асосидаги саволларни тайёрлаш қулай бўлиши эслатиб ўтилади.

Демак, янги педагогик технология қондаларини ўқув жараёнига тўла-тўқис тадбиқ этилишини таъминлаш – бу қондаларнинг моҳияти, имкониятлари ва уларнинг умумдидактика қондалари билан уйганлашиш имкониятларини тўлароқ таҳлил қилиш билан чамбарчас боғлиқдир. Бунда талабаларнинг фаоллигини ошириш орқали дарснинг сифатли бўлишига эришиш имконияти яратилади.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Оконь В. Введение в общую дидактику. Пер. с польск. М. Высш.шк., 1990. -382с.

TALABALARNI OLOV BILAN YAQINDAN TANISHTIRISH

X.M.Akramov NamDU, Texnologik ta'lim kafedrası dotsenti.

A. Matkarimov NamDU, Texnologik ta'lim kafedrası katta o'qituvchisi.

A.S. Sayfitdinov NamDU, Texnologik ta'lim kafedrası katta o'qituvchi.

Ajdodlarimizning qadimdan turli ko'rinishdagi tabiiy ofatlarga qarshi kurashib kelgani, ularning yashash sharoitidan, hayotida aks etgan urfu-odatlar, an'analar, hatto ishlatib kelingan iboralaridan ham ma'lum. Ana shunday iboralardan biri "O't balosi, suv balosi, tuhmat balosidan asragin" deb o'zlariga xavfsiz hayot bo'lishini Ollodhan so'raganlar.

Ota - bobolarimiz "Olov - bu tilsiz yov" deb bekorga aytishmagan. Biroq, olovsiz hayotimizni tasavvur qilishimiz juda ham qiyin. Kundalik turmushimizda, hayotiy faoliyatimizda u biz uchun eng kerakli narsa. Demak, olov bizning yashab qolishimiz va hayotimizning go'zallashib borishi uchun asosiy omillardan biri. Faqat undan to'g'ri foydalansak, unga bee'tibor bo'lmasakgina biz undan xavfsiz foydalanamiz.

Olimlarning ta'kidlashlaricha samoning chegarasi yo'q. Inson esa yuz milliardlab galaktikalardan biri bo'lgan Quyosh tizimida umrguzaronlik qilib kelmoqda. Quyosh tizimida 8 ta planeta, 42 ta yo'ldosh, 50 mingdan ortiq kichik asteroidlar, sanog'i yo'q meteorit va kometalar kiradi. Osmon jismlarining o'zaro bir-biri bilan bog'liqligi, ulardagi energiyaning o'zaro aloqadorligi, hatto inson xarakteri, uning holati va sog'ligiga ta'sir etuvchi ko'zga ko'rinmas kuchlar mavjudligi fan oldida o'z sirini yo'qotdi.

Hayot insonni olovdan foydalanishga o'rgatdi. U olovning o'zi uchun qanchalik foydali ekanligini anglab yetgan kundanoq, uni aziz tutishga harakat qildi. Olov inson hayotiga kirib kelishi bilanoq uning turmush tarzida kuchli o'zgarishlar yuz berdi. Odamzot olovda pishirilgan taom shirin bo'lishini bilgani zahoti u turli yuqumli kasalliklarga qarshi kurasha oldi. Olov odamzot umrini uzayishiga, yovvoyi hayvonlar hujumidan himoyalashga, sovuqdan saqlanishga sabab bo'ldi. Boshqacharoq aytganda, biz bugun kundalik hayotimizda foydalanayotgan barcha issiqlik manbai, yoritgichlar va boshqa vazifalarni olov bajaradi. SHu sabab, ajdodlarimiz olovni ulug'lashib, uni pok tutib kelishga harakat qilganlar. Qadimda grek allomalari dunyoni asoslaridan biri - olovdur, deb bekorga aytishmagan.

Olov - bu kimyoviy elementlar reaksiyasi natijasida paydo bo'ladigan hodisa. U inson hayoti uchun zarur, odam tomonidan nazorat qilib bo'ladigan, unga naf keltiradigan jarayon. U nazoratdan chiqib ketsagina yong'inga aylanishi mumkin.

Yong'in - bu nazorat qilib bo'lmaydigan xodisa bo'lib, bebaxo moddiy va madaniy boyliklarni bir daqiqada yo'q qiluvchi ofat, ayniqsa u fuqarolarning joniga kulfat keltiruvchi favqulodda vaziyatdir.

Yonginning kelib chiqishi uchun uch omilning bir vaqtini o'zida bir joyda bo'lishining o'zi kifoya. Ya'ni:

- yonuvchan modda (neft, atseton, qog'oz, yog'och va boshq.);
- xavo (kislod);
- uchkun-alanga (gugurt, uchkun, elektr simining qisqa tutashuvi).

Yong'in va portlashlarga yong'in xavfsizligi qoidalariga amal qilmaslik, fuqarolarning loqaydligi, e'tiborsizligi, elektr simlarining nosozligi, gaz, ko'mir, o'tin bilan isitiladigan vositalar, bolalarning olov bilan o'ynashlari, qasddan yoqib yuborishlar sabab bo'lishi mumkin.

Ishlab chiqarish bilan bog'liq bo'lgan yong'inlar iqtisodiyotga eng ko'p zarar keltiradigan, insonlar hayoti uchun katta xavf tug'diradigan favqulodda vaziyatlar hisoblanadi. Chunki, ishlab chiqarish yong'inlari portlash kabi noxush hodisalarga ham olib kelishi mumkin. Quyida esa ishlab chiqarish jarayonida keltirib chiqarish mumkin bo'lgan yong'in sabablarini ko'rsatib o'tildi. Ular:

-elektr tarmoqlari noto'g'ri tanlanganda, montaj qilishda, elektr simlari va elektr uskunalarini izolyatsiya qatlami qisqa tutashuv oqibatida uchqunlar chiqishi;

-elektr tarmoqlari, uskunalar va mashinalar qizib ketganidan ajralib chiqadigan issiqlik;

-podshipniklarning bir-biriga ishqalanishi, gazlarning yuqori bosim ostida va katta tezlikda teshik va tirtiqchlardan chiqishida ajralib chiqadigan issiqlik;

-metall detallarning bir-biriga va toshga urishidan kelib chiqadigan uchqunlar;

-ayrim modda va materiallarning o'zaro kimyoviy ta'siri shuningdek, organik moddarning o'z-o'zidan yonib ketishida ajraladigan issiqlik;

-statik elektr tokining zaryadlari va h.k.

Ayrim hollarda yong'in kelib chiqishining sabablari olov bilan ishlatiladigan ishlab chiqarish uskunalaridan hosil bo'ladigan alanga, nur issiqligi, isitish asboblari, elektr va gaz chilangar aparatlari ham bo'lishi mumkin



Hayotda ko'plab uchrab turgan holatlardan biri o'z-o'zidan yonib ketish hisoblanadi. Bunda ayrim predmetlar yuz bergan kimyoviy reaksiyalar natijasida ichki va tashqi omillar sabab yona boshlaydi. Masalan, oddiy issiq suv yoki bug' quvuri issiqlik manbai rolini o'ynashi va gazlama, qog'oz, yog'och buyumlar o'z-o'zidan yonib ketishi uchun yetarli bo'lishi mumkin. Quvurlardagi suv harorati issiqlik 150°S gacha yetishi mumkinligini unutmaslik zarur.

Ko'pincha ko'mir, torf, xas-xashak yoki paxtaning tutashi va yonib ketishining guvohi bo'lamiz. O'ramdagi to'l, tsellofan va tsellyuloid, qog'oz yonib ketishi mumkin. Torf va qo'ng'ir ko'mirning o'z-o'zidan yonib ketish harorati $50 - 60^{\circ}\text{S}$, paxtaniki 120°S , qog'ozniki - 100°S , linoleumniki - 80°S ga teng.

Kimyoviy o'z-o'zidan yonib ketish modda va materiallarning havo va boshqa oksidlovchilar bilan oddiy sharoitlarda kimyoviy reaksiyaga kirishib, ularning yana boshlashi uchun yetarli issiqlik ajratishiga ham bog'liq. Masalan, fosforning havoda, oson yonib ketuvchi suyuqliklar bilan margantsovka birikkanda, yog'och qipiqdari kislotalar bilan birikishida o'z-o'zidan yonib ketish hodisalari kuzatiladi.

Kimyoviy reaksiyalarning boshqa bir turi suv yoki havo bilan o'zaro ta'siriga bog'liq. Bunda ham modda va materiallarning o'z-o'zidan yonib ketishi uchun yetarli harorat ajralib chiqadi. Kaliy, natriy, kaltsiy karbidi, so'ndirilmagan ohak shunday hususiyatlarga ega. Ishqorli moddalar kislorodsiz ham yonib ketishi mumkin. Reaksiya uchun zarur bo'lgan kislorodni ular o'zlari, yuqori harorat ostida havo namini kislorod va vodorodga ajratib ishlab chiqaradilar. SHu sababli ham bunday moddalarni suv bilan o'chirish portlashga olib keladi.

Va nihoyat, mikrobiologik o'z-o'zidan yonib ketish mayda hashoratlar faoliyati bilan bog'liq. Ular presslangan materiallarda juda ko'plab ko'payadilar, barcha organik moddalarni yeydilar va shu yerning o'zida nobud bo'ladilar. CHirish jarayonida o'zidan issiqlik ajratib chiqaradilar. Misol tariqasida bulturgi somon xirmonining o'zidan o'zi yonib ketishini ko'rsatish mumkin.

Turar joylarda va ishlab chiqarish korxonalarida yong'in chiqib kelishining sabablari turlicha. Ishlab chiqarish korxonalarida yong'in ko'pincha texnologik asbob-uskunalar, elektr, asbob uskunalarining nosozligidan, hodimlarning olov bilan ehtiyotsiz muomilasi va yong'in xavfsizligi qoidalarining buzishlaridan kelib chiqadi.

Texnologik uskunalarni loyihalash va ulardan foydalanishda muhandis-texnik tadbirlarni amalga oshirish, shuningdek, yong'in xavfsizligi qoidalariga amal qilish yong'inning oldini oladi.

Yong'in va portlash hodisasi bir – biridan ajralmas. Ayrim hollarda portlash yong'inga sabab bo'ladi, ba'zan yong'in vaqtida portlash sodir bo'ladi.



Biz har kuni foydalanadigan, usiz hayotimizni tasavvur ham eta olmaydigan, e'tibor ham bermaydigan ayrim narsalarni o't olgan paytida qancha issiqlikka ega bo'lishini bir tasavvur etaylik. Gugurt chupini uning sirtiga urib uchqun hosil qilgandagi issiqlik - 750-860 S,

sigaret yoqishdagi uchquni – 700-750 S,

sham – 640-940S,

yog'och uchquni – 850-1000S,

benzinli o't oldirgich (zajigalka) o't olishi 1200-1300 S.ni tashkil etadi.

Yong'in bilan bog'liq hodisalarning oldini olish insonning o'ziga bog'liq ekanligini unutmazlik lozim. Ozroqqina e'tiborli bo'lsak, olov chiqaruvchi manbalarni nazorat qilib tursak. Bunday tilsiz yov Siz bilan Bizdan yiroq bo'ladi. Buning uchun uy va ish sharoitida quyidagilarga e'tibor berishning o'zi kifoya. Ular maqsadida, ayrim yong'in xavfsizlik qoidalarini eslatib o'tish maqsadga muvofiq deb o'yladik:

- uyda yonib turgan gaz asbobini nazoratsiz qoldirmaslik;
- yasama pechkalardan foydalanmaslik;
- gazni nostandart shlang orqali ulamaslik;
- mo'rilarini vaqtida tozalab turish;
- xonani gaz plitalari orqali isitmaslik;
- buzuq elektr asboblaridan foydalanmaslik;
- gaz plitalari ustida yuvilgan kiyim- boshqalarni quritmaslik;
- gaz isi sezilayotgan xonada gugurt yoqmaslik, uchqun chiqaradigan boshqa vositalardan foydalanmaslik hamda nosozligi haqida gaz ta'minoti xizmatiga vaqtida murojaat qilish lozim;
- gugurt va boshqa o't oldiruvchi jihozlarni bolalar qo'liga tushib qolishini oldini olish;
- sigaretani belgilangan joyda chekish;
- yotish joyida, uyda mast holda sigareta chekmaslik va boshqalar.

Yong'in nafaqat uy-joylarimizni kulga-aylantirishi, balki ko'plab insonlarni hayoti xavf ostida qolishiga, salomatliklarining yomonlashishiga olib kelishi mumkin.. SHuning uchun gaz asboblaridan to'g'ri foydalanilsa, ko'ngilsiz holatlardan yiroqlashgan bo'lamiz.

Olovni o'z vaqtida o'chirish, ya'ni zudlik bilan unga qarshi borish va uning manbasini yo'q qilish juda katta talofatlarning oldini olish. demakdir. Bu esa kishidan chaqqonlik, dovyuraklik, tezda fikrlay olish, vaziyatni baholay bilish hamda xulosa qilishni talab etadi. Xullas:

- alangani o'chirishning iloji bo'lsa, uni o'chirgan yaxshi. Imkon bo'lmasa, bunda uning tarqalish maydonini kamaytirishga va olovni yonuvchi materialar yo'q joyga "haydash" ga harakat qilgan yaxshi;

- imkoniyat bo'lsa yo'laklarda, tomda, yerto'lada harakat qilganda arqonlardan foydalanish lozim, shunda siz orqaga qaytish yo'lini osongina topa olasiz, chunki tutun. gaz hidi sizni adashtirishi, ko'rish qobiliyatingizni susaytirishi mumkin;

- o'tni o'chirib bo'lmasa, sekin-asta chekinish, biroq o'tni nazorat ostida ushlab turish kerak;

- yonish manbai yo'q qilingach, boshqa joylarni tekshirib chiqish kerak bo'ladi;
- binolarni qulab tushishi ehtimolligini ham unutmash kerak;
- yonayotgan binodan chiqib ketishni imkoniyati bo'lmasa, polga yotib olish va nafas olish organlarini nam sochiq bilan berkitish kerak, u yerda tutun kam va kislorod ko'proq (burchaklarda), tutun va zaharli gaz olovdan ham xavfliroqdir;
- eng muhimi vahimaga tushmaslik lozim, o'ylab qilingan harakat hayotingizni saqlab qolish uchun ko'proq imkoniyat yaratadi.

Yong'indan yonayotgan odamga eng birinchi yordam, uni yerga dumalatish (yiqitish kerak.) CHunki, olov yuqoriga intiladi. U kishini nafas olish, ko'rish va yuz qismlarini, shuningdek tananing katta qismini jarohatlashi mumkin. Yiqilgan odamning yonayotgan tomoni tepaga qilinadi. Aynan shu qismdagi olovni o'chirishga harakat qiling. Buning uchun turli usullardan, ya'ni qo'lingizda mavjud bo'lgan narsalardan foydalanish mumkin. Suv bo'lsa suv sepish, material bo'lsa, u bilan olovni o'chirish (bunda kiyim – boshdan ham foydalansa bo'ladi). SHundan so'ng unga tibbiy yordam ko'rsatish lozim. Avvalo kishining nafas olishi, ko'z va yuz qismining jarohatini tekshirib ko'rish kerak. Yuz qismiga jarohat yetmagan, nafas olishi qiyinlashmagan bo'lsa, darhol tananing yongan joyiga yordam ko'rsatish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi Yong'in xavfsizligi Bosh boshqarmasining "Yong'in xavfsizligi" jumallari
2. F. Ilyosova. "Hayot xavfsizligi asoslari" T. "Moliya" 2001 y.
3. SH. Ubaydullaev, A. Norboev va b. "CHaquiruvga qadar boshlang'ich tayyor garlik", T., "Ilm-Ziyo" 2011y.
4. M. Mamadazimov "Umumiy astronomiya", T. "Yangi asr avlodi", 2008 y.

HAYOT FAOLIYATI XAVFSIZLIGI FANINING MAQSADI ASOSIY VAZIFALARI VA TUZILISH HAMDA MEHNATNI MUHOFAZA QILISHDA ERGONOMIKASI VA AHAMAIYATI

**Sh.V.Raxmonov Namangan muxandislik-qurilish instituti katta
o'qituvchisi**

A.A Turgunov Namangan muxandislik-qurilish instituti katta o'qituvchisi
Sh.X. Yuldoshev Namangan muxandislik-qurilish instituti o'qituvchisi

Insonning faol harakatlari yig'indisi - faoliyat tushunchasini bildiradi. Aynan mana shu faoliyat insonlarni boshqa tirik mavjudotlardan farqlantiradi. Demak, faoliyat - insonning bor bo'lib turishi uchun zaruriy ko'rsatkich hisoblanadi. Mehnat esa inson faoliyatining eng oliy shaklidir. Shuning uchun faoliyat ham, mehnat ham bo'lmasa, kishilik jamiyati ham bo'lmaydi. Hayotiy faoliyat - bu odamning kundalik faoliyati, dam olishi, turmush tarzidir.

Xavfsizlik - bu faoliyatning holati bo'lib, ma'lum ehtimollikda xavflarning kelib chiqishini bartaraf qilishdir. Faoliyat xavfsizligi qadim zamonlardan to hozirgi kunimizga qadar insoniyatni ilmiy va amaliy qiziqishlarining eng muhim bir tomonidir. Odamzot har doim o'zining xavfsizligini ta'minlashga intiladi. Ishlab chiqarishning rivojlanishi bilan bu masalalar maxsus bilimlarni talab qiladi. Bizning davrimizda xavfsizlik muammolari yanada keskinlashdi. Ma'lumki baxtsiz hodisalar, yong'inlar, avariya va talofatlardan katta miqdorda zarar ko'riladi.

Shuning uchun xavflardan himoyalaniş masalalarida odamlarni tarbiyalash muhim ahamiyatga ega. Jamiyatimizni barqarorlashtirishda bu fan muhim ijtimoiy rol o'ynaydi va xalq xo'jaligi faoliyatining xavfsizligi darajasini oshirishga ulkan hissa qo'shadi. Faoliyat jarayonining modeli ikki elementdan: inson va muhitdan tashkil topgan deyish mumkin, chunki faol faoliyat bilan faqat insonlar shug'ullanadi va ular o'zlarini o'rab turgan atrof muhit bilan yaqin munosabatda bo'ladi. Shuningdek, «Inson - muhit» tizimini ham ikki maqsadli deb qarash mumkin:

«birinchi maqsadi - inson o'zining mehnat faoliyati jarayonida muayyan yutuqlarga, samaradorlikka erishishga harakat qilsa,

ikkinchi maqsadi- mehnati jarayonida yuzaga keladigan ko'ngilsiz oqibatlarni bartaraf qilishdan iborat bo'ladi.

Hozirgi davrda ishlab chiqarish xavflaridan, tabiiy ofatlardan, falokat va halokatlardan insonlarning hayot faoliyatini saqlash eng dolzarb muammolardan hisoblanadi. Turli falokatlar, halokatlar va ofatlardan insonlar hayot faoliyatini saqlash «Hayot faoliyati xavfsizligi» fanining maqsadlaridan biridir. Aynan mana shu muammolar yechimini «Hayot faoliyati xavfsizligi» fani o'rganadi.

Hayot faoliyati xavfsizligi fanining maqsadi.

Hayot faoliyati xavfsizligi fani - ilmiy metodologik fanlar qatoriga kirib, uning asosiy maqsadi, inson hayot faoliyatida yuzaga keladigan xavflarning kelib chiqish sabablarini, oqibatlarini va ularni yo'qotish uslublarini, xavfsiz ish sharoitlarini yaratish, tabiiy, texnologik va ekologik favqulodda vaziyatlardan fuqarolarni muhofaza qilish, ularni ham nazariy, ham amaliy jihatdan himoyalanişga tayyorlash hamda jarohatlanganlarga tibbiy yordam ko'rsatish qoidalarini o'rgatishdan iborat. «Hayot faoliyati xavfsizligi» fanining markaziy e'tiborida «inson- tabiat-jamiyat» rivojlanishining maqsadlari yotadi.

Hayot faoliyati xavfsizligi fanining asosiy vazifalari :

1. Xavflarning identifikatsiyasini o'rganish. Bunda inson faoliyati jarayonida yuzaga keladigan xavflarning kelib chiqish sabablarini, uning xususiyatlarini va ko'ngilsiz oqibatlarini o'rganish.

2. Ishlab chiqarish jarayonlarida va xizmat ko'rsatish sohalarida xavfsiz mehnat sharoitlarini yaratishga qaratilgan chora-tadbirlarni o'rganish.

3. Ishlab chiqarish jarayonlarida kasb kasalliklarini kamaytiradigan uslubiyatlarni ishlab chiqish.

4. Fuqarolarni turli xavflardan, tabiiy ofat, avariya va halokatlardan himoyalaniş usullariga o'rgatish.

5. Mehnat jarayonlarida baxtsiz hodisalarning oldini olish chora- tadbirlarini o'rganish.

6. Tabiiy, texnogen va ekologik shikastlanish o'choqlaridagi fuqarolarni qutqarish va tiklash ishlarini o'tkazish.

7. Jarohatlangan insonlarga birinchi tibbiy yordam ko'rsatishni o'rgatish.

«Hayot faoliyati xavfsizligi» fani tuzilish jihatdan 4 ta bo'limdan tashkil topgan. Hayot faoliyati xavfsizligining nazariy asoslari bo'limida fanning asosiy tushunchalari, ularning mazmuni, xavfsizlikni ta'minlash usul va vositalari, inson faoliyatining turlari, ishlab chiqarish sanitariyasi va gigienasi, ularga qo'yiladigan talablar hamda mehnatni muhofaza qilishning huquqiy asoslari mavzulari muhokama etilgan.

Fuqaro muhofazasi bo'limida: Favqulodda vaziyatlar, ularning sababchi omillari, xususiyatlari va oqibatlari, favqulodda vaziyatlardan fuqarolarni, moddiy boyliklarini, ob'ektlarni himoya qilish usullari va himoyalovchi vositalardan foydalana bilish qoidalariga o'rgatish, shikastlangan o'choqlarda qutqaruv va birinchi tiklov ishlarini o'tkazish va boshqa muhim vazifalar muhokama etilgan. Bu bo'limda keltirilgan ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasining fuqaro muhofazasiga oid qonunlar, Prezident farmonlari, hukumat qarorlari va favqulodda vaziyatlar vazirligining yo'riqnomalari asos qilib olingan.

Xavf-xatar tushunchasi va ularning turlari.

Xavf-xatar - odamlar hayoti va sog'lig'iga, hayot faoliyatiga taxdid, moddiy va atrof-muxitga etkazilishi mumkin bo'lgan zarar. Xavf-xatar favqulodda vaziyat manbai hisoblanib, muayyan sharoitda favqulodda vaziyatni keltirib chiqaradi. Har qanaqa xavf o'zida inson hayot faoliyatini izdan chiqaruvchi energiyaga ega bo'lib, kimyoviy yoki biologik faol komponentlarni o'zida saqlaydi. Masalan: parfyumeriya sanoatida qo'llaniladigan erituvchilar: efir, spirt, xloroform va boshqalarning surunkali ta'sir etishi insonlarda allergik kasalliklar yuzaga kelishiga sabab bo'ladi.

Faoliyat xavfsizligini ta'minlash vositalari

Ishlovchilarga zararli va xavfli ishlab chiqarish omillarining ta'sirini kamaytirish yoki oldini olish uchun himoya vositalari qo'llaniladi.

Ishlovchilarning himoya vositalari inson organizmiga eng ma'qul sharoitlarni yaratish va quyidagilarni ta'minlashi lozim:

- ish zonasidan xavfli va zararli moddalar miqdorini kamaytirish, ularning ta'sirini uzoqlashtirish yoki haydash; zararli omillar miqdorini belgilangan darajadagi sanitar normagacha kamaytirish; ishlovchilarni qabul qilingan texnologiyalar va ish sharoitlarida xamroh bo'lgan zararli va xavfli ishlab chiqarish omillaridan himoya qilish; texnologik jarayon buzilganda paydo bo'ladigan salbiy omillardan himoya qilish. Himoya vositalarini tanlash har bir alohida holatlarda mehnat xavfsizligi talablariga asosan amalga oshiriladi. Xavfsizlikni ta'minlash prinsiplari va usullarini gavdalandirishda har xil himoya vositalari qo'llaniladi. Himoya vositalarining qo'llanilish xarakteri bo'yicha kollektiv himoya vositalari (KHV) va shaxsiy himoya vositalariga (SHHV) bo'linadi. Har biri vazifasiga ko'ra sinflarga bo'linadi. KHV zararli va xavfli omillarga bog'liq holda shovqindan, titrashdan, elektrostatik zaryadlardan himoyalash vositalariga sinflanadi. SHHV asosan himoyalananadigan inson a'zosi yoki a'zolar guruhiga qarab: nafas a'zolarini, qo'l, bosh, bet (yuzni), ko'zni va eshitish a'zolarini himoya qilish vositalariga bo'linadi. KHV texnik tayyorlanishiga qarab quyidagi guruhlarga bo'linadi: to'siqlar, blokirovkalar, tormozlar, saqlovchi moslamalar, yorug'lik va ovoz signallari, xavfsizlik asboblari, signal ranglari,

xavfsizlik belgilari, avtomatik nazorat qurilmalari, masofadan boshqarish vositalari, elektr jihozlarini erga ulash va nollash qurilmalari, shamollatish (ventilyasiya), yoritish, isitish, sovutish (konditsionerlash), izolyasiyalash, germetizatsiyalash vositalari kiradi.

Shaxsiy himoya vositalariga gidroizolyasiya kostyumlari, skafandlar, protivogazlar, respiratorlar, pnevmoshlemlar, pnevmomaskalar, har xil turdagi maxsus kiyim va poyafzallar, tutgichlar, qo'lqoplar, kaskalar, shlemlar, shapkalar, shlyapalar, shovqinga qarshi shlemlar, quloqqa qo'ygichlar (vkladishlar), himoya ko'zoynaklari, saqlaguvchi belbog'lar, himoyalovchi dermatologik (kremlar) vositalar va boshqalar kiradi.

Mehnatni muhofaza qilishda ergonomikaning ahamiyati.

Hayot faoliyati xavfsizligi fanini o'rganishda ijtimoiy, texnik, gumanitar fanlar qatorida ergonomika fanining ham ahamiyati katta. Ergonomika atamasi grekcha ergon – ish, nomos-qonun degan ma'noni anglatadi va bu so'z 1949 yida Angliyada yuritila boshlanib, keyinchalik keng tarqalishiga olib keldi.

Ergonomika - bu mehnat qurolining va mehnat sharoitining inson talablariga moslashuvi haqidagi fandır. Bu fanning maqsadi inson mehnat qilish jarayonida qulay, xavfsiz sharoitlarni yaratish, mehnat unumdorligini oshirishga bulgan imkoniyatlarni o'rganishdan iborat. Bu vazifani bajarishda inson va muhit tavsifnomalari aniq yoki ma'lum darajada mos tushishi o'rganiladi va xavfsizlik bilan bog'liq muhim vazifalar yechiladi.

Qadimdan inson o'z mehnat qurollariga va mehnat sharoitiga moslasha borgan va bu stixiyali ravishda bo'lgan. Ayni vaqtda insonlardan ham aniqlik, ham tez reaksiya, ham bexato harakat qilish talab etiladi. Bu harakatlar katta asabiy va psixik zo'riqish bilan bog'liqdir.

Ergonomika doirasida besh xil moslik – ma'lumot–axborot, biofizik, energetik, fazoviy–antropometrik va texnik–estetik moslanish mavjud bo'lib, ularni ta'minlash va amalga oshirish ishni, qo'yilgan vazifani muvaffaqiyatli yakunlanishini kafolatlaydi. Bajarilayotgan turli jarayonlar va unga bog'liq bo'lgan uskuna, qurilmalar doirasida axborotni etkazuvchi – ko'rsatuvchi moslama – mashina modeli bo'lsa, operator murakkab tizimda bo'lsa ham boshqarish ishlarini amalga oshiradi. Bu vazifani bajarish uchun ergonomika nuqtai-nazaridan shunday axborot modeli yaratilishi kerakki, bu model o'z vaqtida mashinaga taalluqli ta'rifni berishi, natijada operator toliqmasdan, fikrlab va e'tibor bilan axborotni xatosiz qabul qilib qayta ishlashi lozim. Murakkab hisoblangan vazifani yechish operatorning xavfsizligiga, aniq-sifatli ishlashiga, mehnat unumdorligiga, shuningdek insonning psixofiziologik imkoniyatlarini axborot modeliga mos bo'lishiga bog'liqdir. Biofizik moslik operatorning ish qobiliyatini, normadagi fiziologik holatini ta'minlaydigan atrof-muhitning yaratilishini ifodalaydi. Bu vazifa mehnat muhofazasi talablari bilan bog'langan. Atrof-muhitning ko'pgina omillari, chegara miqdorlari qonuniyat bilan belgilangan va ular operatorning ish vazifasi bilan doimiy bog'lanmagan bo'lishi mumkin. Shuning uchun mashinalarning yaratilishida shovqin, tebranish, havo muhiti kabi barcha birliklarning maxsus tekshirilishi talab qilinadi.

Insonning kuchi va energetik qobiliyati ma'lum chegaraga ega. Shuning uchun ish jarayonida boshqarish tizimida charchash maqsadga muvofiq bo'lmagan oqibatga

olib kelishi mumkin. Shuningdek, ish tizimidagi aniqlik pasayadi. Bunday cheklanish yoki atrof-muhitga bog'liq bo'lgan vaziyat, omillar e'tiborga olinishi kerak. Energetik moslik operatorning optimal imkoniyatlari asosida talab qilinadigan kuch, sarflanadigan quvvat, harakatning aniqligi va tezligi bilan mashinani boshqarilishidagi kelishuvni ifodalaydi. Fazoviy-antropometrik moslik inson tanasi o'Ichami, tashqi fazoning ta'sirli imkoniyatlari, ish jarayonida operatorning vaziyati, gavdaning turishi hisobga olinishini ifodalaydi. Vazifaning to'g'ri hal qilinishida ish joyi hajmi, operator harakatlanadigan masofa, balandlik, boshqaruv pultigacha bo'lgan oraliq va boshqa ko'rsatkichlar aniqlanadi. Moslikni ta'minlashda insonlarda antropometrik ko'rsatkichlarning har xil bo'lishi murakkab holatga olib keladi va bu vazifani echishda ergonomika yordam beradi.

Texnikaviy-estetik moslik insonni mehnat jarayonida, mashina bilan bo'ladigan muloqotida qoniqarli sharoit bilan ta'minlashni anglatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasining Mexnatni muxofaza qilish to'g'risidagi qonuni. Toshkent, 1993 y.
2. I. A. Karimov. O'zbekiston XXI asr busag'asida: Xavfsizlikka taxdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. T. O'zbekiston 1997 y.
3. Goipov X.E. Mexnat muxofazasi. Toshkent, "Mexnat", 2000 y.
4. Otaxonov M. Qurilishda Mexnat muxofazasi va xavfsizlik texnikasi. Toshkent, "Mexnat", 1991 y.

ИШЛАБ ЧИҚАРИШ КОРХОНАЛАРИДА ЗАҲАРЛАНИШГА ҚАРШИ КУРАШ

Н.С. Бахриддинов НамМҚИ доцент

Ш.М.Мамадалиев НамМҚИ

Ишлаб чиқариш заҳарлари деб, одамга меҳнат фаолияти шароитида таъсир этадиган, иш қобилияти ва соғлигини сусайтирадиган касбий ёки ишлаб чиқаришда рўй берадиган зарарланишларни вужудга келтирадиган омилларга айтилади.

Заҳарлар умумий ва маҳаллий таъсир қилиши мумкин. Умумий таъсир заҳарнинг қонга сўрилиши натижасида ривожланади. Масалан, марганецдан заҳарланишда асаб тизими, бензол таъсирида эса, қон ажратиш органлари зарар кўради. Маҳаллий таъсир кўрсатишда туқималарнинг шикастланиши: таъсирланиш, яллиғланиш ҳодисалари, ишқорли ва кислотали эритмалар ва буглар билан ишлаганда тери ҳамда шиллиқ пардаларнинг куйиши содир бўлади.

Заҳарланишлар ўткир, ўртача ва сурункали шаклларда ўтади. Ўткир заҳарланишлар асосан гуруҳ ҳолатида бўлади. Бу зарарланишлар қуйидагича характерланади:

1. Заҳар қисқа муддатда — бир сменада таъсир қилади;
2. Организмга заҳар катта миқдорда тушиши, ҳаводаги миқдори жуда юқори бўлиши, кимёвий моддани билмай ичиб қўйиши ёки тери каттиқ ифлосланиши натижасида содир бўлади.

Сурункали заҳарланишлар организмга оз миқдордаги заҳарларнинг узок вақт аста-секин йиғилиши натижасида юзага келади. Организмда зарарнинг ўзи йиғилиши ёки ўзгаришлар келтириб чиқариши мумкин.

Масалан, бензолдан ўткир заҳарланишда асосан асаб тизими зарар кўради ва наркотик таъсир кузатилади, сурункали заҳарланишда эса қон ишлаб чиқариш тизими зарарланади. Ўткир ва сурункали заҳарланишлар белгиларига кўра ўткир заҳарланишларга ўхшаш бўлсада, бироқ аста-секин ривожланади ва бирмунча сурункали кечади.

Ишлаб чиқариш зарарлари бошқа салбий оқибатларга ҳам сабабчи бўлади. Улар организмнинг биологик қаршилигини пасайтиради, юқори нафас йўллари қатори, сил, юрак-томир тизим касалликлари ривожланишига имкон яратади. Ундан ташқари зарарлар аллергик таъсир кўрсатиши натижасида бронхиал астма, экзема ва бошқа касалликлар келиб чиқади. ;

Қурилиш ишларида заҳарланиш организмга, асосан, нафас йўллари, меъда-ичак йўллари, тери қопламлари орқали, терининг шикастланган қисми орқали ўтади. Заҳарланишнинг кўп турлари нафас олганда газ, буғ, туман, аэрозолларни ютиш натижасида юзага келади. Бир хил заҳарлар билан сурункали ёки ўткир заҳарланишда организм турлича шикастланади. Бунга ўпка тўқимаси сатҳининг катталиги, заҳарнинг қонга тез тушиши ва ҳаводан нафас олганда турли органлар ва тизимларга ўтиш йўлида кўшимча тўсиқларсиз ютилиши сабаб бўлади.

Заҳарли моддаларнинг нафас олиш органлари орқали қонга ўтишида уларнинг ўтиш тезлиги сувда эрувчанлигига тўғри пропорционал бўлади. Турли бирикмаларнинг қонда эрувчанлиги сувда эрувчанлигига яқинлига туфайли уларнинг ҳаводан қонга ўтишда ҳам газлар диффузияси қонунига биноан тақсимлаш коэффициентлари деб номланадиган миқдорга боғлиқ. Заҳарнинг ҳаводаги концентрацияси қанчалик юқори ҳамда сувда эрувчанлиги қанча катта бўлса, у қонга шунчалик тез тушади ва қондаги миқдори юқори бўлади.

Айрим бирикмалар ўпқадан артериал қонга ўтиб, сўнг бошқа органлар ва тўқималарга ташилади ҳамда улар билан ўзаро яхши таъсирлашади. Тез реакцияга киришадиган деб номланувчи бу моддалар қисқа вақт ичида бутун организмга тарқалади. Секин реакцияга киришадиган моддалар артериал қон тўқималаридан бирмунча секинлик билан ўтиб, уларнинг артериал қондаги миқдори венадагига нисбатан юқори бўлиб туради. Тўқималар тўйина борган сари бу тафовут йўқолади ва моддаларнинг нафас билан чиқариладиган ҳаводаги миқдори унинг нафас билан оладиган миқдорига яқинлашади. Тез реакцияга киришадиган моддалар нам шиллиқ пардаларнинг юзасидаёқ парчаланишга учрайди ва қонга ўзгарган маҳсулотлар кўринишда сўрилади.

Ҳавода бўлган заҳарли газ ва буглар тери орқали сўрилиши мумкин, чунки тери нафас олиш жараёнида қатнашади. Бундан ташқари, ҳаводаги заҳарли буглар ва газлар теридаги ёғ қадтламида эриб, кейинчалик у орқали сўрилиши мумкин. Ёғсимон моддаларда эрувчан заҳарли моддалар, хусусан, углеводлар, ароматик аминлар, бензол, анелин каби бирикмалар тери орқали ўтиш хусусиятига эга. Заҳарнинг тери орқали ўтиши уларнинг ёғлардаги эрувчанлигига эмас, балки тери қопламидаги эриган модданинг қонга ўтиш имкониятини маълум даражада белгилаб беради.

Ишлаб чиқаришдаги заҳарларнинг тери орқали ўтиш хусусиятини гигиеник меъёрларда ва соғломлаштириш тадбирларини ўтказишда ҳисобга олинади: бундай моддалар учун ҳаводага йўл қўйиладиган миқдор бирмунча паст белгиланади, тери қопламаларини ҳимоя қилиш чоралари кўзда тутилади, ишдан кейин, албатта, ювиниш тавсия этилади.

Заҳарлар овқат ҳазм қилиш йўллари орқали ҳам таъсир этиб боради. Айниқса, чанг ҳолатидаги моддалар бурун-ҳалқум ва нафас йўллари юқори бўлимининг шиллиқ пардасида тутилиб, йўталиш, аксиришда шиллиқ билан қисман чиқарилади, қисман ютилади ва меъдага тушади. Заҳарлар овқат ҳазм қилиш органларига шахсий гигиена қоидаларига риоя қилинмаганда: ифлос қўл билан овқат ейишда, чекишда тушади. Меъданинг кислотали ва ичакнинг ишқорий муҳитида эрувчанлиги ортиши мумкин. Уларнинг меъдага тушиши шиллиқ пардаси зарарланишига, секреция безлари фаолиятининг бузилишига сабаб бўлади. Ниҳоят меъда-ичак йўлларидаги заҳарлар сўрилиб, кўп қисми томир тизимига тушади ва жигар тўсиғи орқали ўтади. Жигар уларни зарарсиз ҳолга келтиришда иштирок этадиган энг фаол аъзолардан бири ҳисобланади, бироқ бунда унинг ўзи ҳам зарарланувчи объектга айланиб қолади.

Организмга тушгач заҳарнинг қон оқими билан тўқималарда ҳужайра мембраналари, оқсил ҳужайралари ва тўқималараро муҳитнинг бошқа таркиблари билан ўзаро физик-кимёвий таъсирлашуви рўй беради. Бу жараёнларнинг биологик йўналиши организмнинг заҳарларга қарши курашидир. Ҳозирги шароитда ишчиларнинг иш жойларидаги муҳитда заҳарларнинг бўлмаслигини талаб этиши, албатта, табиий ҳисобланади, шундай натижага эришиш эса жуда мушкул техник вазифа бўлиб, уни бажариш катта моддий харажатлар билан боғлиқдир. Шунга кўра меҳнат гигиенасида йўл қўйса бўладиган безарар миқдорларни асослаш зарурати вужудга келади.

ГОСТнинг «Иш зонаси ҳавоси» бўлимида бу миқдор қўйидагича белгиланади: иш зонаси ҳавосида зарарли моддаларнинг 8 соат давомида ёки ҳафтасига 40 соатдан ошмаган меҳнат жараёнида, текшириш услублари билан аниқланадиган касалликлар ёки соғлиқ ҳолатидан четланишлар келтириб чиқармайдиган миқдорга йўл қўйилади. Заҳарли моддалар учун ЙҚМ белгиланган бўлиб, уларни асослаб беришда замонавий илмий нуқтаи назарлардан фойдаланилади, организмнинг нозик физиологик ва биохимик кўрсаткичлари ҳисобга олинади. Меҳнат гигиенаси гигиеник меъёрлар, илмий техника тараққиёти ютуқларига асосланади, муҳандислик тафаккурини бирмунча мукамал технология ва ишлаб чиқариш ускуналари яратишга жалб этилади.

Зарарларнинг ЙҚМни асослашда:

- моддаларнинг физик-кимёвий хоссалари;
- экспериментал текшириш натижалари;
- ишлаб чиқариш гигиеник кузатув маълумотларида ишчиларнинг соғ ҳолати ва касалланишига доир материаллардан фойдаланилади.

Иш жойи ҳавосидаги заҳарли моддаларнинг ЙҚМ белгилаш мақсадида экспериментал тадқиқотлар тўлиқ ёки қисқартирилган ҳажмда бажарилиши мумкин.

Заҳарли моддаларга қарши курашда санитария шароити, соғломлаштириш тадбирларида амалда ЙҚМларни гигиеник маълумотлари билан тўлдириб, қайтадан қўрибчиқилади.

Давлат стандартига асосан заҳарли моддалар организмга таъсир кўрсатиш даражасига қараб: ўта юқори, ўртача ва кам хавфли синфларга бўлинади. Мехнат шароитининг яхшиланиши кўпгина цехлар ҳавосида зарарли моддалар миқдорининг пасайишига, зарарланишнинг оғир кўринишлари камдан-кам учрайдиган ҳолларга олиб келмоқда. Касбий заҳарланишларга қарши курашда:

- технологик жараёнларда заҳарли моддалар ажралишини бартараф этиш;
- заҳарли моддаларни ҳавога ажралишини камайтирадиган янги технология ва автоматлаштиришни жорий этиш мумкин.

Ишлаб чиқариш жараёнини механизациялаштириш, ишчиларнинг заҳарли моддалар билан мулоқотда бўлишини чегаралайди.

Замонавий техника тараққиётининг ютуқларидан омилкорлик билан фойдаланиш кўпгина технологик жараёнларнинг бориши устидан назорат қилиш автоматик усуллар билан олиб бориш имконини беради. Санитария-гигиеник тадбирларга: гигиеник стандартлаш, ҳаво ҳолатини назорат қилиб туриш, гигиеник талабларга қатъий амал қилиш, шахсий ҳимоя воситаларини қўллаш, санитария бўйича инструкция бериб туриш кабиларни кўрсатиш мумкин.

Ишлаб чиқаришда заҳарланишларга қарши курашнинг усулларидан бири, юқорида айтганимиздек, иш зонасидаги ҳаво муҳитининг ҳолати устидан назорат ўрнатиш ҳисобланади. Стандарт бўйича хавфлиликнинг I синф моддаларини назорат қилишда заҳарли моддаларнинг миқдорлари фақат қайд қилиб қўя қолинмасдан, балки ЙҚМ ошган тақдирда зарур чоралар кўриш учун товуш ва ёруғлик сигаализаторларини ишга соладиган автомат ёзиш асбоблари билан таъминланиши керак.

Ишчининг хавфли зонада, ускуналар ва катта ҳажмдаги хоналар ичида бўладиган вақтининг чегараланиши, махсус ҳимоя кийимлари кийиши ва бошқа шахсий муҳофазаланиш воситаларидан фойдаланиши, шошилиш тиббий ёрдам кўрсатиш ишларининг тўғри ташкил қилиниши ҳам муҳим омил ҳисобланади.

Заҳарланишларга қарши кураш санитария техникасининг энг кенг тарқалган тури — шамоллатиш усули катта аҳамиятга эга. Унга қўйиладиган асосий гигиеник талаб — заҳарли моддалар ҳосил бўладиган зонада уларни ҳаво муҳитига тарқалган тақдирда эса, соф ҳаво бериш йўли билан миқдорини пасайтириб, кучсизлантиришдан иборат.

Заҳарли моддалар билан ишлайдиган шахслар хусусида меҳнат қонунида иш кунини чегаралаш, таътилни давомийлигини кўпайтириш, нафақага бирмунча эрта муддатда чиқариш каби чора-тадбирлар кўзда тутилади. Организмга зарарланишнинг хавфли таъсири юқори бўлган корхоналарда аёллар ва ўсмирларнинг ишлашига рухсат этилмайди. Иш зонасидаги заҳарли моддаларнинг ЙҚМ давлат томонидан белгиланган. ЙҚМ ишлаб чиқариш ташкилотлари учун мажбурийдир.

Касбга доир зарарланишларни ҳисобга олиш ва қайд қилиш мажбурий ҳисобланади. «Корхоналарда бахтсиз ҳодисаларни текшириш ва ҳисобга олиш

тўғрисидаги Низом»га мувофиқ ҳар бир зарарланиш ҳодисаси текширилиши ва уларнинг олдини олиш чоратадбирлари ишлаб чиқилиши керак. Даволаш-профилактика тадбирлари ишлаб чиқаришда рўй берадиган заҳарланишларнинг олдини олишда муҳим ўрин тутди. Уларга, биринчи навбатда, ишчиларни тиббий кўриқдан ўтказиш ва махсус овқатланишни ташкил этиш киради. Заҳарларнинг таъсир қилиш эҳтимоли бўлган қатор корхоналарда ишчилар учун қўшимча ва махсус овқатланиш кўзда тутилган.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Йўлдошев У.Р. ва бошқ. Меҳнатни муҳофаза қилиш. –Т.: Меҳнат, 2001.
2. Ишлаб чиқаришдаги бахтсиз ҳодисаларни ва ходимлар саломатлигининг бошқа хил зарарланишини текшириш ва ҳисобга олиш тўғрисидаги Низом. Вазирлар Маҳкамасининг қарори №286, 06.06.1997, –Т.: 1997.
3. Н.Бахриддинов, Ш.Мамадалиев, А.Тургунов. Ҳаёт фаолияти хавфсизлиги фанидан маърузалар матни. Наманган-2020.

МАШИНАСОЗЛИҚДА ҚўЛЛАНИЛАДИГАН МАТЕРИАЛЛАРГА ТАЛАБЛАР

И.Т.Улуханов НамДУ Доцент
Г.Хусайинова НамДУ ўқитувчи

Аннотация. Инсон меҳнатини ҳар томонлама енгиллаштиришга, уларга юклатилган вазифаларни бажариш давомида бенуксон ишлаши, меҳнат унумдорлиги юқори бўлиши ҳамда хавфсиз ишлаши муҳим ўрин тутди. Технологик қурилмаларнинг таркиби бўлган механизм ва агрегатларнинг ишлаш муддатларини узайтиришда техник қаровнинг, жумладан, доимий равишда ишқаланиш кучи таъсирида ишловчи деталларда ҳосил бўладиган зарарли кучлар миқдорини минимумга камайтиришга қаратилган мойлаш ишларини ўрни катта.

Калит сўзлар. Техника, машина, деталл ,ковушқоклик ,мойлаш.

Замонавий техника ва технологияларни ҳаётимизнинг барча соҳаларига жалб қилиниши, инсон меҳнатини ҳар томонлама енгиллаштиришга, уларга юклатилган вазифаларни бажариш давомида бенуксон ишлаши, меҳнат унумдорлиги юқори бўлиши ҳамда хавфсиз ишлаши муҳим ўрин тутди. Технологик қурилмаларнинг таркиби бўлган механизм ва агрегатларнинг ишлаш муддатларини узайтиришда техник қаровнинг, жумладан, доимий равишда ишқаланиш кучи таъсирида ишловчи деталларда ҳосил бўладиган зарарли кучлар миқдорини минимумга камайтиришга қаратилган мойлаш ишларини ўрни катта. Ҳар бир қурилманинг сифатли, аниқ ва узоқ муддат ишлаши билан бир қаторда унга белгиланган барча талаблар доирасида ишлай олишини ҳамда шу даврда бир неча хоссаларини сақлаб қолишини ҳам назарда тутилади. Бу эса маҳсулотларнинг аниқ мақсадни амалга оширилиш жараёнида қўйиладиган талабларга жавоб беришини, ишлаб чиқарувчи мутахассисдан эса шу

қўрсаткичларни таъминловчи маҳсулот яратишни, истеъмолчига эса маҳсулотни мақсадли ишлата билиш мажбуриятини юклайди.

Технологик таълим йўналишини тамомловчи мутахассисларнинг келгуси фаолиятларида ишлаб чиқаришнинг тегишли соҳаларида ана шу талабларни қандай даражада тушуниб етганликлари, унга амал қилишлари, муаммони назорат қила билиш баробарида маҳсулотларни сифати ва истеъмолбоплигига баҳо бера олиш масалалари муҳимдир. Бундай масъулият улардан ҳар бир қўрилаётган масалага жиддий ёндошишларини, амалий тавсияларга тўла амал қила билишларини тақазо этади.

Мутахассисларга ўргатилаётган материалшунослик фани асосларини улар томонидан чуқур ва мукамал тарзда ўзлаштира олиш бу муаммолар ечимини осон топишда амалий ёрдам беради. Қурилмаларда ишлатиладиган мойловчи материаллар агрегат ҳолатига, олиниш усулига ва мақсадли қўлланишига қараб классификацияланади. Бу турдаги мойловчи материал сифатида қўлланиладиган ашёлар нефтдан олинган суюқ-мой, қаттиқ-қаттиқ мойловчи (графитли, молибден дисульфидли, тўлдиргичли полимерлар) ва мазсимон-пластик мойловчиларга ажратилган. Олинишига кўра эса нефт маҳсулотидан, синтетик ва аралаш турлари мавжуд. Биринчи туридан олинадиганлар мойлар асосини нефть, аралашни эса - нефть ва синтетик компонентлар ташкил қилади[1-2].

Технологик қурилмаларда қўлланиш мақсадларига кўра:

- ИЁД да қўлланиладиган мотор мойлари;
- газтурбина мойлари; трансмиссион мойлар;
- индустриал мойлар мавжуд.

Замонавий машинасозликда аниқ мақсадлар учун белгиланган махсус мой (компрессион, трансформатор, музлаткичлар ва х.к) лар ҳам ишлаб чиқарилади ва қўлланилади. Шуни унитмаслик лозимки, SAE и ISO рақамлари фақат маълум даражадаги қовушоқликдаги мойларни танлашга ёрдам бериши мумкин ҳолос, аммо бошқа у ёки бу характеристикасини назарда тутмайди. Масалан, ҳаттоки SAE бўйича мойловчи материалларнинг қовушоқлик синфи бир хил бўлганда ҳам гидравлик мойни мотор мойи билан алмаштирилиши мумкин эмас.

Бу турдаги маҳсулотлар ишлатилишда, сақлаш ва транспортировка қилиш талабларига максимал даражада жавоб беришлари шарт ва умумий ҳолда уларга қуйидаги талаблар белгиланган:

- мойлаш хоссасини мавжудлиги, яъни, антифрикцион, ейилишбардошлик, сидирилишга қаршилик кўрсатиш (молибден дисульфидили) хоссасини берувчи хусусиятини уйғунлашганлиги;
- қовушоқлилик, ҳароратга чидамлик ва дисперсион хоссага эгалиги, яъни, қовушоқлик ва бошқа физик кўрсаткичларини ҳарорат ўзгаришига кам боғлиқ бўлиши;
- хоссани стабиллиги, яъни, сифат кўрсаткичларини сақлашда, двигателларни берилган эксплуатацион шароитда узоқ муддат ишлаш даври-да ҳам бу хоссаларни сақланиши;

- антикоррозион ва консервацион хоссасини; яъни, конструкцион материалларни коррозиядан сақлаш хоссасига эгаллиги;
- ювиш хоссаси, яъни, бунда двигателда ҳосил бўладиган чўқиндиларни пайдо бўлишини олдини олиш хоссаси;
- двигателдан иссиқликни ва ейилишда ҳосил бўладиган маҳсулотни олиб кетиш ва сирпанувчи сиртларни жипслигини таъминлаш;
- минимал захарлилик ва ёнғинга чидамлилик;
- юқори иқтисодий маҳсулдорлик.

Базавий нефть мойлари олиниш усулларига кўра учга: дистиллятли-мазутни ҳайдашда ажратиладиган, алоҳида дистиллятларни тозалаш усули билан олинган, қолдиқ-гудронни қайта ишлашда олинадиган ва аралаш(компаундированный) дистиллятли мойни қолдиқ билан аралаштиришдан олинганларга бўлинади.

Базавий мойни танлаш қовушоқлик катталиги билан аниқланади, кичик қовушоқлик мотор мойи учун дистиллятли, ўртачаси учун - аралаш ва юқорисига-қолдиқ турлари ишлатилади.

Техник-эксплуатацион ва иқтисодий кўрсаткичларини ошириш учун қўшимчалар киритилиб, уларнинг миқдори 25-30% чегарасида бўлади ва бундаги механизмларни чуқур ўзлаштирилиши зарур.

Технологик қурилмаларда ишлатиладиган мойлардаги мойлаш, стабиллик, чўқиндини олдини олиш, антикоррозион ва консервацион, кўпиклашга қарши ва демульсион ҳамда ишга яроқлилик хоссаларини билиш лозим.

Хулоса қилиб айтганда, ҳар бир мутахассис нафақат маҳсулотни ишлаб чиқаришни, балки, ундан амалда унумли фойдалана билиши керакли самара берар экан.

Фойдаланилган адабиётлар.

1.А.М.Адаскин., В.М.Зуев Материалловедение (Металлообработка). М. АCADEMA. 2003.

2.Б.Г.Лифшиц и др.Физические свойства металлов и сплавов. М. Металлургия. 1980.-320 С.

TALABALARGA XONA MIKROIQLIM XAQIDA MA'LUMOT BERISH.

X.M.Akramov NamDU, Texnologik ta'lim kafedراسи dotsenti.

A.Matkarimov. NamDU, Texnologik ta'lim kafedراسи katta o'qituvchi.

A.S Sayfitdinov. NamDU, Texnologik ta'lim kafedراسи katta o'qituvchi.

G.Xusanboev NamDU, 2 kurs TXT yo`nalishi talabasi

Ishlab chiqarish xonalarining mikroiqlimi xona havosining harorati, nisbiy namligi, havo, bosimi, havoning harakatlanish tezligi hamda issiq ish jihozlari yoki materiallari ta'siridagi issiqlik nurlanishining intensivligi orqali tavsiflanadi.



Sanitariya normalarga asosan, uch xil ish kategoriyalari mavjud:

1toifa – yengil jismoniy ishlar bo'lib, bunga o'tirgan holda bajariladigan, turib yoki yurib jismoniy zo'riqishsiz bajaradigan ishlar kiradi.

2toifa – o'rta og'irlikdagi jismoniy ishlar bo'lib, bunda 10 kg gacha og'irlikdagi yuklarni tashish bilan bog'liq bo'ladi.

3toifa–og'ir jismoniy ishlar bo'lib, bunda 10 kg dan ortiq ishlar bajariladi.(1)

Yilning ilk paytlarida tashqi harorat 10 gradusdan yuqori bo'lganda hisoblanadi.

Yilning sovuq paytlarida tashqi harorat 10 gradusdan past bo'lganda hisoblanadi.

Xonalardagi harorat 1- kategoriyadagi ishlar uchun 12 gradusgacha , 2- kategoriya ishlar uchun 10gradusgacha va 3- kategoriya ishlarida 8 gradusdan oshmasligi kerak. Mikroiqlimdagi optimal va ruxsat etilgan qiymatlari normativ jadvallarda yilning issiq va sovuq paytlari uchun alohida keltiriladi.


Odam 20 Gts dan 10 Gts gacha bo'lgan chastota tovush tebranishlarini eshitadi. Bundan past diapazondagi tovushlar ul'tratovushlardir. Odam ularni eshitmaydi, ammo ular odam organizmiga zararli ta'sir ko'rsatadi. Yuqori chastotadagi tovushlar shovqinlar bo'lib. ular zararlidir. Asab sistemasini buzilishiga va asta – sekin rivojlanishiga sabab bo'ladi

Odam quloqlari $2 \cdot 10^{-5}$ dan 20 Pa atrofidagi tovush bosimlarini qabul qilish qobiliyatiga ega. Bu chegaralardan yuqori tovush quloqlarda og'riq seziladi, bosh aylana boshlaydi, quloqlardan qon keladi , quloq pardasi yirtilishi mumkin.

Bulardan tashqari, kishi tanasidagi issiqlik muvozanatiga havo oqimi harakati tezligi ham ta'sir etadi. Havo oqimi harakati tez bo'lsa, issiqlik ajralishini kuchaytiradi va organizmning sovqotishiga olib keladi. SHuning uchun sanitariya normalariga ko'ra, issiq kunlarda uning tezligi 0,5-1,5 mG's, sovuq kunlari esa 0,2-0,5 mG's bo'lishi kerak. Kishi havo oqimi tezligini 0,15 mG's dan boshlab sezadi.


Mikroiqlim sanitariya normalari bo'yicha, ishlab chiqarish xonalari 2 kategoriyaga bo'linadi: unchalik ortiqcha bo'lmagan issiqlik ajratib chiqaruvchi xonalar ($23,3 \text{ VtG}^{\circ}\text{m}^3$, undan kam) va ortiqcha issiqlik ajratib chiqaruvchi xonalar ($23,3 \text{ VtG}^{\circ}\text{m}^3$ dan ortiq). Mazkur normalar tashqi havo haroratiga bog'liq: yil sovuq (harorat 10°S dan kam) va issiq ($Q10^{\circ}$ dan yuqori) davrlardan iborat.

Ishlab chiqarish binolari va ish joylarining mikroiklimi ishchining sog'lig'iga va ish unumdorligiga ta'sir etuvchi asosiy omillardan biri hisoblanadi.



Ishlab chiqarish binolari va ish joylarining mikroiklimi ishchining sog'lig'iga va ish unumdorligiga ta'sir etuvchi asosiy omillardan biri hisoblanadi.

Bundan tashqari, havoning tezligi ham, muhim faktorlardan biri hisoblanadi. Agar havoning tezligi $0,1 \text{ m/s}$ dan kam bo'lsa, havo dim, $0,25 \text{ m/s}$ dan ortiq bo'lsa, yelvizak bo'ladi.



SHularni barchasini hisobga olib, sanoat korxonalarini loyihalash sanitariya me'yorlari SM 245-71 da ishlab chiqarish xonalari havosida changning yo'l qo'yilgan chegaraviy miqdori - ruxsat etilgan chegaraviy me'yor RECHM belgilangan.

Atmosfera chiqaruvchi mo'rirlarni balandroq qilib qurish kabi ishlarni amalga oshiriladi. CHunki GOST 12.1.005-88-«Ishchi zonalar havosiga umumiy sanitar-gigienik talablar» bo'yicha ishchi o'rinlaridagi havo tarkibidagi zararli omillarning miqdorlari, ruxsat etilgan chegaraviy me'yor(RECHM)lari ko'rsatib o'tilgan.

Ish joylarida esa shamollatish, tozalash qurilmalaridan foydalanish zaruriyati tug'iladi. Zararli moddalar ta'siridan himoyalashda zaruriy himoya vositalaridan GOST 12.4.001-87-«Individual himoya vositalariga umumiy talablar» ga mos xolda foydalanish tavsiya etiladi.

CHanglar ko'rinishi va tarkibiga bog'liq holda quyidagi guruhlarga bo'linadi: organik, noorganik (mineral) va metall changlari.

Yirik changlar nafas olganda burun bo'shlig'ida qolib, o'pkaga kirmaydi. Mayda changlar esa (asosan, o'lchami 10 mk.dan kichik bo'lgan changlar) nafas orqali burun bo'shlig'idan o'tib, o'pkaga o'mashadi va vaqt o'tishi bilan turli xil kasalliklarni keltirib chiqaradi. Ayniqsa, diametri 0,3 mk.dan kichik changlar qonga tushishi ham mumkin.

Davlat standarti bo'yicha inson sog'lig'iga ta'sir etuvchi xavfli moddalar 4 sinfga ajratilgan.

1-sinf – favqulodda xavfli moddalar, $REM < 0,1 \text{ mg/m}^3$;


2-sinf – yuqori xavflilikdagi moddalar, $REM = 0,1 \dots 1,0 \text{ mg/m}^3$;

3-sinf – o'rtacha xavflilikdagi moddalar, $REM = 1,0 \dots 10 \text{ mg/m}^3$;

4-sinf – kam xavflilikdagi moddalar, $REM > 10 \text{ mg/m}^3$.

Xuddi shuningdek, ushbu zaharli moddalarning havo tarkibidagi o'limga olib keluvchi miqdorlari 1-sinf uchun 500 mg/m^3 , 2-sinf uchun $500\text{--}5000 \text{ mg/m}^3$; 3-sinf uchun $5001\text{--}50000 \text{ mg/m}^3$; 4-sinf uchun 50000 mg/m^3 dan yuqori.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, mikroiklim ko'rsatkichlari bo'yicha Gost va RECHMlar belgilangan va ular 2- jadvalda berilgan(2)



Yil fasli	Ish kategoriyasi	Harorat, °S	Nisbiy namlik, %	Havoning harakati, m/s	Atmosfera bosimi, mm.sim.ust	Ruxsat etilgan chegaraviy me'yor			
						Harorat, °S	Nisbiy namlik, %	Havoning harakati, m/s	Doimiy bo'lmagan ish joyida harorat, °S
Yilning sovuq va o'tish davri	Engil-I	20-23	60-40	0,2	550-950	19-25	75	0,2	15-26
	O'rta og'ir-II a	18-20	60-40	0,2	550-950	17-23	75	0,3	13-24
	O'rta og'ir-II b	17-19	60-40	0,3	550-950	15-21	75	0,4	13-24
	Og'ir-III	16-18	60-40	0,3	550-950	13-19	75	0,5	12-19
Yilning issiq davri	Engil-I	22-25	60-40	0,2	550-950	19-25	75	0,2-0,3	15-26
	O'rta og'ir-II a	21-23	60-40	0,3	550-950	17-23	75	0,3-0,5	13-24
	O'rta og'ir-II b	20-22	60-40	0,4	550-950	15-21	75	0,3-0,5	13-24
	Og'ir-III	18-21	60-40	0,5	550-950	13-19	75	0,5-1,0	12-19

havoning harorati – termometrlar, termogratlar,
havoning harakatlanish tezligi – katatermometrlar va anemometrlar,
havoning nisbiy namligi – psixrometrlar,
issiqlik nurlanishlari – aktinometrlar va
havoning bosimi – barometrlar bilan o'lchanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

- 1.Tojiev M. X., Nigmatov I., Hayot faoliyati xavfsizligi. O'quv qo'llanma. –T.: "Tafakkur-Bo'stoni", 2012 y. – 272 b.
- 2.A'zamov A.,T.Tursunova. Mehnatni muhofaza qilish.O'quv qo'llanma,T: 2Sano-standart bosmaxonasi, 2013.

O'QUVCHILARGA TO'GARAKLARDA ZARGARLIK BUYUMLAR TAYYORLASHNI O'RGATISH.

I.T.Uluxanov NamDU dotsent
G.A.Xusayinova NamDU o'qituvchi
M.Xamdamova NamDU talaba
Z. Quvvatova NamDU talabalari

Odatda metallar turmushda va xalq xo'jaligida juda ko'p ishlatiladigan material hisoblanadi. Metallarga xos umumiy xususiyatlarni belgilaydigan asosiy omil ulardagi atom tuzilishining o'ziga xosligidir. Har qanday materialga, shu jumladan metallarga ham ishlov berishdan oldin ularning fizikaviy xususiyatlarini bilish zarur.

Quyida o'quvchilariga texnologiya darslarida metallardan zargarlik buyumlar tayyorlashni o'rgatish bo'yicha dars ishlanmalaridan namunalar keltiramiz. Zavodlarda odatda simlar rulonlab, ya'ni o'ram holida ishlab chiqariladi. Keyin ulardan kerakli o'lchamdagi qismi zagotovka ko'rinishida o'tkir jag'li ombir bilan kesib olinadi. Maktab ustaxonalariga sim, uch-to'rtta joyi bog'langan, rulon ko'rinishida keltirilishi mumkin. Kerakli uzulkdagi simni qirqib olish uchun simni bog'lab turgan tugunlarni yechib uni orqaga itarib chiqarish lozim. Agar simni tortib olinsa, unda sim o'ralib qoladi va u oxiri chigallashib chiqmay qoladi. Zagotovkani kerakli bo'lgan uzunlikda qirqib olish uchun, metall lineyka yordamida kerakli bo'lgan uzunlik o'lchov olinadi, belgilanib bo'lgandan keyin u qirqiladi.

Buyumlar tayyorlash

Ishning maqsadi: ta'limiy – o'quvchilarga yupqa simlar hamda ulardan foydalanish bo'yicha ma'lumot berish; tarbiyaviy – o'quvchilarni simlar bilan ishlashda ehtiyotkor va tejamkor bo'lishga o'rgatish;

s) rivojlantiruvchi – o'quvchilarning metall materiallari va ularga ishlov berishga oid bilim va ko'nikmalarini kengaytirish.

Qo'llaniladigan jihozlar: turli xil simlar, simlardan tayyorlangan buyumlardan namunalar, chilangarlik asboblari va moslamalari.

Darsning turi: nazariy ma'lumot berish.

Qo'llaniladigan metod: tushuntirish, ko'rgazmalilik.

Ishning borishi:

Simdan taqinchoq tayyorlash texnikasi

Simdan taqinchoq tayyorlash uchun avvalo, uni elementlarini tayyorlashni o'rganish zarur. Sim bilan birinchi marta ishlayotganlar uchun quyidagi elementlarni yasab ko'rishni maslahat beramiz. Buning uchun eng maqbul material mis simdir. CHunki mis sim oson egiluvchan va buklanganda tez sinib ketmaydi.



Taqinchoq qismlarini birlashtirish

Taqinchoq qismlarini birlashtirish uchun ko'proq halqalardan foydalaniladi. Bunda biror-bir bezakda foydalanish ma'qul. Xalqalar keyinchali taqinchoq qismlarini bir biriga bog'lash uchun xizmat qiladi.



1. Simdan bir oz chuvating. O'zingiz tanlagan bezakni simga o'tkazing. Bezakning har ikki tomonidan 1 smdan sim qoldiring va shu joyni belgilang.

2. Bezakni chiqaring va simni belgilangan joyidan qirqib oling.

3. Qirqib olingan simga bezakni kiriting. Simni vertikal xolatda tutib turing va bezakni sim markaziga keltiring. Simni yumaloq jag'li ombir bilan to'g'ri burchak ostida qayiring.

4. Simni bukilgan qismini dumaloq jag'li ombir bilan qisib, uni xalqa shakliga keltiring. Xalqa tekis chiqishi uchun uni birdaniga emas, balki bir necha qayirishlar bilan amalga oshirgan ma'qul.

5. Bezakni aylantiring va ikkinchi tomonida xam shunday halqa tayyorlang. Hosil bo'lgan bezak elementimiz taqinchoq qismlarini bir-biriga biriktirishda juda qo'l keladi.

Spiral shaklni tayyorlash

Spirallar «ochiq» va i «berk» ko'rinishda bo'ladi. Berk spirallarda o'rmlar orasida bo'shliq bo'lmaydi. Ochiq spiral ham berk spiral kabi yasaladi, lekin o'rmlar orasida katta bo'lmagan bo'shliq qoldiriladi.



1. Berk spiral tayyorlash uchun kerakli miqdordagi simni qirqib oling. Simni uchidan dumaloq jahli ombir yordamida xalq axosil qiling. Bu xalqani iloji boricha tekis tayyorlashga harakat qiling. CHunki tayyorlanayotgan spiral shaklining sifati shu xalqaga bog'liq. Zaveyte konchikami kruglogubtsev malen'koe kolechko na kontse provoloki. Postaraytes' dobit'sya ideal'no krugloy formy ot etogo budet zaviset' forma vsey spirali.

2. Yassi jag'li ombir yordamida xalqani mahkam siqing va uni atrofida simni aylantira boshlang. Xar bir aylanada sim o'zidan oldingi xalqaga mahkam yopishib turganiligiga e'tibor qarating. 3. Spiral siz xoxlagan o'lchamga yetgach, uning uchidan 1 sm qoldirib qirqib oling. Qoldirilgan qismidan dumaloq jag'li ombir yordamida spiral yo'nalishiga qarma-qarshi xolatda xalqa hosil qiling.

Birlashtiruvchi xalqachalar

Birlashtiruvchi xalqachalar nomidan xam ko'rmb turibdiki, taqinchoqning alohida elementlarini birlashtirish uchun hizmat qiladi. Birlashtiruvchi xalqachalar xosil qilish uchun simni spiral shakliga keltirish kerak. SHundan so'ng undan kerakli qismlarini qirqib olishimiz mumkin. Bunday spiralni tayyorlash uchun sterjen yoki dumaloq jag'li ombir jag'laridan foydalanish mumkin.

Birlashtiruvchi xalqachalardan zanjir yasash




1. Dumaloq jag'li ombir jag'iga simni zich qilib o'rang. SHu simni tariqa prujina ko'rinishiga keltirib olamiz.

2. Hosil bo'lgan prujinasimon simni ombirdan chiqarib oling

3. Birinchi xalqachani kesib oling bu biriktiruvchi xalqacha bo'ladi. SHu tariqa kerakli xalqachalarni kesib orlish mumkin.

Yassi jag'li ombir yordamida xalqani kering. Bunda xalqa shaklini buzib qo'ymaslikka harakat qiling. Kerilgan xalqalarni navbatma-navbat bir-biriga kiritib, ularni qisib qo'ying. Bunda xalqalarning ikki uchi biri-biriga ma'lum darajada krishishi zarur. SHu tariqa zanjir to'qiladi. Quyidagi rasmda biriktiruvchi xalqachalardan to'qilgan zanjirlardan namunalar keltirilgan.



SHvenz (osma)lar



SHvenz – eng ko'p qo'llaniladigan va tayyorlash oson bo'lgan osma hisoblanadi.



1. Diametri 0,8 mm bo'lgan simdan ma'lum uzunlikda qirqib oling va dumaloq jag'li ombirning eng yo'g'on qismiga o'rang. Xalqachani simning uchidan 2,5sm cha masofada hosil qiling.

2. Qolgan simni xalqa ostida asos bo'ylab aylantiring.

3. Simni o'ramdan xalqadan 1 sm cha masofada qirqib oling. SHu qolgan qismidan oldingi mashqlarda ko'rsatilganidek birkiruvchi zveno tayyorlang.

4. Tayyor bo'lgan osmaning yuqori xalqasini bir oz mahkamlash uchun bolg'acha bilan asta-sekin uring.

Tayyor bo'lgan osmani taqinchoqqa to'g'ridan to'g'ri yoki birkiruvich xalqachalar yordamida mahkamlash mumkin.

Simdan ba'zi bumlar tayyorlash jarayonini ko'rib chiqaylik
«Rangli uzuklar»



Rangli simlardan tayyorlagan buyumlar diqqatni o'ziga tez tortadi. Uzuk tayyorlash uchun avval yaqqol ko'zga tashlanadigan "ko'z" tanlash zarur. "ko'z"ni markazga joylashtiring. U simlar fonida yaqqol ko'zga tashlanib turishi lozim. Masalan, qora rangli simlar uchun shaffof, alvon rangli simlar uchun esa kumushsimon "ko'z"lar mos keladi.

Endi buyum tayyorlash jaryonini ko'rib chiqaylik.

1-bosqich. 30-35 sm uzunlikdagi diametri 0,8 mm bo'lgan simdan qirqib oling.

2-bosqich. Dumaloq sterjenga simni zich qilib ikki marta o'rab oling. Bunda xalqa hosil bo'ladi.


3-bosqich. Simni qisqa uchini mahkamlang va xalqa atrofiga 2-3 marta o'rab qo'ying. Uni qo'lga botmaydigan tarzda mahkamlang. Simning qolgan ikkinchi tomoni 12-15 sm ni tashkil etadi. Biz bu qismidan uzuk asosini tayyorlaymiz.

4-bosqich. Simning ikkinchi uzun uchini ombir yordamida kichik shakllar tarzida buka boshlaymiz.

5-bosqich. Simning bukilgan qismlarini xalqaga yaqinlashgan sari kattalashtirib bormiz. SHu tariqa sim xalqaga yetib kelguncha davom ettiramiz.

6-bosqich. Simning bukilgan qismini ombir yordamida xalqaga tomon qisamiz, unga istagan shaklimizni berishimiz mumkin. SHundan so'ng uni bir necha joyidan xalqaga payvandlab qo'yamiz.

7-bosqich. Kichik ombir yordamida simning uchlarini yuqori tomonga chiqaramiz. Simni uchlarini ehtiyotkorlik bilan ilmoq shakliga keltiramiz va ularga "ko'z"ni mahkamlaymiz.



SHundan so'ng tayyor bo'lgan uzukka yakuniy pardozi beramiz. "Ko'z"siz uzuk yasash uchun yuqoridagi ishlarni 3-bosqichgacha bajaring. SHundan so'ng simning uzun uchidan turli xil shakllarni tayyorlashingiz mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Мартынова А.И., Андреева Е.Г. Конструктивное моделирование одежды. М., 2002г.
2. Z.Davletsheva Tikuv buyumlarini tayyorlash texnologiyasi. O'quv qo'llanma. Toshkent "Sano standart" nashriyoti 2017
3. G'oziyev E., Mamedov K. Kasb psixologiyasi. – T.: O'zMU, 2003. 156-b
4. <https://uzbekistan.ureport.in/story/364/>
5. <https://t.me/dokument>

O'QUVCHILARGA GAZLAMALARNI FIZIK-MEXANIK XOSSALARINI O'RGATISHNING ZARURATI

I.T.Uluxanov NamDU dotsent
M.Xamdamova NamDU talaba
Z. Quvvatova NamDU talabalari

Kiyim modellarini yaratishda va konstruksiyasini ishlab chiqishda gazlamaning xossalari hisobga olish lozim. Masalan, bolonya tipidagi gazlamadan plash tikishdagi plashning havo o'tkazuvchanligi va bug' o'tkazuvchanligini yaxshilash uchun kaketka tagiga bug' chiqib ketadigan to'r qo'yiladi.

Ma'lumki gazlamalarning fizik (gigieik) xossalariga gigroskoplighi, havo o'tkazuvchanligi, bug' o'tkazuvchanligi, suv o'tkazmasligi, ho'llanuvchanligi, chang oluvchanligi, elektrlanuvchanligi kiradi. Fizik xossalariga qo'yiladigan talablar gazlamalarning vazifasi bilan belgilanadi va ularning tola tarkibi, tuzilishi va pardoziga bog'liq bo'ladi.

Shuning uchun "Texnologiya" fani o'qituvchilri tomonidan o'quvchilarga bu borada etarli darajada bilim berishlari, zaruriy ma'lumotlarni o'rgatishlari maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz. Bu o'z navbatida yaratilayotgan maxsulotni yaroqliligi va xaridorgirligini ta'minlashda muhim o'rin tutadi. Mutaxassisning esa mahsulot ishlab chiqarishda zaruriy talablarni hisobga olish malakasini, etikasini mukammal egallashida asqotadi. Quyida tikuvchilikda ishlatiladigan xom-ashyo materiallarning bir qator xossalari va ulardan mahsulotlar tayorlanganda uni ekspluatatsiya qilishda qanday namoyon bo'lishi haqida ma'lumotlarni bayon qilamiz.

Gigroskoplilik - gazlamaning atrof muhitdan (havodan) nam shimish xususiyatini belgilaydi. Tola va iplar namlikni har hil tortib oladi, bunga qarab fizik-mexanik hossalari o'zgaradi. Agar pahta tolasidan olingan kalava ipni suvga bir oz vaqtga solib qo'ysak, ularni mustahkamligi oshadi 18-20%.

Havo o'tkazuvchanlik - gazlamaning havo o'tkazish xususiyati, uning tola tarkibi, zichligi va pardoziga bog'liq bo'ladi. Siyrak gazlamalar havoni yaxshi o'tkazadi, zich gazlamalar, suv yuqtirmaydigan eritmalar shimdirilgan, rezinalangan gazlamalar havoni butunlay o'tkazmaydi yoki kam o'tkazadi.

Bug' o'tkazuvchanttk - gazlamaning odam tanasidan ajraladigan suv bug'larini o'tkazish xususiyati. Suv bug'lari gazlamadagi g'ovaklar orqali, shuningdek, raateriallarning gigroskoplighi hisobiga o'tadi. Gazlama kiyim ostidagi havodan namni shimib, uni atrofdeg muhitga o'tkazadi. Jun gazlamalar suv bug'larini sekin o'tkazadi va boshqa gazlamalarga qaraganda kiyim ostidagi havo temperaturasini yaxshi rostlab turadi.

Gazlamalarning issiqni saqlash xossalari qishki kiyimlik gazlamalar uchun ayniqsa muhimdir. Bu xossalar gazlamaning tola tarkibiga, qalinligiga, zichligiga va pardoziga bog'liq bo'ladi. Jun gazlamalarning issiqni saqlash xossalari eng pastdir.

Bosish, to'q chiqarish, presslash jarayonlari gazlamalarning issiqni saqlash xossalari yaxshilaydi. Ko'p qatlamli o'rinishlarni qo'llash tuk chiqarish natijasida gazlamada ko'p havo qatlamlari hosil bo'lib, ular gazlamaning issiqni saqlash

xossalarini kuchaytiradi. Tarab tuk chiqarilgan qalin, zich juri gazlamalarning issiqni saqlash xossalari eng yuqori bo'ladi.

Suv o'tkazmaslik - gazlamaning suv sizib kirishiga qarshi ko'rsatish xususiyati. Suv o'tkazmaslik maxsus gazlamalar (brezentlar, palatkalar, parusinalar), plashli gazlamalar, paltolik va kostyumlik, jun gazlamalar uchun ayniqsa muhimdir. Suv o'tkazmaslik gazlamaning tola tarkibiga, zichligi va pardoziga bog'liq bo'ladi.

Gazlamaning suv o'tkazmasligini oshirish va uni suv o'tkazmaydigan qilish uchun suv yuqtirmaydigan va suv o'tkazmaydigan qiluvchi pardozlar beriladi.

Chang oluvchanlik - gazlamalarning kirlanish xususiyati bo'lib, u gazlama o'ngining xarakteriga, gazlamaning tola tarkibiga, zichligi va pardoziga bog'liq bo'ladi. Tarab tuk chiqarilgan jun gazlamalarning chang oluvchanligi eng yuqori bo'ladi.

Elektrlanuvchanlik - materiallarning o'z sirtidan statik elektr to'plash xususiyati. Tayyorlash va foydalanish jarayonlarida to'qimachilik materiallari albatta boshqa narsalarga tegadi va ishqalanadi. Shunda ularning sirtida elektr zaryadlar uzluksiz to'planadi va tarqaladi. Agar zaryadlarning to'planishi bilan tarqalishi orasidagi muvozanat buzilsa, material sirtida statik elektr to'planib, material elektrlanadi. Zaryadning kattaligi va ishorasi (musbat yoki manfiy) tolalarni hosil qilgan ximiyaviy tuzilishga bog'liq. To'qimachilik materiallarining elektrlanuvchanligi organizmga biologik ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Ma'lum bosim farqi bilan (ΔP) 1 m² yuzadan 1 s ichida o'tgan havoning miqdoriga materiallarning havo o'tkazuvchanligi deyiladi.

Materiallarning yuqori namlik muhitdan kam namlik muhitga suv bug'larini o'tkazish qobiliyatiga ularning bug' o'tkazuvchanligi deyiladi.

Materiallarning chang o'tkazuvchanligi- uning 1 m² yuzasidan ma'lum vaqt ichida o'tgan chang massasi bilan ifodalanadi.

Materiallarning chang oluvchanligi ularning kirlanish xususiyatini bildiradi. Materiallarning bu usuliyatlari tola tarkibiga, o'rilish sinfiga, to'qima zichligiga, pardoziga bog'liq. Silliq, zich to'qimalarga kam chang yopishadi. Tukli, bo'sh to'qimlarning chang oluvchanligi yuqori bo'ladi.

Materiallarning bosim ta'sirida to'qimadan suv o'tkazish qobiliyatiga ularning suv o'tkazuvchanligi suv o'tkazuvchanlik koeffitsienti bilan aniqlanadi.

Oxirgi yillarda atom energiyasidan keng foydalanilmoqda, shuning uchun sog'ligini himoya qilish uchun to'qimachilik materiallari orqali radioaktiv nurlarini o'tish-o'tmasligini bilish katta ahamiyatga ega. Ma'lumki, radioaktiv nurlanish α , β , γ nurlaridan iborat. Radioaktiv elementlardan α nurlarining tarqalishi nisbatan kichik, ya'ni 15-20 ming km/sek. Bu nurlarni to'qimachilik material ushlab qoladi.

β -nurlarining tezligi 300 ming km/sek, bu nurlarni 3-4 qavat qilib joylashtirilgan sukno materiali 80% ushlab qoladi.

γ -nurlari bu elektromagnit nurlari bo'lib juda tez tarqaydi, bu nurlardan saqlanish uchun alyuminiy va kvarts oksidi qorishmasidan tayyorlangan izolyatsiyali to'ldirgich materiallar ishlatiladi.

Materiallarning issiqlik xususiyatlari: Issiqlikni saqlash, issiqqa chidamliligi, sovuqqa chidamliligi va olovga chidamliligidir.

Materiallarning issiqlikni saqlash xususiyati materialning tola tarkibiga, qalinligiga, zichligiga va pardoziga bog'liq. Jun to'qimalarning issiqni saqlash

xossalari eng yuqori, zig'ir tolali materiallarniki eng pastdir. Tukli va ko'p qavatli materiallarda havo qatlami bo'ladi, ular materialning issiqlikni saqlash xususiyatini yaxshilaydi.

Materiallarining issiqqa chidamliligi ikkita: Yuqori haroratga chidamliligi va termik ishlovga chidamliligi ko'rsatkich bilan ifodalanadi.

Materiallarining issiqqa chidamliligi maksimal harorat bilan ifodalanadi. Bu haroratdan keyin materialning xususiyati nochorlashadi. Agar, to'qimachilik materiallariga ishlov berilganda maksimal haroradan keyin ularning tuzilishi, tarkibi bo'lsa, termik ishlovga chidamliligi deyiladi.

Materiallar ho'l holatda takroriy muzlaganda ($t < 0^{\circ}\text{C}$) va muzdan tushganda fizikaviy-mexanikaviy xususiyatlarini saqlash qobiliyatiga sovuqqa chidamliligi deyiladi.

Materiallarning sovuqqa chidamliligi asosan tolaning gigroskopikligi va to'qimalarning suv shimuvchanligiga bog'liq. Minus haroratda agar, to'qimaning tarkibida suv bo'lsa, ular muzlaydi, hajmi kengayadi, ko'p davrli deformatsiyadan keyin material qirg'iladi. Gigroskopik bo'lmagan, ya'ni gidrofob materiallarning (sintetik materiallar)- 50°C mustahkamligi 35-50 foiz oshadi, cho'ziluvchanligi 10-30 foiz kamayadi.

Materiallarning optik xususiyatlariga ularning rangi bo'yicha ikkiga:

- Issiq rang-oq, qizil, sariq. Bu ranglar gazlamalarning tashqi ko'rinishini yaxshi ko'rsatadi. Kichik nuqsonlarni aniq qilib ko'rsatadi:

- Sovuq rang-havo rang, ko'k, binafsha rahlgar kiradi. Gazlamalardagi kichik nuqsonlar bilinmaydi. Odam shaklini ixcham qilib ko'rsatadi.

Gazlamaning yaltiroqligi - materiallarning yuzasiga va o'rilishiga bog'liq. Agar gazmollar silliq bo'lsa, ular yaltiroq bo'ladi, chunki tushgan nurlar yaxshi qaytadi (satin, atlas). Agar materialning usti g'adir-budur bo'lsa, tushgan nurlar tarqab ketadi.

Gazlamalarning taniqligi-materialga tushgan nurlarning material orqali o'tgan qismi bilan aniqlanadi. Gazlamalarning tiniqligi spektrofotometr asbobi bilan o'rganiladi.

Gazlamalarning oqligi-gazlamaga tushgan nurlarning qaytish miqdori bilan aniqlanadi.

Materiallarni ishlab chiqarishda ularni ishlatish jarayonida har xil yuzalarda ishqalanadi, natijada materialning yuzasida statik elektr zaryadlari yig'iladi. Bu yig'ilgan zaryadlar materiallarni ishlab chiqarish texnologik jarayoniga va kiyimlardagi yig'ilgan zaryadlar odam sog'ligiga (asab, yurak, qontomir tizimlariga) salbiy ta'sir ko'rsatadi. Materiallarning elektrlanishi ularning tez kirlanishiga ham sabab bo'ladi. Elektrlangan kiyimlar odam badaniga yopishib qoladi.

Gazlamalarning elektrlanuvchanligini kamaytirish uchun har xil antistatik moddalar ishlatiladi.

Har xil aralashma tolalardan (gidrofil va gidrofob) tashkil topgan iplardan to'qilgan gazlamalarda statik zaryadlarning yig'ilishi kam bo'ladi.

To'qimachilik gazlamalarining maxanik xususiyatlari ularning turli kuchlar ta'siriga munisabatini ko'rsatadi. Bu kuchlar esa turlicha bo'lib, ular katta yoki kichik bo'lishi, hamda bir marta yoki qatma-qat takrirlanib ta'sir etishi mumkin.

Kuchlar to'qimachilik gazlamalarining bo'yi, eni yo'nalishida yoki ularga nisbatan ma'lum miqdordagi burchak istida ta'sir etishlari mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Мартынова А.И., Андреева Е.Г. Конструктивное моделирование одежды. М., 2002г.
2. Z.Davletsheva Tikuv buyumlarini tayyorlash texnologiyasi. O'quv qo'llanma. Toshkent "Sano standart" nashriyoti 2017
3. G'oziyev E., Mamedov K. Kasb psixologiyasi. – T.: O'zMU, 2003. 156-b
4. <https://uzbekistan.ureport.in/story/364/>
5. <https://t.me/dokument>
6. M.Jabborova «Tikuvchilik texnologiyasi». Toshkent, 1989 y. «O'qituvchi» nashriyoti.
7. «Uy-ro'zg'or ensklopediyasi». Toshkent, 1982 yil.
8. A.T.Truxanova «Tikuvchilik texnologiyasi asoslari». Toshkent: «O'qituvchi» n. 1996 yil.

METAFORALARNI O'QITISH ORQALI O'QUVCHILARNING OBRAZLI TAFAKKURINI SHAKLLANTIRISH USULLARI

S.Kabilova Nizomiy nomidagi Toshkent davlat Pedagogika Universiteti Termiz filiali o'qituvchisi

Annotatsiya: Ko'chma ma'no biror so'z leksik ma'nosi referenti bilan obyektiv borliqdagi narsa, voqelik, harakat, holat, belgi yoki sezgi kabilardan biri aloqador yoki munosabatda bo'lganligi uchun, uning nomida atalib ketishi orqali yuzaga keladi. Ya'ni so'z leksik ma'nosi ikkinchi bir leksik ma'noni hosil qiladi. Shu sababli keyingi leksik ma'no metafora deb ataladi.

Kalit so'zlar: ko'chma ma'no, leksik ma'no, tilishunoslik, metafora, sinekdoxa, leksema, enantiosemiya.

O'zbek tilshunoslari ko'chma ma'no yuzaga kelishini tasnif qilishda asosan A.A.Reformatskiy bilan hamfikrlik qilganlar. Faqat uch darslik mualliflari farqli qarash bilan chiqqanlar. R.A.Bigayev va P.A.Danilovlar o'zlarining hamkorlikdagi darsliklarida ko'chma ma'no yuzaga keltiruvchi hodisalarning hammasini metafora deb ko'rsatganlar. O.Azizov sinekdoxani metafora tarkibiga kiritish bilan yuqoridagilardan farqlanadi. Y.Pinxasov o'z darsligida vazifadoshlikni tilga olmaydi. O'zbek tilshunosligida ko'chma ma'nolarni o'rganish bo'yicha prof. M.Mirtojiev va I.Shukurov, Z.Tohirov, D.Xo'jayeva; shuningdek, prof. Sh.Rahmatullayev va R.Yunusovlar chuqur ilmiy tadqiqot ishlarini olib bordilar. M.A. Hamroyev, H. Jamolxonov, R. Sayfullayevalar o'zlarining o'quv qo'llanmalarida ma'no ko'chishini to'rt guruhga bo'lganlar. Ko'chma ma'noning keng tarqalgan turi metaforadir.

O'zbek tilida metafora leksik ma'no taraqqiyot yo'llaridan biri sifatida qaraladi hamda ko'chimning o'xshashlikka asoslangan turi sifatida baholanadi. Sh.Rahmatullayev metafora ko'chimning boshqa turlari bilan sinkretik ishlatila olish imkoniyatiga e'tibor qaratadi: metaforik-funksionallik, metaforik-metonimiya, metaforik-sinekdoxa va hokazo. Samolyotning qanoti metaforik birikmasida qush

qanotiga, nafaqat, vazifa, balki shakl jihatidan ham o'xshaydi. Shundan kelib chiqib, metafora yo'li bilan ko'chirishning quyidagi ko'rinishlarini ajratadi: 1. Bir predmetning nomi boshqa bir predmetga shakliy o'xshashlik asosida ko'chiriladi: og'iz- (odamning og'zi) – og'iz- (shishaning og'zi), qo'ltiq- (odamning qo'ltig'i) - qo'ltiq- (dengizdagi qo'ltiq), tish- (odamning tishi) – tish- (arraning tishi), etak- (kiyimning etagi) – etak- (tog'ning etagi) kabi. Bunday ko'chirish natijasida ba'zan zid ma'no ham tug'ilishi mumkin. Masalan, boshleksemasining birinchi ma'nosidan metafora yo'li bilan ko'chirish asosida "ibtido", "muqaddima" ma'nosi hosil bo'lgan: maqolaning boshi kabi. Bundan tashqari, "oxir", "xotima" ma'nosi ham o'sib chiqqan: boshi berk ko'cha kabi.

Bir leksemaning bunday zid ma'nolarni anglatishi hodisasi **enantiosemiya** deyiladi (yunoncha en- "yaqin", anti- "qarshi"). Yana qiyoslang: Koridorning u boshidan bu boshigacha stullar qo'yilgan. Bu jumlada bosh leksemasi umuman tomon ma'nosiga ega bo'lib qoladi. 2. Bir predmetga (ba'zan harakatga) xos belgining nomi boshqa bir predmetdagi belgiga ko'chiriladi: achchiq- (achchiq qalampir-) – achchiq- (achchiq gap), to'g'ri- (to'g'ri chiziq) – to'g'ri- (to'g'ri gap), jonli- (jonli tabiat) – jonli- (jonli suhbat), tez- (tez yur) – tez- (tez odam) kabi. Bir predmet nomini boshqa bir predmetga belgi sifatida ko'chirish ham mavjud: tosh- (qattiq jism) – tosh nok- ("qattiq"), oltin- (qimmatbaho ma'danning nomi) – oltin yaproqlar (sap-sariq) kabi. Bunda narsaning nomi belgini anglatib keladi. Yuqoridagi misollarda esa belgining nomi bir predmetdan boshqasiga ko'chiriladi. 3. Bir predmetga xos harakatning nomi boshqa bir predmetning harakatiga ko'chiriladi: savala- (nimani) - savala- (kimni), cho'k- (cho'kkala-) - cho'k (imoratning cho'kishi) - cho'k (odamning qariganda cho'kishi), o'l (jonlilarda hayotning tugashi) - o'l (o'simlik palagining so'lishi, qurishi) kabi⁴. Shu sababli bu kabi holatlarni funksional-metaforik ko'chirish desa bo'ladi. O'zbek tilshunosligida komponent-semantik tahlilga e'tibor rivojlana boshlagach, metafora tabiatini o'rganishga ana shu tahlil usullarini tatbiq etishga intilishlar yuzaga kela boshladi. Shu xil yo'nalish namoyondalaridan biri Z. Tohirov metaforani leksema sememasining pragmatik semasi sifatida baholaydi. Shuningdek, metafora va o'xshatish orasidagi farqni uslubda, shakldagina ko'radi. Ilmiy adabiyotda metaforani asosan til va nutq hodisalari sifatida ikki turga ajratib ko'rsatadilar. Nutq hodisasi bo'lgan metafora, shubhasiz, nazariy tilshunoslik uchun tekshirish obyekti bo'lmaydi. U stilistika sohasiga oiddir. Til hodisasi bo'lgan metafora esa Yevropa tillariga oid ba'zi adabiyotlarda, yuzaga keltirgan o'xshatish belgisiga ko'ra, bir necha turlarga ajratib beriladi. O'zbek tilshunosligida M. Mirtojyev metaforani o'xshatish belgisiga ko'ra uch turga ajrtadi: 1. O'zbek tilidagi lingvistik metaforalar ma'no ifoda etgan obyektlarning o'xshatilish holatiga ko'ra, yuqorida qayd etilganday, uch turga: oddiy metafora, personifikatsiya va sinteziyaga bo'linadi. 1. Oddiy metafora ma'lum so'zning leksik ma'nosi ifoda etgan obyekt o'ziga tog'ridan-to'g'ri o'xshash bo'lgan ikkinchi bir obyektning nomdosh qilib olishi bo'ladi. Shuning orqasida mazkur so'z ikkinchi obyektning ham ifoda etuvchi ko'chma ma'no orttiradi. Bu obyektlar o'rtasidagi o'xshashlik ularning sirtqi belgisi, harakat va holat xususiyati, vazifasi kabilarga asoslanadi. Masalan, darvoza so'zi qurilishga oid bir tushunchani ifoda etadi. Sportga oid, to'p va shayba kiritish uchun mo'ljallangan qurilma ham mazkur tushunchaga

⁴ Rahmatullayev Sh. Hozirgi adabiy o'zbek tili. –Toshkent: Universitet, 2006. –B. 56.

sirtqi belisi va vazifasiga ko'ra o'xshash bo'lganligi uchun, uni darvoza so'zi bilan atab yuborilgan. Natijada darvoza so'zi mana shu atash hisobiga ko'chma ma'no hosil qilgan.

Oddiy metafora, ot turkumidan tashqari, fe'l va sifat turkumiga oid so'zlarda ham uchraydi. Masalan, Qizim, dadang, enang, hasratingda kuyib bitdi⁵ (Oybek). Barmoning yonidagi bitta-yu bitta bo'sh stolni ko'rsatib dedi (O. Yoqubov) gaplaridagi bitmoq fe'li va bo'sh sifatining ma'nolari oddiy metafora natijasida hosil bo'ladi. 2. Personifikatsiya ma'lum so'zning leksik ma'nosi ifoda etgan jonli obyekt o'ziga qiyoslanib, o'xshatilib qaralgan jonsiz obyektning nomdosh qilib olishi bo'ladi. Mazkur jonli va jonsiz obyektlar o'rtasidagi o'xshashlik ham sirtqi belgi, harakat va holat xususiyati, vazifasi kabilarga asoslanadi. Ammo bu o'xshashlik nomdosh bo'lib olgan obyektga jonli holat baxsh etish orqali yuzaga chiqadi. Masalan, dam so'zining leksik ma'nolaridan biri nafasni ifoda etgan. Bu so'z nafasga sirtqi belgisi o'xshash bo'lganligi uchun quyosh tafi, haroratini ham ifoda etadigan bo'ldi. Natijada dam so'zi ko'chma ma'no hosil qildi. Masalan, Quyosh damini g'ir-g'ir esgan shamol kesar edi (Oybek). Personifikatsiya, ot turkumidan tashqari, fe'l va sifat turkumiga oid so'zlarda ham uchraydi. Masalan, Qiz sho'rlikni dard yedi, dardga qo'ygan kim edi (qo'shiq). Nimrang – beor tok, qo'lga ham chidamli bo'ladi (R. Musamuhamedov) gaplaridagi yemoq fe'li va beor sifatining ma'nolari personifikatsiya natijasida hosil bo'lgan. 3. Sinesteziya ma'lum so'zning leksik ma'nosi ifoda etgan obyekt boshqa sezgi orqali his etiladigan ikkinchi bir obyekt (kishi subyektining umumlashtirishida o'ziga o'xshash bo'lgani uchun) nomdosh qilib olishidir. Buning orqasida mazkur so'z ikkinchi obyektning ham ifoda etuvchi ko'chma ma'noga ega bo'ladi. Masalan, mayin so'zining leksik ma'nolaridan biri paypaslab, ushlab ko'rish orqali his etiladigan belgini ifoda etadi. Tovushning ohista va yoqimlilik belgisini ifoda etuvchi ko'chma ma'no esa mazkur ma'nodan hosil bo'lgan. Bu belgilar subyektiv o'lchov, sezgiga ta'sir etishi nuqtayi nazaridan umumlashtirilgan va o'zaro o'xshatilgan. Masalan, Faqat suvning jildirashi eshitiladi (S. Zunnunova). Sinesteziya sifat, ot, fe'l va ravish turkumiga oid so'zlarda uchraydi.

Demak, oddiy metaforada belgilariga qarab oddiy qiyoslash, personifikatsiyada jonlantirish natijasida qiyoslash, sinestazyada esa subyektiv holatda qiyoslash o'xshatish uchun asos bo'ladi.

Ona tili ta'limi oldiga qo'yilgan ijtimoiy buyurtma o'quvchi shaxsini mustaqil va ijodiy fikrlashga, o'zgalar fikrini to'g'ri anglashga, fikr mahsulini og'zaki va yozma shaklda nutq muhiti, sharoiti va vaziyatiga mos to'g'ri, mantiqli va ravon bayon qila olishga o'rgatishdan, ya'ni kommunikativ (o'zaro muloqot) kompetensiyani rivojlantirishdan iborat.

Shundan kelib chiqqan holda, ona tili ta'limi oldiga ijtimoiy jihatdan mukammal shakllangan, mustaqil va ijodiy fikrlay oladigan, nutqiy va madaniy muloqot salohiyati rivojlangan savodxon shaxsni kamol toptirish maqsadi qo'yiladi. Shu maqsaddan kelib chiqib, ona tili ta'limining asosiy vazifasi o'quvchilarning fikrlash salohiyatini, aqliy rivojlanishini, mantiqiy tafakkurini o'stirish, o'zini, o'zgalarni va borliqni til vositasida anglashni hamda fikr va histuyg'ularini ona tilining keng imkoniyatlari doirasida bayon eta olishni o'rgatishdan iborat. Matnni ifodali o'qish, tovushlarni to'g'ri talaffuz

⁵ Миртожоя М. Лингвистик метафоралар таснифи. – Тошкент: Ўзбек тили ва адабиёти, 1973. – Б. 34. 10

etish, soʻzlarni toʻgʻri, gap ohangiga amal qilgan holda ravon oʻqish, gapdagi tinish belgilarni talaffuzda aks ettirish, soʻz va gap urgʻulariga rioya qilish, ilmiy atama va ramzlarni, mumtoz adabiyot namunalarini toʻgʻri va ifodali oʻqish koʻnikmasini shakllantirish. Fikrni toʻliq va toʻgʻri anglash, anglangan fikrni bayon etishda nutqning toʻgʻri, ravon, aniq, tushunarli, mazmunder boʻlishi, monologik nutq, dialogik nutqdagi mantiqiylikni saqlay bilish, qayta bayonning matn mazmuniga mos boʻlishi. Muayyan nutq muhiti, sharoiti va real nutq vaziyatlarda nutq uslublari (soʻzlashuv, ilmiy, badiiy, publitsistik) dan oqilona va samarali foydalana olish. Yozma nutqda matndagi gaplarning mazmunan oʻzaro bogʻliqligi va aloqadorligi koʻrsatilgan mavzu doirasida birlashishi va harf, tinish belgilarini toʻgʻri yozish, husnixatda qatorlarni toʻgʻri joylashtirish, soʻzlar orasidagi oraliqni toʻgʻri belgilash; matnda uslubiy qoidalardan kelib chiqib soʻzlarni nooʻrin takrorlashdan saqlanish, fikr izchilligini taʼminlash darajasi rivojlantirish.

Oʻquvchilarning maʼnaviy-axloqiy dunyosi, adabiy-estetik didini shakllantirish hamda ularda mustaqil fikrlash, obrazli tafakkurni shakllantirishda turli xil usullardan foydalanish mumkin. Ulardan biri “Sinetika” metodidir. Bu metodning asoschisi U. D. Gordonom. Sinetika – ijodkorona oʻylash modeli boʻlib, koʻrinishidan turlicha boʻlgan hodisa va predmetlarni oʻzaro bogʻliklikda oʻrganish hisoblanadi. Uning asosiy vositasi analog yoki metafora boʻlib, bu model kichik guruhlarda biror muammoga yechim topishda kreativ javoblar topishning takomillashtirilishiga imkon beradi. Bunda yangi maʼlumotga ega boʻlinadi, yangi yechim topish uchun motivatsiya hosil qilinadi, muammoning turli sabablari kashf qilinadi. Bu usul uning foydalanuvchilariga miyada mavjud turli “qoliplar”dan chiqishga va mavhum tushunchalarni ham anglashga yordam beradi. Sinetika modelidan anʼanaviy modellardan zerikkan barcha yoshdagi hamda barcha soha vakillari tomonidan foydalanishi mumkin. Sinetika oʻquvchilarning ijodkorligini faollashtiruvchi instruktiv model, u oʻquvchilarga eski fikrlarni yangicha yoʻl bilan bir necha hodisalar bilan bogʻlashga turtki beradi. Garchi baʼzi oʻquvchilar boshqalariga nisbatan ijodkorroq boʻlsalar ham, sinetika modeli har bir oʻquvchida “creative thinker” - “ijodkor oʻylovchi, ijodiy fikrlovchi”ni uygʻota oladi. Bu modelda velosipedni qayta ixtiro qilish haqida emas, biz bilgan narsalarni metaforik usul bilan izohlaydi. Bu model, odatda, “It’s one big brainstorming party!” (miyada katta zakovat hujumi kechasi) izohi orqali ifodalanadi va bu kichik guruhlarda yoki yakka holda talabalarning ijodkorona va quvnoqlik bilan yangi bilimlar olishiga yordam beradi. Modelning afzalliklari: -chuqur oʻylash; - eski narsalardan yangi perspektiva hosil qila olish; -dialoglar. Modelni amalga oshirish shakli: 1. Bevosita analog (Direct Analogy) – oʻqituvchi muayyan tushunchani boshqa tushuncha bilan tenglashtiradi (“Learning is a circus.” – Oʻrganish-bu sirkdir) va oʻquvchilardan bu ikki tushunchaning xarakterli xususiyatini yoritish soʻraladi va bu ikki tushunchaning oʻxshash jihatlari aniqlanadi. 2. Shaxsiy analoglar (Personal Analogy) – bunda baʼzi oʻquvchilarning tortishuvi kuzatiladi. Ularda obyekt va uning analogiga oid fikrlar uygʻongan fikr aytiladi. (“Learning – I feel shunned and very unappreciated at times.” Circus– “I feel excited because I’m the life of the party!” – Oʻrganish –oʻzimni olib qochgandek his qilaman va hozirda qadrsiz; Sirk – oʻzimni rohatda sezaman, chunki shu kechanning hayotiman). Bu jarayonda sinfda yuzaga keluvchi bahslar ham foydalidir. 3. Analog qarama-

qarshilik (Analog Contrast) — o'quvchilar muayyan obyekt va uning analogini o'zaro qiyoslaydilar va zidlaydilar. Qiyoslash jarayonida o'quvchilar turli ijodkorona va bir-biridan farqlanadigan fikrlarini bayon etadilar. ("Learning is not like a circus because it's not always entertaining and exciting!" — O'rganish sirka o'xshamaydi, chunki u har doim ham ajoyib emas). 4. Yangi analog (New Analogy) — o'quvchilar o'zlarining yangi analoglarini yakka yoki guruhli tarzda yaratishga harakat qiladilar. Bu 32 modelning so'ngi bosqichi bo'lib, o'quvchilar o'zlari yaratgan modellarini taqdim etadilar. Bu ularda yangi analogning yuzaga kelishiga sabab bo'ladi. ("Learning is like a box of chocolates." — O'rganish bir quti shokoladga o'xshaydi). Bu metodni qo'llash orqali o'quvchilarning fikrlashi o'sadi, dunyoqarashi kengayadi, obrazli tafakkuri shakllanadi. Xarakter-xususiyat metaforalarini o'qitishda bu usul yaxshi samara beradi. O'quvchilarga insonlarga xos bo'lgan biror xususiyatni aytamiz. O'quvchilar esa shu xususiyat qaysi hayvon orqali ifodalanishini aytadilar va o'qituvchi to'g'ri variantni aytadi. Masalan, "mard" leksemasiga mos bo'lgan metaforalarni topadilar: mard-xo'roz, bo'ri, ayiq, tulki va hokazo bo'lishi mumkin. Bunda "mard"- analog asosi, "xo'roz, bo'ri, ayiq, tulki"-analog. O'qituvchi bo'ri, ayiq, tulki variantlari noto'g'ri javobligini izohlab, to'g'ri javob xo'rozligini tushuntiradi. O'quvchilar javob topishda ijodiy yondoshadilar. Ular bor narsani to'g'ridan-to'g'ri emas, balki metaforik usulda nomlaydilar. Bu usul o'quvchilarning miyada bor "qoliqlar"dan chiqishga va ijodiy yondoshishga o'rgatadi. Natijada insonlar xarakter-xususiyatini hayvonlar obraziga solib ifodalaydilar. Xarakter-xususiyat metaforalari nafaqat hayvonlar orqali, balki sifatlar orqali ham ifodalanishi mumkin. Bunga og'ir, nozik, yengil leksemalarini misol qilishimiz mumkin. Og'ir-vazni katta bo'lgan, tosh bosadigan; vaznli³². Ma'no ko'chganda esa insonga xos bo'lgan bosiqlik, vazminlik xarakterini bildiradi. Masalan: Aminjon, o'zi yosh bo'lsa ham, juda pishiq, og'ir, g'ayratli. (A. Qahhor). Bu misoldagi "og'ir" leksemasi Aminjonning vazmin, bosiq bola ekanligini ko'rsatadi.

Ingiz tilidagi badiiy matnlarda ham xarakter-xususiyatga doir misollar talaygina. Masalan, Skott Fitzgeraldning "The Great Gatsby" (Buyuk Gatsby) asaridagi "Gatsby believed in the green light, the orgastic future that year by year recedes before us. It eluded us then, but that's no matter—tomorrow we will run faster, stretch out our arms farther.... And then one fine morning—So we beat on, boats against the current, borne back ceaselessly into the past" parchada green light metaforasi Daisining muloyimligini anglatadi. Kurt Vonnegutning "Cat's Cradle"(Mushuk beshigi) asaridagi "The woman, which in the yard is so jealous, she is storm. Her jeolosity is more much anything. She always control him, do not allow to go to the abroad never and ever" parchada ayolga xos injiq tabiat bo'ron metaforasi bilan izohlanadi.

Xulosa o'rnida, yuqoridagi tajribadan kelib chiqadiki, xarakter-xususiyat metaforalari ko'proq hayvonlar orqali ko'chadi. Xarakter-xususiyat metaforalarini o'rgatishda sinektika metodidan foydalanish o'quvchilarda mantiqiy fikrlash ko'nikmalarini tarkib toptiradi, guruhlarda ishlashga o'rgatadi, ko'pchilik oldida o'z fikrini bayon qilish, o'z nuqtayi nazarini asoslash malakalarini hosil qiladi. Bu esa o'quvchilarning og'zaki nutqini rivojlantiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati:

1. Данилов П. А., Бигаев Р. И. Введение в языкознание. —Ташкент, 1954. —С. 12.
2. Азизов О. Тилшуносликка кириш. —Тошкент: Ўқитувчи, 1963. —Б. 63

3. Пинхасов Й. Ҳозирги замон ўзбек тили лексикаси. –Тошкент: Ўқитувчи, 1960. –Б. 40.
4. Hamroyev M. A. O'zbek tilidan ma'ruzalar majmuasi. –Toshkent, 2006. –B. 45.
5. Jamolxonov H. Hozirgi o'zbek adabiy tili. –Toshkent: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2013. –B. 266-269.
6. Sayfullayeva R. Va boshqalar. Hozirgi o'zbek adabiy tili. –Toshkent, 2009. –B. 108-110. 8

The importance of the use of innovative technology in educating the competence of future computer science teacher

U.Eshaliyev Teacher, Pedagogical Institution of Termez State University

Annotation: This article provides recommendations for the university to provide understanding and skills on the use of innovative technologies in the "Education of competence of future teachers of computer science." Based on these recommendations, the role of information technology in educating the competence of a future computer science teacher is highlighted.

Key words: innovative technology, educating, competence, computer science.

The viable socio-economic development of the new Uzbekistan largely depends on the world's intellectual potential and the training of mature specialists. This requires the improvement of the technology of education of competence of the future teacher of computer science. One of the effective ways to solve such an important task is to develop the skills and competencies of the future teacher of computer science to improve the competence of technology and engage in creative activities. Another important aspect of this task is that today science and technology are improving and developing day by day, hour by hour, and as a result, there is a need to train mature specialists accordingly. In this regard, the issues of ensuring competitiveness in the training of future professionals, adaptation to the developed education system, development of cooperation in education, the formation of future professionals as innovative developers are urgent tasks. Fulfillment of such tasks has risen to the level of state policy in our country. The current task is to reform the system of continuing education in accordance with the spirit of the times, in a new interpretation, to innovate the content of education on the basis of the latest scientific and technological achievements and to improve the training of future professionals. In particular, the Action Strategy for the five priority areas of development of the Republic of Uzbekistan, entitled "Further improvement of the system of continuing education, increasing the capacity of quality educational services, Continuation of the policy of training highly qualified personnel in accordance with the modern needs of the labor market" also requires a radical reform of all aspects of our creative activity in this area. The fulfillment of such tasks, of course, is directly related to the innovative development of future professionals, which requires improving the quality and efficiency of higher education. This is done on the basis of stimulating research and innovation and intellectual activity, the widespread introduction of scientific, methodological and innovative achievements in practice. Therefore, the creation of effective mechanisms for the implementation of innovative developments (innovative

methods and educational technologies, innovative-integrative education, etc.) is becoming increasingly important. In this case, science, in general, creativity has fulfilled its mission if it achieves the effective implementation of all stages, from research and technical solutions of scientific research to the application of the results in practice (production, education, upbringing, art, etc.). This recommended article is also designed to improve the training of future teachers and discusses in detail the issue of preparing future teachers for innovative activities. All educational endeavors are the joint intellectual and physical work, collaborative or independent work of students, educators, educators, and, in general, pupils and students in the example of educators, educators, educators, other officials, in short, teachers and educator is a multifaceted and complex process consisting of creative thinking. The issues of increasing the effectiveness of lessons and extracurricular activities are inextricably linked with the scientific organization of the educational process and the practical application of new pedagogical technologies.

The main purpose of the organization of innovative activities in educational institutions, the introduction of innovations and new approaches to the educational process is to ensure consistency in the cooperation of teachers and students and to establish it on the basis of a clear plan and goal-oriented. This work requires a combined solution of pedagogical, psychological and organizational issues. It should be noted that pedagogical innovations require participants to thoroughly acquire methodological, psychological, technological knowledge about the laws of the process of emergence, manifestation and management of innovations. Otherwise, pedagogical innovations will not be effective. In our opinion, the effectiveness of innovative processes to be introduced in the education system and the responsibility to meet the requirements of the National Training Program depends on the conditions for the development and implementation of pedagogical innovations, the appropriate, rational and integrated use of traditional and modern methods of education. In some cases, there are cases of abandonment of traditional methods that are effective. These innovations seem to be opposed to teaching methods that have been tested in practice and yielded creative results. Therefore, it would be desirable if positive experiences in the traditional education system were combined with innovations. Today, the interest and attention to the use of innovative technologies in the education system is growing day by day. One of the reasons for this is that while the goals of education so far have been for teachers and students to acquire only ready-made knowledge, modern technologies have taught them to be creative, to search for knowledge, and even to draw their own conclusions. Innovative technologies in the pedagogical process are innovations, changes in the activities of teachers and students, which require the use of interactive methods in its implementation. Interactive methods are based on the activities of each teacher involved in the learning process, free and independent thinking. When these methods are used, learning becomes a fun activity for the learner. When interactive methods are used, students gain skills and competencies to work independently with the help and collaboration of teachers. Students acquire new knowledge on the basis of scientific research, research, experiments. The principle of acquiring knowledge through science is followed. Participants in the learning process work in small groups. Assignments are given to all members of a small group, not to an individual student.

Each member of the microgroups tries to contribute to the task. This situation creates a sense of community in teachers and increases their initiative. The main form of organizing the teaching process is the lesson. At present, various non-traditional forms of teaching are being introduced. Such lessons serve to develop the creative ability of the student, strengthen the intellectual potential, expand the scientific worldview and the formation of skills and abilities to quickly and fully accept any innovation. The use of innovative technologies in the classroom stimulates students' interest in scientific research, develops creativity and ingenuity. As a result, the acquired knowledge, skills and abilities are applied in practice, the quality of mastering increases. To do this, the teacher must be competent and plan the lesson correctly, depending on the content of the topics, to engage all students in active and conscious work during the lesson. After all, the teacher-education is the main executor of the reform. At the same time, it is important to train every teacher to master, process and apply a large amount of information in a short period of time. In solving it, the teacher is assisted by the use of modern information technologies, including computers, along with traditional methods of teaching. First of all, it is possible to convey a lot of knowledge, facts and information to students through the wide range of information and communication technologies. Second, the full implementation of the teacher's innovative plan, ideas and thoughts is easy and effective. Such processes play an important role, especially in the teaching of computer science. We believe that training in the successful application of innovative technologies is one of the key objectives of ensuring continuity and continuity. Thanks to the integration of sciences, the most unique achievements of civilization are being achieved. Man's understanding of the external world and his identity, the knowledge of new laws of human and social relations are taking place. In such a dialectical process, an economic phenomenon, such as production, set in motion by the human intellect, is rising to a leading position. When all efforts are made to serve human health, satiety, and superficial integrity, the essence of such a large-scale vital phenomenon as production becomes clear. The essence of such a large-scale vital phenomenon as living and reproduction, construction and creation, as well as production for science and politics, becomes clear. In order to live and reproduce, to struggle and create, to engage in science and politics, it is also necessary to establish production, agriculture and animal husbandry. The close relationship between the organism and the environment, the interdependence of celestial bodies, the cosmic life of the Earth, the coherence of changes in human life with geological and astrophysical events, the connection of historical events on Earth with the activity of the Sun. Such global scientific-creative socio-enlightenment and anthropospheric processes continue uninterrupted.

It is illogical to argue about what comes first in this membership. The universe is primary, man is secondary, and production and science are the physical and intellectual products of man. Only when science serves production, production serves humanity, and man serves the material and spiritual development of the world, will purpose be achieved. The reflection of such processes in education is much more complicated. This is due to the continuity and continuity of the education system. With the help of modern educational technologies, the goal can be achieved in the implementation of educational issues. At the present time, when the reforms in the system of continuing

education of the Republic of Uzbekistan are in full swing, the need to improve the form and content of education and upbringing should be the main issue on the agenda and further strengthen teacher-student cooperation.

In general, the human factor is a very important component in education and upbringing, and it is necessary to emerge as a powerful force that ensures that there are no gaps in ideological training grounds. The goal is achieved when the worldview of young people based on universal and national values is combined with scientific and secular knowledge.

References:

1. Law of the Republic of Uzbekistan on education dated 23.09.2020.
2. Omonov HT. The role of integration and differentiation of sciences in the creation of the scientific landscape of the universe.
3. Journal "Social Humanities in Education" 2012, №3
4. Khujajev VU Mamayusupov S, Jumanov "Issues of improving the teaching of mathematics and computer science in the system of continuing education" Materials of the Republican scientific conference Kokand Kok DPI 2012y.
5. Kurbonova Gulnoza Abdukhalik qizi. № 17 (255) / 2019 The notions of "knowledge", "action" and "learning" p217 Молодой ученый Международный научный журнал
6. Qurbonova Gulnoza Abduholiqovna. (2021). EPISTEMOLOGICAL APPROACHES AND THE PSYCHOLOGY OF KNOWLEDGE. Emergent: Journal of Educational Discoveries and Lifelong Learning (EJEDL), 2(04), 50–53. Retrieved from <https://ejedl.academiascience.org/index.php/ejedl/article/view/23>
7. Qurbonova Gulnoza Abduholiqovna. (2021). DEVELOPMENT OF THE CONCEPT "KNOWLEDGE" IN ENGLISH. Academia Globe: Inderscience Research, 2(04), 91–94. Retrieved from <https://agir.academiascience.org/index.php/agir/article/view/59>

ТЕХНОЛОГИК ТАЪЛИМ ҲАМКОРЛИГИНИ ТАЙЁРЛАШДА КОМПЕТЕНЦИЯГА ЙЎНАЛТИРИЛГАН ҲОЛДА ТАШКИЛ ЭТИШ КАСБИЙ-ПЕДАГОГИК ТАЪЛИМ ҲАМКОРЛИГИНИ ТАЪМИНЛАШНИНГ УСУЛИ СИФАТИДА

**Х.А.Умаров Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети
ўқитувчиси**

Аннотация: Мазкур мақолада технологик таълим ўқитувчиларини тайёрлашнинг касбий-педагогик таълим ҳамкорлиги кўринишидаги инновацион ёндашув таҳлил қилинган. Унинг таълимнинг компетенцияга йўналтирилган ҳолда ташкил этишни асосий воситаси сифатида қаралиб, бўлажак ўқитувчиларнинг тайёргарлик даражаси баҳолашда маълум билимлар ёки кўникмаларга эгаллигини эмас, балки касбий аҳамиятга эга бўлган компетенцияларни шаклландирилгани таҳлил этиш тавсия этилган.

Калит сўзлар: технологик таълим, ўқитувчиларини тайёрлаш, таълим ҳамкорлиги, инновацион таълим, компетенцияга, тайёргарлик даражаси.

Аннотация: В статье рассматривается инновационный подход к подготовке учителей технологического обучения в форме профессионально-педагогического сотрудничества. Он рассматривается как основной инструмент компетентностно-ориентированной организации образовательного процесса, и в оценке уровня подготовки кадра рекомендуется анализировать формирование профессионально значимых компетенций, а не факт наличия определенных знаний или навыков.

Ключевые слова: технологическое обучение, подготовка учителей, образовательное сотрудничество, инновационное образование, компетентность, уровень подготовки.

Abstract: In the article analyses an innovative approach to the training of teachers of technological education in the form of professional and pedagogical cooperation. It is considered as the main tool of the competence-oriented organization of the educational process, and in assessing the level of training, it is recommended to analyze the formation of professionally significant competencies, and not the fact of having certain knowledge or skills.

Key words: technological learning, teacher training, educational cooperation, innovative education, competence, level of training.

Бугунги куннинг тезкор глобаллашув жараёнини инобатга олган ҳолда, ёшларга берилаяётган эътибор уларни ижодкор, баркамол, жисмоний жиҳатдан кучли, соғлом авлод бўлиб етиштишлари, ўз ақлий салоҳиятини жисмоний етуклиги билан уйғунлаштира оладиган, маданий, маънавий-маърифий савиясини миллий, умуминсоний кадриятлар билан юксалтирадиган, ижтимоий-сиёсий соҳага ҳамда касбий фаолиятга оид билимларни ҳам пухта эгаллаган бўлшларига қаратилган.

Шу боис, таълим мазмунини модернизациялаш ва таълим жараёни иштирокчиларига етарли даражада шарт-шароитлар яратиб бериш мақсадида бутун дунёда, шу қатори юртимизда ҳам қатор қонунлар ва меъёрий ҳужжатлар қабул қилинмоқда ва таълим тизимида қатта ўзгаришлар амалга оширилмоқда.

Педагог – таълим ислохотида асосий ва муҳим рол ўйнаовчи шахсдир. Машхур педагог К.Д.Ушинский айтганидек “Таълим ва тарбия ишида, умуман мактаб ишида ўқитувчи бошидан хатлаб ўтиб, ҳеч нимани яхшилашнинг иложи йўқ”. Шу сабабли Ўзбекистон келажаги бўлган ёшларни тарбиялашда муҳим рол тутган ўқитувчи шахсини касбий педагогик фаолиятга тайёрламай туриб, таълим тизимидаги ислохатлардан натижа қутишимиз ноўриндир.

Шубҳасиз, керакли педагогик фазилатларга эга бўлган, касбий жиҳатдан ривожланган ўқитувчигина ўз навбатида талабаларда касбий педагогик тайёргарликни шакллантириши мумкин. Бундай ўқитувчи нафақат ўз фани доирасида билим ва кўникмаларга эга бўлиши, балки ностандарт таълим вазиятларида самарали қарор қабул қилишга имкон берувчи ривожланган касбий педагогик тайёргарликга ҳам эга бўлиши керак. Олий таълим тизимини ривожланишнинг мазкур тенденциялари бизни технологик таълим йўналиши

бакалавр талабаларининг касбий педагогик фаолиятида ижод қилишга тайёрлигини шакллантириш муаммосига эътибор қаратишга ундайди.

Бўлажак мутахассиснинг касбий фаолиятга тайёрлигини ривожлантириш муаммоси "касбий фаолият" тушунчасининг хусусиятларини таҳлил қилишни талаб этади, чунки турли хил тадқиқотларда биз ушбу ҳодисанинг ўхшаш, аммо бир хил бўлмаган кўплаб изоҳларини кўрамиз, масалан, меҳнат фаолияти, касбий фаолият, педагогик фаолият, ишлаб чиқариш фаолияти ва бошқалар.

Маълумки, бўлажак технология ўқитувчиларини касбий фаолиятга тайёрлаш анча узоқ вақтни талаб этади: тўртдан (бакалавр даражасидан) олти йилгача (магистратура). Аммо айнан шу даврда унинг самарадорлигини белгилайдиган касбий компетенциялар ва келажакдаги меҳнат фаолиятига шахсий муносабат шаклланади. Шу билан бирга, ушбу даврда бўлажак технология ўқитувчиларини касбий фаолиятга тайёрлаш масалалари алоҳида эътиборни тортади. "Касбий фаолият" тушунчасини таҳлил қилар эканмиз, унинг хулосаси шундан иборатки, унинг моҳияти, самарадорлиги, кўп жиҳатдан нафақат олинган касб маҳорати ва кўникмаларига, келажакда амалга оширадиган ишларига шаклланган муносабати – мотивациясига ҳам боғлиқ.

Замонавий ишлаб чиқариш соҳасида юз бераётган ижтимоий-иқтисодий ўзгаришларни ҳисобга олган ҳолда, шуни таъкидлаш керакки, ҳозирги кунда бўлажак технология ўқитувчиларига юқори даражадаги тайёрлик билан ажралиб турувчи янги талаблар мавжуд. Демак, бўлажак технология ўқитувчилари бўлмиш талабалар касбий фаолиятга тайёрлаш тизими тобора кўпроқ уларнинг ҳақиқий касбий фаолиятга тайёргарлигини оширишга йўналтирилган бўлиши керак. Бу ерда келажакдаги касбий фаолиятнинг айтиб ўтилган жиҳатлари билан бир қаторда унинг шахсий ва касбий фазилатларини шакллантириш ва ривожлантириш ишлари амалга оширилиши лозим бўлади. Бўлажак технология ўқитувчилари бўлмиш талабаларни касбий фаолиятга тайёрлашда, уларни тарбиялаш усуллари ва воситалари унинг муваффақиятли фаолият олиб боришлари учун касбий тайёргарлигини оширишда тобора муҳим аҳамият касб этмоқда.

Мазкур муаммони ҳал этишда касбий педагогик тайёргарликни ривожлантириш жараёнида инновацион ҳамкорлик асосида таълимни ташкил этиш бўлажак ўқитувчиларнинг касбий педагогик тайёргарлиги сифатини технологик нуқтаи назардан оширишга: долзарб педагогик муаммоларни ҳал этиш ва ҳақиқий касбий фаолиятга "тузатишлар киритиш" билан боғлиқ хусусиятларни олдиндан кўриш ва баҳолаш, имконберади.

В.А.Адолфнинг⁶ педагогик асарларида таъкидланганидек, касбий тайёргарлик талабалардан талаб қилинадиган касбий функцияларни муваффақиятли бажаришга тайёрлигини ривожлантиришни таъминлайди. Шу билан бирга, муаллиф ҳар бир мутахассисда касбий фаолиятнинг талаб қилинадиган натижасини таъминлайдиган профессионал муҳим фазилатлар мавжудлигига эътибор қаратмоқда. Бўлажак мутахассиснинг касбий фаолиятга тайёрлигини шакллантириш ва ривожлантириш университетда ўқиш жараёнида

⁶ Адолф В.А., Итъева Н.Ф. Инновационная деятельность педагога в процессе его профессионального становления: монография. Красноярск: Поликом, 2007

ташкилий-педагогик шароитларни яратишни назарда тутди. Улар худди А.К.Маркова⁷ ёзганидек, тайёргарликнинг ривожланишини таъминлайдиган педагогик воситалар (мазмун, шакл, усуллар)ни танлаш, ҳар хил фаолият турлари (ўқув ва ишлаб чиқариш амалиётлари, тадқиқотлар ва ҳ.к.)ни ташкил қилишни, касбий фаолиятни танлаш билан боғлиқ бўлганларни ўз ичига олади.

Рус олимлари Л.С.Вигоцкий, С.Л.Рубинштейн, А.Н.Леонтьев томонидан олиб борилган тадқиқотлар шуни кўрсатадики, професоналлик, шахсни касбий шакллантириш нафақат маълум миқдордаги билим, кўникма ва малакаларни ўзлаштиришни, балки ижтимоий хатти-ҳаракатларни тартибга солувчи мураккаб ақлий тизимларни шакллантиришни, ушбу касб вакилларига хос бўлган шахсий, касбий тажрибани тўплаш ва уни янада чуқурлаштириш ва ривожлантириш қобилиятини шакллантиришни ҳам ўз ичига олади.⁸

Мазкур жараёнда бўлажак мутахассисларнинг бевосита иш ўрнида кечаётган касбий фаолият – амалиёт жараёни муҳим рўл ўйнашини таъкидлаш зарур. У ўз навбатида таълим олувчиларга замон тенденцияларидан иҳабдор бўлиш, ўзгаришларга тайёр бўлиш, имкон борича мазкур ўзгаришларни аввалдан башорат қилган ҳолда интеллектуал ва шахсий сифатларни қайта тайёрлаш орқали ўзгартириб/тайёрлаб бориш имконини беради. Кадрларни тайёрлаш жараёнида юқоридаги имкониятларни яратишда таълим муассасаларининг ҳамкор ташкилотлар билан алоқалари муҳим рол ўйнайди

Демак технологик таълим ўқитувчиларини тайёрлашда, касбий-педагогик таълим ҳамкорликни инновацион тарзда замон талаблари бўйича компетенцияга йўналтирилган ҳолда ташкил этиш ва бўлажак ўқитувчиларнинг тайёргарлик даражаси баҳолашда фойдаланиш маълум билимлар ёки кўникмаларга эгаллигини эмас, балки касбий аҳамиятга эга бўлган компетенцияларни шакллантириш усулларини аниқлаш билан боғлиқ муаммоларнинг ҳал этилишини таъминлайди.

Адабиётлар рўйхати

1. Адольф В.А., Ильина Н.Ф. Инновационная деятельность педагога в процессе его профессионального становления: монография. Красноярск: Поликом, 2007

2. Маркова А.К. Психология профессионализма. Москва, 1996.

3. Ломакина, Г.Р. Педагогическая компетентность и компетенция: проблемы терминологии / Г.Р.Ломакина. — Текст : непосредственный // Педагогическое мастерство : материалы I Междунар. науч. конф. (г. Москва, апрель 2012 г.). — Москва: Буки-Веди, 2012. — С. 276-279. — URL: <https://moluch.ru/conf/ped/archive/22/2/190/> (дата обращения: 22.01.2021)

⁷ Маркова А.К. Психология профессионализма. Москва, 1996

⁸ Ломакина, Г.Р. Педагогическая компетентность и компетенция: проблемы терминологии / Г.Р.Ломакина. — Текст : непосредственный // Педагогическое мастерство : материалы I Междунар. науч. конф. (г. Москва, апрель 2012 г.). — Москва: Буки-Веди, 2012. — С. 276-279. — URL: <https://moluch.ru/conf/ped/archive/22/2/190/> (дата обращения: 22.01.2021).

ТЕХНОЛОГИЯ ДАРСЛАРИДА ЭЛЕКТРОТЕХНИКА МАШҒУЛОТЛАРИДА ВЕРТУАЛ ДАСТУРЛАРДАН ФОЙДАЛАНИШ

И.Каримов Қўқон ДПИ профессори в.б., п.ф.и.

И.Улуханов НамДУ доценти, ф.-м.ф.н.

Умумий ўрта таълим мактабларида ўқитиладиган технология ўқув фани ҳам амалий, ҳам техник фанлар қаторига киради. Жумладан V-VII синфларда технология фани ўқув режасига электротехника ишларини ўрганиш машғулоти ҳам киритилган. Ҳозирги пайтда барча соҳаларга ахборот-компьютер технологияларини кенг татбиқ қилиб бораётганлиги, шунингдек мураккаб, катта ҳажмли муаммо ва масалаларни ечиш моделлаштиришнинг компьютер усулларида фойдаланишни тақозо қилмоқда. Шунингдек, замонавий электротехника ва электроника элементлари базаси кундан кунга янгилашиб бориши ва мазкур ўзгаришларга ҳамоҳанг бўлишнинг ўзи ҳам вертуал дастурлардан фойдаланиш зарурлигини кўрсатмоқда. Шу сабабли электротехника ишларига оид амалий машғулотида компьютер вертуал дастурларидан фойдаланиш мақсадга мувофиқ бўлар эди.

Дастурлардан ҳозирги пайтда муомалада оддий компьютер техникаси бўйича чуқур билимларни талаб қилмайдиган Electronics Workbench компьютер дастурини келтириш мумкин. Electronics Workbench компьютер дастури олий ўқув юртида, илмий тадқиқот муассасаларида кенг қўламда ишлатилмоқда, бунга сабаб шуки, у ўзида дунёдаги кўзга кўринган ишлаб чиқувчилар электрон қурилмалари моделларини, катта ҳажмда компонентлар кутубхоналарини мужассамлаштирган. Дастур қиммат турадиган усканалар ўрнини боса оладиган моделларни ярата олади.

Electronics Workbench компьютер дастури ўқув жараёнида кўп масалалар ва тажрибаларни, жумладан рақамли электроника элементларини ишлатишни ўқувчилар томонидан бажарилишига имконият яратиб беради.

(EWB) моделлаштиришнинг электрон тизими тадқиқотчиларнинг реал иш ўрни – лабораторияни имитация қилади. Бу лаборатория реал вақт масштабида ишлайдиган ўлчов асбоблари билан таъминланган. Ўқувчи мустақил равишда электр схемаларини ўзи йигади, созлайди, ўлчов асбобларини улайди ва схеманинг ишлашини кузатади, керакли ўлчаш амалларини бажаради.

Electronics Workbench дастури соддалиги ва яққоллиги уни тезда ўзлаштириб олишга имкон беради. Дастурни ўрганиб олиш учун қуйидаги амалларни бажариш керак:

- дастур ишчи ойнасида қурилма электр схемасини моделлаштириш;
- схемага функционал генератор, вольтметр, амперметр, осциллограф каби асбобларни улаш;
- манба виртуал тугмасини босиб схемани активлаштириш;
- даврий жараён осциллограммаларини ва қурилма амплитуда-частота характеристикаларини таҳлил қилиш ва хотирада сақлаб қолиш (бу маълумотлар тажриба ишларини расмийлаштиришда керак бўлади).

Лаборатория ишлари виртуал ҳисобланади, лекин бу дастурда реал электр схемалари катта даражадаги аниқликда моделлаштирилади, хусусан ўлчанган

натижаларни тезкор равишда қайта ишлаш, иш жараёнида тизим параметрларини кенг миқёсда ўзгартириш имконини берди. Унинг ёрдамида турли хил содда ва мураккаб аналог ва рақамли радио-физик қурилмаларни яратиш ва моделлаштириш мумкин.

(EWB) тамойилларини тушуниш учун:

- Windows операцион тизимини билиш;
- асосий ўлчов асбобларининг ишлаш принципини билиш;
- радиоэлектрон қурилмаларнинг алоҳида элементларини билиш керак.

(EWB) билан ишлаш 3та асосий босқични ўз ичига олади:

- 1) схемани яратиш;
- 2) ўлчов асбобларни танлаш ва ёқиш;
- 3) схемани активлаштириш ва ўрганилаётган жараёнларни тадқиқ қилиш.

Виртуал дастур шахсий компьютерга ўрнатилган бўлиши керак. У тадқиқотчининг реал ўрнини имитация қилади, яъни реал вақт масштабида ишлайдиган ўлчов асбоблари, аналог ва рақамли элементлар билан таъминланган. Дастур билан содда ёки мураккаб аналог ёки рақамли қурилмаларни яратиш, моделлаштириш ва ўрганиш мумкин. Дастурнинг ишлаши учун камида Windows 98/ME/NT/2000/XP операцион тизими талаб этилади.

(EWB) белгиси босилгандан кейин дастурнинг бош ойнаси намоён бўлади. Унинг юқори қисмида буйруқлар менюси ойнаси мавжуд.

Electronics Workbench – бу компьютердаги электрон лаборатория, дастлаб виртуал схеманинг принципаал схемаси яратилади, кейин эса унга дастурда мавжуд бўлган электрон компонентлар ва ўлчаш қурилмалари жойлаштирилади. Дастурнинг компоненталарига пассив элементлар, транзисторлар, бошқариладиган манбалар, бошқариладиган калитлар, гибрид элементлар, индикаторлар, мантикий элементлар, триггерли қурилмалар, рақамли ва аналог элементлар, махсус комбинацион ва кетма-кет схемалар кириди. Актив элементлар моделлари идеал ва реал ҳолатларда ҳам келтирилиши мумкин. Янги элементларни яратиш ҳамда уларни ҳам дастур элементлари қаторига қўшиш имконияти ҳам мавжуд. Дастурда ўлчаш учун жуда ҳам кўп қурилмалар мавжуд: амперметрлар, вольтметрлар, осциллографлар, мультиметрлар, Боде-плоттер, (схемани частота характеристикаси учун график қурувчи), функционал генераторлар, сўзлар генератори, мантикий таҳлиллагичлар ва мантикий ўзлаштиргичлар.

Параметрларнинг қийматларини аниқлаш учун:

- компонентанинг суръати устига сичқончани икки марта босиш билан компонентанинг диалог ойнаси очилади (буни яна Circuit менюсининг Preferences пунктини танлаш билан ҳам амалга ошириш мумкин, лекин бунда элемент ёришиб туриши керак);

- пайдо бўлган ойнада компонентанинг параметрларини қийматини ўзгартиришимиз мумкин;

- янги қийматларни бергандан кейин уни тасдиқлаш учун Accept тугмаси босилади.

Бирлик ўлчамларни ўзгартириш учун:

- сичқончани икки марта босиб компонента хусусиятининг диалог ойнасини чақириш;

- “юқорига кўрсаткич” ва “пастга кўрсаткич”лар ёрдамида бирлик ўлчамларни ўзгартириш;

- бирлик ўлчамни аниқлаб Ассерт тугмасини босиш керак.

Электрон қурилмаларни тадқиқ этишда виртуал лаборатория ишларини яратишда EWB пакетни ишлатиш ўз ичига қуйидаги операцияларни аниқланган кетма-кетликда олиб боради:

1. Тадқиқ қилинадиган схема иш жойида йиғилади ва унда сичқонча ҳамда клавиатурадан фойдаланилади. Ишда фақат клавиатурадан фойдаланиш мумкин эмас.

2. Схемаларни қуришда ва таҳлиллашда қуйидаги операциялар бажарилади:

- компонентани компоненталар кутубхонасидан танлаш;

- объектни танлаш; объектни сўраш; объектдан нусха олиш; объектни

ўчириш;

- схема компоненталарини ўтказгичлар билан улаш;

- компоненталар қийматларини аниқлаш;

- қурилмаларни улаш;

Агар схема мониторинг экранига сиғмаётган бўлса, у ҳолда унинг ихтиёрий қисмини, иш жойининг пастки ва ўнг томонларида жойлашган ўтказиш чизгичлари орқали суриб кўриш мумкин. Схема қурилганидан кейин ва қурилмалар уланиб бўлингандан кейин ойнанинг ўнг юқориги томонидаги қайта улагич ёрдамида ишга туширилади ва таҳлил бошланади.

Иш жараёнида пауза қилиш учун клавиатурадаги F9 тугмасини босиш керак. Ишни яна тиклаш учун эса қайтадан F9 тугмасини босиш етарлидир. Ўнг юқориги қайта улагич қайтадан босилганидан кейин иш умуман тўxtатилади.

Керакли компонентани танлаш компоненталар тўпламидан бажарилади, керакли компоненталарни танлаш учун компоненталар панелидаги бирорта пиктограмма танлаб олиниб, сичқончани чап тугмаси босилади. Бунда компоненталар тўпламида мос компонентанинг сурати ҳосил бўлади. Компонента танлангандан сўнг керакли компонент сичқонча ёрдамида иш столига кўчирилади.

Объектни танлаш сичқонча ёрдамида амалга оширилади (объект сифатида фақат битта компонент ёки компоненталар гуруҳи бўлиши мумкин). Компонентани танлаш учун сичқонча кўрсаткичини керакли компонента устига жойлаштириб ва чап тугмани босиш орқали амалга ошириш мумкин. Компоненталар гуруҳини танлаш учун сичқонча кўрсаткичини тўғри бурчакли юзанинг бурчакларидан бирига олиб борилади ва чап тугма босилиб, рамка керакли ўлчамгача қўзилади, кейин эса тугма қўйиб юборилади. Танланган объект ўз рангини қизилга ўзгартиради. Танланганликни бартараф қилиш учун сичқон билан иш жойининг ихтиёрий нуқтасига босиш керак.

Объектни силжитиш учун уни олдиндан танлаш керак, сўнгра сичқонча ёки клавиатура стрелкалари ёрдамида керакли жойга силжитиш мумкин. Сичқонча ёрдамида силжитишда кўрсаткичини объект устига қўйиб, чап тугма босилади ва объект сурилади. Объектни 90° бурчакларга буриш мумкин. Бунинг учун объект

олдиндан танланган бўлиши керак, сўнгра Circuit менюсидан Rotate буйруғи танланади ёки Ctrl+R босилади. Бунда объект соат стрелкаси бўйича ўнга 90° га бурилади. Компоненталар гуруҳини 90° га буришда бутун гуруҳ эмас, балки ҳар бир компонент алоҳида бурилади.

Объектлардан нусха олиш учун Edit менюсидан Copy буйруғи танланиши ёки Ctrl+C ни босиш билан амалга ошириш мумкин. Нусха олишдан олдин объектни танлаш керак. Буйруқ бажарилгандан кейин танланган объект буферга тушади. Буферда мавжуд объектни иш жойига қўйишни Edit менюсидан Paste буйруғини ёки Ctrl+V ни босиш орқали амалга ошириш мумкин. Буйруқ бажарилгандан сўнг буфердаги объект иш жойида пайдо бўлади ва ранг билан белланган бўлади.

Объектни ўчириш Cut ва Delete буйруқлари билан амалга оширилади. Фарқ шундаки, Cut буйруғи бажарилганда объект ўчирилиб буферга тушади, уни кейинроқ яна иш жойига қайтариб қўйиш мумкин, лекин Delete буйруғи бажарилганда объект умуман ўчиб кетади. Ўчиришдан олдин ҳам объект танланган бўлиши керак.

Компонентани ўтказгич билан улаш учун сичқонча кўрсаткичини компонента чиқишига олиб борилади. Бунда компонента чиқишида катта қора нуқта пайдо бўлади. Сичқончани чап тугмасини босиб, уни кўрсаткичини уни уланиши керак бўлган компонента чиқишига олиб борилади ва сичқонча тугмаси қўйиб юборилади. Компонента чиқишлари ўтказгич билан уланади. Electronics Workbench да барча ўтказгичлар қора рангда бўлади лекин уни рангини ўзгартириш мумкин. Бунинг учун ўтказгич устидан икки марта босиш керак ва расмда келтирилган ойна очилади ва ойнада сичқонча билан керакли ранг танланади.

Компоненталар параметрларини қийматларини ўрнатиш компонента хусусиятлари ойнасидан амалга оширилади, бу ойна компонентанинг сурати устидан икки марта босиш билан ёки Circuite меню Value буйруғини танлаш орқали амалга оширилади (бунда компонент танланган бўлиши керак). Диалог ойнасида клавиатура ва сичқонча ёрдамида керакли қийматларни киритиш керак, кейин мос равишда берилган қийматни қабул қилиш ёки қайтариш учун Assерт ёки Cancel ни босиш керак бўлади. Компонента моделини танлаш Circuit менюсини Model буйруғини танлаш ёки компонента устига икки марта босиш билан очиладиган компонента моделини танлайдиган диалог ойнасида бажарилади. Диалог ойнада компонента моделини танлаб уни параметрларини қийматларини қайта таҳлиллаш мумкин. Модель параметрлари қийматларини таҳлиллаш учун Edit тугмаси босилади. Бунда модель хусусиятларини белгиловчи ойна очилади, бу ойнада сичқонча ва клавиатура ёрдамида параметрлар қийматларини ўзгартириш мумкин. Киритилган параметр қийматларини Assерт тугмасини босиш билан сақлаб қўйиш мумкин. Бундан сўнг олдинги ойнага қайтиш амалга оширилади.

Схема қурилгандан кейин ҳар бир компонентага позицион белги ёки оддий ном бериш мумкин. Бунда компонента олдиндан танланади ва Circuit менюсидаги Label буйруғи орқали ёки Ctrl+L ни босиш орқали амалга ошириш

мумкин. Бундан кейин диалог ойна очилади ва бу ойнада компонент белгиси ёки номи киритилиши керак ва Enter тугмаси босилиши керак.

Electronics Workbench да етгита қурилма мавжуд, булар схемада турли таъсирларини ва таҳлилларини ҳосил қилади. Бу қурилмалар асбоблар панелида пиктограммалар кўринишида жойлашган. Қурилмани схемага улаш учун сичқонча ёрдамида қурилмани иш жойига кўчириши керак ва қурилмани чиқишларини ўрганилаётган нуқталарга улаш зарур. Баъзи қурилмаларни ерга улаш (заземление) керак, акс ҳолда уларнинг кўрсатишлари хатоликка олиб келиши мумкин.

Қурилмани кенгайтирилган кўриниши ойнада чиқарилади, у қурилмани кичрайтирилган ҳолати устига олиб бориб, сичқончани икки марта босиш орқали ёки Circuit менюсини Zoom буйруғини бажариш орқали чиқарилиши мумкин. Бу ойнани ёпиш учун эса чап юқоридаги менюни босганда пайдо бўладиган Close буйруғи орқали амалга ошириш мумкин. Бундан ташқари Alt+F4 комбинациясини ҳам ишлатиш мумкин.

Схема қуриб бўлингандан кейин унга қўшимча компоненталарни қўйиш мумкин. Бунинг учун сичқонча ёрдамида компонентани схемани керакли нуқтасига олиб борилади ва уни ўтказгич устига олиб борилиб, сичқонча тугмаси қўйиб юборилади.

EWB пакетининг энг асосий устунликларидан бири бу қурилманинг ҳар хил ҳолатлардаги моделини ва ўлчаш услубларини тадқиқ қилишга имкон бериши ҳисобланади. Мисол учун сизни қизиқтираётган нуқтада кучланиш ва тоқларни ўлчайдиган универсал қурилма мультиметр (кўп ҳолларда тестер дейишга ҳам ўрганиб қолганмиз) ёки вольтметр ва амперметр ва ниҳоят, осциллограф ёрдамида бир вақтнинг ўзига уларнинг шаклларини кузатиш мумкин.

Схема тайёр бўлгандан кейин унинг тавсифи тузилади (Windows > Description танланади ёки Ctrl+D тугмаси босилади).

Шундай қилиб, EWB дастурий пакетини ишлатиш жараёнида баъзи бир устунликларни ҳисобга олиш зарур, бу устунликлар ўз навбатида реал тадқиқот стендларининг камчиликларини бартараф этади.

Фойдаланилган адабиёт:

1. Данилов И.А. Общая электроника с основами электроники. М., 2000.
2. Ушакова В.Н. Электротехника и электроника. М.: Радио и связь, 1997.

JAHON MOLIYAVIY-IQTISODIY INQIROZI SHAROITIDA SOTSILOGIYA, POLITALOGIYA VA TEXNIKA FANLARINI O'QITISHNING AHAMIYATI.

**U.B.Husanov Samarqand shahar 14-maktab Iqtisodiyot fani o'qituvchisi
U.B.Husanov Samarqand Davlat Universiteti talabasi**

Annotatsiya : Mazkur maqolamizda tenika fanlari iqtisodiy –ijtimoiy hayotimizda zarurligi, uni fan sifatida o'qitish kerakligi haqida so'z boradi. Shu bilan birga texnika fanlari qatorida sotsiologiya va politalogiya ham chuqur o'rgatish kerak ekanligi muhim ahamiyat kasb etadi.

Kalit so'zlar: Falsafa, sotsiologiya, inqiroz, globallashuv, politologiya, shok terapiya, xalqaro hamjamiyat, texnika, texnologiya.

Аннотация: В данной статье говорится о том, что технические науки необходимы в нашей экономической и социальной жизни, их необходимо преподавать как науку. В то же время важно отметить, что социология и политология должны преподаваться глубоко, а также технические науки.

Ключевые слова: философия, социология, кризис, глобализация, политология, шоковая терапия, международное сообщество, техника, технология.

Annotation: in this article we will talk about the necessity of the science of tennis in our economic and social life, the need to teach it as a science. At the same time, among the technical sciences, it is important that sociology and politology should also be taught in depth.

Keywords: Philosophy, Sociology, crisis, globalism, politology, shock therapy, international community, technique, technology.

2008 yilda boshlangan jahon moliyaviy- iqtisodiy inqirozi jahon hamjamiyatini yana bir sinovdan o'tkazishni boshladi. Shu vaqtgacha taraqqiy qilgan davlatlarda boshlanib keyinchalik boshqa davlatlarga taraqlalib ketadigan iqtisodiy inqirozda asosan ortiqcha tovar ishlab chiqarish natijasida bo'lib o'tgan bo'lsa, bu galgi moliyaviy- iqtisodiy inqiroz moliya bank tizimida boshlandi. Inqirozning sabachisi bank tizimidagi likvidlik, (to'lov qobiliyatining tushib ketishi) yani soha mutaxassislarinig ma'lumotiga ko'ra dunyoda 60-62 mlrd AQSh dollariga teng mahsulot ishlab chiqarilgan bo'lsa, to'lov vositalarining miqdori 600 mlrd AQSh dollari miqdoriga yetgan. Ko'rishimiz mumkinki, bank tizimida juda katta nomutanosiblik paydo bo'lan. Bu borada Islom Karimov shunday degan, "2008 yilda boshlangan va bugungi kunda ko'lami tobora kengayib va chuqurlashib borayotgan jahon moliyaviy- iqtisodiy inqiroziga baho berar ekan, ko'pgina xalqaro ekspert va mutaxassislar bu inqirozning sabablari va yanada avj olishi bilan bog'liq prognozlarda javoblardan ko'ra ko'proq savollarga duch kelishmoqda." O'zbekiston butun xalqaro jamiyatning va jahon moliyaviy iqtisodiy bozorining ajralmas bir qismi hisoblanar ekan, jahondagi moliyaviy- iqtisodiy inqirozlar mamlakatimizga o'z ta'sirini o'tkazmasdan qolmaydi. Bu borada Yurtboshimizning fikrlarini keltirish o'rinli deb xisoblaymiz: "... tobora chuqurlashib borayotgan jahon moliyaviy inqirozi mamlaktimizga ta'sir ko'rsatmaydi, bizni chetlab o'tadi, degan xulosa chiqarmaslik kerak. masalani bunday tushunish o'ta soddatlik, aytish mumkinki, kechirib bo'lmas xato bo'lur edi" Jamiyat hayotida shunday davrlar bo'ladiki, o'z umrini yashab bo'lgan eski tuzum qonun-qoidalarini yangicha asosda o'zgartirish, barcha sohalarida keng ko'lamli islohotlarni amalga oshirish zarurati eng muhim ehtiyoj, kerak bo'lsa, hayotmamt masalasi sifatida kun tartibiga chiqadi. Biz o'z mustaqilligimizni qo'lga kiritib, yangi taraqqiyot yo'liga qadam qo'yganimizdan so'ng xalqimizning xohish-irodasi. asriy orzu-intilishlariga tayangan holda, sho'ro davridan og'ir meros bo'lib qolgan ma'muriy-buyruqbozlik tizimini tubdan isloh qilish, uning o'mida mohiyat e'tibori bilan butunlay yangi — erkin bozor munosabatlariga asoslangan huquqiy davlat, demokratik jamiyat barpo etishga azm-u qaror qildik.

Keng miqyosdagi o'rganish va har tomonlama izlanishlar natijasida biz bugungi kunda butun dunyoda o'zbek modeli sifatida tan olingan taraqqiyot modelini ishlab chiqdik. Bu modelning asosiy tamoyillari - ya'ni, iqtisodning siyosatdan xoli ekani, davlatning bosh islohotchi bo'lishi, qonun ustuvorligi, kuchli ijtimoiy siyosat, islohotlarni tadrijiy asosda bosqichma-bosqich amalga oshirish prinsiplari barchamizga yaxshi ayon. Albatta, murakkab o'tish davrida boshqa ko'pgina muhim vazifalar qatori, xalqimizning bugungi va ertangi hayoti, uning ma'naviy olamiga zarar yetishiga, ijtimoiy adolat tamoyillarining buzilishiga, jumladan, aholining bir qismi o'ta boyib, aksariyati o'ta qashshoqlikka yuz tutishiga yo'l qo'yimaslik masalasi ham doimo diqqat-e'tiborimiz markazida turdi.

Bugungi kunda ana shu jarayonlarning mohiyatida islohot — islohot uchun emas, avvalo inson uchun, uning farovon hayoti uchun xizmat qilishi kerak, degan maqsad mujassam ekanini va uning amaliy ifodasini barcha sohalarida ko'rish, kuzatish qiyin emas. Agarki biz mustaqillikka erishganimizdan so'ng bosqichma-bosqich rivojlanish yo'lini emas, balki «shok terapiyasi» deb nom olgan inqilobiy sakrash yo'lini tanlasak, eng qiyin vaziyatlarda aksariyat aholimiz qanday ahvolga tushib qolgan bo'lar edi? Hech shubhasiz, stixiyali tarzda yuz beradigan shiddatli o'zgarishlar to'fonida odamlarning moddiy turmush sharoiti keskin yomonlashib, ularning hayot tarzi, axloqiy qadriyatlari, milliy-ma'naviy qiyofasi butunlay izdan chiqib ketishi hech gap emas edi. Bir so'z bilan aytganda, bunday biryoqlama siyosat hech kutilmagan oqibatlarga, o'rmini yuz yillarda ham to'ldirib, qoplab bo'lmaydigan og'ir yo'qotishlarga olib kelishi muqarrar edi. Shuning uchun ham biz chetdan har qancha taklif va tavsiyalar, hatto talablar bo'lmasin, hech qachon inqilobiy sakrashlar yo'lidan bormadik. Yurtimizdagi bugungi tinch va osoyishta, bunyodkor hayot, barqaror taraqqiyot bunday yondashuvning to'g'ri bo'lganini tasdiqlab turibdi. Islohotlarni amalga oshirishda ma'naviyat va iqtisodiyot bir-birini inkor etmaydi, aksincha, bir-birini quvvatlab, o'zaro ta'sirlanib, rivojlanib boradi, degan qoidani o'zimiz uchun dasturilamal sifatida belgilab oldik.

Ma'lumki, mustabid tuzum davridagi iqtisodiyot biryoqlama rivojlangan. ma'muriy-buyruqbozlik usuliga asoslangan bo'lib, xalqning ma'naviy qarashlari va intilishlaridan yiroq edi. Ana shunday mushkul bir vaziyatda davlatning islohotchilik rolini tan olmaslik, bu masalani o'zibo'larchilik holatiga tashlab qo'yish — eski tizimdan qolgan nochor va xasta iqtisodiyot o'z-o'zidan erkin bozor iqtisodiyotiga, sovet jamiyati esa demokratik jamiyatga aylanib qoladi, deb xomxayol qilish bilan barobar edi. Ba'zi birovlarining hadiksirab, erkin bozor sharoitida ma'naviy-axloqiy qadriyatlarning qimmatini tushib ketadi, madaniyat ikkinchi darajali narsaga aylanib qoladi, degan xavotirlari o'rinsiz ekani O'zbekistondagi bugungi o'zgarishlar misolida yana bir bor yaqqol ayon bo'lmoqda. Hozirgi kunda mamlakatimizda davlat budjetining 50 foizdan ziyodi ijtimoiy sohaga yo'naltirilgani ham buni tasdiqlaydi. Shuningdek, hozirgi jahon moliyaviy- iqtisodiy inqirozning 2009- 2010 yillarda ham davom etishini hisobga olib, mamlakatimizda jahon iqtisodiy inqirozning salbiy oqibatlarini bartaraf etish bo'yicha 2009- 2012 yillarga mo'ljallab qabul qilingan Inqirozga qarshi choralar dasturi O'zbekistonni 2009 yilda ijtimoiy iqtisodiy rivojlantirishning eng ustivor yo'nalishi etib belgilanishi muhim ahamiyatga molikdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

- 1 O'zbekiston Respublikasining Konstitusiyasi. – T.: O'zbekiston, 2009. 40 b.
- 2 "Ta'lim to'g'risida"gi qonun. - T.: O'zbekiston, 2001, 3-11b.
- 3 I.A.Karimov. O'zbekistonning 16 yillik mustaqil taraqqiyot yo'li. T.: "O'zbekiston", 2007, 57-bet.
- 4 Islom Karimov. Yuksak ma'naviyat- yengilmas kuch.T. "Ma'naviyat". 2008. - 176 b.
- 5 Vatanimizning bosqichma- bosqich va baqaror rivojlanishini ta'minlash – bizning oliy maqsadimiz. Prezident I.A.Karimovning O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi qabul qilinganligining 16 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi ma'ruzasi. // Xalq so'zi № 237 (4647), 2008 yil 6 dekabr

3D-ПРИНТЕРЛАРИ АСОСИДА ЎҚУВЧИЛАРНИНГ ИЖОДКОРЛИК ҚОБИЛИЯТЛАРИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ

О.О.Каримов Жиззах Давлат педагогика институти Технологик таълим кафедраси ўқитувчиси

Б.М.Норбоев Жиззах Давлат педагогика институти Технологик таълим йўналиши талабаси

Аннотация: Ушбу мақолада умумий ўрта таълим мактабларида технология фанига оид амалий машғулотларда 3D принтерлардан фойдаланиб ўқувчилар ижодкорлик қобилиятини ривожлантириш ҳақидаги фикрлар баён қилинади.

Калит сўзлар: замонавий технология, технология, 3D принтер, робот, робототехника, ишлаб чиқариш, ижодкорлик, қобилият, диққат, идрок

Аннотаций: В этой статье изложены идеи для развития творческих способностей учащихся с использованием 3D-принтеров в технологическом образовании в средних школах.

Ключевые слова: современные технологии, технология, 3D принтер, робот, робототехника, производство, креативность, умение, фокус, восприятие

Abstracts: This article outlines ideas for developing students' creative abilities using 3D printers in technology education in secondary schools.

Keywords: modern technology, technology, 3D printer, robot, robotics, manufacturing, creativity, ability, focus, perception

Кадрлар тайёрлаш миллий дастурининг таълимни модернизациялаш буйича учинчи босқичида амалга ошириляётган тадбирлар ўқувчиларнинг ижодкорлик қобилиятларини ривожлантиришга катта имкониятлар яратмоқда. Жамиятимиз бугунги кунда ўзига хос ноанъанавий вазифалар қўя оладиган ҳамда уларни ҳал қилишнинг янги йўлларини қидириб топишга интилувчи ижодкор шахсни тарбиялаш зарурлигини ижтимоий буюртма сифатида илгари сурмоқда. Ўз фаолияти мақсадини мустақил белгилаш, ижодкор шахс характерининг ўзига хос жиҳатларидан бири бўлиб, у ўз навбатида аниқ техник тизим, алоҳида шахс, меҳнат жамоаси ёки умуман олганда жамиятнинг эҳтиёжларини англаш асосида амалга ошади. Ижодкорлик фаолиятига ўргатиш учун ўқувчида билим олишга кизиқиш уйғота олиш муҳим аҳамият касб этади.

Фан ўқитувчиси ўқувчилар олдида турган вазифаларни ечишга ижодий ёндашиш кўникмаларини эгаллаш уларга қандай қўшимча имкониятлар беришини тушунтира олиши керак. Қуйида уларнинг баъзиларини келтириб ўтамиз:

✓ жамиятдаги янги фаолият турларига, янги жамоага тез мослашиб кета олиш;

✓ ижодкорлик инсон ҳаётининг маъносига, унинг ўзини намоён қилиш усулига айланиши мумкин;

✓ ижодий ёндашув техник ва ишлаб чиқариш масалаларини ечиш жараёнида, шунингдек, оилада, жамоада, жамиятда юзага келувчи қарама-қаршиликларни муваффақиятли ҳал қилиш имконини беради;

✓ ижодкорлик фаолияти жараёнида шахсда меҳнатсеварлик, максадга эришишдаги қатъиятлик, танқидни тўғри қабул қила олиш каби энг олий жаноб шахсий сифатлар таркиб топади;

✓ одатда, техник ижодкорлик жараёнида ақлий ва жисмоний меҳнатнинг ўзаро уйғунлашувига эришилади.

Ушбу қайд этилган вазифалар инсонларнинг аниқ олинган ижтимоий ёки касбий гуруҳига, аниқ бир олинган шахс ёки вазиятга нисбатан олинганда янада кенгайтирилиши мумкин. Шу сабабли, ҳар бир ўқувчи ўз фаолиятини доимий равишда танқидий таҳлил қилиб бориши, ундаги ижодий вазифалар салмоғини оширишга алоҳида эътибор қаратмоғи лозим. Шахснинг ривожланиш босқичлари узлуксиз таълимнинг мувофиқ қисмларини яратиб, талаб ва шароитларни, таълимни амалга оширилишидаги аниқ мақсадларни аниқлайди. Ҳар бир инсон ўзининг ҳаётий тажрибаси, реал имкониятлари, билим олиш эҳтиёжларига мувофиқ, психофизиологик ва шахсиятнинг ўзига хос хусусиятларини жамиятнинг эҳтиёжларига мослаштириш ҳуқуқига эга бўлиши таъминланади. Ижодкорликка бўлган эҳтиёж психофизиологик жиҳатдан қаралганда, ўз ривожланишида бир нечта босқичларда амалга ошади. Булардан биринчиси майл–эҳтиёжнинг энг содда шакли бўлиб, инсон томонидан онгли бошқарилади. Иккинчи, нисбатан юқорирок ривожланиш босқичи бўлган ҳавас ҳам инсон томонидан онгли бошқарилиб, у шахснинг маълум буюм ёки ҳодисага нисбатан муносабатлари мажмуасини ифодалайди. Учинчи, энг мураккаб босқич бўлган қизиқишхоҳиш ва у билан боғлиқ бўлган тушунчалар асосида юзага келади. Қизиқиш ҳаётдаги ташқи таъсирлар, шахс фаолияти ҳамда таълим-тарбия жараёни таъсирида шаклланиб боради. Бу ҳолатлар психологик омиллар – диққат, идрок, тушунча, хотира, фикрлаш, сезги ва ирода хислатларига сезиларли таъсир кўрсатиб, шахснинг шаклланишида алоҳида муҳим аҳамият касб этади.

Инсонларнинг ижодкорлиги, талаб ва эҳтиёжларидан келиб чиқиб, сўнгги йилларда фан-техника жадал ривожланиб, шундай ихтиролар, инновацион ишланмалар, замонавий технологиялар яратилдики, улар ҳаётимиздан чуқур ўрин олиб, яшаш сифатини бутунлай янги босқичга олиб чиқди. Замонавий технологиялар кундалик ҳаётимизнинг ажралмас қисмига айланди. Бинобарин, авваллари ҳаёлимизга ҳам келмаган нарсалар бугун ҳақиқатга айланиб, жамиятимизнинг барча жабҳасида ривожланишга йўл очмоқда. Сир эмас, ҳозир ҳаётимизни мунтазам равишда такомиллаштириб борилаётган компютер ва

интернетсиз тасаввур этиш мушкул. Яқин-яқингача одамлар ишхонада замонавий компьютерларда ишлашни орзу қилган бўлса, бугун нафақат офисларда, айти пайтда ноутбуклар, нетбуклар, планшетлар ва “гаджет”лар, деб аталадиган бошқа қурилмалар ҳар бир хонадондан ўрин олди. Ҳозирги давр одамлари компьютерлару-ноутбукларга, смартфонларга боғланиб қолган. Чунки ушбу қурилмалар шунчаки мулоқот воситаси эмас, балки кўп қиррали вазибаларни бажармоқда. Улар орқали кўнғирок қилиш, хабар ёки расм юбориш, қабул қилиш, онлайн харидни амалга ошириш, янгиликлар билан танишиш, керакли маълумотларни олиш, фото ёки видео олиш, томоша қилиш, мусиқа эшитиш, турли ўйинларни ўйнаш мумкин. Бугунги кунда дунёда шундай ихтиролар борки, улар ҳали ҳам ҳаётга кенг татбиқ этилмаган бўлса-да, бир кун келиб, смартфонлар ҳамда компьютерлар сингари одамлар турмушининг ажралмас қисмига айланиб кетмаслигига ҳеч ким қафолат беролмайди. Ана шундай кашфиётлардан бири сўнг йилларда оммавий ахборот воситаларида тилга олинаётган ЗД-принтерлардир. Гап шундаки, бизда “Принтерлар фақатгина матн ва суратни чоп қилади холос”. деган фикр шаклланиб қолган. Аммо ЗД-принтерларнинг имкониятлари жуда кенг бўлиб, яқин келажакда мазкур технология жамият ҳаётининг барча жабҳасида қўлланилади. Унинг афзаллиги шундаки, зарур материаллар ҳамда дастурий таъминот ёрдамида ўй қуриш, протез ва имплантатлар тайёрлаш, кимматбаҳо эсдалик буюмлар, тақинчоқлар ишлаб чиқариш мумкин. Масалан, Хитой, АҚШ, Буюк Британия, Нидерландияда ушбу йўналишда амалий натижаларга эришилган. Яъни ЗД-принтерлар тураржойлар ҳамда уларнинг қисмларини — конструкциялари, ички деворлари, турли шаклдаги ҳимоя тўсиқларини ҳеч қандай қолипларсиз “чоп этмоқда”. Хусусан, Хитойда узунлиги 150 метр, кенглиги 10 метр бўлган ЗД-принтер яратилди. Ушбу қурилма бир неча соат ичида баландлиги олти метр бўлган бинони “барпо қилиши мумкин”. Бунда у “сиёҳ” ўрнида кучайтирилган шиша толали цементдан фойдаланади. Шундай бўлса-да, ҳозирча бу усулда йирик иншоотларни қуриш синов тариқасида олиб борилмоқда. Ландшафт дизайни ва аҳоли пунктларини ободонлаштириш учун кичик архитектура шаклларини тайёрлашда ЗД-принтерлар имкониятидан тобора жадал фойдаланилмоқда. Ўзбекистонда ЗД-чоп этишни робототехника деталлари тайёрлашда, ўйинчоқ ва сувенирлар, қўймалар учун деталлар, заргарлик буюмлари учун шакллар ясашда фойдаланиш мумкин. Тадбиркорларнинг ЗД-принтерларга кичик бизнес учун катта қизиқиш билдираётгани диққатга сазовор. Дейлик, мазкур қурилма ёрдамида ҳар қандай уч ҳажмли суратларни айнан ўзидек кўпайтириш мумкин. Машҳур футболчилар, кино юлдузлари, мултфилмлар қаҳрамонларининг шаклини ясаш орқали маркетинг лойиҳаларини рўёбга чиқариш имконияти бор. Қурилма ёрдамида эсдалик учун ўз яқинларининг қиёфаларини шакллантирса бўлади. Ушбу технологияга, айниқса, сифатли ва ноёб тақинчоқлар ҳамда аксессуар ишлаб чиқарувчилар катта қизиқиш билан қараяпти. Қайд этиш керакки, энг сўнгги русумдаги ЗД-принтерлар “сиёҳ” сифатида нафақат пластик материални, айти пайтда олтин, кумуш ва платиналарни ҳам ишлата олади. Буюртмачи эса тақинчоқнинг шакли ва инсонларнинг таъбиға қараб танлаши мумкин.

Ҳозирги пайтда умумий ўрта таълим мактабаларига технология фани ўқитувчиларини тайёрлаб бериш учун педагогика олий таълим муассасаларида Технологик таълим йўналиши бўйича педагог кадрлар тайёрланапти. Аввало ҳозирги кун талабларига жавоб берадиган мутахассислар тайёрлаш учун замонавий техника ва технологияларни ўргатиш талаб этилади. Айтилганлардан келиб чиқиб, ушбу мақоламда ҳозирги кунда ривожланган мамлакатлар кенг фойдаланиб келаётган 3Д-принтерларини ёш авлодга ўргатиш кераклиги ҳақида тавсиялар ҳақида сўз юритилади. Бу технология орқали умумий ўрта таълим мактабларининг Технология дарсларида ўқувчиларга полимерларга ишлов бериш технологияси бўйича амалий билим, кўникмаларни шакллантириш мумкин. Мисол учун шашка, шахмат доналарини яшаш, ҳар хил эсдалик совғалар учун ўйинчоқлар, макетлар, моделлар яшаш имкониятлари бор. Роботлар, ҳаракатланувчи қурилмаларнинг қисмларини тайёрлашда кенг фойдаланиш имкониятлари мавжуд. 3Д-принтерда чоп қилиш қилиш мумкин бўлган деталлнинг схемаси, расмини аввал компьютернинг Autodesk компаниясининг AutoCAD ёки бирор бир шунга ўхшаш дастури орқали чизиб олинади ва 3Д форматга ўтказилиб кейин принтерга буйруқ берилади. Деталлнинг ҳажмига қараб маълум вақт уни яшашга кетади.(1-расм.)



1-расм.

Ҳозирги глобаллашув жараёнида робототехникага бўлган эҳтиёж жуда юқори бўлиб, келажагимиз бўлган ёшларга бунинг сир-асрорларини ўргатиш технология фани ўқитувчисининг вазифаси ҳисобланади. Умумий ўрта таълимнинг технология фанидан Давлат таълим стандарти ва ўқув дастурида таъкидланган.

Ўқувчиларнинг техник ижодкорлик қобилиятларини ривожлантириш учун замон талаби бўлган 3Д-принтерларидан фойдаланишни ўргатиш яхши самара беради. 3Д-принтер имкониятлари ҳақидаги маълумотларимга таяниб шуни айтишимиз мумкинки, ундан фойдаланиш 3Д-принтернинг техник имконияти ва фойдаланувчининг ижодкорлигига боғлиқдир.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. Ў.Қ.Толипов, Ш.С.Шарипов “Ўқувчи шахси ижодкорлик фаолиятини ривожлантиришнинг педагогик асослари” Т. “фан” нашриёти 2012-87 б.
2. Муслимов Н.А., Шарипов Ш.С., Қўйсинов О.А. Меҳнат таълими ўқитиш методикаси, касб танлашга йўллаш. Дарслик. – Т.: ТДПУ, 2014. – 355 б.
3. Технология.уз
4. www.технология.рп

TEXNOLOGIYA DARSLARIDA 3D PRINTERLARDAN FOYDALANISHNI JORIY QILISH MASALALARI

B.M.Norboyev Jizzax davlat pedagogika instituti talabasi

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev Oliy Majlisga murojaatida taraqqiyotga erishish uchun raqamli bilimlar va zamonaviy axborot texnologiyalarini egallashimiz zarur va shart ekanligini ta'kidlagan edi. Zamonaviy bilim va ko'nikmalarga ega, mamlakatning munosib kelajagi uchun javobgarlikni o'z zimmasiga ola biladigan barkamol, maqsadga intiluvchan va serg'ayrat yoshlarni tarbiyalash mamlakatni barqaror va ildam rivojlantirishning eng muhim shartidir.

Umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'qitilishi kerak bo'lgan texnologiya fani o'qituvchi rahbarligida o'quvchilar tomonidan bajariladigan aqliy va jismoniy harakatlar jarayonidan iborat bo'lgan, yakuniy natijada ularning texnologiya qurollari va vositalari hamda ishlov berish jarayonlari haqidagi bilimlarini, jamiyatning ma'lum sohasidagi ishlab chiqarish texnologiyasini bajarish uchun zaruriy amaliy ko'nikma va malakalarini egallashlariga, ongli ravishda va shaxs farovonligi yo'lida mehnat faoliyatiga qo'shilishlariga imkon beruvchi shaxsiy sifatlarini va tafakkurlarini rivojlantirishga qaratilgan o'quv fanidir. Texnologiya fani bo'yicha qabul qilingan Davlat ta'lim standarti umumiy o'rta ta'lim maktablarida texnologiya faning tayanch mazmuni hamda bitiruvchilarning mehnat tarbiyasi va kasb tanlashga tayyorgarlik darajasini belgilovchi me'yorlar majmuasi bo'lib, u davlatning ta'lim sohasidagi me'yoriy hujjati hisoblanadi. Davlat ta'lim standartida belgilab qo'yilgan ko'rsatkichlarga erishish davlat tomonidan talab qilinadi va o'z navbatida bu ko'rsatkichlarga erishish uchun zarur bo'lgan ta'lim olish imkoniyatlari ta'minlanadi. Umumiy o'rta ta'lim maktablarining o'quv rejasida texnologiya ta'limi o'quv faniga 1-4 sinflarida haftasiga bir soatdan, 5-7 sinflarida haftasiga ikki soatdan va 8-9 sinflarida haftasiga bir soatdan, hammasi bo'lib 407 soat vaqt ajratilgan.

O'quvchilarni mehnatga tayyorlash jarayonida kasb-hunarga yo'naltirishni yanada kuchaytirish, ularni zamonaviy ishlab chiqarish asoslari, yog'ochga, metallga, polimerga va gazlamaga ishlov berish texnologiyasi bo'yicha yetarli bilim, konikma va malakalar shakllantiriladi. Shu o'rinda takidlash kerakki, texnologiya darslarida zamonaviy texnika va texnologiyalardan foydalanish muhim ahamiyatga ega. So'nggi yillarda fan-texnika jadal rivojlanib, shunday ixtirolar, innovatsion ishlanmalar, zamonaviy texnologiyalar yaratildiki, ular hayotimizdan chuqur o'rin olib, yashash sifatini butunlay yangi bosqichga olib chiqdi. Zamonaviy texnologiyalar kundalik hayotimizning ajralmas qismiga aylandi. Binobarin, avvallari xayolimizga ham kelmagan narsalar bugun haqiqatga aylanib, jamiyatimizning barcha jabhasida rivojlanishga yo'l ochmoqda. Uzoqqa borishning hojati yo'q. 1961 yili 12 aprel kuni Yuriy Gagarin fazoga uchgan edi. Bu insoniyat tarixida misli ko'rilmagan voqea bo'lgandi o'shanda. Bugun esa xalqaro kosmik kemada fazogirlar jamoasi navbatmanavbat koinotga safar uyushtirishi oddiy holga aylanib ulgurdi. To'g'ri, ularning ismini hamma ham yoddan aytib bera olmasligi mumkin, biroq, eng asosiysi, fazoni o'zlashtirishda yangidan-yangi yutuqlar qo'lga kiritilmoqda. Sir emas, hozir

hayotimizni muntazam ravishda takomillashtirib borilayotgan kompyuter va internetsiz tasavvur etish mushkul. Yaqin-yaqingacha odamlar ishxonada zamonaviy kompyuterlarda ishlashni orzu qilgan bo'lsa, bugun nafaqat ofislarda, ayni paytda noutbuklar, netbuklar, planshetlar va "gadjet"lar, deb ataladigan boshqa qurilmalar har bir xonadondan o'rin oldi. Bugungi kunda dunyoda shunday ixtirolar borki, ular hali ham hayotga keng tatbiq etilmagan bo'lsa-da, bir kun kelib, smartfonlar hamda kompyuterlar singari odamlar turmushining ajralmas qismiga aylanib ketmasligiga hech kim kafolat berolmaydi. Ana shunday kashfiyotlardan biri shu kunlarda ommaviy axborot vositalarida bot-bot tilga olinayotgan 3D-printerlardir.

Hozirgi kundagi eng ilg'or texnologiyalardan deb tan olingan 3D printerlarni yoshlarga o'rgatish, undan mukkamal darajada foydalana olishini taminlash zarur. Shunday 3D printerlar ishlab chiqarilayaptiki, har qanday kasb egasi undan foydalanishga ehtiyoj sezadi. Bunga bir nechta misollar keltirishimiz mumkin. Har qanday maishiy xizmat, ta'lim, ishlab chiqarish, qurulish, tibbiyot, robototexnika sohalarida keng foydalanish mumkin. Kelajak kasblarining ko'pchiligida 3D printerlarsiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Hattoki kundalik turmushimizda ham juda asqotadi. Masalan oddiy maishiy texnikalarimizning plasmas qismlari yaroqsiz holga kelganda uni 3D printer orqali chop etish va tamirtalab jihozimizni shay holatga keltirishimiz mumkin. 3D printer - har xil materiallarning uch o'lchovli modellarini chop etishga imkon beruvchi periferik qurilma.

An'anaviy printerlardan farqli o'laroq, 3D analoglari kompyuter modellari yordamida 3D tasvirlarni yaratadi. Ular ob'ekt qatlamini qatlam bo'yicha bosib chiqarishadi. 3D printerdan quydagi yo'nalishlarda foydalanish mumkin:

Muhandislik uchun bu vaqtni tejash va ob'ektni rivojlanish bosqichida o'zgartirish kiritish uchun;

3D printerlar yordamida materiallardan tayyor qismlarni ishlab chiqarish uchun;

Uy sharoitida deyarli har qanday buyumni ishlab chiqarish uchun;

Protezlar va implantlar yaratish uchun;

Qurol qismlarini yaratish uchun;

Va hatto binolarni qurish uchun:

3D printer uchun asosiy material plastikdir. Kichik hajmdagi ishlab chiqarish uchun bu eng yaxshi materialdir. Biror narsani 3D printerda chop etish uchun buyumning uch o'lchovli modeli kerak bo'ladi. Model chizish uchun maxsus dasturlardan foydalaniladi. Kompas 3D, Blender 3D, 3D max, Soldworks va shunga o'xshash kompyuter dasturlaridan foydalanish mumkin.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, umumiy o'rta ta'lim maktablarida texnologiya darslarida zamonaviy texnika-texnologiyalardan foydalanish bo'yicha bilim, ko'nikma va malakalarini shakllantirish maqsadga muvofiq.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Muslimov N.A. Sharipov Sh. S., Qo'ysinov O.A. "Mehnat ta'limini o'qitish metodikasi, kasb tanlashga yo'llash" T.2014

2. Э.Канесса, К.Фонда, М.Зендаро “Доступная 3д печать для науки, образования и устойчивого развития” Краснодар, Россия 2013-г.
3. <http://www.istedod.uz>

EFFECTS OF HYDROCYLINDER STATUS CHANGING PLOWING PLACE ON TRACTOR FUEL SAVINGS AND EFFICIENCY

O. Alimnazarov Head teacher Termez branch of Tashkent State Technical University

Y. Shamayev igitali Assistant Termez branch of Tashkent State Technical University

H. Toshniyozov Assistant

R. Choriyev Termez branch of Tashkent State Technical University

Annotation: A wide range of tillage machines in agriculture allows us to identify several important global trends and prospects for the development of this type of agricultural machinery.

Machinery and tractors are becoming heavier and heavier due to the technologies currently used to grow crops. This leads to an increase in the compaction of the soil layer. As a result, zones of mechanical erosion are formed, soil fertility and crop yields are reduced. Therefore, modern trends in tillage and the creation of tractor units are mainly determined by environmental requirements for the protection of soil from excessive man – made loads.

Keywords: Agriculture, plowing angle, hydraulic cylinder, tractor units, plow body, lemex.

In recent years, in all developed countries of the world, the search for new technological methods to protect the soil from erosion, maintain and increase soil fertility, as well as reduce labor, cost, and energy costs continue.

Introduction: Of course, before studying tillage machines, it is necessary to study the physical properties of the soil and the technological properties of tillage machines. The soil in which the crop is grown differs from ordinary soil in its composition, is in its fertility. Therefore, we selected two types of plowing angles of 75° and 90° and three types of tillage distances of 700, 800 and 900 mm to improve the soil quality of arable lands for these experiments (Alimnazarov O. N. J., 2020).

The results showed that the plow penetration angle at 75° is more efficient than the plow penetration angle at 90° because the tillage distance is more efficient at 700 mm intervals than at other 800 mm and 900 mm distances. (Alimnazarov O. N. J., 2020).

Companies from developed countries in the production of agricultural machinery produce a wide range of semi – automated and automated plowing equipment for plowing on agricultural tractors with a capacity of 30 to 250 kWt. A distinctive feature of the plows currently in production is that all firms produce them in the same series and standardize the components extensively, producing only 2 to 10 to 14 plows, which differ in the number of plow bodies. Rarely do few companies produce tillage plows that use a hydraulic cylinder to plow the topsoil.


A common feature of almost all models of plows is the change in their working width and the design of the frame, which allows you to gradually adjust the width of the plow and remove the body to achieve a rational load when working in different conditions of the tractor. Semi – mounted plow bodies are produced with 5 to 14 and working widths from 1750 to 7000 mm, their average specific weight is from 1000 to 1500 kg for 1000 mm working width, the distance between the bodies is 1000 – 1020 mm and the frame height is mainly 800 – 900 mm.

Besides, the tillage body differs from the fuel consumption of the tractor during tillage in conventional tillage devices by saving fuel on the tractor during tillage with the help of hydraulic cylinder – changing tillage devices. This is because, during the tillage process, the tractor completes the work in a single tillage course on conventional tillage equipment and continues to work back to the starting point, which leads to excessive fuel and time consumption in large areas. In plowshares that change the position of the plow body with the help of hydraulic cylinders, the plow body increases the efficiency by 2 times by changing the position of the plow body by 180° , which leads to excessive fuel and time consumption in large areas. does not come. However, the above – mentioned plow bodies, which change the position with the help of a hydraulic cylinder, differ from conventional plows in size and weight. In this process, relatively large tractors are used during tillage. Currently, tractors for Class. John Deere, Lemken, and Kverneland agricultural machinery and equipment manufacturers are mainly used for such tasks. However, given the relatively high cost of these tractors compared to conventional tractors used in Uzbekistan, we have designed and tested a hydraulic plow with a plow body hydraulic cylinder, which can be used even with relatively small conventional tractors. Experiments have shown that this plow body can be used in tractors with a hydraulic cylinder, which changes the position of the plow.

Materials and methods

The front frame of this designed plow has three connections to connect to the tractor. The plow used a right and left plowing body on one side of the mainframe, which initially participates in the soil plowing process to the endpoint of the field during plowing and the rest to 180° using a vertical hydraulic cylinder mounted on the plow tower during the return to the starting point. As a result of the rotation, it performs the function of plowing the soil (Alimnazarov O. E. A., 2021).

In this process, the plow consists of the following parts (Fig. 1 a, b):



a)




Figure 1. General view of the plow body, which changes the position of the plow body with the help of a hydraulic cylinder (a); The top view of the plow, which changes the position of the plow body with the help of a hydraulic cylinder (b). Tower 1 is used to connect the plow to the tractor, hydraulic cylinder 2 the main cross-section of the plow is shifted to 180° by rotating the rectangular frame to 180° . Figure 2 shows the kinematic scheme of its movement.




Figure 2. The kinematic diagram of the hydraulic cylinder is shown According to it, $L1$ is the length of the initial position of the hydraulic cylinder, and $L1'$ is the length of the working position, the main cross-section of the adjuster 3 plow is the vertical hydraulic cylinder when rotating the rectangular frame at right angles gives thousands. Figure 3 connects the plow 4 on the trestle to the tractor along the horizontal axis, the plow body adjuster 5 adjusts the plow body to the soil trench, the plow body 6 tilts the plowed soil to $30 - 33 \text{ mm}$, and this the task is performed using remises (Alimnazarov O. E. A., 2021).




Figure 3. The vertical hydraulic cylinder and the part that provides the parallel between the tower are shown

The main cross-section of the plow is a rectangular frame. The main cross – section of the plow is rotated on a circular frame. The supports are shown in Figure 7, and in it (upper). The fastening part 7.1, the base fastening part 7.2, the roller radial – support bearing 7.3, and the fastening bolt joint 7.4). The main cross – section of the plow is fixed in a circular frame 8 (length 4500 mm, frame diameter $\varnothing 200$ mm, thickness 15 mm) and fixed to the front frame, the main cross – section of the plow is fixed. The rectangular frame 9 (length 4000 mm, frame profile 300x400x9 mm), the fastener 10 is fixed to the front frame of the fixed main cross – section circular frame (Alimnazarov O. E. A., 2021).




Figure 4 The cross – section of the rectangular frame shows the base that allows the main cross-section of the plow to rotate along with the circular frame.

Lemex plow bodies: Lemex plow bodies are characterized by the width of the cover, the depth of plowing, the angle of inclination of the lemex blade to the plow wall and the angle of inclination of the lemex to the plow bottom, as well as the shape of the work surface. The reason for the production of many types of hulls, which vary in width, is the need to cultivate the land at different depths, depending on local soil conditions and the type of crop. The maximum plowing depth should not exceed 79% of the width of the body cover, is $b = 1,27a_{max}$.

Hence, the studies show that if plowing is assigned at a depth of $a = 270$ mm, $b = 1,27a = 1,27 \cdot 270 = 350$ mm, if $a = 300$ mm is required, $b = 1,27 \cdot 300 = 400$ mm indicates that the housing should be installed (Alimnazarov O. N. J., 2020).

Body parts: The body consists of a lemex, a tipper, support, and a column. Lemex (Fig. 5) cuts a piece of soil from the bottom, separates it from the ground, lifts it slightly, and passes it to the overturner. As the compacted soil moves along the surface of the lemex under high pressure, the blade wears out quickly, becoming impenetrable and narrow. The drag resistance of the impenetrable lemex plug can increase dramatically (up to 30%). The impermeable plow body of the Lemex not only increases its drag resistance but also makes it difficult to sink to the designated depth and does not ensure smooth movement (Alimnazarov O. N. J., 2020).




Figure 5. Shown by a designed plow corps

Lemex is made of special corrosion-resistant steel. The designed lemex lasts 2 to 2.5 times longer than a normal lemex.

The shape of the lemex is selected according to the type of soil to be plowed. Due to a large number of soil types, lemex also has different shapes: trapezoidal, scaly, triangular, interchangeable beak, etc. (Alimnazarov O. N. J., 2020).

The interchangeable beak lemex (Fig. 6) is very simple in structure, inexpensive to prepare and repair, immersed in hard soil faster than other types of lemex and is resistant to corrosion by abrasive elements in the soil. Therefore, due to the use of this lemex in the cultivation of light soils, its strength was increased by heat treatment of the material (Alimnazarov O. N. J., 2020).




Figure 6. The designed plowing corps showed lemex

Lemexs and their materials: When plowing the soil with agricultural tractors, its parts are eroded due to friction. Therefore, they need to be repaired. In the process of studying the durability of working bodies and spare parts of tractors, it is necessary to determine the laws of their wear. There is a need to develop a computational framework to increase the robustness of the working bodies involved in this process (Alimnazarov O. N. J., 2020).

The abrasive particles in the soil of the working surfaces and the relative speed of movement are determined by the shape and nature of the relative displacement of the particles due to wear under the influence of friction (Severnev M.M, 2011). Experiments show that the wear characteristics of the working parts of agricultural machinery depend on the soil conditions, the specific pressure of the working soil. In an experiment (1), the results of determining the wear of abrasive particles in the soil under the influence of friction and the relative speed of movement showed that the lemex working surface is proportional to the specific pressure of the soil (Blokhin, 2015).

$$l = kN \quad (1)$$

where k is the coefficient of proportionality, N is the specific pressure.

Depending on the velocity of the abrasive particle, the corrosion equation (2) of the lemex is expressed.

$$l = \mu V^b \quad (2)$$

where μ and b are constant coefficients depending on the physical and mechanical properties of the soil.

The results of the study showed that to prolong the service life of replaceable parts of agricultural machinery, it was necessary to increase its resistance to external influences by heat treatment of its surface in terms of achieving surface universality and cost – effectiveness.

Comparing the five variant results of heat treatment of 65Г steel flat specimens on the surface layer studied in the experiment, taking into account the high durability, plasticity and adhesive properties for heavy – duty variable parts of the working bodies of earth – cutting machines, the most effective combinations have increased the hardness using plasma at a temperature of 300^o C.

Due to the very rapid heating rate in the plasma, the transformations take place at high temperatures, and this thermally active process has a strong effect on the kinetics of the formation and growth of new phase nuclei. The relationship between the degree of nucleation of austenite and their growth rate changes, and as the temperature increases, the nucleation process of austenite occurs faster than their formation, and the growth rate is quantified from the growth rate. growth i.e. leads to the formation of rotating fine – grained austenite and turns into highly dispersed martensite with high strength properties (Алимназаров О. Н. J., 2020) and (Алимназаров О.М., 2020)

The production of agricultural tractors and implements is one of the most energy – and material – intensive industries, requiring up to 45 – 50 % of fuel and lubricant consumption as a result of tillage. Due to the high annual consumption of replacement parts for tillage machines in agriculture, it is important to reduce operating costs and increase resistance to external influences and reduce the cost of spare parts and increase the level of competitiveness (Канаев, 2018).

Experiments show that in modern agriculture it is necessary to ensure the strength of the product material at the level of 1500 – 1800 МПа during tillage. The impact force should be at least 0.8 to 1.0 МJ/м and the maximum possible surface hardness should be between 60 and 65 HRC (Шилов И.Н. и др., 2010).

Replacement parts of working bodies of agricultural tractors and aggregates are traditionally made of medium or high carbon Ст6, 65Г, У8 and other steels (Канаев, 2018) and (Алимназаров О.М., 2020). The lemex 65Г manganese steel, which is a part of the replacement parts of the working bodies with increased surface hardness in plasma, is made of manganese steel, the chemical composition and temperature of the critical points are given in Table 1.

Table 1. Chemical composition (%) of lemex material and temperature of critical points, °C.

C	Mn	Si	P	S	Ni	Cu	Ac ₁	Ac ₃	Ar ₁	Ar ₃	MН
0.63	0, 1.2	0.35	0.031	0.029	0.25	0.19	721	745	620	720	270

Mechanical properties of hardened heat – treated steel material (hardening from 800 to 820 °C) (Канаев, 2018). The process after lubrication (air cooling to 340 – 380 °C) is shown in Table 2.

Table 2. Mechanical properties of 65Г steel depending on the temperature.

Test temperature, °C	σ_B, MPa	$\delta, \%$	$\gamma, \%$	$\sigma_{0,2}, \text{MPa}$
830 °C solidification in oil. 350 °C cooling in the air				
200	2200	15	44	1370
300	1670	19	52	1220
400	880	20	70	980

Table 3. Mechanical properties of the studied steel.

σ_T, MPa	σ_B, MPa	$\delta, \%$	$\gamma, \%$	HRC, mm
1220	1470	5,0	38	49

Table 4. The measurement results are summarized.

	Sample order number					
	1	2	3	4	5	6
Working surface HRC	48,1	50,1	50,7	49,7	48,9	49,2
Back surface HRC	47,9	50	49,8	46.4	47	46,3

The hardness of the lemex working surface is 49 ... 51 in the range of HRC values, while the hardness of the reverse side is in the range of HRC values of 46 ... 50. We can conclude that the hardness of working surfaces is related to the abrasive particles of the soil environment and the hardening of this surface under the influence of plastic deformations (A.M. Михальченков, 2004) and (A.M. Михальченков, 2012). At incomplete temperatures of 750 ... 770 °C, steels are heat – treated with hypereutectoid, followed by hardening at low temperatures of 150 ... 200 °C.

Fuel consumption during tractor plowing: Fuel consumption is measured by the fuel consumption for the work is determined by the device calculated in mL (3) for the working length (50 m) (Asharifi, 2009).

$$Q_F = \frac{Q_D \cdot 1000}{W_p \cdot D \cdot 100} \text{ mL} \quad (3)$$

where: Q_F – fuel consumption L / ha; Q_D – (100 m) tillage length fuel consumption; W_p – machine width (m); D is the length of tillage (60 m).

Percentage of displacement of the tractor during plowing:

Measured by practical and theoretical speed (Alsharifi S. , 2009).

Practical speed of the tractor during the plowing process: The depth of tillage and the process of plowing the soil with the applied speed were determined experimentally. Moisture and tillage depth were repeated three times within the tillage length (60 m) for the soil and were determined using the following equation (4):

$$V_p = \frac{3,6 \cdot D}{T_p} \text{ km/hr} \quad (4)$$

The theoretical speed of the tractor in the plowing process: Without plowing the soil, only the device touches the soil at a speed of 3 km/hr during tillage and the length (60 m) is repeated for both soil moisture and three tillage depths (Alimnazarov O.M.,

2020). The calculation of the theoretical speed is determined by the following equation (5):

$$V_T = \frac{3,6 \cdot D}{T_t} \text{ km/hr} \quad (5)$$

where: V_T – theoretical speed km / hr ; T_t is the theoretical time (hr).

Using Equation (6), the calculation of the percentage of displacement resulting from the practical and theoretical velocities was performed:

$$S = \frac{V_t \cdot V_p}{V_t} \cdot 100 \% \quad (6)$$

Equation (7) calculates the percentage of power expended as a result of the displacement (Asharifi, 2009) and (Alimnazarov O.M., 2020).

$$P_S = \frac{F(V_t \cdot V_p)}{270} \text{ kw} \quad (7)$$

where: P_S – displacement power (kW)

Tractor efficiency in the plowing process: Tractor efficiency is the ratio of the power a tractor consumes for a given period of time to the theoretical power consumed by a tractor (Alsharifi S. M., 2019).

The theoretical size of the tractor: The theoretical size of the tractor is the operating speed, which uses the full width and time of the device and is determined by (8):

$$T_{FC} = \frac{S \cdot W}{C} \quad (8)$$

where: T_{FC} is the theoretical size of the machine; S – speed is used; W is the shear width of the device (M) and C is the shear coefficient.

Tractor Size: The size of a tractor is the actual stage of the work and is determined by (9):

$$E_{FC} = \frac{A}{T} \quad (9)$$

where: E_{FC} is the effective machine size; A – distance (hr); T – time.

The calculation of the efficiency of the tractor is determined by (10).

$$F_E = \frac{E_{FC}}{T_{FC}} \cdot 100\% \quad (10)$$

Research results

The plow body, which is used in conventional tractors in Uzbekistan, is relatively inexpensive, durable, lighter than previous plows, and can be used even in conventional tractors with relatively small capacity. We designed a rotary plow and tested it experimentally. Experiments have shown that this plow body can be used in tractors with a hydraulic cylinder to change the position of the plow (Alimnazarov O. N. J., 2020).

Tractor Fuel Consumption: The fuel consumption under the influence of soil entry angles is shown in Table 5. The effect of 75° soil entry angles on the plow resulted in a plow body with minimum fuel consumption of 9.55 L/ha . Due to the effect of the 90° plow body on the soil entry angles, the minimum fuel consumption was $11,264 \text{ L/ha}$, which increased fuel consumption due to the high pressure during the plowing process. These results show that fuel consumption is more efficient at a

processing distance of 700 mm than at a processing distance of 900 mm. The results showed fuel consumption of 9,958, 10,375 and 10,891 L/ha.

Due to the high resistance of the plow body lelex to soil resistance, fuel consumption did not increase with increasing travel and processing distances. The most effective results showed that the fuel consumption was 9,082 L/ha when the plow body penetrated the soil at 75° and the tillage distance was 700 mm (Alimnazarov O. N. J., 2020).

Percentage of displacement during plowing: A decrease in the percentage of displacement led to an increase in tillage distances. The processing distances were 8,935, 9,653 and 10,682 % respectively. The reason for this was the increase in tillage distances and shear coefficient as a result of the tillage resistance of the soil. Table 6 shows the percentage of displacement, which showed that the plow penetration angle was significantly more effective at 75° than at 90°, and was 9.303 % and 10.264 % respectively. These results showed that the penetration of soil into the soil at an angle of 75° to the tillage was effective at a tillage distance of 700 mm.

Tractor efficiency: The effect of soil entry angles on the plow is shown in Table 7, % of tractor efficiency. The efficiency of the tractor with a plow angle of more than 75° was 71.786 %. The low efficiency was 69.339 % on a tractor with a soil penetration angle greater than 90°. The decrease in tractor efficiency was due to high pressure, and in the tillage machine, which changed the position of the plow body using a hydraulic cylinder during tillage, there was an inverse relationship between the plow entrance angles and the tillage distances. A distance of 700 mm showed better tractor efficiency than a working distance of more than 900 mm. The results were 71,963, 70,598 and 69,127 %, respectively. The best result (73.610 %) was the tillage distance obtained at 700 mm of plowing and the angle of entry of the plow into the soil at 75°.

Table 5 shows the effect of tillage angles and fuel consumption L/hr at tillage distances.

Duration of plowing angles of the soil	Tillage distances, mm		
	700	800	900
75°	9,082	9,656	9,915
90°	10,833	11,095	11,866

Table 6: Effects of tillage angles and tillage distance on displacement %.

Duration of plowing angles of the soil	Tillage distances, mm		
	700	800	900
75°	8,715	9,092	10,103
90°	9,155	10,214	11,261

Table 7: Percentage of the effect of tillage angles and tillage distances on machine efficiency.

Duration of plowing angles of the soil	Tillage distances, mm		
	700	800	900
75°	70,816	69,221	68,418
90°	69,213	68,411	67,526

Discuss the results

The invention relates to a plow that changes the position of the plow body using a hydraulic cylinder to connect it to a tractor. Three plowshares and a hydraulic cylinder are located on the front frame of the plow. It is a vertical hydraulic cylinder that alternates the plow bodies on one side of the plow frame, and the position of the parallel adjusters is adjusted to the front working width of the variable length relative to the front plow frame. The plow body is adjusted and the tractor rear wheel moves on the cultivated soil or the surface of the uncultivated soil.

The angle of rotation of the plow can be adjusted depending on the width of the tractor, and the angle between the working width of the pre-selected plow can be adjusted. The distance from the rear wheel of the tractor to the edge of the furrow is always parallel to each set working width. This allows for a flat plowing of the soil during tractor plowing (Laumann B. W., 2009).

On one side of the plow frame, there is a vertical hydraulic cylinder, which alternates between plowing bodies with right and left turning plow bodies when returning to the starting point and back. Through the hydraulic cylinder, the plow frame is returned to the working position after the turning process.

It is known from the above-mentioned type of plow body hydraulic cylinder reversing device (Laumann B. W., 2009) that this plow body is the first vertical hydraulic cylinder and has two parallel adjusters, one of which is a straightener. and the other connects the horizontal hydraulic plow frame to the front frame. The position of the adjuster relative to the front frame can be changed by the first hydraulic cylinder (Laumann B. R., 2013).

The invention relates to a plow that changes the position of the plow body using a hydraulic cylinder to connect it to a tractor. The three links of the device and the vertical hydraulic cylinder are located on the front frame of the plow. It is a horizontal hydraulic cylinder for connecting the plow body to the alternating plow frame, and the position of the parallel adjuster is adjusted to the working width of the tractor at a variable length relative to the front plow frame.

The angle of rotation of the plow, which changes the position of the plow body with the help of a hydraulic cylinder, can be adjusted depending on the width of the tractor, and the right and left plow bodies are located on one side of the plow frame. The turn is used alternately using a vertical hydraulic cylinder. The working width of the pre - selected plow varies between the angles relative to the working width of the tractor. A second horizontal hydraulic cylinder is used to ensure that the distance from the rear wheel of the tractor to the edge of the furrow is constantly parallel to each specified working width. This makes it possible to plow the soil evenly while plowing the tractor.

(Laumann B. W., 2009) it is known from the invention that this plow body hydraulic plow is a vertical hydraulic cylinder and has two parallel adjusters, one of which is the adjuster and the other is the horizontal hydraulic cylinder that connects the plow frame to the front frame for connection to the tractor. The position of the adjuster relative to the previous frame can be changed inwards and outwards employing a second hydraulic cylinder using a second horizontal hydraulic cylinder (Laumann B. R., 2013).

The designed plow applies to the plow that changes the position of the plow body using a hydraulic cylinder, which differs from previous inventions in that it has two

mutually parallel mainframes, a movable and the plow. Consisting of diamond frames, the fixed frame is fixed to the front frame and the movable frame is rotated around the fixed frame using three-step supports. This ensures that the resistance forces generated during the tillage process are distributed along the entire length of the plow frame (Alimnazarov O. E. A., 2021).

The plow body uses a hydraulic cylinder to increase the resistance of the positioning plow to external influences, is radial, and longitudinal forces, and to produce a low – cost tillage plow to replace locally produced imports, application to agriculture.

We have done this by improving the design of the plow body that changes the position of the existing plow body using a hydraulic cylinder, in this plow we recommend, its main log section is fixed to the front frame with a circular frame fixed and the main the cross – section of the rectangular frame is rotated around this frame using three bearing supports, and no welded joints were used in the assembly of this device.

This ensures that the resistance forces generated during the tillage process are distributed along the entire length of the plow frame and allows the replacement parts of the plow that have become unusable.

The essence of the design is that the vertical hydraulic cylinder, which rotates the mainframe at 180° in a tillage plow with a hydraulic cylinder, has a simple structure and can be used on non – automated mechanical tractors (Alimnazarov O. E. A., 2021).

Conclusion:

The plow body has two mutually parallel mainframes of the plow, which change position using a hydraulic cylinder, consisting of a movable and a fixed frame. The fixed frame is fastened to the front frame, and the drive the receiving frame is rotated around a fixed frame using three supports. No welded joints are used in the assembly of this device, which does not differ from the static loading properties of the device during dynamic loading and allows you to replace parts that have become unusable. Ensures that the resistance forces generated during the plowing process are distributed along the entire length of the plow frame. This prolongs the life of the plow and saves fuel on the tractor.

References:

1. А.М.Михальченков. (2012). Напряженно – деформированное состояние восстановлен-ных деталей от контактного взаимодействия до конструкции. Брянского филиала ФГБОУ ВПО Московский государственный университет путей сообщения, 168.
2. Alimnazarov O., E. A. (2021). Patent No. FAP20210070. Uzbekistan.
3. Alimnazarov O., N. J. (2020). Methods of growing a potato plant by changing the. *Academicia*.
4. Alimnazarov O.M., S. Y. (2020). Analysis of structure, cinematic and use materials of Fairhild. *Asian Journal of Research*, 143 – 151.
5. Alsharifi, S. (2009). The effect of two types of plows at. *Journal of University of Babylon*, 182 –205.
6. Alsharifi, S. (2009). The effect of two types of plows at. *Journal of University of Babylon*, 182 – 205.

7. Alsharifi, S. a. (2018). Study some. Euphrates, Journal of Agriculture , 23 – 35.
8. Alsharifi, S. M. (2019). Effect of threshing machines, rotational speed and grain. Bulgarian Journal of, 243 – 255.
9. Asharifi, S. (2009). The effect of two types of plows at. Journal of University of Babylon, 182 – 205.
10. Behzad, S. A. (2014). Effect of conservation. A review International , 144 – 156.
11. Blokhin, V. P. (2015). Theoretical study of the wearing process of reinforced moldboard and ploughshare surfaces. Vestnik of the Bryansk State Agricultural Academy., Bryansk.
12. Bogunovic, I. a. (2017). Compaction of a clay. Journal of Agricultural Science and , 475 – 486.
13. Laumann, B. R. (2013). Patent No. DE 10 2012 103 917 A1.
14. Laumann, B. R. (2013). Patent No. EP 2 659 758 A1.
15. Laumann, B. W. (2009). Patent No. DE 10 2007 037 258 A1.
16. Mari, J. J. (2014). Effect of soil forces on the surface of. Bulgarian Journal of Agricultural Science, 277 – 281.
17. Oduma, O. I. (2015). Performance. International , 199 – 204.
18. Sale, N. G. (2013). Performance evaluation of some selected tillage. Proceeding of Nigeria Institution of, 71 – 77.
19. Severnev M.M, P. N. (2011). Wear and corrosion of. Minsk: Science.
20. А.М. Михальченко, В. К. (2004). Остаточные напряжения и твердость плужных лемехов. Достижения науки и техники , 34 – 35.
21. Алимназаров О.М., М. М. (2020). Влияние термической обработки на структуру и свойства стали. Интернаука, 52 – 54.
22. Вольф, Н. (2015). Теоретические основы повышения ресурса лемеха плуга. Инновационные направления развития технологий и технических, Воронеж.
23. Канаев, А. (2018). Плазменная закалка сменных деталей. Вестник науки, 150 – 155.
24. Петровский, Д. (2015). К вопросу о повышении долговечности рабочих органов почвообрабатывающих машин. Инновационные направления развития технологий и технических средств механизации сельского хозяйства: материалы международной научно-практической конференции, посвящённой 100 летию кафедры, Воронеж.
25. Шилов И.Н. и др. (2010). Повышение работоспособности деталей рабочих органов сельскохозяйственных машин. Минск: Белорусский аграрно – технический университет.

ИНСОНЛАРДА ЭКОЛОГИК МАДАНИЯТНИ РИВОЖЛАНТИРИШ ОРҚАЛИ СОҒЛОМ ТУРМУШ ТАРЗИНИ ШАКЛЛАНТИРИШ

М.И.Тожибоев Наманган Давлат Университети Талаба

Аннотация. Ҳозирги кунда инсоният олдида турган энг асосий вазифалардан бири бу табиат бойликларини келгуси авлодга табиий ҳолатда етказиб беришдан иборат ва бу билан бир қаторда инсон ўз саломатликларини мустаҳкамлаш, табиий муҳитга эҳтиёткорона муносабатда бўлиш бугунги куннинг асосий вазифаларидан саналади. Экологик маданиятни инсонлар онгига етказиш орқали инсон саломатлигини янада оширишга имкон топилади. Ўсиб келаётган ёш авлодни табиатни севувчи ва экологик маданиятли шахс қилиб тарбиялашдан иборатдир.

Annotation. One of the most important tasks facing humanity today is to pass on these natural resources to the next generation in a natural way, and at the same time, one of the main tasks of today is to strengthen human health and care for the natural environment. By raising environmental awareness, it will be possible to further improve human health. It is about educating the younger generation to love nature and be ecologically cultured.

Аннотация. Одна из важнейших задач, стоящих сегодня перед человечеством, естественным образом передать эти природные ресурсы следующему поколению, и в то же время укрепление здоровья человека и забота об окружающей среде являются одними из главных задач сегодняшнего дня. Повышая экологическую осведомленность, можно будет еще больше улучшить здоровье человека. Речь идет о том, чтобы научить подрастающее поколение любить природу и быть экологически культурным.

Калит сўзлар: Экология, экологик маданият, инсон, инсон саломатлиги.

Keywords: Ecology, ecological culture, man, human health.

Ключевые слова: экология, экологическая культура, человек, здоровье человека.

Инсон ҳаётини табиий муҳициз тасаввур этиш қийин. Шунинг учун ҳам табиатни муҳофаза қилиш, унинг мусоффолигини сақлаш инсониятнинг муқаддас бурчидир. Бизни қуршаб турган сув, ҳаво, тупроқ, ўсимликлар оламининг ҳозирги аҳволи, атроф-муҳит ифлосланишини олдини олиш ва баррқарор келажакини таминлаш.

Биосферани муҳофаза қилиш чораларини кўриш ҳам ҳар бир кишининг муҳим вазифаларидан биридир. Экологик маданият инсониятнинг тарихий ривожланиш жараёнида табиатни муҳофаза қилишга қаратилган назарий-илмий ғояларнинг мажмуаси бўлмасдан, маълум жамиятда яшаётган шахсларнинг руҳий ҳолатлари, ҳиссиётлари, кайфиятлари ва интилишларини ҳам қамраб олиб, турли даражадаги ижтимоий онг шаклларининг экология мақсад-манфаатлари доирасида муштарақлигини ифодалайди. Инсонлар дастлаб ўз ижтимоий фаолиятларини табиатга соф назарий муносабат сифатида бошлаган

эмас. Инсонлар даст аввал иптидой жамоа тузимда табиатга бўлган муносабати ижобий бўлиб келган, кейинчалик аҳоли сонининг ортиб бориши натижасида кўплаб ўрмонлар ўзлаштирилди. Инсон саломатлиги учун зарур бўлган доривор ўсимликлар батамом йўқ қилиниб келинмоқда. Аҳоли ўртасида экологик маданиятни кенг тарбиқ этиш кишиларнинг онгида табиатга бўлган муносабатини ижобий томонга ўзгартиради. Бутун дунё аҳолисининг бошига келган СОВИД-19 касаллиги барчамизга маълум. Вируснинг асосий манбаи ифлосланган ҳудудлар, гигиена қонун қоидаларни тўғри олиб бормаслик ҳамда соғломлаштириш тарғиботини ўз вақтида олиб бормасликдан келиб чиқмоқда. Бугунги кунда экологик маданиятни ёш авлод онгида шакллантиришнинг бир қанча усуллари ишлаб чиқилди ва амалиётда қўлланилиб келинмоқда. Инсон қачонки кулфат бошига тушмагунча борликдаги ресурсларни қадрга етмайди.

Экологик маданиятни шакллантиришда бир қанча усуллардан фойдаланиш мумкин:

➤ Инсоннинг табиат билан муносабати энг аввало оила муҳитида ката рол ўйнайди. Оила муҳитида ёш авлодга ота-оналари томонидан тарбия билан бир қаторда экологик маданият ҳам онги шурига етказиб борилса келажакимиз ёш авлодлари табиатимизни асрашага кўпроқ этибор беради.

➤ Инсонни комиллика етказувчи, билимга, фикрлашга ундайдиган маскан яъни мактабгача таълим ҳамда умумтаълим мактаблари ёшларимизни эртанги кунга бўлган муносабатини онгида шакллантириб беради. Бир ибора борки “Ёшлиқда олинган билим тошга ўйилган нақш каби” деб бежизга айтилмаган. Умумтаълим мактабларда экологияни фан сифатида жорий этилиши нафақат табиатни муҳофаза қилиш шу билан биргаликда инсон саломатлиги учун ҳам ката рол ўйнайди.

➤ Олий таълим кесимида эколог кадрлар етишиб чиқмоқда ва табиатни муҳофаза қилиш бўйича ташкилотларда фаолият олиб бормоқда. Экологик маданиятни ҳудудларда кенг тарғиб қилиш инспектрларнинг вазифаси ҳисобланади. Лекин минг афсуслар бўлсинки экологик маданият ҳозиргача инсонларнинг онгига етиб бормади. Фуқароларга маълум микдорда жарима суммалари белгиланган лекин ҳудудлар миқёсида эко инспекторларнинг етишмаслиги ҳолатнинг кенг ривожланишига сабаб бўлмоқда. Жарима тўловларини фуқаролар бир маротаба тўлар лекин моддий томондан инсонларга бу маълум микдорда зиён келтиради. Жарима суммалари орқали кўзланган мақсадимизга етиб бўлмайди. Энг мақбул йўл инспекторларнинг аҳоли пунктларида тарғибот ишларини олиб бориш орқали экологик маданиятни шакллантириши лозим деб топаман.

Ҳар бир маданиятли инсон бу муаммоларни бартараф этиш учун курашса, жамиятда ҳақиқий экологик маданиятли кишилар шаклланади. Бўлажак мутахассислар юксак даражадаги умумий экологик маданият ва касб маҳоратини эгаллаган, миллий ва умуминсоний қадриятларни ўзлаштирган, табиатни муҳофаза қилиш билан боғлиқ бўлган, Ўзбек халқининг миллий анъаналарига таянадиган бўлса табиатга ва унинг захираларига салбий таъсир етмайди. Шу сабабдан ҳам бўлажак мутахассислар ўз касбий фаолияти бўйича чуқур билим, юқори экологик маданиятга эга бўлишлари зарур. Бу таълим-тарбия жараёнида

амалга ошириладиган муҳим педагогик жараёндр. Ҳақиқатдан ҳам экологик маданиятни шакллантириш ҳозирги таълим тарбия соҳасидаги ҳал қилиниши лозим бўлган долзарб вазифалардан бири бўлиб турибди. Инсонларнинг узок умр кўришлари учун ҳам асосий вазифаларни қилмоғимиз лозим.

Саломатлик – ҳар бир инсон учун бебаҳо бойлик сифатида жамиятнинг ижтимоий-иқтисодий ривожланишининг муҳим шартларидан бири бўлиб келмоқда. [Соғлом турмуш тарзи асослари Т-2009]

Инсон ҳаёт давомида табиатнинг бетакрор ва табиий бойликларидан фойдаланиб келмоқда ҳамда ўз эҳтиёжлари учун истемол қилмоқда. Соғлом турмуш тарзига амал қилишда энг аввало экологик соф махсулотларни истемол қилиш бугунги куннинг долзарб мавзуларидан бири бўлиб келмоқда. Буюк энциклопедист олим Абу Али ибн Сино (980-1037) инсонларнинг саломатлигини мустахкаллаш йўлида тадқиқотлар олиб борган. “Агар ҳавода чанг ва тутун бўлмаса эди, киши минг йил яшаган бўлар эди” бу сўзларидан маълум бўлиб турибдики бевосита, табиатга билан чамбарчас боғлиқдир.

Хулоса қилиб айтганда, экологик тарбия, экологик маданият, экологик маънавият тарихан инсон хулқи меъёрларини, унинг жамият ва табиатга бўлган муносабатларидаги масъулиятини аниқлайдиган мезон бўлган. Ўзбек халқи тарихи ёш авлодларда экологик маданиятни шакллантиришга доир бой ижодий меросга эга бўлиб, бу меросни ўрганиш, ҳаётга татбиқ этиш ҳамда келажак авлодларга етказиш шу куннинг энг муҳим вазифаларидан биридир. Белгиланган назарий экологик билимларимизни амалда жорий этиш келажакда бутун дунёни ҳамда Ўзбекистонимизнинг порлоқ келажаги, ёш авлоднинг соғ саломатли учун хизмат қилади.

Фойдаланилган адабиётлар

1. Соғлом турмуш тарзи асослари (Валеология): Давлат илмий нашриёти Т-2009

HAYOT FAOLIYATI XAVFSIZLIGINING HUQUQIY ASOSLARI

R.A.Tursunov Namangan davlat universiteti talabasi

ANNOTATSIYA: Ushbu maqolada hayot faoliyati xavfsizligi, xususan mehnat munosabatlaridagi xavfsizlik masalalariga mamlakatimiz va xalqaro jihatdagi huquqiy asoslarga oid fikr mulohazalar o'z aksini topgan

Kalit so'zlar: xavf, texnika, kodeks, hodisa, mehnat ta'tili

ANNOTATION: This article reflects the views of our country and the international legal framework on the safety of life, in particular, the safety of labor relations.

Key words: hazard, technique, codecs, incident. leave

АННОТАЦИИ: В данной статье отражены взгляды отечественной и международной нормативно-правовой базы на безопасность жизни, в частности безопасность трудовых отношений.

Ключевые слова: опасность, техника, кодекс, событие. отпуск

Insoniyat vujudga kelibdiki, o'zining hayot faoliyati va yashash tarzi turli shohalarida o'zi uchun zarur bo'lgan ehtiyojlarni ta'minlash vositasida muayyan sharoit yaratgan holda yashaydi. Ular inson uchun tabiiy va zaruriy ehtiyojlar hisoblanadi. Shu bilan bir qatorda shunday holatlar ham uchray turadiki, inson unga favqulotda vaziyatlarda duch keladi va har xil hollarda doimiy zaruriy mudofaa bilan o'zini o'zi ta'minlashga ehtiyoj ham paydo bo'ladi. Buni bir so'z bilan fan tilida "xavf" deyiladi. Xavf tushunchasiga ko'plab mutaxassislar tomonidan turlicha ta'rif va tavsiflar berib o'tilgan. Xususan, ba'zi adabiyotlarda: "Xavf – hodisalar, jarayonlar yoki ma'lum sharoitda odam sog'lig'iga tog'ridan-to'g'ri yoki bilvosita zarar yetkazishi, ya'ni noxush oqibatlarni keltirib chiqarishi mumkin. Inson hayotiga va sog'lig'iga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi jarayon, hodisa xavfdir."⁹ Shu nuqtayi nazardan qaraydigan bo'lsak, xavf bu insonning faol tarzidagi jismoniy hamda ruhiy holatiga, uning o'z maqsad muddalariga yetish yo'lida va boshqa yo'nalishlarida sun'iy to'siqni yuzaga keltiruvchi, tananing yoki ong faoliyatining buzilish yoki shunga tenglashtirilgan holatlar va oqibatlarga olib kelishi mumkin bo'lgan jarayon hisoblanadi. Hayot faoliyati xavfsizligi esa kundalik hayotimiz, ish faoliyaimiz, ishlatayotgan texnik jihozlar hamda qurilmalardan foydalanishning umumiy bilish kerak bo'lgan qat'iy normalari yig'indisi hisoblanadi. Ushbu jarayon ba'zi hollarda insonga bog'liq bo'lmagan vaziyatda yuzaga kelsa, yana ko'p hollarda bevosita inson omili, ehtiyotsizlik (yuridik termin sifatida ikki toifaga bo'linadi: beparvolik va o'z o'ziga ishonish) ta'sirida yuzaga keladi. Ushbu jarayon, voqea va hodisalarning sodir bo'lishi texnika hamda texnologiya vositalaridan nojo'ya foydalanish va asosan, turli yo'sindagi mehnat jarayonlarida sodir bo'ladi deyish mumkin. Darhaqiqat, turli yo'sindagi xavf-u hatarlar asosan, mehnat jarayonida sodir bo'lishi ko'p uchraydigan holatdir. Ushbu jarayonlarni oldini olish va inson hayoti, uning salomatligini saqlash va asrab-avalash borasidagi ko'plab hodisalarni tartibga solishda har qaysi soha va tarmoq singari huquqiy asos mustahkamlaydi deyish mumkin.

Har qaysi davlat yoki jamiyatga nazar tashlaydigan bo'lsak, o'zining ichki tartib qoidalarini muvofiqlashtirib turuvchi muayyan normalar tizimiga ega bo'ladi. Ushbu normalarda barcha turdagi ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy-ma'rifiy va iqtisodiy hamda boshqa munosabatlar o'z aksini topadi. Xususan, yuqorida ta'kidlab o'tganimiz hayot faoliyati xavfsizligi (asosan mehnat jarayonlari) ham shular jumlasidandir. Yurtimizda ham ushbu masalalar ko'plab qonun hujjatlarida o'z aksini topgan. Mehnat jarayonidagi xavfsizlik masalalarining ta'minlanganligi, munosib va xavfsiz mehnat sharoiti, hayot faoliyati va shaxs jismoniy holatiga jiddiy tarzda og'ir yuklama tushurmaslik va boshqalar shular jumlasidandir. Ushbu masalalarda bosh huquqiy asos vazifasini mamlakatimizning asosiy qomusi bo'lgan Konstitutsiyamiz bajaradi deyish mumkin. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining ikkinchi bo'lim IX bobi ijtimoiy va iqtisodiy huquqlar deb nom olgan bolib, uning 37-moddasida "Har bir shaxs mehnat qilish, erkin kasb tanlash, adolatli mehnat sharoitida ishlash va qonunda ko'rsatilgan tartibda ishsizlikdan himoyalaniish huquqiga egadir"¹⁰ deyilgan bo'lsa, 38-moddasida "yollanib ishlayotgan barcha fuqarolar dam olish huquqiga egadirlar. Ish vaqti va haq to'lanadigan menat ta'tilining muddati qonun bilan begilanadi"¹¹. Ushbu moddalarda inson mehnat faoliyat davomidagi xavfsizligi, unung ishchanlik qobiliyati hamda sog'lig'iga ziyon yetkazmasligida namoyon bo'lishi va huquqiy jihatdan

⁹ Hayot Faoliyati Xavfsizligi. H.E.G'oyipov. Toshkent 2007. 4-bet

¹⁰ O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. Toshkent 2019. 15-bet

¹¹ O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. Toshkent 2019. 15-bet

muhofaza qilinishida namoyon bo'ladi. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Mehnat Kodeksi ham mamlakatda mavjud mehnat munosabatlarini tartibga solishda yetakchi va asosiy normativ-huquqiy hujjat hisoblanadi. Mehnat kodeksining 211-moddasida "barcha korxonalarda xavfsizlik va gigiena talablariga javob beradigan mehnat sharoitlar yaratilgan bo'lishi shart. Bunday sharoitlarni yaratib berish ish beruvchining majburiyatiga kiradi"¹². Ushbu moddada bevosita munosib hamda xavfsiz ish sharoitida ishlash masalasiga to'xtalangan bo'lsa, boshqa bir moddasida "ish beruvchi ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalarni o'z vaqtida tekshirishi va hisobga olib borishi shart"¹³ deyilgan ya'ni, bo'lgan va yoki bo'lishi mumkin bo'lgan inson hayoti va faoliyati xavfsizligi uchun zararli bo'lgan hollarni o'rganish hamda oldini olish o'z aksini topgan deyish mumkin. Shu bila birgalikda munosib mehnat sharoiti nafaqat mamlakatimiz, balki xalqaro qonunchilikda ham o'z aksini topgan norma hisoblanadi deyish mumkin, Birlashgan Millatlar Tashkiloti tomonidan 1948-yil 10-dekabrda qabul qilingan Inson huquqlari Umumjahon Deklaratsiyasida ham ushbu norma o'z aksini topgan: "Har bir inson mehnat qilish, ishni o'z erki bilan tanlash, mehnatining adolatli va qulay sharoitlari bo'lishi va ishsizlikdan muhofaza etilish huquqiga egadir"¹⁴. Shuningdek O'zbekiston Respublikasining "Mehnatni muhofaza qilish to'g'risidagi" qonunida ham bevosita korxon va tashkilotlarda mehnat muhofazasi, ish joyida xavfsizlik talablarini tashkil etish masalalari asosli hamda shartli tarzda bo'lishi belgilab o'tilgan. Shuni ham alohida ta'kidlash kerakki, hayot faoliyati xavfsizligini tashkil etishda avvalo, nazorat tizimini joriy qilinishi asosiy vazifa hisoblanadi. Xususan, texnik nazorat, sanitariya nazorati, energetik nazorat, avtomobil nazorati va boshqalardir. Inson hayoti va uning mehnat hamda boshqa faoliyati davomida sodir bo'lishi mumkin bo'lgan turli xavf hatar va baxtsiz hodisalardan muhofaza qilish, uni oldini olishda yuqorida ta'kidlab o'tilgan qonun hamda normalarning o'rni hamda ahamiyati yuqori hisoblanadi. Zero ushbu jarayonlarning qonun sifatida mustahkamlanishi ushbu vaziyatlar uchun har qanday sharoitlarda ham huquqiy asos mavjudligini ifodalaydi.

Xulosa o'rnida shuni aytish kerakki hozirgi texnika hamda texnologiyalar jadal tarzda taraqqiy etayotgan bir sharoitda insonlarda hayot faoliyati xavfsizligiga bo'lgan e'tibor hamda munosabatni tubdan o'zgartirish muhim hayotiy zarurat hisoblanadi. Kuni kecha yangi ddeb hisoblangan ilm-fan kashfiyoti bugungi kun uchun eski predmetga aylanib borayotganligi sir emas. Ular vositasida insonlarga kelishi mumkin bo'lgan jismoniy hamda ruhiy ta'sirlarni oldini olish, ulardan munosib muhofaza tizimini yaratish, insonlar ongi hamda shuurida mavjud vaziyatga nisbatan daxldorlik hissini uyg'otish hamda bevosita ushbu ta'sirlardan himoyalalanish faqat o'zimiz emas balki yaqin atrofdagilar uchun ham foydali va o'mak vazifani o'tashligi lozim hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. Toshkent 2019.
2. O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksi. Toshkent 2017.
3. Inson huquqlari umumjahon Deklaratsiyasi. Toshkent 2018.
4. Hayot Faolliiyati Xavfsizligi. H.E.G'oyipov. Toshkent 2007.
5. Lex.uz

¹² O'zbekiston Respublikasi Mehnat Kodeksi. 211-modda.

¹³ O'zbekiston Respublikasi Mehnat Kodeksi. 222-modda.

¹⁴ Inson huquqlari Umumjahon Deklaratsiyasi. 23-modda. 1-band

ИНСОН КАПИТАЛИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ ЯНИГИ БОСҚИЧДА: КАСБИЙ СОҒЛИҚНИ ТАЪМИНЛАШДА САНИТАРИЯ ХИЗМАТИНИ САМАРАЛИ ТАШКИЛ ЭТИШНИНГ ЗАМОНАВИЙ ЙЎНАЛИШЛАРИ

А.Зикриёев Тошкент архитектура-қурилиш институти таянч докторанти

(2021-2025 йилларга мўлжалланган БМТ таркибидаги Санитария ва гигиена жамғармаси стратегияси мисолида)

17 ноябрь 2020 йил Женевада бутун дунё аҳолисини hozirgi кун санитария ва гигиена муаммоларини ижобий ҳал этиш ва ушбу соҳани кескин ислоҳ қилиш мақсадида БМТ таркибидаги Санитария ва гигиена жамғармаси ташкил этилди. Мазкур муаммолар албатта, мамлакатимиз қурилиш ташкилотлари фаолиятида ҳам учраб тургани иш жойларида турли ижтимоий масалаларни қайта кўриб чиқиш лозимлигини такозо этмоқда. Одатда, доим эътибордан ташқарида қоладиган санитария масалалари халқаро амалиёт ва хорижий тажрибалар асосида ўрганиб чиқилиб шунингдек, Буюк Британиянинг Skanska, Bovis, Kier-Group, Coniston Construction, Ibex Interiors ва OD Projects қурилиш компанияларидаги шахсий тажрибаларим мисолида шунини таъкидлашим мумкинки, иш жойларида мазкур хизматни такомиллаштириш иқтисодий зарарлар ва йўқотишларнинг тежалишини кафолатлайди. Энди бир қатор манбалар асосида санитария сўзининг изоҳига эътибор қаратсак:

Иш жойларида санитария иборасига турлича изоҳлар

№	Манба	Изоҳ	Йил
1	БМТ Инсонларнинг санитарияга оид ҳуқуқлари	Ҳар бир инсоннинг шахсий ҳаёти ва қадр-қимматини таъминлайдиган, жисмонан соғлом ва хавфсиз бўлиши, ижтимоий ва маданий жиҳатдан мақбул бўлган хизматлар	2015
2	Барқарор ривожланиш мақсадлари (SDG)	Қашшоқликни тугатиш, атроф-муҳитни муҳофаза қилиш ва умумий фаровонликка бирга эришишни таъминлашдан иборат. Унга кўра олтинчи мақсад ҳисобланган тоза сув ва санитария ҳамда учунчи мақсад саломатлик ва фаровонликни таъминлаш айниқса санитария муносабатларини ривожлантириш	2015
3	Бутунжаҳон соғлиқни сақлаш ташкилоти	Инсонлар иш жойи ва ташқарисида ҳожатхона чиқиндиларини хавфсиз бошқариш, саклаш, йўқотиш, тозалаш ва ташландиқ жойларда эса уларни зарарсизлантириш каби хизматлар тизими ¹⁵	2019
4	Бутунжаҳон соғлиқни сақлаш ташкилоти	Инсонларнинг ўзлари учун гигиеник ва соғлом атроф муҳитни шакллантиришларида касаллик кўзгатувчиларнинг тарқалишининг олдини олиш ва қарши курашиш учун талаб ва таъсир қилиши жараёнидир	2019

¹⁵ <https://www.who.int/topics/sanitation/en/>

5	Габович Р. Д Большая медицинская энциклопедия	Турли хил касалликлар профилактикаси ва инсонлар соғлиғи ҳимоясини таъминлаш тизими бўлиб гигиена мъёрлари амалиётини қўллаш орқали инсонларни тарбиялаш, ўқитиш, меҳнат қилиш ва овқатланиш жараёнида хавфсизликни кучайтириш ¹⁶	2019
	Тиббиёт ва саломатлик энциклопедия	Ишчи-ходимлар томонидан иссиқ иқлим шароитида ташқи муҳитни зарарли омиллардан муҳофаза қилиш, ташқи муҳитнинг ифлосланиш даражасини олдиндан башорат этиш, корхоналарда меҳнат шароити ҳамда режимини яхшилаш, касалликларни камайтириш ¹⁷	2019
6	Кембридж лугати	Тоza ва соғлиқ учун хавфли бўлмаган ёки асосан, инсон чиқиндиларидан ифлосланишнинг олдини олиш орқали инсон соғлиғини ҳимоя қилиш ¹⁸	2019
7	dictionary.com	Соғлиқни сақлаш ёки соғлиққа таъсир қиладиган шароитлар, айниқса тозалик, касалликка қарши эҳтиёт чоралари ¹⁹	2019
8	Коллинс лугати	Канализация ва тоza сув таъминоти билан боғлиқ нарсаларни тоza ва озода сақлаш ²⁰	2019
9	Оксфорд лугати	Тоza ичимлик сувига оид жамоатчилик соғлиғининг ҳолати бўлиб инсон чиқиндиси, ахлати ва сувларидан қутилиш, етарли даражада тоza сақланиш ²¹	2019
10	ДонНТУ Производстве нная санитария и гигиена труда	Меҳнат шароитларининг саноатда банд бўлган ишчи-ходимларнинг соғлиғига зарарли таъсирлар олдини олишга қаратилган амалий тадбирлар тизимидир	Донецк 2016 4 - 220 бет
11	Т.Ф. Михнюк Охрана труда	Касбий касалликлар хавфини камайтириш учун зарарли ишлаб чиқариш омилларининг ишчи-ходимларга нисбатан таъсирини олдини оладиган ёки камайтирадиган ташкилий чоралар, техник усуллардир	Минск 2006 109- 358 бет

Қурилиш саноатида санитария муаммоларини ҳал этиш йўналишлари қуйидагилардан иборат:

1. Тоza ичимлик сувини ташкил этиш имкониятларини яхшилаш;
2. Ҳожатхонадан тартибли фойдаланиш ва ахлатни тўғри йўқ қилиш;

¹⁶ <https://dic.academic.ru/dic.nsf/ruwiki/1331946>

¹⁷ <https://medlifa.uz/encyclopedia/s/sanitariya/>

¹⁸ <https://dictionary.cambridge.org/dictionary/english/sanitary>

¹⁹ <https://www.dictionary.com/browse/sanitary>


²⁰ <https://www.collinsdictionary.com/dictionary/english/sanitary>

²¹ <https://www.oxfordlearnersdictionaries.com/definition/english/sanitary?q=sanitary>

3. Касбий эмлаш олиш;
4. Ичимлик сувидан самарали фойдаланиш ва овқатни тўғри тайёрлаш;
5. Озиқ-овқат ва ичимлик сувни тоза сақлаш²²;
6. Овқатланиш олдидан қўлларини мунтазам ювиш;
7. Қадокланмаган сут, қаймоқ ва музқаймоқ истеъмол қилмаслик;
8. Ювилмаган мева ва сабзавотлар истеъмол қилмаслик;
9. Ифлосланган қўлни махсус совун ёки воситалар ёрдами ювиш;
10. Объектларда туриб қолган сувларни тўғридан-тўғри қочириш (аввал сувни тозалаш керак)²³;
11. Билим ва қўникмаларни мунтазам равишда ошириб бориш.

Қурилиш объектларида аёллар учун алоҳида хожатхона ва ювиниш хоналарини ташкил этиш аксарият қурилиш майдонларида долзарблигича қолмоқда. Бу эса ишчи-ходимларга қанчалик ноқулайлик келтириб чиқармоқда ва бир инсоннинг ижтимоий чегараси бузилишига ёки бузиб ўтилишига олиб келмоқда. Бу ишчилар ижтимоий хавфсизлик, кадр-қиммат, ҳурмат ва эъзоз паймол бўлишига олиб келади, натижада 2 жинслилар ўртасида физиологик шароитга оид алоҳида эътибор ва ҳурматга оид фаркли муносабатлар чегараси йўқ бўлиб боришига олиб келади. Хусусан, мазкур муаммолар жамиятда қанчалик ижтимоий ўзгариш (бузилиш) ва йўқотишларга, бунинг оқибатидаги иқтисодий зарарларга ҳам сабаб бўлади. Мазкур масалалар Санитария ва гигиена жамғармаси стратегиясининг энг асосий йўналишларидан ҳисобланади.

Шу нуқтан-назардан биз тадқиқот ишимизда айнан, ушбу соҳага кенгрок эътибор қаратган ҳолда қурилиш объектларида уни қандай тартибда самарали ташкил этиш режасини ишлаб чиқдик.



Манба: муаллиф ишланмаси

Мазкур режани қисқача тарзда изоҳлаб шундай хулоса қилиш мумкинки, қурилиш объектларида санитарияга оид хавфсизлик белгиларини жорий этиш ва

²²Water, Sanitation and Health. WHO, 2005? [web document]. Available on the worldwide web: http://www.who.int/water_sanitation_health/en [cited 17.6.2005]

²³ Global dry inlet club of Finland Tampere Polytechnic University of Applied Sciences

²⁴ Guide to Sanitation and Hygiene for those working in developing countries Sari Huuhtanen Ari Laukkanen, page 20 Tampere 2006 ISBN 952-5264-49-1.

мавжуд хавф-хатардан мунтазам етарли даражада огохлантириш, ногирон ва аёллар хожатхоналарини ўрнатиш, овқат тайёрлаш ва уни истеъмол қилиш жараёнларини мунтазам назоратга олиш, овқатни қайта иситиш ва муз ҳолатидан қайта тушириш қондаларига риоя қилиш, музлатгичдан қоидага мувофиқ фойдаланиш, вақтинча дам олиш жойларида ис газининг мавжуд хавфини доимо ёдда тутиш, озик-овқат маҳсулотларини ёпиқ идишларда сақлаш, ошхона ва идиш-тавоқларни доимо озода сақлаш, ошхонани махсус кимёвий моддаар билан ювиб туриш ва ҳашаротлар ҳамда кемирувчиларга қарши дезинфекция қилиб туриш, барча ишчилар жумладан профессионал усталар ҳам ўз иш ҳудудларини ўзлари тозалашларини доимо эслатиш, кўлмак сувлар ва доимий тарзда тўпланиб қоладиган ахлатлар энг юқори хавф даражасига эга омил сифатида қаралиши зарур.

Бу каби кичик эътиборсизликларнинг олдини олишда ишчилар билимлари мунтазам ошириб бориш ҳамда санитария хизматини профессионал даражада ташкил этилш ҳисобига мамлакатимиз қурилиш ташкилотлари фаолиятида ижтимоий-иқтисодий самарадорликни ошириш мумкин. Акс ҳолда иш жойларида глобал даражадаги пандемия қайта содир бўлиш хавфи ортиб бораверади.

FAVQULODDA VAZIYATLARDA AHOLINI XABARDOR QILISHNING USULLARI

I.Ollaberganov, Xorazm viloyati FVB Hayot faoliyati xavfsizligi o'quv markazi o'qituvchisi

M.Atajanova Xorazm viloyati Favqulodda vaziyatlar boshqarmasi Hayot faoliyati xavfsizligi o'quv markazi o'qituvchisi.

Annatotsiya: Maqolada favqulodda vaziyatlarda aholini xabardor qilish usullari, shuningdek aholini va FVDT faoliyatida bo'yicha tadbirlarni tashkil qilish masalalari muhokama qilinadi. Aloqani tashkillashtirishdan oldindan e'tibor berish lozim bo'lgan jihatlarni ko'rib Chiqamiz.

Annotation: The article discusses the methods of public awareness in emergencies, as well as the organization of events on the activities of the population and FVDT. Let's look at the aspects that need to be considered before organizing communication.

Аннотация: В статье рассматриваются методы информирования населения при ЧС, а также организации мероприятий, посвященных деятельности населения и ГСЧС. Давайте разберемся с аспектами, которые необходимо учесть перед организацией общения.

Axborot oqimlarini boshqarish, aholi va hududlarni favqulodda vaziyatlardan himoya qilish sohasida tezkor axborot olish, qayta ishlash va ishonchli axborotni taqdim etish qobiliyati favqulodda vaziyatlarning prognozi va kelib chiqishi, favqulodda vaziyatlardan himoya qilish usullari va ularning xavfsizligini ta'minlash choralari to'g'risida aholini xabardor qilishda muhim omildir.

Favqulodda vaziyatlar vazirligini favqulodda vaziyatlar tahdidi va xavfini oldindan bartaraf etadigan, aholi hayoti va sog'ligiga xavf tug'ilganda o'z vaqtida va kompleks yordam ko'rsatishga qaratilgan faoliyat olib boradigan, uning har bir xodimi "O'z vaqtida ogohlantirish, qutqarish va yordam berish" shiori ostida xizmat qiladigan mobil, zamonaviy professional xizmatga aylantirish uchun katta e'tibor qaratilgan.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 8 avgustdagi 601-son "Favqulodda vaziyatlar xavfi yoki sodir bo'lganligi haqida O'zbekiston Respublikasi aholisiga xabar berish va ma'lumot (axborot) etkazishning avtomatlashtirilgan tizimini yaratish va rivojlantirish to'g'risida"gi Qarori bunga yaqqol misol.[1]

Favqulodda vaziyatlarda aholini ogohlantirishning asosiy usullaridan biri davlat yoki mahalliy axborot uzatish vositalari (televidenie, radio, internet) orqali og'zaki xabar berish hisoblanadi. Fuqaro muhofazasi xabar berish signallari va tegishli axborot butun hududga yoki favqulodda vaziyat xavfi tug'ilgan hududga berilishi mumkin. FVDTda radio, radiorele, simli va signal beruvchi aloqa vositali ishlatiladi.

Favqulodda vaziyatlar xavfi tug'ilganda xavf darajasini ko'rsatadigan uChta xabar berish rejimi belgilangan:

1. Kundalik faoliyat rejimi.
2. Yuqori tayyorgarlik rejimi.
3. Favqulodda vaziyat rejimi.

Kundalik faoliyat rejimida terminal kompleksidan ijtimoiy reklama, reklama-marketing va respublika aholisiga tegishli boshqa ijtimoiy muhim ma'lumotlar translyasiyasi uchun foydalanish mumkin.[3]

Bunda kundalik faoliyat rejimida reklama materiallari translyasiyasi terminal kompleksi ekranlarida efir vaqtining etmiş besh foizidan ortiq bo'lmagan hajmda amalga oshirilishi kerak. Qolgan vaqtda xabar berish va ma'lumot (axborot) etkazishning avtomatlashtirilgan tizimini aholiga tayyorgarlik va fuqaro muhofazasi borasida favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish, yong'in xavfsizligini ta'minlash va jamoat tartibini saqlash bo'yicha axborotlar translyasiyasi amalga oshiriladi.

Favqulodda vaziyat faoliyat rejimida reklama materiallari translyasiyasi terminal kompleksi ekranlarida efir vaqtining ellik foizidan ortiq bo'lmagan hajmda amalga oshirilishi kerak. Qolgan vaqtda xabar berish va ma'lumot (axborot) etkazishning avtomatlashtirilgan tizimi orqali sodir bo'lgan favqulodda vaziyatlarning oldini olish yoki ularning oqibatlarini kamaytirish bo'yicha aholini, kuch va vositalar harakatlari, boshqaruv organlari tavsiyalari, yuzaga kelayotgan vaziyat to'g'risida aholiga ma'lumot etkazish va tayyorgarlik bo'yiCha translyasiya amalga oshiriladi.

Shunday qilib, FV xavfi borligi yoki yuzaga kelishi va aholini xatti -xarakatlari xaqidagi axborotni to'g'ri, to'liq va o'z vaqtida etkazish xabar berish tizimining eng muhim vazifalari ekanligi bois boshqaruv punktlarini, xabar berish tizimining raqamli aloqa vositalar bilan jihozlash, yozilgan matnlarini SMS va boshqa tartibda eng oson va tezda etkazish usullari ham qo'llanilib kelinadi.[2]

Aloqa tizimi va xabar berish vositalarini doimiy tayyor holda saqlab turish, ularni takomillashtirish masalalari fuqaro muhofazasi rahbarlari va tuzilma e'tiborida bo'lishini taqazo etadi.

Asosiy vazifalar:

1. Statsionar va mobil aloqa tarmoqlari va shaxsiy tarkibini doimiy shayligini ta'minlash;

2. FVDT va boshqa tuzilmalar bilan xamkorlikda aloqani tashkillashtirish;

3. Favqulodda vaziyatlarni bartaraf etishga qaratilgan kuch va vositalarni boshqaruvi uchun sifatli va barqaror aloqani ta'minlash.

Aloqani tashkillashtirishdan oldin quyidagilarga e'tibor berish zarur:

1. Sodir bo'lgan favqulodda vaziyatlar turi, xududi (shaxar, qishloq, cho'l xududi, tog'li xudud);

2. Maxalliy telekommunikatsiya va uyali aloqa operatorlarining imkoniyatlari va qamrovi;

3. Favqulodda vaziyatlar sodir bo'lgan ob'ektning kuch va vositalarining aloqa vositalari bilan ta'minlanganligi;

Favqulodda vaziyatlar boshqarmasida xamkorlikda aloqani ta'minlash bu – FVBning FVDT, FM tuzilmalarining aloqa bo'yicha kuch va vositalarining favqulodda vaziyatlarni bartaraf etishga qaratilgan tadbirlarda aloqani ta'minlashda bajaradigan vazifalari, vaqti va muayyan joyda muvofiqlashgan xarakatiga aytiladi.

Favqulodda vaziyatlarda aholini ogohlantirishning asosiy usullaridan biri davlat yoki mahalliy axborot uzatish vositalari (televidenie, radio, internet) orqali og'zaki xabar berish hisoblanar ekan, bu usullar qamrab ololmaydigan hududlarda qanday aloqani ta'minlaymiz degan savol tug'uladi.

Tog'li hududlarda mahalliy telekommunikatsiya va uyali aloqa Chegaralangan bo'lgani sababli, ushbu hududga favqulodda vaziyatlar ko'lamiga qarab qisqa to'lqinda ishlovchi radiostansiyalardan foydalanish samara beradi. Mazkur xududda qidiruv qutqaruv ishlarni amalga oshirishda qutqaruvchilar zaxira elektr manbaisi yoki akkumulyator batareyalari mavjud ranetsli QT(Qisqa to'lqinlar, Chastota, 3000-30000kGs, to'lqin uzunligi 100-10m) radiostansiya boshqaruv shtabi bilan aloqani ta'minlash uChun va portativ UQT(Ultra qisqa to'lqinlar, CHastota, 30000kGs dan ortiq. To'lqin uzunligi 10m dan qisqa) radiostansiyalar (qidiruv qutqaruv joyida boshqaruvinu amalga oshirish uchun) bilan ta'minlangan bo'lishi zarur.

Qishning sovuq kunlarida aloqa tizimini tashkil etishda bir qator qiyinchiliklar keltiradi, ya'ni muzlagan yerga machta qurilmalarini qotirishga qoziqlarni qoqish, antennalarni sovuqda yoyish kabi muammolar mavjud.

Ionosfera va geomagnit faollashuvi radioto'lqinlarni tarqalishiga jiddiy ta'sir etadi. Qisqa to'lqinli aloqa umuman yo'qolishiga olib keladi. Faqat yaxshi tanlangan joyda UQT retranslyatorlarni o'rnatilishi bilan radioaloqani imkoniyatini kengaytirish mumkin.

Shuni bilish kerakki antenna-machta qurilmalarini mustaxkam qotirib to'satdan bo'ladigan kuchli shamollardan muxofaza qilish zarur.

Tunellarda va metroda qisqa to'qinli radioaloqa ishlamaydi. UQT radioaloqasi imkoniyati tonnel ichida temir-beton karkas radioto'lqinlarni ektanlashtirganligi sababli Chegaralangan. Faqat 100-200 metrga joylashtirilgan, UQT portativ aloqa vositasi bilan ta'minlangan shaxsiy tarkib orqali amalga oshiriladi.

Shahar hududida mahalliy telekommunikatsiya tizimi rivojlanganligi sababli, simli aloqani tashkil etish qulaydir. Tezkor tadbirlarni bajarish maqsadida shaharning

o'rtta qismiga UQT retranslyator o'rnatilishi shahar hududi (20-30 radiusda) bo'ylab radioaloqani ta'minlaydi. Ushbu retranslyatorlarni har bir hududda qaysi binoga yoki ob'ektga o'rnatilishi oldindan rejalashtirilgan bo'lishi zarur.

Xulosa

Favqulodda vaziyatlar tahdidi va xavfi to'g'risida o'z vaqtida xabar berish aholini hayoti va sog'ligi saqlab qolishda muhim o'rin tutadi. Xabar berish tizimi fuqaro muhofazasi tadbirlarini turli sharoitlarda hal qilishda fuqaro muhofazasi kuch va vositalarini boshqarishning asosi hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 8 avgustdagi 601-son Qarori.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 2 iyundagi PQ-3029-sonli Qarori
3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020 yil 26 avgustdagi 515-qarori.

AMALIY FANLARNI O'QITISH JARAYONIGA ILG'OR PEDAGOGIK TEKNOLOGIYALARNI TANLASH.

Akramov X.M.-NamDU, Texnologik ta'lim kafedrasida dotsenti.
Matkarimov A.-NamDU, Texnologik ta'lim kafedrasida katta o'qituvchisi.
Tursinaliyeva N.X.- NamDU, Texnologik ta'lim, 1-kurs talabasi.

Hozirgi vaqtda pedagogik texnologiya "ta'lim berishning texnik vositalari yoki kompyuterdan foydalanish sohasidagi tadqiqotlardek qaralmay, balki bu ta'limiy samaradorlikni oshiruvchi omillarni tahlil qilish yo'li orqali, yo'l va materiallarni tuzish hamda qo'llash orqali, shuningdek qo'llanilayotgan usullarni baholash orqali ta'lim jarayoni printsiplarini aniqlash va eng maqbul yo'llarini ishlab chiqish maqsadidagi tadqiqotdir"

Albatta siz tanishishingiz zarur bo'lgan qoidalar, shu zahoti sizga tushuntirish bermaydi, faqat ko'zlanayotgan maqbul va samarali natijaga erishish uchun nima ish qilish zarurligini ko'rsatadi.

Har bir yo'l va vosita o'qituvchi tomonidan, u intilayotgan, yakuniy natijaga erishishga ko'rinarli qo'shgan hissasi tomoni bilan baholanishi zarur.

Gap shundaki qoidalar odatda, formula emas, boshqaruv xususiyatiga ega bo'ladi, modomiki ularni qo'llash mumkin bo'lgan, ta'lim jarayoni sharoitida ayrim noaniqliklar bor. Bundan tashqari, avvalda shu narsani o'quv vaziyatida qo'llab, muvaffaqiyatga erishgan o'qituvchi-amaliyotchi yoki hammaga ma'lum bo'lgan ta'lim berish texnologiyasining muallifida, shuni qoidasiz umumlashtirishdagi xatoliklar tarqalgan. Mohiyat shundaki, barcha turli-tumanlikdan mavjud sharoitda va o'quv rejasida berilgan vaqtda ko'zlanayotgan natijaga erishishni kafolatli ta'minlaydigan, so'ngra esa undan shu sharoit uchun mos keladigan, ta'lim berish texnologiyasining - yagona majmuini loyihalashtirish mumkin bo'ladigan, axborot, muloqot va boshqaruvning shunday yo'l va vositalarini baholashi, farqlashi va tanlashni uddalashi muhim.

Mashhur marketolog Dj. O.SHonessining «...*kitoblar hech qachon tajriba o'rnini bosa olmaydi* degan fikriga qo'shilish mumkin. Mahoratli oshpaz oshpazlik to'g'risida

kitob yozishi mumkin, uni tayyorlash yo'liga amal qilib, xuddi shunday chiqishini kutmaslik kerak, chunki uning mahorati bilan taqqoslab bo'lmaydi - berilgan qoidani ishlatib muhim ko'nikma va malakalar ega bo'lish mumkin emas, ular faqat amaliyotda egallanadi va "Qo'llaniladigan donishmandlik" deb ataluvchi amaliyotli donishmandlik bilan mustahkamlanadi, ya'ni vaziyat bilan muvofiqlikdagi donishmandlik» (Dj. O'SHnessi, 2000).

Ta'lim berish usuli, ta'limiy maqsadni amalga oshirish bo'yicha ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchi bilan hamkorlik faoliyatining murakkab jarayonining asosi hisoblanadi. Usullar: ushbu ta'lim berish davridan chiqqanda ta'lim oluvchi bilishi, udallashi va qadrlashi lozim bo'lgan ko'zlanayotgan natijalarga erishishni ta'minlaydi.

Usullarning tanlashni asosiy qoidasi → turlicha emas ta'lim berish maqsadiga mos kelishi
Usullarga qo'yiladigan asosiy talab → natija beradigan, faqat bittasini qo'llash.
Usulning asosiy natijaviyligining mezonlari → belgilangan vazifani hal etish uchun uni qo'llashning mosligi va tejamliligini.
Ta'lim texnologiyasini loyihalashda usulni ongli tanlash, ularni har birining imkoniyatlarini ko'ra bilish kerak

Usulni tanlab, o'qituvchi o'ziga savol berishni boshlaydi:

→ Usulni qo'llashdan so'ng natijalar qaysi sohalarida: Bilimlar sohasidami? Ko'nikmalardami? Malakalardami? Yoki ko'rsatmada ko'p bo'ladi.

→ Keyingi savol ta'lim berishning bajariladigan ishlar tartibiga taalluqli: "Talabalarning faolligi (tashabbus) qanday bo'lishi kerak?"

Ta'lim usullarining natijaviyligini qaysi mezonlar aniqlaydi?

Yaxshi yoki yomon usullar mavjud emas. Usulning natijaviyligini bajarilgan yoki bajarilmagan vazifa bo'yicha xulosa chiqarish mumkin.

Qanday qilib, keng tarqalgan usullar, jumladan aqliy hujum yoki guruhli munozarani natijaviyligini o'quv mashg'ulotida yechiladigan topshiriqlar bilan bog'liqsiz, yoki aniq amaliy vaziyatni tahlil qilish va yechish (keys-stadi) usulini natijaviyligini, ushbu usul qo'llanilayotgan o'quv mashg'ulotining maqsad va vazifalaridan uzilishda oldindan baholash mumkin.

Tajribalarning ko'rsatishicha, usulning **asosiy natijaviylik mezonlari** quyidagilar:

- belgilangan vazifalarni hal etish uchun uni qo'llashning mosligi va iqtisodiyliigi;
- uni qo'llashda soddalik va osonlik;
- nafaqat eng yaxshi natijalarni ta'minlashi, balki ularga erishishning yuqori ishonchligini ta'minlay olishi.

Faol ta'lim berish usuli - ta'lim oluvchilarning bilim faoliyatlarini rag'batlantiruvchi usuldir. U yoki boshqa muammoni yechish to'g'risidagi fikrlarni erkin almashinuvini nazarda tutuvchi suhbat asosida quriladi.

Eng ko'p tarqalgan va xususiyatga ega bo'lgan ta'lim usullari quyidagilar hisoblanadi: *suhbat, bahs, o'yin, keys-stadi, loyihalar usuli, muammoli usul, aqliy hujum va boshqalar hisoblanadi.*

Interfaol (Interactive) - suhbatli. **Interfaol** ta'lim berish - suhbatli ta'lim berish, bunda ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchi, ta'lim oluvchi va kompyuterning o'zaro harakati amalga oshiriladi.

Interfaollik daraja qancha yuqori bo'lsa, ta'lim berish jarayoni shuncha natijali bo'ladi.

Ta'lim usullarini ta'limiy maqsadlarga erishish bo'yicha ta'lim beruvchi (o'rgatish) va ta'lim oluvchini (o'rganish) hamkoriy faoliyatini yo'li sifatida ko'rsatish ular xususiyati va o'quv faoliyatini natijalari bo'yicha quyidagicha guruhlashtirish imkonini beradi:

1 - guruh: tayyor o'zlashtiruvchilik o'quv faoliyati va ta'lim oluvchilarga bilimlarni 1 - darajada o'zlashtirishni ta'minlovchi, usullar;

2 - guruh: esda qolganlarni tasvirlovchi o'quv faoliyati va ta'lim oluvchilarga bilim va ko'nikmalarni 2 - darajada o'zlashtirishni ta'minlovchi, usullar;

3 - guruh: muhokama qiluvchi, qisman-izlanuvchilik o'quv faoliyati va ta'lim oluvchilarga bilim va ko'nikmalarni 3 - darajada o'zlashtirishni ta'minlovchi, usullar;

4 - guruh: mustaqil izlanuvchilik faoliyati hamda 4 - darajada bilimlarni o'zlashtirishni ta'minlovchi, usullar.

Ta'lim berish usullarini tanlash va qo'llashda ko'pgina quyidagi didaktik omillarni e'tiborga olish muhim:

➤ *Maqsadni belgilash:* 1) ta'lim berish maqsadi, 2) pedagogik vazifalar, 3) o'quv faoliyat natijalari.

➤ *O'quv axborot mazmuni hajmi va murakkabligi:* maqsad va ushbu o'quv fanini xususiyati, shu tariqa bu fanni shunchalik murakkab deb qabul qilingan.

➤ *Ta'lim berish usullarini o'quv axborotini egallashlariga ta'siri.* G. Mayerga muvofiq, 72 soatdan (uch sutkadan) o'tganda, ma'lumotni eshitish orqali qabul qilgandan so'ng tinglovchi xotirasida 10 %; ko'rish orqali (ko'rganda) - 20%; ko'rib va eshitish orqali (ko'rganda va eshitganda) - 50%; ko'rib va eshitish orqali qabul qilish va munozarada - 70%; ko'rib va eshitish orqali qabul qilish va munozarada, amaliy imkoniyatlarni qo'llanilganda -90% axborot qoladi.

➤ *Ta'lim oluvchilarni o'quv imkoniyatlari:* tayyorgarlik darajasi, umumo'quv malakalarni shakllanganligi, faolligi, qiziqishi va yo'naltirilganligi, yoshi, ishlash qobiliyati, o'ziga xos imkoniyatlari va qobiliyatlari.

➤ *Vaqt sarfi:* 1) o'quv dasturida yil davomida o'quv faniga, uning alohida mavzulariga ajratilgan vaqt, shunchalik cheklangan bo'lishi mumkinki, bu esa ko'p vaqt oladigan usullarni maqsadga muvofiqroq joylarda qo'llash imkonini beradi; 2) vaqt u yoki boshqa usulni tayyorlash va amalga oshirishda mehnat sarfini ketish nuqtai nazaridan muhim omil hisoblanadi. SHu bois, bunday usullarni qo'llashni rejalashtirishda, o'zidan ushbu tashkillashtirish yo'lini amalga oshirishga zarur tayyorgarlikka vaqt va kuch yetarli bo'ladimi? deb so'rash kerak.

➤ *Ta'lim berish sharoiti:* ba'zi usullarni amalga oshirish uchun alohida sharoitlar talab etiladi: ta'lim berishning texnik vositalari, kompyuter, maxsus kompyuter dasturlari, magnitli yozuv taxtasi, maxsus jihozlangan xona va boshq.


➤ *Ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchi o'rtasidagi, jamoadagi o'zaro munosabatlarning xususiyatlari* (hamkorlik yoki so'zsiz bo'ysunishli).

➤ *Ta'lim oluvchilar soni:* agarda u katta bo'lmasa, ta'lim berishni faol ta'lim usullarni qo'llab, jadallashtirish mumkin.

➤ *Ta'lim beruvchining chuqur bilimdonligi va shaxsiy sifatlari:* ma'qul deb topilgan usullarni qo'llashni bilishi va uddalashi, talablarga mos shaxsiy sifatlarga ega bo'lishi lozim.

Ta'lim usullarini tasniflash

(Ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchilar hamkoriy faoliyatini tashkillashtirish yo'li va o'quv faoliyati natijalari asosida)



Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Azizxodjaeva N.N. Pedagogik texnologiyalar i pedagogik mahorat - T.: TDPU, "Nizomiy", 2003.
2. Bekmurodov A.SH, Golish L.V, Pulatov M.E, Xajieva K.N. Proektnaya texnologiya obecheniya v vuze: Metodicheskoe posobie. - T.: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, 2009.
3. Yepisheva O.B. Osnovnyye parametri texnologii obucheniya. //SHkolnyye texnologii -2004.- № 4.
4. Farberman B.L. Peredovyye pedagogicheskie texnologii. T.: FAN, 2000.

O'ZBEKISTONDA ZARARLI CHIGIRTKALARGA QARSHI KURASH ISHLARINI YANADA TAKOMILLASHTIRISH

I.Palvanov Xorazm viloyati Favqulodda vaziyatlar boshqarmasi Hayot faoliyati xavfsizligi o'quv markazi boshlig'i

I.Ollaberganov Xorazm viloyati Favqulodda vaziyatlar boshqarmasi Hayot faoliyati xavfsizligi o'quv markazi o'qituvchisi.

Annotatsiya: Maqolada chigirtkalarga qarshi kurashda geoinformatsion axborot texnologiyalardan (GAT) hamda chigirtkalarning tabiiy kushandalaridan foydalanish imkoniyatlari tahlil qilingan. Chigirtkalarga qarshi kurashda ularning tabiiy kushandalaridan foydalanishda geoinformatsion texnologiyalarning o'rni va ahamiyati muhokama etilgan.

Аннотации: В статье анализируется возможность использования геoinформационных информационных технологий (ГИТ) и естественной борьбы с саранчой в борьбе с саранчой. Обсуждалась роль и значение геoinформационных технологий в использовании их естественных соседей в борьбе с саранчой.

Annotation: The article analyzes the possibilities of using geoinformation information technologies (GIT) and natural locust control in locust control. The role and importance of geoinformation technologies in the use of their natural neighbors in the fight against locusts was discussed.

O'zbekistonda chigirtkalar azaldan qishloq xo'jalik ekinlariga katta talafot keltiruvchi hasharot hisoblangan. Ularning to'da hosil qilib rivojlanish xususiyatiga ega bo'lgan va son jihatidan kam, yakka holatda rivojlanadigan ya'ni, to'da hosil qilmaydigan chigirtka turlari mavjud. To'da hosil qiluvchi chigirtkalar millionlab gektar maydondagi qishloq ho'jalik ekinlari, yaylov va boshqa tabiiy o'simliklarga katta zarar keltiradi.

To'da hosil qiluvchi turlardan marokash (*Dociostaurus maroccanus Thunb.*), voha (*Calliptamus italicus L.*), osiyo (*Locusta migratoria L.*) chigirtkalari respublikamiz hududida keng tarqalgan. Ular respublikamizning katta hududlarida tog' va tog' oldi hududlarida keng tarqalgan. CHigirtkalar hammaxo'r zararkunanda bo'lib, deyarli barcha qishloq xo'jalik ekinlari bilan oziqlanadi.

To'da hosil qiluvchi chigirtkalarining yalpi ko'payishi har 8-12 yilda kuzatiladi. Respublikamizda 1986-2000 yillarda marokash chigirtkasi, 2000 - 2001 va 2012-2013 yillari osiyo chigirtkasining yalpi rivojlanib ko'payishi oqibatida ularga qarshi kurash olib borish uchun katta miqdorda davlat byudjeti xarajatlari sarf qilingan. CHigirtkalar ommaviy ko'paymagan sharoitda ham katta miqdorda zarar keltirishi mumkin. Xususan, O'zbekiston sharoitida qishloq xo'jalik ekinlarining 1m² maydonida 810 ta to'da hosil qiluvchi chigirtkalar to'plansa, ular hosildorlikni 3-5%ga kamaytirib yuboradi [1].

CHigirtkalarining yalpi rivojlanishi va ularning ekinzorlarga zarar keltirishi oqibatida, etishtirilayotgan hosilning barchasi nobud bo'lishi mumkinligi tarixda ko'p marta kuzatilgan.

CHigirtkalarga qarshi kurash ishlarini olib borish ancha murakab va ko'p mablag' talab qiladigan muammolardan biri hisoblanadi. Bu muammo nafaqat respublikamiz, Markaziy Osiyo, MDH davlatlari, balki boshqa davlatlar uchun ham dolzarb hisoblanadi.

Insonlar tomonidan chigirtkalarga qarshi kurash olib borish ishlari juda qadim zamonlardan boshlangan bo'lib, bu zararkunandaga qarshi kurash olib borish uchun, ular qo'lidan keladigan hamma usuldan foydalanishga harakat qilishgan va ushbu ishlarga katta kuch va mablag' sarflangan. Xususan, 1902 yilda Samarqand viloyatida birgina marokash chigirtkasiga qarshi 6 ming kishi safarbar qilinganligiga qaramasdan 100 ming gektar maydondagi turli xil madaniy o'simliklar zarar ko'rgan [1,3].

So'nggi yillarda bir qator antropogen omillar sababli, xususan, g'alla maydonlarining kengayishi hisobiga zararli chigirtkalar tarqalgan hududlarning ekinzorlarga yaqinlashishi kuzatilmogda. Bu esa chigirtkalarining har xil turdagi madaniy o'simliklarni zararlashi va katta talafot etkazishi uchun sharoit yaratmoqda.

Zararli chigirtkalarga qarshi o'tgan davr mobaynida ko'plab ishlar amalga oshirilgan bo'lib, ular asosan chigirtkalarga qarshi kimyoviy moddalarni qo'llashdan iborat bo'lgan.

Hozirgi kunda ham dunyoda zararli chigirtkalarga qarshi kurashda kimyoviy usullardan keng foydalaniladi [5]. Sobiq Ittifoq davrida 1947 yildan chigirtkalarga qarshi kurashda insonlar va issiqqonli jonzorlarga zaharli ta'sir ko'rsatuvchi 12%li geksaxlorsiklogeksandan (geksaxloran – GXSGdan) keng miqyosda foydalanish yo'lga qo'yilgan. Ushbu pestitsid katta yoshli kserofit asossatsiyada yashovchi chigirtkalarda atigi 20-50% gacha biologik samaradorlikka ega bo'lib, uning faqatgina kichik yoshdagi chigirtka lichinkalariga ta'sir etishi, atrof-muhitga va inson sog'ligiga salbiy ta'sir ko'rsatishi, tuproqda uzoq muddat saqlanib qolishi aniqlanilgan [6,7]. Keyinchalik 1982 yildan zararli chigirtkalarga qarshi kurashda ta'siri tez, sarf-me'yori kam bo'lgan piretiroed guruhiga mansub bo'lgan sumitsidin preparatidan foydalanila boshlangan [8,9]. Respublikamizda marokash, italiya va osiyo chigirtkalarining kimyoviy preparatlarga chidamliligi o'rganilib, bir qator zamonaviy preparatlar sinovdan o'tkazilgan, ulardan samarali bo'lganlari amaliyotda qo'llashga tavsiya etilgan.

Keyinchalik detsis, sumi-alfa, karate [10]. preparatlari qo'llanilgan. Kimyoviy moddalardan o'tgan asrning o'rtalarida kuzatilgani kabi minglab tonna miqdorda foydalanish tabiatda keng tarqalgan entomofaunaga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Kimyoviy moddalarning atrof muhitga sabiy ta'sirini kamaytirish uchun chigirtkalarga qarshi kurashning boshqa usullari, xususan, biologik usullardan foydalanish lozim.

CHigirtkalarining ko'payishi va ular keltirishi mumkin bo'lgan talafotlarni GAT yordamida ham o'rganish mumkin. Ma'lumki, chigirtkalarining ko'payishida, tuproqning tarkibi, bioekologik holat, ob-havo kabi bir qancha omillar muhim o'rin tutadi.

GAT orqali bunday ma'lumotlarni yig'ish va chigirtkalar rivojlanishiga ta'sir ko'rsatuvchi ushbu omillarni chigirtkalarining rivojlanishi bilan bog'lash chigirtkalar keltiradigan talafotlarning oldini olishda muhim o'rin tutishi mumkin.

Bir qator mualliflar tomonidan Xorazm viloyatining Urganch va Bog'ot tumanlari dalalarida g'o'za ko'sak qurtining tarqalishi, zichligi va shu kabi uning zarar keltirishini kuchaytiradigan omillar to'g'risidagi ma'lumotlar GPS navigatori yordamida aniqlanib, GAT bazasida o'rganilgan [11]. O'rganishlar natijasida g'o'za ko'sak qurti zarar keltirishi mumkin bo'lgan miqdor ushbu hudud tuprog'ining mexanik tarkibi va er osti suv sathi ko'rsatgichlari bilan o'zaro bog'likligi aniqlangan.

Ko'sak qurtiga qarshi kurashda GAT tizimidan foydalanish maqsadida ko'sak qurti tarqalishining er osti suvi sathi chuqurligi ko'rsatkichlari bilan taqqoslash xaritasi, ko'sak qurti tarqalishining er osti suvi mineralizatsiyasi ko'rsatkichlari bilan taqqoslash xaritasi, ko'sak qurti tarqalishining tuproq mexanik tarkibi ko'rsatkichlari bilan taqqoslash xaritalari ishlab chiqilgan [11]. Ushbu xaritalar yordamida ko'sak qurti tarqalishi mumkin bo'lgan hududlarni oldindan bashoratlash, binobarin ko'sak qurtiga qarshi kurash tadbirlarini oldindan belgilash choralari mavjud.

Teraklarning qandala bilan zararlanishi to'g'risidagi ma'lumotlar GAT xaritasi ma'lumotlari yordamida tahlil qilinganda tuproq sho'rlanishi yuqori bo'lgan hududlarda o'sayotgan terak daraxtlarining qandalar bilan zararlanishga moyilligi ortganligi aniqlangan. Ushbu tajribalar orqali manzarali daraxtlarning hasharotlar bilan zararlanish sabablarini GAT texnologiyasi yordamida monitoring qilish mumkin ekanligi va bu usulni ilmiy tadqiqot ishlarini olib borish va uning natijalarini asosan bevosita ishlab chiqarishga joriy qilish mumkin ekanligi aniqlangan [11].

Bugungi kunda GATdan mo'ylovdor qo'ng'iz, olma mevaxo'ri, termitlar va boshqa bir qator zararkunandalar tarqalgan hududlarni o'rganishda foydalanilmoqda.

O'zbekiston sharoitida marokash va italiya chigirtkalari hamda turon chigirtkasining ko'zachalaridagi tuxumlarida jujjal pashshasining tekin-xo'rlik qilishi ilmiy isbotlangan [12].

So'nggi yillarda chigirtkalarga qarshi kurashning ekologik jihatdan samarali usullaridan foydalanilmoqda, xususan, V.A. Minoranskiy [13]. tomonidan berilgan ma'lumotlarda bir qancha zararli chigirtkalarining ko'zachalarida tuxumlar bilan oziqlanuvchi malhamchi qo'ng'izlarining «triangulin» lichinkalaridan Mylabris turiga mansub *M. geminata* F., *M. oliveri* Billb., *M. variabilis* Pall., *M. quadrupunctata* L., *M. polymorpha* Pall., *M. atrata* Pall., *M. guatuordecimpunctata* Pall., *Alosimus syriacus* L., *A. Chalybaeus Tausch.* va boshqa turlar keltirilgan. SHuningdek

malhamchilardan eng ko'p osiyo chigirtkalarining tuxumlari bilan oziqlanuvchi qizilbosh shpanka *Epicauta erythrocephala* Pall. italiya, marokash, osiyo va qorayo'lli chigirtkalarining tuxumlarini xush ko'rib oziqlanuvchi jujgal pashshalaridan *Anastoechus nitidulus* Fabr., *Cytherea obscura* F., *C. pallasi* Lw. va boshqa turlari chigirtka lichinkalari bilan oziqlanuvchi sarkofag pashshalaridan *Blaesoxipha erythrura* Mg., *B. lineata* Fll., *B. filipjevi* Rohd. va kanallardan *Erythaeus phalangioides* Deg. kabi hasharotlar tabiatda chigirtkalarining sonini kamaytirishda beqiyos o'rin tutadi [14]. Adabiyotlardan ma'lumki, chigirtkalarni qushlarning 30 turkumiga mansub vakillari, shuningdek qushlardan tashqari kaltakesaklar, tulki, o'rgimchaklar, chayonlar, toshbaqalar va boshqa umurtqali-umurtqasiz jonivorlar ham ma'lum darajada kamaytirishi qayd qilingan [15]. Ma'lumotlarda chug'urchuqlarning *Pastor roseus* L. turi chigirtkalarining sonini eng ko'p kamaytiradigan qush hisoblanib Afg'oniston, Hindistondan aprel oyining boshlarida O'rta Osiyoga uchib keladi [16,17]. 1958 yilda Tojikiston Respublikasida marokash chigirtkasi I-II yosh lichinkalari kanallardan *Eutrombidium debilipes* Leonardi turi bilan, shuningdek *Parasarcophaga rotschinsk.* pashshasining lichinkalari bilan zararlanib jami 16% gacha kamayishi kuzatilgan.

2003 yilda Rossiya davlatining Rostov viloyatida italiya chigirtka-larining tuxum ko'zachalari qizilbosh shpanka, taxin va sarkofag pashshalari bilan 30% gacha zararlanganligi to'g'risida ma'lumotlar keltirilgan. A.V. Lachininskiy va b., [18] qayd etishlaricha, chigirtkalarni bir xujayrali parazit amyobalardan *Malamoeba locustae* sporalari ovqat hazm qilish organlariga salbiy ta'sir ko'rsatib, ularga zarar etkazsa, nematodalardan *Mermithidae* oilasining ayrim turlari o'z xo'jayin tanasida kun kechirishi natijasida 10% gacha chigirtkalarni zararlab nobud qiladi.

SHunday qilib, chigirtkalarga qarshi kurashda tabiiy kushandalardan foydalanish katta samara berishi mumkin. Bundan tashqari chigirtkalarga qarshi kurashda GATdan foydalanish ham chigirtkalarga qarshi kurashda muhim ahamiyatga ega. GAT yordamida chigirtkalarining ko'payishida muhim o'rin tutuvchi tuproq tarkibi, er osti suvlarining miqdori, suvning mineralizatsiyalashganlik darajasi kabi ma'lumotlarni, shu bilan bilan birga chigirtkalarining kushandalari mavjud bo'lgan hududlarni GAT tarkibida birlashtirish orqali chigirtkalarga qarshi kurashda katta natijalarga erishish mumkin deb hisoblaymiz.

Ushbu natijaga erishish uchun chigirtkalarining kushandalari tarqalgan hududlarni aniqlash, hududlardagi tabiiy kushandalar miqdori va tarkibini GAT tizimiga kiritish muhim ahamiyatga ega. CHigirtkalar ko'payishi mumkin bo'lgan hududlarda ularning tabiiy kushandalari uchun shart-sharoit yaratishning o'zi chigirtkalarga qarshi kurashda katta samara berishi mumkin. Buning uchun tabiiy kushandalar mavjud bo'lgan hududlar, ushbu kushandalar ko'payishiga sabab bo'luvchi omillar haqidagi ma'lumotlarni GAT bazasiga kiritish lozim bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Гаррагов Ф.А. Ситуация со вредными саранчовыми в Республике Узбекистан // *J. Защита растений.* – Москва, 2001. – №1. – С. 22-25.).
2. Иванов Е.Н., Спасский А. Вредные богатые саранчовые Средней Азии и меры борьбы с ними. – Tashkent, SAOGIZ, 1934. – С. 5-72.

3. Ivanov E.N. Вредные саранчовые и кузнечики в узбекистане и борбы с ними. – Tashkent, 1946. – 46 s.
4. Tavsiyanoma. - O'zbekiston hududlarida to'g'ri qanotlilar turkumiga kiruvchi zararli chigirtka va chigirtkasimonlarning rivojlanishi, yoppasiga ko'payish sabablari, zamonaviy kurash choralari / tuzuvchilar G'opporov F.A., Lachininskiy, A.V va b.; F.A. G'opporov tahriri ostida. – Toshkent: "ART LINE GROUP", O'zO'HQITI, 2008. - 76 b.
5. Xo'jaev SH.T. Entomologiya, qishloq xo'jalik ekinlarini himoya qilish va agrotoksikologiya asoslari. – Toshkent: «Fan», 2010. – 352 b.
6. Kurdyukov V.V., Gapparov F.A. Пути совершенствования мер борьбы с саранчовыми // Саранчовое - экология мер борьбы. – L., 1987. – S. 101-110.
7. Syrplenkov E.P. Инсектицид против борбы с вредными саранчовыми // Byull.VIZR. – 1975. - №33. –S. 11-14.
8. Xodjaev SH.T. i dr. Рекомендации по применению синтетических пиретроидов в борьбе с вредителями хлопчатника / Gosagroprom UzSSR, Tashkent, 1987. – 11 s.
9. Xaytмуратов А.Ф. Применение перспективных инсектицидов против саранчовика в научно обоснованных условиях в южном регионе Узбекистана.: Avtoref. diss... . kand. s.-x. nauk: 06.01.11. – Tashkent, 1998. – 23 s.
10. Chesnokov E.P. Врар саранчи - карате // Я. Защита растений. – Moskva, 2000 - №5. – S. 11.
11. A. A. Nurjanov va boshq. "Zararkunanda hasharotlarga qarshi kurashda geoaxborot tizimi texnologiyasidan foydalanish" Toshkent 2018y.
12. Zaxvatkin A.A. Паразиты кубышек вредных саранчовикс Средней Азии (NKZ SSSR i NKZ UzSSR Sredneaziatskiy in-t защиты rasteniy). – Tashkent, 1934a, - №23. – S. 141-146.
13. Minoranskiy V.A. Защита орошаемых полевых культур от вредителей. - М.: Агропромиздат., 1989. – 206 s.
14. Alimdjanov R.A. Саранчово-сверчковые насекомые. – Tashkent: FAN, 1972. – 129 s.
15. Bogdanov O. P. Экология пресмыкающегося Средней Азии.. – Tashkent: Nauka, 1965. - 127 s.
16. Gapparov F.A., Nurjanov A.A., Tuflijev N.X. O'zbekistonda zararli chigirtkalarni ekologik monitoringi va ularga qarshi kurash tizimini modernizatsiya qilish (oraligi) // Hisobot.- Toshkent, 2009. – B. 4-25.; 131.
17. Tokgaev T.B. Фауна и экология туркменского саранчовика. – Ashxabad: «Ылым», 1973. -219 s.
18. Lachininskiy A.V., Sergeev M.G., CHildebaev M.K., Lokvud Dj.A., Kambulin V.E., Gapparov F.A. Саранчовое Казахстан, Средня Азия и общие территории. – SSHA, Larami, 2002. – S. 9-346.

ФАКТОРЫ ВЛИЯЮЩИЕ НА ОБЕСПЕЧЕНИЕ ЭВАКУАЦИИ

А.А. Хожиев Ташкентский институт инженеров ирригации и механизации сельского хозяйства доцент Phd,

А.Ж Курбонов преподаватель Ташкентский институт инженеров ирригации и механизации сельского хозяйства

Аннотация: Эвакуация в чистом виде бывает крайне редко, она сочетается с другими способами защиты (укрытием в защитных сооружениях, использованием средств индивидуальной защиты и др.) Особо важное значение приобретает быстрота эвакуации, а следовательно использование всех видов, способов и принципов эвакуации.

Аннотасија: Evakuatsiya sof shaklda juda kam uchraydi, u boshqa himoya usullari bilan birlashtiriladi (himoya inshootlarida boshpana, shaxsiy himoya vositalaridan foydalanish va boshqalar) Evakuatsiya tezligi, shuning uchun barcha turlardan, usullardan va evakuatsiya tamoyillari alohida ahamiyatga ega.

Эвакуация – это наиболее эффективный способ защиты населения от ЧС техногенного и природного характера.

Эвакуация – как способ защиты населения человечеством используется давно: в древнем Египте и Риме проводились различные виды эвакуаций- как от ЧС природного, так и военного характера.[1]

Наиболее полно вопросы эвакуации планировались и проводились в I и II мировые войны, когда десятки миллионов человек эвакуировались на тысячи километров. В 60-х -80-х годах нашего столетия вновь остро встал вопрос об эвакуации, как об основном способе защиты населения крупных городов от угрозы уничтожения при применении современных средств поражения.

Практика последних десятилетий показала, что необходимость эвакуации населения из зон ЧС чрезвычайных ситуаций техногенного и природного характера не только не уменьшилась, но и увеличилась. Об этом красноречиво говорят трагедии Чернобыля, Шахимардана, Японии и др.ЧС.

Эвакуация – это комплекс мероприятий по организованному вывозу населения из опасной зоны в безопасную.[2]

Основной причиной несчастных случаев с людьми является недостаточная пропускная способность эвакуопутей.

1) Дверь должна открываться наружу. Но в некоторых случаях в проектах это не предусматривается;

2) Изменение плана постройки дома (евроремонт в многоэтажных домах).[1]

Эвакуационные пути: коридоры, холлы, лестницы, вестибюли, лестничные клетки, наружные пожарные лестницы и т.д. – должны обеспечивать безопасное передвижение людей от места возникновения пожара за пределы здания или в безопасное место. Они не должны загромождаться различными предметами. (Паркентский базар, Аския базар)

Выходы в безопасную зону являются эвакуационными, если они ведут из помещений:

- первого этажа наружу непосредственно или через коридор, ведущий на лестничную клетку;

• любого этажа, кроме первого, в коридор, ведущий на лестничную клетку, при этом лестничная клетка должна иметь выход наружу непосредственно или через вестибюль, отделенный от примыкающих коридоров перегородками с дверью.[4]

Потери населения в разрушившихся зданиях при землетрясениях, %

таблица 1

	Тип зданий	Вид потерь	Интенсивность землетрясения, (баллов)								
			«5»	«6»	«7»	«8»	«9»	«10»	«11»	«12»	
	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11	
	Деревянные малоэтажные	Общие.	3	6	14	22	50	70	90	100	
		Из них:									
		-смертельные	0	0	0	0	3	40	45	85	
		-санитарные	3	6	14	32	47	30	45	85	
		Из них:									
		-легкие	1,2	2,6	7	7	8	10	0	0	
	-средние	0,6	1,3	4	4,5	5	5	0	0		
	-тяжелые	1,2	2,1	4	20,5	34	15	45	15		
Кирпичные и каменные с несущими стенами и железобетонными перекрытиями:											
.1.	Малоэтажные	Общие.	4	9	23	40	55	78	93	100	
		Из них:									
		-	0	0	0	4	10	50	75	85	
		смертельные	4	9	23	36	45	28	18	15	
		-санитарные									
		из них:	2	2	8	8	10	9	0	0	
-легкие	1	3	9	7	8	6	0	0			
-средние	1	4	6	21	27	19	18	15			
-тяжелые											
.2.	Многоэтажные	Общие.	5	15	25	30	50	75	95	100	
		Из них:									
		-смертельные									
		-санитарные									
		из них:									
		-легкие									
-средние											
-тяжелые											
То же, с антисейсмической защитой:											
1.	Малоэтажные с расчетной балльностью:										
.1.1	7 баллов	Общие.	0	3	15	20	35	55	80	100	
		Из них:									
		-смертельные	0	0	0	15	20	40	60	80	
		-санитарные	0	3	15	5	15	15	20	20	
		из них:									
		-легкие	0	3	10	2	3	0	0	0	
-средние	0	0	5	3	7	5	3	0			
-тяжелые	0	0	0	0	5	10	17	20			
.1.2.	8 баллов	Общие.	0	2	10	16	30	50	70	90	
		Из них:									
		-смертельные	0	0	0	10	15	35	50	70	
-санитарные	0	2	10	6	15	15	20	20			

		из них: -легкие -средние -тяжелые	0 0 0	2 0 0	7 3 0	4 2 0	2 8 5	1 6 8	0 10 10	0 5 15
.1.3.	9 баллов	Общие. Из них: -смертельные -санитарные из них: -легкие -средние -тяжелые	0 0 0 0 0 0 0	0 0 0 0 0 0 0	3 0 3 3 0 0 0	15 0 15 10 5 0 0	20 15 5 2 2 0 0	35 20 15 3 3 0 5	55 40 15 0 0 0 10	80 60 20 0 0 0 17
2.	7 баллов	Многоэтажные с расчетной балльностью								
		Общие. Из них: -смертельные -санитарные из них: -легкие -средние -тяжелые	0 0 0 0 0 0 0	5 0 5 0 0 0 0	20 1 19 12 7 0 0	30 14 16 14 2 0 0	50 15 35 10 18 7 10	60 45 15 2 3 10 16	80 60 20 0 5 16 15	100 85 15 0 0 0 15
.2.2	8 баллов	Общие. Из них: -смертельные -санитарные из них: -легкие -средние -тяжелые	0 0 0 0 0 0 0	3 0 3 0 0 0 0	14 0 14 10 4 0 0	20 12 8 5 3 0 0	35 13 22 4 10 8 9	55 40 16 2 4 9 12	75 56 20 0 8 12 16	93 76 18 0 2 16 16
.2.3.	9 баллов	Общие. Из них: -смертельные -санитарные из них: -легкие -средние -тяжелые	0 0 0 0 0 0 0	0 0 0 0 0 0 0	5 0 5 12 7 0 0	20 1 19 14 2 0 0	30 14 16 14 2 0 0	50 15 35 10 18 7 10	60 45 15 2 3 10 15	80 60 20 0 5 15 15
	Бетонные или железобетонные крупноблочные	Общие. Из них: -смертельные -санитарные из них:	0 0 0 0	1,5 0 1,5 0	5 0 5 10	10 0 10 10	30 20 10 10	50 40 10 10	70 60 10 10	100 80 20 20
.1.	Малозэтажные	-легкие -средние -тяжелые	0 0 0	1 1,5 0	3 2 0	5 3 2	3 5 2	2 3 5	1 4 6	0 2 18
.2.	Многоэтажные	Общие. Из них: -смертельные -санитарные из них:	0 0 0 0	1,5 0 1,5 4	4 0 4 10	15 0 10 10	35 25 10 10	55 45 10 10	75 65 10 10	100 80 20 20

	-легкие	0	1	2	5	3	0	0	0
	-средние	0	0,5	2	3	3	4	3	2
	-тяжелые	0	0	0	2	4	6	7	18

Малозэтажные (до 4 этажей);

Многоэтажные (от 5 до 8 этажей);

Повышенной этажности (от 9 до 25 этажей), [1;2]

Коридор на этаже, где возник пожар, можно использовать для эвакуации, если будет открыта дверь из него на лестничную клетку.

Для эвакуации людей используются также пожарные лестницы.

Однако коридоры второго этажа и лестничная клетка в пределах 2-3 го этажей из-за высокой температуры для эвакуации малоприспособлены.

Другой способ эвакуации – с помощью пожарных. Для этого используются:

- штурмовые лестницы;
- автолестницы;
- веревки;
- пожарные лифты;
- «куб жизни» - устройство, позволяющее спасти жизнь человеку, выпрыгивающему с высоты четвертого этажа современного здания;
- Вертолеты [4]

Один из самых опасных факторов при пожаре – паника. Исследователи отмечают пять основных ситуаций, способствующих возникновению паники при эвакуации;

- *ограниченное количество эвакуационных путей и выходов;
- *неизбежность возникновения опасности, при которой единственным способом спасения является бегство;
- *выход из строя или блокировка путей эвакуации;
- *форсированное движение массы людей, не имеющих необходимой информации, к закрытому пути эвакуации;
- *неподготовленность объектов и непродуманность организационных мер администрацией на случай эвакуации при пожаре.

Для предотвращения паники необходимо:

- *исключить препятствия на пути эвакуации;
- *обеспечить аварийное освещение;
- *поддерживать контакт с эвакуируемыми;
- *обеспечить работу систем оповещения, указывающих порядок и пути эвакуации. [3]

В чистом виде эвакуация встречается редко. Она сочетается с другими видами защиты: индивидуальной и коллективной. Для индивидуальной защиты людей от отравляющих и радиоактивных веществ, а также от бактериальных средств предназначены противогазы различных типов (ГП- 5,

ГП-7. детские противогазы). Для населения используются ватно-марлевые повязки, респираторы. [1]

К коллективным средствам защиты относятся специально построенные или оборудованные убежища и укрытия (подвалы). В Ташкенте метрополитен стал самым излюбленным транспортом жителей и гостей города, но не каждый знает что по СНИПу метрополитен играет роль убежища. Поэтому несколько лет назад на станциях «Чилонзор». «Ташкент».

«Буюк Ипак йули» в переходах убрали магазинчики, а буквально в прошлом году кассы перенесли в переход, а вокруг метрополитена убрали магазины, киоски, остановки. Чтобы все эти преграды не мешали эвакуации.

Во всех случаях эвакуация населения является сложной задачей. Успешность её проведения определяется заблаговременной подготовкой эвакуационных органов, систем оповещения и связи, детальным планированием с учетом местных условий и особенностей. При угрозе и возникновении ЧС особо важное значение приобретает быстрота эвакуации. Особое значение имеет подготовка руководящего состава на всех уровнях ГСЧС. При проведении учений и тренировок по гражданской защите нужно обязательно практически обрабатывать отдельные элементы эвакуации населения.[4]

И так, эвакуационные мероприятия могут быть эффективным способом защиты людей, особенно в чрезвычайных ситуациях мирного времени, если они заблаговременно спланированы, подготовлены и доведены до населения.

Локальная эвакуация проводится в том случае, если зона возможного воздействия поражающих факторов источника ЧС ограничена пределами отдельных городских микрорайонов или сельских населенных пунктов, при этом численность эвакуируемого населения не превышает нескольких тысяч человек. В этом случае эвакуируемое население размещается, как правило, в примыкающих к зоне ЧС населенных пунктах или не пострадавших районах города (вне зон действия поражающих факторов источника ЧС).[1]

Местная эвакуация проводится в том случае, если в зону ЧС попадают средние города, отдельные районы крупных городов, сельские районы. При этом численность эвакуируемого населения может составлять от нескольких тысяч до десятков тысяч человек, которые размещаются, как правило, в безопасных районах смежных с зоной ЧС.

Региональная эвакуация осуществляется при условии распространения воздействия поражающих факторов на значительные площади, охватывающие территории одного или нескольких регионов с высокой плотностью населения, включающие крупные города. При проведении региональной эвакуации вывозимое (выводимое) из зоны ЧС население может быть эвакуировано на значительные расстояния от постоянного места проживания.[2]

В зависимости от охвата эвакуационными мероприятиями населения, оказавшегося в зоне ЧС, эвакуация бывает:

- 1.Общая.
2. Частичная

Общая эвакуация предполагает вывоз (вывод) всех категорий населения из зоны ЧС.

Частичная эвакуация осуществляется при необходимости вывода из зоны ЧС нетрудоспособного населения, детей школьного возраста, учащихся школ, ПТУ.[1]

Основанием для принятия решения на проведение эвакуации является наличие угрозы жизни и здоровью людей.

Право принятия решения на проведение эвакуации принадлежит руководителям (начальникам ГЗ) органов исполнительной власти, органов местного самоуправления, на территории которых возникла или прогнозируется ЧС.[4]

Планы обеспечения эвакуации населения разрабатываются соответствующими постоянно действующими органами управления.

Эвакуация населения планируется, организуется и осуществляется по территории **альному, производственному, производственно-территориальному принципам.**

Территориальный принцип предполагает вывоз остального населения, не занятого в производстве и сфере обслуживания - по месту жительства через махаллинские комитеты, жилищно-эксплуатационные органы.

В определенных случаях эвакуация может осуществляться по территориальному принципу, т.е. непосредственно из мест нахождения населения на момент объявления эвакуации.

При производственном принципе эвакуация осуществляется по предприятиям, учреждениям, организациям без семей, это в первую очередь относится к наиболее важным объектам, детским учреждениям и др. организациям.[1]

При землетрясении:

Эвакуация может носить либо местный, либо региональный характер. Сроки проведения эвакуации определяются дорожно-транспортными возможностями. Эвакуация осуществляется по производственно-территориальному принципу в один этап с развертыванием СЭП в пострадавших районах.

При радиоактивном заражении:

Эвакуация может быть либо местной, либо региональной; осуществляется по территориальному принципу, за исключением отдельных объектов (детдома, психоневрологические медицинские учреждения, интернаты и т.п.). Эвакуация проводится в 2 этапа: I - от мест посадки на транспорт до ППЭ, II - от ППЭ до мест спланированного размещения. На ППЭ производится пересадка на "чистый" транспорт.

При химическом заражении:

Население, проживающее в непосредственной близости от ХОО (из-за дефицита времени), как правило, из опасной зоны не выводится, а укрывается в убежищах и помещениях (с их герметизацией и использованием СИЗОД). Эвакуация остального населения проводится в самые сжатые сроки в основном пешим порядком в зависимости от реально складывающейся обстановки.[1;2]

Эвакуация из селеопасных районов:

Может проводиться при угрозе формирования селевого потока, в период его формирования, а в особых случаях и по прекращению действия селевого потока.[3]

Наиболее целесообразно проводить эвакуацию заблаговременно, а при формировании селевого потока - проводится экстренная (безотлагательная) эвакуация. Экстренность эвакуации определяется прогнозом времени добегания селевой волны до защищаемого объекта, как правило, до 4-х часовой зоны, а далее - по мере возникновения реальной угрозы. Эвакуация носит локальный или местный характер, проводится в 2 этапа, без развертывания СЭП в районе селевого потока, а далее - через СЭП в запланированные районы (при разрушении селом покинутых домов и населенных пунктов).

Оповещение ведется заблаговременно (по прогнозу), либо при прохождении головы селя через сигнальный створ (при экстренной эвакуации).[1]

Эвакуация из лавиноопасных районов:

Проводится при угрозе схода снежных лавин, а также по прекращению их схода (в случае разрушения объектов жизнеобеспечения). Эвакуация организуется по территориальному принципу в один этап, носит локальный характер и должна быть упреждающей, а при невозможности - экстренная.

При катастрофическом затоплении и наводнении:

Эвакуация проводится при угрозе или в случае разрушения ГТС или при повышении уровня воды в водоемах (в паводок), а также в случае разрушения водой объектов и систем жизнеобеспечения. Эвакуация носит локальный или местный характер, при упреждающей (заблаговременной) эвакуации развертывается СЭП (при производственно-территориальном принципе). При небольшом периоде упреждения эвакуация проводится по территориальному принципу в 1 или 2 этапа (с развертыванием ППЭ).[4]

Во всех случаях эвакуация населения является сложной задачей. Успешность ее проведения определяется заблаговременной подготовкой эвакуационных органов, систем оповещения и связи, детальным планированием с учетом местных условий и особенностей, заблаговременной подготовкой сил и средств, тщательной проработкой всех мероприятий по обеспечению эвакуации. Все эти задачи возложены на соответствующие органы исполнительной власти, органы местного самоуправления и организации, в компетенции которых входит решение вопросов защиты населения и территорий от ЧС, а также управления (отделы) по ЧС.

Особое значение имеет подготовка руководящего состава на всех уровнях ГСЧС. При проведении учений и тренировок по гражданской защите нужно обязательно практически отрабатывать отдельные элементы эвакуации. Планомерная подготовка населения Узбекистана в вопросах проведения эвакуации при различных ЧС имеет первостепенное значение. Нельзя упускать из вида и вопросы рэвакуации, т.е. возвращения эвакуанаселения из безопасных районов в места постоянного размещения после.[2;3;1]

И так, эвакуационные мероприятия могут быть эффективным способом защиты людей, особенно в чрезвычайных ситуациях мирного времени, если они заблаговременно спланированы, подготовлены и доведены до населения.

Список использованной литературы:

5. Закон Республики Узбекистан «О защите населения и территорий от чрезвычайных ситуаций природного и техногенного характера».

6. Гуренкова Т.Н. Психология экстремальных ситуаций для спасателей и пожарных / Т.Н.Гуренкова, И.Н.Елисеева, Т.Ю.Кузнецова и др. / Под общ. ред. Ю.С.Шойгу. – М.: Смысл, 2007-319 с.

7. Дружинин В.Ф. Мотивация деятельности в чрезвычайных ситуациях / В.Ф.Дружинин. – М.: Из-во МНЭПУ, 2001-168 с.

8. Шойгу С.К. Учеб. спасателя / С.К.Шойгу, С.М.Кудинов, А.Ф.Неживой, С.А.Ножевой. – 2-е изд., перераб. и доп. – Краснодар: Советская Кубань, 2008.

CHO'MILISHDA EHTIYOTKORLIK – XAVFSIZLIK GAROVI

A.J.Kurbonov Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti, O'qituvchi

T.K.Ziyodullayev, Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti talabasi

D.A.Xayitaliyeva Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti talabasi

Anotatsiya: Cho'milish kishiga g'ayrat va shijoat baxsh etadi. Yoz mavsumi kelgach kunning issiq harorati kishining cho'milishga bo'lgan ehtiyojlarini oshiradi. SHu sababli nafaqat kichik yoshdagilar, balki, yoshi katta kishilarni ham suzish havzalarida uchratamiz.

Asosiy qism

Suvga cho'kish - baxtsiz hodisa. Bunda nafas yo'llari suyuqlik (odatda suv) yoki suyuq massalar (balchik, loy) bilan to'lishi natijasida nafas va yurak faoliyati qattiq buziladi. suvga cho'kish odatda katta suv havzalarida chumilganda yoki biror sababga ko'ra sodir bo'ladi.[1]

Yaxshi suzadigan odam ham (suvda cho'milish qoidalariga rioya qilmasa va ehtiyot choralarini ko'rmasa) cho'kib ketishi mumkin. Uzoq masofaga suzib charchash, shuningdek kalla tashlaganda shikastlanish (boshning toshga yoki biror qattiq narsaga urilib ketishi) suvga cho'kishga sabab bo'lishi mumkin. Kalla tashlagan odam (kalla tashlash texnikasini bilmasa) suv yuzasiga urilib ketishi tufayli bo'yin, ko'z, biqin soxasiga zarb yetkazadi, bu esa hushdan ketishga olib keladi. Boshning havza tubiga urilishi bo'yin umurtqalarining sinib ketishi xavfini tug'diradi. Mastlik xam suvga cho'kishga sabab bo'lishi mumkin, mast odam o'zini idora qilolmay, cho'milish koidasini buzadi. Bundan tashqari, u sovuqni yomon sezganligi uchun sovqotib, hushdan ketishi mumkin. Oftobda qizib turib, birdan suvga tushish natijasida harorat keskin o'zgariganda, me'da ovqatga to'lib ketib, zo'r berib ovkat hazm

bo'layotganda, muskullar zo'rikishi natijasida organizmda qon noto'g'ri taqsimlanganda, suvga birdan tushib qo'rqqanda ham kishi xushidan ketishi mumkin.

Cho'milish masalasida doimo hushyor bo'lish cho'kish bilan bog'liq mudhish holatlarning oldini oladi. Keling, ayni damda siz bilan cho'kish bilan bog'liq favqulodda holatlarning oldini olish borasida nimalarga e'tibor berish kerakligi, shuningdek, bu borada foydali bo'lgan ayrim maslahatlarga to'xtalib o'tamiz.[3]

Demak, bolalar yoki birinchi marotaba suvga tushgan katta yoshdagilarni suzishga o'rgatish joyi 60 – 90 santimetrgacha chuqurlikda bo'lishi kerak. Bunday chuqurlikda odam suvdan cho'chimaydi, chunki oyog'i tayanch nuqtaga ega bo'ladi. Ochiq suv havzalarida suzishga o'rganishda, albatta suvning chuqurligi bilan birga, oqim tezligini ham e'tiborga olish lozim.[2] Oqim tezligi daqiqasiga 10 metrdran oshmasligi zarur. Yoz oylarida farzandlarimizni suzishga o'rgatish vaqtini to'g'ri tanlash kerak. Ayrim ota-onalar kunning issiq paytidagina (soat 13:00-15:00) suzishga o'rgatishga yoki cho'milishga ruxsat berishadi. Aslida esa ertalab soat 10.00 dan 12:00 gacha va kechqurun soat 17:00 dan 19:00 gacha quyoshning ul'trabinafsha nurlari ko'p bo'ladi va ana shu soatlarda cho'milish juda foydali. Cho'milish muddati 5 daqiqadan 25-30 daqiqagacha davom etishi mumkin, unda bolaning yoshi, suzishga tayyorgarligi, suvning haroratiga e'tibor berib, suzish muddati asta-sekin oshirib boriladi. Yoz paytlari katta yoshdagi bolalar suv harorati +180 bo'lganda, kichik yoshlardagilar +200 +280 dan kam bo'lmaganda ochiq suv havzalarida cho'milishlari mumkin. Agar suvning harorati 160 dan past bo'lsa, cho'milmaslik kerak. Suvga tushishdan oldin bosh, ko'krakni ho'llab, so'ng sho'ng'ib olish darkor.[4,5]

Ta'kidlash joiz ayni yoz mavsumida cho'kish bilan bog'liq mudhish hodisalar uchrab turadi. Bunday fojeaga asosan ota-onalar, kattalar tomonidan nazorat bo'shashtirilgani, mahalla, maktab, kollej, akademik litsey va boshqa xizmat xodimlarining yoshlar orasida tushuntirish ishlari qoniqarsiz olib borilayotgani, shuningdek, bolalarning suza olmasliklari ham sabab bo'ladi.

Shuni eslatib o'tish zarurki, faqat qutqaruv xizmati bo'lgan joylardagina cho'milishga ruxsat etiladi. Shunda baxtsiz hodisa yuz bersa, ya'ni biror bir odam cho'ksa, qutqaruv xizmati tezda yordamga keladi. Cho'milish joyini cheklaydigan, ko'pirib oqayotgan suvga sho'ng'ish mumkin emas.[6]

Cho'kish nafas yo'llarining suv va boshqa suyuqliklar bilan to'lib qolishi oqibatida yuzaga keladigan holatdir.

Agar, nihoyatda charchagan, suvda uzoq vaqt qolib ketgan, yoki qorin och bo'lsa, shuningdek, spirtli ichimlik iste'mol qilingan, chanqoq, kasallik sizni bezovta qilayotgan vaqtlarda cho'milmaganingiz ma'qul.[1,2]



Cho'kayotgan odamni suvdan olib chiqish ham katta mahorat talab etadi. Bunda bir necha qutqarish usullari mavjud. Ulardan biri – cho'kayotgan kishiga orqa tomondan suzib yaqinlashish, sochi va qo'ltig'i ostidan ushlab, yuzini tepaga qaratib, o'zingizni ushlab olishga yo'l qo'ymagan holda qirg'oqqa qarab suzish kerak. Harakat usullaridan biri jabrlanuvchining changak quchog'idan ushlab olishdir.

Birinchi tibbiy yordam ko'rsatish esa jabrlanuvchining ahvoliga bog'liq. Agar u o'z hushida bo'lib, yurak faoliyati va nafas olishi saqlangan bo'lsa, uning boshini pastga eggan holda quruq qiya joyga yotqizish va shundan keyin yechintirib, ho'l yoki

quruq sochiq bilan artish kerak. Imkoniyati bilan unga issiq ichimlik (choy, qahva, yoshi kattalarga 1-2 osh qoshiq spirtli ichimlik ham berish mumkin) ichirib, issiq ko'rpa bilan o'rash va dam oldirish talab qilinadi.

Agar jabrlanuvchining mustaqil nafas olishi yo'qolib, yurak faoliyati saqlanib qolsa, uning nafas yo'llari tozalanib, iloji boricha tezroq sun'iy nafas oldirishga kirishiladi. Vaqtida va malakali ko'rsatiladigan birinchi tibbiy yordam jabrlanuvchining hayotini asrab qoladi.[3]

CHO'KAYOTGAN ODAMNI QUTQARISH USULLARI



Aytib o'tish kerak, ayrim insonlar suv havzalariga spirtli ichimliklar ichib kelishadi. Ma'lumki, spirtli ichimliklarni me'yordan ortiq iste'mol qilish natijasida inson tanasini boshqara olmay qoladi. Xulosa qiladigan bo'lsak, mast holatda cho'milishning oqibati esa o'zingizga ma'lum.[5]

Ekspertiza xulosalari va tahlillariga qaraganda, suvda cho'kish kabi baxtsizlik yuz berishiga sabab, avvalo, ta'qiqlangan joylarda cho'milish, suzishni bilmaslik yoki spirtli ichimlik iste'mol qilish tufaylidir.

Yuqorida ta'kidlab o'tilganidek cho'milish borasida hushyor bo'lish kishi salomatligi va xavfsizligining garovidir. SHunday ekan yurtimizda mavjud cho'milish havzalaridan foydalanganda hushyor bo'lish, bu borada ma'lum qoidalarga amal qilish hamda farzandlarimizning ta'qiqlangan joylarda cho'milmasligini nazorat qilish orqali ularning xavfsizligini ta'minlash har birimizning zimmamizdagi burchdir.

Suvga cho'kkan odamning nafas yo'lidagi suvni tushirish usuli.



suvga cho'kishda sodir bo'ladigan o'lim og'ir patologik o'zgarishlar — gipoksiya (kislorod yetishmasligi) ta'sirida yuz beradi.

Chin, «quruq», nafas va yurakning birdan to'xtab qolishi (sinkopal') natijasida suvga cho'kish farq qilinadi. Cho'kayotgan odamning hayot uchun kurashishi chin suvga cho'kishning eng xarakterli belgisidir. Cho'kayotgan odam suv yuzasiga qalqib chiqib, talvasali nafas oladi va bunda suv yutadi. Suv nafas yo'llarini to'ldirib, o'pkaga xavo kirishiga to'sqinlik qiladi. Bunday xollarda cho'kayotgan odamning teri va shillik qavatlari ko'karib ketadi. Og'zi va burnidan ko'pikli suyuqlik (ko'pincha qon aralash) keladi (ko'krak qafasini bosganda suyuqlik miqdori ko'payadi).[1]

«Quruq» suvga cho'kish xushdan ketish b-n birga kechadi. Bunday xollarda odam cho'kmaslik uchun aktiv qarshilik ko'rsata olmay, birdan suv tubiga cho'kib ketadi. Xiqildoqqa ozrok miqdorda tushgan suv tovush boylamlarini spazmga olib keladi va odam nafas ololmay koladi, lekin suvning o'pkaga o'tishiga yo'l qo'ymaydi. SHuning uchun suvga cho'kishning bu turi «quruq» suvga cho'kish deb ataladi. Bunda nafas yo'llarida suv bo'lmaydi, teri xam uncha ko'karmaydi, faqat og'iz va burunda bir oz suyuqlik bo'ladi.

Sinkopal' suvga cho'kishda nafas b-n bir vaqtda yurak xam to'xtaydi. Bunda mayda tomirlar spazmga uchraganidan terining rangi oqarib ketadi.

Suvga cho'kisha, gavda temperaturasi muxim axamiyatga ega. Kishi sovuq suvga cho'ksa, gavda temperaturasi tezda pasayadi, bu—organizmda moddalar almashinuvining sekinlashishiga sabab bo'ladi va uning kislorod tanqisligiga chidamliligini oshiradi. Bunda cho'kkan odamni tiriltirish extimoli bo'ladi.[2]

Cho'kkan odamga yordam berish uning ahvoliga bog'lik. Agar odam hushidan ketmagan bo'lsa, uni tinchlantirib, ho'l kiyimlarini yechish, badanini quruq qilib artish, boshqa kiyim kiydirish kerak; xushdan ketgan, lekin tomiri va yuragi urayotgan bo'lsa, nashatir spirt hidlatish, ko'krak qafasini sikib turgan kiyimdan bo'shatish, nafasini yaxshilash uchun tilidan tez-tez tortib turish lozim.[6] Yurak urmayotgan va nafas to'xtagan bo'lsa, organizmni tiriltirishning oddiy usullari ko'llaniladi. Avvalo, iloji boricha tezlik b-n nafas yo'llaridagi suyuqlikni chiqarib tashlash kerak. yerdam berayotgan odamning bukilgan tizzasiga shikastlangan kishi qorni b-n yotkiziladi, yuqori nafas yo'llari va me'dadan suv oqib tushishi uchun boshi pastga osiltilib qo'yiladi. Suvni chiqarib yuborgandan keyin darhol sun'iy nafas oldirishga kirishiladi (oldin cho'kkan odamning og'zi qum, balchik, quyuq, massalaridan tezda tozalanadi). Sun'iy nafas oldirishning ko'pgina usullari orasida «og'izdan-og'izga» va «og'izdan-burunga» nafas berish yaxshi naf beradi. Sun'iy nafas oldirishda cho'kkan odamning boshini orqaga egib, chalkancha yotqizib qo'yiladi. Boshning bunday holatida xiqildoqning yo'li to'la ochiq bo'ladi. «Og'izdan-og'izga», «og'izdan-burunga» nafas berishni yaxshisi doka yoki yupka gazlama orqali bajarish lozim. Og'izga havo

puflanganda burun qisib turiladi, burunga puf-langanda og'izni yumib, pastki jag'ni oldinga tortib qo'yiladi. Sun'iy na-fas oldirish b-n bir vaqtda yurak tashqi tomondan massaj qilinadi, xar sa-far havo puflanganda uch-to'rt marta ko'krak qafasiga bosiladi. Cho'kkan odamni choyshabga, adyolga va boshqa narsalarga o'rab chayqatish foyda bermaydi.[1,3]

Cho'kkan odamning (qay axvolda bo'lmasin) oyoq-qo'llarini ishqalash, massaj qilish yo'li b-n isitish choralari ko'rilishi lozim.

Yuqorida qayd etilgan barcha usullar cho'kkan odamni suvdan chiqarib olgan zahotiyok to vrach yetib kelguncha (qirg'okda, qayiqda, solda) bajariladi yoki bemorni zudlik b-n kasalxonaga olib boriladi. Kasalxonada unga apparatda sun'iy nafas berib, yuragi massaj qilinadi, dori-darmonlar qo'llab, malakali yordam ko'rsatiladi. Dam oluvchilar, turistlar, baliqchilar, ayniksa suvda cho'kkanlarni qutqarish jamiyati a'zolari vrach kelguncha birinchi meditsina yordami ko'rsatish usullarini bilishlari zarur.

Baxtsiz hodisa yuz bermasligi uchun suvda cho'milish qoidasiga rioya qilish kerak, bolalarni qarovsiz qoldirmaslik, kemadan, soldan tashlab cho'milmaslik, cho'milish uchun ajratilgan joydan nariga suzib o'tmaslik, ovqatlangandan keyin 1,5—2 soat o'tmasdan cho'milmaslik kerak, spirtli ichimlik ichganda, jismonan va ruxan charchaganda cho'milish yaramaydi. Oftobda juda qizib turib cho'milish (xususan yurak-tomir kasalliklari bor yoshi o'tgan kishilar), notanish joyda suvga kalla tashlash nixoyatda xavfli.[1,4]

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. A.K.Nurxo'jaev, M.Yu.Yunusov. "Favqulodda vaziyatlar va muxofaza tadbirlari". Toshkent, Universitet. 2001 yil, 261 bet
2. M.Yu.Yunusov, E.J.Ikromov, "Fuqaro muxofazasi – doimiy zarurat". Toshkent, 2001 yil, 233 bet
3. A.Qudratov, T.Ganiev va boshqalar "Hayot faoliyati xavfsizligi". Toshkent, Aloqachi, 2005 yil.
4. Yong'in xavfsizligi, 2-nashri. A.E.Xudoev taxriri ostida. – T.: O'z.R.IIB yong'in xavfsizligi oliy texnik maktabi. 2007. -722 b.
5. U.Sh.Shamsiev, M.A.Axmedov, E.V.Bichuk. Zilzila – tabiiy ofatdir. Toshkent – 2001 yil.
6. I.Nigmatov, M.Tojiev. "Favqulodda vaziyatlar va fuqaro muhofazasi". Toshkent. "Iqtisod-moliya". 2011 yil.

“МАКТАБГАЧА ЁШДАГИ БОЛАЛАРНИ ФАВҚУЛОДДА ВАЗИЯТЛАРДАН МУҲОФАЗАЛАНИШГА ТАЙЁРЛАШДА ПСИХОЛОГИК

ТАЙЁРГАРЛИКНИНГ РОЛИ”

**Г. Абдуллаева ФВВ Академияси ҳузурнда Фуқаро муҳофазаси институти
катта ўқитувчиси**

Аннотация. Ушбу мақола таълим ва тарбия ташкилотларида Ҳаётий фаолият курсини ўқитиш тизимида инновацион педагогик технологиялардан фойдаланиш хусусиятларини очиб беради. Мақолада педагогларни инновацион технологиялардан фойдаланишга тайёрлаш дастури кўрсатилган

Калит сўзлар: мактабгача таълим, болалар, хавф-хатар, табиий офат, зилзила,

Аннотация: Данная статья раскрывает особенности использования инновационных педагогических технологий в системе преподавания курса основ безопасности жизнедеятельности в образовательных учреждениях. Предполагает раскрытие подходов к современной организации обучения. В статье показана программа подготовки преподавателей к использованию инновационных технологий.

Ключевые слова: дошкольное образование, дети, риск, природная катастрофа, землетрясение.

Фан, техника юксак тараққий этган даврда инсонга ҳеч қандай хавф таҳдид солмаётгандек туюлади. Аслида ҳам шундайми?

Оммавий ахборот воситаларига назар ташласак, деярли ҳар куни дунёнинг бирор бир бурчагида содир бўлган фалокат тўғрисидаги хабарга кўзимиз тушади. Авария, ҳалокатлар ва табиий офатлар содир бўлиши давом этиб, улар оқибатида инсонлар ҳалок бўлаётган экан, турли муҳофаза чораларини кўриш ҳаётий зарурат ҳисобланади. Бу муаммони ҳал этишда аҳоли тайёргарлиги масаласи энг долзарб мавзуга айланиши муқаррар.

Кундалик турмушимизда инсоннинг хавfli вазиятларга тушиб қолиш эҳтимоли ошиб бормоқда. Масалан, энг даҳшатли табиий офатлардан бири зилзила юз берганда. Кўпинча бундай вазиятлар инсоннинг масъулиятсизлигидан ёки унинг хавfli вазиятларда тўғри ҳаракат қилишни билмаслигидан келиб чиқади. Айрим ҳолларда бундан инсоннинг ёлғиз ўзигина эмас, балки унинг атрофидагилар ҳам жабрланадилар.

Зилзила содир бўлганда қандай вазият юз берганлигини англаш, ушбу хавfli вазиятдан чиқиб кетиш учун тўғри ҳаракат қила билиш алоҳида аҳамият касб этади.

Хавfli ходиса юз бериши мумкин бўлган шароитни хавfli вазият деб аташ қабул қилинган. Бахтсизликка олиб қилиши мумкин бўлган кўпгина хавfli вазиятлар яхшилик билан тугайди. Бундай вазиятларнинг муваффақиятли тугашига одатда инсоннинг қийинчиликларни енгишга бўлган тайёргарлиги, жумладан инсоннинг имкониятлари (кучи, чидамлилиги, ҳаракатлар тезлиги ва аниқлиги, кузатувчанлиги ва б.) ҳисобига эришиш мумкин.

Шундай экан, аҳолини, иктисодиёт объектларини, ҳудудларни юз берган зилзилалардан муҳофаза қилиш фуқаро муҳофазасининг давлат аҳамиятига молик асосий вазифаси ҳисобланади.

Аҳолини доимий ва сифатли ўқитиш ҳамда зилзила вақтида тўғри ҳаракат қилишга тайёрлаш албатта жабрланганлар сонининг камайишига ва моддий зарарининг камайишига олиб келади. Буни мутахассисларимиз маълумотлари ҳам тасдиқлайди: зилзила вақтида ҳалок бўлганларнинг 40% тайёргарликдан ўтмаганликлари, тўғри ҳаракат қилишни билмаганликлари оқибатида ҳалок бўлишар экан.

Вақтида тайёргарликдан ўтган инсон ўз ақл-заковати билан офатга қарши тура олиши мумкин. Тайёргарлик масаласи долзарб мавзуга айланган экан, уни ғўдаклик чоғидан олиб бориш муҳим аҳамият касб этади. Арманистонлик

мутахассис Р.Алавердяннинг фикрича “хавфсизлик қондаларига ўргатишни ёш болалардан бошлаш лозим. Болалар 3-5 ёшлариданоқ турли хавфли шароитларда ўзларини муҳофаза қилишнинг аниқ бир ҳаракатларини бажара олиш қобилиятига эгалар.

Болани тўғри ўқитиш орқали унинг фақуллода вазият соҳасидаги билимларини бойитиб бориш ва мукаммаллаштириш учун мустаҳкам асос, негиз яратиш мумкин бўлади. Яна шуни ҳам ҳисобга олиш зарурки, “...боланинг характери 12 ёшгача шаклланади, инсон 12 ёшгача бўлган даврда бутун умри давомида оладиган ахборотининг 70 фоизини қабул қилади”.

Ўзбекистон Республикаси Президентининг 1996 йил 4 мартдаги “Фақуллода вазиятлар вазирлигини ташкил этиш тўғрисида”ги Фармони, Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 1 июндаги “Фақуллода вазиятларнинг олдини олиш ва уларни бартараф этиш тизими самарадорлигини тубдан ошириш чора - тадбирлари тўғрисида”ги Фармони, “Ўзбекистон Республикасининг 1999 йил 20 августдаги “Аҳолини ва ҳудудларни табиий ҳамда техноген хусусиятли фақуллода вазиятлардан муҳофаза қилиш тўғрисида”ги ва 2000 йил 26 майдаги “Фуқаро муҳофазаси тўғрисида”ги қонунлари ҳамда Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2020 йил 26 августда “Фақуллода вазиятларнинг олдини олиш ва бундай вазиятларда ҳаракат қилиш давлат тизимини янада такомиллаштириш тўғрисида”ги 515-сонли Қарори”, 2019 йил 9 сентябрдаги 754-сонли “Аҳолини фақуллода вазиятларда ҳаракат қилишга ва фуқаро муҳофазаси соҳасида тайёрлаш тартибини такомиллаштириш тўғрисида”ги, 2017 йил 21 августдаги 650-сонли “Аҳолини фақуллода вазиятларда ҳаракат қилишга тайёргарлигини оширишга доир қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги қарорлари асосида Ўзбекистон Республикаси аҳолисини фақуллода вазиятлардан муҳофаза қилишга тайёрлаш ишлари йўлга қўйилган.

“Аҳолини ва ҳудудларни табиий ҳамда техноген хусусиятли фақуллода вазиятлардан муҳофаза қилиш тўғрисида”ги қонуннинг 8-моддаси “Аҳолини ва мутахассисларни фақуллода вазиятларда ҳаракат қилишга тайёрлаш” мавзусига бағишланган. Унда умумтаълим мактаблари, академик лицейлар, касб-хунар коллежлари ҳамда олий ўқув юртларида, ишлаб чиқариш ва турар жойларда аҳолини фақуллода вазиятларда ҳаракат қилишга ўргатиш умумий ва мажбурийдир, деб белгиланган.

Фақуллода вазиятларнинг олдини олиш ва бундай вазиятларда ҳаракат қилиш давлат тизими раҳбарлари ва мутахассисларини тайёрлаш ва қайта тайёрлаш ўрта махсус, касб-хунар таълими муассасаларида, курсларда, махсус-ўқув – услубиёт марказларида ва иш жойида амалга оширилади, деб таъкидланган.

Шунингдек, “Фуқаро муҳофазаси тўғрисида”ги Қонуннинг 16-моддасида ҳам “Умумтаълим мактаблари, академик лицейлар, касб-хунар коллежлари, олий ўқув юртлари, ишлаб чиқариш ва яшаш жойларида аҳолини фуқаро муҳофазаси соҳасида ўргатиш умумий ва мажбурийдир”, деб қайд этилган.

Республикамиз фуқароларини фавқулодда вазиятларда ҳаракат қилишга тайёрлаш мулкчилик шаклларида қатъий назар корхоналарда, муассасаларда (таълим муассасаларида) ва ташкилотларда, яшаш жойларида, уларнинг ёшлари ва ижтимоий гуруҳларига қараб олиб борилиши лозим.

Улар қуйидагилар:

- Ишлаб чиқариш ва хизмат кўрсатиш соҳаларида банд бўлган аҳоли, умумтаълим мактаблари, идоравий бўйсиниши ҳамда ташкилий – ҳуқуқий шаклларида қатъий назар бошланғич, ўрта ва олий касб-ҳунар таълими муассасаларининг ўқувчилари.

- Қорақалпоғистон Республикаси, вилоятлар, республика, вилоят тасарруфида бўлган шаҳарлар ва туманлар, давлат ҳокимияти ҳамда бошқаруви органлари; вазирликлар, идоралар, муассасалар ва ташкилотлар раҳбарлари, фавқулодда вазиятлардан муҳофиза қилиш соҳаси мутахассислари.

- Ишлаб чиқариш ва хизмат кўрсатиш соҳаларида банд бўлмаган аҳоли.

Аҳоли тайёргарлиги замон талаблари асосида олиб борилиши учун тайёргарликнинг узлуксиз олиб борилишига эришмоқ зарурдир.

Мазкур талаблар асосида республикамиз ҳудудларида олиб борилаётган кўпгина ишлар ўз самарасини бераёпти десак муболаға бўлмайди.

Содир бўлиши эҳтимоли бўлган зилзиланинг зарарларини камайтириш йўлидаги саъй-ҳаракатларда, албатта, аҳолининг фаол иштироки, уларнинг ўқув жараёнларига қизиқиши, бирор-бир офат рўй берганда ўзлари ва атрофдагиларга ёрдам бера олишларига ишонтириш яхши натижа беради. Бу борада уларни керакли билим ва кўникмаларни чуқур эгаллашлари учун тўғри йўналтириш маъсулияти Фавқулодда вазиятлар вазирлиги тизими ходимларига юкланади.

Юқоридагилардан келиб чиқиб ҳозирги кунда бутун дунёда фавқулодда вазиятларда тўғри ҳаракат қилишга тайёрлаш ишларини мактаб ёшидан оқиб бошлашга ҳаракат қилинмоқда. Бу ишларнинг самарадорлигини ошириш мақсадида янги педагогик технологиялар тавсия этилмоқда.

Бизнинг республикамизда ҳам мактабларда фавқулодда вазиятларда ҳаракат қилиш бўйича билим ва кўникма пайдо қилиш ишлари йўлга қўйилган бўлиб, ўқув дастурларига “Ҳаёт хавфсизлиги асослари” фани киритилган. Кичик синф ўқувчиларининг хавфсизлигини таъминлаш мақсадида уларнинг кундаликларида ўқувчининг манзили, келиб-кетиш йўлининг чизмаси, уй телефони, ота-онасининг қўл телефон рақамлари киритилган махсус варақа илова қилинган.

Ўзбекистон Республикаси Фавқулодда вазиятлар вазирлиги томонидан БМТ Тараққиёт Дастури, Европада хавфсизлик ва ҳамкорлик ташкилоти, “Юнисеф” болалар фонди ва бошқа ташкилотлар билан ҳамкорликда турли лойиҳалар доирасида бир қанча самарали ишлари амалга оширилган. Хусусан, маҳалла аҳолиси, мактабгача таълим муассасалари тарбияланувчилари ва мактаб ўқувчиларини фавқулодда вазиятларда тўғри ҳаракат қилишга тайёрлаш бўйича режалар, қўлланмалар ишлаб чиқилган ва амалиётга тадбиқ этилган. Улардан бири болаларнинг фавқулодда вазиятларнинг олдини олиш ва бундай вазиятларда тўғри ҳаракат қилиш бўйича билимларини шакллантиришга хизмат

килувчи “Оиланинг фавқулодда вазиятга тайёрланиш режаси” ҳисобланади. Бу режа кўплаб нусхада нашр қилиниб, аҳолига тарқатилган ва режада берилган тавсиялар унда акс эттирилган.

Биз куйида ушбу режани яна бир бор эътиборингизга ҳавола қиламиз.

Бажарилганлиги ҳақида белги ва ота-онасининг илмуси	Бажариладиган тадбирлар
	Биз оиламизда зилзилага тайёргарлик режасини муҳокама қилдик Биз уйимиз ва ҳар бир хонадаги хавф манбаларини аниқладик. Масалан, дераза тоқчаларида, тепада турган оғир буюмларни, ўт чиқариши мумкин бўлган манбаларни топдик. Биз топилган хавфларни бартараф этдик
	Биз зилзилага чидамсиз бир қаватли уйда яшасак, ундан тез чиқиб кетишга ҳаракат қиламиз. Агар чиқишга улгурмасак стол остида ёки бошқа хавфсиз жойда яшириниш кераклигини биламиз. Биз чиқиш йўлини очиб қўйдик
	Биз зилзиладан сўнг ёш болалар, қариялар ва ногиронларга керак бўладиган нарсаларни сақлаймиз.
	Бизда сув (бир кишига 3 литр) ва озуканинг уч кунга етадиган захираси бор
	Биз зилзиладан сўнг газ чиқмаётганини аниқлагунча гугурт ёкиб бўлмаслигини биламиз.
	Биз - сув, газ ва электр токини қандай ўчириш кераклигини биламиз
	Биз ўт ўчириш воситаларидан фойдаланишни биламиз
	Биз ётоқхонамизда оёқ кийими, кўлоп ва кўл фонари сақлаймиз
	Биз махсус сумкага фонар, радио, биринчи тиббий ёрдам воситалари, пул, гугурт, муҳим адреслар, енгил кийимлар солиб қўйдик
	Биз зилзила вақтида лифтдан фойдаланиш ва зинапоялардан тушиш мумкин эмаслигини биламиз
	Биз керакли ҳужжатлар нусхаларини махсус сумкада ва шаҳар ташқарисидаги танишларимизда ҳам сақлаймиз
	Бизда биринчи ёрдам воситалари бор ва ундан фойдаланишни биламиз
	Биз зилзиладан сўнг оила аъзоларимиз билан учрашадиган манзилимизни биламиз Шаҳарнинг қайси нуқтасида
	Биз зилзиладан сўнг радио ёки телевизор орқали маълумот оламиз ва телефонни банд қилмаймиз
	Биз ўз уйимизда зилзиладан энг кам зарар кўриш чорасини кўрдик
	Биз бу тажрибамизни барча танишларимизга ўргатамиз
	Биз оиламиз режасини ҳар олти ойда қайта кўриб чиқамиз

Оила бошлигининг исми- фамилияси _____

Манзил ва телефон _____

Ушбу режа боғча, мактабларда дарс пайти болаларга тарқатилиб улардаги топшириқлар уйга вазифа сифатида берилса ва ўқувчилар бу вазифани ота-

оналари билан биргаликда бажариб борсалар уларда хавфсизлик маданияти шаклланиб, фавқулдда вазиятлар содир бўлганда тўғри ҳаракат қилиш бўйича кўникмалари ошиб боради.

Бундан ташқари ушбу режа нафақат ёш болалар учун, балки, оналарнинг ҳам фавқулдда вазиятларда тўғри ҳаракат қилиш бўйича билимлари ошишига, табиий офат қаршисида ожиз қолмасликларига хизмат қилади.

Фавқулдда вазиятлар вазирлиги томонидан турли жамоат ва давлат ташкилотлари билан ҳамкорликда республикамиз ҳудудида содир бўлиши мумкин бўлган ҳар қандай фавқулдда вазиятларнинг олдини олиш, уларни бартараф этиш, улар юзга келганда эса зарарларини камайтириш, аҳолининг хавфсизлигини таъминлаш мақсадида олиб бораётган тadbirlari айна пайтда долзарб ҳисобланади.

Адабиётлар:

1. Малкина-Пых И. Г. Психологическая помощь в кризисных ситуациях. Учебное пособие — 2005. — 437-438 с.

2. Интернет сайти <https://Gazeta.uz, Sputnik.ru/>

3. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2019 йил 9 сентябрдаги “Аҳолини фавқулдда вазиятларда ҳаракат қилишга ва фуқаро муҳофазаси соҳасида тайёрлаш тартибини такомиллаштириш тўғрисида”ги 754-сонли Қарори.

4. Бутырина Н.М., Боруха С.Ю., Гушина Т.Ю. Технология новых форм взаимодействия дошкольного образовательного учреждения с семьей: учебно-методическое пособие. — М., 2004.

FAVQULODDA VAZIYATLARDA AHOЛИ O'RTASIDA SANITARIYA-EPIDEMIYAGA QARSHI TADBIRLARNI O'TKAZILISHINING ASOSIY TAMOIYILLARI VA VAZIFALARI

A. B. Nabiyev NamDU, PhD

B. M. Haydarov NamDU o'qituvchi

A. G'. Dedahanov NamDU talaba

Annotatsiya “Favqulodda vaziyatlarda aholi o'rtasida sanitariya-epidemiya qarshi tadbirlarni o'tkazilishining asosiy tamoyillari va vazifalari” nomli maqolada aholi o'rtasida favqulotda vaziyatlar sodir bo'lishining oldini olishga qaratilgan chora tadbirlar haqida so'z boradi.

Anartictitled Basic Principles and Duties of Sanitary Epidemiological Surveillance in Emergency Situations” provides an overview view of measures to prevent emergencies.

Annotatsiya В статье под названием «Основные принципы и обязанности санитарно-эпидемиологического надзора в чрезвычайных ситуациях» представлен обзор мер по предотвращению чрезвычайных ситуаций.

favqulodda vaziyat o'choqlarida har xil epidemiya turlari sodir bo'lishi va ommaviy sanitariya talafotlari ehtimoli borligi munosabati bilan tibbiy yordam ko'rsatishga juda ko'p tibbiy tuzilmalar jalb qilinishi, shikastlanganlarni yotqizish va davolash uchun ko'pgina tibbiyot muassasalari jalb qilinadi. hozirgi vaqtda favqulodda

vaziyatning tibbiy-sanitariya oqibatlarinilarini tugatish uchun fuqaro muhofazasi tibbiy xizmati quyidagi tuzilmalar mavjud:

harakatdagi epidemiyaga qarshi otryad(ppao)harakatdagi epidemiyaga qarshi otryad - epidemik o'choqda epidemiyaga qarshi tadbirlarni tashkil etuvchi tuzilma deb hisoblanadi. harakatdagi epidemiyaga qarshi otryad, halokat hududlarida sanitar - epidemiyaga qarshi tadbirlarni tashkil etish tashkil etish va bajarilishini nazorat qilishga mo'ljallangan bo'lib, sanitar epidemiologik, laborator va dezinfektsion bo'limlardan tashkil topgan.

Xarakatdagi epidemiyaga qarshi otryad zimmasiga quyidagi vazifalar yuklatilgan. - tibbiy razvetka o'tkazish yo'li bilan tabiiy ofat, halokat hududi xususiyatlari va chegaralarini aniqlash;- favqulodda vaziyat o'chog'ida va uning tevarak atrofida sanitariya me'yorlari va qoidalariga rioya qilinishi, davlat organlari bo'ysinuvi, mulkchilik shaklidan qat'iy nazar muassasa va idoralar hamda fuqarolar tomonidan sanitar - gigienik tadbirlar bajarilishi ustidan profilaktik va joriy sanitariya nazoratini amalga oshirish;

- halokatlar hududidagi aholi, tuzilmalar shaxsiy tarkibi, qutqaruvchilar va davolash profilaktik muassasalarning muhofazasini taminlash maqsadida, ularda yuqumli kasalliklar, turli sabablardagi zaharlanishlarning oldini olish, sanitar epidemiologik xotirjamlikni ta'minlash va aholi sog'ligiga salbiy ta'sir etuvchi holatlarni bartaraf etishga yo'naltirilgan kompleks tadbirlarni amalga oshirish;

- harakatdagi epidemiyaga qarshi otryad boshqaruv organi va bo'linmalarini favqulodda vaziyat o'choqlari va ular atrofida amaliy harakat qilishga tayyorlash;

- halokatlar hududida tadbirlarni amalga oshirish uchun zarur bo'ladigan maxsus va sanitar xo'jalik vositalarini to'plash va saqlash.

Ixtisoslashgan epidemiyaga qarshi brigada

Ixtisoslashgan epidemiyaga qarshi brigada (shtatlar soni -33 kishi) o'latga qarshi stantsiyalar bazasida tashkil etilib, viloyat, shahar va tumanlar soqlikni saqlash organlariga, karantin va o'ta xavfli yuqumli kasalliklarni oldini olish va bartaraf etishda amaliy va uslubiy yordam ko'rsatish vazifasini bajaradi. brigada epidemiologik (8 kishi), bakteriologik (23 kishi) bo'limlar va harakatdagi infeksiyon gospialdan (ipg) tashkil topadi. epidemik va sanitariya - gigienik sharoit, shuningdek bunday sharoitda ixtisoslashgan epidemiyaga qarshi brigadaga yuklatilgan vazifalar qandayligiga qarab, brigada kuchaytirilgan to'la tarkibda ham, cheklangan tarkibda ham ishlashi mumkin.

Ixtisoslashgan epidemiyaga qarshi brigadaning vazifalari

1. Favqulodda vaziyatlar sharoiti, ayniqsa karantin (o'ta xavfli) yuqumli kasalliklar avj olganda ixtisoslashgan epidemiyaga qarshi brigadaning doimo ishga shay turishini ta'minlash.

2. Karantin (o'ta xavfli) infeksiyalar qo'zg'atuvchilariga laboratriyada tashxis qo'yishda qatnashish.

3. Brigada shaxsiy tarkibini etiologiyasi har xil yuqumli kasalliklarning o'ziga xos va shoshilinch muhofazasi zamonaviy usullurini amalda o'zlashtirish, ularning laboratoriya diagnostika (ekspres tahlil usullarini ham qo'shib), shuningdek turli yuqumli kasalliklar paydo bo'lganda davolash, dezinfektsiya qilish va epidemioloki nazorat taktikasiga tabaqalanib yondashishga qaratilgan rejali maxsus tayyorgarlikni amalga oshirish.

4. Tinchlik davri sharoitida, jumladan tabiiy ofatlar keltirib chiqargan ekstremal vaziyatlarda, shuningdek bakterial zaralanish o'choqlarida muhofaza qilishni va epidemiyaga qarshi kurash tadbirlarini tashkil etish usullarini o'rganish yuzasidan mustahkam mashg'ulotlari qanda ixtisoslashgan epidemiyaga qarshi brigadaning taktik maxsus o'quv mashqlarini o'tkazish.

5. Ixtisoslashgan epidemiyaga qarshi brigadaning ro'yxatda ko'rsatilgandek ta'minlanishini takollashtirish va uni doimiy shay holatda saqlash. Ixtisoslashgan shoshilinch tibbiy yordam infeksiyon brigadasi; ixtisoslashgan shoshilinch tibbiy yordam infeksiyon brigadasi shaxsiy tarkibi 7 kishi, brigada rahbari vrach infeksiyanist, hamda vrach anesteziolog - reanimitolog, vrach pediater, 3 nafar hamshira va sanitar haydovchidan tashkil topgan.
Sanitariya profilaktika brigadasi:

SANITARIYA PROFILAKTIKA BRIGADASI O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOG'LIKNI SAQLASH VAZIRLIGINING RESPUBLIKA SHOSHILINCH TIBBIY YORDAM ILMIY MARKAZIGA BO'YSUNADI, MAXSUS ILMIY TADQIQOD INSTITUTI NEGIZIDA YUQORI MALAKALI MUTAXASISLARDAN QUYIDAGI TARKIBDA TUZILADI:

- Epidemiolog shifokor (rahbari);
- epidemiolog shifokor;
- virusolog shifokor;
- san.gig. Shifokor;
- shifokor infeksiyonist;
- shifokor bolalar infeksiyonisti;
- laborant-fel'dsher;
- sanitar-haydovchi;

Sanitariya - profilaktika brigadasi a'zolarining vazifalari
Favqulodda vaziyatgacha:

1. Infeksiya o'choqlarida maxsus muhofaza tadbirlari va epidemiyaga qarshi kurash choralar o'tkazish yuzasidan nazariy bilim va amaliy ko'nikmalarni muntazam oshira borish.

2. Epidemiya qarshi xizmat amaliyotidagi yuqumli kasalliklarning o'ziga xos shoshilinch muhofaza va tashxislash yangi usullarini o'rganish, o'zlashtirish vaularni amalda qo'llash.

3. Favqulotda vaziyatda ehtimol bo'lgan sharoitda o'quv-mashg'ulotlarini o'tkazish, brigada shaxsiy tarkibining nazariy va amaliy ko'nikmalariga baho berish.

favqulotda vaziyat vaqtida:

1. Xabarlash signali berilganda, yiqilish joyiga u yerdan boradigan joyga tayyor holga kelish.

2. Yuzaga kelgan vaziyatda, ofat o'chog'i hududidagi epidemiologik ahvolga, laboratoriya kasalxona bazalarining, mahalliy epidemiyaga qarshi kurash xizmatlarining qanchalik shayligiga baho berish.

3. Epidemiologik kuzatuv o'tkazish hamda mavjud axborotga binoan ofat o'chog'i chegaralarini aniqlash, kasal bo'lganlarni kasal deb gumon qilinganlarni va kasal kishilar bilan uchrashganlarni izolyatsiya qilish va maxsus

kasalxonalariga yotqizish, bu kasalxonalarda kerakli rejim shartlariga rioya qilishni tashkil etish hamda nazorat qilish.

4. Zamonaviy usullarni qo'llab, shoshilinch va o'ziga xos muhofaza va tashxis qo'yishni, shuningdek infeksiya o'choqlarini aniqlash va cheklash choralarini rejalashtirish va o'tkazish.

5. Epidemiyaga qarshi sanitariya mahalliy muassasalarining kuchlarini jalb qilib, yuqumli kasalliklarni o'ziga xos jalb qilishni va tashxislashni tashkil qilish va ta'minlash.

6. Infeksiyaning ehtimol bo'lgan manba'larga baho berish. Dezinfeksiya, dezinseksiya va deratizatsiya tadbirlarini tashkil etish, ular hamda suv ta'minoti, savdo, ommaviy ovqatlanish ob'ektlarini, karantin tadbirlarini nazorat qilish.

Yuqumli kasalliklarni bartaraf etish va epidemiya avj olib ketishini tugatish choralari kompleksida muhim rol o'ynaydigan tadbirlardan biri dezinfeksiya bo'ladi. Dezinfeksiya ob'ektlardagi va tashqi muhitning turli qatlamlaridagi yuqumli kasalliklarning qo'zg'atuvchilarini yo'q qilish uchun o'tkaziladi. Dezinfeksiyaning bir qancha usullari - mexanik, fizik va kimyoviy usullari mavjud.

Mexanik usul - bu kir yuvish, qo'llarni badanni yuvish, badanni yuvish, changini artish. Bunda odatdagi kir bilan birga kasallik qo'zg'atuvchilari ham olib tashlanadi.

Fizik usul - bu suvda qaynatish, bug'latish, va uy sharoitida tez-tez qo'llanadigan dazmollashdir. Bu usulda qo'zg'atuvchilar muayyan ekspozitsiyada yuqori temperaturada yo'q qilinadi, chunki qo'zg'atuvchilarning yuqori haroratga chidamligi har xil bo'ladi. Masalan, gepitiga chalingan kasallarning idishlari va ich kiyimlarini kamida 45 daqiqa qaynatish kerak.

Kimyoviy usul - turli kimyoviy moddalarning kasallik qo'zg'atuvchilarini qirib tashlash xususiyatiga asoslangan. Xlorli preparatlar - xlorli ohak, xloramin, kaltsiy xlorid tuzi, shuningdek lizol - dezinfeksiya ishlarida eng ko'p qo'llaniladigan kimyoviy moddalardandir. Yuqumli kasalliklarga qarshi kurash tadbirlari majmuyida turli yuqumli kasalliklar qo'zg'atuvchilarini odamlar yuqtirmaydigan bo'lishlari uchun vaktinatsiya o'tkaziladi. Buning uchun murakkab, sermehnat va qimmatbaho usullarda tayyorlanadigan vaktina, zardob va antitoksinlardan foydalaniladi. Vaktinatsiya yoki emlash kasallik hali yo'q vaqtda rejaga muvofiq (majburiy vaktinatsiya) hamda kasallik avj olgan paytda epidemik ko'rsatgichlarga binoan o'tkazilishi mumkin. Bolalarni emlashning hamma turlari rejali vaktinatsiyaga misol bo'la oladi. Emlash sababli mamlakatimizda va boshqa mamlakatlarda tabiiy chechak, poliomielit va boshqa kasalliklar tugatib yuborilganligi vaktinatsiyaning samaradorligini ko'rsatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. - T.: 2015.

O'zbekiston Respublikasining Mehnat qonunlar Kodeksi. - T.: 2014. 268 b.

Mehnatni muhofaza qilishga oid me'yoriy hujjatlar to'plami. T. SHarq, 2013.

A'zamov A., Tursunov T., Pulatov X.I. Mehnatni muhofaza qilish fanidan amaliy mashg'ulotlar uchun uslubiy qo'llanma. T., ToshKTI, 2011.

M.X.Tojiev, I.Nigmatov. Hayot faoliyati xavfsizligi. O'quv qo'llanma. T: «Tafakkur bo'stoni» MCHJ bosmaxonasi, 2012. 272 b.

A'zamov A., T.Tursunova. mehnatni muhofaza qilish. O'quv qo'llanma, T: 2Sano-standart bosmaxonasi, 2013. 232 b.

Semexin Yu.T. Bezopasnost' jiznedeyatel' nosti. M: Direkt Media, 2015 g. 412 s.

Arustamov E.A. Bezopasnost' jiznedeyatel' nosti. Uchebnik dlya bakalavriatov. M-Izdatels'tva -Torgovaya korporatsiya. 2015 g.

IQLIM O'ZGARISHINING INSON SALOMATLIGIGA TA'SIRI

B.M. Haydarov NamDU o'qituvchi
Sh.B.Mamadboyev NamDU o'qituvchi
B.M.Olimov NamDU talaba

Aholi salomatligi bilan bog'liq masalalar har bir mamlakat taraqqiyotida muhim ahamiyat kasb etuvchi mezonlardan biridir. Zero, salomatlik jamiyat ijtimoiy taraqqiyotining muhim sharti va belgisidir. Global isish faqat tabiatga emas, balki inson hayotiga ham ta'sir ko'rsatadi. Bizning ojizligimiz Amerika Qo'shma Shtatlari hududlari boshiga ketma-ket dovul va suv toshqinlari ko'rinishidagi bir qator tabiiy ofatlardan keyin ayon bo'ldi. Bizning sayyoramizning ayrim hududlarida yog'ingarchilikni kamligidan hosillar nobud bo'lmoqda, o'rmonlar yonmoqda, insonlar ichimlik suviga ehtiyoj sezishmoqda. Olimlarni dastlabki bashoratlariga ko'ra, 3,2 mlrd. aholi suv etishmaslik muammosi bilan, er aholisini beshdan bir qismi aksincha, suv toshqinlari bilan to'qnashadi. Yaqin kelajakda turli qochoqlar va migrantlar kategoriyasiga yana bir iqlimiy ko'rinish qo'shilishi va 2100 yilga borib iqlim migrantlari 200 mln. ni tashkil etishi mumkin. Eng katta xavf va tahdid hali rivojlanmagan mamlakatlar aholisi boshigayog'ilishi mumkin, chunki ular bunday global iqlim o'zgarishlarini bartaraf etishga qodir emaslar. Havo haroratining 1,5-4,5°S ga ortishi okean sathining ko'tarilishiga sabab bo'ladi, va bu tufayli ko'plab kichik orolchalarni suv bosadi va qirg'oqbo'yi joylarda toshqinlar yuzaga keladi. Markaziy Osiyo mamlakatlarida haroratni ko'tarilish bir tomondan, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishida qurg'oqchilikka olib kelsa, ikkinchi tomondan, muzliklarning erishini tezlashtirib, yog'ingarchilik tartibini o'zgarishi, tog'lardagi muzliklardan oziqlanadigan daryolar toshqinini olib keladi. Bunday vaziyatlarda qishloq joylarda hayot kechirish yildan-yilga qiyinlashadi. Muzliklarni erishi va yog'ingarchiliklar tartibini o'zgartishi natijasida sellar va ko'chishlar yuzaga keladi. Butunjahon sog'liqni saqlash tashkilot hisoblaydiki, suv quvurlari va kanalizatsiya tizimini buzilishidan ichak infeksiyalari, cho'ktirilgan hududlarda chivinlarni ko'payishidan malyariya kasalliklarini kelib chiqishi natijasida yuzlab million aholining sog'lig'i xavf ostida qoladi. Shaharlar va sanoat rayonlarida kishilar o'rtasida asab, yurak-qon tomir, surunkali bronxit, emfizema, nafas qisishi va o'pka raki kasalliklarining ko'payishi kuzatiladi. Ko'z kasalliklari va bolalar kasalliklarining ortishi qayd qilingan. Shahar havosida sanoat korxonalar va avtotransport chiqindilarida kantserogen moddalar bo'lib (benz(a)piren, aromatik uglevodorodlar), ularning surunkali ta'siri natijasida rak kasalliklari kelib chiqadi. Avtotransportning chiqindi gazlaridagi qo'rg'oshin birikmalari ham inson sog'lig'i uchun ayniqsa havfli hisoblanadi. Atmosferadagi turli zaharli gazlar o'simlik va hayvonlarga ham zarar

etkazadi. Oltinugurt gazi, ftorli vodorod, ozon, qo'rg'oshin, xlor va boshqalar o'simliklarga ayniqsa kuchli ta'sir ko'rsatadi. O'simliklarning nobud bo'lishi, hosilning kamayishi, fotosintez intensivligining o'zgarishi kuzatiladi. Havoning kuchli ifloslanishi ba'zi uy hayvonlarining nobud bo'lishiga olib keladi. So'ngi yillarda respublikamiz mintaqalarida ekologik vaziyatni yomonlashuvi, aholi sotsial taminotidagi o'zgarishlar va shu kabi qator sabablar oqibatida aholi orasida ayrim kasalliklarni ortib borishi kuzatilmoqda. Bunday kasalliklar orasida, ayniqsa yurak qon tomir, nafas olish, ovqat hazm qilish va xavfli o'sma kasalliklari ortib bormoqda. O'zbekistonda o'z salmog'i jihatidan eng yuqori ko'rsatkichlarga ega bo'lgan va aholi orasida o'limga sabab bo'luvchi kasalliklar bu qon aylanish a'zolari kasalliklari hisoblanadi. Birgina 1992 yilda mazkur omil umumiy o'limning 43,3 % ini, 1995 yilda 45,3 %ini tashkil qilgan bo'lsa, 2002 yilga kelib bu ko'rsatkich 54,8 %ga etdi. Bunday kasalliklar sanoati rivojlangan shaharlarda ko'p uchraydi. Mamlakatimizda o'z salmog'i jihatidan keyingi o'rinni egalovchi nafas olish a'zolari xastaliklari 1992 (17,7%) va 1995 (17,1%) yillarga nisbatan ancha kamaygan (10,1). Bunday kasalliklar respublikamizda ayniqsa Surxondaryo, Namangan, Jizzax viloyatlari va Qoraqalpog'iston respublikasida yuqori ko'rsatkichlarga ega. Keying yillarda Respublikamizda aholi orasida ko'p uchraydigan xastaliklar qatoriga xavfli o'sma xastaliklarini kiritish mumkin bunday xastaliklar guruhi, 2002 yil ma'lumotlariga ko'ra aholi o'rtasidagi o'limning 6,9 %ini tashkil qildi. Bu guruh tarkibiga kiruvchi xastaliklar xususan so'ng yillarda er sharining eng xavfli kasalliklari sifatida tibbiyot sohasida yangi-yangi izlanishlar kutayotgan kasalliklar qatoriga kiradi. Bugungi kunda xavfli o'sma xastaliklari eng ko'p uchraydigan hududlar Toshkent, Andijon va Buxoro viloyatlari hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. P.Baratov. Tabiatni muhofaza qilish.-Toshkent: O'qituvchi, 1991.-187b.
2. Shodimetov. Yu. Sh. Ijtimoiy ekologiyaga kirish. Toshkent: O'qituvchi, 1994yil, 240 bet.
2. Otaboev Sh., Nabiev M. Inson va biosfera.-Toshkent: O'qituvchi, 1995-yil, 310bet.
3. O'zbekiston Respublikasida atrof-muhit holati va tabiiy resurslardan foydalanish to'g'risida "Milliy maruza". Toshkent. Chinor ENK, 2008yil, 151 bet.
4. X. T. Tursunov . Ekologiya asoslari va tabiatni muhofaza qilish. -Toshkent, 1996yil, 103 bet.

O'ZBEKISTONDA IQLIM O'ZGARISHI MUAMMOSI VA OQIBATLARI

A.B.Nabiyev Namangan davlat Universiteti PhD

K.A. Qayumova Namangan davlat Universiteti HFX yo'nalishi 2-bosqich

A.Mamadaliyeva Namangan davlat Universiteti HFX yo'nalishi 2-bosqich

Annotatsiya: Iqlim - ob-havoning ko'p yillik umumlashtirilgan ko'rsatkichi. Iqlim sharoiti va iqlim o'z tabiatiga ko'ra muhim jihatlarga ega. Ularning asosiy xususiyatlari harorat rejimi, yog'inlarning yog'ishi kabilar o'rganiladi.

Kalit so'zlar: Iqlim, Tropik va mo'tadil iqlim, Yog'ingarchilik, Xavfli va ekstremal gidrometeorologik hodisalar.

O'zbekistonda ayrim iqlim tizimlari o'zgarishi kuzatilgan. Global iqlim o'zgarishlari haqidagi axborotni tahlil qilish negizida iqlimshunos mutaxassislar va O'zbekiston olimlari quyidagi asosiy xulosalarga keldilar:

- Global isish natijasida quruq tropik va mo'tadil iqlim poyaslari orasidagi chegara shimolga 150-200 km ga siljiydi, iqlim zonalarini balandligi 150-200 m yuqoriga ko'tariladi. Ayoqsiz davr 8-15 kunga ko'payadi;

- Havo darajasining jadal oshishi va issiq quruq davrning uzayishi hisobiga iqlim qurg'oqchiligi yanada kuchayadi, shuningdek, yog'ingarchiliklar o'zgarishi oqibatida xavfli gidrologik hodisalar - intensiv toshqinlar, sellar, qurg'oqchilik yuz berishi ehtimoli kutiladi;

- Intensiv isishga qaramasdan, O'zbekistonning shimoliy va markaziy qismida kelajakda iqlim o'zgarishi kuchayishi bilan 2030 yillargacha qishloq xo'jalik madaniy o'simliklari kuchli muzlash xavfi ostida qoladi;

Hisob-kitoblar ko'rsatmoqdaki, O'zbekistonning shimoliy-g'arbiy viloyatlarida global isishning sezilarli ta'siri bashorat etilmoqda. Janubiy va tog'li rayonlarda havo haroratining sezilar-sezilmas ortishi kutilmoqda. Iqlim o'zgarishlari agrar sektorga va uning asosi bo'lmish sug'oriladigan yerlarga ta'sirini baholash respublikamiz uchun muhim masaladir, chunki O'zbekistonda qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi suv resurslarining asosiy iste'molchisi hisoblanadi va 93% yer usti suvlari sug'orishga ishlatiladi. Iqlim isishi suv balansi sarfining asosiy yo'nalishi - bug'lanishning kuchayishiga va natijada sug'orish me'yori va sonining ortishiga olib keladi. Suv resurslarining tanqisligi sharoitida sug'orish suvlari qo'shimcha xarajatlarini yangi iqlim sharoitiga baholash zarur.

Bajarilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatdiki, kelajakda O'zbekistonning barcha hududlarida qishloq xo'jaligida suv iste'moli va sug'orish me'yori kutilgan darajada bo'lmasada, ortadi. O'zbekistonda iqlim o'zgarish sharoitlari tufayli sug'orish normalari 2030 yilga kelib 5% dan oshmaydi, 2050 yilga kelib 7-10%, 2080 yilda 12-16% ga yetadi. Bu esa O'zbekiston uchun katta ko'rsatkichdir. Yaqin kelajakda suv qadri faqat oshib boraveradi. Suvsizlik, avvalambor, bizning odatiy mehmonimizga aylanadi. Bu muammoning naqadar mushkulligini biz 2000, 2001 va 2008 yildagi suv tanqisligi, hatto sug'oriladigan maydonlarga suv yetkaza olmaganimiz, qolaversa, Amudaryo daryosidan Orol dengizigacha suv yetib bormaganligi, Sirdaryo daryosi havzasiga kelib tushadigan suv miqdori sezilarli qisqarganidan ko'rishimiz mumkin. 2008 yil yozdagi suvga tanqislik va qurg'oqchilik bundan istisno bo'lmaydi.

O'zbekistonning suv resurslari Orol dengizi havzasidagi suvlarning bir qismi hisoblanadi. Orol dengizi havzasidagi mamlakatlar davlatlararo kelishuviga muvofiq yurtimiz daryo oqimining 52,4 km³ suvdan foydalanishi mumkin. Mintaqada suvdan foydalanuvchilarning ortishi bilan bog'liq bir necha xavf mavjud. Markaziy Osiyo daryolari suvlari avvalgi hajmda saqlanib qolgan taqdirda ham yaqin kelajakda Sirdaryo va Amudaryo bo'ylarida yashovchi iste'molchilarning soni hozirdagidek 40 million emas, balki 55-60 million kishiga 44 yetadi. Amudaryo suvidan Afg'oniston ham o'z ulushini talab qiladi. Sug'oriladigan yerlarning hajmi ham tobora ortib boradi. O'zbekiston hududida bevosita shakllanadigan suv resurslari ulushi

Amudaryo havzasi bo'yicha 6%, Sirdaryo havzasi bo'yicha 16%, umuman respublika bo'yicha ular umumiy oqimining 10%ini tashkil etadi. O'zbekiston bo'yicha chuchuk suvlarning er osti zaxirasi 19,7 km³ ga baholanadi. Ayni paytda barcha yig'ilgan suv resurslaridan xo'jalik faoliyatida foydalanilmoqda, lekin iste'mol qilishda suv tanqisligi mavjud. Amudaryo va Sirdaryo daryosi etaklarida, Orol dengiziga quyilish joyida suvning oqib kelishi o'rtamiyona qurg'oqchilik yillari 12-15 km³, qurg'oqchilikda esa 4-6 km³ ekani kuzatilmoqda. Shu ma'noda iqlim o'zgarishi munosabati bilan kelajakdagi suv resurslarini baholash natijalari quyidagilarni ko'rsatdi: - isishga doir ko'rib chiqilgan iqlim stsenariylarining birortasi ham mavjud suv resurslarining ko'payishini nazarda tutmaydi; yaqin kelajakda Sirdaryo va Amudaryo suvlarining kamayishi ehtimoli mavjud;

ayni paytdagi vaziyat iqlim o'zgarishlari sababli sug'oriladigan erlarning suv tanqisligiga duchor bo'lishlariga olib keladi va qishloq xo'jaligiga xavf soladi; - daryolar va er osti suvlarining kamayishi suv resurslarining tanqisligiga olib keladi, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarishda mahsuldorlik pasayib, gidroelektrenergiya sanoati qisqaradi. Global isish birinchi navbatda hozirdanoq suv tanqisligini boshdan kechirayotgan hududlarda og'ir kechadi. Ekologik halokat yoqasida turgan va bu halokatni boshidan kechirayotgan hududlardan biri Qoraqapog'istonning Mo'ynoq tumanidir. Mutaxassislar fikricha, yaqin yillarda uning taqdirini Zarafshon daryosi etaklarida joylashgan boshqa hududlar ham boshdan kechirishlari mumkin. Zarafshon vodiysi esa Markaziy Osiyoda asosiy g'alla koniga kiradi, shuningdek, dunyo taraqqiyotining madaniy o'choqlaridan biri sanaladi.

Iqlim omillari sababli kelib chiqadigan qishloq xo'jaligidagi xavflar, birinchi navbatda, suv resurslari tanqisligi va suv sifatining buzilishi, tahlikali meteorologik hodisalarning (kuchli yog'ingarchiliklar, do'l) ortishi bilan bog'liq. Kelajakda 45 havoning qurishi va ekstremal yuqori haroratni kuchayishi kuzatiladi, o'z navbatida, ekinlarning erta bahordagi sovuqlar bilan zararlanish ehtimoli saqlanib qoladi. Iqlim o'zgarishi sharoitida suv bilan ta'minlashning pasayishi, sho'rlanish jarayonining kuchayishi va erlar degradatsiyasining boshqa turlari O'zbekistonda qishloq xo'jaligi ekinlari hosildorligini tushiradi.

Iqlim o'zgarishi hisobiga hosildorlik yo'qolishini taxminiy baholash uchun olimlar O'zbekiston viloyatlarini Amudaryo va Sirdaryo daryolarining havzalari bo'yicha guruhlariga taqsimlashdi, chunki ularga oqib kelayotgan suv tartibi farqlanadi. O'tkazilgan baholash ishlari quyidagilarni ko'rsatdi: qishloq xo'jaligi o'simliklarining suv iste'mol qilishi qancha yuqori bo'lsa, uning meteorologik va gidrologik sharoitlarga tasirchanligi shunchalik ortib boradi. 2030 yilga kelib O'zbekistonning barcha hududlarida hosildorlik kamayishi 2-5% dan kam bo'lmaydi. 2050 yillarda hosildorlikning pasayishi faqatgina mavjud iqlim omillari hisobiga: - Sirdaryo havzasida paxta uchun 11-13%, bug'doy uchun 5-7%; -Amudaryo havzasida paxta uchun 13-23%, bug'doy uchun 10-14%ga etadi. Shunday ekan, Amudaryo hududining o'rta va quyi oqimi iqlim o'zgarishiga o'ta ta'sirchandir, bu esa alohida tahdidga sabab bo'lmoqda

O'zbekistonda iqlim o'zgarishi tufayli mavjud tabiiy sharoitni keskinlashtiruvchi - quruq va issiq kunlar ko'payish asosiy omillar quyidagilar:

- kelajakda suv resurslari kamayishi va sifatining yomonlashuvi ehtimoli;
 - erlarning degradatsiyasi, sho'rlanishi, suv va shamol eroziyasi, chang - to'zonlar tarqalishi;
 - cho'llanish jarayonining kuchayishi;
 - tog'larda qor zaxirasining kamayishi va muzliklar bilan qoplangan maydonlar qisqarishi;
 - xavfli va ekstremal gidrometeorologik hodisalarning (qurg'oqchilik, sel va suv toshqini kabi) kuchayishi;
- yangi turdagi qishloq ho'jaligi ekinlari hosidorligining pasayishi, yaylovlar samaradorligi va chorvachilik unumdorligining kamayishi, oziq - ovqat xavfsizligi uchun xatarning ortishi;
- aholi salomatligi uchun xatarlar ortishi;
 - iqlim o'zgarishi bilan bog'liq bo'lgan muammolarni baholashda ko'pgina omillarni inobatga olish va ularni atroflicha tahlil qilish.

Adabiyotlar:

1. П.Баратов. Охрана природы.-Ташкент: Учитель, 1991.-187с.
2. Шодиметов. Ю. Ш. Введение в социальную экологию. Ташкент: Учитель, 1994, 240 с.
3. Отабоев Ш., Набиев М. Человек и биосфера.-Ташкент: Учитель, 1995, 310
4. «Национальный отчет» о состоянии окружающей среды и использовании природных ресурсов в Республике Узбекистан. Ташкент. Чинор ЭНК, 2008, 151 с.
5. Турсунов Х. Т. Основы экологии и охраны природы. -Ташкент, 1996, 103 с.

EKOLOGIK TUSDAGI FAVQULODDA VAZIYATLARNI KELIB CHIQISH SABABLARI

A.B.Nabiyev Namangan davlat Universiteti PhD

K.A. Qayumova Namangan davlat Universiteti HFX yo'nalishi 2-bosqich

Annotatsiya: Atmosfera so'zi yunoncha "atmos – bug" , "sfera-qobiq shar" degan ma'nolarni anglatadi. Insoniyat qadim zamonlardan beri rivojlanib takomillashib kelmoqda inson rivojlangan sari ehtiyojlari ortib yangi-yangi kashfiyotlar yangi g'oyalar yuzaga kela boshladi. XXI asrga kelib inson aql bovar qilmas darajada shakllandi. Bularning hammasi bizning moddiy va ma'naviy ehtiyojlarimiz sabab bo'ldi.

Kalit so'zlar: Atmosfera, Ekologiya, Gidrosfera, Atrof-muhit, Inson omili, Inson rivojlanishi, Ozon qatlami, Ifloslanish darajasi.

«Ekologiya» – yunoncha so'z bo'lib, tirik mavjudotlarning yashash sharoiti va atrof-muhit bilan o'zaro munosabatlarini o'rganadi.

Ekologik tUSDagi FVlar – bu insoniyatning hayot faoliyatiga, o'simlik va hayvonot dunyosiga, gidrosfera va atmosferaga beqiyos ta'sirini ko'rsatadigan halokatli vaziyatlar.

Ularning tasnifi hilma – hildir. Kelib chiqish hususiyatiga ko'ra ekologik FVlar quyidagilarga bo'linadi:

Yer sharining issiqlik holatiga ta'sir qiluvchi va atmosferaga tushayotgan freonlar, ftorli, bromli va xlorli birikmalar ozon qatlaminig buzilishiga.

Iqlimning o'zgarishiga ta'sir qiluvchi boshqa omillarga quyidagilar kiradi: atmosfera va okean orsidagi namlik va issiqlik almashinuvining buzilishiga olib keluvchi okeanning neft mahsulotlari bilan ifloslanishi; yogingarchilik keltirib chiqarish maqsadida bulutlarga ta'sir ko'rsatishi; atmosferaga suv buglarining chiqishi; sugorish tizimining ta'siri, buglanishning ortishi.

Sanoat markazlari yoki yirik shaharlar ustida «smog» deb ataluvchi ifloslangan havo qatlami yuzaga keladi. Uni shartli ravishda uch qatlamga bo'lish mumkin: quyi – bu uylar orasidagi qatlam, o'rta - 20-30 metr balandlikdagi qatlam, yuqori – asosan sanoat korxonalaridan chiqayotgan tutun va chiqindilardan oziqlanayotgan 50-100 metr balandlikdagi qatlam.

Atmosfera transportlardan chiqayotgan uglevodorod gazlari va azot oksidi aralashmalariga quyosh radiatsiyasining ta'siri insonlar salomatligi uchun katta havf tugdiradigan fotosmog (fotooksidantlar)ni yuzaga keltiradi.

hozirgi paytda ko'p sanoat zonalarida kislorod etishmovchiligi kuzatilmoqda. Bunday hollarda fotosintez natijasida o'simliklar, sanoat, transport, odamlar, hayvonlar iste'mol qilayotgan kisloroddan kam miqdorda kislorod ajralib chiqadi, bu esa shu hollarda fotosintez oqibatida kislorodni odamlar, hayvonlar o'simliklar sanoat iste'mol qilish miqdoridan kam chiqarib berayapti. Bu holat aholi orasida o'pka va yurak tomir kasalliklarini keltirib chiqaradi.

Yer usti, havo, suv transportida quvvatli vositalarning paydo bo'lishi insonlarning doimo yuqori darajadagi shovqinlar ostida bo'lishiga olib keladi. Shaharning umumiy shovqin darajasida transportning solishtirma ogirligi 60-80 % ni tashkil qiladi. Yuqori darajadagi harorat, shovqin, chang, radiatsiya, elektromagnit maydon bularning hammasi atmosfera havosining ifloslanishiga olib keladi.

Kislotali yoginlar. Bu havoning sanoatdan ifloslanishi, avtomobillardan va aviatsion dvigatellardan chiqayotgan gazdan havoni ifloslanishi va shuningdek turli yoqilgilarining yoqilishi natijasidir.

Azotning hamma oksidlarini taxminan 40 %ini issiqlik elektro stantsiyalari keltirib chiqaradi. Bu oksidlar azot va nitratlarga aylanadi, oxirgilari esa suv bilan o'zaro ta'sir qilib azot kislotasini hosil qiladi.

Shuningdek keng tarqalgan havoning ifloslantiruvchilaridan biri ko'mir, neft, mazutni yoqish natijasida hosil bo'ladigan oltingugurt angidrididir. Kislotali yoginlar faqat o'simliklar dunyosi uchungina havfli bo'lmasdan, balki odamlar sogligi uchun ham havflidir.

Ozon qatlaminig kichrayishi. Stratosfera quyoshning ultra binafsha nurlarini yutadi va erdagi tirik mavjudotlarni shu nurlarning halokatli ta'siridan saqlaydi. Ozonning atmosferadagi soni katta emas. U vodorod, azot, xlor birikmalari ta'sirida tez buziladi. Iqlim isishining oqibatlari ozon qavatining buzilishini, unda "tuynuk" hosil bo'lishini va ultrabinafsha nurlari oqimini er sathiga kelishini tezlashtiradi. So'nggi yillar davomida inson faoliyati natijasida tarkibida bu birikmalar bo'lgan moddalarning tushishi keskin ortmoqda.

Chang. Bu keng tarqalgan atmosfera ifloslovchilaridan biridir. Chang er jinslariga shamolning ta'siri, o'rmon yonginlari, vulqon otilib chiqishi, sanoatdan chiqindilar chiqish jarayonida paydo bo'ladi. Chang odam organizimiga, o'simlik va hayvonot olamiga zararli ta'sir ko'rsatadi. Binolar, qurilishlar buzilishini tezlashtiradi va bir qator boshqa salbiy oqibatlarini keltirib chiqaradi.

Gidrosfera holatining o'zgarishi.

Sanoat va uy – joylari qurilishining keskin o'sishi suv etishmovchiligiga sabab bo'lmoqda, uning sifati pasaymoqda. Suv resurslari kamayishining asosiy sabablari quyidagilardir:

insonni biosferaga ta'sir qilishi oqibatida suv resurslarining kamayishi;

suvga bo'lgan talabni keskin o'sishi;

suv manbalarini katta miqdorda ifloslanishi.

Inson faoliyati ta'sirida suv havzalarining sayozlashuvi, kichik daryolarning yo'q bo'lib ketishi, ko'llarning qurishi, o'rmonlarni kesib tashlash, hayvonlarni rejasiz boqish, cho'llarni to'xtovsiz haydash, melioratsiya tizimlarini o'ylamasdan rivojlantirish natijasida yuz beradi. Suvga bo'lgan extiyoj har yili 6-8 % ga ortib bormoqda, bu sanoat korxonalarining o'sib borishi bilan bogliq. Xo'jalik ishlari uchun suv sarfi ortib bormoqda, Yaqin yillar ichida esa u har bir kishi uchun 400 metrG'sutkani tashkil etadi.

Ifloslantiruvchilar biologik, mexanik va kimyoviy bo'lishi mumkin.

Suv shunchalik ifloslanganki, daryo va hovuzlarda ko'p tirik jonzoqlar qirilib ketmoqda, ayniqsa baliqlar. Bunday suvlarni tozalamasdan va zararsizlantirmasdan iste'mol qilish mumkin emas. Daryo va ko'llarga, suv havzalariga ishlab chiqarish chiqindilari, maishiy axlatlar, neft maxsulotlari, ogir temir chiqindilari tashlanmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar:

“Favqulodda vaziyatlar va fuqaro muhofazasi”, I. Nigmatov, M. Tojiyev, Toshkent 2011yil.

“Hayot faoliyati xavfsizligi” fanidan ma'ruzalar matni. Buxoro 2016yil.

“Hayot faoliyati xavfsizligi” fanidan ma'ruzalar matni. Termiz 2018yil.

“Mehnat muhofazasi va texnika xavfsizligi” qo'llanma, Toshkent 2013yil.

ТЕХНИКУМЛАР УЧУН «ТАЙЁРЛАШ, ПАЙВАНДЛАШ ВА ЙИГУВ ИШЛАРИНИНГ ТЕХНИКА ВА ТЕХНОЛОГИЯСИ» ДАРСЛИК ВА ЎҚУВ ҚЎЛЛАНМАЛАРНИ ТАЙЁРЛАШНИНГ ЎЗИГА ХОС ХУСУСИЯТЛАРИ

А.Х.Али Назаров, НамМҚИ, профессор

А.А.Атамов НамМҚИ, доцент

А.Б.Набиев НамДУ, PhD

Республикамизда олиб борилаётган ижтимоий-иқтисодий сиёсатда мамлакат ҳаётининг барча жабҳаларини ривожлантиришга, айниқса келажак авлодни миллий мустақиллик мафкураси руҳида тарбиялашга катта эътибор берилмоқда. Ҳозирги кунда таълим олаётган ёшларни республикамизнинг келажаги учун уларни ҳар томонлама етук инсонлар қилиб тарбиялаш таълим-тарбия муассасаларининг асосий вазифасидир.

Ривожланган давлатлар сафидан ўрин олишни ўз олдига мақсад қилиб қўйган Ўзбекистон халқ хўжалигининг барча тармоқлари каби таълим соҳасида ҳам илғор технологияларни жорий этишга ва шу орқали таълим мазмунини жаҳон андозалари даражасида олиб чиқиш учун зарур тадбирлар амалга оширилган.

Ҳозирги кунда олий таълим муассасалари ва техникумларида махсус фанларни ўқитиш методикаси, ўқитишда янги педагогик ва ахборот технологияларини қўллаш, ўқув-услубий таъминоти муаммоларига қаратилган бир неча диққатга сазовор ишлар амалга оширилмоқда. Жумладан, техникумлар тизимини такомиллаштириш ҳамда уларнинг ўқув-тарбия жараёнларида замонавий педагогик технологияларни тадбиқ этиш мақсадида хорижий мамлакатларнинг етук мутахассислари ва малакали педагоглари иштирокида семинарлар, илмий-амалий анжуманлар ўтказилмоқда.

Бу ишлар таълим соҳасида халқимизнинг бой мероси, буюк мутафаккирларимизнинг гоялари ва давримизнинг илғор янгилекларини ўзида мужассамлаштирган методик тизим яратилишига замин бўлмоқда.

Кадрлар тайёрлаш миллий дастурининг иккинчи-сифат ва самарадорлик босқичида кўзда тутилган асосий вазифалардан бири техникумлар учун таълим ва техникум дастурлари, ўқув-услубий мажмуаларнинг янги замонавий авлодини ишлаб чиқишдан иборат.

Маълумки, олий таълим меъёрий ҳужатларида дарслик тайёрлаш бўйича қуйидагилар келтирилган: дарслик ўқувчиларнинг давлат стандартида ва ўқув дастурида белгилаб берилган билим, малака ва қўникмаларни фаол ва онгли суратда ўзлаштиришга ёрдам берувчи, ўқув тарбия жараёни самарадорлигини оширишга хизмат қиладиган асосий восита ҳисобланади. Дарслик муайян йўналишдаги билимлар беришдан ташқари, ўқувчиларда оламни, табиат ва жамиятни идрок этишга оид табиий ва ижтимоий фанларга оид тушунчаларни шакллантиришга хизмат қилиши керак.

Техникумлар учун ёзиладиган ўқув қўлланмалар ва дарсликлар илмий-назарий ва услубий жиҳатдан мукамал, ўқувчиларнинг ўзлаштириши учун имконият даражасида қулай ва содда бўлмоғи, уларда мавзуларнинг мазмуни ўқувчи ва талабанинг ёш хусусиятларини ҳисобга олган ҳолда ёритилмоғи лозим.

Умуман олганда, техникумлар учун «Тайёрлаш, пайвандлаш ва йиғув ишларининг техника ва технологияси» фани бўйича дарслик ўқув материални тўлиқ камраб олиши керак. Дарсликдаги маълумотлар ишончли, сифатли, қизиқарли ва тартибли баён қилиниши лозим.

Ҳозирги кунда техникумлар учун яратилаётган дарсликларнинг сифатини яхшилаш мақсадида қуйидаги тавсияларни бериш мумкин:

-дарсликни тайёрлашга биринчи навбатда кафедранинг етук профессор-ўқитувчиларини жалб этиш мақсадга мувофиқдир;

-дарслик муайян таълим йўналиши бўйича тасдиқланган Давлат стандарти, ўқув режа, фанга ажратилган соатлар ҳажмига ва ушбу фан бўйича ишлаб чиқилган дастурда белгиланган мавзуларга тўла роя этилган ҳолда тайёрланади;

-дарсликдаги мавзуни баён этишда педагогик ва психологик қонуниятлар назарда тутилади;

-мавзу матнларида муаммоли вазиятларни юзага келтирувчи масалалар берилди, уларда зарурий билимни изловчи ва топиш эҳтиёжини ўйготувчи ҳамда ўзлаштирилган материалларни талабаларнинг ўзлари томонидан назоратини амалга оширувчи саволлар туркуми берилди;

-мавзу матнларида баён қилинувчи масалалар мамлакатда счилиши лозим бўлган ижтимоий-иқтисодий муаммолар билан боғланади, илғор фан, техника ва технологияларнинг ҳалқ хўжалигини тезкор ривожлантиришдаги прогрессив роли очиб берилди;

-ҳар бир мавзуни ёритишда, мавзуга ажратилган соатлар миқдори ҳисобига олинган ҳолда, дарслик ҳажми белгиланади ва бунда мавзулар матни фақат илмий-техникавий ва ижтимоий-сиёсий билимлар манбаи бўлиб қолмаслигига, унда ёшларни маънавий, маданий, руҳий-эстетик, ватанпарварлик, инсонийлик руҳида тарбиялаш омиллари ҳам назарда тутилади;

-мавзуни ёритиш бўйича саволлар туркумини ишлаб чиқарилади ва улар кетма-кетликда ёритилади;

-мавзу матнларини таёрлаш жараёнида фойдаланилаётган адабиётларнинг замон талабларига жавоб бериши назарда тутилади ҳамда этакчи хорижий давлатларда чоп этилган адабиётлардан кенг ва унумли фойдаланилади.

Адабиётлар

1. Йўлдошев Ж.Ф. Ўзбекистон Республикаси таълим тараққиёт йўлида. –Т.: Ўқитувчи, 1994. -98 бет.
2. Педагогика (проф. А.Қ.Мунавваров таъририда). –Т.: «Ўқитувчи», 1996.
3. Джураев Қ. ва М. Болтаева. Замонавий таълим. – Н.: НамМПИ, 2008.
4. Mamajanov T., Atamov A., Buriyev E.S., Nurmanov S.R. "Tayyorlash, payvandlash, montaj ishlari texnokasi va texnologiyasi" Sano-Standart 2015 yil.

TEKNOLOGIYA FANLARINI O'QITISHDA O'QUVCHILARNI KASB TANLASHGA YO'NALTIRISH

Z.F.Rustamova NamDU talaba

Anotatsiya: Ushbu maqolada kasb qanday tanlanadi, kasb tanlashda o'quvchilarni qiziqishlari, kasb tanlash uchun qanday qoidalarga e'tibor berish kerakligini, kasb nafaqat tirikli va tirikchilik manbai, zamon bilimsizlarni qabul qilmaydi, bilimsiz inson jamiyatda o'z o'rnini topa olmaydi kabi ma'lumotlar, o'quvchilar o'z kuchlari va bilimlariga tayangan holda olg'a intilishlari kabi muhim masalalar haqida gap boradi.

Kalit so'zlar: energiya, astronom, kosmonavt, genetika, siyosatchi;

Kasbga yo'naltirish ishida ijtimoiy muammolar muhim o'rin tutadi. Bular orasida xalq xo'jaligini rivojlantirish va kadrlar muammosi alohida ahamiyat kasb etadi. Bu masalalarni kasbga yo'naltirish jihatlari bilan o'zaro bog'liq tarzda

talabalarning mustaqil mashg'ulotlarda ko'rib chiqishi tavsiya etiladi. Hozirgi fan-texnika va ijtimoiy va taraqqiyot sharoitida yosh avlodni jamiyat barpo etishda faol qatnashishga tayyorlashi lozim bo'lgan maktablarning roli har qachongidan ko'ra muhim hisoblanadi.

Kasb-hunarga yo'naltirish o'quvchilarning kasb-hunar va mehnat bilan bog'liq rejalarini tuzish, kasb-hunar va mehnat faoliyati sohasini tanlash jarayoniga rahbarlik qilish demak. Bundan kelib chiqadiki, kasb-hunarga yo'naltirish maktab faoliyatining ajralmas qismidir. Bu nafaqat maktabning, balki barcha o'quvchi yoshlar ta'lim-tarbiyasiga ma'sul ijtimoiy institutlar, shu jumladan, oila, mahalla, davlat tashkilotlari, yoshlar ittifoqi va boshqa tashkilotlarning asosiy vazifasidir. Respublikamiz ham rivojlangan davlatlar qatori sanoatlashgan mamlakatlar sirasiga yaqinlashmoqda albatta bunda yangi kasblarning kirib kelishi bilan bog'liq bo'lmoqda.

Bizning respublikamizda ham yangi kasb maktablari, texnikumlar va turli xil markazlar tashkil etilib kasb-hunarga o'rgatilmoqda. Shu orinda dunyo mamlakatlari kabi masalan Turkiya, Hindiston, Pokiston mamlakatlari dunyo mamlakatlariga programmistlar shifokorlar tayyorlab berilayotgan davrda biz ham nufuzli kasb egalari tayyorlash nafaqat respublikamizga balki dunyo mamlakatlariga tayyorlash maqsadga muvofiq deb o'ylaymiz.

O'quvchilarni kasbga yo'llash muhim ijtimoiy -pedagogik vazifa bo'lib, umumiy o'rta ta'lim va oliy ta'limda alohida e'tibor qaratish lozim. Bizning mamlakatimizda kasb tanlash sohasida har bir shaxsga muayyan erkinlik berilgan. Bu o'ta muhim vazifalarning bajarilishini ta'minlash kasb tanlash erkinligi fuqarolik burchini tushunish bilan, mamlakatimizda barcha kasblar ham kerakli va faxrlanishga loyiq ekanligini o'quvchilarga tushuntirish lozim.

O'quvchilarni kasb tanlayotganlarida o'qituvchilar o'z ta'sirini o'tkazishga haddan tashqari intilmasliklari kerak. Bu o'rinda ehtiyotkor bo'lish va o'quvchilar ushbu kasbga chindan ham qiziqadilarmi yoki bu qiziqish tasodifiymi degan savollarga javob izlashlari lozim.

Bunga qanday erishish mumkin? Bu savolga javob topish uchun birinchi navbatda o'quvchilar o'zlari qiziqqan kasbning xususiyatlarini yaxshi bilishlari talab etiladi. O'quvchilarning kasb tanlashdagi erkinlik huquqi maktab pedagogik jamoasi tomonidan ta'minlanishi lozim. Quyida o'quvchilarni kasb tanlashga bo'lgan qiziqishlari bo'yicha 7 ta oltin qoidalar bilan tanishib olamiz.

Bilim olish istagini yanada rivojlantirish. Istakning paydo bo'lishi uchun farovon hayotga bo'lgan ishtiyoning mavjudligi yetarli. Ba'zilarga bilim olish qiyin masalaga o'xshaydi. Bu shaxsning tarbiyasiga kirib qolgan qusur hisoblanadi. Chunki zamon bilimsizlarni qabul qilmaydi, bilimsiz inson jamiyatda o'z o'rnini topa olmaydi. Odam esa jamiyatdan ajralgan holda yashay olmaydi. Kasb nafaqat tiriklik va tirikchilik manbai, balki fikrlash va bilim olish yo'nalishlarini belgilab beruvchi omildir.

Kasb tanlashda tegishli bilim manbalar sonini ko'paytirish. Agar kasb sohasida biror aytarli natijaga erishmoqchi bo'lsak, kasb sohasidagi adabiyotlar va ma'lumotlar bilan doimiy tanishib borishimiz lozim. Tanishib chiqqan ma'lumotlarni tizimlashtirib, ulardan olinayotgan axborotlarni tahlil qilish, boshqa

dalillar bilan solishtirish , umumiy lashtirish va yangi fikrlarni shakllantirish bilan shug'ullanishimiz dardkor.

O'zingizning kuchingizga va porloq kelajagingizga ishonchni mustahkamlash. Ruhiy ilhomlanish, zavqu -shavq,g'ayrat, ishtiyoqning bo'lishi insonga qanoat bag'ishlaydi, ulug'laydi, yuksaklikka ko'taradi ,shon-sharaf keltiradi. Ilhomlanish o'zingizga ,o'z kuchingizga , qo'rgan maqsadingizga , farovon hayotga yetishishingizga shubha yo'qligiga ishonishingiz bilan shakllanadi.Siz, albatta , oldingizga qo'rgan maqsadizga erishasiz.

Irodangizni mustahkamlang. Kasb tanlash bir martalik jarayon emas ,unda xatti -harakatlarni ko'p marta qaytarishga , urunishlarni boshidan boshlashga ham to'g'ri kelishi ham mumkin.Ikkilanishlar sizning yo'lingizga to'g'anoq bo'lganida qo'yilgan maqsadga bo'lgan harakatlaringizni davom ettirish uchun faqat iroda yordam beradi .Irodani mustahkamlash uchun siz o'zingiz farovon hayotga munosib inson ekanligingizni va mo'tabar , takrorlanmas shaxslingingizni unutmasingiz lozim. Har qanday kasbni egallay olasiz, siz ajoyib astranom,kosmonavt, genetika sohasining mutaxassisi , fermer , mashhur injiner yoki siyosatchi bo'lib yetisha olasiz va xokazo.

Kitob - buyuk energiya manbaidir.Chunki unda butun insoniyatning minglab yillar davomida to'plagan tajribasi (energiyasi) aks etadi. Siz kitob oqish bilan nafaqat atrofingizdagi insonlar bilan fikr almashasiz.Har qanday fikr almashish , yuqorida aytib o'tilgandek ,sizning energiyangizni, imkoniyatlaringizni kengaytiradi . Kitob o'qish orqali bir vaqtning o'zida millionlab insonlar bilan fikr almashib, o'z energiyangizni millionlab marta oshirasiz. Sizga biror kasbni tanlamoqchi ekansiz, bu sohada sizga qadar o'tgan insonlar tajribasidan, fikrlaridan foydalaning. Ularning kasb tanlash sohasidagi bilimlarni o'rganing.Bilimsiz hali hech kim hayotda yuqori natijalarga erishmagan, ayniqsa kasb sohasida.

O'zingiz sevgan kasb haqida tasavvurlarga ega bo'ling. Inson tasavvuri borliqqa sig'maydi ,kosmos cheksiz bo'lsa-da, kiprik qoqilgunga qadar tasavvurimizni qamrab oladi.Tasvvurimizning cheki yo'q.U har qanday raketadan tez uchadi . Tasavvur bilimni jilovlaydi. Inson erishgan barcha yutuqlari tasavurning sharofatidir. Barcha yaratilgan narsalar .avvalambor inson tasavvurida paydo bo'lgan , song reallikka aylangan.

Kelajagingiz ko'z oldingizda namoyon bo'lishiga erishing. Xo'sh, kelajagimiz ko'z oldimizga kelishi uchun nima qilishimiz kerak? Bu savolga ushbu usulni taklif etaman : yon daftarchangizga kelajagingiz haqida bayon yozing .Bu bayon har bir mayda chuyda tafsilotlarga e'tiborni qarating, tassavuringizga erkinlik bering. Bayon qanchalik katta hajmli bo'lsa shuncha yaxshi. Ushbu bayonni bir hafta davomida har kuni va keyingi bosqichlarida o'n kunda bur marta qarab chiqing, o'zgartirishlar kiriting , takomillashtirib boring .Imkon boricha jiddiy yondashing! Bu sizning kelajagingiz .Bayonni yoza boshlaganingizda kelajagingizni qurishni boshlagan bo'lasiz . Uni tasvvuringizda shakllantiring ,xususiy uyingiz ,avtomobilingiz , ishxonadagi xatti-harakatlaringiz kiygan kiyimingizgacha ko'z oldingizda gavdalanishi kerak .

O'zingizni muvaffaqiyatli ishlarga , farovon hayotga omadli bo'lishga tayyorlab boring. Har bir foydalangan imkoniyatimiz hayotimizning farovon

bo'lishini belgilab beradi . Buyuk shaxs - buyuk tarbiyaning natijasidir . Umr vaqtdan emas, onlardan iborat.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. A.P.Sulaymonov. "Amaliy fanlarni o'qitish va o'quv- tarbiya jarayonining sifat va sanaradorligi: muammolar va yechimlar " Toshkent- 2017 y.
 2. A.Jalolov . " Kasb qanday tanlanadi" Baxt – saodatga intiluvchilar uchun Toshkent " Yangi asr avlodi". 2010 y.
 3. N.A. Muslimov , Sh.S.Sharipov , O.A.Qo'ysinov Mehnat t'limi o'qitish metodikasi , kasb tanlashga yo'llash. Toshkent - 2014.
3. Ziyonet.uz

СПОСОБЫ ПРЕДУПРЕЖДЕНИЯ И ЗАЩИТЫ ОТ БОТУЛИЗМА

З. Мирхасилова Ташкентский институт инженеров ирригации и механизации сельского хозяйства доцент PhD

Ш Тиллаев Ташкентский институт инженеров ирригации и механизации сельского хозяйства ассистент,

Ш.Саидахметов Ташкентский институт инженеров ирригации и механизации сельского хозяйства магистр,

Аннотация: В статье говорится о возникновении Чрезвычайной ситуации по классификации эпидемиологического характера-ботулизм. О возникновении ботулизма, признаков и борьбы с ним. Статья призывает к осторожности и профилактических мер от ботулизма

Anatatsiya: Maqolada epidemilogik tabiat - botulizm tasnifi bo'yicha Favqulodda vaziyat yuzaga kelishi haqida gap boradi. Botulizmning paydo bo'lishi, belgilari va uni nazorat qilish to'g'risida. Maqola botulizmdan ehtiyotkorlik va profilaktika choralarini talab qiladi.

Ботулизм относится к чрезвычайным ситуациям эпидемиологического характера. Вспышки ботулизма происходят редко, они являются чрезвычайными ситуациями в области общественного здравоохранения, которые требуют быстрого распознавания для выявления источника инфекции, определения типа вспышки болезни (среди естественных, случайных или потенциально преднамеренных), предотвращения других случаев заболевания и эффективного лечения пострадавших пациентов. Успех лечения в значительной мере зависит от раннего диагностирования и быстрого введения ботулинического антитоксина.

Ботулизм (от лат. *botulus* — колбаса) — тяжёлое токсико инфекционное заболевание, характеризующееся поражением нервной системы, преимущественно продолговатого и спинного мозга, который развивается в результате попадания в организм пищевых продуктов, воды или аэрозолей, содержащих ботулотоксин. продуцируемый спорообразующей палочкой поражает мотонейроны передних рогов спинного мозга, вследствие чего нарушается иннервация мышц, развивается прогрессирующая острая дыхательная недостаточность.

Предполагается, что ботулизмом люди болеют на протяжении всего периода существования человечества. Так, византийский император Лев VI запретил употребление в пищу кровяной колбасы из-за опасных для жизни последствий. Однако документально заболевание было зафиксировано только в 1793 году, когда в Вюртемберге заболели 13 человек, употреблявших в пищу кровяную колбасу, 6 из которых умерли. Отсюда болезнь и получила своё название.

Различают четыре категории ботулизма:

- пищевой ботулизм (заболевание возникает после употребления в пищу продуктов, содержащих накопившийся ботулинический токсин);
- раневой ботулизм (развивается при загрязнении почвой раны, в которой создаются условия, необходимые для прорастания попавших из почвы Clostridium botulinum и последующего токсинообразования);
- ботулизм детского возраста (возникает у детей преимущественно до 6 месяцев, при инфицировании их спорами Clostridium botulinum);
- ботулизм неуточнённой природы (установить какую-либо связь возникшего заболевания с пищевым продуктом не удаётся).

Отравление токсином происходит вследствие употребления грибов, овощей, рыбы и мяса домашнего консервирования. Существуют и другие источники отравления, например чеснок или приправы, сохраняемые в растительном масле без подкисления, перец чили, плохо вымытый тушёный в алюминиевой фольге картофель, рыба домашнего консервирования, в частности — ферментированная рыба, вяленая рыба и прочее. По проведенному мониторингу - 50 % случаев болезни связаны с грибами и мясными изделиями. Помимо пищевого ботулизма, регистрируются единичные случаи ботулизма у детей до года, находящихся на искусственном вскармливании питательными смесями, содержащими мёд. Предполагают, что споры заносятся с пылью в нектар, перерабатывающийся пчёлами в мёд, который впоследствии используют в питательных смесях.

Инкубационный период ботулизма может колебаться от нескольких часов до двух – пяти суток (при тяжелом течении обычно не более 24 часов). Было отмечено, что чем короче инкубационный период, тем более тяжелым будет течение заболевания. Как правило, ботулизм начинается внезапно. Появляется выраженная общая слабость, головокружение, головная боль, значительно ухудшается общее самочувствие, температура тела в пределах нормы или немного повышенная. В животе начинаются схваткообразные резкие боли, жидкий стул, тошнота, рвота. Через сутки, данные проявления сменяются значительной сухостью во рту, вздутием живота и запорами. Далее, по прошествии достаточно короткого промежутка времени, появляются расстройства зрения: больные не могут читать, видят очень неотчетливо, может наблюдаться двоение предметов. Вследствие неполного паралича (пареза) мышцы лица, морщины и носогубные складки сглаживаются, наблюдается опущение век. При дальнейшем прогрессировании заболевания, появляется охриплость голоса (далее голос может вообще пропасть) и нарушается глотание. Очень грозным признаком, который свидетельствует о неблагоприятном течении

заболевания, является нарушение дыхания. Пациенты ощущают тяжесть в груди, нехватку воздуха, дыхание становится поверхностным, могут присутствовать боли в грудной клетке, развивается парез дыхательной мускулатуры (исчезает кашлевой рефлекс). В особо тяжелых случаях, вследствие расстройства дыхания может наступить летальный исход

По степени тяжести различают лёгкую, среднетяжёлую и тяжёлую форму болезни. При лёгком течении у больных паралитический синдром ограничивается поражением глазодвигательных мышц; при среднетяжёлом поражаются мышцы глотки и гортани. Тяжёлое течение характеризуется дыхательной недостаточностью. Поэтому еще на до госпитальном этапе следует провести такие неотложные мероприятия как: промывание желудка, первоначально кипяченой водой, а затем 2% р-ром гидрокарбоната натрия; дать больному солевое слабительное (на 500 мл воды 30 гр сернокислой магнезии), а далее энтеросорбенты (энтеродез, полифепан и пр.); сделать очистительную клизму с полифепаном или 2-4% р-ром гидрокарбоната натрия; назначить частое обильное питье с введением диуретиков (гипотиазид, лазикс и пр.). При параличе дыхания, пациент переводится на искусственную вентиляцию легких. Даже в случае своевременного оказания квалифицированной медицинской помощи, выздоровление больных при ботулизме проходит достаточно медленно. Остаточные явления после параличей могут наблюдаться еще на протяжении одного – двух месяцев

Бактерии ботулизма анаэробы, т.е. могут существовать исключительно в местах с отсутствием воздуха. Местом, в котором постоянно обитают споры ботулизма, является почва. Именно из нее они затем попадают в воду, на пищевые продукты, в овощи, фрукты, и в конечном итоге в кишечник животных (рыб, птиц, беспозвоночных, млекопитающих) или человека. Бактерии ботулизма достаточно широко распространены в природе в двух формах – в споровой и в вегетативной. Вегетативная форма этих бактерий погибает уже через 30 минут при температуре 80 градусов и через пять минут – при кипячении. Споры (споровая форма) чрезвычайно устойчивы к воздействию химических и физических факторов, так как могут выдерживать пятичасовое кипячение и погибают лишь через 30 минут при температуре 120 градусов. Одной из особенностей ботулизма является то, что при недостаточном их прогревании, из вегетативных форм зачастую могут образовываться дремлющие споры», прорастающие лишь через шесть месяцев. Эти споры очень устойчивы к прямому ультрафиолетовому излучению, высушиванию и замораживанию. В анаэробных (безвоздушных) или приближенных к ним условиях (мясо животных, консервы), споры активизируются и начинают выделять токсины, которые в 375 000 раз сильнее яда гремучей змеи. В условиях обычной внешней среды, ботулотоксины могут сохраняться до одного года, а вот в консервированных продуктах – на протяжении многих лет. Они не уничтожаются ферментами пищеварительного тракта, устойчивы в кислой среде, легко выдерживают очень высокую концентрацию поваренной соли (порядка 18%). А вот при кипячении на протяжении пятнадцати – двадцати минут, или под влиянием щелочей, токсины достаточно быстро разлагаются и

теряют токсические свойства. Также следует знать, что присутствие в пищевых продуктах ботулотоксина, никак не влияет на их вкусовые качества.

Как же предупредить ботулизм? Профилактические меры против ботулизма подразумевают строгое следование санитарно-гигиеническим нормам при изготовлении консервов, стерилизации посуды для заготовки продуктов длительного хранения. Рыбные и мясные продукты должны консервироваться исключительно в свежем и тщательно очищенном от частиц почвы виде. Консервация перезревших плодов недопустима. Консервирование в домашних условиях должно осуществляться в строгом соответствии с рецептурой при достаточной концентрации соли и кислоты в открытой для доступа кислорода посуде.

Перед употреблением необходима тщательная проверка консервированных продуктов, обязательное изъятие «бомбажных» (надутых) банок. Перед употреблением необходимо прогреть (100° С — 30 мин.) приготовленные в домашних условиях грибные, мясные и овощные консервы.

Министерство по чрезвычайным ситуациям и Министерство здравоохранения разработали комплекс мер для предупреждения случаев пищевых отравлений среди населения. С привлечением представителей государственной власти на местах, специалистов соответствующих служб ГСЧС постоянно проводятся мероприятия по противоэпидемическому и санитарному контролю областных и районных дехканских рынков, предприятий общественного питания и торговли продовольственными товарами. Особое внимание уделяется предотвращению торговли самодельными прохладительными напитками, консервированными и скоропортящимися продуктами домашнего приготовления, соблюдению правил санитарии и гигиены.


«Предупрежден – значит защищён!» Все эти методы предупреждения ботулизма просты и доступны каждому. Соблюдая их, вы оградите себя и близких от опасного заболевания.

Использованная литература

1. Z. Mirkhasilova, L.Irmuhamedova, S.Kasymbetova, G. Akhmedjanova M. Mirkhosilova Rational use of collector-drainage water 2020 IOP Conf. Ser.: Mater. Sci. Eng. 883 012092.

2. Saidhujajeva Nafisa, Nulloev Ulugbek, Mirkhasilova Zulfiya, Mirnigmatov Botir, Irmukhamedova Ludmila Production of Plant Product as a Process of Functioning Biotechnical System. IJEAT. ISSN: 2249-8958, Volume-9 Issue-1, October 2019. Mirkhasilova Z.K. Ways to improve the water availability of irrigated lands.

3. A Khojiyev , T Khaydarov , N Rajabov and J Pulatov. For taking part in International Scientific Conference "Construction Mechanics, Hudraulics and Water Resources Engineering". Optimal Solution Leaching Rates with a Deficit of Irrigation Water,



(CONMACHYDRO-2020) held on April 23-25, 2020 in Tashkent, Uzbekistan.

4. Khojiyev Aliakbar, Muradov Rustam, Khaydarov Tuygun Anvrovich, Rajabov Nurmamat, Utepov Burxon. Some Results of Moisture and Salt Transfer in the Initial Period of Plant Development. International Journal of Engineering and Advanced Technology (IJEAT); Volume-9 Issue-1, October 2019, p 6907-6911.

5. Mirzoolim A. Avliyakov , Mamta Kumari , Nurmamat Q. Rajabov , Normat Kh. Durdiev. Characterization of soil salinity and its impact on wheat crop using space-borne hyperspectral data. Геоинформационное обеспечение устойчивого развития территорий 2020 г. Том 26 Часть 3. 271-285 стр.

TEKNOLOGIYA YO'NALISHI TALABALARINI O'QITISHDA INFORMATIKA FANLARIDA IJODIY VAZIFALARDAN FOYDALANISHNING SAMARALI USULLARI

**G.A.Xusaynova NamDU San'atshunoslik fakulteti, Texnologik ta'lim
kafedrası o'qituvchisi**

Annotatsiya: ushbu maqolada pedagogika OTMlarida Texnologik ta'lim yo'nalishi talabalarni o'qitishda ijodiy topshiriqlardan foydalanish zaruriyati, ijodiy faoliyat tushunchasi, ijodiy mustaqil ish, ijodiy mashq va o'quv mummolari va ulardan informatika fanlarida foydalanish ahamiyati ko'rsatib berilgan.

Kalit so'zlar: texnologiya, ijodkorlik, ijodiy faoliyat, ijodiy mustaqil ish, ijodiy mashq, o'quv muammosi, ijodiy vazifa.

Shiddat bilan rivojlanib kelayotgan bugungi kunni yangi texnologiyalarsiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Ayniqsa ta'lim sohasini tubdan isloh qilishda yangi texnologiyalarning o'рни beqiyosdir. So'ngi yillarda mamlakatimizda informatika va axborot texnologiyalarini hamda raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish borasida davlat dasturlari ishlab chiqilib bir qator islohotlar amalga oshirilmoqda. Hususan, "Raqamli O'zbekiston – 2030" "O'zbekistonda yoshlarga oid davlat siyosatini 2025-yilgacha rivojlantirish" konsepsiyasilarini qabul qilinishi fikrimizga yaqqol dalil bo'la oladi.

Davlatimiz tomonidan amalga oshirilayotgan bunday islohotlarda birinchi navbatda malakali kadrlar tayyorlash asosiy vazifalardan biri bo'lib qoladi. Malakali kadrlar deganda nafaqat etuk bilimli balki vujudga kelgan nostandart vaziyatlardan o'zining intiluvchanligi va ijodiy yondashuvi asosida chiqib keta oladigan mutaxassislarni tushunishimiz lozim.

Hozirda kadrlarga qo'yiladigan eng asosiy talablardan biri bu ijodiylik hususiyatiga ega bo'lishdir. Zamonaviy sharoitda ijodkor shaxs ijtimoiy hayotning

barcha sohalarida jamiyat tomonidan talabga aylanadi. Bu esa ta'lim tizimidan ijodkor mutaxassislarni tayyorlashni talab etadi. Buning uchun esa avvalo ijodkor o'qituvchini yaratib olish kerak.

Bu shuni anglatadiki, oliy o'quv yurtlarida talabalarni tayyorlash darajasiga talablar ortib bormoqda. Bundan tashqari, har qanday shaxs kasbiy bilimlarning rivojlanishi natijasida muayyan faoliyat tajribasini egallaydi. Shuning uchun ham shaxs o'zining ijodkorligi bilan kasbiy faoliyat tajribasini yaratishi, boyitishi,

to'ldirishi lozim. Bunday tajribalarni talaba oliy pedagogik ta'lim muassasalarida o'zlashtirib, butun hayoti davomida boyitib boradi. O'qituvchi shaxsi har doim muhim ahamiyatga ega bo'lgan ijodiy faoliyat ko'nikmalarini namoyon eta olishi kerak. Shundagina u o'z kasbiy faoliyati davomida ijodkorligini namoyon eta oladi.

Ijodiy faoliyat – tafakkur, fikrlash shakllari bo'lib, ular qobiliyat, layoqat, havasni tarbiyalash yo'li bilan rivojlantiriladi, yangilik, ijodkorlik, ijodiy faoliyat belgilari hisoblanadi [1].

Talabalarda ijodiy faoliyatni shakillantirish uchun turli ijodiy topshiriqlardan foydalanish mumkin.

Ibragimova G.N.ning "Oliy ta'lim tizimida interfaol texnologiyalar vositasida talabalardagi ijodiy fikrlashni rivojlantirish." nomli maqolasida ijodiy topshiriqlarni quyidagi uch guruhga bo'ladi:

Ijodiy mustaqil ish;

Ijodiy mashq;

O'quv muammolari.

1. Ijodiy mustaqil ish ijodiy topshiriqlarning boshqa turlaridan ikki jihati bilan farq qiladi: operativ tashkil etish va o'quv-biluv faoliyatini davom ettirish imkoniyatiga ega ekanligi. Ijodiy mustaqil ish ta'limning shunday vositasiki, uni ta'limga tatbiq etish yo'li bilan:

– o'qish, o'rganishga ishtiyoq davom ettiriladi, dars doirasida hosil qilingan motivlarning davom etishi ta'minlanadi;

– o'rganuvchilarning bilishga, bilim, malakalar doirasini kengaytirishga olib keladi;

– o'rganilayotgan o'quv materiali ustida o'rganuvchilarning o'z faoliyatlarini mustaqil davom ettirishga zamin tayyorlaydi;

– o'rganuvchilar faoliyatiga rahbarlik qilishni ma'lum darajada osonlashtiradi.

Yuqoridagilardan kelib chiqqin holda shuni qo'shimcha qilish mumkinki, talabalarga beriladigan mustaqil ishlar odatda olingan bilimlarni mustaxkamlash va takrorlash maqsadida berilsa, ijodiy mustaqil ishlarni berishda talabalardan berilgan mavzu bo'yicha qo'shimcha ma'lumotlar bilan ishlash hamda bajarilayotgan mustaqil ishiga nisbatan ijodiy yondashish talab etiladi. Bu yerda o'qituvchi yo'naltiruvchi, motivatsiya beruvchi vazifasini bajaradi.

Ijodiy mustaqil ishlarning berilishi shunisi bilsn ahamiyatliki, dars davomida o'qituvchi barcha ma'lumotlarni o'quvchilarga to'liq yetkazib bera olmaydi.

O'quvchilarning mustaqil izlanishi esa predmetni to'liq o'zlashtirishiga hamda ma'lum bir narsalarni ijod qilishiga olib keladi. Misol uchun CorelDraw dasturiga oid mavzularda o'qituvchi elips, to'rtburchak yoli ko'pburchak singari geometrik shakllarni qanday xosil qilish, ularni shaklini o'zgartirish, o'lchov berish, rang berish kabilarni orgatishi mumkin lekin, talabalarning o'zlari mustaqil izlanishlari natijasida juda ko'plab tasvirlarni yaratishlari va ushbu geometrik shakllardan foydalanishning turli usullarini o'ylab topishlari va bu bilan o'zlarining birinchi ijod namunalarini yaratishlari mumkin.

2. Ijodiy mashq. Har doim bilimlarni esga tushirib, mashq qildirish ta'limda o'rganuvchilarning zerikishiga sabab bo'ladi. Mashq qilish jarayonida o'rganuvchilarning zerikishini bartaraf etish uchun ijodiy mashqlardan foydalaniladi.

Ijodiy mashq ikki xil xususiyatga ko'ra farq qiladi:

1) o'rganilgan bilimlar doirasini kengaytiradi. Bunda o'rganuvchi oldin o'rganilgan o'quv materialiga takroriy qaytib kelganda, o'z tushunchasi doirasini keng bilimlar, tasavvurlar, faktlar, bog'lanishlar bilan yanada boyitadi;

2) ijodiy mashqlar doimiy shug'ullanishga mo'ljallangan mashqlardan farqli ravishda ham xotiraga, ham tafakkurga moslab tuziladi. Bunda o'rganuvchi mavzu bilan birga qo'shimcha axborot, faoliyat usullarini ham ijodiy o'rganadi.

Aslini olganda informatika faning o'zi insoniyat tomonidan so'ngi davrlardagi ijod namunalari (dasturlar, texnologiyalar, dasturlash tillara va x.)ni o'rganadi.

Shunday ekan bu fanning istalgan mavzusida ijodiy mashqlardan foydalanish va talabalarni nimadir yaratishga, ijod qilishga undash mumkin. Masalan o'qituvchi HTMLda yaratilgan biror WEB sahifani CSS kodlari yordamida bezash vazifasini beradi. O'quvchilar esa belgilangan vaqt mobaynida vazifani iloji boricha sifatli qilib bajarishlari kerak bo'ladi. Belgilangan vaqt tugaganidan so'ng o'qituvchi barcha o'quvchilarning bajargan vazifalarini ko'rib ichidan eng sifatli bajarilgan ishlarning bir nechtasini oquvchilar orasida tahlil qiladi. Bu esa o'z navbatida vazifalarni yaxshi bajargan hamda biroz kamchilik bilan bajargan o'quvchilarga ham bir hilda vazifalarga ijodiy yondashish uchun qo'shimcha motivatsiya beradi. Yangi fikrlar, yangi g'oyalar paydo bo'lishiga turtki beradi.

3. O'quv muammolari «o'quv topshiriqlar majmui» bo'lib, ularni ijodiy topshiriqlar tizimi shaklida tasavvur qilish mumkin. Talabalarni ijodiy faoliyatga tayyorlashda, avvalo ularning o'zlari ushbu faoliyatga mas'ul ekanliklarini anglatish lozim [1].

Ta'lim oluvchilarning ijodiy fikrlashini rivojlantirishda muammoli ta'lim boshqa ta'lim turlaridan farqli ravishda o'rganuvchilarda bilim, ko'nikma va malakalar tizimini tarkib toptirish bilan birga, ularda yuqori aqliy faoliyat, o'z-o'zini rivojlantirishni shakllantiradi. Muammoli topshiriq o'rganuvchini mustaqil ijodiy izlanishga yo'llashdan iborat. Masalan, Power Point dasturida mavzular bo'cha taqdimot tayyorlash, CorelDrawe dasturida guruh, mutaxassislik, yoki o'quv yurtining logotipini yaratish, PhotoShop dasturida guruh vinetkasini, biror mavzu bo'yicha banner, kitob muqovasi yaratish, Python yordamida kichikroq dastur tuzish, shuningdek arzon lekin sifatli shaxsiy kompyuter yig'ish kabi muammoli topshiriqlar berish mumkin.

Bunday topshiriqlar talabadan muammolarga ijodiy yondashishni talab etadi va ijodkorlik hususiyatlarini shakllantirishda muhim rol o'ynaydi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsayk informatika fanlarida ijodiy vazifalardan foydalanish talabalarga nafaqat informatika fani bo'yicha bilimlarini chuqurlashtirish balki ularni ijodkorlikka yo'naltirishda shuningdek, kasbiy faoliyatida ijodiy topshiriqlarni berish ko'nikmalarini shakllantirishlarida muhim rol o'ynaydi. Ularni o'z ustida muntazam ishlashga o'rgatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Ибрагимова Г.Н. «Олий таълим тизимида интерфаол технологиялар воситасида талабалардаги ижодий фикрлашни ривожлантириш» Замонавий таълим / современное образование 2017, 4. Б. 12.

2. Аскарлов И.Б. «Бўлажак касб таълими ўқитувчиларида тадқиқотчилик кўникмаларини шакллантиришнинг замонавий масалалари.» Замонавий таълим /современное образование 2017, 4, Б. 21.

3. Saidov J.D. "Informatika o'qitishning zamonaviy shakli, usullari va foydalanishning ilmiy metodik asoslari." Magistrlik dissertatsiyasi. Guliston DU, 2016 y.

4. Тлегунова Т.Э. "Активизация творческой деятельности студента в процессе обучения информатике", Международный научно-исследовательский журнал • № 7 (49) • Часть 2 • Июль, С.64.

MAKTABLARDA ONA TILI DARSLARINI INNOVATSION YONDASHUV ASOSIDA TASHKIL ETISH

**G.M.Xusayinova Namangan viloyati Yangiqo'rg'on tumani 31-maktab
ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi**

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang'ich sinflarning ona tili darslarini yangicha pedtexnologiyalar asosida tashkil etishning samarali usullari va bu orqali o'quvchilarning faolligini oshirishga qaratilgan bir qator ta'lim metodlari, didaktik o'yinlar va innovatsiyalarning mazmun- mohiyati ochib berilgan.

Kalit so'zlar: Til,metod,didaktika,texnologiya,usul,innovatsiya. Kuchli va ayovsiz raqobatga asoslangan bozor iqtisodiyoti tadbirkor, ijodiy tafakkur sohibi bo'lgan, har qanday qiyin vaziyatdan o'z aql- idroki bilan omon chiqa oladigan mustaqil fikrli, shu bilan birga, shuurida milliy ruhi mustahkam shaxsni tarbiyalashni talab etadi.

Bugungi kunda yoshlar ta'lim- tarbiyasi masalasi har doimgidan ham dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Shu nuqtayi nazardan kelib chiqib, globallashuv sharoitida raqobat tobora kuchayib borayotgan bir sharoitda fan sohalarini rivojlantirib, ta'lim-tarbiyani yanada yuksak pog'onalarga ko'tarish uchun yangicha yondashuv hamda tamoyillarni ishlab chiqish maqsadida yurtimizda ko'pgina amaliy ishlar amalga oshirilmoqda. Bu esa prezidentimiz tomonidan qabul qilingan Harakatlar strategiyasining maqsad- mazmuni bilan uyg'un bo'lib, unda belgilangan vazifalarning bevosita davomiy ko'rinishi sifatida ta'lim- tarbiyaning rivojida yangi bosqichni boshlab berishi shubhasizdir.

Istiqloq natijasi o'laroq, davlat ta'lim hujjatlarida ona tili ta'limi maqsadi muayyanlashtirildi. Ona tili mashg'ulotlari bolalarda ijodiylik, mustaqil fikrlash, ijodiy fikr mahsulini nutq sharoitiga mos ravishda og'zaki, yozma shakllarda to'g'ri, ravon ifodalash ko'nikmalarini shakllantirish va rag'batlantirishga qaratildi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida nutq yaxshi rivojlanmagan bo'ladi.

Shuningdek ularning so'z boyligi ham ancha kichik. Buning uchun ona tili darslarida boshlang'ich sinf o'quvchilariga ko'p qoidalarni ko'r- ko'rona yodlatmasdan, asosiy e'tiborni darslikda berilgan matn asosidagi mashqlarning topshiriqlarini bajartirishga qaratish lozim. Bugungi kunning ham asosiy dolzarb vazifasi ham ijodiy tafakkur sohiblarini yaratishdir. O'quvchi kichik yoshdan tafakkur qilib, mantiqiy fikrlashni o'rganib borsa, unda shaxsiy fikrlash qobiliyati rivojlanadi

va yon- atrofda bo'layotgan o'zgarishlarga befarq qaramasdan, o'z nuqtayi nazarini bildira oladi.

Shunga ko'ra men ona tili darslarini o'tish jarayonida turli metodlardan foydalanishni afzal deb bilaman. Masalan: "FSMU", "Ortiqchasini top", "To'liqsiz maktub", "Tushunchalar tahlili"...Bu metodlar asosida tashkil qilingan darsl arda boshlang'ich sinf o'quvchilarida kommunikativ nutq rivojlanadi, mustaqil ishlash ko'nikmalari shakllanadi, dars jarayonining faol ishtirokchisiga aylanadi. Masalan: "FSMU" texnologiyasidan 3- sinflarda sifat so'z turkumini o'tib bo'lgandan so'ng

mustahkamlash darslarida foydalansa maqsadga muvofiq bo'ladi. FSMU – munozarali masalarni hal etishda, bahs- munozaralar o'tkazishda yoki o'quv rejasi asosida biron bo'lim o'rganib bo'lingach, qo'llanilishi mumkin, chunki bu usul o'quvchilarni o'z fikrini himoya qilishga, erkin fikrlash va o'z fikrini boshqalarga o'tkazishga, ochiq holda bahslashishga, shu bilan birga o'quvchilarni o'quv jarayonida egallagan bilimlarini tahlil etishda, qay darajada egallaganliklari baholash va bahslashish madaniyatiga o'rgatadi.

F - F ikringizni bayon eting: sifat so'z turkumi belgini ifodalaydi.

S - Fikringiz bayoniga sabab ko'rsating: Chunki darslikda shunday fikr bor:

Shaxs- narsa belgisini bildirgan so'z sifat deyiladi. Qanday?, Qanaqa? So'roqlariga javob bo'ladi.

M- Ko'rsatgan sababingizni isbotlab, misol keltiring: Masalan; Qizil, chiroyli, baland, achchiq, xushbichim.

U- Fikringizni umumlashtiring: Demak, sifat so'z turkumi narsaning belgisini bildirib gapda ot so'z turkumiga bog'lanib keladi: Qizil kitib, chiroyli manzara, baland bino, achchiq haqiqat, xushbichim ayol.

"Ortiqchasini top" o'yin usulidan boshlang'ich sinflarning ona tili darslarining xohlagan takrorlash, mustahkamlash darslarida foydalansa bo'ladi. Bunda o'quvchiga berilayotgan so'zlar faqat bir hodisa, mavzu asosida yoki boshqa biror jihatlari bilan umumiy xususiyatga ega bo'lib, ular ichida faqat bittasi "ortiqcha" bo'ladi. O'quvchi ana shu so'zni aniqlay olishi va javobni izohlay olishi kerak.

Masalan: boshlang'ich sinflarning ona tili darsligining yil boshida berilgan tilning fonetika bo'limiga oid nutq tovushlaridan:

B,D, G, V, Z, T, G'

Javob: "T" undoshi. Sabab yuqoridagi barcha tovushlar jarangli undoshlar hisoblanadi, "T" undoshi esa jarangsiz.

Mustaqil so'z turkumlaridan:

Anor, opa, burgut, payola, Vatan, baland, kitob.

Javob: Baland. Chunki baland so'zi qanday so'rog'iga javob bo'lib, sifat so'z turkumi sanaladi, qolgan so'zlar esa ot so'z turkumi.

So'z yasalishi bo'yicha:

Sinfidosh, chiroyli, sersuv, maktabning, o'rikzor, odamsimon.

Javob: maktabning, chunki – ning qo'shimchasi qaratqich kelishigining qo'shimchasi bo'lib so'zni so'zga bog'lashga xizmat qiladi ya'ni shakl yasovchi qo'shimcha, qolgan so'zlardagi qo'shimchalar esa so'z yasovchilar.

Imlo bo'yicha: ilm, darax, mutolaa, hamisha, xatti- harakat.

Javob: Darax so'zi imlo qoidasiga ko'ra noto'g'ri yozilgan aslida daraxt

yoziishi kerak.

“To’liqsiz maktub” metodi. Mazkur usulda o’quvchilarga o’rganilgan material, mavzu yoki she’riy parcha yuzasidan to’liq bo’lmagan, asosiy atama yoki tushunchalari tushirib qoldirilgan topshiriqni taqdim etamiz. O’quvchilar tushirilgan bo’shliqlarni to’ldirishlari lozim. Bu usulni o’tilgan mavzuni mustahkamlash jarayonida o’quvchilar bilan yakka tartibda, juftlikda yoki guruhlarda qo’llash tavsiya etiladi.

Boshlang’ich sinflarning ona tili darsligida berilgan ot so’z turkumi mavzusiga oid mashqlarni “To’liqsiz maktub” metodidan foydalangan holda bajaramiz.

Sharti: Tushirib qoldirilgan ot so’z turkumiga oid so’zlarni tiklang.

----- chiqdi. ----- qo’noqdan tushdi.----- zavodga ketdi.-----dalada ishlayapti. -----ko’chat ekdi. -----maktabga bordi.

Matnni tiklaymiz: Quyosh chiqdi. Tovuq qo’noqdan tushdi. Ishchi zavodga ketdi. Dehqon dalada ishlayapti. Bobom ko’chat ekdi. Sharif maktabga bordi.

“Tushunchalar tahlili metodi: Fan bo’yicha o’tilganlarni o’quvchilar tomonidan yodga olish, biron- bir mavzu bo’yicha o’qituvchi tomonidan berilgan tushunchalarga mustaqil ravishda izohlar berish, shu orqali o’z bilimlarini tekshirib baholashga imkoniyat yaratish va o’qituvchi tomonidan qisqa vaqt ichida barcha o’quvchilarni baholay olishga yo’naltirish.

Tushunchalar	Mazmuni
Ot so’z turkumi	Shaxs va narsa nomini bildirib, kim?, nima?
So’rog’iga javob bo’ladi.	
Sifat so’z turkumi	Shaxs va narsaning belgisini bildirib, qanday,
Qanaqa? so’rog’iga javob bo’ladi.	
Son so’z turkumi	Shaxs va narsalarning sanog’ini bildirib,
Necha? Necha? so’rog’iga javob bo’ladi.	
Fe’l so’z turkumi	Shaxs va narsaning harakatini bildirib, nima
qildi? nima qilyapti? Sorog’iga javob bo’ladi.	

Xulosa qilib aytganda, boshlang’ich sinflarning ona tili darslarini innovatsion yondashuvlar asosida tashkil etish, o’quvchi ijodkorligini, o’qituvchi va o’quvchi hamkorligini ta’minlaydi. Dars jarayonining yanada mazmunli, samarali o’tishini kafolatlaydi.

Adabiyotlar ro’yxati:

1. “Ta’lim sifatini oshirish: muammo, yechim va istiqbol (Buxoro tajribasi) mavzusida”gi respublika ilmiy- amaliy anjuman materiallari. – B. 2020,8-may.

2. Yo’ldoshev J.G’., Usmonov S. Ilg’or pedagogik texnologiyalar. T.: O’qituvchi, 2004

3. Rustamova A. Ona tili va adabiyot darslarida zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish orqali o’quvchi kompetentligini shakllantirish usullari. – B. 2018, 3-4 b

4. D. Yo’ldosheva, R. ashurbayeva. Ona tili ta’limida zamonaviy pedagogik texnologiyalar. T.: Turon Zamin ziyo. 2018.

ЎҚУВЧИЛАРИНИ КАСБ-ХУНАРГА ЙЎРАЛТИРИШДА “УСТОЗ-ШОГИРД” АНЪАНАСИНИНГ МАЗМУН-МОҲИЯТИ

G.A.Xusayinova NamDU San’atshunoslik fakulteti, Texnologik ta’lim kafedrası o’qituvchisi

Аннотация: Мақолада ўқувчиларининг касб-хунарга йўналтиришда “устоз-шогирд” аънарасининг мазмун-моҳияти тўғрисида тўхталиб ўтилган.

Калит сўз: Касб, хунар, “Устоз-шогирд”, бошланғич таълим, инсон ва шахс ривожини.

Ҳар бир авлод олдида инсоният яратган жамийки билимларни ўрганиш ва ўзлаштириш вазифаси туради. Ҳаёт тараққиёти ва жамият ривожини шусиз тасаввур қилиб бўлмайди. Бу вазифани бажаришнинг бирдан-бир ёш авлоднинг ўқув-билув кўникма ва малакасини шакллантиришдир. Ҳадисларда: «Бешиқдан то қабргача илм изла», дейилишида жуда ката ҳикмат бор. Илм бобидаги изланиш эса инсонни маънавий-ахлоқий камолот сари етаклайди. Шунинг учун ҳам халқ таълими олдидаги энг катта муаммо ўқувчиларнинг ўқув-билув фаолиятига келиб тақалиши бежиз эмас. Зеро, ўзлаштиришнинг пастлиги ўқитувчиларни ҳамини қийнайдиган долзарб масалалардан биридир. Замонавий фан, таълим тизимлари инсон ва шахс ривожини тушунишнинг яхлит назариясини яратишда бугунги кун ёшларининг интеллектуал салоҳиятини аниқлаш ва шу асосда уларнинг фаолиятини амалга ошириш ўта долзарб масала ҳисобланади.

Шу нуктаи назардан олиб қаралганда умумий ўрта таълим муассасаларида ўқувчиларнинг билиш жараёнларини уларнинг қизиқишларини ҳисобга олган ҳолда ташкил этиш, назорат қилиш, билим, кўникма ва малакаларни баҳолаш, қайта боғланиш ёрдамида имкониятларни лойиҳалаш муҳимдир.

Бу жараёнлар эса, ўз навбатида, интеллектуал ёшларнинг билим олиш сифатини оширишга кенг имкон беради. Таълим сифати - бу "таълим олувчи таълим берувчи" даражасида мунтазам равишда, таълим олувчиларнинг реал имкониятлари даражасидан келиб чиқиб йўлга қўйиш, яъни яқин ривожланиш зонасини назарда тутишни англатади. Шунга кўра, бугунги кунда таълим муассасаларида таълим олувчиларнинг қизиқишлари йўналишларини аниқлаш, ташхис ишларини тизимли ташкил этиш, таълим-тарбия жараёнида ўқувчиларнинг ўзлаштириш хусусиятларига асосланиш алоҳида аҳамият касб этади. Ҳозирги пайтда педагог ва психологларнинг диққат марказини ўқув предметларининг назарий асослари ва уларнинг тузилиши билан бир қаторда ўқувчилар фаолияти, унга даҳлдор психологик ва педагогик қонуниятлар ҳамда ўқув фаолиятини самарали бошқариш омиллари ҳам банд этиб турибди. Ўқувчиларнинг билиш фаоллигини ошириш, уларни ўқишга қизиқтириш ва уларнинг фанларга қизиқишини ошириш долзарб муаммодир.

“Қизиқиш – шахснинг ўзи учун қимматли ва ёқимли бўлган муайян нарса ва ҳодисага муносабати. Бунда инсоннинг ўзига хос хусусияти бевосита мужассамлашади. Қизиқиш билимларни онгли, пухта, барқарор, англаган ҳолда ўзлаштиришда, кўникма ва малакаларни шакллантиришда қўл келади, шахс

қобилияти, зеҳни, укувчанлигини ривожлантиришга, оламни мукамалроқ тушунишга ёрдам беради. Қизиқиш инсонда интилиш, фаоллик, ички туртки, эҳтиёжни рўёбга чиқариш манбаи вазифасини бажаради. Қизиқиш шахснинг борлиққа танлаб муносабатда бўлишида, ўзига хос қарор қабул қилишида, ўзини ўзи назорат эта билишида, мақсадга интилувчанлигида, юзага келган тўсиқларни енгишида ифодаланади”.

Бола тарбияси, уни касб-ҳунарга қизиқтириш масалалари азалдан олимлар, педагоглар, мутафаккирлар диққат марказида бўлган. Абу Наср Форобий, Абу Али ибн Сино, Абу Райхон Беруний, Муҳаммад Хоразмий, Маҳмуд Қошғарий, Юсуф Хос Ҳожиб каби қомусий олимлар, кейинчалик Комил Хоразмий, Алишер Навоий, XX аср бошларида эса жадидчи маърифатпарварлар каби кўплаб юртдошларимизнинг педагогик меросида болани кичиклигидан касбий эҳтиёжларни шакллантириш, қизиқишлари ва имкониятларига қараб ўқитиш, таълим-тарбияда турли усулларни қўллаш ғоялари илгари сурилади. “Ҳар бир кишини унинг борлиги ва қобилиятига кўра ўқитиш керак. Акс ҳолда таълим тарбия кўзланган натижани бермайди” (Ибн Сино). “Ҳар қимки илм-ҳикматни ўрганаман деса, уни ёшлигидан бошласин, саломатлиги яхши бўлсин, яхши ахлоқ ва одобли бўлсин, сўзининг устидан чиқсин, ёмон ишлардан сақланадиган бўлсин, хиёнат, макр-ҳийладан узоқ бўлсин”. (Абу Наср Форобий).

Мактабга қадам қўйиш билан бола ҳаётида муҳим ўзгаришлар содир бўлади. У янги режимнинг айрим муҳим одатларини ўзлаштиради, ўқитувчи ва ўртоқлари билан ишончли муносабатлар ўрнатади. Ўқув материали мазмунига нисбатан пайдо бўлган қизиқиш асосида унда ўқишга бўлган ижобий муносабат мустаҳкамланади. Бу ёшдаги бола идрокнинг ўткирлиги ва софлиги, унинг қизиқувчанлиги ва ҳаёлининг ёрқинлиги ҳаммага маълум. Бунининг ўйинида, расм чизишида, лой ва пластилиндан нарсалар ясаш ишларида, оддий қуриш ясаш машғулотларида яққол кузатиш мумкин.

Кичик мактаб ёши давомида болаларнинг ўқишга муносабатида муайян динамика кузатилади. Дастлаб улар ўқишга умумий ҳолда ижтимоий фаолият сифатида интилишади. Кейин эса уларни ўқув ишининг алоҳида усуллари жалб этади. Ниҳоят, бола ўқув фаолиятининг ички мазмунига қизиқиб, ўқув-назарий вазифаларни аниқ-амалий вазифаларга мустақил ўзгартиради. Қизиқишнинг шаклланиш қонуниятларини тадқиқ этиш замонавий болалар ва педагогик психология вазифаларидан биридир. Ўқув жараёни ва ўқув фанларига қизиқиш ўқувчиларнинг идрок, диққат, хотира, тафаккур каби рухий жараёнларига боғлиқ. Ахлоқий-меъёр ва қондаларни ўзлаштириш. Мактабда бола доимий ва мақсадли назорат қилинувчи аниқ ва кенг ахлоқий талаблар тизимида дуч келади. Етти-саккиз ёшли болалар меъёр ва қондалар моҳиятини аниқ тушунади ва уларни ҳар қуни бажаришга психологик жиҳатдан тайёр бўлади.

Лекин ўқитувчи бундан ҳар доим ҳам тўғри ва ўз вақтида фойдалана олмайди. Ўқувчини кичкина деб ҳисоблайди ва ҳоказо. Бола инсоний муносабатлар тизимида ҳам алоҳида ўрин эгаллаётганини, ота-онаси, яқинлари, атрофдагилар унга ёш боладек эмас, балки ўз вазифалари,

мажбуриятлари бор бўлган, ўз фаолияти натижасига кўра ҳурматга сазовор бўлиши мумкин бўлган алоҳида шахс деб муносабатда бўлаётганларини ҳис

килади. Бунинг натижасида боланинг оиласи, синфи ва бошқа жамоалардаги ўз ўрнини англай бошлаганини кўриш мумкин. Бу даврда боланинг "Мен шуни хоҳлайман" мотивидан "Мен шуни бажаришим керак" мотиви устунлик қила бошлайди.

Мотив (лотинча мовео – ҳаракатлантираман) – инсоннинг хулқи ва ҳаракатларининг ички психологик сабаби.

Мотив – 1) инсонни ўқишга ёки муайян ҳаракатларни бажаришга ундовчи турли сабаблар йиғиндиси;

2) ўқувчининг маълум эҳтиёжларни қондириш билан боғлиқ фаолиятга мойиллиги Мотив, авваламбор, ўқишга муносабатда кўринади. Ўқишга муносабат:

1) салбий – мотив юк ёки кам;

2) бекфарқлик – мотив ёқ ёки кам, лекин ўзгартирса бўлади;

3) ижобий (аморф) – мотив бор, аммо кучсиз;

4) ижобий (билиш, фаол мотив бор, тушуниш) – кучли;

5) ижобий (шахсий, жавобгарлик мотиви бор, ҳаракатчан) – чуқур англаган бўлиши мумкин.

Инсон фаолиятига энг кучли таъсир кўрсатувчи мотивлардан бири – қизиқишдир. Билиш қизиқиши ўқувчининг ўрганиш обектига эмотсионал муносабатида намоён бўлади.

Рус психологи Л.В.Виготский бу ҳақида шундай ёзган: "Қизиқиш – бола хулқининг табиий двигатели, у инстинктив интилишнинг ҳаққоний ифодаси, боланинг фаолияти унинг табиий эҳтиёжларига мослиги намоёйиши. Шунинг учун ҳам асосий қоида бутун тарбия тизимини бола қизиқишларини аниқ инобатга олган ҳолда қуришни талаб қилади... Педагогик қонун қуйидагини таъкидлайди: болани бирор фаолиятга ундашдан олдин унинг ушбу фаолиятга тайёрлигини, боланинг бу иш учун зарур барча кучи ва имкониятлари сафарбар этилгани ва бола ўзи ҳаракат қилишини, ўқитувчи эса фақат унинг фаолиятини бошқариб, йўналтириб туришини аниқлашидир"

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Tarbiya: (ota-onalar va murabbiylar uchun ensiklopediya) tuzuvchi M.Aminov. – T.: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2010, 512-b.
2. Pedagogik atamalar lug'ati. – T.: Fan, 2008, 81-b.
3. Виготский Л.С. Педагогическая психология. – М., 1996., 84-b

O'QUVCHILARNI KASB – HUNARGA YO'NALTIRISHDA TEKNOLOGIYA FANINING AHAMIYATI VA O'RNI

J.Muxitdinova, NamDU katta o'qituvchisi

**M.Mamadaliyeva Namangan viloyati Kosonsoy tumani 22-sonli umumiy
o'rta ta'lim maktabining texnologiya fani o'qituvchisi.**

Annotatsiya: ushbu maqola umumiy o'rta ta'lim maktablarida Texnologiya fanini o'qitish orqali kasb-hunarga yo'naltirish muhimligini yoritib berishga bag'ishlangan. Shu bilan birga maqolada kasb, mutahassislik, shaxsning mehnatga munosabati kabi tushunchalarga keng ta'rif berilgan.

Kalit so'zlar: kasb, mutahassislik, shaxs, mehnatga munosabat, o'quvchi

Joriy yil Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev viloyatlarga tashrifi chog'ida Xalq ta'limi vazirligiga alohida ko'rsatmalar berdi. Prezident yoshlarni ish bilan ta'minlash, ularni kasb-hunarga yo'naltirish masalalariga alohida to'xtalib o'tib, yangi o'quv yilidan 7-sinfdan boshlab o'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish lozimligini ta'kidlab o'tdi.

Prezidentning Xalq ta'limi vaziri Sh.Shermatovga bergan ko'rsatmasiga ko'ra 20202021-o'quv yilidan 7-sinfdan boshlab o'quvchilar kasb-hunarga yo'naltirilib, ular aynan qanday kasb egasi bo'lishi aniqlanadi. 8, 9, 10 sinfga qadar ular o'zlari tanlangan kasb-hunar bo'yicha o'qitilib boriladi. 10 sinfda ularga ishlash huquqini beruvchi guvohnomalar beriladi. 11 sinfda esa o'quvchilar bir vaqtning o'zida korxonaga va tashkilotlarda rasmiy tarzda ishlab oylik maosh olishlari ham mumkin bo'ladi. 11 sinf bitiruvchilarining ish bilan ta'minlanishiga hokimlar va hududiy sektor rahbarlari javobgar hisoblanadi. [5,1-b].

Ushbu kursatmadan kuninib turibdiki yoshlarni ish bilan ta'minlash, kasbga yunaltirish davlatimiz siyosatining ustivor vazifalaridan biri bo'lib turibdi. Bu borada maktab bitiruvchilarini kasbga yo'naltirish, iqtidoridan kelib chiqib to'g'ri kasb tanlashi katta ahamiyatga ega.

Bugungi butun jahon iqtisodiy taraqqiyot davrida umumiy o'rta ta'lim maktabi, o'quvchilarining mehnat tarbiyasi, ta'limi va ularni kasb tanlashga yo'naltirish to'liqsiz o'rta maktabni tugatadigan paytgacha puxta o'ylab kasb tanlashga va o'qishni davom ettirish uchun tegishli o'quv yurtini tanlab olishga tayyorlashi lozim. Buning uchun umumiy o'rta ta'lim maktablarini bugungi kun mohiyatiga muvofiq ravishda yanada rivojlantirish, maktabning hamma uchun umumiy ta'lim vazifasini mustahkamlash va ancha yuksaltirish bilan birga uni har bir kishining shaxsiy qobiliyatlariga muvofiq ravishda rivojlantirmoq kerak. Kasb tanlashni tashkil etish va uni yo'lga qo'yish ham shu bilan bog'liq.

O'zbekistonda ishlab chiqarish kuchlarining tez rivojlanishi, tadbirkorlikning jadal sur'atda o'sishi, sanoat ishlab chiqarishning takomillashishi, malakali ishchilarni talab etmoqda. Umumiy ta'lim maktab bitiruvchi yoshlari ularning saflarini to'ldirishi muhim manbadir.

O'quvchi - yoshlarni o'z qiziqishlari bo'yicha kasb - hunarga yo'naltirish bugunning dolzarb vazifasidir. Hozirgi umumiy ta'lim maktablarining bitiruvchilari fan asoslaridan mustahkam va chuqur bilimga ega, qisqa muddat ichida yangi texnologiyalarni o'zlashtirishga qodir bo'lishlari axborot - texnologiyalari bilan ishlay olishlari kerak.

Avvalo, umumiy o'rta ta'lim maktablarining amaliyot uchun moddiy texnik bazalarini ta'minlash o'quv xonalarini talab darajasida tashkillash muhimdir. Hammamizga ma'lumki so'nggi yillarda amaliy fanlar jumladan texnologiya faniga bo'lgan e'tibor Xalq ta'lim vazirligi etiboridan chetda qolgani sir emas. Amaliy fanlar o'z nomi bilan amaliy, o'quvchiga shunchaki nazariy bilim berish boshqa, ko'z oldida nazariy bilimni mustahkamlab, amaliy ko'nikma berish juda katta ulkan taassurot kuchiga ega bo'ladi. Har bir dars loyihalashdan boshlanadi, vaholanki, loyihalash ko'nikmalari faqat yaxshi nazariy tayyorgarlik negizidagina hosil bo'ladi. Maktab

ta'limining kasb – hunarga yo'naltirishi o'quvchilar bilan kasb tanlash ishlarini olib borishning dastlabki boshlang'ich bosqishi hisoblanadi. Uning asosiy maqsadi o'quvchilarda hozirgi paytda kuchli ehtiyoj sezayotgan kasblar va mutaxassisliklarga qiziqishni tarbiyalashdan iborat.

Kasb – xalq xo'jaligining maxsus tayyorgarlikni, chuqur bilimlar, malakalar va mehnat ko'nikmalarini taqozo etadigan muayyan sohasidagi insonlarning mehnat faoliyat turidir. Bu tushuncha jamiyatda mehnat taqsimoti turi yoki tarmog'i shaklining ifodasidir.

Mutaxassislik – alohida insonlarning maxsus ta'limni, yuqori mehnat va ishlab chiqarish malakasini talab etuvchi mehnat faoliyatining ancha tor, aniq ifodasidir.

Shaxsning mehnatga munosabati uchta asosiy omil bilan belgilanadi:

- Ishga qiziqish va moyilligi;
- Shaxsning o'ziga xos xususiyatlari va imkoniyatlari;
- Ijtimoiy zarurat yoki xalq xo'jaligining mehnatga ehtiyoji.

Kasb tanlashni taraqqiyot jarayonining natijasi sifatida qarash mumkin, unda shaxs va uning qobiliyati, mayli, etiqodi va maqsadlari, oilaning, olgan ta'limi va bilimining ta'siri, kadrlarga talab asosiy kuch bo'ladi.

Shaxs rivojlanishi jarayonida kasb tanlashning bir qancha davrlari o'sadiki, ularning asosiylari quyidagilardan iborat:

1. Kasbdagi harakat hamda shu bilan bog'liq natija va qiziqish jalb etadigan hayoliy davr;

2. Jamiyatda o'z o'rnini belgilash bilan bog'liq manfaatlar, qobiliyatlar, qadriyatlar asta sekin anglanadigan va nihoyat kasb tanlash haqida ko'pgina elementlarni qo'shish asosida bir qarorga kelish kerak, degan tushuncha paydo bo'ladigan sinov davri;

3. Ko'pgina omillar chamalab ko'riladigan, eng maqbul yo'nalish belgilanadigan va tor mutaxassislik tanlanadigan haqiqiy tanlash davri.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'quvchi – yoshlarni kasb hunarga tayyorlash tizimini rivojlantirish bo'yicha qo'shimcha chora – tadbirlar to'g'risida"gi qarori loyihasi ishlab chiqildi.

Ushbu qaror loyihasiga ko'ra quyidagilar yangi tizimni amalga oshirishning asosiy yo'nalishlari etib belgilanadi:

- ichki va xalqaro mehnat bozorida raqobatbardosh kasblarga bo'lgan ehtiyojni aniqlash va zarur malakaviy ko'nikmalarni belgilash;

- umumiy o'rta ta'lim muassasalari mutaxassislari tomonidan o'quvchilarni 7-sinfдан boshlab kasb-hunar egallash va Internet tarmog'i orqali xizmatlar ko'rsatish (ishlar bajarish) yo'li bilan o'zini o'zi band qilish yo'nalishlariga qiziqishlarini aniqlash va bunday o'quvchilarning ma'lumotlari bazasini yaratish;

- kasb-hunar egallash va frilansga qiziqishi yuqori bo'lgan o'quvchilar ma'lumotlari bazasini umumiy o'rta ta'lim muassasalari bitiruvchilari bandligi elektron bazasi bilan integratsiya qilish, onlayn monitoring olib boruvchi axborot tizimini yaratish;

- umumiy o'rta ta'lim muassasalari o'quvchilarining kasbiy moyilligi bo'yicha o'tkazilgan tahlillar asosida 9-sinfdan so'ng kelgusida aniq ishchi kasblar bo'yicha kasb-hunar maktablarida ta'lim olishi mumkin bo'lgan o'quvchilar o'rtasida kasbga yo'naltirish ishlarini olib borish;

- Mahalla va oilani qo'llab-quvvatlash vazirligi tomonidan tasdiqlangan ro'yxatlar asosida kam ta'minlangan oilalar farzandlari bo'lgan 10-sinf o'quvchilariga ularning qonuniy vakili roziligi asosida kasb-hunar va frilansingga o'rgatuvchi barcha davlat va nodavlat tashkilotlarda o'qish xarajatlarini qoplovchi hujjatlar (vaucherlar) berish;

- bitiruvchilar uchun tegishli kasblar bo'yicha o'quv reja va dasturlar, amaliyotlar o'tash tartibi, o'quv-metodik qo'llanmalar ishlab chiqish va joriy etish;

- umumiy o'rta ta'lim muassasalari o'quvchilarini kasbga yo'naltirish ishlarini samarali shakllarini ishlab chiqish va joriy etish;

- umumiy o'rta ta'lim muassasalarining 10-11-sinf o'quvchilariga tanlov fanlari yo'nalishidagi (variantiv) o'quv reja asosida kasb-hunarga yo'naltirish;

- manfaatdor vazirlik va idoralar, mahalliy davlat hokimiyati organlari bilan birgalikda hamda tadbirkorlik sub'yektlari bilan hamkorlikda kasb-hunar yo'nalishlari bo'yicha sertifikatga ega umumiy o'rta ta'lim muassasalarining 11-sinf bitiruvchilarini ish bilan ta'minlashga ko'maklashish;

- respublika ta'lim tashkilotlari bilan hamkorlikda ilg'or xorijiy tajriba asosida umumiy o'rta ta'lim muassasalari bitiruvchi sinf o'quvchilarini kasb-hunarga yo'naltiruvchi va o'rgatuvchi mutaxassislar malakasini oshirish va qayta tayyorlash kurslarini tashkil etish.

Yuqoridagi fikrlarga qo'shimcha tarzda shuni aytishni lozim topdikki texnologiya fanini o'qitishda, kasb – hunarga yo'naltirishda bugungi kun o'quvchisiga aniq shakl, isbot, dalillar muhimdir. Chunki axborot texnologiyasi, internet jadal rivojlangan sharoitda texnologiya darslarida ma'lum bir chorak muddatda ekskursiya va uchrashuv soatlari tashkillashdir. Kasb – hunarning yuksak cho'qqilarini zabt etgan, faoliyati davomida barchaga ibrat yo'l bosib o'tgan faol shaxslar, hamda ishlab chiqaruvchi, tadbirkor, tashkilot, firmalarning namunali faoliyatlarini bilan jonli tarzda tanishishni tashkillashdir. Bu narsa o'smir o'quvchilar qiziqishi, moyilligi, orzu istaklarida mardonavorlikni yanada rivojlantiradi. Psixologlarning aniqlashicha, odamning munosabatlari uning ruhiy faoliyatining barcha turlariga avvalo bilish va atrofdaqi voqelikni o'zgartirish bilan bog'liq turlariga katta ta'sir qiladi.

Yakunlovchi fikr sifatida shuni aytib o'tish joizki yoshlarga ta'lim –tarbiya beruvchi o'qituvchi, ustoz, murabbiy, ta'lim hodim, mutaxassis, raxbar nafaqat bilimdon, balki eng avvalo, yuksak insoniy sifatlar soxibi bo'lishi lozim. Darhaqiqat o'quvchi yoshlarning fanga qiziqishi yoki kasb-hunar tanlashni, uni o'rganish. malakali mutaxassis bo'lib yetishishiga talim-tarbiya beruvchilarning ma'lakali mutaxassis bo'lib yetishida ta'lim-tarbiya beruvchilarning ma'naviyasi axloqiy fazilati bilimda maxorati mehnat sevarligi fidoiyligi bir so'z bilan aytganda, ijtimoiy-madaniy komolati muhim ahamatga ega. Shuningdek ularning kasb madaniyati ham alohida

o`rin tutadi. Zero mutaxassis hodimning maxoati yoki kasb madanyati qanchalik yuksak bo`lsa, uning faoliyati shunchalik samarali bo`ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O`zbekiston Respublikasi Prezidentining "O`quvchi – yoshlarni kasb hunarga tayyorlash tizimini rivojlantirish bo`yicha qo`shimcha chora – tadbirlar to`g`risida"gi qaror loyihasi. 2020

2. Yuldasheva X.M. Maktab o`quvchilarini kasbga yo`naltirishning ayrim jihatlari haqida. Maqola "Science and Education" Scientific Journal, Volume 1 Issue 3. June 2020, pp.407-412

2. G`oziyev E., Mamedov K. Kasb psixologiyasi. – T.: O`zMU, 2003. 156-b

3. Yusupova F. I. O`quvchilar individual tayyorgarligini amalga oshirishning pedagogik-psixologik jihatlari. "Xalq ta`limi" jurnali. 2005. №5. 90-93-b.

4. Maxmudova .D. "O`quvchilarni kasbga yo`naltirishga oid pedagogik faoliyat elementlari orasidagi uzviylik va uzluksizlikni ta`minlash". Xalq ta`limi jurnali. №3 son, 57-58 bet.

5. <https://uzbekistan.ureport.in/story/364/>

6. <https://t.me/dokument>

УЧЕТ НЕОДНОРОДНОСТИ КРИСТАЛЛОВ ПРИ ИЗУЧЕНИИ ИХ ОПТИЧЕСКИХ СВОЙСТВ

С.Ф.Суюнов Ташкентский институт инженеров ирригации и механизации сельского хозяйства стажёр - преподаватель кафедры « Безопасность жизнедеятельности »,

М.А., Мусурмонова , М.Ш.Рўзибоева Студенты Ташкентского института инженеров ирригации и механизации сельского хозяйства.

Аннотация: Развитие различных секторов экономики значительно облегчило человеческий труд. Исследования в различных областях науки привели к решению различных проблем человечества. В статье исследуются оптические свойства неоднородных кристаллов.

Annotatsiya: Xalq xo`jaligining turli tarmoqalarining rivojlanishi insoniyat mehnatini ancha yengillashtirib bormoqda. Ilm-fanning turli sohalarida tadqiqotlar olib borilishi insoniyatning turli muammolarining yechimi topilishiga sabab bo`ladi. Maqolada bir xil bolmagan kristallarning optik xususiyatlari o`rganilgan.

Как и всеми учёными по спектроскопии кристаллов, нами многие годы были изучены оптические свойства кристаллов, в том числе и кристаллы кубической сингонии. Как известно, кристаллы кубической сингонии и кристаллы в направлении оптической оси должны быть изотропными при наблюдении в поляризованном свете.

Однако, во многих случаях наблюдается аномальное двупреломление, вызванное различного рода неоднородностями кристаллической структуры. Это

может быть связано с различными нарушениями типа дислокации, микро неоднородностями и т.п. Для выявления причины и определения оптической анизотропии используются различные методы [1-3].

При помощи ранее предложенного нами метода [4] можно оценить двупреломление и дихроизм в неоднородных кристаллах между скрещенными и параллельными поляризаторами.

Для определения этих параметров нами были получены выражения для интенсивности света $I(\alpha)$ при I^\perp (скрещенным) (α) и I^\parallel (α) (параллельным). При этом величины двупреломления (Δ) и дихроизма (δ) выразили через Фурье-коэффициенты. Расчеты $\text{Cos } \Delta_m$ и $e^{2\delta m}$ в неоднородных кристаллах без учета величины m могут привести к существенным ошибкам.

Следовательно, с учетом этого можно записать:

$$\frac{ch\delta - \text{Cos}\Delta m}{ch\delta + \text{Cos}\Delta m} = \frac{J_{45}^\perp - J_0^\perp}{J_{45}^\parallel - J_0^\parallel}$$

Выразим эти величины через Фурье-коэффициенты

$$J_{45}^\perp = \alpha_\perp + c_\perp, J_{45}^\parallel = \alpha_\parallel - c_\parallel, J_0^\perp = \alpha_\perp - c_\perp$$

и введем обозначения: $m = \frac{\alpha_\perp - c_\perp}{\alpha_\perp + c_\perp}$, $p = \frac{\alpha_\parallel - c_\parallel}{\alpha_\parallel + c_\parallel}$

Тогда получаем выражению для вычисления двупреломления:

$$\text{Cos}\Delta m = ch\delta m \frac{p-1}{p+1-2m}$$

При этом следует отметить, что $J_{45}^\perp = J_{\min}^\perp$, но $J_{45}^\parallel \neq J_{\max}^\parallel$, в прозрачных кристаллах $J_{45}^\parallel = J_{\max}^\parallel$.

В случае при исследовании неоднородных кристаллов между скрещенными поляризаторами невозможно добиться полного погосания, т.е

$$J_{45}^\perp = J_{\min}^\perp = J_{90}^\perp \neq 0.$$

При повороте образца на угол от 0 до 180° вся кривая зависимости $J(\alpha)$ поднята на верх на величину J_{\min}^\perp по сравнению с аналогичной кривой $J(\alpha)$ для двупреломляющего кристалла [5]. При параллельных поляризаторах кривая зависимости $J(\alpha)$ также будет поднята наверх на ту же самую величину J_0^\perp .

С учетом J_0^\perp можно получить выражение для определения $e^{2\delta m}$ из соотношения:

$$e^{2\delta m} = \frac{J_{\max}^\parallel - J_{\min}^\perp}{J_{\max}^\parallel - J_{\min}^\perp} = \frac{(a_\parallel + b_\parallel + c_\parallel) - (\alpha_\perp - c_\perp)}{(a_\parallel + b_\parallel + c_\parallel) - (\alpha_\perp - c_\perp)}$$

В некоторых случаях $J(\alpha)$ могут иметь более сложный характер и это рассматривается будет отдельно.

Расчет $\text{Cos}\Delta m$ и $e^{2\delta m}$ в неоднородных кристаллах без учета величины m могут привести к существенным ошибкам. При построении графика зависимости показывает, к каким ошибкам приводит неучёт m .

Для этого по оси ординат отложены величина $(\Delta_m - \Delta)$, где Δ_m - разность фаз, вычисленная с учетом m , Δ - разность фаз, вычисленная при $m = 0$.

Эти зависимости построены для различных p .

Выявлено, что при $p < 1$ значения Δ , вычисленные без учета m , оказываются меньшими, чем вычисленные с учетом при $p \geq 1$ наоборот. В любом случае видно, что величины приводит к большим ошибкам при определении $\text{Cos}\Delta_m$ и $e^{2\delta m}$.

Полученные формулы и построенные нами номограммы позволяют оценить $\Delta_m - \Delta$, с учетом m . Где Δ_m - разность фаз, вычисленных с учетом m , Δ - разность фаз, вычисленная при $m=0$.

Литература

1. В.Л. Инденбом Поляризационно-оптическое исследование внутренних напряжений в стеклонделиях: Дис... канд. техн. наук.-М. 1955-124 С.
2. А.А. Урусовская Механические свойства кристаллов./В кн.: Современная кристаллография. - М.: Наука, 1981-С. 47-109.
3. Ван Бюрен Х.Г. Дефекты в кристаллах. - Пер. с англ.- М.: ИЛ, 1962. - 584 С.
4. А.Ф. Константинова, И.Т. Улуханов, Б.Н. Гречушников Кристаллография, 1991, Т36, В3, 686-692.
5. И.Т. Улуханов Определение степени неоднородности некоторых кубических кристаллов. III-конференция научно-учебного центра. «Применение физико-химических методов исследования в науке и технике». М. 1990. -С 105.

TEKNOLOGIYA DARSLARIDA ANTROPOMETRIK VA MORFOLOGIK BILMLARNI O'RGATISHNING AMALIY AHAMIYATI

I.T.Uluxanov NamDU Dos:
Z.R.Quvvatova NamDU talaba

Tikuvchilik mashg'ulotlarida har bir o'quvchida o'zi bunyod etayotgan buyumlarida uning ham funksional, ham dizayn tomonlarini hisobga olgan holda ijodiy yondashuvni shakllantirish va bozor iqtisodiyoti sharoitiga moslashadigan ijodkor shaxs sifatida tarbiyalash masalasi eng asosiy maqsaddir.

Fanda buyumlarini tayyorlashda antropometrik va morfologik o'lchamlarning ahamiyatini o'rgatishga e'tiborni qaratishimiz lozim.

Antropologiya - (yunoncha so'zdan anthropos - odam logos - o'rganish) odamning kelib chiqishi va evolyutsiyasini, odamlar tuzilishining normal juz'iy ko'rinishlari va irqning paydo bo'lishini o'rganadi.

Morfologiya - (yunoncha so'zdan morphe - shakl, logos - o'rganish) - odam organizmining individual o'zgaruvchanlik qonuniyatlarini, gavda o'lchamlari, proporsiyalarining va uning ayrim qismlarining yoshga qarab o'zgarishini o'rganadi. Odam tanasining tashqi shaklini aniqlovchi asosiy morfologik belgilar:

- total yoki umumiy belgilar;
- proporsiyalar yoki mutanosibliklar;
- qad-qomat bo'lib, tanadagi har qanday morfologik belgi o'zgaruvchidir.

Turli belgilarning shakli, o'zgaruvchanlik darajasi turlicha bo'ladi va turlicha omillar – odam yoshi, jinsi, ijtimoiy muhit va organizmning bioximik xususiyatlari ta'siri ostida aniqlanadi. Masalan: tana tuzilishi va proporsiyasi odamning yoshiga va jinsiga bog'liq. Tana tuzilishi esa organizmning bioximik xususiyatlariga bog'liq bo'ladi[1-2].

Odamning hayot tsikli turlicha davr qismlaridan, boshqacha qilib aytganda yoshdan iborat. Xronologik (kalendar yoki pasport yoshi) va biologik yosh mavjud. Pasport yoshi tug'ilgan vaqti bilan aniqlanadi. Lekin tug'ilishdan keyin bir xil davrda yashagan individumlar anatomo-fiziologik rivojlanishni har xil bosqichlarida bo'lishi mumkin. Bu irsiy omillar bilan barcha tashqi muhit faktorlariga ham bog'liqdir. SHuning uchun pasport yoshi bilan biologik yosh bir-biriga to'g'ri kelmasligi mumkin. Biologik yosh (uni yana morfologik suyak yoshi ham deyish mumkin) organizmdagi biologik o'zgarishlarga bog'liq qilib olinadi. Kalendar yoshli bir xil guruhdagi bolalar tana o'lchovlari va ularning o'zaro munosabati bo'yicha bir-biridan farq qiladi, chunki u yoki bu individning morfologik yoshi kalendar yoshidan yuqorida yoki pastda bo'lishi mumkin.

Organizm tiklanishi davrida hamma belgilarning o'sishi, balog'at yoshida esa ko'pgina morfologik belgilarning turg'un holatda bo'lishi kuzatiladi. Qarilik boshlanishi bilan qator belgilarning qiymati o'zgaradi (kamayadi)[2].

Yirikroq antropometrik belgilar total belgilarga kiradi, ya'ni:

- tana uzunligi (bo'y);
- ko'krak aylanasi (razmer);
- tana massasi.

Bu belgilar odam tanasining tashqi shakliga ta'sir ko'rsatadi va jismoniy rivojlanganlikning asosiy belgilari bo'lib hisoblanadi.

Odam tanasining tashqi shaklini aniqlovchi asosiy belgilardan biri tana uzunligidir. Tana uzunligiga tikuvchilik sanoatida ham katta e'tibor beriladi. Ko'krak aylanasi o'lchovi bilan birgalikda tana uzunligi normal tipik qomatni aniqlashda yetakchi belgi bo'lib hisoblanadi. Tana uzunligi yoshga, jinsga, guruhga, guruh ichiga va davrga qarab o'zgarishlarda ko'rinadi.

Antropologiya ilmiy-tadqiqot institutining ma'lumotlariga ko'ra, yangi tug'ilgan chaqaloqlarda tana uzunligi o'rtacha:

- o'g'il bolalarda 51,5 sm;
- qiz bolalarda 51,0 sm ga teng.

Umrining birinchi yilida tananing o'sishi o'rtacha miqdorda 25 smni tashkil qiladi. So'ngra o'sish surati sekinlashadi. 10-12 yoshgacha qizlar o'g'il bolalarga qaraganda tezroq o'sadi, 13 yoshga kelib qizlar bilan o'g'il bolalarning tana uzunliklari tenglashadi, so'ngra o'g'il bolalar tezroq o'sadi.

Planetamiz bo'yicha erkaklarda butun aholining o'rtacha tana uzunligining kichik qiymati – 160 smdan kichik, katta qiymati – 170 smdan yuqori bo'lgan o'lchamlar hisoblanadi.

Istalgan antropometrik belgining individual o'zgarish masofasi $M \pm 3,5\sigma$ oralikda yotadi: bu yerda M – belgining o'rta arifmetik qiymati; σ - o'rtacha kvadratik og'ish[3-4].

Tana uzunligi 125 smdan past va 200 smdan yuqori bo'lgan odamlarni patologik (normal xolatni yo'qotish) kategoriyalarga kiritiladi:

- 125 smdan kam bo'lsa – pak-pakana (karlik);
- 200 smdan yuqori bo'lsa – ulkan, devqomat (velikan) kishilar hisoblanadilar.

Tana uzunligini ko'rib chiqilar ekan, tikuvchilik sanoatida oltita bo'y borligi ma'lum bo'ladi, ular bir-biridan 6 smga farq qiladi. Bu bo'ylararo interval hisoblanadi.

Odami tanasining bo'yi singari, ko'krak aylanasi ham tana tuzilishini klassifikatsiyalashda asosiy ko'rsatkich hisoblanadi. Yengil sanoatda odami bo'yidan ko'ra ko'krak aylanasi muhim rol o'ynaydi. Ko'krak aylanasi qarang kiyim razmerini bilish mumkin.

Bir necha yillar oldin odami o'lchamlarini bilish uchun odami bo'yi o'lchamini loyihalashga kiritilgan edi. Hozirgi davrda asosiy o'lcham qilib ko'krak aylanasi o'lchami olingan. Antropometriyada ko'krak aylanasi hech qanday kiyimsiz o'lchanadi. Kiyimni konstruksiyalash uchun esa kiyim bilan o'lchanadi. Antropometriyada antropometrik ko'krak aylanasi chuqurroq o'rganilgan. U ko'krak qafasining asosiy parametrini aniqlash uchun yordam beradi.

Ko'krak aylanasi farqsizlik 4 sm deb kiritilgan. Lekin kim va qachon adabiyotga kiritilganligi belgilanmagan. Antropologlarning mulohazalari bo'yicha, o'tgan asrda ko'krak aylanasi farqsizlik intervali 4 sm deb kiritish eski odat bo'lib hisoblangan.

Antropologlar bu farqsizlik intervalini kiyim nomerining oralig'i deb taxmin qiladilar. Rossiyada ham metrik sistema bo'lmagan vaqtda oraliq yoki interval qilib 1 vershok olingan (1 vershok – 4,1 sm). Amaliyotda bu usul uncha qulay emas edi, shuning uchun taxminan 4 sm deb olingan. SHunday qilib, ko'krak aylanasi farqsizlik 4 smga teng, yarim aylanasi esa 2 smga teng bo'ladi. Katta yoshdagi odamlarda eng ko'p tarqalgan o'lcham 48 hisoblanadi. U 96 sm ko'krak aylanasi taalluqli bo'ladi. Keyingi o'lcham – 50, bunga 100 sm ko'krak aylanasi teng o'lcham kiradi. O'zaro Iqtisodiy Yordam Kengashiga a'zo mamlakatlarda katta yoshli erkaklarda ko'krak aylanasi o'rtacha qiymati – 97,07 sm ni tashkil etadi. Ularda ayollarga qaraganda bir oz kattaroq – 96,33 sm. Albatta berilgan bunday o'lchamlar ishlatilmaydi. SHuning uchun taxminan qilib olinadi.

Ko'krak aylanasi ko'rib chiqib, shuni aytish kerakki, odami yashash davrida ko'krak aylanasi kattalashadi va keksalik davrida kichrayadi.

Ilmiy-tadqiqot ma'lumotlariga ko'ra, yashash davrining birinchi yilida o'g'il bolalarda ko'krak aylanasi 49 smga, qizlarda – 48 smga teng bo'ladi. Ko'krak aylanasi kattalashishi yiliga notekis o'zgaradi.

Qiz bolani maksimum ko'krak aylanasi o'sish davri 11-12 yoshda 5-6 smga yetadi. O'g'il bolalarda esa 12-14 yoshda 4-4,5 smga o'sadi. Katta yoshlilarda ko'krak aylanasi tekis turishi belgilanmaydi, chunki yosh kattalashishi bilan ko'krak aylanasi ham kattalashadi. 20 yoshdan keyin teri osti yog' qatlamining ko'payishi hisobiga ko'krak aylanasi tez o'sadi. Katta yoshdagi odamlarda (50-59

yosh) o'rta yoshli odamlarga (18-29 sm) qaraganda o'rtaacha ko'krak aylanasi 6-7 sm katta bo'ladi.

Tana massasi bilan ko'krak aylanasi orasida yaqin bog'liqlik ko'proq ahamiyatga ega. Massaning oshishi, qoida bo'yicha, ko'krak o'lchovlarining oshishiga olib keladi.

Hozirgi vaqtda A.A.Pokrovskiyning ilmiy nazariyasiga asoslanilmoqda, ya'ni normal tana massasining turli faktorlari jinsi, yoshi, tana uzunligi va tuzilishining ko'p tarqalgan turlarining o'zaro qo'shilishiga bog'liqdir. Buning uchun ularga nomograf asbobi tavsiya etilgan[4].

Ko'krak aylanasi, tana uzunligi va massasi majmui odam tanasining tashqi shakli haqida aniq bir tasavvur hosil qiladi. Ammo odam tanasining tashqi shakli haqida to'liq tasavvur hosil qilish uchun gavda mutanosibliigi, tana tuzilishi va jussasini to'liq o'rganib chiqish zarurdir.

Odam tanasi mutanosibliгинing o'zgarishi asosan yoshga bog'liq, ya'ni odam bo'yining o'sish davridan boshlanadi.

Morfologiyada tana bichimini aniqlovchi belgi toifasiga yana ko'krak qafasining shakli, qorin va orqa bo'lak shakllari ham kiradi. Bu belgilarning quyidagi variantlari farqlanadi:

1. Muskullarning rivojlanish darajasi.
2. Yog' to'planishining rivojlanish darajasi.
3. Ko'krak sohasining shakli.
4. Qorin shakllari.
5. Orqa (andom) shakllari.

Xulosa qilib aytganda "Texnologiya" fanidan tikuvchilik buyumlarini tayyorlashni o'rgatish jarayonida o'quvchilarga antropometrik va morfologik o'lchamlarning ahamiyatini o'rgatishga oid bilim va malakalarni berishga e'tiborni qaratishimiz amaliy ahamiyatga ega va zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1, Комилова Х.Х., Хамраева Н.К. Тикув буюмларини конструкциялаш. Т., "Молия", 2003.

2. Мартынова А.И., Андреева Е.Г. Конструктивное моделирование одежды. М., 2002г.

3. Z.Davletsheva Tikuv buyumlarini tayyorlash texnologiyasi. O'quv qo'llanma. Toshkent "Sano standart" nashriyoti 2017

4. G'oziyev E., Mamedov K. Kasb psixologiyasi. – T.: O'zMU, 2003. 156-b

5. <https://uzbekistan.ureport.in/story/364/>

6. <https://t.me/dokument>

ОЛИЙ ЎҚУВ ЮРТИ ТАЛАБАЛАРИДА ҲАЁТ ФАОЛИЯТИ ХАВФСИЗЛИГИ МАДАНИЯТИНИ ШАКЛЛАНТИРИШ ОРҚАЛИ ВОЛОНТЁРЛИК ФАОЛИЯТИГА ЙЎНАЛТИРИШ МЕХАНИЗМИ.

Н.Н.Назарова. Т.З.Ҳамроев ФВВ Академияси ҳузуридаги Фуқаро
муҳофазаси институти

Аннотация: Ушбу мақолада талабаларда ҳаёт фаолияти хавфсизлиги маданиятини шакллантириш тизими таъсирчанлигини ошириш масалалари кўриб чиқилган бўлиб, соҳани ривожлантиришда ёшларни кенг жалб этиш, олий таълим муассасалари талаба – ёшлари билан ҳамкорликда кўнгилли қутқарув жамоаларини тузиш ва улар фаолиятини ташкил этиш масалалари ёритилган.

Калит сўзлар: олий таълим муассасаси, талаба-ёшлар, фавқулодда вазият, иш билан банд бўлмаган аҳоли, муҳофаза, маҳалла фуқаролар йиғини, “маҳалла фуқаро муҳофазаси” тузилмалари, кўнгилли – волонтер қутқарув жамоалари.

Талабаларда ҳаёт фаолияти хавфсизлиги маданиятини ривожлантириш учун биринчи навбатда ҳаёт фаолияти хавфсизлиги йўналишларидаги ўқув дастурларини қайта кўриб чиқиб, замонавий талаблар асосида такомиллаштириш керак. Айниқса амалий машғулотлар олиб борилиши тартибини ислоҳ этиш даркор. Тадқиқот натижалари шуни кўрсатадики, Республикада " ... олий таълим тизимида машғулотларни ташкил этиш жараёни, таҳсил олаётган талабалар билимини баҳолаш тизими замонавий талабларга жавоб бермайди"[1].

Таълим жараёнини ташкил этишда анъанавий шаклларнинг асосий камчилиги шундан иборатки, машғулотлар амалий ва касбий кўникмалардан кўра талабаларнинг кўпроқ билим олишига қаратилган. Махсус тадқиқотлар шуни кўрсатадики, ахборотли маърузадан сўнг талабалар мавзу маълумотларининг 30% дан камини эслашади, ҳатто маърузадан кейинги биринчи ҳафта давомида умуман эсдан чиқаришади.

Техника соҳасидаги бакалаврларни (шунингдек магистрларни) Ҳаёт фаолияти хавфсизлиги йўналишида касбий тайёрлашда, айниқса “Фавқулодда вазиятларда аҳоли хавфсизлиги” фани доирасида тайёрлашда, талабаларнинг тўлиқ лаборатория ва амалий ишларини белгилаш учун бир қатор объектив чекловлар мавжуд. Бу чекловлар таълимни ташкил этиш шартларида тўлиқ микёсли таълим эксперименти ва фавқулодда вазиятларга жавоб бериш амалиёти мумкин эмаслиги билан изоҳланади. Яъни ушбу соҳаларнинг амалий ва лаборатория машғулотларида фақат табиий ва техноген ҳалокатлар, ноқулай шароитлардаги ёки лаборатория симуляторларидаги қутқарувчиларнинг ҳаракати ёзиб олинган видеоматериаллардан фойдаланилади [4].

Соҳа йўналиши бўйича талабаларини малакавий даражаси меҳнат бозорининг замонавий талабларига етарлича жавоб бериши учун бугунги кунда касбий тайёрлаш назарияси ва амалиётини такомиллаштиришнинг янги имкониятлари ва йўллари кидириш, илмий асосланган ечимларини топишимиз керак бўлади.

Шу ўринда Андижон машинасозлик қурилиши институти тадқиқотчи олимлари томонидан олиб борилган ишларга эътибор қаратсак.

Андижон машинасозлик қурилиши институтида 2018 йилда "5+1 модели асосида ўқув машғулотларини ўтказиш тўғрисида" ги Низом тасдиқланган[3] бўлиб, ушбу Низомнинг моҳияти шундан иборатки, талабалар 2-курсдан бошлаб ўқув ҳафтасининг 5 кунини давомида институтда назарий ва амалий билим олиш билан бирга, корхоналарда, яъни келгусида иш билан таъминланиши мумкин бўлган жойларда бир кунлик амалий машғулотлар олиб борадилар.

Шунингдек корхона ва ташкилотларнинг етакчи мутахассислари талабалар билимини баҳолашда, корхона буюртмалари асосида курс лойиҳалари ва тезислар тайёрлашда, ҳамкорликда фан олимпиадалари ўтказишда, стипендиялар бериш ҳамда тегишли малака сертификатларини топширишда фаол жалб этилади.

Ушбу низом доирасида 2018-2019 йиллардаги 4 - курс Ҳаёт фаолияти хавфсизлиги йўналиши талабалари Андижон вилояти Мархамат туманидаги фуқаро муҳофазаси бўйича қўмондонлик штаб ўқув машқида ва вилоятдаги 6 та махсус тактик машқларда иштирок этишган. Ҳар бир машқдан сўнг ҳар бир талаба машқ натижалари бўйича ўз нуқтаи назарини тақдим этган. 2019 йил 11-23 ноябрда Андижон вилояти Фавқулодда вазиятлар Бошқармаси (ФВБ) билан биргаликда 2-курс талабалари Асака туманида фуқаро муҳофазаси ҳолати ва услубий ёрдам кўрсатиш комплекс текширувида иштирок этишган. Шу вақт ичида 24 та маҳаллада Фуқаро муҳофазаси (ФМ) тузилмалари яратилишида ва 22 та маҳаллада ФМ бурчаклари янгиланишида иштирок этишди. 2020-йилда вилоят ФВБ базасида "Ҳаёт фаолияти хавфсизлиги" йўналиши бўйича талабалар учун ўқув маркази ташкил этилган[3]. Амалий машғулотлар давомида "Авария қутқарув ишлари" фанидан вилоят ФВБ Авария қутқарув отрядлари базасида талабалар авария қутқарув асбоб-ускуналаридан фойдаланиш асосларини ўзлаштирганлар.

Институтда ҳар бир талаба амалий машғулотлар давомида мустақил равишда шартли белгилаб олинган корхонанинг фуқаро муҳофазаси бўйича тактик махсус ўқув машқлари ҳужжатларини тайёрлай олган. Бундан ташқари, талабалар шартли объектнинг табиий ва техноген хусусиятли фавқулодда вазиятларнинг олдини олиш ва уларни бартараф этиш бўйича асосий чора-тадбирлар бўйича йиллик режаларини мустақил ишлаб чиқганлар. Ушбу каби тадбирлар натижасида амалий машғулотлар тугагандан сўнг орадан бир ҳафта ўтиб, сўров натижалари олинганда талабалар дарс материалининг 80% ини эслаб қолишганлари аниқланган.

Юқоридаги ҳолатларни ўрганган ҳолда Андижон машинасозлик қурилиши институтида олиб борилган ишлар бўйича қуйидаги хулосаларни чиқариш мумкин, яъни:

1. Таълим жараёнида ҳар бир бўлажак мутахассисга табақалаштирилган (индивидуал) ёндашув таъминланган;

2. Талабаларнинг мустақил ишларига алоҳида эътибор берилган.

3. келгусида иш билан таъминлаши мумкин бўлган корхоналарда амалий машгулотлар ўтказиш (масалан, "5 + 1" модели асосида") самарали ечим эканлиги исботланган;

Лекин шу ўринда ушбу амалий машгулотларни олиб бориш бўйича таклиф этилаётган "5+1" модели асосида" ўқитишда баъзи бир ноаниқликлар мавжуд. Масалан:

1. Ушбу модел нисбатан тор доирани қамраб олган. Яъни "Ҳаёт фаолияти хавфсизлиги" йўналиши доирасида олиб борилган. Йўналишсиз Олий таълим муассасаларида Ҳаёт фаолияти хавфсизлиги фани доирасида бу илмий янгиликни қанчалик тадбиқ эта олиш мумкин?

2. Жойларда амалий машгулот олиб борилишида амалий машгулотларга ажратиладиган вақт сарфидан чиқиб кетмаслик қанчалик кафолатланади?

3. Қўмондонлик штаб ва махсус тактик ўқув машқлари ўтказилиш муддатлари ўзгариш ҳолатлари амалий машгулотларни олиб борилишида қанчалик таъсир кўрсатади?

4. Агар талаба соҳа йўналиши бўйича маълум бир сабабларга кўра иш фаолиятини олиб бормаса, ушбу олган билим ва кўникмаларини яна каерда тадбиқ эта олиши мумкин.

5. Талаба келгусида иш билан таъминланиши мумкин бўлган ташкилот ёки корхонада фаолият юритадиган даврда зарурат туғилганда аҳоли ва ҳудудларни фавқуллода вазиятлардан муҳофаза қилиш мақсадида мутахассис сифатида бошқа идора ва корхонага жалб этилиши мумкинми?

Андижон машинасозлик курилиши институтида олиб борилган ишларни эътироф этган ҳолда, "Ҳаёт фаолияти хавфсизлиги" йўналиши ва йўналишсиз Олий таълим муассасалари талабаларини фанга қизиқтириш, ҳамда амалий машгулотлар сифатини кўтариш учун қуйидагича илмий изланишлар таклиф этилади.

Ҳаёт фаолияти хавфсизлиги маданияти бўйича касбий ҳаракатларнинг амалий билим ва кўникмаларини ривожлантириш учун корхоналар, яъни келгусида иш билан таъминлаши мумкин бўлган ташкилотлар билан боғлиқ ихтиёрий жамоат ташкилотларидан фойдаланиш истикболли йўналиш ҳисобланади. Бундай ташкилотлар, бир томондан, сўнгги йилларда оммавий тус олган ёшларнинг кўнгилли ҳаракатини қўллаб-қувватласа, иккинчи томондан, улар олий таълим муассасалари талабаларининг касбий маҳоратини ривожлантириш мактабига айланиши мумкин. Яъни талабаларни ўқитиш жараёнида профессионал адекват амалиётчи жамоаларни шакллантириш керак. Ушбу жамоалар амалиёт тажриба синов ишларини таълим муассасаси томонидан давлат ва нодавлат ташкилотлар билан биргаликда ижтимоий ҳамкорликда ташкил этилган волонтерлик ташкилотларида олиб боришади.

Ўзбекистон Республикасида волонтерлик фаолиятини ташкил этиш ва амалга ошириш соҳасидаги муносабатларни тартибга солишнинг меъёрий ҳуқуқий базаси таъминланган бўлиб, 2019 йил 2 декабрда Ўзбекистон Республикаси "Волонтерлик фаолияти тўғрисида" ги Қонуни қабул қилинди.

Ушбу қонуннинг 6-моддаси билан бир қатор волонтерлик фаолиятининг асосий йўналишлари белгилаб берилди. Жумладан:

табiiй ёки техноген тусдаги фавкулдда вазият оқибатида, алоҳида режим, фавкулдда ҳолат жорий этилганда, ижтимоий можаролар, бахтсиз ходисалар натижасида жабрланган фуқароларга, шунингдек жиноятлардан жабрланганларга, қочқинларга ёрдам кўрсатиш;

алоҳида давр ва фавкулдда ҳолат ҳуқуқий режимларнинг амал қилиши вақтида Ўзбекистон Республикаси Куролли Кучларига, бошқа ҳарбий идораларга, ҳуқуқни муҳофаза қилувчи органларга, маҳаллий давлат ҳокимияти органларига волонтерлик ёрдами кўрсатиш шулар жумласидандир.

Маълумки, Ўзбекистон Республикасида бошқарув органлари, давлат ва хўжалик бошқаруви органлари, маҳаллий давлат ҳокимияти органлари, фавкулдда вазиятларда аҳолини ва ҳудудларни ҳимоя қилиш масалаларини ҳал этиш ваколатига кирадиган бошқа ташкилотларнинг куч ва воситаларини бирлаштиради ҳамда фавкулдда вазиятларнинг олдини олиш ва бартараф этиш соҳасидаги тадбирларни ташкил этиш ва амалга ошириш, улар юзга келганда аҳоли хавфсизлигини, атроф -табiiй муҳитни муҳофаза қилишни ҳамда тинчлик ва ҳарбий даврда давлат иқтисодиётига зарарни камайтиришни таъминлашга мўлжалланган фавкулдда вазиятларнинг олдини олиш ва бундай вазиятларда ҳаракат қилиш давлат тизими (ФВДТ) фаолият юритмоқда.

ФВДТнинг ҳудудий қуйи тизимлари ўз маъмурий ҳудудлари доирасида Қорақалпоғистон Республикаси, вилоятлар ва Тошкент шаҳрида тузилган бўлиб, тегишли туманлар, шаҳарлар, шаҳарчалар, кишлоқлар ва овуллар миқёсидаги бўғинлардан иборат. Ушбу қуйи ҳудудий тизимларда фуқаро муҳофазасининг кўнгилли тузилмалари ҳамда фуқаролар йиғинларининг жамоатчилик тузилмалари, яъни қутқарув ва бошқа кечиктириб бўлмайдиган ишларни олиб боровчи йиғма гуруҳ, “Маҳалла посбони” ва “Чегара посбони” жамоатчилик тузилмалари, Ўзбекистон Қизил Ярим Ой Жамиятининг кўнгилли тузилмаларини камраб олган “Маҳалла фуқаро муҳофазаси”нинг тузилмалари ташкил этилган. Маҳалла фуқаро муҳофазаси» фавкулдда вазиятларда, шунингдек ҳарбий ҳаракатлар олиб бориш пайтида ёки шу ҳаракатлар оқибатида юзга келадиган хавфларда маҳалла фуқаролар йиғини ҳудудидаги аҳолини, моддий ва маданий бойликларни муҳофаза қилиш тадбирларини ташкиллаштириш ва амалга ошириш учун мўлжалланган Фавкулдда вазиятларда давлат ҳудудий тизимининг бирламчи қуйи бўғинидир. Маҳалла фуқаро муҳофазаси йиғма гуруҳлари ўртача 37-40 нафар кўнгиллини камраб олади. Бугунги кунда Ўзбекистон Республикасида 9093та [2] умумий фуқаролар йиғинлари мавжудлигини инобатга олсак, маҳалла фуқаро муҳофазаси йиғма гуруҳларига 36 3720 нафар кўнгилли жалб этилишини кўришимиз мумкин.

Олий таълим муассасалари талабаларни фавкулдда вазиятларда касбий ҳаракатларнинг амалий билим ва кўникмаларини ривожлантириш учун мана шундай жамоат ташкилотларидан фойдаланиши керак бўлади. Жамоат ташкилотларида қуйидаги вазифаларни бажаришда иштирок этган талабаларга таълим жараёнида олинган назарий билимларни амалий машғулотларда қўллаш ҳамда касбий кўникмаларни ривожлантириш орқали касбий компитентликка эга бўладилар.

Волонтерлик ёшларнинг жамиятга интеграциялашувига, зарур иш стажига эга бўлишига, меҳнат бозорида ўз малакасини талаб даражасида оширишга,

асосий кадрият ва кўрсатмаларни илғаб олишга ва ижтимоий муносабатларни қайта ишлаб чиқишга ёрдам беради. Бу ёшларнинг ижтимоий фаоллигини оширишга олиб келади. Шунингдек талабалар учун жамоат ташкилотлари эмпирик муҳитни, яъни мавзу танлаш, илмий тадқиқот ишларини олиб бориш асослари ва курс ва битирув ишлари учун дастлабки босқич бўлиб хизмат қилади.

Адабиётлар:

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 8 октябрдаги “Ўзбекистон Республикаси олий таълим тизимини 2030 йилгача ривожлантириш концепциясини тасдиқлаш тўғрисида”ги ПФ-5847-сонли Фармони.

2. Ўзбекистон Республикаси очиқ маълумотлар портали. Узинфоком.

3. Раззоқов Р.С. “Ҳаёт фаолияти хавфсизлигини таъминлашнинг тамойиллари.” Ҳаётини фаолият хавфсизлигини таъминлашда инновацион ёндашув, илмий ишланмалар ва замонавий технологиялар”мавзусидаги II-республика ёш олимлар илмий-амалий анжумани материаллар туплами. Ўзбекистон республикаси Фавқуллода вазиятлар вазирлиги Академияси. Тошкент. 2020 й 54 бет.

4. Сулаймонов С.С. “Ҳаёт фаолияти хавфсизлиги йўналишида талабаларни замонавий талаб даражасида ўқитишнинг ўзига хос хусусиятлари” “Ҳаётини фаолият хавфсизлигини таъминлашда инновацион ёндашув, илмий ишланмалар ва замонавий технологиялар”мавзусидаги II-республика ёш олимлар илмий-амалий анжумани материаллар туплами. Ўзбекистон республикаси Фавқуллода вазиятлар вазирлиги Академияси. Тошкент. 2020 й.75-78 бет.

DARSDA ATROF-MUHIT MUHOFAZASINING EKOLOGIK

MUAMMOLARINI O'QITILISHI

A.Sayfitdinov NamDU katta o'qituvchisi

A.Nabiyev NamDU PhD

Mustaqil O'zbekiston Respublikasining rivojlanish sharoitida atrof-muhitni muhofaza qilish, tabiiy boyliklardan oqilona foydalanish zamonaviy dolzarb muammolardan biriga aylandi. Bizning davlatimiz uchun milliy xavfsizlik masalalari ekologik xavfsizlik va atrof-muhitni muhofaza qilish muammolari bilan bevosita bog'liq ekanligini «O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida, xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari» asarida chuqur tahlil qilib o'tgan. Tabiatni muhofaza qilish, odam faoliyatining tabiatga salbiy tahsirini ogohlantirish, binobarin, qonunshunoslik, tashkiliy, sanitar-gigienik, muhandis-texnik va boshqa biologik sistemalarga antropogen tahsiri kamaytirish yoki ogohlantirish tadbirlari tuzishdan iborat.

Mavjud sharoit tanlangan yangilanish yo'lining oddiy emasligini, katta muammolar, qiyinchiliklar yo'li ekanligini ko'rsatadi.

Milliy xavfsizlikka qarshi yashirin tahdidlarni ko'rib chiqar ekanmiz, ekologik xavfsizlik va atrof-muhitni muhofaza qilish muammosi alohida e'tiborga molikdir.

Ochiq e'tirof etish kerakki, uzoq yillar mobaynida eski ma'muriy-buyruqbozlik tizimi sharoitida bu muammo bilan jiddiy shug'ullanilmagan. Aniqrog'i, bu muammo ayrim jonkuyar olimlar uchungina tadqiqot manbai, o'z mamlakatlarning kelajagiga, tabiiy boyliklari saqlanib qolishiga befarq qaramagan, bu xaqda qattiq tashvish chekkan odamlarning esa «qalb nidosi» bo'lib kelgan.

Iqtisodiyotni rivojlantirishdagi bosh maqsad ekstensiv omillarga qaratilgan edi. Tabiiyki, bunday sharoitda yashirin boyliklardan oqilona foydalanishni tartibga soladigan, tabiatning, atrof-muhitning himoya qilinishini kafolatlaydigan biron-bir me'yorlar va qoidalarga rioya qilish haqida gap bo'lishi mumkin ham emas edi. Tabiatni muhofaza qilish tadbirlariga arzimas darajada kam mablag' ajratilar edi.

Asrlar tutash kelgan pallada butun insoniyat, mamlakatimiz aholisi juda katta ekologik xavfga duch kelib qoldi. Buni sezmaslik, qo'l qovushtirib o'tirish o'z-o'zini o'limga mahkum etish bilan barobardir. Afsuski, hali ko'plar ushbu muammoga beparvolik va mas'uliyatsizlik bilan munosabatda bo'lmoqdalar.

Ekologik xavfsizlik muammosi allaqachonlar milliy va mintaqaviy doiradan chiqib, butun insoniyatning umumiy muammosiga aylangan. Tabiat va inson o'zaro muayyan qonuniyatlari asosida munosabatda bo'ladi. Bu qonuniyatlarni buzish o'nglab bo'lmas ekologik falokatlariga olib keladi.

Afsuski, bu jarayonlar O'zbekistonni ham chetlab o'tmaydi. Bu yerda mutaxassislarning baholashicha, juda murakkab, aytish mumkinki, xavfli vaziyat vujudga kelmoqda. Bunday vaziyat nimalardan iborat:

Birinchidan, yerning cheklanganligi va uning sifat tarkibi pastligi bilan bog'liq xavf to'xtovsiz ortib bormoqda. Ayni vaqtda yer ulkan boylik bo'libgina qolmay, mamlakatning kelajagini belgilab beradigan omil hamdir. Bu hol O'zbekistonda ayniqsa yaqqol namoyon bo'lmoqda, chunki yerning iqtisodiy va demografik vazifasi yildan-yilga kuchayib bormoqda.

SHu sababli O'zbekistonda tabiatni muhofaza qilishdagi g'oyat muhim vazifa yerlarning holatini yaxshilashdan, tuproqning ifloslanishini kamaytirish bo'yicha chora-tadbirlar majmuyini amalga oshirishdan iborat. Bu o'rinda gap avvalo tabiiy zaxiralardan foydalanishni tubdan yaxshilash haqida bormoqda.

Ikkinchidan, O'zbekistonning ekologik xavfsizligi nuqtayi nazaridan qaraganda, suv zaxiralarning, shu jumladan yer usti va yer osti suvlarining keskin taqchilligi hamda ifloslanganligi katta tashvish tug'dirmoqda. Respublikaning daryolari, kanallari, suv omborlari va xatto yer osti suvlari ham har taraflama inson faoliyati ta'siriga uchramoqda.

Uchinchidan, Orol dengizining qurib borish xavfi g'oyat keskin muammo, aytish mumkinki, milliy kulfat bo'lib qoldi. Orol dengizi muammosi uzoq, o'tmishga borib taqaladi. Lekin bu muammo so'nggi o'n yilliklar mobaynida xavfli darajada ortdi. Markaziy Osiyoning butun hududi bo'ylab sug'orish tizimlarini jadal sur'atda qurish ko'plab aholi punktlariga va sanoat korxonalariga suv berish barobarida keng ko'lamdagi fojia - Orol halok bo'lishining sababiga ham aylandi.

To'rtinchidan, havo bo'shlig'ining ifloslanishi ham Respublikada ekologik xavfsizlikka solinayotgan tahdididir.

Arid mintaqasida joylashgan O'zbekiston Respublikasida tez-tez chang bo'ronlarini qo'zg'atib turuvchi, atmosferani chang-to'zonga bulg'atuvchi Qoraqum

va Qizilqum sahrolaridek yirik tabiiy manbaalar mavjud. So'ngi o'n yilliklar mobaynida Orol dengizining qurib borishi tufayli chang va tuz ko'chadigan yana bir tabiiy manba paydo bo'ldi.

SHunday qilib, ekologiyaga solinayotgan xavf O'zbekiston uchun, umuman butun Markaziy Osiyo mintaqasi uchun naqadar yuqori ekanligini hisobga olgan holda hukumat va davlat atrof-muhitni himoya qilish, tabiiy zaxiralardan oqilona foydalanish masalalariga juda katta ehtibor bermoqda. Atrof-muhitni muhofaza qilishni tahminlashga qaratilgan qonun hujjatlari qabul qilindi. O'zbekiston Respublikasining tabiatini muhofaza qilish borasidagi milliy tadbirlar boshqa davlatlar va xalqaro tashkilotlar bilan keng va har tomonlama hamkorlik qilish ishi bilan qo'shib olib borilmoqda. Atrof-muhitni muhofaza qilish va tabiatdan oqilona foydalanishning turli jihatlarini tartibga soluvchi ko'plab xilma-xil xalqaro shartnomalar va bitimlar tuzildi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. P.Baratov. Tabiatni muhofaza qilish.-Toshkent: O'qituvchi, 1991.-187b.
2. Shodimetov. Yu. Sh. Ijtimoiy ekologiyaga kirish. Toshkent: O'qituvchi, 1994yil, 240 bet.
3. Otaboev Sh., Nabiev M. Inson va biosfera.-Toshkent: O'qituvchi, 1995-yil, 310bet.
5. O'zbekiston Respublikasida atrof-muhit holati va tabiiy resurslardan foydalanish to'g'risida "Milliy maruza". Toshkent. Chinor ENK, 2008yil, 151 bet.
6. X.T.Tursunov . Ekologiya asoslari va tabiatni muhofaza qilish. -Toshkent, 1996yil, 103 bet.
7. A.Ergashev, T.Ergashev. Ekologiya, biosfera va tabiatni muhofaza qilish. T.: Yangi asr avlodi. 2005 yil, 433 bet.

ЙИРИК ГИДРОТЕХНИКА ИНШООТЛАРИ ХАВФСИЗЛИГИГА ТАЪСИР ЭТУВЧИ ОМИЛЛАР

Н.Бойматов Фукаро муҳофазаси институти магистранти

Аннотация. Республикамизда энг кўп тарқалган муҳандислик иншоотлари гидротехника иншоотлари ҳисобланади. Гидротехника иншоотларини мамлакатимизни ижтимоий-иқтисодий ривожланишдаги ўрни ниҳоятда катта. Ҳозирги кунда бундай иншоотлардан узоқ муддатли ва кафолатли ҳамда ишончли фойдаланиши таъминлаш йўлида соҳада тегишли қонунчилик ва институционал тизим орқали давлат бошқаруви амалга оширилмоқда.

Калит сўзлар: гидротехника иншоотлари, реконструкция, грунт, эксплуатация, қурилиш технологияси, иншоот, техноген омиллар

Кириш. Ҳозиргида Республикамиздаги мавжуд 4,3 млн. гектар суғориладиган майдонларнинг қарийб 2,0 млн. Гектари (46,7%) турли даражада шўрланган. Жумладан, 1,3 млн. гектари (30,9%) кам, 0,6 млн. гектари (13,3%) ўрта ва 0,1 млн гектари (2,5%) кучли шўрланган ерлардир.

Мамлакатимизда мавжуд қишлоқ хўжалик ерларинини сув билан таъминлаш учун 50 дан ортиқ сув омборлари, 1,4 минг км узунликдаги магистрал

ва хўжаликлараро каналлар, ҳамда суғориладиган эрларнинг мелиоратив ҳолатини яхшилаб бориш ва эр ости сизот сувлари сатҳини меъёр даражасида ушлаб туриш учун 3475 дона вертикал деренаж қудуқлари, 301 дона насос станциялари ҳамда 24839 дона мелиоратив қузатув қудуқлари хизмат кўрсатиб келмоқда.

Ушбу гидротехник иншоотларидан фойдаланишда лойиҳавий-меъёрий талабларга мослигини доимий равишда назорат қилиш ва таъмирлаш-тиклаш ишларини сифатли бажариш зарурдир.

Муаммонинг қўйилиши. Агар иншоотнинг ҳолати хавфсизлик бўйича лойиҳавий-меъёрий талабларга жавоб берса, демак у нормал эксплуатация қилинаёпти дейиш мумкин. Бунда иншоотнинг лойиҳавий маълумотларга тўлиқ мос келиши, уни тўла ишончлилиқка эга деб айтишга асос бўла олмайди, чунки вақт ўтиши билан лойиҳа меъёрлари ҳам ўзгариб боради. Масалан, чорак аср аввалги меъёрларга жавоб берган иншоот айна пайтда ишончлилиқ бўйича тўғри келмаслиги мумкин, чунки сейсмик фаол ҳудудларда балл шкаласи ва шунга кўра ҳисобий балл ҳам ўзгариб туради.

Умуман олганда гидротехник иншоотларни лойиҳалаш, қуриш ва улардан фойдаланишда иншоотларнинг хавфсизлигини белгиловчи бир қатор омилларни инобатга олиш мақсадга мувофиқдир.

Натижалар. Гидротехника иншоотлари хавфсизлигини белгиловчи омилларни қуйидаги учта катта гуруҳга бўлиш мумкин [1]:

- табиий омиллар;
- техноген омиллар;
- табиатдан фойдаланишдаги омиллар (турли хил чеклашларни тавсифловчи техник-иқтисодий, ижтимоий, экологик ва эстетик омиллар).

Табиий омилларнинг гидротехника иншоотлари таъсирига кўра қуйидагиларга бўлинади:

- дарёнинг гидрологик режими;
- ҳудуд (туман) нинг сейсмиклиги;
- иншоот жойлашган ўрни (створ)нинг сув омбори зонаси, заминнинг муҳандислик-геологик, гидрогеологик хусусиятлари;

- грунтлар ва замин жинсларини физика-механикавий хоссалари кўрсаткичларини табиий турланиши ва вақт ҳамда фазо бўйича ўзгарувчанлиги;

- иклимий таъсир (ҳавонинг ҳарорати ва намлиги, сувнинг ҳарорати, шамол, ёғин-сочин);

- ўпирилиш-кўчиш хавфи;
- музларнинг тикилиб қолиш хавфи;
- биологик хавф;
- табиий таъсирдан юқламалар параметрлари: тебранишлар тезланиши, тезлик, босим, босим градиенти, пулсация, зўриқиш босими пулсациясини вақт ва фазо бўйича ўзгарувчанлиги.

Техноген омиллар ҳам ўз навбатида қуйидаги кичик гуруҳларга бўлинади:

- лойиҳавий-технологик;

- қурилиш-технологик;

- эксплуатация-технологик омиллар.

Лойиҳавий – технологик омиллар ичида гидротехника объектлари учун иншоотларни конструктив хусусиятлари, уларни параметрлари ва тузилиши, шунингдек, қидирув, лойиҳалаш ва реконструкция ишларида йўл қўйилган хатолар энг муҳим ҳисобланади. Бу эрда материаллар ва грунтларнинг хоссалари, шунингдек, турли хилдаги туташтириш иншоотлари, филтрлар, ўтиш зоналари, бетон ёстиқчалар, сementация, қопламалар, маҳкамлагичлар, филтрацияга қарши тўсиқлар, дренажлар ўрнатиш йўли билан гидротехника иншоотлари ишончилиги ва хавфсизлигини резервлашга йўналтирилган лойиҳавий ва конструктив эчимлар ўта муҳим аҳамиятга эгадир.

Назорат-ўлчаш асбоблари (НЎА) ни ўрнатиш ва назорат ҳамда диагностика маълумотларига тезкор ишлов бериш тизимини тадбиқ этиш замонавий гидротехника объектлари сифатининг муҳим лойиҳавий – технологик омили бўлиб хизмат қилади.

Қурилиш-технологик омилларга қуйидагилар киради:

- қурилиш даврининг юклама ва таъсирлари:
харорат-торайиш юкламалари, қурилиш механизмлари юкламалари, сementация босими, ғоваклик босими ва бошқалар;
- қурилиш технологияси билан белгиланадиган ишлаб чиқариш нуқсонлари: зичлашмаган зоналар, грунтларнинг ажралиш зонаси, сув ўтказиш трактлари юзасини технологик гадир-будирлиги (бўртиб чиқиш, каваклар, бетонни ғуддаси) мавжудлиги;
- қурилиш технологияси билан белгиланадиган конструкция грунтлари ва материалларининг физика-механикавий хоссаларини вақт ва фазо бўйича ўзгарувчанлиги ва турланиши;
- қурилиш-монтаж ишларини бажариш сифатини муаллифлик назорати маълумотларини қиймати;
- алоҳида муҳим техноген таъсирлар: ишлаб чиқариш пайтида портлатишлар, адирларни кесиб олиш ва ш.к.;
- муваққат иншоотлар (қурилиш даври учун)-қурилиш сув ташлагичлари, механикавий жиҳозлар иш қобилияти ва ҳ.з.

Эксплуатация-технологик омиллар қуйидагилардан иборат:

- сув омборида лойқа ва ифлосланиш тўпланиши;
- иншоот танаси, сув омборлари ён томони ва ўзани орқали сув филтрацияси;
 - окимни ростлаш;
 - кавитация хавфи;
 - абразив хавфи;
 - юқори ва қуйи бефларда иншоот заминлари ва қирғоқларни ювилиб кетиши;
 - ўзан ўзгариши туфайли қуйи бефда сув сатҳи режимини ўзгариб туриши;
 - конструкция элементлари (қопламалар, маҳкамлагичлар ва ш.к.) ни эксплуатация, табиий, антропоген ва бошқа таъсирлар натижасида шикастланиши;
 - алоҳида муҳим эксплуатация таъсирлари, масалан, сув омборидан экстремал сув сарфи ва лойқани чиқариб юбориш;

- ўта муҳим вазифани бажарадиган доимий иншоот ва объектлар (сув ташлаш иншоотлари, механикавий жиҳозлар, филтрацияга қарши ва дренаж қурилмалари ва ш.к.) ни иш қобилияти;

- объектни бир меъёрда ишлаши учун зарур бўлган ташки моддий-техникавий ресурслари (техникавий-затворларни эр ости механизмларига электр таъминоти ва ш.к., иқтисодий-профилактика ва тиклаш-таъмирлаш ишларига маблағ, ижтимоий-хизмат кўрсатувчи кишилар) ва гидротехника объекти ишини таъминлайдиган объектлар (электр таъминоти линиялари, алоқа воситалари, транспорт коммуникациялари ва ҳ.з.) билан таъминланганлик;

- гидротехника объектидаги рўй бериши мумкин бўлган эксплуатация давридаги ишдан чиқишлар, бузилишлар ва авариялар тавсифи, аварияларни батараф этишга вақт резерви; авария жараёнларини кечиши динамикаси;

- таъмирлаш ва тиклаш ишларининг эҳтимоллик ҳажми; таъмирлаш ва тиклаш учун вақт резерви;

- НЎА ва автоматик бошқарув тизими ишончилиги;

- муҳандислик-техника ходимлар (персонали) квалификацияси (салоҳияти);

- гидротехника объектларидан фойдаланиш усуллари (уларнинг ичида объектнинг турли хил таркибий тузилмалари ўртасида функционал вазифаларни қайта тақсимланиши ва кўп функцияли қўллаш имконияти ажралиб туради) [2].

Табиатдан фойдаланишдаги омилларига табиий ресурслардан фойдаланиш жараёнига таъсир этувчи ихтиёрий (абиотик, биотик, антропоген) шарт-шароит ёки ҳолатлар киради. Гидротехникавий табиатдан фойдаланиш доирасида қарор қабул қилиш, унга таъсир этувчи қуйидаги барча омиллар мажмуасини таҳлили асосида амалга оширилади:

- табиий ва экологик ресурсларга таъсир этувчи омиллар;

- табиатдан фойдаланувчи объект сифатида гидротехника объектларига таъсир этувчи объектлар;

- табиатдан фойдаланувчи объект сифатида инсонга таъсир этувчи объектлар.

Маълумки, бир қарорни танлаш жараёнида табиатдан фойдаланишдаги омиллар лойиҳани амалга оширишнинг ижтимоий-экологик ва ижтимоий-иқтисодий оқибатларга қараб шаклланади.

Теварак – атрофдаги табиий ва ижтимоий-иқтисодий муҳитда сифат ва сон ўзгаришларини иккита катта гуруҳга бўлиш мумкин:

- инсон ҳаёти шарт-шароитини ва экологик-ижтимоий муҳитни яхшилайдиган лойиҳани амалга оширишдаги ижобий самара, иқтисодий манфаат ва қулай ўзгаришлар;

- объектнинг қурилиш ва эксплуатация давридаги хавфлилиги ва у билан боғлиқ бўлган инсон ҳаёти шарт-шароитини ёмонлашувига олиб келувчи экотизим ва социумлар учун ноқулай ўзгаришлар ва турли хил зарарлар.

Хулоса. Гидротехника иншоотларини техник ҳолатини узлуксиз назорат қилиш ва хавфсизлигини таъминлаб бориш муҳим вазифалардан биридир. Чунки

мамлакатимиз аҳолисининг аксарияти йирик гидротехник иншоотлари таъсирида истиқомат қиладилар. Зеро “Гидротехника иншоотларининг хавфсизлиги тўғрисида”ги Қонунга асосан, фойдаланувчи ташкилот “...гидротехника иншооти хавфсизлигининг пасайиши сабабларини мунтазам таҳлил қилиб бориш ва гидротехника иншоотини техник жиҳатдан соз бўлишини ва унинг хавфсизлигини таъминлашга, шунингдек, гидротехника иншооти авариясининг олдини олиш бўйича чора-тадбирларни ишлаб чиқишга ва уларни ўз вақтида амалга оширишга” мажбурдир.

Фойдаланилган адабиётлар.

1. Бакиев М.Р., Кириллова Е.И., Мирзабеков Б. Надежность реконструируемых ирригационных систем. Журнал «Механика муаммолари» №2. Тошкент, 2005.
2. Хожиев А., Хожиева Ш. Сел сув омборларидан самарали фойдаланиш ва хавфсизлигин таъминлашда сел оғимлири трансформациясининг ўрни. “Фан, муҳофаза, хавфсизлик” журнали, 2019 й, №2(3), 126-131 б.
3. Хўжақулов Р., ва бошқ. Гидротехника иншоотлари хавфсизлигини баҳолаш, уларнинг хавфсизлиги мезонлари тушунчаси//ҚарМИИ босмаҳонаси 2016 й.
4. Ўзбекистон Республикасининг “Гидротехника иншоотларининг хавфсизлиги тўғрисида” ги қонуни//Т.; 1999 й. 18 б.

SEL VA SUV TOSHQINLARI BILAN BOG'LIQ FAVQULODDA VAZIYATLARGA AHOINI TAYYORLASH – DOIMIY ZARURIYAT

A.Shonazarov Fuqaro muhofazasi instituti magistranti

Annotatsiya. So'ngi yillarda butun dunyoda sodir bo'layotgan favqulodda vaziyatlarning ko'lamini va uning ta'sirida qolgan insonlarning soni oshib bormoqda. Tabiiy ofatlarning shunday turlari boriki ular qachon va qayerda sodir bo'lishi va qay darajada ta'sir ko'rsatishini hech kim bilmaydi. Shu nuqtai nazardan ularning ta'siridan aholini muhofaza qilish, tabiiy ofatlar yuz berganda insonlarning to'g'ri haraktlanishini uchun aholini bilim ko'nikmalarini oshirib borish hozirgi kunning dolzarb masalalari hisoblanadi.

Kalit so'zlar. fuqaro muhofazasi, favqulodda vaziyat, maxsus-taktik, qo'mondonlik-shtab, favqulodda vaziyatlarni bartaraf etish.

Kirish qismi. Respublikamiz mustaqiligining dastlabki yillaridan boshlab barcha sohalarda amalga oshirilgan islohotlar qatorida Respublika milliy xavfsizligini ta'minlashga qartilgan mustaqil muhofaza siyosati yaratildi va uni amalga oshirish boshlandi. Shu nuqtai nazardan aholini turli ko'rinishdagi favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish maqsadida Favqulodda vaziyatlar vazirligi tashkil etildi va uning vazifalari aniq belgilab berildi. Aholini favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish, favqulodda vaziyatlarning ta'sirini va talofatini kamaytirish muhim omillaridan biri bu

aholini favqulodda vaziyatlarda to'g'ri harakatlanishga o'rgatish va maqsadli tayyorlashdan iboratdir.

Yurtboshimiz ta'бири bilan aytganda biz o'z haq-huquqlarimizni taniydigan, o'z kuchi va imkoniyatlariga tayanadigan, atrofda sodir bo'layotgan voqea-hodisalarga mustaqil munosabat bilan yondashadigan, ayni zamonda shaxsiy manfaatlarini mamlakat va xalq manfaatlari bilan uyg'un holda ko'radigan erkin, har jihatdan barkamol insonlarni tarbiyalashimiz kerak.

Respublikamiz aholisini favqulodda vaziyatlarga tayyorlash masalalari bir qator qonun va qonun osti xujjatlarida o'z ifodasini topgan. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar zbekiston'sonli «O-Maxkamasining 2020 yil 15 iyundagi 754 Respublikasi aholisini favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilishga tayyorlash tartibi risida»gi qarori qabul qilindi. Qarorda 'g'to'O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining favqulodda vaziyatlarda harakat qilishga tayyorlashni hamma korxonalarda, muassasalarda va tashkilotlarda, shuningdek, rsatib 'tkazilishi ko'yashash joylarida o .tilgan'o Shuningdek, O'zbekiston Respublikasining "Aholini va hududlarni tabiiy hamda texnogen xususiyatli favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish to'g'risida" gi Qonunning 18-moddasida belgilanganidek «Umumta'lim maktablari, akademik litseylar, kasb-hunar kollejlari hamda oliy o'quv yurtlarida, ishlab chiqarish va turar joylarda aholini favqulodda vaziyatlarda harakat qilishga o'rgatish umumiy va majburiydir»[1].

Aholini, favqulodda vaziyatlar kuch va vositalarini favqulodda vaziyatlarga aholini -qitish 'tayyorlash, fuqarolarni fuqaro muhofazasi buyicha o dushmanning zamonaviy qurollari ta'siridan, tabiiy ofatlar, avariya va fojia oqibatlaridan himoyalanihga tayyorlashning asosiy tadbirlaridan biri lib 'bo i va uning shtablari 'muhofazasi boshlig qitish fuqaro'hisoblanadi. Oko'rsatmasi, shuningdek, fuqaro muhofazasi masalalari bilan ullanuvchi hududiy hamma 'shug yicha tuzilgan'nalishi bo'ishlab chiqarish yoyuqori tashkiloti fuqaro muhofazasining ma'suliyatli boshliqlari qarori, buyrug'i .asosida tashkil etiladi va olib boriladi


Muammoning qo'yilishi. So'ngi davrlarda dunyo miqyosida favqulodda vaziyatlarning sodir bo'lishi yil sayin o'sib borayotganligi kuzatilmoqda. Natijada ko'plab mamlakatlarning iqtisodiyotida salbiy o'zgarishlarga olib kelishi bilan bir qatorda insonlarning jaroxatlanishi va halok bo'lishi ham yuz bermoqda.

Mutaxassislarining ma'lumotlariga qaraganda mamlakatimizda jumladan, Toshkent shahrida so'ngi 10 yil davomida 100 ga yaqin kuchsiz va o'rta darajadagi zilzilalar kuzatilgan. Yuz bergan zilzilalarning kuchi 2 baldan 6 balgacha oraliqda bo'lganligi kishini bir oz xavotirga soladi[3].

Ma'lumotlarga qaraganda yer sharida bir kunda 450 ga yaqin turli xildagi zilzaladar kuzatiladi. Shu nuqtai nazardan olsak Respublikamizning aksariyat hududlari faol seysim zonada joylashganligini hisoba olsak, bu kabi tabiiy ofatlarning ta'sirini va oqibatlarini yumshatish uchun amalga oshiriladigan tadbirlardan biri bu - aholini tabiiy oftlar sodir bo'lganda to'g'ri harakatlanishga, o'zini va o'zgani muhofaza qilishga o'rgatishdan iboratdir.

Natijalar. Mutaxassislarning ma'lumotlari bo'yicha 2013-2019 yillarda dunyoda 8 mingdan ortiq tabiiy va texnogen tUSDagi bo'lgan favqulodda vaziyatlar sodir


2014 yilning 14 mingga yaqin odam halok bo'lgan va 320 mingdan ziyodroq odam jaroxatlangan va boshpanasiz qolgan[2].



1-rasm. Dunyo bo'yicha favqulodda vaziyatlar natijasida jaroxatlanganlar soni, ming kishi (2013-2019 yy.)

Favqulodda vaziyatlarning ta'sirini, zarar talofatini kamaytirishning muhim usullaridan biri bu aholini fuqaro muhofazasi bo'yicha tayyorlash tadbiri ekanligini jahon tajribasi ham ko'rsatib turibdi.

So'ngi yillarda mamlakatimizda Favqulodda vaziyatlar vazirligi va uning viloyatlardagi boshqarmalari tomonidan respublikamizning ko'plab hududlarida aholini favqulodda vaziyatlarga tayyorlash bo'yicha o'quv taktik va qo'mondonlik mashg'ulotlari o'tkazilmoqda.



2-rasm. Dunyo bo'yicha favqulodda vaziyatlar natijasida halok bo'lganlar soni, ming kishi (2013-2019 yy.)

Aholining favqulodda vaziyatlardan muhofazalanish sohasidagi bili va ko'nikmalarini yana ham oshirish maqsadida qo'mondonlik-shtab, maxsus taktik va kompleks o'quv mashqlari va mashg'ulotlar muntazam o'tkaziladi.

Uch kecha-kunduzgacha davom etadigan qo'mondonlik-shtab o'quv mashqlari Qoraqalpogiston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimiyati va boshqaruvi organlarida 5 yilda bir marta, shaharlar va tumanlarda 3 yilda bir marta o'tkaziladi.

Taktik-maxsus o'quv mashqlari korxonalar, muassasalar va tashkilotlarda 3 yilda bir marta o'tkazilib, olti soatgacha davom etadi.

Ikki kecha-kunduzgacha davom etadigan kompleks o'quv mashqlari xodimlari soni 300 dan ortiq bo'lgan korxonalar, muassasalar va tashkilotlarda hamda 600 dan ortiq o'ringa ega bo'lgan davolash-profilaktika muassasalarida 3 yilda bir marta o'tkaziladi.

Boshqa tashkilotlarda 6 soatgacha davom etadigan mashg'ulotlar 3 yilda bir marta o'tkaziladi. Umumiy o'rta ta'lim maktablari hamda boshlang'ich o'rta va oliy kasb-hunar ta'limi muassasalari o'quvchilari bilan mashg'ulotlar har yili o'tkaziladi.

Korxonalarda ishchi-xizmatchilarni fuqaro muhofazasiga qitish har bir 'o'iga yuklanadi.'ektining boshlig'jalik ob'xo

Xulosa. Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, aholini fuqaro muhofazasi bo'yicha o'qitish, favqulodda vaziyatlar sodir bo'lganda insonlarning harakatlanishi bo'yicha mashg'ulotlarni o'tkazish boshqa hududlarda o'tkazilishi bilan bir qatorda oliy ta'lim, maktab va maktabgacha ta'lim muassasalarida ham ko'proq tashkil etish hozirgi kunning muhim vazifalaridan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. A.Xojiev, O.Normatov. Fuqaro muhofazasi va huquqiy asos. "Muhofaza +" jurnali 2017 yil, №3 (147) son, 19 b.
2. I.Axmedov, A.Xojiev. Favqulodda vaziyatlar muammolari. "Muhofaza +" jurnali 2014 yil, №11 son, 10 b.
3. S.Gazinazarova, A.Xojiev Favqulodda vaziyatlarda aloqa va xabar berish. "Zilzila oqibatida yuzaga kelgan favqulodda vazitlarda aholining xavfsizligini ta'minlash" mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy seminari ma'ruzalar to'plami. Toshkent 20 noyabr 2014 yil. 26-27 b.
4. <http://www.irbis.vegu.ru>.

ТАБИЙ ВА ТЕХНОГЕН ОФАТЛАРНИНГ УЗВИЙ БОҒЛИҚЛИГИ

Б.Атамірзаев Наманган вилояти ФВБ "Ҳаёт фаолияти хавфсизлиги" ўқув маркази ўқитувчиси

Маълумки, атроф мухитни табиатни асраш, муҳофаза қилишнинг илмий назарий асосларини ишлаб чиқиш учун энг аввало табиат қонунларини мукамал ўрганиб чиқиш зарур. Кўпчилик фалокатлар айнан шу боғлиқлик қонуниятларни бузилишидан, инсониятнинг табиатга кўрсатаётган таъсирлари оқибатидан келиб чиқаяпти. Шу вақтга давр инсон табиат ва унда мавжуд бўлган табиий ресурслардан тугамайдиган манба сифатида фойдаланиб келган. Натижада қайта тикланмайдиган ресурслар (руда, нефть, газ, кўмир) захиралари танқисликка учрай бошлаяпти ва жамият инсон томонидан кучли антропоген таъсирга дуч келяпти. Бу эса табиатдан оқилона фойдаланишнинг асосий тамойили бир табиий ресурсни химоя қилиш йули билан бошқа табиий ресурсни химоя қилишни таъминловчи вазифаларни бузилишига сабаб бўлиб, биосфера қатламларида табиий ва техноген офатларни вужудга келишини тезлаштиради.

Биламизки, табиий офатларга вулконларнинг отилиши, ўрмон ёнгинлари, чангли тўзонлар, сел оқиши ва ҳакозолар киради. Афсуски офатлар рўй беришининг бир учи техноген офатларга бориб тақалади. Техноген офатлар эса

литосфера, атмосфера, гидросферанинг халқ хўжалигини турли соҳаларини ривожлантириш, саноат корхоналарининг бунёд этилиши ва такомиллаштирилиши билан вужудга келади.

Техноген ва табиий офатларнинг келиб чиқиш сабабларини ўрганиш, уларнинг олдини олиш борасидаги вазифаларни амалга ошириш мутахассислар олдидаги долзарб муаммолардандир.

Шу мақсадда офатларнинг келиб чиқиш сабаблари ва манбаларини илмий асосда таҳлил қилиш мақсадга мувофиқдир. Бу масалани қишлоқ хўжалигини маълум соҳаларида, хусусан деҳқончилик ва чорвачиликда, кимё саноати корхоналари ва уларнинг чиқиндиларини табиатга зарарли таъсирлари мисолида кўриб чиқиш мумкин.

Деҳқончилик энг қадимий касблардандир. Жамиятимиз ривожланган сари “деҳқон ” сўзининг маъноси, деҳқончилик усуллари ўзгариб, унинг табиатга салбий таъсири ҳам ортиб боради. Табиатга ва у орқали инсониятга кўп зарар келтиручи омиллар, бу тупроқнинг заҳарланиши, эрозияга (емирилишига) учраши ва суғориладиган ерларнинг шўрланиши, ботқокланишидир.

Деҳқончилик маданиятига амал қилмай ўрмон боғларнинг, мол боқиладиган ўтлоқларнинг йўқотилиши, катта сатхга эга бўлган шудгорлаш майдонларини вужудга келиши тупроқ эрозиясига (емирилишига) сабаб бўлади. Тупроқ эрозиясини сув билан ювилиши қиялиги 2-3 дан ортиқ бўлган ерларда бўлади. Агар қия сатхларда дарахтзор ва чим билан қопланган бўлса, қиялиги 20 бўлганда ҳам ювилиши бўлмайди. Шунинг учун қадим замонлардан бери ювилишга қарши курашиш мақсадида, тоғ ва адирларга ҳар- хил дарахтлар ўтказилган. МДХ нинг емирилаётган ҳудудларидан йилига 2-3 миллиард тонна гил, чанг, қум заррачалари билан бирга 100 млн тонна органик чиринди (гумус) ва 43 млн т дан ортиқ азот, фосфор ва калий ювилиб кетмоқда. Сатх қиялашган сари унинг емирилиш даражаси ошиб, баъзи ерларда ювилиб кетаётган ўғитнинг микдори солинаётганига нисбатан 1,5 баробар ортиқ бўлади. Уларнинг бир қисми қиялик тагидаги паст кам ерларда йиғилса, бир қисми дарё сувларига тушиб уни ифлослантиради.

Марказий Осиёда чорва далада боқилади. Чорва кўпайиб кетган ерларда ўтлар камайиб, ерларнинг сатхи мол туёғи таъсирида қисман бузилиб тупроқ емирилишини тезлаштиради. Емирилиш бўлаётган ерларда ўсимлик яхши ривожланмайди. Ўтсиз ерларда мол боқилмайди. Узок йиллар мобайнида жумхурият раҳбариятлари асосий эътиборни пахтага қаратиб, чорвачилик эътиборсиз қолган. Озиқ-овқат танқислиги бошлангандан сўнг гўшт етиштиришни кўпайтириш мақсадида олтмишинчи йиллардан бошлаб, йирик молхоналар, чўчқахоналар ва паррандахоналар қурила бошланди.

Бундай ерларда сизот сувлар сатхи саёз жойлашган бўлиб, молхона ва чўчқахоналарнинг чиқиндиларидан ифлосланиш бўлди. Бундай ифлосланиш чорвачилик чиқиндиси сув билан ювиб тозаланганидан шалтоқ тўпловчи қурилманинг етишмаслигидан содир бўлади. Баъзи вақтларда чиқиндилар тозаланмай, уларнинг сувга оқизиш ҳолатлари бўлади. Бундай ифлосланишнинг энг хафлиги томони шундаки, чорвалар орасидаги касалликларнинг сув орқали одамлар ва чорва орасида тарқалишига имконият яратади.

Саноат корхоналари чиқиндилари табиатни ифлослантиради. Бу борада айниқса, металлургия, кимё ва биотехнология саноатларининг салбий таъсири каттадир. Собик Иттифок Олий Кенгашининг 1989 йил 27 ноябрида қабул этган қарориди кўрсатилишида умумий аҳолиси 5 млн киши 103 та шаҳар ҳавосида зарарли моддалар миқдори меъёридан 10 баробар ва ундан ҳам ортиқ. Саноат корхоналарининг зарарли чиқиндиларини маиший чиқиндиларга аралаштириб ташлаш ортмоқда. Ишчиға мўлжалланган сувларнинг учдан икки қисми талабга жавоб бермайди.

Марказий Осиёда ҳавони энг кўп ифлослантирувчи корхона Тожикистоннинг Турсунзода шахридаги алюминий заводи 1987 йилда ҳавога 403 тонна миқдориди фторли водород чиқарди. Бу белгиланган миқдордан (193.9т) икки баробар ортиқ бўлди, Сурхондарё вилояти Сариосиё, Денов, Олтинсой ноҳиясида у мумкин бўлган миқдордан 2-4 баробар кўпайди. Шамолнинг йуналишига кўра фтор бирикмасининг 80% ва Сурхондарё вилоятининг Сариосиё, Денов, Олтинсой ноҳиясида тушади. У ерлардаги ҳавонинг ифлосланишига Шархундаги брикет фабрикаси ва гишт заводининг ҳам таъсири бор, чунки бу ерда йилига таркибиди 0,0023% фтор бўлган 35 минг тонна тошқўмир ёқилади. Фторнинг меъёридан 2-3 баробар кўпайиши инсон ва уй ҳайвонларига салбий таъсир қилади.

Рангли металл ишлаб чиқарадиган заводлар яқинидаги ҳавода олтигугурт ангидриди ва бошқа зарарли модда миқдорининг ошиши натижасида бугдойнинг ҳосилдорлиги 15-70%, ундаги оксиллар 20-30% пасаяди. Шунингдек, ўсимликларнинг касалланиши ортиб сабзавотларда С витамини, қанд ва крахмал 1,5-2 баробар камаярди. Кимё саноати усқуналарининг тез емирилиши атроф муҳитнинг ифлосланиши хавфини оширади. Зарар кунандаларга Қарши ишлаб чиқариладиган песцид ва гербицид каби захарли моддаларни ишлаб чиқаришга нисбатан, уларни зарарсизлантиришига 2-3 баробар ортиқ маблағ сарфланади.

Саноат корхоналари ҳавога юзлаб турдаги чиқиндиларни чиқаради. Дунё энергия ҳисобига вуждга келувчи тоғ жинсларининг нураши миқёсида йилига ҳавога углерод оксиди-250 млн т, ёқилги кукуни – 100 млн т, аммиак-4 млн т, олтингугурт водородили – 3 млн т, қургошин бирикмалари – 1 млн т, фтор – 0,4 млн т чиқарилди.

Ҳавога кўплаб халқ хўжалигида ишлатиш мумкин бўлган кимёвий моддаларни чиқариш, табиатдаги мувозанатни бузиб, оғир фалокатлрга ерга ташқаридан таъсир этувчи энергия ҳисобига вуждга келувчи тоғ жинсларининг нураши, сурилиши, кулаши. Сел оқимлари, тупроқларнинг шамол таъсирида емирилиши, ғорларнинг ҳосил бўлиши ва шу турдаги бошқа табиий офатлар: зилзила, вулқон ҳодисалари, сув тошқинларига сабаб бўлиши мумкин.

Марказий Осиё ҳавосидаги чанг ер қобиғи қатламларининг юзасига келувчи кучлар таъсирида ҳаракатга келиши, силжиши, ётиш ҳолатининг ўзгариши тоғ жинслари қатламларида узилишлар юзага келтиради. Бу

ходисаларни юзага келтирувчи кучлар тоғ жинсларига икки йуналиш бўйича таъсир этади. 1. Радиал – тоғ жинслари қатламларига насбатан тик йуналишда бўлиб, бу таъсир остида тоғ жинслари қатламларида узилишлар вужудга келади ва у ер сатхининг кўтарилишига, баъзи ерларнинг чўкишига сабаб бўлади. 2. Тоғ жинслари қатламлари бўйлаб таъсир этувчи кучларга тангенсал кучлар дейилади. Бу кучлар таъсирида тоғ жинслари қатламлари букилади, бурмалар ҳосил бўлади. Тангенсал кучларнинг миқдори радиал таъсир этувчи кучларга караганда бир неча мартаба каттадир ва у тектоник ҳаракатлар деб аталади. Тектоник ҳаракатлар ер кимирлаш (зилзила)ларни, вулқон ҳодисаларни ҳамда ер юзасида юз берадиган экзоген жараёнларнинг содир бўлишида асосий омил бўлиб хизмат қилади. Кейинги йилларда инсоният ўзининг инженерлик фаолияти билан муайян геологик- тектоник шароит кампонентларига таъсир этиши, у ёки бу даражада ўзгартиришлар киритиши зилзиланинг вужудга келишига сабаб бўлади. Дарё водийларига туғонларнинг қурилиши натижасида майдони бир неча минг км ҳажми бир неча юз км дан катта бўлган сув омборлари вужудга келмоқда. Ер қарида 4000-5000 м чуқурликда ётган газ, нефть ер сатҳига суриб чиқарилмоқда, ер сотида ётган кўмир ер қаърида ёндирилиб газга айлантириб олинмоқда баъзан вақтинча сақлаш мақсадида ер остида ётган тоғ жинслари ғовақларига газ, нефть маҳсулотлари юқори маҳсулотлари юқори босим остида киритилмоқда, жуда катта миқдордаги минерал сувлар ер остидан чиқарилиб олмоқда. Ер ости сувларида зилзиладан олдин радон газ миқдорини ошиши қонунияти биринчи бўлиб жумхуриятимизда фандаги янгилик сифатида қабул қилинди.

Хозирда жумхуриятимиз ҳудудида ташкил этилган кузатиш майдонларида ер ости сувлари таркибидаги радон газ миқдори доимий равишда кузатиб борилади, бу усул билан Республикаимизда ва Марказий Осиё жумхуриятларида рўй берган бир неча зилзила башорат қилинди ва улар тасдиқланди.

Демак, табиий офатларни вужудга келиши инсонларни ишлаб чиқариш фаолияти ҳисобига тезлашиши мумкин экан. Шунинг учун инсонларни табиатга кўрсатаётган антропоген таъсирларни оптималлаштириш мақсадга мувофиқдир.

Фойдаланилган адабиётлар

1. Э.В. Кодиров, М.Ш. Шерматов, А.А. Адилов, Х.А. Акбаров. “Табиий муҳитни муҳофазалашнинг геоэкологик асослари” Тошкент, “Ўзбекистон” 1999 й
2. Ю.Шадиметов, “Ижтимоий экологияга кириш” Тошкент, “Укитувчи” 1994й
3. “Ер кимирлаши хақида эслатма”. Ўзбекистон Республикаси Фавқулудда вазиятлар вазирлиги 2001й
4. Зилзила. Ўзбекистон Кизил Ярим Ой жамити миллий кенгаши босма хонасида чоп этилган журнал 2004й

ТАБИЙ ХУСУСИЯТЛИ ФАВҚУЛОДДА ВАЗИЯТЛАР, УЛАДАН ОГОХЛАНТИРИШ ЧОРАЛАРИ ВА ТЎҒРИ ХАРАКАТЛАНИШ УСУЛЛАРИ

**А.Исоқов Наманган вилояти Фавқулодда вазиятлар бошқармаси Хаёт
фаолияти хавфсизлиги ўқув маркази ўқитувчиси**

Кўчки-огирлик кучи таъсирида тоғ жинслари ва тупроқ массасининг тоғ ва жарликлар ёнбағри, денгиз, кўл ва дарёларнинг тик тушган қирғоқлари бўйлаб пастга силжиши. Республикамизнинг тоғли, тоғ олди, дарё бўйлари худудларида яшайдиган аҳолига ва иқтисодиёт объектларига катта хавф тугдирадиган табиий офатлардан бири. Ер кўчкиси, асосан тоғ ён бағирликда лойсимон ва қумоқ тупроқлардан ташкил бўлиб, дарё ва сув ҳавзаларининг қирғоқларида ва шулар атрофида ҳосил бўлади. Кўчиб тушган тупроқ массасига қараб кўчки кичик, ўрта, ва йирик ва жуда йирик бўлиши мумкин. Кўчки хавфи мавжуд худудларга Тошкент, Андижон, Фарғона, Самарқанд, Сурхандарё, Қашқадарё, шунингдек Жиззах ва Наманган вилоятларининг айрим туманлари киради. Ҳар йили республикамизда 150-250 та кўчки ходисаси рўй беради. Республикамиз худудида юзага келадиган кўчкиларнинг асосий сабаби гидрометеорологик шароит билан боғлиқдир. Шу сабабли бу жараён мавсумий хусусиятга эга, яъни атмосфера ёғинлари қанчалик кўп бўлса, ер кўчиши хавфи шунчалик кескин бўлади.

Тоғ жинслари ва ер массаси силжишлари турли белгиларда намоён бўлади:

- эшик ва деразаларнинг ёпилмай ёки қисилиб қолиши;
- тупроқда янги ёриқлар ва дарзларнинг пайдо бўлиши;
- ики в аташқи деворларда, сувоклари атрофида, аъсфалт юзасида кутилмаган дарзлар;

- ёнбағирлар пойида ер бўртиб чиқиши, ер ости сувларининг янги-янги жойлардан чиқа бошлаши;

- гумбирлаган овоз эшитилиши ва зўрая бориши;

Мамлакатимизда кўчки жараёнларни кузатиш ва бошқариш тизими яратилган. Кўчки юз бериши хавфи мавжуд худудларда доимий кузатув ишлари олиб борилади.

Кўчки вақтида қандай ҳаракат қилиш керак?

Кўчки эхтимоли юзага келганлиги тўғрисидаги сигнални олгач, электр асбоблари, газ ва сув тармоғини ўчиринг, аввалдан ишлаб чиқилган режага асосан зудлик билан ўтказиладиган эвакуацияга тайёрланинг. Кўчки хавфи пайдо бўлганда тезликда хавфли худудни тарк этиш лозим.

Сув тошқини-қор эриши, жала (кучли ёмғир) сувининг шамол ёрдамида ҳайдаб келиши, муз бўлакаларининг тикилиши ва бошқа ҳолатларда дарё, кўл ёки денгиз сувлари сатхининг кескин кўтарилиши оқибатида қуриқликнинг анчагина қисмининг сув остида қолиши. Сув тошқини кўприк, бино ва иншоотларнинг вайрон қилиши, катта моддий зарар келтириши мумкин. Сув

тезлиги сониясига 4 метрдан ортган ва сув қатламининг бландлиги 2 метрдан ошган холларда одамлар ҳамда жониворлар нобуд бўлиши мумкин. Сув тошқини тўсатдан юзага келиб, бир неча соатдан 2-3 хавфга давом этиши мумкин.

Сув тошқинига қарши қандай тайёргарлик кўриш керак?

Агар худудидингиз сув тошқини хавфига тез-тез учраб турса, у холда эхтимолий сув тошиш чегарасини, шунингдек яшаш жойингизга яқин бўлган тепаликларни, уларга борувчи энг яқин йўллارни ўрганиб чиқинг ва эсда сақлаб қолинг. Олдиндан эвакуация вақтида олиб чиқиб кетиладиган хужжатлар, молк-мулк ва дори –дармонлар рўйхатини тузиб қўйинг. Махсусс жамодон ёки рюкзакка қимматбаҳо буюмларингиз, зарур иссиқ кийим, озиқ-овқат захираси, сув ва дори-дармонларни солиб қўйинг.

Сув тошқини вақтида қандай ҳаракат қилиш керак? Сув тошқини хавфи юзага келганлиги ва эвакуация ўтказиш тўғрисидаги хабарни олгач, белгиланган тартибда хавфли худудан хавфсиз худудга ёки тепаликларга чиқинг. Ўзингиз билан хужжатлар, қимматбаҳо буюмларингиз ва уч кечаю кундузга етадган озиқ-овқат махсулотларини олинг. Эвакуация уюшган холда ўтказилмаётган бўлса, ёрдам етиб келгунча ва сув сатхи пасайгунга қадар юқори қаватлар ва бинолар тоmidан, дарахтлар ва тепаликлардан жой эгалланг.

Сел- тоғ дарёлари ўзанларида тўсатдан юзага келувчи катта хажимдаги тоғ жинслари бўлакалари, харсанглар ва сув аралашмасидан иборат вақтинчалик шиддатли оқим. Арабча сел, сил, сейлюн-шиддатли тоғ оқими маносини англатади. Сел доимо тоғли ва тоғолди хуудларда яшовчи аҳоли ўртасида ваҳима уйғотиб келган. Ўтмишда одамлар уни сеҳиргарнинг иши, арвохларнинг ёвуз қилимишларидан деб тушиниб келишган. Ватанимизни ўраб турган тоғлар ва тоғ олди худудлари сел хавфи худудларига киради. Сел айниқса, Қашқадарё, Наманган, Жиззах, Фаргона, Сурхондарё ва Тошкент вилоятларида кўпроқ учрайди. Сел оқимларини узоқ давом этган кучли жала, қор ёки музликларнинг жадал эриши, зилзила ва вулқон отилишлари келтириб чиқаради.

Селга қандай тайёрланиш керак?

Одатда сел оқимлари келиши мумкин бўлган жойлар маълум бўлади. Тоққа чиқишдан аввал ҳаракатингиз йўналишида мавжуд бўлган шундай жойларни ўрганиб чиқинг, уларни айниқса кучли ёғинлардан сўнг четлаб ўтинг. Эвакуация олдиндан ўтказиладиган бўлса, турар жойни ташлаб чиқиб кетишдан олидин электр, газ, сув манбаларини беркитинг. Эшик дераза ва шомаллатиш тизимларини яхшилаб ёпинг.

Сел вақтида қандай ҳаракат қилиш керак?

Келаётган сел оқимининг шовқининни эшитгач, зудлик билан камида 50-100 метр баландликка чиқиб олиш керак. Бунда шиддат билан келаётган оқимдан катта масофага огир, ҳаёт учун хавфли бўлган тошлар отилиб чиқиши мумкинлигини ёдда тутиш лозим.

Қор кўчкиси-20-30м/сония ва ундан ортиқ тезлик билан харакатланаётган ёки пастга сурилаётган қор массаси. Қор кўчкисининг тушиши кўчки олдида хаво тўлкининг хосил бўлиши билан бирга кечади. Қор кўчкисига узоқ муддат қор ёгиши, қорнинг шиддатли эриши, зилзила портлаш ва тоғ ён бағирларининг тебранишини келтириб чиқарувчи инсон фаолиятининг бошқа турлари, хаво мухитининг тебраниши сабаб бўлиши мумкин.

Қор кўчкиси тушиши мумкин бўлган худудда харакат қилишнинг асосий қоидаларига риоя қилиши лозим:

- қор ёғаётган ва об-хаво бузилган вақтда тоғга чиқманг;
- тоғда бўлган вақтингизда об-хаво ўзгаришларини кузатиб боринг;
- тоғга чиқа туриб, қор кўчкиси тушиши мумкин бўлган жойларни четлаб ўтинг.

Фойдаланинган адабиётлар

1. Э.В. Кодиров, М.Ш. Шерматов, А.А. Адилов, Х.А Акбаров. “Табий мухитни муҳофазалашнинг геоэкологик асослари” Тошкент, “Ўзбекистон” 1999 й
2. Ю.Шадиметов, “Ижтимоий экологияга кириш” Тошкент, “Укитувчи”1994й
3. “Ер кимирлаши хақида эслатма”. Ўзбекистон Республикаси Фавқулудда вазиятлар вазирлиги 2001й

HAYOT FAOLIYATI XAVFSIZLIGI FANINING RIVOJLANISHI VA UNING TARQQIYOTI HAMDA JAMIYATDAGI O'RNI VA RIVOJLANISHI

D.Igamberdiyeva Namanagan muxandislik-qurilish instituti o'qituvchi
Sh. Yuldoshev. Namanagan muxandislik-qurilish instituti o'qituvchi
D.Zokirova. Namanagan muxandislik-qurilish instituti talaba

“Хайот-фаолият хавфсизлиги” (XFX) фани кishilik жамиятининг ҳамма ҳолатларидagi шароитлар билан қизиқadi ва ularni o'rganadi. Boshqacha qilib aytganda XFX fani «Mehnat muxofazasi»ga qaraganda keng va universaldir, ya'ni XFX fani aniq vaziyatlarda xavfsizlikni ta'minlashning holatlarini o'rganadi. XFX fani fan va texnika rivojlanishining mantiqiy asosida vujudga keladi.

«Mehnat muxofazasi» fani insonning ishlab chiqarishdagi sharoitlari bilan qiziқadi, «Fuqaro mudofaasi» fani esa uning favqulodda holatlari bilan qiziқadi va ularni o'rganadi.

Bizning eramizdan oldin yashagan Pratarog “Inson hamma narsalarning mezonidir” degan shiorni oldinga tashlagan edi. Bu degani, inson nafaqat ishchi kuchi sifatida, balki mehnat faoliyati jarayonida muxofaza qilishi zarur bo'lgan qiymatga egadir. Insoniy aktivlik turlarining hamma majmuasi faoliyat tushunchasini hosil

qiladi. Aynan faoliyat insonlarni boshqa tirik mavjudotlardan ajratadi, ya'ni faoliyat spesifik bo'lgan aktivlikning insoniy shaklidir.

Faoliyat - kishilik jamiyatining bor bo'lib turishi uchun zarur bo'lgan sharoitdir. Mehnat - faoliyatning oliy shaklidir. Faylasuflarning fikricha, insonga berilgan eng ma'qul bo'lgan ta'rif bu «Nomo adens» ya'ni harakatlanuvchi inson.

Faoliyat va mehnatning shakllari xilma xildir. Ular turmushda, jamiyatda, madaniyatda, ishlab chiqarishda, ilmida va boshqa xayot soxalarida kechadigan amaliy, aqliy va ma'naviy jarayonlarni o'z ichiga oladi. Faoliyat jarayonining modelini umumiy holda ikkita elementdan tashkil topgan deb qarash mumkin, ya'ni bir-biri bilan to'g'ri va qaytma aloqada bo'ladigan inson va muhit elementlaridir.

Qaytma aloqalar moddiy dunyo reaktivligining umumiy qonunlariga asoslangan. "Inson- muxit" sistemasi ikki maqsadlidir. Bitta maqsad ma'lum samaradorlikga erishishdan tashkil topsa, ikkinchisi - ko'ngilsiz oqibatlarni bartaraf qilishdan iboratdir. Ko'ngilsiz oqibatlarga quyidagilarni aytish mumkin: inson hayotiga va sog'ligiga zarar yetkazish, yong'inlar, buzilishlar (avariyalar), talofatlar (katastrofalar) va boshqalar. Bu ko'ngilsiz oqibatlarni keltirib chiqaruvchi hodisa, ta'sir va boshqa jarayonlar xavflar deb ataladi. Xavflar yashirin (potensial) va real turlarga ajratiladi. Xavflar uchun quyidagi belgilar xarakterlidir: xayotga taxlika, sog'likka zarar, inson a'zolari ishlashining qiyinlashishidir.

Potensial xavf amalga oshishi uchun sabablar deb ataluvchi sharoitlar bo'lishi zarur.

Endi xavf va uning oqibatini xarakterlovchi ayrim ma'lumotlarni keltiramiz. Yer yuzida tabiiy ofatlar soni ko'payib bormokda, u 1990 yilda 1960 yilga nisbatan ikki marta oshdi. Butun dunyo sog'liqni saqlash jamiyatining ma'lumoti bo'yicha dunyoda 1909 yildan 1974 yilgacha asab kasalligi bilan kasallanish 24 marta ko'paygan. Dunyoda 500 mln.ga yaqin nogiron bo'lib, ularning xar 1/5 baxtsiz hodisa natijasida sodir bo'lgan. MDX davlatlarida xar yili 19 mln.gacha kishi jaroxatlanadi, o'rtaacha 500 ming. kishi halok bo'ladi, shundan 50-60 ming kishi yo'l - transport hodisasida, 10 ming yong'indan va 14 ming bevosita ishlab chiqarishda sodir bo'ladi. MDX davlatlarida har yili 30 mingga yaqin kishi mehnat nogironi bo'ladi. Davlat statistika qo'mitasining ma'lumotlariga ko'ra 1989 yildan boshlab jaroxatlanish darajasi mamlakatlar bo'yicha 4 foizga oshgan, ularning ayrimlarida esa bu ko'rsatgich 11-19% va undan ham yuqori bo'lmoqda. Bir yilda har 1000 ta kishiga to'g'ri kelgan o'lim bilan tugagan baxtsiz hodisalar quyidagi 1-jadvalda keltirilgan

1-jadval. Bir yilda har 1000 ta kishiga to'g'ri kelgan o'lim sonining taqqoslangan ma'lumot ko'rsatgichlari

Davlatlar	MDH	G'arbiy Yevropa	Sharqiy Yevropa
Jami	11	8	12
Baxtsiz xodisadan	1,5	0,5	0,8
%	13,6	6,25	6,6

Tajriba shuni ko'rsatadi, har qanday faoliyat potensial xavflidir. Bu tasdiqlanish aksiomal xarakterga egadir va bir vaqtning o'zida tan olinadiki, xavf

(tavakkal) darajasini boshqarsa bo'ladi, ya'ni kamaytirsam bo'ladi. Bu tasdiqlanish esa ma'qul bo'lgan tavakkal konsepsiyasiga olib keladi. U absolyut xavfsizlikga erishib bo'lmagligini tushunishga asoslanadi. Xavfsizlik - bu faoliyatning holati bo'lib, ma'lum ehtimollikda xavflarning kelib chiqishini bartaraf qilishdir. Xavfsizlik - bu insonlar oldiga ko'yilgan maqsaddir. HFX esa maqsadga erishishning vosita, yo'l va usullaridir. "Hayot-faoliyat xavfsizligi" - ilmiy fan bo'lib xavflar va ulardan himoyalaniшни o'rganadi. Uni o'rganishning predmeti - faoliyat (mehnat)ning bir tomonidir, aynan xavflar ulardan himoyalanişni maqsadida.

Hayot-faoliyat xavfsizligi fanining maqsadi ishlab chiqarishda va favqulodda holatlarda xavfsizlikni ta'minlash va yaxshi ish sharoitlarini yaratish uchun insonlarni nazariy va amaliy jihatdan tayyorlash, hamda ekstremal vaziyatlarda qanday harakat qilish va o'rgatishdan iboratdir. Shu bilan birgalikda HFX fani bir-biri bilan o'zaro bog'liq bo'lgan uchta asosiy vazifani yechadi:

- xavflarni identifikatsiyalash, ya'ni xavflarning sonli xarakteristikasi va kelib chiqish nuqtalarini ko'rsatgan holda ularning qiyofasini bilish;
- foyda va xarajati taqqoslash asosida xavflardan ximoyalanişni;
- mumkin bo'lgan salbiy xavflarni (qolgan xavf-xatar konsepsiyasidan kelib chiqqan xolda) bartaraf qilish.

Kishilik jamiyati rivojlanish tarixining eng dastlabki bosqichlarida faoliyat sharoitlariga e'tibor qaratilgan, shu jumladan inson sog'lig'ini saqlash masalalari xam ko'rilgan. Xavfsizlik xaqidagi rivojlanishga ayrim misollar keltirsak:

- Aristotel (bizning eramizdan avval 384-322), Gippokrat (b.e. 460-377) va boshqa olimlarning asarlarida mexnat sharoiti masalalari o'rganilgan.

- Tiklanish davrining buyuk tabibi Parasels (1493-1541) o'zining asarlarida tog' ishlari bilan bog'liq bo'lgan xavflarni o'rganadi. quyidagi "Bor bo'lgan xamma narsa zaxar va bor bo'lgan xamma narsa dori. Faqat bitta doza zaxar yoki dori moddasini keltirib chiqaradi" degan shior uning qalamiga mansub.

- Nemis vrachi va metallurgi Agrikola (1494-1555) o'zining "Tog' ishlari" asarida Mexnat muxofazasi masalalarini bayon qilgan.

- Italyan vrachi Ramassini (1633-1714) kasbiy gigiena asoslariga asos solib, "Kullollar kasalliklari" kitobini yozdi.

- Rus olimi Lomonosov M.V. (1711-1765) tog' ishida mexnat xavfsizligi bo'yicha asos soluvchi asarini yozadi.

XIX asrda sanoatning jadal rivojlanishi bilan xavfsizlik muammolari bilan shug'ullanuvchi bir qancha ko'zga ko'ringan olimlar paydo bo'lishdi: D.L.Kirpichev (1845-1913), A.A.Press (1857-1930), D.P.Nikolskiy (1855-1918), V.A.Leviskiy (1867-1936), A.A.Skochinskiy (1874-1960), S.I.Kaplun (1897-1943) va boshkalar.

Texnosferaning xavfsiz rivojlanish muamolariga akademik V.A.Legasovning asarlari bag'ishlangan.

XFX ilmiy fan sifatida o'zining nazariyasi, metodologiyasi va metodlariga ega. Bir vaqtning o'zida XFX quyidagi: injenerlik psixologiyasi, odam fiziologiyasi, Mexnat muxofazasi, ekologiya, ergonomik va boshqa fanlarning yutuqlariga suyanadi. XFXning metodologik bazasi sistemasi taxlildir.

Faoliyat xavfsizligi qadim zamonlardan to hozirgi kunimizga qadar insoniyat ilmiy va amaliy qiziqishlarining eng muxim bir tomonidir. Odamzot xar doim o'zining

xavfsizligini ta'minlashga intiladi. Ishlab chiqarishning rivojlanishi bilan bu masalalar maxsus bilimlarni talab qiladi. Bizning davrimizda xavfsizlik muammolari yanada keskinlashdi. Mamlakat va jamiyat baxtsiz xodisalar, yong'inlar, avariya va talofatlardan ulkan zarar ko'rib kelmokda. Shuning uchun xavflardan ximoyalaniş masalalarida odamlarni tarbiyalash muxim ahamiyat kashf etadi. Bizning jamiyatimizni barqarorlashtirishda XFX muxim ijtimoiy rol o'ynaydi va xalq faoliyati xavfsizligi darajasini oshirishda ulkan xissa qo'shadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O.R.Yuldashev, Sh.G.Djabborova, O.T.Xasanova. Hayot faoliyati xavfsizligi. – Darslik “Toshkent-Iqtisodiyot”, 2014.– 268 b.
2. Yormatov G'.YO. va boshqalar. Hayot faoliyati xavfsizligi. –T.: “Aloqachi”, 2009. – 348 b.
3. Tojiev M. X., Nigmatov I., Ilxomov M. X. Favqulodda vaziyatlar va fuqaro muhofazasi. O'quv qo'llanma. –T.: “Iqtisod- moliya”, 2005. -195 b.
- 4.G'oyipov H.E. Hayot faoliyati xavfsizligi. –T.“Yangi asr avlodi”, 2007 yil.

THE ROLE OF DIDACTIC CONDITIONS IN THE USE OF DIGITAL TECHNOLOGIES BY TEACHERS OF TECHNOLOGICAL EDUCATION.

**A.Allamuradov Head of Education Quality Control Department,
Pedagogical Institution of Termez State University**

Annotation: Today, Information and communication technology has become a way of life in which children are drawn. Today's children are beginning to use digital tools at a very young age, so that the school should respond to the needs of students. Also today it is impossible for any profession performs without the help of information technology. The computer and the Internet gives us endless possibilities and resources in improving the quality of work. Even in education, computer skills and additional equipment are needed, because they create great opportunities for teachers and inspire curiosity, imagination and interest of students. Teachers should not oppose change, but they should use new technology for better quality teaching and make it more interesting. The use of technology will positively improve results faculty and students. Teachers must carefully plan the use and integration of technology in teaching. How to integrate technology into teaching mainly depends on how many computers has at its disposal.

Keywords: technology in education, computer in teaching, use of technology, integration technology.

DEFINITION OF THE TERM OF EDUCATIONAL TECHNOLOGY

The term "pedagogic technology" is defined as a synthesis of programs, procedures (steps) and tools that are oriented to the realization of the educational process in the transition from a rational way to implement this process, on the other hand refers to the rational way of achieving this process, but not only that, but also for learning and optimistic way of achieving its objective. Word techniques and technologies are often used as synonyms in different pedagogical literature, and often happens that they replace each other. At first I will try that, based on various sources in order to solve the problem of defining the notion techniques and technologies. In the

Dictionary of Pedagogy II (1967 f.453-455) techniques used to explain the concept of pedagogical techniques, learning techniques, the technique of reading, research techniques, etc. While in Pedagogical Encyclopedia II (1989, pp 107-108.) For an explanation of the term "scientific and technological revolution in education" - which are mainly provided clarification technology in production and further states: scientific and technological revolution promotes more major changes, transformations in the structure, dynamics of productionto the content and methods of education in qualifying educational structure of employees ". If in most cases it refers to the production technology why it is important to talk to educational technology. It connects as technology and education is certainly learning content to be transferred to students and it must be done in an easier way, accessible to student, however, it needs to be practical and active participation of the two key factors in the educational process. On the other hand, on the subject of educational technology should remember that it is a stimulant that encourages you to deal with different learning situations; It allows creation of new reports in the process of teaching and learning; It also helps and encourages the implementation of various projects in the classroom. The teaching process requires the use of many tools and techniques for successful implementation. And educational technology is what helps increase the effectiveness of learning and easier appropriation of themes or educational content. Considering the rapid development of technology and access to it at different times, we can conclude that somehow it correspond with use of various audiovisual in learning. All the material resources that help teachers and students for successful realization of the educational process can appoint as teaching tools. From this learning tools are a didactic working tool, which help in efficient performance of duties of the school. All media (tools) which supplemented one another affect more productive and successful in the learning process. On the other hand we must emphasize that the more senses you engage in the implementation of the educational process more efficient the learning will be. Wide mediation and eye full, ear, touch, can make sense of the most complete learning, while remembering or storing of teaching in students head make it longer and more efficient (Trnavac, N., Djordjevic. J., 1995. p. 320). Implementation of the learning process through educational technology will provide greater Journal of Education and Practice www.iiste.org ISSN 2222-1735 (Paper) ISSN 2222-288X (Online) Vol.8, No.6, 2017 198 opportunities for achieving contemporary teaching but also more efficient training of students can still easily cope with the demands and challenges of life. In conventional teaching process in learning student has been passive subjected who heard the explanation of the teacher as the only source of knowledge and knowledge in class. The textbook has used in individual lessons at home and performing home duties. Contemporary School and learning requires not only change the position of students in the classroom, learning i.e. his transforming in _ active subject in the learning process, consisting of active participation of students in the realization of the learning process where the teacher and pupil worthy transform in learning partners; but the use of different technologies in teaching all this with only one objective learning to be more attractive and accessible to the student and at the same time respond to the demands and opportunities of the modern age in which we live. Schools must prepares people for the future, which could find themselves in different areas of their lives. It

never should remain only on preparing, training and teaching students only time in which we live, and the conditions of the present. The youth must prepare for the future, for a life in the future which will be anyway different from that of today. Below I will try to schematically illustrate how helps the teaching process and the use of educational technology helps students faster, easier to promote the learning process and to have a long-term knowledge. Through the use of educational technology, students are trained to: to accept analyze / to establish knowledge understands synthesizes lectures and versality – knowledge 2. OBJECTIVES OF EDUCATIONAL TECHNOLOGY Using technology in education Every day more runs in the growth and Advancement. Definding clearly objectives of educational technology its not easy by the fact that it expands day by day and is involved in various spheres of life and work. From this will present some objectives as follows: educational technology opens a perspective and usage in teaching; teaching technology is known as the implementation of learning models, treat of teaching methods and scientific knowledge in the educational process; learning technology acts as factor and element of change in teaching didactics. (Murati., Xh.. 2013, p. 24). In overall process of educational the teaching technology, aims to accomplish the two basic objectives which are: 1. The intensive aspect of learning, educational work; and 2. The extensive aspect of organizing educational work (Murati., Xh.. 2013, p. 25). Educational technologies are determinated by several factors, such as: - Ways, tools and forms of educational work;

In a recent study, Fransson, Lindberg, and Olofsson (2018) analyzed the Swedish national strategy for the digitalisation of the K-12 school system with the aim of teasing out the possible meanings of adequate digital competence at a conceptual level. The authors mean that in the strategy the notion “adequate” appears to be both vague and wide, that it can be understood in relation to most aspects of education and thereby be difficult for stakeholders in school to contest or even neglect. The authors conclude that the notion of “adequate” needs further interpretation and discussion, with empirical resonance from school and different representations of how teachers’ adequate digital competence is displayed in practice. Therefore, in this article, the focus is on teachers’ adequate digital competence – in policy and practice – with an aim to explore how enacted digital competence in three Swedish upper secondary schools appears, and thereby provide an empirical account of what “adequate” might mean in practice. With this approach, this study also contributes to an understanding of how policy is interpreted, transformed and enacted (Ball, Maguire and Braun 2012). In such policy-formation processes, opportunities for different actors to be involved and display agency are important. As agency reflects “the capacity of actors to critically shape their own responsiveness.

Educational programs and apps play a role in encouraging students to seek out knowledge in fun and interactive ways, while interactive whiteboards and classroom clickers allow teachers to vary their lesson styles to introduce and reinforce their subject material.

REFERENCES

1. Murati, Xh., (2002), Didaktika, Çabej, Tetovë
2. Murati, Xh., 2013, Teknologjia mësimore, Luma grafik, Tetovë

3. Kurbonova Gulnoza Abdukhalik qizi. № 17 (255) / 2019 The notions of “knowledge”, “action” and “learning” p217 Молодой ученый Международный научный журнал

4. Qurbonova Gulnoza Abduholiqovna. (2021). EPISTEMOLOGICAL APPROACHES AND THE PSYCHOLOGY OF KNOWLEDGE. Emergent: Journal of Educational Discoveries and Lifelong Learning (EJEDL), 2(04), 50–53.

Retrieved from <https://ejedl.academiascience.org/index.php/ejedl/article/view/23>

5. Qurbonova Gulnoza Abduholiqovna. (2021). DEVELOPMENT OF THE CONCEPT “KNOWLEDGE” IN ENGLISH. Academia Globe: Inderscience Research, 2(04), 91–94. Retrieved from <https://agir.academiascience.org/index.php/agir/article/view/59>

ТЕХНОЛОГИЯ ФАНИ МИЛЛИЙ ЎҚУВ ДАСТУРИНИ АМАЛИЁТГА ЖОРИЙ ҚИЛИШ МАСАЛАЛАРИ

Ў.О.Тоҳиров Олий ва ўрта махсус таълим вазирлиги мутахассиси

Умумтаълим фанлари бўйича ўқувчилар эгаллаган билим, кўникма ва малакаларни мунтазам назорат қилиш, ўқувчиларнинг олган билимидаги бўшлиқларни ўз вақтида тўлдириб бориш билан бирга, иқтидорли ўқувчилардаги интеллектуал потенциалнинг мунтазам ривожланишига шарт-шароит яратиш бугунги куннинг асосий вазифаларидан бири ҳисобланади. Шунингдек, ўқувчиларни катталар билан ҳамкорликда фаолият кўрсатишга қизиқтириш, уларнинг саломатлигини муҳофаза қилиш, мустаҳкамлашга қаратилган педагогик ёндашувлар ва тажрибаларни бойитиш, синфдан ташқари педагогик тадбирлар режасини ишлаб чиқиш, ўқув-тарбия жараёнида замонавий педагогик технологиялардан фойдаланиш каби вазифаларни амалга ошириш долзарб бўлиб қолмоқда.

Бугунги кунда ҳар бир соҳа йўналишида амалга оширилаётган ислохотлар таълим соҳасида ҳам ўз аксини топмоқда.

Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020-йил 2-мартдаги “2017-2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналиши бўйича Ҳаракатлар стратегиясини “Илм, маърифат ва рақамли иқтисодиётни ривожлантириш йили”да амалга оширишга оид Давлат дастури тўғрисида”ги ПФ-5953-сонли Фармонига мувофиқ тасдиқланган Давлат дастурининг IV. Ижтимоий соҳани ривожлантиришнинг устувор йўналишларининг 4.1. Таълим ва фан соҳасини ривожлантириш бўлими 159-банди ижросини таъминлаш мақсадида Технология фанининг Миллий ўқув дастури ишлаб чиқилди.

Шунингдек, ўқувчилардаги мавжуд юқламаларни камайтириш, таълимнинг сифат самарадорлигини ошириш мақсадида, турдош фанлар блокларини ва “Амалий фанлар” блокига оид умумий компетенциялар ишлаб

чиқилганлиги бунинг исботидир. Ушбу блокда “Эстетик маданият ва ижодкорлик компетенцияси”, “Ўз-Ўзини ривожлантириш ва асраш компетенцияси” ва “Амалий фаолиятни ривожлантириш компетенцияси”лари орқали фаннинг мақсади ва вазибалари шакллантирилиб, ривожлантирилади.

Умумий ўрта таълим муассасаларида технология ўқув фанини ўқитишнинг **асосий мақсади** – ўқувчиларда техник-технологик ҳамда технологик жараён давомида бажариладиган операциялар юзасидан олган билим, кўникма ва малакаларини мустақил амалий фаолиятида қўллаш, касб-хунар танлаш, миллий ва умуминсоний кадриятлар асосида ижтимоий муносабатларга кириша олиш компетенцияларини шакллантиришдан иборат.

Умумий ўрта таълим мактабларида Технология ўқув фанини ўқитишнинг **асосий вазибалари**: материаллар ва уларнинг хоссалари, хусусиятлари ҳамда техник объект ва технологик жараёнларга оид маълумотларни ўрганиш; техник объект ҳамда технологик жараёнларда махсус ва умуммехнат операцияларини билиш; технологик жараёнларни бошқариш, махсус ва умуммехнат операцияларини амалиётда қўллаш олиш; техник ва креатив фикрлашни, интеллектуал қобилиятларини шакллантириш; технологик жараён ва тайёрланган маҳсулотларни бажариш кетма-кетлиги ҳамда маҳсулот сифатини таҳлил қила олиш; буюм ва жараёнларни бажаришга оид хулосалар чиқариш ҳамда меҳнат операцияларини, маҳсулот сифатини баҳолай олиш; онгли равишда касб танлашга тайёрлаш ишларини амалга оширишда таянч ва технология фанига оид компетенцияларни шакллантириш ҳамда ривожлантиришдан иборат.

Технология фани 1-4-синфларида “Технология ва технологик воситалар”, “Техник конструкциялаш ва моделлаштириш”, “Қоғоз ва картон билан ишлаш”, “Табий ва турли материаллар билан ишлаш”, “Робототехника асослари”, “Замонавий касблар”, “Миллий хунарамандчилик”, **5-7-синфлар учун: Технология ва дизайн йўналиши**: “Замонавий техника ва технологиялар”, “Материалларга ишлов бериш технологияси”, “Робототехника асослари”, “Ижтимоий-икдисодий технология асослари”, “Халқ хунарамандчилиги технологияси” (ихтисослаштирилган таълим); **Сервис хизмати йўналиши**: “Пазандачилик асослари”, “Материалларга ишлов бериш технологияси”, “Робототехника асослари”, “Ижтимоий-икдисодий технология асослари”, “Ижтимоий-икдисодий технология ва касб-хунар асослари”, Халқ хунарамандчилиги технологияси” (ихтисослаштирилган таълим); **Қишлоқ хўжалиги технологияси йўналиши**: “Агротехника”, “Қишлоқ хўжалик техникаси ва ундан фойдаланиш”, “Қишлоқ хўжалик машиналари”, “Чорвачилик асослари”, “Робототехника асослари”, “Ижтимоий-икдисодий технология асослари”

8-9-синфлар учун: Технология ва дизайн йўналиши: “Замонавий техника ва технологиялар”, “Материалларга ишлов бериш технологияси”, “Робототехника асослари”, “Ижтимоий-икдисодий технология ва касб-хунар асослари”, “Халқ хунарамандчилиги технологияси” (ихтисослаштирилган таълим); **Сервис хизмати йўналиши**: “Пазандачилик асослари”, “Материалларга ишлов бериш технологияси”, “Робототехника асослари”, “Ижтимоий-икдисодий технология

ва касб-хунар асослари”, “Халқ хунарамдчилиги технологияси” (ихтисослаштирилган таълим); **Қишлоқ хўжалиги технологияси йўналиши:** “Замонавий техника ва технологиялар”, “Қишлоқ хўжалик технологияси”, “Робототехника асослари”, “Ижтимоий-иктисодий технология ва касб-хунарга асослари” бўлимлари бўйича ўқитилиши белгиланган. Мазкур бўлимлар бўйича берилган мавзулар ўқувчилар ёшига мос ҳолда ишлаб чиқилган бўлиб, бошланғич синфларда: тасвирий санъат, табиий фанлар, математика ва юқори синфларда: физика, кимё, география, тарих, математика, геометрия, тасвирий санъат, чизмачилик ва информатика фанлари билан узвийлиги таъминланган.

Шунингдек, умумий ўрта таълим мактаблари ўқувчиларида шакллантириладиган таянч компетенциялар умумлаштириб, соддалаштирилган. Таянч компетенциялар коммуникатив компетенция, ахборот компетенцияси, ўз-ўзини ривожлантириш компетенцияси, ижтимоий-маданий ва фуқаролик компетенциясилари ҳам алоҳида тартибда ишлаб чиқилган. Бу ҳолат амалиётчи ўқитувчилар, ота-оналар ва ўқувчилар учун ҳам қулай бўлиб, тақрорланишларни олдини олишга хизмат қилади.

Технология фанининг миллий ўқув дастури умумий ўрта таълим мактаблари битирувчиларида:

технологияларни ўзгартириш жараёнида тушуниш, қўллаш, назорат қилиш, мукаммалаштириш ва баҳолаш;

лойиҳалаштириш, изланиш, бошқариш каби универсал фаолиятни ўзлаштириш;

карама-қаршиликлар масаласини ечиш маҳоратини намоён қилиш орқали самарадор ва тўғри технологияларни танлаш;

ностандарт фикрлаш ва фаолият юритиш кўникмасини шакллантириш орқали янги махсулот, хизматлар ва меҳнатга таъсир ўтказишнинг янги услубларини яратиш;

таълим жараёнида ҳар хил касбий кўникмаларни эгаллаш орқали мустақил ҳаётда зарур бўладиган бўлажак касбни тўғри танлаш;

меҳнат қилиш, янги билимларни эгаллаш, мукамалликка эришиш учун ўз устида мустақил ишлаш ва амалий фаолият юритиш;

тез ўзгарадиган иктисодий, сиёсий, ижтимоий шароитларга мослашувчан, мустақил таълим олишга тайёр ўқувчиларни тарбиялашга эришилади.

Ўйлаймизки, Технология фанининг миллий ўқув дастури бугунги кун ёш авлодни тарбиялашда катта ҳисса қўшишга хизмат қилади.

МЕҲНАТ МУҲОФАЗАСИ ВА ТЕХНИКА ХАВФСИЗЛИГИ ФАНИНИ КАСБ-ҲУНАР МАКТАБЛАРИДА ЎҚИТИШНИНГ ДОЛЗАРБЛИГИ

Ш.Б.Мамadbоев Наманган давлат университети стажёр-ўқитувчи
Х.Рахимова Наманган давлат университети талабаси

Аннотация: Таълим муассасалари тингловчиларни ҳар томонлама меҳнат муҳофазаси ҳамда техника хавфсизлиги бўйича тушунча ҳосил қилиш, фаолият жараёнида турли хил бахтсиз ҳодисаларни олдини олиш эришилади. Шунингдек,

ходимларни эргономика ва уларга комфорт шароит яратиб бериш натижасида касб касалликларини вужудга келишини олдини олинади.

Калит сўзлар: меҳнат, техника хавфсизлиги, таълим, касб-хунар, таълим тизими, касбий жараён, меҳнат муҳофазаси, меҳнат хавфсизлиги, мактаб.

Annotation: Educational institutions provide students with a comprehensive understanding of occupational safety and health, prevention of various accidents in the course of their activities. It also prevents the occurrence of occupational diseases as a result of ergonomics and creating a comfortable environment for employees.

Key words: labour, education, system education, school, protect labour, safty labour.

Аннотации: Учебные заведения дают студентам всестороннее представление о безопасности и гигиене труда, предотвращении различных несчастных случаев в процессе их деятельности. Это также предотвращает возникновение профессиональных заболеваний в результате эргономики и создания комфортных условий для сотрудников.

Ключевые слова: труд, образование, системное образование, школа, охраняемый труд, безопасный труд.

Ҳар бир инсон эркин таълим олиш ҳуқуқига эга ва ўзи истаган касб хунарни танлашга ҳақлидир. Ёшларнинг ишсизлигини олдини олиш чора тадбирлари кенг тарғиб қилинмоқда. Ўзбекистон Республикаси Призиденти “Профессионал таълим тизимини янада такомиллаштиришга доир қўшимча чора тадбирлар тўғрисидаги” 2019 йил 6 сентябридаги фармонга кўра 339 та касб хунар мактабларини ишга тушуриш йўлга қўйилди. Ҳозирда касб хунар мактаблари шаҳар ва туманларда ўз фаолиятини бошлаган.

Бундай касб хунар мактабларини ишга тушуришдан мақсад, Ўзбекистон Республикасида ишсизлик ва қашшоғликни олдини олишдир. Ёш авлодлар касб хунарни эгаллашига ёрдам бериш мақсадида шундай ишлар олиб борилмоқда.

Аввалги ўқув тизимидан ҳозирги касб хунар мактабларининг фарқи ёшларга касб хунарларни мукамал ўргатиш ва яхши шароитларда яъни ўзининг мутахасислигига тўғри келадиган жиҳозлар билан ишлаш кўникмасини ошириш ва ўқувчиларни касбга қизиқтиришдир. Шу таълим соҳасида техсил оладиган ёшларга стипендия пуллари ҳам ажратилган бўлиб ўқувчиларнинг яхши ўқишлари учун моддий тарафдан ҳам ёрдам берилади.

Ҳозирги кунда касб хунар мактабларида ҳам айрим муаммолар мавжуд ва қуйидагича:

биринчи, меҳнат муҳофазаси ва техника хавфсизлиги фанлари бўйича дастурлар талаб даражасида эмас;

иккинчидан, меҳнат муҳофазаси ва техника хавфсизлиги фанлари бўйича ўқув кўлланма, услубий кўрсатмалар ва адабиётлар етарли даражада эмас;

учинчидан, меҳнат муҳофазаси ва техника хавфсизлиги соҳасида педагог кадр ва мутахасислар етарли даражада эмас;

тўртинчидан, меҳнат муҳофазаси соҳасида лаборатория машғулотлари профессионал таълимда дарс соатлари кам ёки мавжуд эмас;

бешинчидан, меҳнат муҳофазаси соҳасида хизматлар бозори яхши ташкил этилмаган;

олтинчидан, иш жойларини меҳнат муҳофазаси соҳаси бўйича доимий аудит ўтказиб борилмаслиги. Натижада иш жойларида микроклим параметрлари ва бошқа омиллар ортиб бормоқда;

еттинчидан, меҳнат муҳофазаси соҳасида жамоатчилик назорати яхши ташкил этилмаган;

саккизинчидан, меҳнат муҳофазаси ва техника хавфсизлиги фанини ОТМ томонидан методик марказлар жрий этилмаган.

Бугунги кунда саноат корхоналар ва ижтимоий объектлар сони йилдан-йилга ортиб бормоқда. Кўпайиш натижасида тармоқларда бахтсиз ҳодисалар ва касб касалликлар ҳам ортиб бориши кузатилмоқда. Ушбу вазиятларда ходим ва иш берувчини ўртасида ўзаро муносабатни тартибга солиш, ходимларни саломатлига қаратилган ташкилий тадбирларни ўтказиш меҳнат муҳофазаси мутахассиси зиммасига юклатилади. Ходимларни соғлиги ва иш жараёндаги унумдорликни ошириш корхоналар томонидан яратиб берилган шароитга боғлиқ албатта. Юқоридаги муаммоларни бартараф этишда қўйидаги илмий тавсияларни илгари суриш мумкин.

биринчи, таълим муассасалари педагогларларни меҳнат муҳофазаси ва техника хавфсизлиги бўйича ўқитишни йўлга қўйиш лозим. Шунингдек, техника хавфсизлиги бўйича белгиланган аттестациядан ўтказишни ҳам режалаштириш керак. Агар, аттестациядан ўтмаган ходимларни ишлашга рухсат бермаслик лозим.

иккинчи, Олий таълим тизимида меҳнат муҳофазаси йўналишини жорий этиш ва талабалар қамровини кенгайтириш керак.

учинчи, меҳнат муҳофазаси соҳасида давлат бошқаруви ва жамоатчилик бошқаруви органларини ролини янада кучайтириш керак.

Биринчи навбатда ушбу фанлар учун дастурий ўқув тизимини йўлга қўйиш яъни бу фанларни босқичма-босқич ўқувчиларга ўқитиш режимини амалга ошириш зарур. Кейинчалик фуқороларнинг касбий жараёнларида учрайдиган бахтсиз ҳодисалар келиб чикишини олдини олиш, шундай ҳолатлар юзага келганида зарур чора тадбирлар кўришни аниқлаб бориш керак.

Меҳнат фаолиятини яхшилаш борасида қилинаётган бундай ҳаракатлар келгусида Ўзбекистонни Республикасини гуллаб яшнашига бир туртки бўла олади ҳамда техника билан ишлаш жараёнини жадаллаштиришга ёрдам беради. Бундан кўриниб турибдики касб ҳунар мактабларида меҳнат муҳофазаси ва техника хавфсизлиги фанларини ўқитишни ривожлантириш ва ўқувчилар касблари бўйича етук мутахассис бўлишларига замин яратиш лозим.

ФЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР

1. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. Toshkent, «O‘zbekiston», 1992-у.

2. Ўзбекистон Республикаси Президенти “ Профессional таълим тизимини янада такомиллаштиришга доир қўшимча чора тадбирлар тўғрисидаги” 2019 йил 6 сентябридаги 5812-сонли фармони.

3. O‘zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksi. Toshkent, 1996-у.

4. O‘zbekiston Respublikasining «Mehnatni muhofaza qilish to‘g‘risida»gi Qonuni. Toshkent, 1993-у.

5. Гасанов М, Соколов Е. Трудовое законодательство Узбе- кистана (в вопросах и ответах). Издательский дом «Мир экономики и права», Ташкент, 1978 г.

6. Безопасност жизнедеятельности. (Под редакцией О.Н.Русака, краткий конспект лекций для студентов всех специальностей.- Ленинград, 1991 г.

7. Хефлин Г. Тревога ч 2000 году. М., Мсл, 1990 г,
8. Хенли Д., Кумамото Х. Надежность технических системы оценка риска. М., Машиностроение, 1984 г.

КУЧЛИ ТАЪСИР ЭТУВЧИ ЗАҲАРЛИ МОДДАЛАР ТАЪСИРИДАН АҲОЛИНИ ВА ХУДУДЛАРНИ МУҲОФАЗА ҚИЛИШДА ШАХСИЙ ВА ЖАМОАВИЙ ҲИМОЯ ВОСИТАЛАРИДАН ФОЙДАЛАНИШ

А.Қ.Исоқов Наманган вилояти Фавкуллда вазиятлар бошқармаси Ҳаёт фаолияти хавфсизлиги ўқув маркази услубчи ўқитувчиси
А.А.Эгамбердиев Наманган давлат университети ўқитувчиси
Т.Б.Тошпўлатов Наманган давлат университети талабаси

Аннотация: Мамлакатимиз худудида жойлашган кимёвий хавфли объектларда ишлатиладиган кучли таъсир этувчи заҳарли моддаларнинг турлари, уларнинг инсон организми ва атроф табиий муҳитга кўрсатиши мумкин бўлган салбий таъсирлари ҳамда улардан муҳофазаланишдаги мавжуд муаммолар кўтарилган. Шунингдек, кучли таъсир этувчи заҳарли моддаларга қарши курашнинг умумий усуллари кўрсатиб ўтилган ҳамда ушбу муаммоларни бартараф этишга доир тавсиялар кўрсатиб ўтилган.

Аннотация: Обострились виды высокоэффективных токсичных веществ, используемых в химических опасных объектах, расположенных на территории нашей страны, их возможное негативное воздействие на организм человека и окружающую природную среду, а также существующие проблемы в их защите. Также были показаны общие методы борьбы с токсическими веществами с сильным действием, а также даны рекомендации по устранению этих проблем.

Annotation: The types of highly effective toxic substances used in chemically dangerous objects located on the territory of our country, their possible negative effects on the human body and the surrounding natural environment, as well as existing problems in their protection have been exacerbated. Also, general methods of combating toxic substances with a strong effect have been shown, as well as recommendations on the elimination of these problems have been made.

Калит сўзлар: кучли таъсир этувчи заҳарли модда, кимёвий хавфли объект, концентрация, хавф, заҳарланиш, қутқарув тузилмалари, разведка, шахсий ҳимоя воситалари, бошпана, огоҳлантириш, муҳофаза.

Ключевые слова: сильнодействующее ядовитое вещество, химически опасный объект, концентрация, опасность, отравление, спасательные сооружения, разведка, средства индивидуальной защиты, убежища, предупреждение, защита.

Keywords: strong-acting poisonous substance, chemically dangerous object, concentration, danger, poisoning, rescue structures, intelligence, personal protective equipment, shelters, warning, protection.

Қириш. Техноген тусдаги фавкуллда вазиятлар орасида кучли таъсир этувчи заҳарли моддалар (КТЗМ) билан боғлиқ объектлардаги авариялар

Ўзининг келтирадиган талофатлари юқорилиги билан ажралиб туради. Бундай объектларда авария содир бўлган тақдирда, фақат объект ходимларининг саломатлигига хавф туғдирмасдан, балки унинг атрофида жойлашган ҳудуд аҳолисига ҳам хавф туғдиради.

Кучли таъсир этувчи заҳарли моддаларнинг асосий қисми автотранспортлар ёрдамида корхоналарга ташиб етказилади. Ташиш жараёнида уларнинг тўкилиши кузатилса ёки КТЗМ билан боғлиқ объектларда авария содир бўлган тақдирда зудлик билан тарқалган модданинг тури, унинг атроф муҳит ва инсонларнинг ҳаёти ва саломатлигига кўрсатиши мумкин бўлган салбий таъсирлари аниқланади ҳамда олинган натижаларга асосан муҳофазаланиш усуллари қўлланилади.

Асосий қисм. Кучли таъсир этувчи заҳарли моддалар билан боғлиқ фавқулодда вазиятларда аҳоли хавфсизлигини таъминлашнинг энг ишончли усулларида бири уларни ҳимоя иншоотларига яшириш ёки шахсий ҳимоя воситаларидан фойдаланиш ҳисобланади.

Ҳимоя иншоотлари – фуқароларни табиий офатлар, авария ва ҳалокат оқибатларидан ҳамда киргин қуролларининг таъсир омиллари ва уларнинг иккиламчи таъсир омилларидан сақлайдиган бошпаналар ҳисобланади [6].

Ҳимоя иншоотлари қуйидагича таснифланади [5]:

Вазифасига кўра:

- аҳоли учун мўлжалланган;
- бошқарув пунктлари ташкил қилиш учун мўлжалланган.

Ҳаво билан таъминланишига кўра:

- вентиляция;
- фильтр - вентиляция;
- регенерация (тўлик изоляция) усули.

Қурилишига кўра:

- алоҳида қурилган;
- бино остига қурилган.

Қурилиш вақтига кўра:

- олдиндан қуриб қўйиладиган;
- тез қуриладиган.

Ҳажмига кўра:

- кичик (50-600 кишигача);
- ўрта (600-2000 кишигача);
- катта (2000 кишидан ортик).

Муҳофаза қилиш хусусиятига кўра:

- панагоҳлар
- радиациядан яшириниш жойи
- оддий муҳофаза иншоотлари

Панагоҳ – одамларни хавфли кимёвий ва радиоактив моддаларнинг шикастловчи омиллари таъсиридан муҳофаза қилиш мақсадида яшириш учун ичида муайян вақт мобайнида яшаш учун шароит таъминланиб туриладиган муҳофаза иншоотидир. Улар одамларни зарба тўлқинининг ортиқча босими, ёруғлик нурланиши, ўтиб боровчи радиация нурлари, радиоактив зарарланиш ва

заҳарловчи моддалар, бактериологик (биологик) курул ва юқори ҳарорат ҳамда ёниш жараёнида ҳосил бўлган захарли газлар таъсиридан муҳофаза қилади. Улар аҳоли яшайдиган жойларда, одатда, аҳолини муҳофаза қилиш учун алоҳида қурилган ёки фуқаро ва саноат биноларининг ертўлаларида қурилган бўлади [5].

Ўзбекистон Республикасининг амалдаги қонунчилигига асосан корхоналар, муассасалар ва ташкилотлар аҳолининг ҳаёти ва саломатлигини таъминлаш, уларни фавқулодда вазиятлардан муҳофаза қилиш мақсадида муҳандислик ҳимоя иншоотларини заруратга қараб, олдиндан барпо этилишини таъминлашлари ҳамда уларни доимо шай ҳолатда сақлаб туришлари шарт [1].

Агар корхоналарда махсус қурилган панагоҳлар мавжуд бўлмаса, унда яқиндаги тунеллар, ертўлаларни муҳофаза иншооти сифатида фойдаланишга мослаштирилиши мумкин. Бунинг учун қуйидаги ишлар бажарилиши лозим [6]:

- хона орасидаги ички деворлар ва том қисмини мустаҳкамлаш;
- кириш ва чиқиш эшикларини ва йўлларни мослаштириш;
- ишлатилмайдиган эшик ва деразаларни беркитиш;
- одамларни жойлаштирилганда уларнинг ҳаёти учун зарур бўладиган воситалар билан жиҳозлаш.

Панагоҳлар мустаҳкам конструкцияли ва ёнмайдиган материаллардан қурилган бўлиши лозим. Уларнинг уст қисми ёпилаётганда пўлат швеллер, труба каби мустаҳкам қурилиш материалларидан фойдаланиш мумкин.

Панагоҳлар асосий ва ёрдамчи хоналардан иборат [5].

Асосий хоналарга аҳоли жойлаштириладиган хоналар, тиббиёт хонаси, бошқарув хоналари киради.

Ёрдамчи хоналар фильтр-вентиляция хоналари, санитар узел, дизел электр таъминоти хонаси, озиқ-овқатлар захираси хонаси, тамбурлар галериясидан иборат.

Панагоҳ корхонанинг сменадаги энг кўп ишчилар сонига мўлжаллаб қурилади. Уларни қуришда ҳар бир яширинаётган киши учун меъёрлар белгиланган.

Панагоҳлардан фойдаланишдаги асосий талаблар

Панагоҳларни ва радиациядан яшириниш жойларни доимо шай ҳолатда сақлаш мақсадида қуйидаги талаблар қўйилади [5]:

- ер устидаги иморатларни бузилиши натижасида ҳосил бўладиган кучланиш ва зарба тўлқинидан ҳимояловчи муҳофаза асбобларининг мавжудлигини ва ишлашини таъминлаш;

- эшик ва ставналарнинг калити иккита бўлиши шарт, биринчиси жавобгар шахсда, иккинчиси ташкилот навбатчисида туриши лозим;

- панагоҳнинг герметиклигини таъминлаш, ҳаво билан таъминлаш тизимини кишиларни панагоҳда узоқ вақт бўлишларини ҳисобга олган ҳолда шай ҳолатда сақлаш;

- муҳофаза иншоотларни санитар техник асбоблар билан таъминлаш;

- панагоҳларни кириш йўлларида ҳеч қачон нарсалар билан бекитилмаслиги, доимо бўш сақланиши лозим;

- кириш йўлаклари ва зинапояларни тоза тутиш, қиш кунлари эса муз ва қордан тозалаш керак;

- фильтр - вентиляция камераси ёпиб қўйилиши тавсия этилади.

Агар ФВА-49 вентиляция ускунаси ўрнатилган бўлса, авариявий ҳаво тортиш клапанлари ёпиқ бўлиши, жуфтланган (иккиланган) гермоклапан эса ҳаво фильтр ютигичларидан ўтмайдиган ҳолатда ёпилиши зарур.

Муҳофаза иншоотларидан оморхона сифатида фойдаланилаётганда ҳаво ҳарорати санитар - гигиена меъёрларига жавоб бериши лозим. Хонада киш кунлари ҳарорат 10° Сдан паст бўлмаслиги, ёзда эса 10° С дан юқори бўлиши лозим.

Панагоҳни шамоллатиш мақсадида фақат вентиляция каналларидан фойдаланиш, зарур вақтларда эса клапан ва сўриб олиш каналларидан фойдаланиш лозим.

Панагоҳларнинг хоналарини қайта лойиҳалаш, ўтиш жойлари ёки деворларини бузиш қатъиян тақиқланади. Агар шундай ҳолатлар содир бўлган бўлса зудлик билан қайта тиклаш ва айбдор шахслар аниқланиб, жавобгарликка тортилади. Вақтинча тўсиқлар қуриш, техник қурилмалар ўрнатиш лозим деб ҳисобланса фақат Фавқулодда вазиятлар бошқармаси билан келишилган ҳолда ўтказилади.

Панагоҳ ичидаги барча асбоб - ускуналар рақамланган бўлиши, ҳаво трубаларида эса ҳавонинг йўналиши қизил рангдаги кўрсаткич белгиси орқали кўрсатилиши зарур.

Муҳандислик тизими ва ҳаво тизимининг трубалари қуйидаги рангларга бўялган бўлиши лозим [3]:

Шамоллатиш режимининг трубалари	оқ;
Фильтр вентиляция режимининг трубалари	сарик;
Регенирация режими трубалари ва ёнгин хавфсизлиги трубалари	қизил;
Ҳаво сўрилиш вентиляция йўллари	ҳаво ранг;
Электр тармоғи	қора;
Сув трубалари	яшил;
Иситиш тизими ва ДЭСнинг мой трубалари	жигар ранг.

Панагоҳ ичидаги ҳавонинг карбонат ангидрид миқдорини аниқлаш мақсадида газанализаторлар ўрнатилади.

Панагоҳларни текшириш [4]

Панагоҳларни I йилда I марта мутахассислар томонидан тўлиқ техник кўриқдан ўтказилади.

Махсус кўриқдан ўтказиш эса ёнгин, зилзила, жала, сув тошқини рўй берган тақдирда фавқулодда вазиятлардан сўнг текширилади.

Комплекс текширувлар эса 3 йилда бир марта ўтказилади. Бунда панагоҳнинг герметиклиги, муҳандислик тизимларининг ишлаши, олти соат давомида панагоҳни одамларни қабул қилишга тайёрлаш, вентиляция, фильтр - вентиляция тизимининг ишлаш қобилияти текширилади.

Панагоҳларга яширинган кишилар қуйидаги мажбуриятга эга[S]:

- қўл остидаги шахсий муҳофаза воситаларидан фойдаланишни билишлари лозим;

- ички тартиб-қоидаларга риоя қилишлари;

- ваҳимага тушмаслик, ўзларини эркин ҳис қилишлари;
- тиббиёт жихозларини шай ҳолатда сақлаш;
- Фуқаро муҳофазаси штаби кўрсатмаларига амал қилишлари;
- ёрдамга мухтожларга (ногиронлар, қариялар, аёллар ва ёш болаларга) ёрдам кўрсатиш.

Шахсий химоя воситалари

Кучли таъсир этувчи захарли моддалар билан боғлиқ фавқуллода вазиятларда корхона ходимлари ва ён атрофда истиқомат қилувчи аҳолининг ҳаёти ва саломатлигини сақлашда шахсий химоя воситаларидан кенг қўламда фойдаланилади.

Шахсий химоя воситалари – нафас олиш аъзоларини, кўз ва тери қаватларини радиоактив моддалар, захарли моддалар, бактериологик воситалар ва кучли таъсир этувчи захарли моддалар таъсиридан сақлашга хизмат қилади [5].

Химоя хусусиятига кўра филтрловчи ва ажратувчи (изоляцияловчи) турларга бўлинади [5].

Филтрловчи воситаларнинг муҳофазалаш хусусияти ҳавони муҳофазаловчи материаллар орқали ўтказишга асосланган бўлиб, унда ҳаво радиоактив, захарловчи моддалар, бактериологик воситалар ва кучли таъсир этувчи захарли моддалар таъсиридан тозаланади [5].

Ажратувчи воситаларнинг муҳофазалаш хусусияти одам организмни ташқи муҳитдан тўлиқ ажратишга қаратилган бўлади. Нафас олиш учун керак бўлган ҳаво пневматоген ёки пневматофор усулда ишлайдиган кислород аппаратлари ёрдамида олинган бўлади [5].

Пневматоген кислород аппаратларида керакли бўлган кислород миқдори реакциялар натижасида ажралиб чиқади (регенератив патронлардан), пневматофор кислород аппаратларида керакли бўлган кислород баллонларда сиқилган босимда бўлади, масалан кислород ажратувчи КИП-5 асбоби.

Фойдаланилишига кўра умумҳарбий, махсус, фуқаролар учун мўлжалланган ва саноатда қўлланиладиган химоя воситаларига бўлинади [5].

Умумҳарбий химоя воситалари билан бутун ҳарбий қисмларнинг ҳарбий хизматчилари таъминланади.

Махсус химоя воситалари билан танк, авиацион, кимёвий қисмлар, турли хил қўшинларнинг бўлинмалари махсус вазибаларни бажарадиган вақтларида ҳамда тиббий хизмат (бошидан яраланганлар учун шлем ШР-1) бўлимлари ярадорларга ёрдам кўрсатишда ишлатиш учун таъминланадилар.

Фуқаролар учун ишлаб чиқилган муҳофаза воситалари фуқаро муҳофазаси қисмларининг ҳарбий хизматчилари ва бутун аҳолини таъминлаш учун мўлжалланган.

Саноатда ишлатилладиган муҳофаза воситалари махсус корхоналарда, қишлоқ хўжалигида ва бошқа соҳаларда захарли кимёвий моддалар билан боғлиқ бўлган жойларда қўлланилади.

Вазифасига кўра нафас олиш органларини химояловчи, терини химояловчи, шахсий тиббий ва зарарсизлантириш воситаларига бўлинади.

Нафас олиш органларини химояловчи воситалар [6]:

1. Противогазлар (газниқоблар)

2. Респираторлар
3. Матоли никоблар
4. Пахта-докали боғлагичлар.

Противогазлар (газникоблар) нафас олиш органларини, юз ва кўзни ҳар хил заҳарли таъсирлардан сақлашга мўлжалланган бўлиб, филтрловчи ва изоляцияловчи турларга бўлинади [6].

Газникоблар филтрловчи - ютувчи қути, юз қисми ва халтачадан иборат. Филтрловчи - ютувчи қути нафас олинадиган ҳавони радиоактив, заҳарловчи моддалар ва бактериологик воситалардан тозалаш учун хизмат қилади. У қат-қат қилиб букланади. Шу сабабли унинг юзаси 2000 см² ни ташкил қилади. Тутунга қарши филтр ҳар қандай аерозоллар, радиоактив чанг, заҳарловчи моддаларнинг аерозоллари, туманлари ҳамда бактериологик воситаларнинг аерозолларини ушлаб қолади. Лекин заҳарловчи моддаларнинг буғлари ва газлари бу ерда ушлаб қолинмайди, улар иккинчи қават, фаоллашган кўмирда ушланиб қолади.

Фаоллаштирилган кўмир газникоб қутида асосий ютувчи восита ҳисобланади. Фаоллашган кўмирнинг заҳарловчи моддаларни ютиши унинг нечоғли ғовақлиғига боғлиқ. У 0,5 – 1.0 мм ли майда доначалар шаклида бўлади. Фаоллаштирилган кўмир тошкўмир, писта кўмир, торф ва баъзи органик маҳсулотларга махсус ишлов бериш йўли билан олинади.

Респираторлар асосан нафас олиш органларини радиоактив ва механик чанглардан ҳимоя қилади. Ҳозирги вақтда Р-2, Р-2Д, РУ-60М ва ШБ-1 “лепесток” респираторлари кенг қўлланилмоқда [6].

Матоли никоблар нафас олиш органларини радиоактив ва биологик моддалардан ҳимоя қилади, лекин заҳарли моддалардан сақлай олмайди.

Пахта-докали боғлагич: бунинг учун 100x50 см ли дока олиниб, ўртасига эни ва бўйи 20x30 см ва қалинлиги 1-2 см қилиб пахта солинади, сўнг у дока билан ўралади. Доканинг учларини 35 см дан кесиб боғич уланади, боғлам энгак, оғиз ва бурун беркиладиган қилиб тикилади.

Нафас аъзоларини ҳимоя қилиш учун юқорида кўрсатилган воситалардан бирортаси топилмаганда дастрўмол, шарф, сочиқ ва шунга ўхшаш воситалар билан оғиз ва бурунни беркитиш керак.

Шахсий терини ҳимояловчи воситалар инсон терисини радиоактив, кимёвий заҳарловчи моддалардан ва бактериал воситалар таъсиридан ҳимоя қилади. Улар ҳимоялаш хусусиятига қараб филтрловчи ва изоляцияловчи турларга бўлинади. Шахсий терини ҳимояловчи воситаларнинг асосийларига умумқўшин ҳимоя тўплами (ОЗК) ва Л-1 энгил ҳимоя костюми кирди.

Умумқўшин ҳимоя тўплами [5]:

- Ҳимоя плаши, ҳимоя пайпоғи ҳамда ҳимоя қўлқопларидан иборат бўлади.
- Ҳимоя плаши резинали материалдан тайёрланиб, бўйи 166 см гача бўлганлар учун биринчи, 166 см дан 172 см гача – иккинчи, 172 см дан 178 см гача бўлганлар учун – учинчи, 178 см дан 184 см гача ва ундан юқориси – тўртинчи ўлчамда бўлади.
- Ҳимоя пайпоқлари ҳам резина қўшилган матодан тайёрланади, оёқ кийими устидан кийилади ва оёқка махсус тикилган тасма ёрдамида маҳкамланади. Ҳимоя пайпоқларининг 40-пойафзал учун биринчи, 41-42 пойафзал учун иккинчи, 43 ва ундан катта пойафзал кийувчилар учун учинчи ўлчам тўғри

6. Нигматов И., Тожиёв М. „Фавкулудда вазиятлар ва фукаро мухофазаси“, дарслик . - Т.:Иқтисод-Молия, 2011. – 262 б.

7. Турагалов Т.Ж., Илёсова З.Ф. “Фавкулудда вазиятлар”. (қисқача русча-Ўзбекча энциклопедик изоҳли лугат). – Т.: ФМИ. 2016 й. – 220 б.

8. Ўзбекистон Қизил Ярим Ой Жамияти. “Биринчи ёрдам кўрсатиш бўйича қўлланма”. Ўзбекистон – Буюк Британия нашриёт-матбаа қўшма корхонаси “Растр”. 1999 й. – 40 б.

9. Шарипов А.Х. “Кимёвий хавфли объектда ва темир йўл транспортида кучли таъсир этувчи захарли моддаларни сақлаш”, услубий қўлланма. Тошкент темир йўл муҳандислари институти, 2010 й. - 236.

Интернет ресурслари:

10. <https://arxiv.uz>

11. <http://diss.nalib.uz/>

12. www.Lex.uz - Ўзбекистон Республикасининг миллий қонунчилик базаси.

ҚАТТИҚ ҚОТИШМАЛАР ВА УЛАРДАН АМАЛДА ҲОЙДАЛАНИШДАГИ АҲАМИЯТЛИ МАСАЛАЛАР

**И. Т.Улуханов Наманган давлат университети, доцент
К.М.Умаров Наманган давлат университети, катта ўқитувчи
М.О.Турғунпўлатов Наманган давлат университети талаба**

Инсон меҳнатини ҳар томонлама енгиллаштириш бугунги куннинг энг долзарб вазифаларидан бири бўлиб, унда меҳнат қуроли сифатида қўлланиладиган ҳар бир жиҳозга аниқ вазифа юклатилади. Технологик қурилмаларнинг таркибига кирувчи қисмларининг ишлаш муддатларини узайтиришда, жумладан, доимий равишда ташқи факторлар таъсирида ишловчи деталларда ҳосил бўладиган ва параметрларини ўзгартиришга олиб келувчи салбий микдорларни минимумга камайтиришга қаратилган уринишларнинг ўрни катта. Ҳар бир қурилма сифатли, арзон, аниқ ва узоқ муддат ишлаши билан бир қаторда унга белгиланган барча талаблар доирасида шу даврда бир неча хоссаларини сақлаб қолиши ҳам назарда тутилади. Бу эса истеъмол маҳсулотларнинг яратишда аниқ мақсадни амалга оширилиш жараёнида қўйиладиган талабларга жавоб беришни, ишлаб чиқарувчи мутахассисдан эса шу кўрсаткичларни таъминловчи маҳсулот яратиш мажбуриятини юклайди, истеъмолчини эса зарурий маҳсулот билан таъминлайди.

5112100-“Технологик таълим” йўналиши мутахассисларидан келгуси фаолиятлари доирасида ишлаб чиқаришнинг тегишли соҳаларида бу икки томонларни ана шу талабларни қандай даражада тушуниб етганликлари, унга амал қилганликларини назорат қила билиш баробарида маҳсулотларни сифати ва истеъмолбоплигига баҳо бера олиш малакаларини тарбиялайди. Бундай

масъулият улардан ҳар бир кўрилайётган масалага жиддий ёндошишларини, амалий тавсияларга тўла амал қила билишларини тақазо этади.

Мутахассислар ўрганаётган “Материалшунослик” фани турли хил ишлаб чиқариш корхоналари ва технологик жараёнларда маҳсулот тайёрлаш ишларида ишлов бериш қурилма ҳамда мосламаларининг айрим элементларида учраб турадиган муаммолар ечимини осон топишда амалий ёрдам беради.

Замонавий технологияларда барча маҳсулотларга юқори даражада аниқлик ва бошқа бир қатор талаблар белгиланади[1-2].

Чунки улар ишлатилишида, сақлаш ва транспортировка қилиш талабларига максимал даражада жавоб беришлари ва юқори иқтисодий маҳсулдорликка эга бўлиши шарт.

Қаттиқ қотишмалар асосини 80 % ва ундан ортиқ миқторда карбид ва карбонитрид асосли қаттиқ фаза ташкил қилади. Улар жуда юқори қаттиқликка(87-92НКА(НКС=2НКА-104) ва иссиққа чидамли(800-1100°С гача) бўлиб, кесувчи асбобларнинг элементлари сифатида ишлатилганда юқори кесиш тезлиги(100-300м/мин гача)ни таъминланади.

Қаттиқ фазанинг турига қараб эса карбидлар, нитрокарбидлар ва металл-боғ қаттиқ қотишмалар қуйидаги тўртта гуруҳга бўлинади:

WC-Co-вольфрамкобальтти ВК;

WC-TiC-Co-титан вольфрамкобальтти ТК;

WC-TiC-TaC-Co-титан тантал вольфрам кобальтти ТТК;

TiC ва TiCN-(Ni+Mo)-карбид ва карбо-нитрид титан асосли қотишмалар, ТН ва КНТ эса вольфрамсиз таркибли қотишмалар.

Биринчи турдаги қотишмаларда ВК маркани ва рақам кобальт миқдорини(ВК6-94% WC и 6% Co) кўрсатади. Қотишманинг хоссаси ундаги кобальтнинг миқдори билан аниқланиб, унинг ортиши қотишма мустақамликни ошишига, ammo қаттиқлигини ва ёйилишга чидамлилигини камайишига олиб келади. Бу гуруҳдаги қотишмалар бошқа қаттиқ қотишмаларга нисбатан юқорирок, иссиқбардошлиги эса 900°С атрофида бўлади.

Кобальтнинг қотишмадаги миқдорига қараб учга: камкобальтти(3-8% Co), ўртача кобальтти(15% гача Co) ва юқори кобальтти (25% гача Co) гуруҳга бўлинади. Кесувчи асбобларда кобальт миқдори 10% гача (ВК4, ВК6, ВК8) бўлган қотишмалар ишлатилади. Таркибида кобальт миқдори 10-15% бўлган қотишмаларни қозиш ишлари асбоблари қисмларида юқори кобальтти қотишмаларни эса штамплаш асбобларида қўлланилади. ВК қотишмалари синик қиринди ҳосил бўладиган, биринчи навбатда чўянларга, рангли металлларга, шишапластик ва бошқа материалларга кесиб ишлов берувчи асбобларнинг элементларида ишлатилади. Бу кесиб ишлашда динамик юкломани ҳосил бўлиши билан боғлиқ.

ТК таркибли қотишмаларда Т ҳарфидан кейинги сон қотишмадаги титан карбиди миқдорини, К ҳарфи эса кобальтни ифодалайди (масалан, Т15К6 да TiC 15%, Co-6%, қолганлари 79% WC дан иборат). Бу қотишмаларнинг қаттиқлиги ВК га нисбатан юқори (TiC-3220HV, WC-2080HV). Ундан ташқари иссиққа чидамлилиги 1000°C, аммо мустаҳкамлиги паст. Кобальтни миқдорини ортиши қаттиқлигини оширади, аммо иссиқбардошлиги ҳам камаяди. ТК (Т30К4, Т15К6, Т5К10) гуруҳ қотишмаларни пўлатларни кесиб ишлашда қўлланилади, чунки бунда кесишда узлуксиз контакт бўлганлиги сабаб ҳарорат чўянлардагидан юқорирок бўлади. Бу юқори ҳароратлилик кесувчи асбоб материалдан юқори иссиқликка чидашлилигини талаб қилади.

ТТК (ТТ7К12, ТТ8К6, ТТ20К9) гуруҳ қотишмаларида ўз навбатида Т дан кейинги ҳарф TiC ва TaC карбидларини миқдорини кўрсатади. Бир хил ҳароратга (1000°C) чидайдиган ТТК ва ТК қаттиқ қотишмаларида, ТТКлар қаттиқлик ва мустаҳкамликда устун туради. Бир хил миқдорда кобальт бўлган ТТ8К6 ва Т15К6 қотишмаларининг қаттиқликлари (90,5 ва 90НКА) ҳамда мустаҳкамликлари (1323 ва 1176 МПа) мос равишда. Тантал билан лигерлашда циклик юкламаларда зарбий чарчашни муддатини 6 дан 25 маротабагача ортиради. Шу боис бу қотишмалар оғир шароитларда, юқори куч юкламали ва ҳароратли, катта кесимли ҳамда қийин ишловли (иссиқбардош) материалларга ишлов беришда қўлланилади.

ТН, КИТ вольфрамсиз никельмолибденли титан ва титанкарбидли қаттиқ қотишмалар (БВТС) кобальт боғловчисиз бўлиб, улар таркиби КНТ16TiCN:— 74%, Ni 19,5%, Mo - 6,5%; ТН20 TiC - 79%, Ni - 15%, Mo - 6% дан иборат. Иссиққа чидамлилиги (800°C, мустаҳкамлиги ҳамда эластиклик модули паст. Иссиқлик сизими ва ўтказувчанлиги традицион материалларга нисбатан паст. Бу эса кесиш зонасидаги иссиқликда кесиш қирраларини тез қизишини кўрсатади. Асосан бу қотишмалардан ўлчов воситалари тайёрлашда фойдаланилса мақсадга мувофиқдир.

Юқоридагилар кўрсатиб турибдики ҳар бир мутахассис ўз фаолиятида қаттиқ қотишмаларни ишлатиш жараёнида уларнинг анашундай хоссаларини аниқ инobatга олишлари керак. Бу маҳсулот ишлаб чиқаришдаги муҳим жиҳатлардан ҳисобланади.

Хулоса қилиб айтганда, ҳар бир мутахассис нафақат маҳсулотни ишлаб чиқаришни, балки, ундан амалда унумли фойдалана билиши керакли самара берар экан.

Фойдаланилган адабиётлар.

1. А.М.Адаскин., В.М.Зуев Материалловедение (Металлообработка). М. АСАДЕМА. 2003.
2. Б.Г.Лифшиц и др. Физические свойства металлов и сплавов. М. Металлургия. 1980.-320 С.

KIMYO TA'LIMIDA VIRTUAL LABORATORIYALARNI BAJARISHDA XAFSIZLIK TEXNIKASI

M.Sh.Abadov Navoiy davlat pedagogika instituti Kimyo o'qitish metodikasi kafedrasida katta o'qituvchisi p.f.f.d. PhD


Annatsiya: Kimyoda virtual laboratoriya va simulyatsiyalar o'quvchilarni faol o'qishga jalb qilishning kuchli vositasidir. Ushbu maqolada MarSTU multimedia tizim laboratoriyasida ishlab chiqilgan maktab ta'limi uchun virtual kimyo laboratoriyasida ishlashning afzalliklari keltirilgan. Virtual laboratoriya ko'plab tajribalarni o'z ichiga oladi, ular real vaqtda 3D grafika va oldindan namoyish qilingan animatsiya yordamida amalga oshiriladi. Interaktiv laboratoriya ishlari o'quvchilarning kimyoviy jarayonlar haqidagi tushunchalarini va amaliy ko'nikmalarini oshirishga qodir. Inson va kompyuterning o'zaro ta'sirini yanada yoqimli va samarali qilish maqsadida laboratoriya interfeysiga animatsion pedagogik agent qo'shildi. Virtual o'quv muhitini rivojlantirish uchun iqtisodiy jihatdan samarali yondashuvlar tavsiflangan.

Endilikda elektron o'quv materiallarini ishlab chiqishda tarkibni namoyish etish usuli va hozirgi ta'lim nazariyasining asosiy g'oyalari o'rtasida bir-biriga qarama-qarshilik mavjud. Ko'pgina elektron o'quv materiallari hanuzgacha statik gipermatnli sahifalar tarmog'i sifatida ba'zan Flash animatsiyasi bilan ishlab chiqilgan. Shu bilan birga, hozirgi o'quv nazariyasi shuni ko'rsatadiki, o'quv jarayonida resurslarning ko'proq interaktiv va multimedia boyliklaridan foydalanilganda o'quvchilarning bilimi ortadi. Ushbu muammoning mavjudligini qisman o'quv gipermatnini ishlab chiqarish oddiy va arzon jarayon ekanligi bilan izohlash mumkin. Aksincha, faol o'quv muhitini loyihalashtirish va amalga oshirish ancha qiyin va ko'p vaqt talab qiluvchi vazifadir.

Ushbu maqolada MarSTU multimedia tizim laboratoriyasida ishlab chiqilgan maktab ta'limi uchun virtual kimyo laboratoriyasi keltirilgan. Virtual laboratoriya ko'plab tajribalarni o'z ichiga oladi, ular real vaqtda 3D grafika va oldindan namoyish qilingan animatsiya yordamida amalga oshiriladi. Virtual o'quv muhitini rivojlantirish uchun iqtisodiy jihatdan samarali yondashuvlar tavsiflangan.

Multimedia tizim laboratoriyasida ishlab chiqilgan virtual kimyo laboratoriyasida maktab kimyoviy ta'lim dasturiga kiritilgan 150 dan ortiq kimyoviy tajribalar mavjud.

Kimyoviy tajribalar uch o'lchovli simulyatsiya qilingan laboratoriyada amalga oshiriladi, unda barcha kerakli kimyoviy jihozlar, shisha buyumlar (sinov naychalari, retortlar, tayanchlar va boshqalar) va kimyoviy reagentlar olinadi. Kompyuter ekranining vizual maydonini haddan tashqari yuklanishini bartaraf etish uchun laboratoriya uskunalari va o'quvchilar uchun mavjud bo'lgan kimyoviy moddalar amalga oshiriladigan kimyoviy tajribaga qarab joylashtiriladi. Ba'zi tajribalarda - bu shunchaki kimyoviy eritmalar bilan shishalar, boshqalarda - murakkab kimyoviy apparatlar (1-rasm).



1-rasm. MarSTU multimediasi orqali laboratoriya mashg'ulotini bajarish oynasi.

Tajribalar real vaqtda animatsiya texnikasi yordamida modellashtiriladi va o'quvchi virtual uskunalar bilan haqiqiy laboratoriya protseduralariga o'xshash tarzda ta'sir o'tkazishi mumkin. O'quvchilar kimyoviy apparatlar o'rnatishi va virtual tajribalar o'tkazishi mumkin. Bundan tashqari, virtual o'lchov asboblari yordamida kerakli o'lchovlarni amalga oshirish yoki tajribalar parametrlarini o'zgartirish mumkin. Tajribani o'tkazishda o'quvchi virtual fotosurat kamerasi yordamida kuzatuvlarni "oniy tasvir" shaklida yozib olishi, tajriba ma'lumotlarini "Laboratoriya daftarida" yozishi va izohlashi mumkin. Davom etayotgan kimyoviy jarayonlarning kattalashtirilgan tasvirlarini maxsus «linzalar oynasida» tomosha qilish mumkin. O'quvchining laboratoriya protsedurasidagi qadamlari dastur tomonidan nazorat qilinadi. Pedagogik agent, "Kimyogar" animatsion xarakteri, nutqda yoki matnga asoslangan shaklda kerakli sharhlar va ko'rsatmalar beradi. Formulalar va tenglamalarni "Laboratoriya daftariga" yozishni osonlashtirish uchun Macromedia Flash texnologiyasi orqali "Kimyoviy formulalar muharriri" maxsus dasturi amalga oshiriladi.

Faol va qiziqarli o'quv muhitini yaratish muvaffaqiyatli elektron ta'lim strategiyasining muhim qismidir. Ushbu maqolada ko'rib chiqilgan virtual laboratoriya singari, bunday o'quv dasturlari ko'pincha boy tarkibli multimedia simulyatsiyasiga asoslangan. Texnik jihatdan murakkabligi va rivojlanishning yuqori narxi virtual ta'lim muhitini kengaytirish uchun asosiy to'siqdir. Ushbu muammoni hal qilish uchun yangi yondashuvlar zarur. Bunday tizimni yaratish uchun biz ushbu maqolada ssenariylar tili bilan NATURA taqdimot mexanizmini, shuningdek real vaqtda va oldindan namoyish qilingan animatsiyalarni qo'llashga asoslangan yondashuvlarni taklif qilamiz. Ko'rsatilganidek, tavsiflangan yondashuvlar bizni o'ziga jalb etadigan va samarali virtual laboratoriya yaratishga imkon beradi. Ushbu yondashuv boshqa qiziqarli o'quv muhitlarini rivojlantirish uchun foydali bo'lishi mumkin deb o'ylaymiz.

Foydalangan adabiyotlar

1. "Theory and Practice of Online Learning", Terry Anderson, Fathi Elloumi (eds.), Athabasca University, 2004
2. Mark Prensky, *Digital Game-Base Learning*, McGraw-Hill, 2000.
3. Barney Dalgarno, Andrea Bishop and Danny Bedgood, "The potential of virtual laboratories for distance science education teaching: reflections from the initial development and evaluation of a virtual chemistry laboratory", *Proceedings of the Improving Learning Outcomes Through Flexible Science Teaching*, Symposium, The University of Sydney, October 3, 2003, pp. 90-95.

4. Dan Carnevale, "The Virtual Lab Experiment", *Chronicle of Higher Ed*, January 31, 2003, p. A30
5. Brian F. Woodfield, Merritt B. Andrus, *Virtual ChemLab for Organic Chemistry*, Prentice Hall, September 2, 2003.
6. Dori, Y.J. and Barak, M. (2001), "Virtual and Physical Molecular Modeling: Fostering Model Perception and Spatial Understanding", *Educational Technology & Society*, 4(1), pp. 61-74.

DEVELOPMENT OF ECOLOGICAL MAPPING AND OPPORTINITIES FOR IST USE

X.T.Murodilov FERGANA POLYTECHNIC INSTITUTE, – Student

ABSTRACT: *Ecological thinking, in principle, penetrated into all aspects of human activity through anthropocentric views. Its connection with geography and other related disciplines forms the theoretical, practical and methodological basis of the geoecological approach.*

KEY WORDS: *ecology, atlas. Anthropogenic, geodesic, cartographic and cadastral, ecosystems, biosphere, regions.*

I. INTRODUCTION

In recent years, in order to further improve the scientific and practical work in the field of geodesy, cartography and cadastre in our country, the state pays great attention to the creation and implementation of a satellite geodetic network. Resolution of the President of the Republic of Uzbekistan dated September 25, 2013 "On measures to implement the investment project" Creation of the National Geographic Information System "PP-2045 further develops the field of geodesy, cartography and cadastre. Based on the experience of today's developed countries, the rapid and high-quality implementation of geodetic and cartographic work in our country and its small regions, as well as a better understanding of environmental issues, is one of the most urgent emergencies in the field of emergency information. For students of higher educational institutions, the general population, employees of health care centers, the characteristics of the study areas, including the requirements of environmental educators in the field of ecology and life safety in accordance with the State educational standards in higher education:

- To have a complete picture of natural-territorial complexes, ecosystems, natural processes that determine and form the basis of ecological and anthropogenic changes in the biosphere;

- The basic principles of the laws and laws of space and time for the formation of ecosystems at the regional and local levels; activity and dynamics of landscapes, their classification and types; the concept of natural-anthropogenic ecosystems; have the basic skills of cartographic analysis of landscapes;

- To know the basics of dangerous ecological situations, to develop measures and measures against them, to have qualitative training, to know the ecological bases

of nature use, to develop plans and measures for the protection of nature, to make a list of different types of taboos; must know the methods of observation and analysis. [1]

II. METHODS

The ecological atlas can serve as the most demonstrative and effective teaching aid for the general public and students.

The main problem in the development of this atlas is the lack of such a methodology. Therefore, it is necessary to develop such a methodology, through which it is possible to develop educational ecological atlases that take into account the specifics of the regions and meet the requirements of the State educational standards from environmental courses. The fastest and most effective example of this is the Fergana Valley electronic ecological atlas. [3]

The task was to develop an ecological atlas of the valley, to develop a methodology and to meet the following requirements:

- Taking into account the specifics of the regions;
- Higher educational institutions in environmental sciences meet the state educational standards;
- Prompt filling and updating of information;
- Get a complete picture of the data.

To solve this problem, the following issues need to be addressed:

- Analysis of the organization of environmental education in OTMs and the use of computer technology in environmental mapping;
- Development of ecological atlas of regions, taking into account the principles and scientific basis of ecological mapping;
- Development of methods and technologies for the development of thematic maps in the development of the regional ecological atlas;
- Testing the methodology of developing ecological atlas;
- Identify a set of geo-ecological issues in the use of the developed atlas.

III. RESULTS

The expansion and complication of the relationship between society and nature has led to the greening of many processes of science and practice. Anthropocentric views have penetrated into all spheres of human activity in a fundamental way of ecological thinking. Its connection with geography and other disciplines forms the theoretical, practical and methodological basis of geoecological approach. It emphasizes the territoriality of the relationship between nature and society, the laws of space and time, the interaction and conditions in the development and stratification of natural and social systems.

IV. DISCUSSION

The basis of ecological atlas maps is due to the wide range of mapping. In some ecological maps, objects and events are reflected, although some of them are poorly studied and analyzed. Their representation on the map is also focused on various scientific and practical areas: data collection (inventory), evaluation, forecasting, recommendation, special. [4]

Inventory ecological maps focus on the general descriptive and qualitative characteristics of nature and the natural environment, and are characterized by varying degrees of anthropogenic impact (sometimes a threat to human life). They represent

man-made objects that pose a serious threat to nature, the impact of the environment on man and others. That's why eco The main part of logic maps is included in this category.

V. CONCLUSION

The environmental maps calculated by the appraiser show the level of life of the objects, which represent the natural environment, or some of its components. Objects of the technosphere are also indicated in it, and this or that norm (introduction opportunities, ecological scarcity, ecological potential, ecological risk, etc.) [1; Pp. 14-16]. As a result, these maps are maps of ecological zoning, which show the territorial units as a cartographic unit.

Cartographic measures of events and happenings, optimization of the nature of objects, location of technosphere objects are expressed in the recommended ecological maps. They are aimed at reducing the negative impact of anthropogenic factors on the appetite.

Another important predictive ecological map is the representation of various variants of changes in the natural environment, natural processes and events that affect and endanger human health in cases where it is difficult to study the objects.

VI. REFERENCES

1. *Sultanov M.K, Safarov E.Y.* Analysis of soil salinity on the basis of modern geographic information systems. Uzbekistan Geography Information Society. 50 years. - T., 2016. 222 - 227 p.
2. *Sultanov M.K, Safarov E.Y.* Problems of classification and evaluation of landscapes on the basis of the cosmic method (on the example of the Khorezm oasis). // Uzbekistan Geography of the Information Society. 44 years. - T., 2014. - 139 p
3. *Sturman V.I.* Ecological mapping. - M., ASPECT PRESS. - 2003. - 14-27
4. *Musaev I.M, Safarov E.* Geographic Information Systems and Technologies // Textbook. - T., Tafakkur, 2012. 160 p.

ЁШЛАР АХЛОҚИЙ ОНГИ ВА ИЖТИМОЙ ТАРАҚҚИЁТ

Ф.Й.Орипов Наманган Давлат университети, мустақил тадқиқотчиси

Аннотация: Мақолада мамлакатимизда давом этаётган ислохотлар жараёнида ёшлар қатламининг ўрни ва ахлоқи муҳим ижтимоий омил сифатида ёритилган бўлиб, унда ахлоқ, ахлоқий онг, ижтимоий тараққиёт, ёшларга онд давлат сиёсатининг айрим устивор жиҳатлари, мавжуд айрим ижтимоий муаммолар ва уларни ташкил этувчи элементлар кенг ёритиб берилган. Муаллиф ёшлар ахлоқи ижтимоий тараққиётни юксалтиришнинг муҳим ҳал қилувчи етакчи омиллардан бири эканлигига алоҳида эътибор қаратган.

Калит сўзлар: ёшлар қатлами, ахлоқ, ахлоқий онг, таълим-тарбия, ижтимоий тараққиёт, уюлмаган ёшлар, ижтимоий генезис, ёшларга онд давлат сиёсати, ижтимоий муаммолар.

Аннотация: В статье освещается роль и нравственность молодежи проводимых в стране реформ как важный социальный фактор, который

охватываает мораль, нравственное сознание, социальное развитие, приоритеты государственной молодежной политики, некоторые существующие социальные проблемы и их составляющие элементы. Автор подчеркивает, что нравственность молодежи является одним из важнейших решающих ведущих факторов общественного развития.

Ключевые слова: молодежный слой, мораль, нравственное сознание, образование, общественное развитие, неорганизованная молодежь, социальный генезис, государственная молодежная политика, социальные проблемы.

Resume: The article highlights the role and morality of youth in the reforms carried out in the country as an important social factor that covers morality, moral consciousness, social development, priorities of state youth policy, some existing social problems and their constituent elements. The author emphasizes that the morality of young people is one of the most important decisive leading factors of social development.

Key words: youth stratum, morality, moral consciousness, education, social development, unorganized youth, social genesis, state youth policy, social problems.

Ижтимоий ҳаётимизнинг равнақи ва ҳалқимиз фаровонлиги йўлида олиб борилаётган ислохотлар самараси ёшларнинг таълим-тарбияси, маънавияти билан ўзаро боғлиқ. Ҳозирги даврда ёш авлодга қаратилаётган эътибор, гамхўрлик ва қўллаб қувватлаш давлат сиёсатининг энг устувор йўналишларидан биридир.

Жорий 2021 йилни “Ёшларни қўллаб қувватлаш ва аҳоли саломатлигини мустаҳкамлаш йили” деб эълон қилиниши ҳам мазкур эътибор ва гамхўрликни бевосита мантикий изчил давомидир. Ҳар бир даврнинг ўзига хос табиати ва маърифати бўлганидек фан ва техника жадал тараққий этиб бораётган XXI асрда ёшлар таълим тарбияси ҳам алоҳида ўзига хос аҳамият касб этади.

Ижтимоий тараққиёт давомида ёшлар ахлоқи мавзуси доимо ўзига хос тарзда долзарб масалалардан бири сифатида тадқиқ этиб ўрганиб келинган. Бойси, ўзгариб боровчи кишилик ҳаёти инсоннинг маънавий дунёсига доимо ўзининг сезиларли даражада таъсирини кўрсатиб келган. XXI асрнинг учинчи ўн йиллигига қараб одим ташланган ҳозирги кезларда дунё миқёсида давом этаётган глобаллашув жараёнлари Ўзбекистон халқи ҳаётида ҳам акс этиб келмоқда. Порлоқ истиқбол, ёрқин келажак ва ижтимоий фаровонликни келгусида бардавом қилиш, ворисийликни таъминлаш – жамиятнинг кенжа қатлами бўлган ёшлар ахлоқи, тарбияси билан ҳамбарчас узвий боғлиқ жараёндир.

Ахлоқ ижтимоий онгнинг шаклларидан бири сифатида барча даврлар учун ҳам ўзига хос мазмун билан жамият маънавий ҳаётини бойитиб, унга муайян кўрк, қиёфа бериб келган. У ижтимоий ҳаётга нисбатан қарашларнинг бир бутун тизимини акс эттиради ва ўзида жамият, инсон, тарих ва уларнинг моҳияти ҳақидаги тушунчаларни қамраб олади. Ахлоқий сифатлар инсоннинг ҳатти-ҳаракатларида намоён бўлиб, унинг ғносеологик, иқтисодий ва ижтимоий келиб чиқиши, ҳозирги мавқеи ва ахлоқий қарашларига ишора ва гувоҳлик бериб туради. Ижтимоий воқеиликда инсон бир умр шаклланади, тарбияланиб боради. Аслида ҳар бир инсон ҳаётини бутун умри давомида ўзига маъқул келадиган

тартибларга тушириши, жамият талабларига мувофиқ йўналишларга солиш ташвишлари билан яшаб ўтади. Шу боисдан ҳам жамоатчилик фикри жамият ахлоқий қарашлари, талаб ва йўриқларига ҳар жиҳатдан боғлиқ бўлиб келади.

Жамият жамоатчилиги фикри орқали шахс зиммасига ижтимоий тузум, унда шакллланган ахлоқий қарашлар, анъана ва урф-одатлар мантиғидан келиб чиқиб кўпгина талаблар, саъй-ҳаракатлар, иш юритиш, турмушга оид қатор мажбуриятларни ҳисобга олиш маъсулиятини ҳам юклайди. Ахлоқий қарашларнинг жамоатчилиги фикри ҳосил этиш имкониятлари қанчалик катта бўлса, унинг оммага таъсир доираси шунчалик теран ва таъсирчан бўлади. Шу боисдан ҳам ҳар бир ахлоқий талаб ва қоидалар жамият томонидан тўла маъқулланган ва ўзлаштирилган бўлиши зарурдир. Шахснинг жумладан ёшларнинг жамият ҳаётида бўлган иштироки қанчалик юқори бўлса, унинг ахлоқ тизимида ижтимоий маъсулияти ва вазифалари салмоғи ҳам шунчалик катта бўлади. Ёшларнинг шахс сифатида ижтимоийлашув жараёни эса бевосита илм-маърифат ҳамда меҳнат фаолият билан чамбарчас боғлиқдир.

Юртимизнинг янги тарихига эътибор қаратилса, мустақиллигимизнинг дастлабки даврларида ҳам Ўзбекистон Республикаси биринчи президенти И.А.Каримов ўзининг қатор асарлари, нутқлари ва ёшлар билан ўтказилган учрашувларида ушбу мавзу доирасида кўплаб муҳим фикрларни баён қилган эди. Жумладан, қуйидаги илгари сурган гоёлари жуда ҳам ибратлидир. “Шуни мамнуният билан қайд этиш лозимки, эзгу фазилат ва интилишлар халқимизнинг қон-қони ва суяк-суягига сингиб кетган. Унинг табиатида ҳос бўлган юксак маънавият неча асрларки бизни не-не бало-қазолардан, тўфон ва бўронлардан соғ-омон асраб келмоқда. Ҳар қандай босқин ва истилоларга қарамасдан, ҳар қандай оғир ва мураккаб шароитда ҳам ота-боболаримиз ўзлигини йўқотмасдан, маънавият ҳаёт мезонлари, одоб-ахлоқ қоидаларига амал қилиб, комиллик сари интилиб яшагани бугун ҳам барчамизга ибрат бўлиб, куч-қувват бағишлаб келмоқда” [1].

Халқимизнинг табиатидаги юксак маънавият, одоб-ахлоқ мезонлари унинг ғоят бой инсонийлиги, ҳаётий тажриба ва чуқур фалсафий тафаккур билан сўғорилган ахлоқий меросида мужассамлашган. Шу боис, мамлакатимизда ёшларнинг бугуни ва эртаси порлоқ бўлишлигини таъминлаш мақсадида кенг қамровли ишлар жадал суръатларда амалга оширилмоқда, шахснинг маданиятини юксак даражага кўтаришга эътибор қаратилмоқда. Жумладан, мамлакатимиз президенти Ш. Мирзиёев ёшларни келгусида жамият ҳаётида тутган мавқеи юқори эканлигига эътибор қаратиб, шундай деган эди: “Ёшларимизнинг мустақил фикрлайдиган, юксак интеллектуал ва маънавий салоҳиятга эга бўлиб, дунё миқёсида ўз тенгдошларига ҳеч қайси соҳада бўш келмайдиган инсонлар бўлиб камол топиши, бахтли бўлиши учун давлатимиз ва жамиятимизнинг бор куч ва имкониятларини сафарбар этамиз” [2].

Амалга оширилаётган кенг кўламли ишларга қарамай бугунги ёшлар дунёқарашининг шаклланишида ота-оналар ўрни камайиб бормоқда. Бунда интернет, телевидение, атроф-муҳит ва телефон катта роль ўйнамоқда. Ёшлар ҳақида гапиримиз-у, уларнинг дунёқарашини нима шакллантиряпти десангиз, ота-онасининг мутлақо роли йўқдек. Фақат интернет, телевидение, атроф-муҳит

ва телефон улар онги шуурини тўла қамраб олган. Айрим ёшларимиз дунёқараши интернет тармогининг кучли таъсири остида шаклланаётганлигини кузатиш мумкин. Президентимизнинг “Бугун болаларимизни мактаб, ота-она ёки институт эмас, аксарият ҳолда қўлидаги телефон тарбияламокда. Мобил телефон энди оддий алоқа воситаси эмас, кўпинча ёт мафқурани тарқатадиган қуролга айланмокда. Маънавийтимизга мутлако бегона бўлган зарарли ғоялар чегарани бузмасдан, билдирмасдан хонадонимизга, жамиятимизга кириб келяпти. Соат сайин эмас, минут сайин кириб боряпти. Буларнинг барчаси биз учун огоҳлик кўнғироғи бўлиб янграши зарур”[3], деган фикрлари замирида катта ва чуқур маъно бор. Ота-оналар кўпгина ҳолатларда фарзанди билан мулоқот қилишга, ўрни келгандаги зарурий тарбиявий ишлар билан шуғулланишга ҳам вақт топа олмай қоляпти. Афсуски, кейинги пайтда бу борада четнинг таъсири, таъбир жоиз бўлса, “импорт”нинг ҳажми ошиб кетмокда. Маънавий иммунитетни заиф бўлган баъзи ёшлар юриш-туришда ҳам, муомала-муносабатда ҳам бошқаларга кўр-кўрона эргашмокда.

Вояга етиб, улгайиб келаётган ёшларимизнинг дунёқараши бошқа халқларнинг ёшларидан юқори туради. Халқаро миқёсда кўпчилик нуфузли ташкилотлар юртимизни ривожланаётган давлат деб ҳисоблайди. Мамлакатни ишга солиши мумкин ва зарур бўлган, ривожлантирилишини кутиб турган соҳалари талайгина. Айниқса ер ости ва усти фойдали қазилмалари, уларга янги, самарали бўлган инновацион усуллар ёрдамида ишлов бериш, юрт манфаатлари йўлида истиқболли фойдаланиш ишларини жадаллик билан амалга оширмоқ зарур. Шунингдек, Ўзбекистонда пахта хом ашёси ҳам ҳозирда етарли. Охириги йилларда қишлоқ хўжалигининг ушбу соҳасига кластер тизимини тадбиқ этилмокда, мақсад хом ашёдан тортиб, то охириги маҳсулотгача бўлган жараёндан яхлит тарзда меҳнатни ташкил этувчи субъектларнинг манфаатдорлигини ошириш. Енгил саноат соҳасига кўплаб янги технологиялар, дастгоҳларни четдан олиб келинмокда, янгилини ва ўсиш кузатилмокда. Лекин бу масаланинг тугал ечими эмас, имкониятларни яратиб янгидан-янги ишлаб чиқариш лойиҳа ва технология механизмларини ўзимизда яратишимиз лозим. Бунини амалга ошириш учун яхши, сифатли таълим ва унга монанд, муносиб муносабатларни қарор топтириш зарур. Ҳозирга қадар ёшлар учун, уларни келгуси ҳаётга ҳар томонлама етук инсонлар қилиб тайёрлаш борасида анча ишлар амалга оширишга эришилди. Лекин шундай бўлса-да, ҳали ёшларнинг барча қатламлари тўла қамраб олинганча йўқ, айниқса уюшмаган ёшлар қаплами билан ишлаш жамоатчиликдан кўплаб савий-ҳаракат ва ишжояларни талаб қилмокда. Масаланинг ижтимоий генезисига эътибор берилса, ушбу масаланинг ечими аввало – оила, тарбия ва таълимнинг ўзаро узвийликда ташкил этишга бориб тақалади.

Айниқса, яқинда Президентимиз иштирокида ёшлар бандлиги бўйича ўтказилган видеоселекторда кўрилган масалалар ҳозиргача қилинган ишларнинг янги бир босқичига, юксак босқичига янги йўл очди деб айтиш мумкин. Ёш тадбиркорлар учун солиқдаги имтиёзлар, кредит олиш имконларининг

кенгайгани, ҳатто ёшларни касб-корга ўргатувчилар, йигит-қизларимизга иш берувчилар учун яратилаётган енгилликлар... Олий ўқув юрти талабаларининг контракт тўловидаги янгилликлар... Бугун сўз, эртага қарор, индинга амалиёт бўладиган бундай яхшиликлар қачон бўлган, яна қайда бор? Ижарада турадиган талабаларнинг ижтимоий аҳволи ҳам устивор масала сифатида эътиборга олиниб ижобий ҳал қилинди. Бу имтиёзлар, бу енгиллик, бу имкониятлар бир-икки одамнинг кўнглини кўтариб кўядиган шахсий эмас, ёшлар ҳаётида ўсиш, юксалиш палласини бошлайдиган ижтимоий ҳодисадир.

Жамиятимиз моддий ҳаёти соҳасига оид кўрсаткичларга кўра ҳозирда киши бошига кунлик даромад миқдори 4,5 доллардан тўғри келмоқда. Ривожланаётган давлат бўлиш учун эса ҳар бир фуқаронинг кунлик даромади 10 доллардан 30 долларгача бўлиши керак.[4]

Япония, Корея ёки Сингапур каби ҳозирда ривожланган Осиё давлатларининг табиий равишда мавжуд бўлган имкониятлари аслида Ўзбекистонга нисбатан зўр бўлган эмас. Бўлмаса нега у давлатлар кучли ривожлана олган деган кўплаб саволлар пайдо бўлади.

Бунинг сабаби бизда индивид кучли, тизим кучли эмас, шунинг баробарида инсоннинг мавжуд имкониятларидан етарли даражада фойдаланилмапти. Қанчадан-қанча ишчи кучи мамлакат ҳудудидан ташқарида. Тараққий этган мамлакатларда эса асосан мамлакатни ривожлантириш стратегияси ва бошқарув тизими кучли шакллантирилган.

Юртимиз ривожланишининг ҳозирги палласида бошқарув тизимини такомиллаштиришга ва фуқаролик жамиятининг родини оширишга кўпроқ эътибор бериш ниҳоятда муҳим. Бу кўринишдаги муносабатларни ўзгартириш вақти аллақачон етишган. Ривожланган мамлакатлар ҳаётига “Ақлли шаҳар”, “Ақлли буюмлар” тушунчаси анча вақт аввал кириб келган, яъни ижтимоий ҳаёт соҳаларини ИТ технологияларисиз тасаввур қилиб бўлмайди. Масалан, “Британияда пайшанба кuni эрталаб сайлов бўлса, жума кuni эрталаб натижаси чиқади. Агар амалдаги ҳукумат ютқазса, соат 12га бориб янги ҳукумат кироличага кириб ҳукумат тузиш таклифини олади-да, соат 13да ишни бошлайди[5].

Мамлакатимизда ҳокимият кучли, лекин фуқаролик жамияти кучли эмас. Кўшни Қирғизистондаги воқеиликка эътибор қаратилса, фуқаролик жамияти кучли, аммо давлат кучсиз эканлигини кўриш мумкин.. Ҳар иккисида ҳам баланс йўқ. Шу нуқтаи назардан хулоса қилинганда Ўзбекистон давлати етарлича кучли, имкон қадар фуқаролик жамиятини ривожлантиришга кўпроқ эътибор қаратмоғи зарур. Иқтидорли ёшларнинг қобилитини ҳар томонлама ривожлантириш учун қонун устуворлигига кенгрок имкониятларни яратишимиз зарур. Ҳозирги давримизда юксак ахлоқли, билимли ёшларимиз сони ва салоҳияти кун сайин ортиб бормоқда, уларга иқтидорларини намоён қилишига, эзгуликка хизмат қилишликлари, орзуларини рўёбга чиқаришлари учун мададкор бўлишимиз зарур. Ўзбекистон ёшлари бугунги кунда мамлакатни модернизация қилишга қаратилган жадал ва кенг қўламли ислохотларнинг

ҳаракатлантирувчи кучи ва фаол иштирокчиси сифатида майдонга чиқмоқда. Ёшлар ўз билим ва салоҳиятини тўлиқ намоён этиши учун эса замон талабларидан келиб чиққан ҳолда ҳаётга янги ташаббуслар, изчил чоратадбирларни татбиқ этмоқдалар.

Шавкат Мирзиёев мамлакатимиз раҳбари вазифасини адо этишга киришган илк кунларданок ёшлар ҳаётига давлат сиёсатининг устувор йўналишларидан бири сифатида эътибор бера бошлади. Уларнинг муаммоларини яширин тутмади, минбарлардан оқининг оқ, қоранинг қора экани ошкор айтилди. Айниқса, нотўғри йўللарга кириб, кимларгадир алданиб, хорижга кетган ва энди бошини қайси деворга уришини билмай юрган йигитларимиз ҳақидаги: “Бировлар бу фожеадан, йўқ, бундай болалар бизники эмас, биздан эмас, деб қутулмоқчи бўладилар. Улар хато қиладилар. Бу болалар — бизники, уларни биз бу йўллардан қайтармасак, биз уларни тўғри йўлга бошламасак, уларга ҳеч кимнинг жони ачимайди”[6], деган мазмундаги гаплари кўнглида алданган боласи учун умид шамлари ўчган оналарга қайта ёруғлик берганининг гувоҳи бўлганмиз. Бу ёшлар сиёсатидаги биргина йўналиш, холос. Ўқиш, ўқитиш сифатини яхшилаш, битирганларни касб-хунар ўрганишга йўллаш, ёшлар тадбиркорлигига кенг имкониятлар яратиш каби қатор чоратадбирлар, мана, бир неча йилдирки, йигит-қизларимизни жамиятда катта кучга айланиши учун замин ҳозирламоқда. Ёшларимиз бу имкониятлар самарасини ҳозирдан намоён этмоқдалар.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. И.А.Каримов. Юсак маънавият- энгилмас кус.Т.: Маънавият 2008 й
2. Ш. Мирзиёев. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. – Тошкент-Ўзбекистон- 2018 й. 146-б.
3. <https://uz.uz/uz/posts/shavkat-mirzivoev-eng-katta-xavf-loqaydlik-va-bepar-volik>.
4. <https://kun.uz/news/2021/05/08/ota-bolas-i-bilan-sutkada-maksimum-12-daqiqa-gaplashvapti-bugun-yoshlar-dunyoqarashini-nima-shakllantirmoqda>.
5. ЯНГИ ЎЗБЕКИСТОН газетаси, 20 апрель 2021 йил, № 78 (334)

ОБРАЗОВАТЕЛЬНЫЕ ТЕХНОЛОГИИ НА ЗАНЯТИЯХ ПО ДИСЦИПЛИНЕ БЕЗОПАСНОСТЬ ЖИЗНЕДЕЯТЕЛЬНОСТИ (БЖД).

К.К.Ахмедов к.т.н., доцент, заведующий кафедры Ургенчского государственного университета,

Аннотация: “Ҳаёт фаолияти хавфсизлиги” курсини ўқитиш таълим бериш ва тарбиянинг турли методларини қўллашни талаб қилади. Булардан энг муҳимлари: ёшларнинг ватанпарварлик тарбияси ва хавф хатарсиз ҳаёт тарзини ва қондаларини ўргатиш, яни педагогдан соғлиқни

сақлаш технологияларини максимал қўллашни тақозо этади.

Калит сўзлар: “Ҳаёт фаолияти хавфсизлиги”, таълим жараёни, муаммоли таълим технологияси, ўқув тарбиявий технологиялар, атроф муҳит.

Аннотация: Курс преподавания “Безопасность жизнедеятельности” предполагает различные методы обучения и воспитания обучающихся. Наиболее важными являются: патриотическое воспитание молодежи и обучение правилам и навыкам безопасного поведения, что максимально воспринимаются обучающимися при применении педагогом здоровьесберегающих технологий.

Ключевые слова: “Безопасность жизнедеятельности”, процесс обучения, технология проблемного обучения, учебно-воспитательные технологии, окружающая среда.

Annotation: The course of teaching "Life safety" presupposes various methods of teaching and educating students. The most important are: patriotic education of young people and training in the rules and skills of safe behavior, which are maximally perceived by students when applying

Key words: "Life safety", learning process, problem-based learning technology, educational technologies, environment.

Достижение высоких результатов в подготовке обучающихся по Безопасности Жизнедеятельности во многом зависит от качества планирования учебного процесса, которое должно обеспечивать логическую последовательность и обоснованную связь при изучении тем. В данной задаче неопределима помощь, оказываемая современными методиками преподавания, в частности – здоровьесберегающими технологиями. Для использования данных технологий в курсе БЖД практикуют проведение уроков с применением метода коллективной мыслительной деятельности, в основе которого лежит диалогическое общение: один учащийся высказывает мысль, другой продолжает или отвергает ее. Известно, что диалог требует постоянного умственного напряжения, мыслительной активности. Данная форма учит студентов внимательно слушать выступления других, формирует аналитические способности, учит сравнивать, выделять главное, критически оценивать полученную информацию, доказывать, формулировать выводы[1].

Проблема безопасности всегда занимает особое место в жизни любого человека. Сегодня спектр вызовов безопасности значительно возрос и это связано не только с тем, что технические, интеллектуальные и другие показатели вооружения вышли на необычайно высокий уровень своего развития, помимо традиционных, прибавились и нетрадиционные проблемы, которые угрожают стабильности страны. В первую очередь это касается проблемы терроризма и связана проблема распространения наркотиков. Что касается проблем, связанных с экологией, то они занимают особое место[4].




Рисунок 1. Обобщенная модель понятия «Безопасность жизнедеятельности»

Цель здоровьесберегающих образовательных технологий обучения – обеспечить студенту возможность сохранения здоровья за период обучения в ВУЗе, сформировать у него необходимые знания, умения и навыки по здоровому образу жизни, научить использовать полученные знания в повседневной жизни.

Здоровьесберегающие образовательные технологии (ЗОТ) подразделяются на 3 три подгруппы:

- организационно-педагогические технологии (ОПТ), определяющие структуру учебного процесса, частично регламентированную в СанПиНах, способствующих предотвращению состояния переутомления, гиподинамии и других дезадапционных состояний;

- психолого-педагогические технологии (ППТ), связанные с непосредственной работой преподавателя на уроке, воздействием, которое он оказывает на своих учеников. Сюда же относится и психолого-педагогическое сопровождение всех элементов образовательного процесса;

- учебно-воспитательные технологии (УВТ), которые включают программы по обучению грамотной заботе о своем здоровье и формированию культуры здоровья обучающихся, мотивации их к ведению здорового образа жизни, предупреждению вредных привычек, предусматривающие также проведение организационно-воспитательной работы со студентами[2].

Педагогу в организации и проведении урока необходимо учитывать:

- 1) обстановку и гигиенические условия в кабинете: температуру и свежесть воздуха, рациональность освещения кабинета и доски, наличие/отсутствие монотонных, неприятных звуковых раздражителей и т.д.;
- 2) число видов учебной деятельности: опрос учащихся, лекции, изучение учебного материала, рассматривание наглядных пособий, ответы на вопросы, решение задач и др. Норма – 4-7 видов за занятие. Частые смены одной деятельности другой требуют от учащихся дополнительных адаптационных усилий;
- 3) среднюю продолжительность и частоту чередования различных видов учебной деятельности. Ориентировочная норма – 7-10 минут;
- 4) число видов преподавания: словесный, наглядный, аудиовизуальный, самостоятельная работа и т.д. Норма – не менее трех;
- 5) чередование видов преподавания. Норма – не позже чем через 10-15 минут;
- 6) наличие и выбор места на уроке методов, способствующих активизации инициативы и творческого самовыражения самих учащихся. Это такие методы, как метод свободного выбора (свободная беседа, выбор способа действия, выбор способа взаимодействия; свобода творчества и т.д.); активные методы (студенты

в роли преподавателя, обучение действием, обсуждение в группах, ролевая игра, дискуссия, семинар, студент как исследователь); методы, направленные на самопознание и развитие (интеллекта, эмоций, общения, воображения, самооценки и взаимооценки);

7) место и длительность применения ТСО (в соответствии с гигиеническими нормами), умение преподавателя использовать их как возможности инициирования дискуссии, обсуждения;

8) позы студентов, чередование поз;

9) физкультминутки и другие оздоровительные моменты на уроке – их место, содержание и продолжительность. Норма – на 15-20 минут занятия по 1 минутке из 3-х легких упражнений с 3 – повторениями каждого упражнения;

10) наличие у студентов мотивации к учебной деятельности на уроке (интерес к занятиям, стремление больше узнать, радость от активности, интерес к изучаемому материалу и т.п.) и используемые преподавателем методы повышения этой мотивации;

11) наличие в содержательной части занятия вопросов, связанных со здоровьем и здоровым образом жизни; демонстрация, прослеживание этих связей; формирование отношения к человеку и его здоровью как к ценности; выработка понимания сущности здорового образа жизни; формирование потребности в здоровом образе жизни; выработка индивидуального способа безопасного поведения, сообщение студентами знаний о возможных последствиях выбора поведения и т.д.;

12) психологический климат на занятии;

13) наличие на занятии эмоциональных разрядок: шуток, улыбок, афоризмов с комментариями и т.п.;

В конце урока следует обратить внимание на следующее:

14) плотность занятия, т.е. количество времени, затраченного студентами на учебную работу. Норма - не менее 60 % и не более 75-80 %;

15) момент наступления утомления у студентов и снижения их учебной активности. Определяется в ходе наблюдения по возрастанию двигательных и пассивных отвлечений у студентов в процессе учебной работы;

16) темп и особенности окончания занятия:

- быстрый темп, «скомканность», нет времени на вопросы учащихся, быстрое, практически без комментариев, записывание домашнего задания;

- спокойное завершение занятия: учащиеся имеют возможность задать учителю вопросы, учитель может прокомментировать задание на дом, попрощаться с учащимися;

- задержка учащихся в классе после звонка (на перемене) [3].

Анализ применения рассмотренных современных образовательных технологий на занятиях по Безопасности жизнедеятельности показал, что:

- в обучаемых группах установился позитивный микроклимат, снимается уровень агрессии студентов;

- у студентов повысилась познавательная активность;

- наблюдается динамика развития уровня самооценки студентов, их логического мышления, коммуникативных способностей, качества знаний.

Применение современных образовательных технологий на занятиях и результаты оценки знаний студентов оказывают влияние на абсолютную и качественную успеваемость в группах.

В заключении можно отметить, все выше перечисленное только заинтересует студента предметом на котором он будет находится и сохранит его здоровье.

Литература

1. Арустамов, Э.А. Безопасность жизнедеятельности: Учебник для бакалавров / Э.А. Арустамов. - М.: Дашков и К, 2016. - 448 с.

2. Белов, С.В. Безопасность жизнедеятельности и защита окружающей среды (Техносферная Безопасность): Учебник/С.В. Белов. - Люберцы: Юрайт, 2016 - 702 с.

3. Безопасность жизнедеятельности: Учебное пособие / В.И. Бондин, Ю.Г. Семехин. - М.: ИНФРА-М; Ростов на/Д: Академцентр, 2014. - 349 с.: 60x84 1/16. - (Среднее профессиональное образование).

4. Неделева А.В., Паниткова Л.А. Применение технологии «развитие критического мышления через чтение и письмо» при организации разных форм учебной деятельности по дисциплине «Безопасность жизнедеятельности» // Современные наукоемкие технологии. – 2016. – № 3-2. – С. 386-389;

ҲАЁТ ҲАОЛИЯТИ ҲАВҒСИЗЛИГИ ҲАНИНИ КИЧИК ГУРУҲЛАРГА БЎЛИБ ЎҚИТИШ УСУЛИ

Н.С.Бахриддинов., НамМҚИ доцент
М.М. Холматова, Б. Ҳ. Абдурахманов. – НамМҚИ

Ҳар қайси даврнинг ривожланиш асосида аҳолининг ўқимишли бўлишлиги туради. Янги педагогик технология асосий мақсади билим берувчи ва билим олувчи ўртасидаги муносабатни адолатли бўлиши асосида билим олувчи онгига қисқа муддат ичида кенг тушунчаларни сингдириш имкониятларини яратиш ҳисобланади. Бунда айниқса талаба олган билими мукамал бўлишини таъминлаш мақсадида уларда малака ва кўникмалар ҳосил қилиш имкониятларини яратиш жуда муҳим ҳисобланади.

Таълим жараёнининг умумий тизимида талабаларнинг мустақил билиш фаолияти шу қадар аҳамиятлики, усиз мутахассиснинг касбий компетентлигини амалда шакллантириб бўлмайди. Талабага ўқитувчини, ўзи танлаган ихтисослик йўналиши бўйича етакчи мутахассисни мустақил танлаш имкониятини тақдим этиш амалиёти қўлланилиши муҳим саналади. Бу билан талабанинг эгаллаган билимини амалиётга қўллашга имконият яратилади.

Талабаларга билим бериш асосида барча режаларда келтирилган фан ва унинг мавзулари туради. Шунинг учун ҳам фанга доир билимларни эгаллаш ушбу фан мутахассисининг билими, малакали бўлишини тақозо этади. Чунки, билим беришга мўлжалланган ҳар бир фаннинг мавзудари аниқ бир кетма-кетликда бўлишини таъминлаш зарур.

Ҳозирги замон педагогик технологияси замонавий ўқитиш услубларидан фойдаланишни тақозо этади. Бу борада айтиш мумкинки, ўқитишда

Фойдаланилган адабиётлар

1. Bahriddinov Nuriddin Sadriddinovich, Turgunov Avazkhon Axmadjanovich. Role of Mahalla's Participation in the Development of Education. // International Journal of Progressive Sciences and Technologies (IJPSAT), Vol. 25 No. 1 February 2021, pp. 375-378. <http://ijpsat.iisht-journals.org>

2. Ишматов Қ. Касб-хунар таълими дидактикаси. Маърузалар курси. 1-қисм. Наманган. НамМПИ. 2005. -92б.

ҲАЁТ ФАОЛИЯТИ ҲАВФСИЗЛИГИ ФАНИНИ ЎҚИТИШНИНГ ИНТЕГРАЦИОН УСУЛИ

Бахриддинов Н.С., Собиров М.М., Тургунов А.А.–НамМҚИ

Маълумки, бўлажак муҳандислар билимини ошириш орқали sanoat ишлаб чиқаришларини ривожлантириш қулай бўлади. Бунинг учун ҳозирги замон педагогикаси ўқитиш усулларини қулай ва тушунарли ҳамда содда, қолаверса, кўрсатмалилик принципи асосида бўлишини такозо этади. Ушбу педагогика ўқитувчи билан ўқувчи ўртасидаги муносабатларни яхшилаш, айниқса, ўқувчининг фаоллигини ошириш асосида ўқитишни йўлга қўйишни талаб этади. Булардан ташқари ўқитиш учун дарс вақтида фойдаланишга мўлжалланган кўргазмалар куруллар ҳам тушунишга осон, ихчам ва зарур бўлганда, айнан ишлаб чиқариш соҳасидаги мавжуд асбоб-анжомлар намунаси кўринишида бўлиши керак. Бунинг асосида ўқитишнинг дарс жараёни асосий ўринда туради. Чунки педагогик мулоқот ўқувчи тарбиясида муҳим омил бўла олади.

Ҳар бир фанни ўқитиш, иқтисодий ва ижтимоий ривожланиш йўлини белгилаш кадрлар тайёрлаш тизими ва мазмунини қайта кўриб чиқиш, бу борада қатор чоралар кўриш заруратидан амалга оширилади. Шу муносабат билан, энг аввало, таъкидлаш лозимки, ўқитишда ишлаб чиқариш билан алоқани мустаҳкамлаш ҳозирги педагогик талаблардан бири бўлиб ҳисобланади. «Кадрлар тайёрлаш миллий дастури» учинчи босқичи қуйидагиларни кўзда тутган:

- таълим муассасаларининг ресурс, кадрлар ва ахборот базасини янада мустаҳкамлаш, ўқув-тарбия жараёнини энг янги ўқув-методик комплекслар, илғор педагогик ва ахборот технологиялари билан тўлиқ таъминлаш;
- миллий (элита) таълим муассасаларининг тикланиши ва ривожланиши, уларнинг мустақиллиги ҳамда ўз-ўзини бошқаришини таъминлаш;
- таълим жараёнини ахборотлаштиришни таъминлаш, узлуксиз таълим тизимини дунё ахборот тармоқларига чиқиш имкони бўлган компьютер ахборот тизимлари билан тўлиқ қамраб олиш.

Ҳозирги кун аниқ назарий ва амалий муаммолар ечимига қаратилган гуруҳ ёки яқка тартибдаги лойиҳаларнинг талабалар томонидан ишлаб чиқиши ва имплементация методикаси буларни амалиётга тадбиқ этишни такозо этмоқда. Ҳолбуки, таълимга бу каби ёндашувда талаба (ёки талабалар гуруҳи) муаммони аниқлаш ва ҳал қилиш йўллари топиш, кейин етакчи мутахассислар олдида ўз «лойиҳасини ҳимоя қилиш» бўйича тақдимот ўтказиш топшириғини олади. Бу

каби лойиҳалар кейинроқ битирув-малакавий иши ёки магистрлик диссертацияси сифатида расмийлаштирилиши мумкин.

Таълим жараёнининг умумий тизимида талабаларнинг мустақил билиш фаолияти шу қадар аҳамиятлики, усиз мутахассиснинг касбий компетентлигини амалда шакллантириб бўлмайди. Талабага ўқитувчини, ўзи танлаган ихтисослик йўналиши бўйича етакчи экспертни, жумладан, бошқа олий таълим муассасаси(ОТМ) ёки илмий тадқиқот институти(ИТИ) ходимини, қолаверса, йирик ишлаб чиқариш корхоналарининг етакчи мутахассисларини мустақил танлаш имкониятини тақдим этиш амалиёти қўлланилиши муҳим саналади. Бу билан талабанинг эгаллаган билимини амалиётга қўллашга кенг имконият яратилади.

Ривожланган мамлакатларда мазкур фаолият бўйича шуғулланадиган махсус маслаҳат марказлари мавжуд. Айниқса, бўлажак муҳандиснинг ишлаб чиқариш корхоналарида ишни давом эттиришига қулайлик яратилиши мақсадида айнан ўзи танлаган корхонада амалиёт ўташларига кенг имкониятлар яратилган. Шу сабабли мамлакатимизда чет эл тажрибалари асосида ўқитишнинг сифатини ошириш мақсадида дарснинг интеграцион усулини қўллаш муҳим ҳисобланади.

Интеграцион дарснинг асосий иштирокчилари – ўқитувчи, талаба, корхонанинг етакчи мутахассислари бўлиб, дарснинг бу шаклида талаба айнан корхонадаги жараёнлар кетма-кетлиги ҳамда ишчиларга салбий таъсир кўрсатиши мумкин бўлган барча омилларни бевосита амалда кўришига имконият яратилади.

Республикада олий таълим муассасалари билан корхона ўртасида ҳамкорликни кенгайтириш, мутахассислар маълумотлар базаларини шакллантириш ўринли бўлади. Бу эса талабаларнинг ўзларини қизиқтирган йўналиш ва мавзулар бўйича ҳам назарий, ҳам амалий жиҳатдан билим ва малакалар ортишига асос бўлади.

Мутахассислар тайёрлашнинг ҳуқуқий-меъёрий ва ташкилий асослари мамлакатимизда соҳага доир бакалавриатура таълим йўналиши бўйича олий таълим модели, унинг мақоми ва тузилиши кўп жиҳатдан олий таълим анъаналари, ўрганиладиган фанлар мазмуни эса – соҳанинг фан ва амалий соҳа сифатида эришган ютуқлари билан белгиланади. Мазкур моделга мувофиқ таълимнинг биринчи босқичи бакалавр даражасини беришни кўзда тутди. Бакалавр даражаси умумий касбий маълумот олишни таъминлайди. Шунинг учун ҳам интеграцион дарс усули аҳамиятлики, кўп босқичли тизимнинг иккинчи босқичи – магистратурада ўқиш даврида талабанинг амалий кўникмаси шаклланиши ҳолда ўқиш сифатли бўлади. Магистрлик дастурлари ўрганиладиган фан соҳаларининг бири бўйича ихтисослаштирилган таълим олишга йўналтирилган бўлганлиги айнан корхонада амалий жиҳатдан олган билим бунда муҳим ўринда туради.

фоидаланилиши мумкин бўлган усуллар жуда кўп. Бироқ, айнан бир гуруҳ ёки кичик гуруҳларда қўлланилиши мумкин бўлган ушбу усулларни ўқитувчининг маҳорати асосида танлаш қулай бўлиб ҳисобланади.

Педагогик технологиянинг усулларидан бири – интерфаол усул ҳисобланади. “Интерфаол” сўзи инглизча сўз бўлиб, ўзаро таъсир қилиш маъносини англатади. Бу мулоқот қилиш қобилиятини англатиб, биров билан суҳбат, суҳбатлашиш режимида бўлади ва машғулот давомида ўқитувчи ҳамда ўқувчилар ўртасидаги ўзаро муносабатларни англатади.

Ушбу ўзаро таъсирнинг хусусиятлари қуйидагилар бўлиб ҳисобланади:

-таълим иштирокчилари, яъни ўқитувчи ва ўқувчиларнинг бир хил семантикада қолиши;

-муаммоли майдоннинг ижодий бўш жойларига вазифаларни қўшиш, киритиш;

-воситалар ва усулларни танлашда изчиллик;

-муаммони ҳал қилишни амалга ошириш;

-якин, маъноли ҳиссиётларга қўшилиш ҳолати, унга ёндош бўлган ҳиссиётларни эътиборга олиш ва муаммоли вазиятни ҳал қилишни қабул қилиш, амалга ошириш.

Интерфаол ўқитиш усулининг дарс бошида келишилган ҳолда бўлиши талаб этиладиган ва уни бузиб бўлмайдиган процедураларнинг аниқ консолидацияси(фиксацияси) қондалари мавжуд. Бу барча иштирокчиларнинг бўлишини, ҳар қандай қарашларга тоқатли бўлишни, ҳаққонийликни ҳурмат қилишни, ҳар кимнинг сўз эркинлиги ва уларни ҳурмат қилишга асосланади. Бунинг аҳамиятли томони шундаки, ҳар бир иштирокчи ўз билимини намойиш этиш учун интилиш асосида билишга ҳаракат қилади. Натижада ўқув жараёнида мотивация, билим кучи, ижодкорлик ва тасаввур кучи, ижтимоийлик, фаол ҳаётий позиция, жамоа руҳияти, индивидуалликнинг қиймати, ифода эркинлиги, фаоллик, ўзаро ҳурмат ҳамда демократияга эътибор берилдаган интерфаол таълим шакллари юқори даражада таъминланади.

Таълимнинг асосий интерфаол шакллари замонавий педагогикага хос бўлиб, унинг қуйидаги шакллари мавжуд:

-ижодий топшириқ;

-кичик гуруҳларда ишлаш;

-таълим ўйинлари(театрлаштирилган, иш ва таълим ўйинлари);

-умумий ресурслардан фойдаланиш (бунда мутахассисни таклиф қилиш, экскурсия кабилар ҳам муҳим);

-ижтимоий лойиҳалар ва таълимнинг аудиториядан ташқари усуллари;

-янги материалларни ўрганиш ва мустаҳкамлаш (маъруза, кўргазмали қуроллар билан ишлаш, “ўқувчини ўқитувчи сифатида ўрганиш”, “ҳаммани ҳамма ўргатади”, саволларга жавоб олиш, “Сўқрот суҳбати” каби усуллар асосида);

-синов;

-тескари алоқа;

-масофавий таълим;

-мураккаб ва мунозарали масалалар ҳамда муаммоларни муҳокама қилиш (позицияни, фикрлар миқёсини, муҳим ўриндаги масалаларни камраган ҳолда);

-муаммоларни ҳал қилиш (“қарорлар дарахти”, “ақлий ҳужум”, “ишларни таҳлил қилиши”, “музокаралар ва воситачилик”, “нарвонлар ва илонлар” усулини қўллаш орқали);
-тренинглари.

Интерфаол методи орқали дарс ўқишда унинг юқорида келтирилган шаклларини қўллашда кичик гуруҳларга бўлиб ўқитишнинг афзаллик томонлари гуруҳдаги барча ўқувчиларнинг дарсга иштироки таъминланади ва қисқа вақт оралиғида уларнинг олган билимлари асосида ўзлаштириш даражаларини аниқлашни осонлаштиради. Чунки, катта гуруҳга нисбатан кичик гуруҳларга бўлиб ўқитишда айнан энг билимли талабанинг дарсдаги фаоллигини таъминлаш кичик гуруҳлар сонига мос ҳолда ортади. Айнан шу имконият асосида талабалар билимини аниқлаш учун кичик гуруҳлар ўртасида савол-жавобни ташкил этиш билимини мустаҳкамлаш жуда қулай бўлади. Бу турдаги ўқув машғулотларини ташкил қилишнинг башланғич фазасидаёқ саволларга берилган жавобларга қараб, рағбатлантириш турини тўғри танлаш лозим. Чунки бунинг асосида барча иштирокчиларнинг фаоллигини ошириш туради. Ҳолбуки, ўқитувчининг дарс жараёнида берган билими, кичик гуруҳларга берилган саволларга жавоблар, қолаверса, ҳар бир берилган жавобларнинг қисқача таҳлили талабалар билимининг мустаҳкамланишига асос бўла олади.

Кичик гуруҳларга бўлишнинг икки усули бор:

-фан бўйича машғулотларнинг дастлабки 1-, 2-, 3-мавзуларини ўқитиш даври. Бунда ўқитувчи томонидан талабаларнинг “аъло”, “яхши” ва “қониқарли” билимга эга бўлганларини ажратишга имконият яратилади;

-кейинги машғулотлар даври. Бу даврнинг энг қулай томони ўқитувчи дарсда иштирок этаётган талабаларнинг билим даражаларини аниқ билгани ҳолда, уларни кичик гуруҳларга ажратишда ҳар бир гуруҳ аъзоларининг ўртача билим даражалари деярли бир хил бўлишига эришилишига имконият яратилади.

Кичик гуруҳларга бўлиб ўқитишнинг энг афзал томонларидан яна бири шундаки, талабаларни бошқариш қулай бўлгани ҳолда, уларнинг ўзларида янги мавзуга оид саволлар бериш асосида фаоллик даражаси ортиб боради. Ўқитувчининг зеҳн билан қўзғатуви асосида таҳлил тўғри амалга оширилса, талабани икки гуруҳга ажратишга имконият яратилади, яъни, айнан билган тушунчалари юзасидан савол берувчи ҳамда билишни хоҳлаган ҳолда, яъни билмаган тушунчаларини ўрганиш юзасидан савол берувчи талабаларни ажратиш мумкин бўлади. Айнан билган тушунчалари асосида савол берувчи талаба ўзи билган даражадаги жавобни олишига интилади. Агар берилган жавоб талабани қониқтирмаса, савол берган талабанинг ўзи жавобни тўлдиришига имконият берилиши билан билимини мустаҳкамлашга эришилади. Демак, кичик гуруҳларга бўлиб ўқитиш орқали ўқитувчи дарснинг тушунтирилиши тугалланганидан кейинги босқичда оддий қўзғатувчи-назоратчига айлана олиши дарснинг самарали бўлишини билдиради ва талабалар кейинги дарсларга тайёрланишга ўз-ўзидан интилиш пайдо бўлади. Бу эса ўз навбатида талабалар билимини оширишда муҳим бўлиб қолади.

Фойдаланилган адабиётлар

1. Bahriddinov Nuriddin Sadriddinovich, Turgunov Avazkhon Axmadjanovich. Role of Mahalla's Participation in the Development of Education. // International Journal of Progressive Sciences and Technologies (IJPSAT), Vol. 25 No. 1 February 2021, pp. 375-378. <http://ijpsat.ijsht-journals.org>

2. Ишматов Қ. Қасб-хунар таълими дидактикаси. Маърузалар курси. 1-қисм. Наманган. НамМПИ. 2005. -92б.

ҲАЁТ ФАОЛИЯТИ ХАВФСИЗЛИГИ ФАНИНИ ЎҚИТИШНИНГ ИНТЕГРАЦИОН УСУЛИ

Бахриддинов Н.С., Собиров М.М., Тургунов А.А.–НамМКИ

Маълумки, бўлажак муҳандислар билимини ошириш орқали саноат ишлаб чиқаришларини ривожлантириш қулай бўлади. Бунинг учун ҳозирги замон педагогикаси ўқитиш усулларини қулай ва тушунарли ҳамда содда, қолаверса, кўрсатмалилик принципи асосида бўлишини тақозо этади. Ушбу педагогика ўқитувчи билан ўқувчи ўртасидаги муносабатларни яхшилаш, айниқса, ўқувчининг фаоллигини ошириш асосида ўқитишни йўлга қўйишни талаб этади. Булардан ташқари ўқитиш учун дарс вақтида фойдаланишга мўлжалланган кўргазмалар курашлар ҳам тушунишга осон, ихчам ва зарур бўлганда, айнан ишлаб чиқариш соҳасидаги мавжуд асбоб-анжомлар намунаси кўринишида бўлиши керак. Бунинг асосида ўқитишнинг дарс жараёни асосий ўринда туради. Чунки педагогик мулоқот ўқувчи тарбиясида муҳим омил бўла олади.

Ҳар бир фанни ўқитиш, иқтисодий ва ижтимоий ривожланиш йўлини белгилаш кадрлар тайёрлаш тизими ва мазмунини қайта кўриб чиқиш, бу борада қатор чоралар кўриш заруратидан амалга оширилади. Шу муносабат билан, энг аввало, таъкидлаш лозимки, ўқитишда ишлаб чиқариш билан алоқани мустақамлаш ҳозирги педагогик талаблардан бири бўлиб ҳисобланади. «Кадрлар тайёрлаш миллий дастури» учинчи босқичи қуйидагиларни кўзда тутган:

- таълим муассасаларининг ресурс, кадрлар ва ахборот базасини янада мустақамлаш, ўқув-тарбия жараёнини энг янги ўқув-методик комплекслар, илғор педагогик ва ахборот технологиялари билан тўлиқ таъминлаш;
- миллий (элита) таълим муассасаларининг тикланиши ва ривожланиши, уларнинг мустақиллиги ҳамда ўз-ўзини бошқаришини таъминлаш;
- таълим жараёнини ахборотлаштиришни таъминлаш, узлуксиз таълим тизимини дунё ахборот тармоқларига чиқиш имкони бўлган компьютер ахборот тизимлари билан тўлиқ қамраб олиш.

Ҳозирги кун аниқ назарий ва амалий муаммолар ечимига қаратилган гуруҳ ёки якка тартибдаги лойиҳаларнинг талабалар томонидан ишлаб чиқиши ва имплементация методикаси буларни амалиётга тадбиқ этишни тақозо этмоқда. Ҳолбуки, таълимга бу каби ёндашувда талаба (ёки талабалар гуруҳи) муаммони аниқлаш ва ҳал қилиш йўллари топиш, кейин етакчи мутахассислар олдида ўз «лойиҳасини ҳимоя қилиш» бўйича тақдимот ўтказиш топширигини олади. Бу

каби лойиҳалар кейинроқ битирув-малакавий иши ёки магистрлик диссертацияси сифатида расмийлаштирилиши мумкин.

Таълим жараёнининг умумий тизимида талабаларнинг мустақил билиш фаолияти шу қадар аҳамиятлики, усиз мутахассиснинг касбий компетентлигини амалда шакллантириб бўлмайди. Талабага ўқитувчини, ўзи танлаган ихтисослик йўналиши бўйича етакчи экспертни, жумладан, бошқа олий таълим муассасаси(ОТМ) ёки илмий тадқиқот институти(ИТИ) ходимини, қолаверса, йирик ишлаб чиқариш корхоналарининг етакчи мутахассисларини мустақил танлаш имкониятини тақдим этиш амалиёти қўлланилиши муҳим саналади. Бу билан талабанинг эгаллаган билимини амалиётга қўллашга кенг имконият яратилади.

Ривожланган мамлакатларда мазкур фаолият бўйича шуғулланадиган махсус маслаҳат марказлари мавжуд. Айниқса, бўлажак муҳандиснинг ишлаб чиқариш корхоналарида ишни давом эттиришига қулайлик яратилиши мақсадида айнан ўзи танлаган корхонада амалиёт ўташларига кенг имкониятлар яратилган. Шу сабабли мамлакатимизда чет эл тажрибалари асосида ўқитишнинг сифатини ошириш мақсадида дарснинг интеграцион усулини қўллаш муҳим ҳисобланади.

Интеграцион дарснинг асосий иштирокчилари – ўқитувчи, талаба, корхонанинг етакчи мутахассислари бўлиб, дарснинг бу шаклида талаба айнан корхонадаги жараёнлар кетма-кетлиги ҳамда ишчиларга салбий таъсир кўрсатиши мумкин бўлган барча омилларни бевосита амалда кўришига имконият яратилади.

Республикада олий таълим муассасалари билан корхона ўртасида ҳамкорликни кенгайтириш, мутахассислар маълумотлар базаларини шакллантириш ўринли бўлади. Бу эса талабаларнинг ўзларини қизиқтирган йўналиш ва мавзулар бўйича ҳам назарий, ҳам амалий жиҳатдан билим ва малакалар ортишига асос бўлади.

Мутахассислар тайёрлашнинг ҳуқуқий-меъёрий ва ташкилий асослари мамлакатимизда соҳага доир бакалавриатура таълим йўналиши бўйича олий таълим модели, унинг мақоми ва тузилиши кўп жиҳатдан олий таълим анъаналари, ўрганиладиган фанлар мазмуни эса – соҳанинг фан ва амалий соҳа сифатида эришган ютуқлари билан белгиланади. Мазкур моделга мувофиқ таълимнинг биринчи босқичи бакалавр даражасини беришни кўзда тутди. Бакалавр даражаси умумий касбий маълумот олишни таъминлайди. Шунинг учун ҳам интеграцион дарс усули аҳамиятлики, кўп босқичли тизимнинг иккинчи босқичи – магистратурада ўқиш даврида талабанинг амалий кўникмаси шаклланиши ҳолда ўқиш сифатли бўлади. Магистрлик дастурлари ўрганиладиган фан соҳаларининг бири бўйича ихтисослаштирилган таълим олишга йўналтирилган бўлганлиги айнан корхонада амалий жиҳатдан олган билим бунда муҳим ўринда туради.

Фойдаланилган адабиётлар

3. Bahriddinov Nuriddin Sadriddinovich, Turgunov Avazkhon Axmadjanovich. Role of Mahalla's Participation in the Development of Education. // International Journal of Progressive Sciences and Technologies (IJPSAT), Vol. 25 No. 1 February 2021, pp. 375-378. <http://ijpsat.ijsht-journals.org>

4. Гусейнзаде Р.Лятиф оглы, Т. Мамед оглы Мамедов. Педагогика. Учебник для высших учебных заведений бакалавриат. БАКУ – 2015. -318 с.

5. Гусейнзаде Р.Лятиф оглы. Современные образовательные технологии: Уч.пособ. – М., Народное образование, 1998. -198 с.

ТАЛАБАЛАР ҲАЁТ ФАОЛИЯТИ ХАВФСИЗЛИГИ МАДАНИЯТИНИ ИННОВАЦИОН МУҲИТНИ ЯРАТИШ ОРҚАЛИ ТАЪМИНЛАШ ЙЎЛЛАРИ

Н.Н.Назарова ФВВ Академияси хузуридаги Фуқаро муҳофазаси
институтини

Аннотация: Ушбу мақолада Талабалар ҳаёт фаолияти хавфсизлиги маданиятини инновацион муҳитни яратиш орқали таъминлаш йўллари таъсирчанлигини ошириш масалалари кўриб чиқилган бўлиб, соҳани ривожлантиришда ёшларни кенг жалб этиш, олий таълим муассасалари талаба – ёшларини ўқитиш орқали ҳаёт фаолияти хавфсизлиги маданиятини шакллантириш масалалари ёритилган.

Калит сўзлар: Фавкулудда вазиятларда тайёргарлик, талаба-ёшлар, олий таълим муассасаси, ҳаёт фаолияти хавфсизлиги фан дастурлари, инновацион муҳит.

Тинчлик ва ҳарбий давридаги фавкулудда шароитларда аҳолининг хавфсизлигини таъминлаш бўйича кўп йиллик тажриба шуни кўрсатадики, ҳеч бир мамлакат йирик қўламдаги табиий офатлар ва техноген ҳалокатларда аҳоли ва ҳудудларнинг тезкор муҳофазасини таъминлаш, етарли миқдорда малакали кутқарув тузилмаларни ташкил этиш тизимини яратиш ва уни тўлиқ жанговар ҳолатда ушлаб туриш имкониятига эга эмас. Дунёнинг турли мамлакатларидаги йирик масштабдаги табиий офатлар ва ҳалокатларнинг (зилзила, цунами, сув тошқини ва ҳ.к.) оқибатларини бартараф этиш тажрибасидан келиб чиқиб айтиш керак-ки, уларнинг оқибатларини юмшатишнинг ягона ечимини – фуқароларнинг тайёргарлигини оширишдир. Буларнинг барчаси кундалик фавкулудда ҳодисаларга ҳам тегишлидир[3].

Жабрланганлар сонини камайтиришнинг асосий йўлларида бири аҳолининг барча тоифаларини шу жумладан ёшларни фавкулудда вазиятлар шароитида тўғри ҳаракатланишга ўргатишдан иборатдир. Фикримизча бундай тайёргарлик доимий, мунтазам, узулуксиз тарзда оилада, маҳалларда, мактабгача таълим муассасаларида, умумий ўрта таълим мактабларида ва академик лицей, коллежларда, олий таълим муассасаларида хавфсизлик маданиятини ривожлантириш орқали амалга оширилмоғи даркор.

Нега аҳолининг айнан ёшлар қатламига эътибор қаратяпмиз. Буни қуйидагича асослаймиз. Бугунги кундаги ёшлар масалалари бўйича олий таълим

тизимини қамраб олиш даражасини, мавжуд имкониятларимизни, таянишимиз мумкин бўлган куч ва салоҳиятга эътибор қаратсак:

Маълумки, ҳозирда республикада 114 та олий таълим муассасаси мавжуд бўлиб, улардан 93 таси маҳаллий ҳамда 21 таси хорижий олий таълим муассасаси ва уларнинг филиаллари ҳисобланади. Жумладан, сўнгги 3 йилда янги 6 та олий таълим муассасаси, 17 та филиал ва 14 та хорижий олий таълим муассасаси филиали ташкил этилди.

Республика олий таълим муассасаларида таҳсил олаётган талабалар сони бакалаврият таълим йўналиши бўйича 410 минг, магистратура мутахассислиги бўйича эса 13 минг нафарни ташкил қилиб, сўнгги 3 йилда 1,7 бараварга ошди.

Шунинг билан биргалликда, 2030 йилгача олий таълим соҳасида аҳолини олий таълим билан қамров даражасини 50 фоиздан ошириш белгиланган (1).

Бугунги кунда олий таълим муассасаларида инсоннинг ҳаёти давомида содир бўладиган турли хусусиятли хавфлар, фавқулодда вазиятларни олдини олиш, улар юзага келганда ўзини муҳофаза қилиш, ҳаракатланиш ва оқибатларини бартараф этиш йўллариини ўрганишга қаратилган «Ҳаёт фаолияти хавфсизлиги» йўналиши ҳамда фани киритилган.

Айнан “Ҳаётий фаолият хавфсизлиги” фани хавфсизлик маданиятини такомиллаштиришнинг асосий бўғини ҳисобланмоғи керак. Яъни, республикамиз Олий ўқув юртларида ушбу фаннинг ишчи дастурлари атроф-муҳитнинг салбий омилларининг хусусиятларини ўрганиш, уларнинг идентификацияси ва салбий таъсир даражасини баҳолаш, инсон ҳаёти ва соғлигига салбий таъсир кўрсатувчи омилларни ўрганишни тўлақонли қамраб олиши лозим.

Бунинг учун эса айти пайтда, ҳаётий фаолият хавфсизлигини таъминлашда ўз ечимини кутаётган кўйидаги масалаларга эътиборни қаратиш муҳим ҳисобланади:

Биринчидан, ҳаётий фаолиятни таъминлаш чегараларида инсон яшаши учун зарур бўлган мезонларнинг қўллаб қувватланиши лозимлиги. Жумладан, инсон ва жамият учун муайян хавф-хатар вужудга келганда аҳолини огоҳлантириш, олдини олиш ва оқибатларини бартараф этиш орқали тавақалчилик даражасини камайтириш ҳамда ҳимоя қилиш тизимини такомиллаштириш;

Иккинчидан, аҳолини барча турдаги энергия ресурслари (электр энергияси, газ, нефть маҳсулотлари, кўмир, сув кабилар) билан таъминлаш масаласи. Инсоннинг ҳаёт фаолияти хавфсизлигига таъсир кўрсатадиган муҳим омиллардан бири сифатида энергия инқироози бугунги кунда ҳар қандай давлат ва жамият хавфсизлигини таъминлашда долзарб муаммолардан саналади;

Учинчидан, аҳолининг ҳаётий моддий эҳтиёжларининг барча зарур меъёр ва мезонлари билан таъминлаш устивор вазифадир. Айти пайтда, турли давлатларда аҳоли учун турар жойларнинг, жамоат транспорти, тиббий муассасалар ва ҳаётий фаолият хавфсизлигини таъминлаш тизимининг бошқа элементлари сонининг етарли эмаслиги ҳеч кимга сир эмас;

Тўртинчидан ҳаётий фаолият хавфсизлигини таъминлашнинг устувор йўналишларидан бири, физиологик асос – бу шубҳасиз, аҳолини озиқ – овқат маҳсулотларига бўлган эҳтиёжларини қондириш ҳисобланади. Аҳоли сонининг ошиб бориши билан ушбу муаммонинг долзарблиги янада ошади, агарда инсоният озиқ – овқат маҳсулотларини етиштиришнинг янгидан – янги

истикболли технологияларини ишлаб чиқмас ҳамда унга ўз вақтида мослашмас экан, у ҳолда глобал доирада хавфли ҳолат вужудга келиши мумкин;

Бешинчидан ичимлик сувидан оқилона фойдаланиш, уни ифлосланишдан муҳофаза қилиш масаласи. Бу борада айна пайтда саноат ва маиший корхоналар ҳамда улардан чиқаятган чиқиндиларнинг ичимлик сувидан фойдаланиш тизимига салбий таъсир кўрсатишига йўл қўймаслик масаласи инobatга олиниши керак;

Олтинчидан ишлаб чиқариш чиқиндиларини бартараф этиш, қайта ишлаш ёки улардан фойдаланиш жараёнларининг ҳаётий фаолият хавфсизлигини таъминлаш билан узвий боғлиқлигидир. Ушбу жараён айнақса атом энергетикаси, кимёвий – биологик ишлаб чиқаришчиқиндилари микдорининг йилдан –йилга ўсиб бориши бу ўз набатида инсон ва ҳаёти, соғлиги учун потенциал хавф – хатарларнинг ошиб боришига олиб келиши инobatга олиниши зарур.

Хавфсизлик маданиятини такомиллаштириш масаласи комплекс характерга эга эканлигини таъкидлаган ҳолда, тан олиб айтишимиз керакки, соҳада инновацион ёндашув, илмий изланишлар, замонавий технологияларни яратиш эътироф этадиган даражада эмаслиги айна ҳақиқатдир.

Президентимиз Ш.Мирзиёев таъбири билан айтганда, "Халқимиз дунёқарашида инновацион муҳитни яратиш энг муҳим вазифаларимиздандир. Инновация бўлмас экан, ҳеч бир соҳада рақобат, ривожланиш бўлмайди. Соҳадаги ўзгаришларни халқимизга кенг тарғиб қилмасак, бугунги давр шиддати, фан техниканинг мислсиз ютуқлари билан ҳамқадам бўлолмаймиз" [2].

Шунингдек, БМТ Бош Ассамблеясининг 2015 йилнинг 25 сентябрида Барқарор ривожланиш бўйича ўтказилган саммитида қабул қилинган "2030 йилгача бўлган даврга мўлжалланган Барқарор ривожланиш дастури"да фуқароларнинг ҳаётий фаолияти хавфсизлигини таъминлашга қаратилган бир қатор чора-тадбирлар, хусусан илм – фан ва таълимни ривожлантириш, келгуси ёш авлод учун зарур шарт-шароитлар ва имкониятлар қолдириш билан боғлиқ устивор вазифалар белгилаб олинди.[4]

Олий таълим муассасаларида – "Ҳаётий фаолият хавфсизлиги" мутахассислиги бўйича бакалавр даражасига эга олий маълумотли мутахассисларни тайёрлашда, талабаларда хавфсизлик маданиятини ривожлантиришнинг қуйидаги мақсад ва вазифаларини алоҳида эътибор қаратиш лозим бўлади:

- таълим муассасаларида бахтсиз ҳодисалар сонини камайитириш;
- хавфсизлик ва меҳнатни муҳофаза қилишга бўлган қизиқишни мунтазам таъминлаш;
- хавфсизликка онгли равишда муносабат билдириш;
- янги хавфсизлик воситаларини оммалаштириш;
- ўқув жараёнига замонавий меҳнат муҳити ва хавфсизлик воситаларини жорий этиш;
- ҳар бир иш жойида соғлом ва хавфсиз меҳнат ва ўқув шароитларини яратиш.

Амалиёт шунини кўрсатадики, ҳар қандай соҳадаги фаолият муваффақиятли бўлиши инсоннинг фазилатлари ва қобилиятларига, унинг ҳатти-ҳаракатларининг сабабларига, ўзи ўтказган воқеаларнинг зарурияти ва

самарадорлигига ишонч бағишлайди. Инсонларнинг, умуман, жамиятнинг барча фазилатлари ва хусусиятларини комплекс ривожлантириш фақат ҳаёт фаолияти хавфсизлик маданиятини шакллантириш орқали амалга оширилиши мумкин.

Адабиётлар:

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 8 октябрдаги “Ўзбекистон Республикаси олий таълим тизимини 2030 йилгача ривожлантириш концепциясини тасдиқлаш тўғрисида”ги ПФ-5847-сонли Фармони.
2. Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.Мирзиёевнинг Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисига 2019 йил декабрда йўллаган Мурожаатномаси.
3. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2017 йил 21 августдаги “Аҳолининг фавқулудда вазиятларда ҳаракат қилишга тайёргарлигини оширишга доир қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги 650-сонли Қарори.
4. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2019 йил 12 апрель кундаги “2015-2030 йилларда офатлар хавфини камайтириш бўйича Сендай Ҳадли дастури”ни Ўзбекистон Республикасида амалга ошириш чора-тадбирлари тўғрисидаги 299 – сонли Қарори.
5. Ўзбекистон Республикаси очик маълумотлар портали. Узинфоком.
6. <http://www.wikipedia.org> (Wiki энциклопедия)
7. <http://www.ziyo.net> (Таълим портали)

TEACHING ARCGIS PROGRAM AS AN ACHIEVEMENT OF TECHNICAL SCIENCES

X.T.Murodilov FERGANA POLYTECHNIC INSTITUTE, – Student
A.A.Raxmonov FERGANA POLYTECHNIC INSTITUTE, – Student

Annotation: At present, information technology in all spheres of the Republic, including residential areas, agricultural enterprises, has become so advanced that the improvement of cadastral work has become a requirement of the time. being increased. This article provides a brief overview of the capabilities of ArcGIS and the advantages of ArcGIS in creating agricultural maps.

Keywords: ArcGIS, cadastre, geoinformatics, real estate, information technology, maps.

Today, information technology in all spheres of life, including residential areas, agricultural enterprises, has become so advanced that the improvement of cadastral work has become a requirement of the times, and new programs and modern tools are being used to work with digital maps and increase their efficiency. In particular, in order to further expand and improve the capabilities of working with digital maps in ArcGIS 9.3, the program is working with digital maps.

Developed by ArcGIS 9.3 ESRI, it allows objects to interact with geographic data and attribute data.

In order to organize the level of cadastral services of the Republic in accordance with modern requirements, automated mapping and rapid processing of cadastral data

of existing land and real estate objects at the expense of large funds allocated annually from the state budget. great work is being done on the introduction of the system. Today, as the automated system of cadastral data is still new and emerging, this system mainly serves a narrow range of government purposes. However, in developed countries, cadastral services are not only for public needs, but also the activities of various municipal, utility, marketing, construction, transport, logistics and other service organizations involved in economic relations related to real estate. In countries such as Japan, the United States, the United Kingdom, and Singapore, cadastral information is not limited to the location, physical properties, and general information about the ownership of the property. it is also determined by the impact of natural phenomena such as rain, sun and how it can benefit. For example, cadastral reports also provide information on which multi-storey buildings can be used to generate income from renting billboards or installing solar panels.

As the state pursues a consistent policy of building a legal society based on a market economy, it is important for the population and organizations to develop the infrastructure of the cadastral service for the efficient and rational use of land and real estate and fair taxation of taxes levied on them. is important.

The improvement of cadastral data will improve the living standards of the population in the areas reflected in the cadastral reports and will allow an objective assessment of the market value of real estate. Uzbekistan also pays great attention to the development of the national cadastre service, based on the experience of developed countries.

Therefore, improving the automated system of cadastre of settlements, increasing the quality and speed of cadastral services and ensuring that they meet a wide range of needs will serve to increase the number of users of these services and allocate funds allocated by the state budget for cadastral development. allows you to save.

Improving the automated system of cadastre of rural settlements, increasing the quality and speed of cadastral services, ensuring that they meet a wide range of needs will increase the number of users of these services and save funds allocated by the state budget for the development of cadastre.

Improving the automated system of cadastre of rural settlements, increasing the quality and speed of cadastral services, ensuring that they meet a wide range of needs will increase the number of users of these services and save funds allocated by the state budget for the development of cadastre. . For example, if we measure 15 hectares of rural land along the border, we will not get 15 hectares if we add the account book of each population in the MFY book. To solve these problems, it is possible to solve these problems by creating digital maps using modern electronic equipment. Creating a digital cadastral map of rural areas using the ArcGIS program will be of great benefit to the rural population and our country. For example, if you create digital maps in ArcGIS, you can put all kinds of data in it. This information can be easily used by neighborhood assemblies and other organizations. To use it, the ArcGIS program can open the map and get information about the population and other organizations.




Figure 1. Map of the speaker MFY drawn in ArcGIS.

In conclusion, the use of ArcGIS in the creation of high-resolution digital maps today saves the user time and simplifies the work. The introduction of these digital maps into production will play an important role in increasing productivity.

LIST OF REFERENCES

1. *Zaynobiddinov SA* Geographical information systems "Information bulletin", №3 (1), Geoinformkadastr, T.2002 y.
2. Information from websites: www.colib.ru www.bolshe.ru , www.Fotogram.ru
3. Data of SUE "Land management and real estate cadastre" of Koshpepa district.

ҲАЁТ ҶАОЛИЯТИ ХАВҶСИЗЛИГИНИ ЎҚИТИШДА ТАЛАБАНИНГ ИННОВАЦИОН ҶОЯСИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ

Н.С., Бахриддинов НамМҚИ доцент
С.Т. Атамйрзаева. НамМҚИ ўқитувчи

Аннотация: *Ушбу тезисда ҳозирги техника ва технологиялар ривожланган даврда хавфсизликни таъминлаш асосий масалалардан бири эканлиги, бунинг учун инновацион гоядаги инсонла жамият учун зарурлиги, муаммоларни ҳал этишини урдасидан чиқа оладиган кадрларни тайёрлаш усуллари кўрсатилган.*

Калит сўзлар: *инновация, инновацион сиёсат, инновацион инсон, инновацион таълим, педагогик тактика, маҳорат, мунозарали ўқитиш, компьютер, телефон алоқа воситалари.*

Мамлакатимизда ривожланиб бораётган инновацион сиёсат таълим олдига муҳим ва масъулиятли вазифаларни қўймоқда. 2006 йил июль ойида Санкт-Петербург шаҳрида – Саккизлик гуруҳи томонидан Саммитда қабул қилинган – "XXI асрда инновацион жамият учун таълим" тўғрисидаги ҳужжат гояларни

Йириклаштиришни ҳисобга олишни ва муаммонинг ечимини талаб этади. Фанни ва инновацияни келажакда ривожлантириш стратегиясида – инновацион инсонни яратиш, яъни қайси соҳада ишлашидан қатъи назар у инновация ва янги билимларга мойил бўлган инсонни яратиш мақсад қилиб қўйилган.

Бугунги кунда замонавий инновацион яроқлилик юзага келмоқда. Бу йўналишда интернет маълумотларининг ҳозирги миллий лойиҳалар сайтида – инновацион таълим иборасига катта эътибор берилмоқда ва унда айтилишича инновацион таълим ўқитишнинг янги билимларни яратиш жараёнида амалга оширишни тақозо этмоқда. Бу эса бугунги кунда мавжуд “Инновацион таълим технологиялари” тушунчаси билан “Янги инновацион таълим” тушунчаларини бир-бирдан ажратишни талаб этмоқда.

Замонавий педагогика ўқитувчи билан ўқувчи ўртасидаги муносабатларни яхшилаш, айниқса, ўқувчининг фаоллигини ошириш асосида ўқитишни йўлга қўйишни талаб этади. Бунинг асосида ўқитишнинг дарс жараёни асосий ўринда туради. Қолаверса, юқорида айтиб ўтилган инновацион таълимни йўлга қўйиш заруратини туғдиради.

Дарс жараёнининг асосий босқичлари – олдинги ўтилган дарс мавзусини мустаҳкамлаш, янги мавзуни тушунтириш, янги мавзуни мустаҳкамлаш ва уйга вазифа беришлардан иборат. Бунда ўқувчининг ҳаракат қилиши, янги фанга интилиши, мавзунинг илмийлиги, ҳозирги даврдаги аҳамияти, мавзу асосида жамиятга, қолаверса, мамлакатимиз иқтисодиётига қўшиш мумкин бўлган ҳиссалар каби томонларини ўйлайдиган даражасига қараб, ўқувчиларнинг онгини шаклланиш даражаларига алоҳида эътибор бериш мумкин.

Педагогик тактика, ўқитувчининг педагогик маҳорати, қолаверса, педагогик креативлиги асосида ўқувчилар тавсифини тўла англаб етиши ўқувчига билим беришнинг бошланғич фазаси бўлиб ҳисобланади. Бу билан машғулот даврида ўқувчининг қизиқиши ва интилишларини улар билан кичик гуруҳларга бўлиб ўқитиш давридаги мулоқотдан билиш имкониятлари кенгайтиши кузатилади. Бундай ўқув жараёнида мотивация, билим кучи, ижодкорлик ва тасаввур кучи, ижтимоийлик, фаол ҳаётий позиция, жамоа руҳияти, индивидуалликнинг қиймати, ифода эркинлиги, фаоллик, ўзаро ҳурмат ҳамда демократияга эътибор бериладиган интерфаол таълим шакллари юқори даражада таъминланади.

Таълимнинг замонавий педагогикага хос бўлган асосий интерфаол шакллари билан ҳисобланган “Мураккаб ва мунозарали масалалар ҳамда муаммоларни муҳокама қилиш (позицияни, фикрлар микёсини, энг муҳим ўриндаги масалаларни қамраган ҳолда)” шакли ўқувчиларни инновацион ғоялар сари йўллашда муҳим ҳисобланади. Бунинг амалга оширилишида учта босқич мавжуд:

- дастлабки, яъни ўқувчининг ғояларини ўрганиш босқичи;
- ўрта бўгин – ўқувчининг биринчи ёки иккинчи дарс давридаги фикрларини ўрганиш босқичи;
- кулминацион – ўқувчининг фикрлари ўрганилган ҳолда, энди уларга инновацион йўналишдаги ғоялар бўйича фикрлашга ўтиш босқичи.

Дастлабки боскичда ўқитувчининг кичик гуруҳлардаги иштирокини таҳлилий бошқариш асосида улар орасидан жиддий фикрлайдиганларини саралаб олинади (бу фақатгина ўқитувчи томонидан алоҳида белгилаб қўйилади). Ушбу саралаш маҳсули бўлган илғор ғояли ўқувчиларга энгил туркумдаги муаммоли савол билан мурожаат этиб, яъни, савол бериш ёки суҳбат туридаги мулоқот асосида уларнинг фикрлашларини кенг қўламда бўлишлиги асосида иккинчи саралаш амалга оширилади. Бунда мавзунинг моҳиятини англаб етишгина эмас, балки, инновацион моҳиятли фикрлар баён этилишигача эришилиши мумкин. Ҳаёт фаолияти хавфсизлиги фанига буни тадбиқ қилишнинг энг осон усулларидан бири фанга доир бўлган зарарли ва хавфли омилларнинг уй шароитидаги юзага келиши мумкин бўлган турлари, уларнинг инсон организмига таъсир этувчи хоссалари ва оқибатда юзага келадиган саломатликнинг бузилиши кўринишларини акс эттириш мумкин. Бунда талабанинг фикрлаши ортиб боришига қараб, агар ҳақиқатда мазмунли жавоб бера оlsa, албатта, айнан шунга ўхшаш зарарли ва хавфли омилларнинг ишлаб чиқариш корхоналарида учраши ва унинг оқибатларини билиш бўйича савол-жавобларга ўтиш мумкин.

Кейинги дарсларда иккинчи боскич, яъни иккинчи дарсданок олдин белгилаб олинган ўқувчилар билан савол-жавоб ёки оғзаки мулоқотлар давомида илмий асосланган ҳолдаги, ёки илмийликка яқин бўлган ғояли ўқувчилар сараланади. Бунинг таг замирида инсонга салбий таъсир кўрсатувчи омилларнинг инсон организмидаги ўзгаришларни юзага келтириши, зарур бўлганда, айнан кимёвий, механик, физик ёки биологик ўзгаришлар бир-биридан фарқланган ҳолда асосланишига эътибор қаратилади.

Учинчи боскичда – ўқувчиларни фикрлаш доираларини англаб етган ҳолда ўқитувчи ушбу фикри инновацион йўналишга тушадиган ўқувчилар билан қўшимча мулоқотлар асосида юқорига интиштириш бўлади. Бу боскичда инсонга салбий таъсир этиши мумкин бўлган омилларни бартараф этишнинг оддий ҳамда замонавий техника ва технологиялар асосида бартараф этиш усуллари бўйича мулоқот ўтказилади. Бу боскичда асосан муаммовий савол ва топшириқлар, қолаверса, педагогик технологиянинг тескари мулоқот усулларини қўллаб шугулланиш яхши натижа беради.

Илғор йўналишдаги инновацион ғоялар яратилишининг асосида ана шу санаб ўтилган боскичлар муҳим ҳисобланади. Бироқ, ўқувчининг тавсифий томондан ёндошув асосида ўрганилганида уларнинг машғулотдан машғулотгача бўлган оралиқда “Сўниш” жараёни кузатилиши мумкин. Асосий ва бош муаммо талабанинг ана шу даврда фанга оид, ўша мавзуга оид инновацион ғояларини яратувчанликларини сақлаб қолиш ҳисобланади.

Талабаларнинг инновацион йўналишдаги ғояларини сақлаб қолишнинг энг мақбул варианты компьютер технологияси, телефон алоқа воситаларидан фойдаланиш ҳисобланади. Бунда ўқувчининг дарс жараёни даврида билдирган ғояларига мос фан ва технология, қолаверса, техника, ишлаб чиқариш соҳаларидаги янгиликлардан ўқувчини хабардор қилиб борилади. Айнан ҳаёт фаолияти хавфсизлиги фанини илмий асослаш бўйича “инсон-машина-ишлаб чиқариш” тизими асосида ишчининг саломатлиги бузилиши натижасида

маҳсулот ишлаб чиқаришнинг пасайишини кўрсатувчи иқтисодий таҳлилларни тушунтирилиши билан талабани фанга бўлган муносабатларини янада яхшилашга эришилиши мумкин. Энг оддий тушунтиришда бир ишчига тўғри келувчи маҳсулот миқдорий кўрсаткичларини талабага тушунтирилишида ишчи ишламаган кун учун ўша маҳсулот йўқ деган ҳолат билан боғлаш мумкин.

Ўқувчида инновацион гоёни шакллантириш асосида уларни илмий изланишларга йўналтириш ҳам осон, ҳам қулай бўлиб ҳисобланади. Қолаверса, бу усулни исталган фан бўйича қўллаш мумкин. Айниқса, аниқ фанлар йўналишида қўллашнинг яна бир имконияти шундаки, ютуқ ва янгиликларни аниқ мисоллар асосида тушунтириш мумкин. Худди шу каби ҳаёт фаолияти хавфсизлигини билиш билан ишчи саломатлиги пасайиши олди олинishi корхона, қолаверса мамлакатнинг ривожланишида муҳим ҳисобланиши асос қилиб олинishi мумкин.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Оконь В. Введение в общую дидактику. Пер. с польск. -М. Высш.шк., 1990. -382 с.
2. Педагогик атамалар луғати. Тошкент. —Фан, 2008 – 231 б.
3. Толипов Ў., Усмонбоева М. Педагогик технологияларнинг татбиқий асослари. – Т.: 2006. – 156 б.

ТАЛАБАЛАРНИ УМУМКАСБИЙ ФАНЛАР НЕГИЗИДА ИННОВАЦИОН МУҲАНДИСЛИК КАСБИЙ ФАОЛИЯТИГА ТАЙЁРЛАШ

М.А.Иброхимов НамДУ ўқитувчи
М.М.Жумаева НамДУ талаба

АННОТАЦИЯ: Ушбу мақолада олий таълим муассасаларида бўлажак муҳандисларнинг инновацион касбий компетенциялари (лидерлик, технологик, касбий камолот) ва муҳандислик парадигмалари (темпинтеллектуал ўзгариш ва экстремал мослашувчанлик) ни интегратив ёндашув асосида трансформациялаш орқали умумкасбий фанларини ўзлаштириш имкониятлари (тежамкорлик ва ихчамлилик) кенгайтириш ҳақида фикр юритилган.

АННОТАЦИЯ: : В этой статье расширены возможности (экономичность и сжатость) усвоения общепрофессиональных дисциплин посредством трансформации на основе интегративного подхода к инновационным профессиональным компетенциям (лидерство, технологическое, профессиональное совершенство) будущих инженеров и инженерным парадигмам (темпинтеллектуальное изменение и экстремальная приспособляемость) в высших образовательных учреждениях

Annotation: This article discusses the opportunities for future engineers to expand their professional skills (economy, efficiency) through the transformation of innovative professional competencies (leadership, technological, professional maturity) and engineering paradigms (tempointellectual change and extreme flexibility) in higher education institutions on the basis of an integrated approach.

Мамлакатимизда замонавий фан, техника ва технологияларни ривожлантиришга йўналтирилган бозор иқтисодиёти механизмларини ишлаб чиқиш ва уларни мақсадли амалга ошириш борасида салмоқли ишлар олиб борилди. Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси¹ да белгиланган “Илмий-тадқиқот ва инновация фаолиятини рағбатлантириш, илмий ва инновация ютуқларини амалиётга жорий этишнинг самарали механизмларини яратиш” ҳамда Инновацион ривожланиш вазирлигининг асосий фаолият йўналишларидан бўлмиш таълим тизимида инновацияларни ишлаб чиқишни таъминлаш² юзасидан белгиланган устувор вазибалари олий таълим тизимида рақобатбардош муҳандис кадрларни инновацион фаолиятга тайёрлаш заруриятини тақозо этмоқда.

Жаҳонда инновацион муҳандислик касбий фаолияти ва унинг ривожланиш назариялари таҳлил қилинган, инновацион муҳандислик касбий фаолиятига бўлган қобилият тушунчасининг мазмун-моҳияти очиб берилган, муҳандислик компетенциялари ва муҳандислик таълимининг ривожланиш аспектилари ҳамда муҳандислик парадигмалари ва замонавий муҳандисларга қўйилган талаблар ўрганилган, талабаларда инновацион муҳандислик касбий фаолиятига оид компетенцияларни шакллантирувчи фанлар тавсифи келтирилган.

талабаларни инновацион муҳандислик касбий фаолиятига тайёрлашда фанлараро интеграция таҳлил қилинган, муҳандислик касбий фаолиятига инновацион ёндашувни ривожлантирувчи таълим тамойиллари ҳамда талабаларни инновацион муҳандислик касбий фаолиятга бўлган қобилиятларини ривожлантирувчи модел такомиллаштирилган, инновацион муҳандислик касбий фаолиятига тайёрлашда касбий компетенциялар ва муҳандислик парадигмаларининг қиёсий таҳлили ва бўлажак муҳандисларни инновацион муҳандислик 13 касбий фаолиятига бўлган қобилиятларини ривожлантирувчи методикалар ишлаб чиқилган.

Муҳандислик касбий фаолиятига бўлган қобилиятни ривожлантирувчи асосий тамойиллар – интеграция, фундаментал яхлитлик ва касбий йўналтирилганлик тамойиллари эканлиги кўрсатилиб, улар атрофлича таҳлил қилиб берилган. Шу ўринда дидактик тамойилларидан талабаларда муҳандислик касбий фаолиятга инновацион ёндашувни шакллантирувчи умумкасбий предметлар таълимига тегишли бўлган: фан ва таълим яхлитлиги; касбий йўналтирилганлик; назария ва амалиётнинг боғлиқлиги, ҳаётдан таълим олиш; тизимлилик ва изчиллик тамойиллари; фанлараро алоқадорлик; таълимда кўргазмалилик; тушунарлилик; индивидуллаштириш ва табақалаштириш; онглилик ва фаоллик; ўқиш-ўрганиш ва мотивга нисбатан ижобий муносабатни яратиш тамойиллари алоҳида ажратиб кўрсатилган.

Бундан ташқари, уларни амалга оширишда муҳандислик услубиятлари (агрегация, декомпозиция) асосида умумкасбий фанларини ўқитишда интерфаол таълим методларини (“technical design”, “visual thinking”, “incident”) қўллаш ва дастурий таълим воситаларидан фойдаланиш орқали инновацион муҳандислик касбий фаолиятига тайёрлаш методикаси такомиллаштирилган муҳандислик услубиятлари (агрегация, декомпозиция) асосида умумкасбий

фанларни ўқитишда интерфаол таълим методларини (“technical design”, “visual thinking”, “incident”) қўллаш ва дастурий таълим воситалар (компьютер ва техник воситалар, тарқатма материаллар, амалий ишланмалар) ва шаклларни (маъруза, амалий, лаборатория машғулотлари, мустақил таълим, тугарак, курс лойиҳаси, битирув малакавий иши) ни назарда тутати. Натижавий баҳолаш компоненти эса талабаларнинг инновацион муҳандислик касбий фаолиятига тайёргарлигини адекват мезонлар (мотивацион, когнитив, инновацион фаолиятли) асосида комплекс баҳолаш юзасидан репродуктив, продуктив, қисман изланувчанлик ва креативлик каби даражаларини шакллантиришнинг ўқув-услубий таъминоти такомиллаштирилган ва тажриба синов ўтказиш орқали математикстатистик усулда ишлаб чиқилган Амалга оширилган тадқиқотлар натижасида олий таълим муассасалари талабаларида умумкасбий фанларга боғлиқ ҳолда талабаларни инновацион муҳандислик касбий фаолиятига тайёрлаш методикаси такомиллаштирилди

Ташкилий компонентда эса олий таълим муассасаларида бўлажак муҳандисларнинг инновацион касбий компетенциялари (лидерлик, технологик, касбий камолот) ва муҳандислик парадигмалари (темпинтеллектуал ўзгариш ва экстремал мослашувчанлик)ни интегратив ёндашув асосида трансформациялаш орқали умумкасбий фанларини ўзлаштириш имкониятлари (тежамкорлик ва ихчамлилик) кенгайтирилган олий таълим муассасаларида бўлажак муҳандисларнинг инновацион касбий компетенциялари (лидерлик, технологик, касбий камолот) ва муҳандислик парадигмалари (темпинтеллектуал ўзгариш ва экстремал мослашувчанлик) ни интегратив ёндашув асосида трансформациялаш орқали умумкасбий фанларни ўзлаштириш имкониятлари (тежамкорлик ва ихчамлилик) кенгайтирилган.

Моделнинг методик жараёنли компоненти талабаларни ишлаб чиқаришдаги касби нуқтан назаридан инновацион муҳандислик касбий фаолиятга тайёрлашда пайдо бўладиган муаммо ва вазифаларни ҳал этишга ўргатишда инновацион муҳандислик касбий фаолиятига тайёрлашнинг педагогик шарт-шароитлари (муҳандислик парадигмалари ва касбий компетенцияларини уйғунлиги ҳамда фаркли жиҳатларини аниқлаш; умумкасбий фанлар таълими жараёнида инновацион муҳандислик касбий фаолиятига тайёрлашда замонавий муҳандислик парадигмалари ва касбий 14 компетенцияларига асосланиб методик тизим моделини ишлаб чиқиш; инновацион ёндашувлар асосида инновацион муҳандислик касбий фаолиятига тайёрлаш методикаларини ишлаб чиқиш ва уни таълим жараёнига татбиқ этиш) аниқланди. Инновацион муҳандислик касбий фаолиятига тайёрлашнинг педагогик шарт-шароитларини аниқлашдан мақсад касбий компетентли муҳандисларни тайёрлаш, вазифалари эса умумкасбий билим асосларини эгаллаш ва касбий компетентлиликни шакллантиришдан иборат.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Курбанов Ш., Сейтхалилов Э. Национальная программа по подготовке кадров. – Тошкент Т., 2000.
2. Ходжабоев А.Р. Научно-педагогические основы учебно-методического комплекса подготовки учителя труда. – Тошкент, 1992.

3. Исмоилова З.К. Талабаларнинг касбий педагогик малакаларини шакллантириш. //– Т., 2009 йил.
4. Олимов Қ.Т. Махсус фанлардан ўқув адабиётларини янги авлодини яратишнинг назарий-услубий асослари.– Тошкент, 2005.
5. Муслимов Н.А. Касб таълими ўқитувчиларини касбий шакллантиришнинг назарий-методик асослари. // – Тошкент Т., 2007.
6. Ҳамидов Ж.А. Бўлажак касб таълими ўқитувчиларини тайёрлашда ўқитишнинг замонавий дидактик воситаларини яратиш ва қўллаш технологияси. //– Тошкент, 2017.

УМУМИЙ ЎРТА ТАЪЛИМ МАКТАБИДА ЎҚУВЧИЛАР КРЕАТИВ ЁНДАШУВИНИНГ УЗВИЙЛИГИ ВА УЗЛУКСИЗЛИГИ

**Олимов Б.У. -Қўқон давлат педагогика институти п.ф.н., доцент,
Турсунов Ж.Э. -Қўқон давлат педагогика институти тадқиқотчи**

Аннотация: Ушбу мақолада умумий ўрта таълим мактабларида ўқувчилар креатив ёндашувининг узвийлиги ва узлуксизлиги масаласи ёритилган

Калит сўзлар: узвийлик, узлуксизлик, креатив ёндашув, дизайн талаблари, қобилият, усул, шакл.

Аннотации: В статье рассматривается вопрос преемственности и преемственности творческих подходов учащихся общеобразовательной средней школы.

Ключевые слова: преемственность, непрерывность, творческий подход, требования к дизайну, способность, метод, форма.

Annotation: This article addresses the issue of continuity and continuity of students' creative approaches in general secondary schools.

Keywords: coherence, continuity, creative approach, design requirements, ability, method, form.

Узлуксиз таълим тизимида узвийликни таъминлаш борасида бир қатор муаммоларнинг борлиги ҳозирги кундаги таълим тизими босқичларидаги мазмунга ўзининг таъсирини кўрсатмасдан қолаётганлиги айниқса, умумий ўрта таълим мактабларидаги таълим сифати ўқувчиларнинг ижодий, хилима-хил фикрлашлари билан уйғунлашиши талаб даражасида эмаслиги муаммонинг долзарб эканлигига омил бўлиб хизмат қилади. Зеро, ўқувчиларнинг қобилиятларини, жумладан креатив қобилиятларини эътиборга олиб дидактик материалларни тadbик этишда узвийлик ва узлуксизлик тамойилиги амал қилинсагина зарурий ва меъёрадаги кўрсаткичларга эришиш мукаммал. Таҳлил ва тadbикот натижаларига кўра қиёсланиш, солиштириш жараёнида бир қатор муаммоларга дуч келдик:

- мавзулар такрорланиши - узлуксиз таълим турлариаро босқичларида мавзуларнинг айнан ёки мазмунан такрорланишининг мавжудлиги;

- айрим мавзуларга соат ҳажмининг кўплиги - таълим босқичларида айрим мавзуларга ортикча вақт ажратилганлиги. Айниқса, назарий машғулотларга кўп вақт ажратилган;

• вақтнинг бесамар сарфланиши - такрорланиш ва ортиқча вақт эвазига ўқитувчи ва ўқувчининг вақти бесамар сарфланиши;

• узвийликнинг йўқлиги - узлуксиз таълим турлариаро фан хусусиятидан келиб чиққан ҳолда объект ва субъект танлови ва мазмунида номуносибликлар мавжудлиги, халқаро тадқиқотлар бўйича мавзуларни киритилмаганлиги, STEAM ёндашувлар инobatга олинмаганлиги. тадқиқотнинг долзарблигига туртки бўлди.

Таълим сифати ва самарадорлигини оширишда ўқитишнинг замонавий усуллари, шакл ва воситалари ва муаммоли ўқитиш муҳим ўрин тутди. Бу эса ўқувчиларни креатив фаолиятига ақлий жиҳатдан тайёрлашда замон талаблари асосида дастурлар ишлаб чиқиш ва уни ташкил этиш ҳамда амалга ошириш усулларини такомиллаштириш борасида илмий-педагогик изланишлар олиб боришни тақозо этади.

Бугунги кунда ўқитувчи томонидан таълим мақсади ва вазифаларини амалга ошириш учун ривожланиш даражаси, уларнинг таълим мотивлари, ўрганилаётган мавзу хусусиятларига мос келувчи дарс олиб бориш методикасини ишлаб чиқиш муҳим вазифа сифатида турганлиги технология дарслари машғулотларига татбиқи юзасидан олиб борилаётган ишларнинг мазмуни билан ҳамбарчас боғлиқ. Мазкур масалаларни илмий-педагогик нуқтаи назардан ўрганиш, умумий ўрта таълим мактабларида технология машғулотларида ўқувчиларнинг таълим олишга бўлган эҳтиёжини эътиборга олиш ва етарли шарт-шароитлар яратиб бериш зарурати, машғулотлар давомида ўқувчилар томонидан тайёрланадиган буюмларни эстетик ва дизайн талабларига жавоб беришидан ташқари уларда креатив қобилиятларини шакллантириш методикасини ишлаб чиқиш масаласига эътибор қаратиш, уни амалга ошириш, назорат қилиш, ўқув-методик таъминоти, адабиётлар, тавсиялар, ишланмалар, йўриқномалар, услубий кўрсатмаларни ишлаб чиқиш, умумий ўрта таълим мактабларида технология дарсларида ўқувчиларни дизайн лойиҳалар воситасида узвий равишда эстетик дидини, жумладан, креатив қобилиятларини шакллантириш долзарб муаммолардан бири ҳисобланади. Зеро, ўқувчилар креатив қобилиятларини узвий ва узлуксиз жиҳатдан шакллантириш ва креатив кўникмаларини ҳосил қилиш учун амалдаги ДТС ва ўқув дастурида келтирилган мазмунга мувофиқ олиб борилаётган машғулотларни ташкил этиш ва ўтказишнинг самарали йўлларини излаб топиш зарурлиги таълим жараёнидаги галдаги вазифалардан биридир. Шу боис технология дарсларида узвийлаштирилган мавзулар кесимидаги дарс ёки машғулотларнинг ишланмаларини тавсия этиш орқали тадқиқот ишининг услубий масалаларини ҳал этишни мақсадга мувофиқ деб билган ҳолда бир қатор тажриба-синов ишлари амалга оширилмоқда. Кузатишларимиздан шу нарса маълум бўлдики, умумий ўрта таълим мактабларидаги ўқувчиларнинг ўзига хос шахсий-психологик ва индивидуал хусусиятларига кўра амалдаги ДТС мазмунида белгиланган эгалланиши керак бўлган билим, кўникма ва меҳнат малакаларининг даражасини аниқлаш ва шунга мос келадиган, қайсики, уларнинг шу соҳадаги кўрсаткичларини ижобий томонга ўзгартиришга омил бўлиб хизмат қилувчи узвийлик ва узлуксизликни таъминловчи методикани ишлаб чиқишни лозим деб топдик.

Ҳозирда умумий ўрта таълим мактабларидаги олиб борилаётган технология дарслари мазмунида нисбатан олиб қаралганда қарийиб 75% амалий машғулот шаклидаги ўқитиш жараёнида фойдаланилади. Биз мазкур ишларнинг татбиқи юзасидан V-VII синфларда технология дарслари машғулотларида мавзуларнинг тизимли тартибда жойлаштирилишига асосланган узвий боғланган уларнинг узлуксизлиги таъминланган дидактик материаллар асосида ўқувчиларнинг креатив қобилиятларини юзага чиқаришда фойдаланиладиган ижодий фикрлаш психодиагностика, шакли тест ва топшириқларни тавсия этилиши тажриба сифатида кўрилди.

V синфда ўқитувчи ясаладиган буюмнинг расми ёки макетини ўқувчилар эътиборига ҳавола этиб, тайёрланадиган буюмнинг бадиий-эстетик хусусиятлари (ташқи кўриниши, дизайни, шакли ва сифатлари) ни тушунтиради. Ўқувчилар тайёрланадиган буюмнинг технологик харитаси ҳамда техник расмини чизиб, оддий деталларнинг эскизларини чизиш ва чизмаларини ўқишни ўргатиш ишлари юзасидан улардаги креатив қобилиятларини синаш орқали машғулотлар олиб борилади. Мазкур машғулотлар жараёнида ўқувчиларда оддий буюмларни элементар чизмаларнинг дизайн лойиҳалар асосида чизилганлиги ҳамда улардаги креатив қобилиятларини ривожлантиришга хизмат қиладиган мувафаккиятли шартларидан бири – алоҳида тайёр деталлар ва буюмлар тайёрлашга оид бўлган шакллар билан боғлиқ бўлган топшириқлар жамланмасини ўзлаштиришини камраб олади. Шу орқали ўқувчиларда бир-бирига ўхшамаган ҳолатлардаги креатив қобилиятлар даражаси аниқланади.

VI синф ўқувчиларини дизайн лойиҳалар воситаси орқали тайёрланадиган буюмнинг тузилиши ҳақида тушунча бериш ҳамда улардаги креатив қобилиятларини шакллантиришга ёрдам берувчи метод ва воситалардан фойдаланиш кўзда тутилади. Шунингдек, ўқувчилар томонидан тайёрланадиган деталларни дизайн талаблари асосида ясалиши билан биргаликда улардаги креатив қобилиятларини шакллантиришга йўналтирилган амалий иш жараёнлари билан ҳам таништирилади.

VII синфда ўқувчилар технология дарслари ўқув дастуридан ўрин олган мураккаброк буюм ва деталларни тайёрлаш жараёнида шу тоифадаги масалаларни ечади. Еттинчи синф ўқувчилари тайёрланадиган буюмларни дизайн лойиҳалар воситасида яшаш масалаларини анча енгил амалга оширади. Ясаладиган буюмни тайёрлаш жараёнида V-VI синфларда ўзлаштирган меҳнат малакалари орқали улардаги креатив қобилиятлари анча яхши намоён бўлади. Бундан ташқари, уларда бир детал ёки буюмни муқобил яшаш вариантлари ва уларни турли хил жойлаштириш масалалари кўзда тутилади.

Олиб борилган кузатишларимиздан шу нарса маълум бўлдики, технология дарсларида ўқувчиларни ижодий фаолиятини ташкил этиш педагогик ва психологик томондан ўқувчилар учун жуда мураккаб жараёнлардан биридир. Чунки, бу жараёнда ўқувчидан бирор бир масала ёки топшириқни моҳиятини англаш, фикрлаш, ясаладиган буюмни фазовий тасаввурда шакллантира олиш ва уни амалда тайёрлай олиш каби ақлий ва жисмоний ишларини бажариш қобилияти талаб этилади. Бизга сир эмаски, кўпчилик ўқувчиларда юқоридаги қобилият яқлит ҳолда мужассамлашмаган.

Айниқса, 5-7-синф ўқувчилари мана шундай ижодий ишлар жараёнига киришиб кетиши қийин бўлади. Ўқувчиларни бундай ижодий амалий фаолиятга жалб этиш ишларини енгиллаштириш учун уларни мазкур жараёнга олдиндан тайёрлаш, ижодий фикр юритишга, тасаввур қилишга ва ишлашга ёрдам берувчи усуллардан фойдаланиш лозим.

Маълумки, ўқувчиларни ижодий жараёнга жалб қилишнинг бир қатор усуллари мавжуд. Буларга расми топишмоқ, содда савол, турли бошқотирма шаклидаги усулларни кўрсатиш мумкин. Булардан ташқари, биз илмий тадқиқот ишминиз маҳсули сифатида геометрик шакли тест материалларини ишлаб чиқиш орқали ўқувчиларни ижодий фаолиятини яъни уларни креатив қобилитини ривожлантиришга хизмат қилидиган қуйидаги геометрик шакли тест усулини кўриб чиқамиз. Бу геометрик шакли тестнинг бошқа одатдаги тестлардан ажралиб турадиган томони савол ҳамда жавоблар турли геометрик шакллардан ташкил топганлиги бўлиб, ўқувчида бир томонлама фикрлашдан йироқлашиб савол орқали жавобни ёки кўрсатилган жавоб орқали тўғри жавобни белгилаш мумкин бўлади. Бундан ташқари, мазкур геометрик шакли тест орқали ўқувчиларда фазовий тасаввур қилиш, ижодий фикрлаш ҳамда топоғонлик каби тафаккур қилиш хислатларини ривожлантиришга хизмат қилади.

Биз олиб борган тадқиқот ишларига оид тажрибаларга асосланиб, ўқувчиларнинг креатив қобилиятларини аниқлаш усуллари мос келувчи тартибда сараланди. Самара берадиган усулларнинг айримлари юзасидан дарсда қўлланиладиган дидактик материалларни тақдим этишни лозим деб топдик.

Биринчи геометрик шакли тест топшириғи оддий кўринишда бўлиб, асосан геометрик шакллар кетма-кетлигидан тузилган. Бунда ўқувчи катакдаги сўроқ белгиси ўрнига мос келадиган шаклни берилган жавоблардан келиб чиққан ҳолда белгилайди. Бу жараёнда ўқувчидан теран фикрлаш ва топқирлик билан бир қаторда математика фанидан олган билимларидан фойдаланиш талаб этилади. Кейинги келтирилган геометрик шакли тест материаллари оддийдан мураккабга принципи асосида шакллантириб борилади. Геометрик шакли тест материаллари асосида ишлаб чиқилган қуйидаги намуналарни келтирмоқчимиз. Сиз ҳам ушбу геометрик шакли тестларга берилган жавобларнинг ичидан тўғри жавобни топиб кўринг ва мулоҳаза қилингчи!

Бу борада ўзингиздаги креатив қобилиятининг ривожланиши қай даражада эканлиги тўғрисида ўз-ўзингизга баҳо беришингиз мумкин.


Геометрик шакли тест материалларидан намуналар (оддийдан мураккабга принципи асосида келтирилган):

Ўқувчилар мазкур тестларни бажаришда қуйидагиларга талабларга амал қилади:


1. Саволларнинг умумий миқдори 40 та ва синов муддати 25 дақиқа.
2. Бирор саволни топа олмасангиз, вақтни ўтказмасдан кейинги саволга ўтинг.
3. Жавобларингизни китобчага эмас, алоҳида жавоблар вароғига белгиланг.

4. Ҳар бир саволнинг фақатгина битта тўғри жавоби бор. Бир савол учун биттадан кўп жавоб белгиланса бу саволга нотўғри жавоб берилган деб ҳисобланади.
5. Тест-синов бошлангандан кейин ҳеч ким билан гаплашманг, кўлингизни кўтариб, маъсул ўқитувчини ёнингизга келишини кутинг.


Биринчи ва иккинчи шакл орасидаги мантиқий боғланишни ҳисобга олган ҳолда, учинчи шакл билан берилган жавоб вариантлари орасидаги ўхшаш алоқани топинг.




1.




2.



3.



4.



5.

Юқорида келтирилган геометрик шаклли тест материалларини бир нечтасини келтириш мумкин. Ушбу дидактик материаллар технология дарсларида ўқувчиларни креатив қобилиятларини ривожлантиришда муҳим аҳамият касб этибгина қолмасдан, ташкил этиладиган амалий машғулотларнинг кейинги босқичларида буюмларнинг лойиҳаларини маълум дизайн асосида тайёрлаш имкониятини яратишга хизмат қилади.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.М.Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Мурожаатномаси. Тошкент, 2020 йил 24 январь.
2. Ўзбекистон Республикасининг "Таълим тўғрисида" ги қонуни, №ZRU-637 23.09.2020, <https://lex.uz/ru/docs/5013009>
3. Таълим ва тарбия тизими: ривожланишининг янги босқичи муҳокама

қилинди <https://president.uz/ru/lists/view/3924>

4. Бабанский Ю.К. Интенсификация процесса обучения. – М.: Педагогика, 1987. – 78 с.

5. Йўлдошев Ж.Ф. Таълим янгиланиш йўлида. Т.: “Ўқитувчи”, 2002. – 207 б.

6. Узвийлаштирилган Давлат таълим стандарти ва ўқув дастури. – Тошкент. “Янгийўл полиграф сервис”, 2010. – 292 б.

7. Йўлдошев Ж.Ф., Усмонов С.А. Педагогик технология дарслари асослари. – Т.: Ўқитувчи, 2004. – 236 б.

AXBOROT TEXNOLOGIYALARINI TA'LIM JARAYONIGA TADBIQ ETISH ORQALI O'QUVCHILARDA IJODIY-IJTIMOIIY FAOLLIKNI OSHIRISH

Muhitdinova J.R. -NamDU kata o'qituvchisi

Nabiyeva G. -NamDU talabasi

Bugun har bir fikrlovchi inson XXI asrning, yangi asrda o'zi, yaqinlari, kasbdoshlari, tengdoshlarining jamiyatdagi o'rni va salohiyati qanday bo'lishini o'ylashi tabiiy.

O'tgan asrning ahamiyati, qadr-qimmatini, tarixiyligi yana shundaki, O'zbekiston mustaqil davlat bo'ldi. Mustaqil davlat o'zining asosiy qonuni Konstitutsiyasi bilan kafolatlangan bir qancha muhim tarixiy hujjatlariga ega bo'ldiki, ular orasida O'zbekistonda «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» alohida o'rin tutadi. Undagi g'oyalar, avvalo, XXI asrda yashaydigan, ijod qiladigan, Vatan va yurt mustaqilligini mustaxkamlovchi insonlarning manfaatini ifodalaydi. Dasturda e'tirof etilgan kadrlar tayyorlash tizimini rivojlantirishning asosiy yo'nalishlarida shu narsa alohida belgilanadiki, ta'lim tizimining yaxlit axborot makonini vujudga keltirish ta'lim – tarbiya dasturlarining intellektuallashuvini ta'minlaydi.

O'tgan asrni sarhisob qilib, yangi yuz yillik va ming yillikning qanday bo'lishini tasavvur etarkanmiz, uning eng muhim xususiyatlaridan biri sifatida yangi ta'lim dasturlarida nazarda tutilayotgan zamonaviy axborot texnologiyalari, ta'limni komp'yuterlashtirish va komp'yuterlash tarmoqlari tizimida ta'lim jarayonini axborot bilan ta'minlashning rivojlanishini nazarda tutmoqdamiz. Zero, milliy dasturni ro'yobga chiqarishga doir tashkiliy ishlarda e'tirof etilganidek, «Ta'limni axborot bilan ta'minlash tizimini shakllantirish va rivojlantirish, uni jahon axborot tizimi bilan bog'lash ommaviy axborot vositalarining ta'lim sohasidagi vazifalarini belgilash» malakali kadrlar tayyorlashning muhim mezonlaridandir.

Xo'sh, axborot texnologiyalari nimayu, ularning inson idroki, tafakkuri va ongiga singdirishda nimalarga e'tibor qaratilishi lozimq

Bugun biz yangi texnologiyalarga sarflanayotgan mablag'lar qay darajada o'zini oqlashini, ularni ta'lim sifatini oshirish, axborotlar va telekommunikatsiyasi texnologiyalar hamda masofali ta'limni rivojlantirishga ta'sir qanday bo'lishini tasavvur qila olishimiz shart. Ko'p hollarda «ta'limning komp'yuter texnologiyalari» iborasi «axborot texnologiya»lari iborasi bilan almashtirilib yuboriladi. Bu o'rinda asosan an'anaviy pedagogik texnologiyalardan farqli, komp'yuter tarmoqlariga

ulaingan, dasturlashtirilgan, xalqaro aloqalarni ham ta'minlashga qodir tizim nazarda tutilmoqda.

SHu o'rinda biz axborot texnologiyalarni ta'lim jarayoniga singdirishning afzalliklarini e'tirof etishni xoxlardik.

Birinchidan, ta'lim jarayonida komp'yuterlar va telekommunikatsiya vositalarining qo'llanilishi talabalarning ular bilan bemalol ishlay olishlari pedagogik jarayondagi eng muhim kamchiliklardan hisoblangan sub'ektivizmni cheklaydi. Masalan, agar talabani javobi yoki bevosita o'zlashtirishni baxolash o'qituvchining talaba shaxsiga munosabati ta'sirida kechgan bo'lsa, mashinalar vositasida beriladigan ma'lumotlar ob'ektiv xarakterga ega bo'ladi

Ikkinchidan, komp'yuter orqali bolaga yetkazilayotgan ma'lumotni zarurat bo'lsa, qayta - qayta chaqirish va takrorlash imkoniyati ham bor. Bu narsa ayrim talabalarda, guruh sharoitida ishlaganda kuzatiladigan iymonish kabi sifatning namoyon bo'lmasligini ta'minlaydi.

Uchinchidan, har bir professor o'qituvchining o'ziga xos darsni tushintirish uslubi didaktik uslubi mavjud. Komp'yuter orqali yoki masofali aloqa vositalaridan foydalanish ular ichidagi samarasiz uslubiyotlarga barham beradi.

To'rtinchidan, yangicha axborotlarni uzatish texnologiyalari, bilimlarni o'zida ifoda etib, unda sxemalar, rasmlar, jadvallar, grafik va diagrammalarga keng o'rin beriladi. Bu narsa yoshlarda obrazli xotirani ancha jonlantirib, eslab qolish qobiliyatini kuchaytirish mumkin.

Beshinchidan, ushbu axborot vositalaridagi ma'lumotlarni kichik hajmli disketlarga yozib olish kerak joyda ulardan foydalanish mumkin. Bu ham vaqtni ham mablag'ni tejaydiki, iqtisodiy jihatdan yuzlab tirajlarda chop etilayotgan kitoblardan arzon bo'ladi. eng muhimi, manfaatdor auditoriya xohlagan ma'lumotini bir hil sifat va tizimda olishi mumkin bo'ladi.

Nihoyat, ular axborot asri deb e'tirof etilayotgan yangi asrda yashab ijod qiluvchi yoshlarning ongini o'stiradigan, ulardagi texnik vositalardan chuchish xissini yo'qotadi. Xullas, ta'lim muassasalarining bu narsaga sarflangan mablag'lari bexuda ketmasligi extimoldan holi emas.

Hech kimga sir emaski, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Mirzo Ulug'bek, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Imom al-Buxoriy va boshqa ko'plab buyuk bobokalonlarimiz yashagan davrlarda axborot texnologiyalari bo'lmasada yuksak salohiyatli asarlar yaratilgan va biz ularni madaniy meros sifatida avaylab e'zozlab kelmoqdamiz.

Biz yashayotgan davrda esa barchamiz uchun axborot va kommunikatsiya texnologiyalarining eng so'nggi mahsulotlaridan foydalanish imkoniyati mavjud. Ishlab chiqarish sohalari ham bundan mustasno emas. Balki aksariyat kompyuter texnologiyalarining so'ngi yangiliklarini dastlab aynan ishlab chiqarish jarayoniga tadbiq etilmoqda.

Bunga misol qilib Respublikamizda yengil sanoat sohasida qator ishlab chiqarish korxonalaridan "UzTeks", "T-cotton", hususan Namangan shahar hududida joylashgan "Istiqlol-dizain", "Zamin-lyuks", "Tekstil servis", "Sanam" "Rauf" kabi tikuvchilik ishlab chiqarish korxonalari faoliyat ko'rsatib, aholini chiroyli, sifati va arzon kiyimlar bilan ta'minlab kelishmoqda. Shu o'rinda ta'kidlash lozimki, ushbu korxonalar boshqa shunday tikuvchilik korxonalaridan nima bilan ajralib turadi

degan savolga, aynan ushbu korxonalar kompyuter texnologiyalarining kiyimni loyihalash, modellashtirish, andozalarni gazlamaga joylashtirish kabi murakkab dasturlarni ishlab jiqlash jarayoniga tadbiriq etib inson mehnati hamda vaqtini tejash natijasida, yuqori sifatli haridorgir tikuv buyumlarini tayyorlashadi. Quyida ushbu dasturlarning birini misol tariqasida keltiramiz.

AccuMark Silhouette™ dasturi - bu kompyuter texnologiyalarini modelyer-konstruktorning mahorati bilan uyg'unligini ta'minlovchi murakkab dastur bo'lib, qo'l da bajarilgan modeldan kompyuterda bajariladigan modeliga o'tish jarayonini osonlashtiradi hamda qo'l va kompyuter usullarini uyg'unlashtiradi. Kiyimning asos chizmasini chizadi. Asos chizmasi bo'yicha turli fasondagi modellarning chizmasini chizadi.



Buning uchun kompyuterga "Konstruktor" hamda "Raskladchik" grafik tizimga mansub **AccuMark PDS** hamda qo'shimcha **AccuMark V- Stitcher**, **AccuMark V8.2** dasturlarini o'rnatish zarur.

Ushbu dastur yordamida konstruktsiyalash jarayonida quyidagi imkoniyatlar yaratiladi:

- Turli detallarning bir biriga mos nuqtalarining bevosita o'zgarishi. Misol uchun, qultuq o'mizi bilan yeng o'mizining birdaniga bir biriga mos ravishda o'zgarishi;
- Turli detallarni ulanish joylarining mosligini bevosita 3 D manekenda tekshiradi;
- Avtomatik ravishda taxlamalar hosil qilish, detallarni kengaytirish va toraytirish;
- Vitochkalarni hosil qilish hamda ularning holatini o'zgartirish;
- Detailarni razmerlar va rostlar bo'yicha ko'paytirish (razmerlar va rostlar soni chegaralanmagan);
- Avtomatik ravishda tayyor detallarni gazlamaga tejamkorlik bilan bir necha ko'rinishda joylashtiradi (qo'l mehnati bilan bitta raskladka tayyorlansa, shu vaqtda kompyuter va "Siluet" dasturi yordamida 5-6 ta raskladka tayyorlanadi)

Ishlab chiqarish jarayoniga shu kabi dasturlar kirib keldiki, demak o'z-o'zidan shu sohaga kompyuter texnologiyalarining murakkab dasturlari bilan bimalol ishla oladigan malakali kadrlar zarurati paydo bo'ladi. Bu esa o'z navbatida ta'lim jarayoniga mutahassislik fanlarini o'qitishda ushbu dasturlarni kiritilishini, dars jarayonida ushbu masalalarini ko'rib chiqilishini taqozo etadi. Ta'lim olayotgan bo'lajak mutahassislar ana shu imkoniyatlaridan oqilona foydalangan holda o'zlarini bilimlarini oshiradilar. Bu esa yuqori malakali raqobatbardosh mutaxassislarni tayyorlash kabi vazifasini bajarishga albatta yordam beradi degan fikrdamiz.

Shu bilan birga bundan ko'zlangan asosiy maqsad, Texnologiya fani mashg'ulotlarini samaradorligini oshirish, ta'lim jarayonida bir xillikdan qochish. yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanish. o'quvchilarning tikrlash

qobiliyatlarini o'zlashtirish, ularning ilmiy tafakkur va izlanuvchanlik qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam berish hamda bilim darajasini aniqlashdan iborat. Natijada Texnologiya fani mashg'ulotlarini samaradorligini oshirish bo'yicha taklif etilayotgan yangi usul o'quvchilarni zarur nazariy bilimlar bilan taminlanganligi ayon bo'ladi.

XONADONLARDA TABIIY GAZ SIZIB CHIQISHI VA HOSIL BO'LGAN IS GAZIDAN ZAHARLANISH HOLATLARIDA HAYOT FAOLİYATI XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHNING ZAMONAVIY USULLARI VA VOSITALARI.

**Gafurov N.N. -FVV Akademiyasi huzuridagi Fuqaro muhofazasi instituti
professori, t.f.n.**

**Erxonboyev N.A. -FVV Akademiyasi huzuridagi Fuqaro muhofazasi instituti 1-
bosqich magistranti**

Annotatsiya: Ushbu maqola xonadonlarda tabiiy gaz sizib chiqishi va chaqnashi oqibatida paydo bo'ladigan ko'lgilsiz holatlar hamda yonilg'i mahsulotining chala yonishidan hosil bo'lgan is gazidan zaharlanish holatlarini oldini olishning zamonaviy usullari va texnologiyalarini amaliyotga joriy etishga bag'ishlanadi.

Аннотация: данная статья будет посвящена внедрению в практику современных методов и технологий предупреждения несчастных случаев, возникающих в квартирах вследствие утечек и вспышек природного газа, а также отравления угарным газом, образующимся при неправильном сгорании топливного продукта.

Annotation: this article is devoted to the implementation of modern methods and technologies for the Prevention of poisoning from is gas generated by leaking and flash of domestic natural gas, as well as the occurrence of puddle-free situations caused by incomplete combustion of byproducts.

Kalit so'zlar: Aholi, havo gaz aralashmasi chaqnashi, is gazi, gazoanalizatorlar, monitoring qiluvchi va xabar beruvchi qurilma to'plamlari.

Ключевые слова: население, вспышка воздушно-газовой смеси, угарным газом, газоанализаторы, наборы приборов мониторинга и оповещения.

Keywords: population, air gas mixture flare, soot gas, gasoanalizers, monitoring and reporting device kits.

Keyingi paytlarda aholi orasida tabiiy gazdan noto'g'ri foydalanish bilan bog'liq baxtsiz hodisalar noxush oqibatlarga olib kelmoqda. Soxa mutaxassislari tomonidan ushbu hodisalarning kelib chiqish sabablari o'rganib chiqilganda, xonadonlarning isitish tizimlariga, tabiiy gaz tarmog'iga ulanishida me'yor talablari va ehtiyot choralarini ko'rilmaligi, tabiiy gaz oqimining bexosdan uzilib qolishi, aholini gaz uskunalaridan foydalanish qoidalariga rioya etmaganligi, bu borada malakaga ega emasligi natijasida, aholning, ayniqsa yosh bolalarning tabiiy va is gazidan zaharlanishi hodisalari ro'y berayotganligi kuzatilmoqda.

Gaz oqimining to'satdan (avariyaviy) uzilishi va qayta ulanishi natijasida, xona ichida gaz to'planishi, yonib turgan gaz anjomlarini qarovsiz qoldirish, isitish asbob-

anjomlariga gazni ulashda xavfsizlik qoidalariga rioya qilmaslik, gaz quvurlariga o'zboshimchalik bilan ulanish oqibatida havo-gaz aralashmasini portlashi hamda yong'in sodir bo'lishi mumkin.

Shuningdek, aholi tomonidan xavfsizlik talablariga javob bermaydigan qo'lbola, nostandart gaz jihozlaridan foydalanish, gaz tarmoqlariga rezina shlang orqali ulanish, nosoz holatdagi dudburonlardan hamda xonadon ichida ochiq olovdan isitish maqsadida foydalanish holatlarining uchrab turishi fuqarolarining is gazidan zaharlanishiga hamda havo-gaz aralashmasini chaqnashi natijasida jabrlanishi, hattoki halok bo'lishiga olib keladi.

Havo gaz aralashmasi chaqnashi oqibatida insonlar halok bo'lishi, moddiy boyliklarning yo'q bo'lib ketishi, binolar qulashi, vayron bo'lishi, ayniqsa ko'p qavatli binolarda nafaqat bir xonadon balki butun podayz qulashi yoxud alanga ichida qolishi mumkin. [Ommaviy axborot vositalarining xabariga ko'ra birgina 2020 yilning 11 oyi davomida gaz chaqnashi bilan bog'liq 12 ta holat sodir bo'lib, 147 nafar fuqaro jarohatlangan va 19 nafar fuqaro hayotdan ko'z yumgan.[4,5]

Is gazidan zaharlanish oqibatida nafaqat bir kishi balkim butun boshli oila yoki jamoa azolari jabrlanishi mumkin. Ommaviy axborot vositalarining xabariga ko'ra birgina 2020 yilning 11 oyi davomida is gazidan zaharlanish bilan bog'lik jami 52 ta holat sodir bo'lib, ulardan 39 nafar fuqaro jabrlangan va 61 nafar fuqaro vafot etgan[4]. Bir qancha profilaktik tadbirlar o'tkazilishiga qaramasdan aholi o'rtasida tabiiy gaz sizib chiqishi, havo gaz aralashmasining chaqnashi va is gazidan zaharlanish holatlari kun sayin ko'paymoqda. Uning oldini olishning bir qancha usullari mavjud bo'lib, samarali va xavfsiz usullaridan biri bu xonadonlarda tabiiy gaz sizib chiqishi va is gazini paydo bo'lishini monitoring qiluvchi va xabar beruvchi qurilmalar (**gazoanalizatorlar, detektorlar**) xisoblanadi. Hozirgi kunda ko'plab sanoat, maishiy xizmat ko'rsatish binolari hamda aholi yashash xonadonlarida turli xildagi zamonaviy gazoanalizatorlar bilan jixozlangan bo'lishiga qaramasdan yildan yilga tabiiy gaz va havo aralashmasi chaqnashi va is gazidan zaharlanish holatlari ko'payib borayotganini statistik ma'lumotlar ko'rsatib turipti. Ko'ngilsiz xodisalarning oldini olishga mo'ljallangan qurilmalarni yutuq va foydali tomonlarini ko'rib chiqadigan bo'lsak:

Bu gazoanalizatorlarni qo'llagan holda bir xonadon yoki bir xona xavfsizligini ta'minlash mumkin lekin ushbu analizatorlarni bir qator kamchiliklari mavjud.

- qo'llash doirasi: bu gazoanalizatorlar bir xonadon yoki bitta maishiy xona uchun qo'llashga mo'ljallangan;

- tan narx qimmatligi;

- barcha savdo shaxobchalaridan topish imkoni yo'qligi;

- aholining barcha qatlamlariga yetkazib berishdagi muammolar;

- bu qurilmalar doimiy elektr ta'minoti yoki manbaiga ulangan tarzda ishlaydi elektr ta'minoti bilan bog'liq muammolar. Shunga o'xshash yana ko'plab muammo va kamchiliklarni inobatga olgan holda yangi "*Xonadon, sanoat va maishiy binolarda tabiiy gazni sizib chiqishini va is gazini paydo bo'lishini monitoring qiluvchi va xabar beruvchi qurilma to'plamlari*"ni yaratish zaruriyati paydo bo'ldi.

Innovatsion yechim: Bugunga qadar yaratilgan gazoanalizatorlarni kamchiliklarini inobatga olgan holda galdagi vazifa har tomonlama qulay hamda havfsiz tizimli ogohlantiruvchi qurilma yaratish.

Ushbu qurilmaning farqli jixati nafaqat bir xonadon balki qo'shnilarni ham ogohlantira oladigan tizimli bosh qurilmaga ega bo'ladi. Bosh qurilma ko'p qavatli uylarning podyez qismiga o'rnatiladi hamda, har bir honadondan kelgan signalga ko'ra boshqalarni ham ogohlantiradi. Bu qurilma to'plamining afzalligi uning qamrov doirasining kengligida uni mahalla guzari yoki odamlar ko'p to'planadigan joylarga o'rnatish esa katta samara beradi. Bu to'planning bosh qurilmasini to'g'ridan to'g'ri shahar gaz taminoti korxonasiga xabar berishini ham ta'minlash mumkin.

Natijada esa nafaqat bir honadon balkim butun uyda yashovchilar yoki mahalla fuqarolarining sog'ligi va hayot faoliyati tarzini buzilishining oldi olinadi. Qurilmaga o'rnatilgan tok manbai esa elektr ta'minoti uzilib qolgan hollarda 4-6 soat davomida qurilma ishlashini ta'minlab bera oladi. Bu esa qurilmaning uzluksiz ishlashini



ta'minlaydi.



(1-rasm.) Honadonga o'rnaniladigan qurilma qurilma

(2-rasm.) Bosh

O'z vaqtida ogohlantirish qutqarish demakdir. Bizning maqsadimiz "Xonadon, sanoat va maishiy binolarda tabiiy gazni sizib chiqishini va is gazini paydo bo'lishini monitoring qiluvchi va xabar beruvchi qurilma to'plamlari"ni yaratib aholining barcha qatlamlarini tabiiy gaz sizib chiqishi va chaqnashi hamda is gazidan zaharlanib halok bo'lishi, jarohat olishi, yohud hayot faoliyati jarayoni buzilishini oldini olishdan iborat.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. https://spbu.ru/sites/default/files/pamyatka_po_pravilam_povedeniya_pri_opasnosti_utechki_bytovogo_gaza.p
2. <https://www.mchs.gov.ru/devatelnost/> bezopasnost-grazhdan/ utechka-bytovogo-gaza
3. <https://www.gazeta.uz/oz/tag/gaz%20chaqnashi/>
4. <https://www.gazeta.uz/oz/2020/10/20/is-gazi/>
5. <https://www.google.com/search?q=gaz+chaqnashi&rlz/>

KREATIV USULLARNI DOIMY RAVISHDA PROFESSIONAL RAVISHDA O'QITISHDA QO'LLASH

Haydarova G.M. -Magistr Farg'ona davlat universiteti
Shuxratova Yu.Sh. -Farg'ona davlat universiteti katta o'qituvchi,
PhD Shuxratov Sh.Sh. -Farg'ona davlat universiteti

Annotasiya. Faol o'qitish usullari. Innovatsion boshqaruv elementi, uzluksiz kasbiy ta'lim usullari. Maqolada oliy o'quv yurtlarida talabalarni o'qitishda innovatsion usullardan foydalanish imkoniyatlari muhokama qilingan. Oliy o'quv yurtlarida zamonaviy pedagogik amaliyotda innovatsion usullardan foydalanish misollari keltirilgan.

Аннотация. Активные методы обучения. Инновационный элемент управления, методы непрерывного профессионального образования. В статье рассматриваются возможности использования инновационных методов в обучении студентов в высшей школе. Приведены примеры использования инновационных методов в современной педагогической практике в высшей школе.

Annotation. The article discusses the possibilities of using innovative teaching methods in higher education. Examples of the use of innovative methods in modern teaching practice in higher education are given.

Bozor munosabatlariga o'tish ta'lim muassasasi bitiruvchisi qiymatining o'z muhim ko'rsatkichlari uning mehnat bozoridagi raqobatbardoshligi va u egallagan kasbining hayotiy sikli hisoblanadi. Mutaxassislik o'z kasbiy mahoratini amalga oshirishda davom etishi kerak va o'qitish metodikasi bo'yicha maqsadlarni amalga oshirish talablariga javob berish kerak [1].

Umumiy maqsadlar tasnifi bilan shug'ullanish uchun taqdim etilishi mumkin:

- sertifikat (diplom, sertifikat) beriladigan ta'lim standarti kasb-hunar egallash;
- ta'limni boshqarish bo'yicha qonunda (boshlang'ich, zamonaviy, oliy) tayinlangan ta'limni amalga oshirish maqomi bo'yicha ta'limni olib borish;
- mehnat bozorida ko'rib chiqilayotgan raqobatlashish uchun o'z-o'zini rivojlantirish jarayoniga imkon beradigan bilim, ko'nikma va malakalarini olish.

Ikkinchi tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shu munosabat bilan o'qitish metodlariga umumiy yondashuv o'zgarib bormoqda. Agar siz rejalashtirilgan iqtisodiy faoliyatni amalga oshirsangiz (asosiy reproduktiv) usullar bo'yicha o'qish vaqtining 95 foizini qisqartirganda va noan'anaviy (muammoli va ishlash) - 5% belgilangan. Endi tajribali ekspertlarning prognozlariga ko'ra noan'anaviy usullar 60% ni, an'anaviy esa 40% ni tashkin qilishi kerak.

O'qituvchilar uchun muammoli ta'lim usulini keltirib chiqaradigan holatlar:

- eng taniqli va sinovdan o'tgan usullar ro'yxati, ularni boshqarish va tasnifi bilan tanishish;
- bunday usullarning maqsadi, ishlashi va turli maqsadlarda amalga oshirilishi bilan tanishish;
- ularni amalga oshirish imkoniyati bilan tanishtirish.

Vaziyatni boshqarish maqsadida biz nima uchun noan'anaviy tasvirlangan taniqli bir qator o'qitish usullarini taklif etamiz. Turli mualliflar turli fikrlarga

asoslanib o'qitish usullarini tizimlashtirganlar . Babansky Yu.K. [2] usullarni uchta asosiy mezon bo'yicha tasniflagan:

- 1) o'quvchilarni tashkil etish usullari;
- 2) o'quv dasturini rag'batlantirish usullari;
- 3) boshqaruv usullari, ularni turlarga bo'lish: 1) ko'rib chiqish va idrok etishtirish, 2) og'zaki usullar, 3) hikoya, 4) tushuntirish, 5) Ma'ruza, 6) Suhbat va HK.

Boshqa mualliflar (Zhidelev M.A, Makienko N.I, Skakun V.A)mashg'ulotlarni o'tkazish uchun ishlab chiqarishni o'qitish uslubiga, maxsus o'qitish uslubiga fanlar xos bo'lgan turlari bilan birgalikda tasnif berishdi.

Boshqa tasniflagichlarni tayyorlash mumkin: faoliyat turlari bo'yicha munosabatlar, mashg'ulot turlari bo'yicha tushuntirish va boshqa yo'nalishlarda: tuzatish, mantiqiy; muammolarni ilmiy va o'quvga ajratish prizmasidan foydalanish ko'rib chiqilishi mumkin.

Ularni bir-biriga mos ravishda boshqarishga qaror qilingan javonlarda turli xil bir sharoit bilan bog'liq usullarni tashkil etish. Ammo, afsuski, ular yigirma yil oldingi davrni nazarda tutadilar va hozirgi kunda ta'lim tizimining ko'rsatmalariga va sharoitlariga bog'liq emas. Oddiy misol. Rejalashtirilgan iqtisodiy sharoitida kasbiy ma'lumot olgan kishi butun dunyo hayotini o'z kasbida ishlashga kafolat bergan. Bozor iqtisodiyoti sharoitida raqobat alohida maqomga ega bo'ladi va ularda statistik ko'rsatkichlar shuni ko'rsatadiki, inson ish joyini va qoida tariqasida umr bo'yi kasbini 10-12 marta o'zgartiradi.

Eski jadvallar va tasniflagichlar yangi o'quv jarayonlarini qondira oladimi? Aftidan bunday emas.

Birinchi misol nostandart vaziyatni aks ettiradi. Buning uchun uning echimi nostandart yondashuvlar yo'lida yotadi.

Ushbu yondashuvlarning ajralib turadigan xususiyati shundaki, ular ilgari "o'rgatilgan kasb", va endi "kasb o'rganishni o'rganish" vaqti keldi, chunki yangi vaziyatda hayotning har bir pallasida o'zini qanday tutishi kerakligini biladigan dars beradigan o'qituvchini qo'yolmaysiz. Bizga faol o'qitish usullari kerak.

Shunday qilib, faol usullarning maqsadi "kasb o'rganishga o'rgatishdir".

Psixologik o'rganish asoslar juda muhimdir. N.V.Shumyankova ta'kidlaganidek, So'rov ma'lumotlarida Qo'shma Shtatlarda "Modulli trening at" tadbirkorlarni tayyorlashda Xorijiy maktablar va oliy ta'lim ("materialni yaxshi o'zlashtirishi uchun, talaba uning ustida faol ishlashi kerak".) xorijiy tajribalar, ular o'qitish faoliyatini va muammolarini o'z ichiga olishi kerak, o'qituvchining fikri o'quvchi talab qilinadigan narsani o'rganayotganligini va uning to'g'riligini baholay olalishida izchil va konsentratsiyali o'rganish bir vaqtning o'zida barcha tadqiqotchilar har qanday tizimli rejaga muvofiq mashg'ulotlar bir ovozdan bir xil hajmdagi materialni konsentratsiyali o'rganishdan ko'ra foydaliroq "Ijobiy mustahkamlash" motivatsiyani kuchaytiradi va faollikni (e'tiborni) rag'batlantiradi, kichik bosqichlarda ketma-ket o'rganish, ozmi-ko'pmi mantiqan murakkabroq bosqichlarda sodir bo'ladi. O'quvchilar maqsadlarni bilish, o'rganish nima ekanligini bilib oladigan qandaydir ko'rsatmaga ega bo'lganda, ularga qo'yiladigan talablar samaraliroq bo'ladi va o'quv jarayonining individualizatsiyasi - talabaning o'zi, uning qobiliyatiga, kursni o'rganish tezligini

aniqlash darajasiga muvofiq bo'lishi kerak. Bunga rozi bo'lmaslik mumkin emas. Faol o'qitish usullari ushbu asoslarni hisobga olish kerak [4].

Usullarning taqdimoti treningga nisbatan berilgan. Ammo ular bilan tanishish ularni marketing, texnik ijodkorlik, ishlab chiqarish va texnik muammolarni hal qilish yoki boshqa maqsadlar (masalan, tadqiqot, haqiqatni aniqlash) uchun o'zgartirish imkoniyatlarini istisno etmaydi. Usullar universaldir. Xuddi shu "muzlatilgan ramka" ni "Ishlab chiqarish ta'limi" da (sehrning harakatlarini har bir bo'lak uchun to'xtash joylari bilan ko'rsatish) va "Informatika va hisoblash texnikasi" da (o'qituvchi tomonidan dasturni iz rejimida ko'rsatish), va adabiyotda (lirik digression) va boshqalar [5].

Yuqoridagilarning maqsadi ta'lim amaliyotida o'qitishning faol usullaridan foydalanishning ilmiy asoslarini yaratishdir.

Tasvirlangan faol o'qitish usullari va kasbiy o'yinlar kasbiy tayyorgarlikning har xil turlari va darajalariga mo'ljallangan juda ko'p vazifalarni qamrab oladi. Yaqinlashib kelayotgan vazifa - bu ta'lim sifatini oshiradigan, pedagogik jarayonning qulayligini yaxshilaydigan va sharoit yaratadigan o'quv texnologiyasini ishlab chiqish uchun ularni o'quv bloklari va modullari shaklida umrbod kasb-hunar ta'limi poydevoriga qo'yishdir. kelajakdagi mehnat bozorida raqobatbardosh mutaxassislarni tayyorlash [6].

Hulosa qilib aytganda ta'limning turli bosqichlari va turlarining o'ziga xos xususiyatlaridagi farqni hisobga olish zarur. Maktabda o'qitishning dars shakli va universitetdagi ma'ruza-amaliy shakli, kasb-hunar maktabida o'qitishning ishlab chiqarish shakli va texnik maktab va kollejda birlashtirilganligi bir-biridan keskin farq qiladi. Ta'lim muassasalarini o'zgartirganda talabalarning moslashish davri ba'zan olti oydan bir yilgacha davom etadi. Adaptatsiya masalalarini hal qilish ta'lim tizimining asosiy muammolaridan biridir. Ammo bu muammo universitet devorlari bilan tugamaydi. Kasbiy moslashuv muammosi bitiruvdan keyin ham mavjud. Uzluksiz kasb-hunar ta'limini adaptiv boshqarish jarayonini qanday qurish zamonaviy ta'limning eng murakkab masalasi va biz ko'rib turganimizdek, faol o'qitish usullari va professional o'yinlar bu erda asos bo'lib xizmat qilishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Ахметов Н.К., Хайдаров Х.С. Игра как процесс обучения. Алма-Ата, Знание, 1986.
2. Шухратов Ш.Ш., Максудов Р.Х., Отажонов С.М., Ахмедов М.М., Хожикаримова Г. Инновацион таълимда дарс шакли, методи ва воситаларини танлаш. Фергана. 2021г. 136б.
3. Кобзев М.С., Горбачёв Н.А. Сократовский метод обучения. Саратов, СГУ, 1991.
4. Shukhratova Yu. "Dramatic works and the sad concept of speech". 5th International Multidisciplinary Scientific Conference. Germany. 2021 y 30 march. pp266-268.
5. Shukhratova Yu. Expression of the analogy relation at the syntactic level. ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal. 2021 y March.
6. Shukhratova Yu. Syntactic Valence, Syntactic Relation. The American Journal of Interdisciplinary Innovations and Research. 3(04). pp.129-132.

**OLIV TA'LIM TIZIMIDA FAOLIYAT KO'RSATUVCHI
PEDAGOGLARNI TAYYORLASHDA TA'LIM JARAYONIDA
QO'LLANILADIGAN INNOVATSION USULLAR**

**Axmadjonova X.X. -Farg'ona davlat universiteti, Magistr,
Shuxratova Yu.Sh.- Farg'ona davlat universiteti katta o'qituvchi
Shuxratov Sh.Sh. -Farg'ona davlat universiteti, PhD**

Annotatsiya. Ushbu maqola zamonaviy ta'lim sharoitida innovatsion ta'lim texnologiyalarini qo'llay oladigan kadrlarni qanday tayyorlashni o'rganadi. Bundan tashqari, zamonaviy ta'lim muassasalarida qo'llanilishi mumkin bo'lgan bir qator innovatsion usullar o'rganilmoqda.

Аннотация. В данной статье исследуется, как подготовить кадры, которые могут применять инновационные образовательные технологии в современной образовательной среде. Кроме того, ряд инновационных методов изучаются, которые могут быть применены в современных образовательных учреждениях.

Annotation. This article examines how to train personnel who can apply innovative educational technologies in the modern educational environment. In addition, a number of innovative methods are being studied that can be applied in modern educational institutions.

Zamonaviy sharoitda talabalarning o'quv-bilish faolliklarini kuchaytirish, o'qitish sifatini oshirish va samaradorligini yaxshilash maqsadida innovatsion xarakterga ega ta'lim shakllaridan foydalanish maqsadga muvofiqdir. Bugungi kunda amaliy o'yinlar, muammoli o'qitish, interfaol ta'lim, modul-kredit tizimi, masofali o'qitish, blended learning (aralash o'qitish) va mahorat darslari ta'limning innovatsion shakllari sifatida e'tirof etilmoqda.

O'yin shaxsning tarbiyalash, rivojlantirish, unga ta'lim berish xususiyatlariga ega. Mavjud hususiyatlari tufayli o'yinlar qadim-qadimdan xalq pedagogikasining muhim asoslaridan biri bo'lib kelmoqda. Bevosita o'yinlar bolalarda idrok, sezgi, xotira, tafakkur, nutqni rivojlantirishga yordam berish orqali ularni ma'naviy-axloqiy, aqliy, jismoniy va estetik jihatdan tarbiyalashga xizmat qiladi "Maktabgacha yoshdagi bola o'yin faoliyatida o'qish va mehnatga tayyorlanadi. Yosh ulg'aygan sari o'yinning roli biroz kamayib boradi. O'yinlarning tarbiyaviy ahamiyati bolaning butun hayoti davomida saqlanib qoladi" [1].

O'yin texnologiyalari. Pedagogik maqsadda foydalanilayotgan o'yinlar o'yin texnologiyalari deb nomlanadi. O'yin texnologiyalari (o'yin ta'limi) – ijtimoiy tajribalarni o'zlashtirishning barcha ko'rinishlari: bilim, ko'nikma, malaka hamda hissiy-baholovchi faoliyat jarayonini hosil qilishga yo'naltirilgan shartli o'quv vaziyatlarini ifodalovchi shaxsga yo'naltirilgan ta'lim (pedagogik texnologiya) turlaridan biri [2].

Pedagogik o'yinlar. O'quv jarayonida o'yin texnologiyalarining o'mi, roli, shuningdek, o'yin elementlari hamda ta'limning o'zaro uyg'unligi ko'p jihatdan o'qituvchi tomonidan pedagogik o'yinlar mohiyati, funksiyasi va turlarining qanchalik tushunilishi bilan belgilanadi. Har qanday o'yinlar kabi pedagogik jarayonlarda foydalaniladigan o'yinlar ham o'zining aniq maqsadi va natijasiga ega bo'ladi [3].

Hozirgi oliy maktabdagi samarali o'qitish texnologiyasi muammoli ta'limdir. Uning vazifasi faol bilish jarayoniga undash va tafakkurda ilmiy-tadqiqot uslubini shakllantirishdir. Muammoli ta'lim ijodiy faol shaxs tarbiyasi maqsadlariga mos keladi [4].

Muammoli ta'lim – bu talabalarda ijodiy izlanish, kichik tadqiqotlarni amalga oshirish, muayyan farazlarni ilgari surish, natijalarni asoslash, ma'lum hulosalarga kelish kabi ko'nikma va malakalarni shakllantirishga yo'naltirilgan ta'limdir.

Muammoli ta'limning asosini **muammo** (yun. "to'siq", "qiyinchilik") yoki **muammoli vaziyat** tashkil etib, muammoli ta'lim texnologiyasi ularning yechimini topishga xizmat qiladi. Ko'p holatlarda muammo va muammoli vaziyat sinonimlardek qabul qilinadi. Aslida esa ular bir-biridan farq qiladi.

Muammo (yunon. "to'siq", "qiyinchilik", arab. "jumboqli", "sirlı", "tushunilishi qiyin") – hal qilinishi muhim nazariy va amaliy ahamiyatga ega bo'lgan masaladir.

Pedagogika sohasida ko'p holatlarda "muammo" tushunchasi tashkiliy-pedagogik, psixologik, ta'limiy va tarbiyaviy masalalarni hal qilishda qo'llaniladi. Soha nuqtai nazardan pedagogik jarayonda didaktik xarakterdagi, amaliy xarakterdagi, ilmiy-metodik xarakterdagi, sof ilmiy xarakterdagi muammolarga murojaat qilinadi va ma'lum bilimlar, noma'lum bilimlar va mavjud tajriba muammoning tarkibiy qismlari sifatida namoyon bo'ladi [5].

Pedagogik muammo – hal qilinishi zarur, biroq, hali yechish usuli noma'lum bo'lgan pedagogik xarakterdagi masaladir.

Pedagogik jarayonda talaba "muammo"ga emas, balki muammoli vaziyatga ro'para qilinadi.

Muammoli ta'lim texnologiyalari – bu talabalarda ijodiy izlanish, kichik tadqiqotlarni amalga oshirish, muayyan farazlarni ilgari surish, natijalarni asoslash, ma'lum hulosalarga kelish kabi ko'nikma va malakalarni shakllantirishga xizmat qiladigan ta'lim texnologiyalaridir [6].

Zamonaviy sharoitda talabalarning o'quv-bilish faolliklarini kuchaytirish, o'qitish sifatini yaxshilash va samaradorligini oshirish maqsadida amaliy o'yinlar, muammoli o'qitish, interfaol ta'lim, modul-kredit tizimi, masofali o'qitish, blended learning (aralash o'qitish) va mahorat darslari ta'limning innovatsion shakllari sifatida e'tirof etilgan ta'lim tizimida muvoffaqiyat bilan foydalanilmoqda. Biz quyida amaliy o'yinlar, o'qitishning modulli-kredit, "Assesment" va "Vebinar" texnologiyalarining o'qitish jarayonida innovatsion faoliyat ko'rsatuvchi pedagoglarni tayyorlashdagi ahamiyati haqida quyidagicha hulosaga kelindi:

- o'qitish sifatini yaxshilash va samaradorligini oshirishda o'qitishning amaliy o'yinlar dars shakli shaxsni tarbiyalash, rivojlantirish, unga ta'lim berish hususiyatlariga ega bo'lib, mavjud hususiyatlari tufayli o'yinlar qadim-qadimdan xalq pedagogikasining muhim asoslaridan biri bo'lib kelmoqda. Bevosita o'yinlar bolalarda idrok, sezgi, xotira, tafakkur, nutqni rivojlantirishga yordam berish orqali ularni ma'naviy-axloqiy, aqliy, jismoniy va estetik jihatdan tarbiyalashga xizmat qiladi.

- o'qitishning "Modulli-kredit tizimi" dars shakli zamonaviy ta'limning eng takomillashgan shakli bo'lib, talabalarga rivojlangan xorij davlatlarida ta'lim jarayonini o'rganish va shu asosida mamlakatimiz oliy o'quv yurtlarida ushbu tizimni

жорий етиш, jumladan kelgusi o'quv yilidan Farg'ona davlat univesitetida ham mazkur "Modul-kredit tizimi" asosida o'quv jarayonining joriy etilishini e'tiborga olib, innovatsion faoliyat ko'rsatuvchi pedagoglarni tayyorlashdagi ahamiyati muhim ekanligi izohlandi.

- o'qitish jarayonida "Assesment" texnologiyasidan foydalanib talabalarning bilim, ko'nikma va malakalari darajasini har tomonlama, xolis baholash imkoniyatini ta'minlovchi topshiriqlar to'plamidan iborat ekanligi va o'qituvchi tomonidan talabalarning topshiriqlarni qay darajada o'zlashtirganligi bo'yicha o'z-o'zini tekshirish orqali hulosa chiqarishni nazarda tutilishi talabaning bilim sifati va ta'lim-tarbiya jarayoni samaradorligini oshirishda asosiy rol ni o'ynaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Podlas'ny I. Pedagogika. –M.: VLADOS,1999. – 567s.
2. V.A.Salastenin, A.F. Isaev, A.I. Mishenko, E.M. SHiyarov. Pedagogika. Moskva. Vlados. 1997.
3. Шухратов Ш.Ш., Максудов Р.Х., Отажонов С.М., Ахмедов М.М., Хожикаримова Г. Инновацион таълимда дарс шакли, методи ва воситаларини танлаш. Фергана. 2021г. 1366.
4. Shukhratova Yu. "Dramatic works and the sad concept of speech". 5th International Multidisciplinary Scientific Conference. Germany. 2021 y 30 march. pp266-268.
5. Shukhratova Yu. Expression of the analogy relation at the syntactic level. ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal. 2021 y March.
6. Shukhratova Yu. Syntactic Valence, Syntactic Relation. The American Journal of Interdisciplinary Innovations and Research, 3(04), pp.129-132.

УМУМИЙ ЎРТА ТАЪЛИМ МАКТАБЛАРИДА ТЕХНОЛОГИЯ ФАНИНИ ЎҚИТИШНИНГ МУАММО ВА ЕЧИМЛАРИ

**Олимов Б.У. -Қўқон ДПИ Санъат факультети "Технологик таълим"
кафедраси доценти**

Олимова Ҳ.И. - Ўзбекистон тумани 16-мактаб ўқитувчиси

Аннотация: Мақолада умумий ўрта таълим мактабларида технология фанининг ўқитилиши, унинг муаммо ва камчиликлари ҳамда уларни бартараф этиш чоралари ҳақида маълумот берилган.

Калит сўзлар: технология, технологик таълим, ижодий қобилиятлар, ижодий фаолият, муаммо ва ечимлар.

Бугунги кунда барча соҳаларда изланувчан, ижодкор, янгиликка интилувчан, тиришқок ва ўз устида доимий ишлайдиган мутахассис кадрларга эҳтиёж ниҳоятда каттадир. Аynи вақтда, жадал суръатлар билан ривожланиб бораётган жамиятимизда қомил инсонни тарбиялаш, уларни илмни, касб-ҳунарни бўлишларига эътибор қаратиш ўта долзарб вазифадир. Бундан 15-20 йил илгарики ўқувчи билан ҳозирги дунёқарашлари тез ривожланиб бораётган ёшлар ўртасида бир мунча фарқ бор. Ҳозирги замон ёшларини тўғри йўлга

солиш, Ватанга садоқатли, фидойи, ўз мустақил фикрига эга бўлган ҳақиқий баркамол авлодни касб-ҳунарли қилиб тарбиялаш ҳар бир педагогнинг ўз олдига қўйган мақсадларидан бири бўлиб келмоқда.

Таълим тизимида бугунги кунда ўқувчиларнинг ижодий қобилиятларини ривожлантириш баркамол авлодни тарбиялашнинг зарур шартларидан биридир. Бу жараён мактаб таълимининг барча босқичларида амалга оширилиши лозим бўлиб, айниқса ўқувчиларнинг ижодий қобилиятини ривожлантириш алоҳида аҳамиятга эгадир. Ижодий қобилиятни ривожлантиришда технология фанининг ўрни бекиёсдир. Агар ёш авлод мактаб давриданоқ технология фанига қизиқиши ортган ҳолда асбоб-ускуна ва мосламалар, машина, механизм ва станоклар, маҳсулотлар ишлаб чиқариш технологияси, электротехника ишлари, пазандачилик асослари, газламага ишлов бериш асослари, рўзгоршунослик асосларини мукаммал ўрганиб келажақда маълум бир касб-ҳунар эгаси бўлсагина, ўз билим ва кўникмалари билан дунёнинг энг илғор технологияларини мукаммал эгаллай олиб, юртимиз келажагини яратаётган малакали мутахассисларнинг энг олдинги қаторидан жой олишига аминмиз.

Бошланғич синф ўқувчилари технологик таълим машғулотларида оддий қоғоз, елим, пластилин, ўсимлик мевалари, уруғлари ва тухум пўчоғидан фойдаланса, 5-синфга ўтгач эса технология фани машғулотлари мураккаблашади, яъни материалларга ишлов бериш йўли орқали буюмлар ясалади. Масалан, ёғочга, металлга, газламага ишлов бериш технологиясини, қолаверса, пазандачилик асосларини пухта ўрганишлари лозим. Бундан ташқари миллий ҳунармандчилигимизнинг ҳам сир-асрорларини ўрганиб борадилар.

Юқори синфга ўтган ўқувчилар анча қизиқувчан, интилувчан бўладилар. Бу даврда дарс жараёнида ўқувчилар материалларга ишлов бериш, буюмларни лойиҳасини яратиш ишлари билан шуғулланишади. 6-7- синф ўқувчилари эса юқорида таъкидланганидек, ёғочга ишлов бериш, металлга ишлов бериш, асбоб-ускуна ва мосламалардан, электр жиҳозларидан фойдаланиш тартиб-қондалари билан танишадилар. Пазандачилик асослари, таомлар тайёрлаш технологияси, маҳсулотлар ишлаб чиқариш технологияси билан танишиб боришади. Ушбу технологиялар билан танишиш жараёнида ўқувчида ижодкорлик қобилияти шаклланиб боради. Бу эса ўқувчининг тафаккур доирасининг кенгайиб боришига келгусида ўзи истаган касб эгаси бўлишига кўмак беради.

Технологик таълим дарсларида ўқувчиларни ижодий ишларини ташкил этиш ва фаоллаштиришда дизайн, яъни техник эстетика ёки бадий конструкциялардан фойдаланиш ҳам яхши натижа беради. Чунки дид билан, чиройли қилиб ишланган буюмлар ўқувчини завқлантиради, ўзига бўлган ишончини мустаҳкамлайди.

Бироқ, олис қишлоқ мактабларида ўқувчиларни технология дарсларини самарали ва мазмунли ўтишида барча шарт- шароитлар мавжуд мактаблар санокли бўлиб келмоқда. Технология хоналарида ёғочга ишлов берадиган асбоб-ускуналар, пармалаш, фрезарлаш ва токарлик станоклари, пазандачилик, таомлар тайёрлашда ишлатиладиган жиҳозлар, тикув машиналари ва бичиш столлари ҳам мавжуд бўлса мақсадга мувофиқ бўлар эди. Келгусида барча

мактаблар катори чекка-чекка кишлоқ мактаблари ҳам ушбу жиҳозлар билан таъминланади деб уйлайман. Зеро, ёш авлоднинг технология фанига бўлган кизикиши тобора ортиб бориши, уларни эстетик руҳда тарбиялаш масалаларига катта эътибор беришимиз лозимдир.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати:

1. Каримов И.И. Меҳнат таълими ўқитиш технологиялари. Ўқув-услубий қўлланма. Тошкент-2013.

2. С.Ю.Ражабова.Г.С.Насриддинова “Мақтаб ва ҳаёт журнали”. №4. “Меҳнат таълими дарсларида ўқувчиларнинг ижодкорлик қобилиятларини ривожлантириш” мақола. Тошкент 2015-йил

3. Ш.Шарипов.О.Қўйсинов.Қ.Абдуллаева “Технология” дарслиги. Тошкент 2017 йил.

PROFESSIONAL TA'LIMDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALAR VA RIVOJLANGAN MAMLAKATLARNING TAJRIBASI

Ibroximov M.A. – o'qituvchi, NamDU

Saidmamatova N.A. -Chortoq tumani 33-o'rta maktab rus tili o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada yuqori malakali ilmiy va ilmiy-pedagogik xodimlar tayyorlashning yangi tizimini shakllantirish, ularni respublika ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va ma'naviy taraqqiyotining ustuvor muammolarini hal qilishga yo'naltirish, shuningdek rivojlangan mamlakatlarning tajribasi ularning erishgan yutuqlari haqida fikr yuritiladi.

Kalit so'zlar: fundamental bilim, uzluksiz ta'lim, lisans unvoni, ishlab chiqarish amaliyoti, kasbga moyillik.

O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi qonunining qoidalariga muvofiq tayyorlangan «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»da yosh avlodni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashda xalqning boy intellektual merosi va umumbashariy qadriyatlarini asosida zamonaviy madaniyat va iqtisodiyotning pedagogik shakl va vositalarini ishlab chiqish, amaliyotga joriy etishga alohida ahamiyat berilgan. Keyingi yillarda respublikamizda ochilgan akademik litsey, gimnaziyalarda va ayrim umumiy ta'lim maktablarida tashkil etilgan pedagogikadan ixtisoslashtirilgan kurslarda Vatan tarixi va madaniyatini o'rganish va tadqiq etish asosiy vazifa qilib qo'yildi. SHunga ko'ra, hozirgi kunda pedagogikadan milliy va umuminsoniy qadriyatlar asosida darslik, qo'llanmalar yaratishga kirishildi. Bu ishda o'quvchi va talabalar hamda bo'lg'usi o'qituvchilarning umumiy madaniyati va ma'naviyatini, pedagogik bilim va madaniyatini, pedagogik tafakkurini o'stirish asosiy maqsad qilib qo'yildi. Bu maqsad pedagogik fikrlashga doir bilim va diniy-axloqiy, tarbiyaviy g'oyalari umumbashariy va milliy-madaniy qadriyatlarni puxta o'rganish bilan amalga oshirilmoqda.

Ta'limda test usuli qo'llanildi, iqtidorli bolalarni aniqlashga, o'qitishga alohida ahamiyat berilmoqda. Mingdan ortiq iqtidorli bolalar Amerika, Angliya, Shvetsiya, Yaponiya va Turkiyada ta'lim olib, mustaqil respublikamiz xalq xo'jaligi uchun zarur bo'lgan bilim va kasblarni egallamoqdalar. Ma'lumki, pedagogika tarixi ham boshqa xalqlar, mamlakatlar pedagogika tarixi bilan aloqada rivojlandi va rivojlanmoqda. Shu sababdan hozir Markaziy Osiyo pedagogika tarixini tadqiq

etishda xorijiy Sharq va Evropa mamlakatlari ta'lim tizimi ham o'rganilmoqda. Bu sohada respublika fan va texnika qo'mitasining «Milliy ruh», «Qadriyat» nomidagi va O'zbekiston Respublikasi oliy 6 o'quv yurtlari uchun ilg'or pedagogik qo'llanmalar va o'quv darsliklarini ishlab chiqish bo'yicha uyushtirgan tanlovlari bu sohada muhim ahamiyat kasb etdi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzurida Oliy attestatsiya komissiyasining tashkil etilishi — mustaqillikning muhim timsolidir. Bu Oliy attestatsiya komissiyasi o'z zimmasiga yuklangan ulkan vazifalarni, ya'ni «yuqori malakali ilmiy va ilmiy-pedagogik xodimlar tayyorlashning yangi tizimini shakllantirish, ularni respublika ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va ma'naviy taraqqiyotining ustuvor muammolarini hal qilishga yo'naltirish, ilmiy tadqiqotlar va ishlanmalarni davlat yo'li bilan ekspertiza qilishni ta'minlash bilan etuk ilmiy pedagogik kadrlar etishtirishga samarali ta'sir ko'rsatmoqda. Oliy pedagogika o'quv yurtlarida ilmiy daraja beruvchi ixtisoslashtirilgan kengashning tashkil etilishi bilan respublikamizda pedagogika tarixi va nazariyasi, fanlarni o'qitish usullari bo'yicha doktorlik va nomzodlik dissertatsiyalarini o'zbek tilida, turli millat vakillarining o'z ona tillarida himoya qilishiga keng imkoniyat yaratildi, mazkur kengashlar milliy pedagog olimlar safining o'sishida muhim omil bo'lmoqda. Bu tadbir respublikada sifatli, ilmiy-pedagogik asarlar, o'quv-metodik qo'llanmalarining yaratilishiga, maktabgacha tarbiya muassasalarida, umumiy ta'lim maktablarda, o'rta va maxsus oliy o'quv yurtlarida ta'lim-tarbiyaning yuksak saviyada bo'lishiga, ta'lim tizimi mazmunining takomillashuviga samarali ta'sir ko'rsatmoqda.

Rivojlangan mamlakatlarning tajribasi shuni ko'rsatadiki, qaerda ta'lim va tarbiyaga e'tibor katta bo'lsa, o'sha yerda taraqqiyot, yuksalish bor. Shuning uchun respublikamizning istiqboli uzluksiz ta'limni qay darajada amalga oshirilishiga bog'liq. Uzluksiz ta'lim barcha fuqarolarni tinimsiz o'qishini, izlanishini, shaxsni yuqori malakali bo'lishini talab etadi. Uzluksiz ta'lim tizimining hayotga tatbiq etilishi respublikada xalq ta'limi faoliyatini tubdan o'zgartiradi xamda respublikaning ijtimoiy-iqtisodiy rivojiga muhim hissa qo'shadi. Uzluksiz pedagogik ta'lim tizimida pedagogik xodimlar tayyorlash pog'onali ravishda amalga oshiriladi.

Germaniya, Fransiya va Yaponiya mamlakatlarida professional ta'limning tuzilmasi

Dunyo kasbiy ta'limini o'rganmay turib, bu sohada yangi islohotlarni amalga oshirib bo'lmaydi. Bu borada bizga uzluksiz ta'lim tizimini olib boruvchi davlatlar tajribasi, ularning ishlab chiqqan ta'lim standartlarini o'rganish juda zarurdir. Bugungi kunda Buyuk-Britaniyada uzluksiz ta'lim va kasb ta'limining yangi tizimi ishlab chiqildi. Bu tizim turli xil yo'nalishlardagi mutaxassislarni, shuningdek, boshlang'ich o'rta maktablarning bitiruvchilarini tayyorlashni nazarda tutgan. Jahondagi ko'plab mamlakatlarda oliy o'quv yurtlari o'rta umumiy ta'lim tizimidan keyingi, navbatdagi ta'lim bosqichi hisoblanadi. Birinchi bosqich ta'limi 3-4 yil (yoki ko'proq) davom etadi va bitiruvchilarga bakalavr diplomi beriladi (AQSH, Buyuk Britaniya, Yaponiya, Avstraliyada). Fransiya birinchi bosqich oliy maktab bitiruvchilariga metriz, Belgiya lisans unvoni beriladi. Ikkinchi bosqich oliy ta'lim maktablariga birinchilikni tugatgan bitiruvchilarning 10-25 foizi qabul qilinadi. Masalan, bu ko'rsatkich AQSHda - 20, Buyuk Britaniyada - 15. Avstriyada - 10, Avstraliyada - 7, Yaponiyada - 6 foizni tashkil qiladi. Bu davrda 9 tanlangan

yo'nalish bo'yicha ixtisoslashtirilmagan, umumiy, fundamental bilimlar o'qitiladi (Angliya, Ispaniya. AQSH). GFR, Fransiya, Belgiya kabi mamlakatlarda esa ikkinchi bosqich oliy ta'lim maktablari talabalari ancha mukammal va muayyan maqsadga yo'naltirilgan bilimlarni egallaydilar.

Germaniyada professional ta'limi tizimi

Germaniyada bir necha murakkab tuzilmaga ega bo'lgan ta'lim tizimi qabul qilingan. Ta'lim oluvchilarni mutaxassislikka yo'llashda 3 ta bosqichdagi maktablar tashkil etilgan bo'lib, ular o'z faoliyatini boshlang'ich ta'limdan keyin davom ettiradi. O'quv jarayonining turli jabhalarida o'ziga xos talablar yo'lgan qo'yilgan bo'lib, ular turli bosqichlarda turlicha amalga oshiriladi.

Germaniyada kasbiy ta'limning tuzilmasi

1-bosqich: Professional ta'limga tayyorgarlikning birinchi yili (nazariy bilimlar berilib, ushbu kasbga yo'naltiriladi).

2-bosqich: O'quvchilar nazariy va amaliy oiladosh kasblar bilan ham tanishib boradilar (tugatilganidan so'ng, birinchi sinov olinadi).

3-bosqich: Mutaxassislashtirish jarayonidan iborat bo'lib, u imtihon bilan tugallanadi. Bu tizimda ta'lim oluvchilar nazariy va amaliy bilimlarga hamda kasblar haqida tushunchaga ega bo'lishlari lozim.

Germaniya Konstitutsiyasiga muvofiq, maktab ta'limi davlat nazoratidadir. Mamlakatda 16 ta federal hududlar mavjud bo'lsa, ularning har biri o'zining ta'lim to'g'risidagi qonuniga ega. Shu sababli federal hududlarning maktab 11 ta'lim tizimida ayrim farqlar bor. Masalan, aksariyat hududlarda boshlang'ich ta'lim 4 yil (birinchi sinfdan to'rtinchiga qadar), poytaxt Berlinda esa – 6 yil. Ammo bu kabi farqlarga qaramasdan, barcha hududlar uchun umumiy tartibqoidalar amal qiladi. Germaniyada maktab ta'limi majburiy va bepul. 6 yoshdan 18 yoshgacha fuqarolar majburiy tartibda ta'lim olishi shart qilib belgilangan. Maktab ta'lim tizimi esa boshlang'ich, o'rta va yuqori bosqichlarga bo'linadi.

Professional ta'limning Fransuz modeli

Fransiya boshlang'ich ta'lim maktablariga 6 yoshdan 11 yoshgacha bo'lgan bolalar jalb qilinadilar. O'quvchilar 11 yoshda boshlang'ich maktabni tugallab o'rta maktabga o'tadilar. O'rta ta'lim esa kollejlar va litseylarda amalga oshiriladi. O'quvchilar umumiy ta'lim va texnik litseylarni tugatganlaridan so'ng bakalavr unvoni va diplom ish uchun imtihon topshiradilar. Ana shunday diplomga ega bo'lganlarga oliy o'quv yurtlariga kirish huquqini qo'lga kiritadilar. Fransiyada talabalar pedagogika, politexnika instituti, oliy ma'muriy maktablarga kirish uchungina imtihon topshiradilar. Bundan tashqari shu kasbga moyilligi ham alohida sinab ko'riladi. Boshqa oliygohlarga va universitetlarga esa bakalavr diplomi bo'lgan yoshlar imtihonsiz qabul qilinaveradi. O'qish muddati 2 yil va , sakkiz haftalik ishlab chiqarish amaliyotini ham ko'zda tutadi. Fransiyada 300 ga yaqin kollejlar mavjud. Bu kollejlarda 80 ortiq yo'nalishlar bo'yicha o'rta mutaxassisla tayyorlanadi . Bu kollejlarining o'qitish tizimi turli xil bo'lib o'qish muddati ham turli xil yillarni tashkil qiladi. Aksariyat kollejlarda 1-2 yilni tashkil qilsa ba'zilarida 4-5 yilni tashkil qiladi . Malakali ishchi-xodimlarni tayyorlashda davlat va xususiy litseylar faoliyat ko'rsatib, ularning hammasi davlat nazorati ostida bo'ladi. Kasbiy ta'limda o'qish jarayoni ta'lim vazirligi tomonidan ishlab chiqiladi, uni moddiy

ta'mirlash javobgarligi esa davlat zimmasidadir. Umumiy kasbiy ta'limda o'qitish jarayoni Fransiyada bepuldir.

1. Fransuz universitetida ta'limning dastlabki 2 yilida qator mutaxassisliklar uchun yagona o'quv dasturlari mavjud.

2. Universitetning 2-kursini tugatib, tegishli guvoynoma olgan talaba shu universitetning 3-kursida o'zi tanlagan mutaxassislik bo'yicha o'qishni davom ettirishi yoki boshqa universitetga o'tishi mumkin.

Yaponiya professional ta'limi tuzilmasi

Majburiy ta'lim. Ta'limning bu pog'onasiga 6 yoshdan 15 yoshgacha bo'lgan bolalar jalb qilinib, ular shu muddat ichida 6 yillik boshlang'ich maktab va 3 yillik kichik o'rta maktab kursini o'taydilar. 9 yillik bu ta'lim majburiy bo'lib, barcha bolalar bepul o'qitiladilar va tekin darsliklardan foydalanadilar. Yuqori bosqich o'rta maktabi. Bu maktablar ta'lim yo'nalishining 10,11,12 sinflarini o'z ichiga oladi. mavjud. Yaponiya kollejlari 3-xil turkumlanadi.

I. Kichik kollejlari.

II. Texnik yo'nalishdagi kollejlari.

III. Maxsus tayyorgarlik kollejlari.

Innovatsion texnologiyalar pedagogik jarayon hamda o'qituvchi va talaba faoliyatiga yangilik, o'zgarishlar kiritish bo'lib, uni amalga oshirishda asosan interfaol metodlardan to'liq foydalaniladi. Interfaol metodlar - bu jamoa bo'lib fikrlash deb yuritiladi, ya'ni u pedagogik ta'sir etish usullari bo'lib, ta'lim mazmunining tarkibiy qismi hisoblanadi. Bu metodlarning o'ziga xosligi shundaki, ular faqat pedagog va o'quvchi-talabalarning birgalikda faoliyat ko'rsatishi orqali amalga oshiriladi. Bunday pedagogik hamkorlik jarayoni o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, ularga quyidagilar kiradi:

- o'quvchi-talabani dars davomida befarq bo'lmaslikka, mustaqil fikrlash, ijod etish va izlanishga majbur etish;

- o'quvchi-talabalarni o'quv jarayonida bilimga bo'lgan qiziqishlarini doimiy ravishda bo'lishini ta'minlashi;

- o'quvchi-talabaning bilimga bo'lgan qiziqishini mustaqil ravishda har bir masalaga ijodiy yondashgan holda kuchaytirishi;

- pedagog va o'quvchi-talaba o'rtasida hamkorlikdagi faoliyatining uzluksizligi ta'minlash.

Shuni ta'kidlab o'tish kerakki, AQSH universitetlaridagi professorlarning 85% ini Hindistonliklar tashkil qiladi. Ularning ushbu yutuqlarga erishishini avvalo aniq fanlarni chuqur bilishi, chet tillarini mukammal o'rganganligi va axborot kommunikatsiyalar texnologiyalarini milliy iqtisod va ta'lim sohalarida samarali qo'llay bilishi bilan izohlash mumkin. Shunday qilib, mamlakatimizda shaxs manfaati va ta'lim ustuvorligi e'tirof etilgan bir davrda pedagogika fani erkin shaxsni shakllantirish qonuniyatlari, yoshlar shaxsini hayotga moslashtirishning shakl va metodlari, mazmuni va prinsiplarini o'rganadi. Endilikda pedagogika o'z predmeti, fanlar bilan aloqasi, pedagogik bilimlar tizimi va ularning mantiqiy tuzilmasi, nazariy pedagogik bilimlarni tarbiyaga. ta'lim amaliyotiga qo'llash masalalariga doir muammolarni qaytadan yangicha talqinda ko'ndalang qo'yimoqda. Demak, pedagogikada tadqiqotlarning dolzarbligi, bir tomondan, jamiyat ehtiyoji - o'quv-tarbiya tizimini yanada rivojlantirish bilan, boshqa tomondan esa, pedagogik

bilimlarning yangilanish va rivojlanish darajasibilan belgilanar ekan. Hozirgi vaqtda O'zbekistonda jahon ta'lim maydoniga kirishga yo'naltirilgan jarayonining nazariyasi va amaliyotida sezilarli o'zgarishlar sodir bo'lmoqda. Ta'limdagi yondashuvlar, tarkibi o'zgarimoqda va boshqacha munosabatlar, yangi ta'lim tizimi qaror topdi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Azizxo'jaeva N.N. Pedagogik texnologiya va pedagogik mahorat. - TDPU, Toshkent., 2003 y.
2. Kasb ta'limi uslubiyoti / Olimov K.T., O. Abduquddusov, L. Uzoqova, M. Axmedjonov, D. Jalolova. - Toshkent., Iqtisod moliya, 2006.
3. Davlatov K.D. Mehnat va kasb ta'limi, tarbiyasi hamda kasb tanlash nazariyasi va metodikasi. – Toshkent: O'qituvchi, 2014 y

METALLARNING TURMUSHDA VA XALQ XO'JALIGIDAGI AHAMIYATI

Akramov X.M -NamDU, Texnologik ta'lim kafedrası dotsenti.

Matkarimov A. -NamDU, Texnologik ta'lim kafedrası katta o'qituvchisi.

Xusanboev G. -NamDU, 2 kurs TXT yo'nalishi talabasi

Avvalo bir nechta o'quvchiga metall qotishmalari turlari bittadan bo'lib beriladi hamda ularga "Siz mana shu metall turini yaxshilab o'rganasiz, uning timsoliga kirasiz va uni sharhlab berasiz", - deb uqtiriladi. So'ngra ko'rinish o'tkaziladigan joy jihozlanadi. Metallardan hamda ulardan yasaladigan buyumlardan namunalar, metallar haqida ma'lumot beruvchi turli ko'rgazmalar tayyorlanadi. Turli metallar timsolida chiquvchilar tartibi belgilanadi.

Sariq chakmon kiygan nuroniy qiyofali bitta o'quvchi ruda - ma'dan timsolida chiqadi va ko'rinish (mashg'ulot, sahna)ni boshqaradi. Sahnaning bir tomonidan yarim doira bo'lib turishgan turli metallar timsolidagi o'quvchilarga sahnaning ikkinchi tomonidan ruda timsolidagi o'quvchi yaqinlashib keladi. So'ngra u tomoshabin - o'quvchilarga qarab shunday deydi:

- Assalomu alaykum, qadrdonlarim! Sizlar xilma-xil rangdagi bu kiyimlarni kiyib, yasanib olganlarni tanisizlarmi? Meni-chi? Yo'q! - deysizlarmi? Unda avvalo o'zimni tanishtiray. Men - rud, ya'ni ma'dan bo'laman. Men yer osti va tog'jinslari orasida yashayman' mening yoshim, o'h-ho', ming, millon yillarga tengdir. Bu yerga meni tinib-tinchimas konchilar olib kelishdi. Ular meni tegirmonga solib juda ko'p foydali metallar olishlari mumkinligini aytishdi. Eh, qo'yavering, ular meni qazib olish uchun oz-muncha urinishdimi?! Tog'larni portlatib, eskavatorlar yordamida mashinalarga ortib meni bu yerlarga olib kelishdi. Xullas, bu ishlarning sarguzashti uzoq. Sizlar ko'rib turgan mana bular esa mening farzandlarim, nabiralарim. Ruxsatingiz bilan endi navbatni ularga bersam. Ular ham o'zlarini tanishtirishsin.

SHunda qora tUSDagi CHO'yan so'z boshlaydi: - Men sanoatda ko'p ishlatiladigan qotishma - CHO'yan bo'laman. Meni rangimni ko'rib turibsizlar, qora rangdaman. Temir va uglerod qotishmalaridan tashkil topganman. Mendagi uglerod miqdori 2-4 foizni tashkil etadi. Bundan tashqari tanamda (tarkibimda) kremniy. marganets, fosfor, oltingugurt kabi moddalar ham bor. Men qattiq va og'ir metallman. Lekin bitta kamchiligim bor. Men hazilni ko'tara olmayman. ancha mo'rtman. SHu sababli mendan keskin zarba tushmaydigan buyumlar tayyorlanadi. Turli istitish

pechkalari, dastgohlarning asoslari va boshqa shu kabilarni mendan tayyorlashadi. Hali aytganimgiday, bunday buyumlarni bolg'a bilan urib hazillashmang, aks holda arazlab sochilib ketaman.

SHundan so'ng Po'lat so'zga kiradi: - Hoy akagingam, CHO'yan, meni esingdan chiqarib qo'ydingmi? Axir biz bitta oiladanmiz, qora metallar sulolasidanmiz-ku! (tomoshabinlarga yuzlanadi). SHuning uchun tarkibimiz, fe'l-atvorimiz ham yaqin. Mening tarkibimda 2 foizgacha uglerod bo'ladi. Men ham CHO'yanga o'xshab juda qattiqman, biroq mo'rt emasman, egilaman, bukilaman, ammo darrov sinmayman. SHuning uchun menga bolg'alash va kesish usullarida ishlov berish mumkin. Biz Po'latlar Ma'dan bobomiz aytganlaridek, turli-tuman ko'rinishdamiz. Masalan, mening yumshoq, qattiq, keskir, zanglamaydigan xususiyatlarga ega bo'lgan do'stlarim bor. Bizlardan tunukalar, simlar, quvurlar, mixlar, turli asboblari, keskichlar va shu kabi boshqa narsalar tayyorlashadi (stoldan ayrim buyumlarni olib ko'rsatadi). Men ham maqtansam bo'ladi. CHunki yaxshi xususiyatlarimiz ko'p. Masalan, issiqqa bardoshimiz kuchli, issiqni, elektr tokini yaxshi o'tkazamiz, kislotada erimaymiz, ayrimlarimiz xatto zanglamaymizham. Bizning bobokalonimiz temir rudasi bo'ladi. Uni to'plab pechlarda eritishadi, maxsus qoliplardan o'tkazib, turli navli prokatlar hosil qilishadi (plakatdan ko'rsatadi). Bu ishlarni konchilar va degrezlar amalga oshiradilar.

Ruda: - Mana, sizlar qora metallar oilasi bilan tanishdingiz. Bizning ikkinchi oilamizni rangli metallar tashkil etadi. Navbat rangli metallarga. Marhamat!

Alyuminiy: - Mening ismim Alyuminiy. Rangli metallar oilasining a'zosiman. O'zim aslida oppoq bo'laman. Lekin havoda oksidlanishim tufayli yuzimni qoramtir rangham qoplab oladi. Men unchalik qattiq emasman, zichligim kam bo'lganidan mendan presslash, shtampovkalash usulida osongina ko'plab buyumlar yasash mumkin (olib ko'rsatadi). Ayniqsa, elektr o'tkazgich simlar tayyorlashda asosiy o'rinni egallayman. Uzilib ketmasin deb, bir necha tolalarni eshib elektr simlari tayyorlashadi, xatto atrofimizni po'lat tolalari bilan o'rab qo'yishadi. Bu ham bizga bo'lgan bir hurmat-da! Vaznim yengilligi uchun meni mashinasozlik, kemasozlik, samolyotsozlikda ham sevib ishlatishadi. Tarkibimga biroz qalay va shu kabilardan qo'shib, qozon, choynak, xatto ichki yonuv dvigatellarini tayyorlashadi.

Sahnada ufqday qip-qizil Mis paydo bo'ladi. Mis: -Xoy o'rtoqjon, o'zingni juda ham maqtab yubording-ku?! O'sha sen o'tkazadigan elektr tokini men ishlab beraman-a! Elektr toki hosil qiluvchi mashinalarning yakorlari, cho'lg'amlarini mendan tayyorlashadi-ya. Senga qaraganda vaznim ham, zichligim ham yuqori. SHu sababli mendan qumg'on, laganlar ham yasaganlar. Endi, o'rtoqjon, menda ham bitta katta kamchilik bor. Sening oppoq yuzing havoda qorayib qolganidek, meningham qip-qizil yuzim qoramtir bo'lib qoladi. Mendan qilingan tovoqlarda issiqqina palovxonto'rani ham yeb bo'lmaydi-da, afsus! CHunki zahrim chiqib qoladi-da!

Bronza: - Ko'p kuyinmang, Mis aka. Mana sizga yordam beruvchi biz ukalaringiz Bronza bilan Latun doim yoningizdamiz. Kichik ukangiz Latunning ham texnikadagi xizmatlari beqiyos. U ishqalanuvchi yuzalarni tekis, silliq harakatlanishini ta'minlaydi. Mendan esa turli nishonlar tayyorlashadi va ko'kraklariga taqib, maqtanib yurishadi.

Oppoq, yaltiroq rangli qalay gapga aralashadi. Qalay: - Endi, og'aynijonlar! Men sof, haqiqiy qalayman. Men tez eruvchanman. SHu sababli men turli radio sxemalarda kavsharlovchi, ya'ni biriktiruvchi sifatida ishlatilaman. Mana, man yaxshi bukilaman (o'quvchi qo'l, oyoq va bel bo'g'inlarini harakatga Kvtiradi). Bo'g'inlarimga e'tibor bering, bukilganimda qirsillaydi. Haqiqiy qalaylarga shunday ovoz chiqaradi. Begona jinlar aralashmagan qalaylar shunday bo'ladi. Meni tanlashda adashmang, ayniqsa. qo'rg'oshing aralashmang. CHunki qo'rg'oshin bilan

o'xshash tomonlarimiz ko'p (qo'rg'oshin tomoq qirib qo'yadi). Endi, og'aynilar, yana bir sirni ochaylik. Agar mendan alyuiniyga bir oz qo'shilsa dyuralyuminiy, misga qo'shganda esa, boya gapirgan bronzaxrsil bo'ladi. Demak, mening ham qadrim, o'mim chakki emas! Suxbatga ruharalashadi.

Ruh: - Men ham rangli metallar oilasiga mansubman. Rangim havorang oq. Singan joyim esa yaltiroq oq kristallar ko'rinishida. Men zanglamayman. SHuning uchun po'lat tunukalar sirtiga himoya vositasi sifatida meni qoplashadi. Mendan tunukasozlar chelak, tog'ora kabi ro'zg'or buyumlari ham tayyorlashadi (olib ko'rsatadi).

Ruda: - Hurmatli ilmi toliblar! Mana siz bir qator mvtallar bilan tanishdingiz. Ularning urug'-aymoqlari ko'p, hammalari bilan batafsil tanishib ulgurmaymiz. Hu ana bir to'p bo'lib turganlarni ko'ryapsizmi? (sahna chetida doira bo'lib turganlarni ko'rsatadi. Doira markazida oq va sariq yaltiroq kiyimli o'quvchilar bor. Ularning atrofini xiraroq kiyimli o'quvchilar o'rab olgan). Doira ichidagilar nodir, qimmatbaho metallar - kumush, oltin va platinalardir. Ular nihoyatda qimmatbaho bo'lganliklari uchun atrofiga soqchilar qo'yib qo'ydik. Aks holda o'g'irlab ketishlari mumkin-da. Bu hazil, albatta. Buni ramziy ma'noda tushunmoq kerak.

Endi ochig'ini aytganda, hunar ham katta ilm. Siz mana shu metall materiallardan biror narsa tayyorlamoqchi bo'lsangiz yoki ulardan tayyorlangan buyumlardan foydalanoqchi bo'lsangiz, ularning o'ziga xos fe'l-atvori, ya'ni xususiyatlarini bilishingiz, ularga mos holda ish ko'rishingiz zarur. Aks holda ishingiz yurishmaydi. Yuqorida bu xususiyatlarning ayrimlari bilan tanishdingiz. Endi men sizlarga metallarning asosiy xossalari yana bir bor eslatib o'taman:

1-xossa. Qattiqlik. Bu metallarning boshqa qattiqjismga nisbatan qarshilik ko'rsata olish xususiyati.

2-xossa. Qayishqoqlik va elastiklik. Metallarning tashqi kuch ta'siridan so'ng o'z holatini saqlab qolish xususiyati.

3-xossa. Plastiklik va mo'rtlik. Metallarning tashqi kuch ta'sirida shaklini o'zgartirishi, ya'ni, sinish, darz ketish, parchalanish, ezilish, cho'zilish kabi xususiyatlari.

4-xossa. Elektr va issiqlik o'tkazuvchanlik.. SHuning uchun metall tayoqlar (masalan, truba, armatura va hokazo)ni elektr simlariga tekkizib bo'lmaydi, tandirga kosov qilinmaydi va hokazo.

Umuman olganda, metallarning xossalari ko'p. Ular odatda fizik, kimyoviy va mexanikaviy xossalar deyiladi.

SHuning bilan bugungi uchrashuv - tanishtiruv mashg'ulotimiz tamom. Ustaxonlarda uchrashguncha xayr, azizlar!

Mehnat va kasb-hunarga oid mashg'ulotlarda bunday rolli sahnalashtirishlar orqali o'quvchilarga mazkur mavzuni jonli, ta'sirchan, puxta yetkazish imkoniyatlari mavjud. SHuningdek, bunda o'quvchilar va talabalarning mustaqil ishlash, o'z fikrlarini erkin va atroflicha bayon qilish qobiliyatlari ham rivojlanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Muslimov N.A., Sharipov SH.S., Qo'ysinov O.A. Mehnat ta'limi o'qitish metodikasi, kasb tanlashga yo'llash. Darslik. - T.: TDPU, 2014.- 355 b.

2. Zoxidov N.M. Yog'ochsozlik va metall bilan ishlash. Mehnat ta'limi 5-7 sinflar.- T.: Voris nashriyot, 2007. - 163 b.

3. Akramov X., Matkarimov A., Umarov K., Sayfitdinov A., Ibroximov M. Metallarga ishlov berish texnologiyasi.- T.: Navro'z, 2020.- 125b.

ТЕХНОЛОГИЯ ДАРСЛАРИДА ЎҚУВЧИЛАРНИНГ КРЕАТИВЛИК СИФАТЛАРИНИ РИВОЖЛАНТИРИШГА БЎЛГАН МУҲИМ ЁНДАШУВЛАР

Алибоев Т.Ч. -ЖДПИ. Технологик таълим кафедраси катта ўқитувчиси
Норбоев Б. -ЖДПИ талабаси

“Технология” дарсларида ўқувчиларнинг креативлик сифатларини ривожлантиришда самарадорликка эришишда ана шу мақсадга қаратилган педагогик жараённинг қандай ёндашув асосида ташкил этилиши ҳам аҳамиятли саналади. Шу сабабли тадқиқотни олиб боришда “Технология” дарсларида ўқувчиларнинг креативлик сифатларини ривожлантиришда юкори самарадорликка эришиш мақсадида педагогик жараёнга нисбатан инновацион характердаги ёндашувларни қарор топширишга эътибор қаратилди. Муаммонинг назарий ва амалий тавсифидан келиб чиққан ҳолда педагогик жараёнга нисбатан қуйидагича ёндашиш “Технология” дарсларида ўқувчиларнинг креативлик сифатларини ривожлантиришда самарадорликни таъминлайди, деган хулосага келинди (1-расм).



1-расм. “Технология” дарсларида ўқувчиларнинг креативлик сифатларини ривожлантиришга бўлган муҳим ёндашувлар

1. **Герменевтик ёндашув.** Мазкур ёндашув “Технология” ўқув фанига тааллуқли бўлган тушунчаларнинг маъно, мазмунини ўқувчилар томонидан чуқур англанишини ифодалайди. Аксарият ҳолатларда ўқувчилар билимларининг пухта, чуқур бўлмаслиги уларнинг ўқув фанлари ёки умуман, илмий билимлар мазмуни, моҳиятини етарлича, тўғри англай олмаслиги билан ҳам боглик бўлади.

“Технология” дарсларида ўқувчиларнинг креативлик сифатларини ривожлантиришга герменевтик ёндашиш “ўқувчиларда тушунча ва атамаларни тизимлаштириш, маъносини аниқлаштириш ҳамда рефлексив фаолиятни

фаоллаштиришга бўлган қобилиятини ривожлантириш; ижодий тафаккурни ўстириш орқали ўқувчиларнинг билиш фаоллигини оширади; коммуникатив компетенцияларни, катта ҳажмдаги ахборотлар билан ишлаш ва матнлар мазмунини талқин қилиш малакаларини шакллантиришга ёрдам беради”

2. Ассоциатив ёндашув. Мазкур ёндашув креатив гоёларни илгари суриш жараёнида ассоциациялар билан фаол ишланишини англайди. Шунга кўра шахсда креатив тафаккурни ривожлантириш негизини турли, бир-бирига зид ассоциациялар ва улар ўртасида мантикий бирликни юзага келтириш ташкил этади. Хусусан, креатив тафаккурни ривожлантиришга хизмат қиладиган методлар орасида “Тасодифий ассоциациялар” методи ўзига хос аҳамият касб этади.

“Технология” дарсларида ўқувчиларнинг ўқув-билиш фаоллигини ошириш, уларда креативлик сифатларини ривожлантириш босқичларида ҳам ассоциацияларга таяниш асосида бажариладиган ўқув топшириқлардан кенг фойдаланилади. Ўқувчилар томонидан ўқув топшириқларини бажариш чоғида уларда юзага келадиган ассоциациялар “ўқув предметига оид, мавҳум, психологик ҳамда норéal бўлиши мумкин”. У қандай бўлишидан қатъи назар ассоциация ўқувчиларни креатив фикрлашга ундайди.

3. Визуал-образли ёндашув. Креатив тафаккурнинг муҳим таркибий элементларидан бири – ижодий тасаввур ҳисобланади. Тасаввурнинг ижодий характерга эга, аниқ ва ёрқин бўлиши ўзига хос креатив гоёнинг шаклланишини таъминлайди. Зеро, шахс томонидан ҳар қандай ахборот қабул қилинганда онгда дастлаб воқеликнинг визуал образи пайдо бўлади. Визуаллик “тасаввурда ихтиёр қилинаётган воқеликни яратиш” бўлиб, у “мақсадга эришишнинг энг кучли қуроли саналади”.

Шунга кўра “Технология” дарсларида ўқувчилар ўқувчиларнинг креативлик сифатларини ривожлантиришда ўқитувчилар қуйидаги икки жиҳатга эътиборни қаратиши зарур: биринчидан, ўқувчиларда визуал-образли тасаввурни шакллантириш; иккинчидан, ўқувчиларнинг визуал-образли тасаввурларига таянган ҳолда улар томонидан креатив гоёларнинг илгари сурилиши учун зарур педагогик шарт-шароитларни яратиш.

4. Фаолиятли ёндашув. Креатив гоёларнинг шаклланиши у қандай (касбий ёки кундалик (маиший), ақлий ёки жисмоний, ижодий ёки амалий, ўқув ёки ишлаб чиқариш) бўлишидан қатъи назар бевосита шахснинг фаолияти билан боғлиқдир. “Фаолиятли ёндашув – шахснинг онгини ҳамда яхлит ҳолда унинг ўзини ҳам шакллантиришга йўналтирилган фаолияти жараёни” бўлиб, айнан “фаолият орқали ҳамда фаолият жараёнида шахс айнан қандай бўлса, шундай шаклланади, унинг ўз-ўзини ривожлантириш ва ўз-ўзини такомиллаштириши” содир бўлади. Бундан англанадик, креативлик барча сохалар ва йўналишларда ҳам шахсга хос аҳамиятли сифат бўлиб, унинг ривожланганлик даражаси фаолият самарадорлигини таъминлашга хизмат қилади.

5. Муаммоли ёндашув. Замонавий ўқитишда муаммоли таълим технологияларини фаол қўллашга алоҳида эътибор қаратилмоқда. Ушбу технологияларнинг асосини муаммоли таълим ташкил этади. Муаммоли таълим шахсда “ижодий изланиш, кичик тадқиқотларни амалга ошириш, муайян фаразларни илгари суриш, натижаларни асослаш, маълум хулосаларга келиш каби кўникма ва малакаларни шакллантиришга йўналтирилган таълим” бўлиб, ушбу таълимнинг асосини эса “муаммо (юн. “тўсиқ”. “кийинчилик”) ёки

муаммоли вазият ташкил этиб, муаммоли таълим технологиялари уларнинг ечимини топишга хизмат қилади”.

“Технология” дарсларида ўқувчиларни муаммоли топшириқларни ҳал қилишга жалб этиш уларда креатив сифатларини самарали ривожлантиради. Ўқувчиларни муаммоли топшириқларни ҳал қилишга жалб этишда “Тайёр маҳсулотни янги деталлар билан бойитинг”, “Миллий ва замонавий қарашлар уйғунлиги асосида уй жихозини тайёрланг”, “Иккиламчи материаллардан ўзига креатив маҳсулотни яратиш тўғрисида ўйлаб кўринг”, “Тез ва осон тайёрланадиган ўзига хос парҳез таомини тайёрланг”, “Мобил телефонларнинг ток қабул қилгичларини ихчам, йигинчоқ ҳолда саклаш мумкин бўлган содда, аммо чиройли кўринишга эга бўлган жихозни тайёрланг”, “Қирқим материаллардан дизайни ўзига хос бўлган елпиғич тайёрланг” каби топшириқлар ўқувчиларни изланишга ундайди.

6. Технологик ёндашув. Луғавий жиҳатдан “технология” тушунчаси (юнон. “techné”, “logos”) маҳорат (санъат) ҳамда таълимот (тушунча), демак, “маҳорат тўғрисидаги таълимот” маъносини англатади. Когнитив жиҳатдан эса ушбу тушунча “муаян (ишлаб чиқариш, ижтимоий, иқтисодий ва бошқа) жараёнларнинг юксак маҳорат, санъат даражасида ташкил этилиши” деган мазмунни ёритишга хизмат қилади.

“Технология” дарсларида муаммоли, интерфаол, инновацион, лойиха, компьютер, ҳамкорлик таълими технологияларини мақсадли қўллаш орқали ўқувчиларни биргаликда, ўзаро ҳамкорликда ишлашга жалб этиш улар томонидан креатив лойиҳаларнинг яратилиши, муаммоли вазиятларнинг ҳал қилиниши учун қулай шароитни юзага келтиради. Интерфаол методлар ўқувчилар томонидан ўқув топшириқларини бир неча муқобил вариантлар бўйича ечимга эга бўлишини таъминлаш асосида бажарилишига ёрдам беради.

7. Интерфаол ёндашув. Замонавий педагогиканинг тарқибий асосларидан яна бири – интерфаол таълим саналади. “Интерфаол таълим (ингли. “interact”, рус. “интерактив”; “inter” – ўзаро, “act” – ҳаракат қилмоқ) – талабаларнинг билим, кўникма, малака ва муаян ахлоқий сифатларни ўзлаштириш йўлидаги ўзаро ҳаракатини ташкил этишга асосланувчи таълим” бўлиб, у бир қатор афзалликларга эга. Шундан келиб чиққан ҳолда айтиш мумкинки, “Технология” дарсларида ўқувчиларнинг креативлик сифатларини ривожлантиришга нисбатан интерфаол ёндашув ўқитиш жараёнига интерфаол методлар (“Морфологик кути”, “Синовлар ва хатолар” (ёки “Вариантларни танлаш”) методи), Э.П.Торренснинг “Тугалланмаган расмлар” тести, “Тасодиқий ассоциациялар” методи кабилар)нинг самарали татбиқ этилиши, ўқувчиларнинг ўқув материални биргаликда, ўзаро ҳаракат асосида ўзлаштириши, ўқув топшириқларини уларнинг мураккаблигига кўра жуфтликда, кичик ёки катта гуруҳларда бажаришда акс этади.

8. Полилогик ёндашув. Инновацион таълим муҳитида ўқитишни таълим оловчиларнинг биргаликда, ўзаро ҳаракати асосида ташкил этиш педагогик жараёнининг сифатини яхшилаш, самарадорлигини оширишнинг муҳим шартларидан бирига айланди. Ўқувчилар ўқув-билиш фаолиятини ташкил этишга технологик ёндашиш ўқувчи – ўқувчи, ўқувчи – ўқувчилар гуруҳи, ўқувчи – ахборот-коммуникацион технологиялар ўртасида ўзаро таълимий ҳамкорликни қарор топтиришга хизмат қилаётган бўлса, полилогик ёндашув ўқув топшириқларининг ечими юзасидан илгари сурилаётган гоъларни жуфтлик, кичик ва катта гуруҳда муҳокама қилиш, асосланган бошқа гуруҳларга

тақдим этиш, индивидуал ва жамоавий тарзда натижаларни рефлексив таҳлил қилиш ва баҳолашга ёрдам беради.

“Технология” дарсларида полилогик ёндашув ўқувчилар томонидан ўқув топшириқларини бажариш, муаммоли вазиятларни таҳлил қилиш, креатив лойиҳаларни тайёрлаш, уларни тақдим этиш ва баҳолаш жараёнида яққол кўзга ташланади. Зеро, ечим, қарорларнинг қанчалик тўғри, оқилона, лойиҳаларнинг ўзига хос, амалий қийматга эга эканлиги муҳокама жараёнида ойдинлашади.

9. Ҳиссий-психологик ёндашув. Мазкур ёндашув куйидаги ҳолатларни ифодалайди: биринчидан, ўқувчиларга бериладиган ўқув топшириқларининг уларнинг ёш ва психологик имкониятларига мос келиши; иккинчидан, ўқувчиларнинг ўқув топшириқларини бажариш, лойиҳаларни тайёрлаш, уларни мазмун, дизайн, амалий қиймати нуқтаи назардан муҳокама қилиш ва тақдим этиш жараёнида ўқувчиларнинг бир-бирларини қўллаб-қувватлай олиши, бошқаларнинг фикрига нисбатан ҳурмат кўрсатиши, тенгдошларини руҳлантира олиши, самарали натижани қўлга киритишга бўлган ишонч ҳиссига эғаликни намоён қила билиши; учинчидан, ўқувчилар томонидан илгари сурилган креатив ғоялар, тайёрланган креатив маҳсулотларнинг ижтимоий субъектларнинг сезги ҳамда ҳиссиётларига таъсирининг инobatга олиниши; тўртинчидан, илгари сурилган креатив ғоялар, тайёрланган креатив маҳсулотларнинг ўқувчиларни ҳиссий, ахлоқий жиҳатдан тарбиялашга хизмат қилиши.

10. Ижодий ёндашув. Ушбу ёндашув, биринчидан, ўқувчилар томонидан “бадий мазмунга эга ахборотларни идрок қилиш ва ижод маҳсулотларининг жамият ижтимоий онгига” ижобий таъсирини таъминлаш; иккинчидан, креатив лойиҳаларни тайёрлашга ҳиссий ёндашиш; учинчидан, ўқувчилар томонидан илгари суриладиган креатив ғоялар, тайёрланаётган маҳсулотларнинг бадий-ҳиссий мазмунга эга бўлиш заруриятини ифодалайди.

“Технология” дарсларини ташкил этишга ижодий ёндашиш ўқувчиларнинг ижодий қобилиятини ҳам ривожлантиришга ёрдам беради. Индивидуал-психологик ҳусусият сифатида “шахснинг ҳиссий кечинмаларни тўлақонли ифодалашни тақозо этувчи ижодий характердаги у ёки бу фаолиятни бажариш кўникма, малакаларини ҳеч бир қийинчиликсиз ўзлаштириши, улар ёрдамида фаолиятни тез, осон, сифатли ва самарали бажаришини англатувчи” ижодий қобилият креативликнинг муҳим таркибий асосларидан бири саналади.

11. Интегратив ёндашув. Мазкур ёндашув асосида интеграция ётади. “Интеграция” тушунчаси луғавий жиҳатдан икки хил маънони англатади: 1) айрим қисмларнинг, элементларнинг боғлиқлик ҳолатини, уларни қўшиб бирлаштиришни ифодаловчи тушунча; 2) фанларнинг яқинлашиши ва ўзаро боғланиш жараёни”. Тадқиқотчилар “интегратив ёндашув” тушунчасини шарҳлашга турлича ёндашади.

“Технология” дарсларида ўқувчиларнинг креатив сифатларини ривожлантиришга нисбатан интегратив ёндашиш ўқув фанлари, ўқув фанининг мавзулари, педагогика, психология, методика ва “Технология” фанлари, ўқувчилар ҳамда ўқувчининг шахсий, психологик қобилиятлари ўртасидаги ўзаро алоқадорлик ва боғлиқликни ифодалайди. Зеро, “педагогик ва методик билимларнинг ўқув фани асослари билан интеграциялашуви” [39, 17] кутилган натижаларни қисқа муддатларда қўлга киритишга ёрдам беради.

12. Рефлексив ёндашув. Мазкур ёндашув “ўз иш фаолияти натижаларини мустақил таҳлилий баҳолаш малакаларига эга бўлишларига

эришиш мақсадга мувофиқлигини англатади. Ўқувчилар ўз фаолияти натижаларини, ижодий маҳсулотларни мустақил равишда рефлексив баҳолар экан, эришилган ютуқлар омилини англаш, йўл қўйилган хато, камчиликларнинг сабабларидан хабар бўлиш, келгуси фаолиятда уларнинг такрорланишига йўл қўймаслик тўғрисидаги хулосага келиш ва амалий чораларни кўриш имкониятига эга бўлади”.

Демак, креативлик – ижодкорликнинг юқори босқичи саналади. Ўз моҳиятига кўра у яратиш, яратувчанликни ифодалайди. Шахс креативлиги у томонидан ташкил этиладиган фаолиятнинг самарадорлигини оширибгина қолмай, унинг узок йиллар давомида ўз долзарблигини йўқотмаслик, амалий қийматини пасаймаслигини таъминлайди. Фаолият мазмунининг янги гоёлар билан бойитилиши, инновацион таркибий қисмлар билан тўлдирилиши уни ташкил этаётган шахс учун ҳам, атрофдагилар учун ҳам бирдек қизиқарли, завқли бўлишига ёрдам беради. Ўз фаолиятини ана шу тарзда йўлга қўйишга эриша олган шахс бозор муносабатлари шароитидаги мураккаб, кучли рақобатга бардошли бўла олади. Шу сабабли умумий ўрта таълим мактабларида ўқувчиларда креатив сифатларини шакллантириш, уни изчил ривожлантириб бориш меҳнат бозорида ўз ўрнига эга бўлишига ёрдам бериш билан бирга соҳанинг ривожланишига ҳам замин яратади. Герменевтик, визуал-образли, фаолиятли, муаммоли, интерфаол, полилогик, технологик, хиссий-психологик, ижодий ёндашув, танкидий, интергратив, рефлексив ёндашув “Технология” дарслирида ўқувчиларнинг креативлик сифатларини ривожлантириш самарадорлигини кафолатлайди.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Методики развития креативности // http://moluch.ru/rules/?utm_source=sselfad&utm_medium=popup&utm_campaign=archive.
2. Тест креативности Торренса. Диагностика творческого мышления // <https://psycabi.net/testy/577-test-kreativnosti-torrensa-diaagnostika-tvorcheskogo-mvshleniya>.
3. Тест креативности Торренса // http://www.miu.by/kaf_new/impn/150.pdf.
4. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Ўзбекистон Республикасининг Халқ таълими тизимини 2030 йилга қадар ривожлантириш Концепциясини тасдиқлаш тўғрисида”ги (2019 йил 29 апрель) ПФ-5712-сонли Фармони // <https://lex.uz/docs/4312785>.

КУЧЛИ ТАЪСИР ЭТУВЧИ ЗАҲАРЛИ МОДДАЛАР БИЛАН БОҒЛИҚ ФАВҚУЛОДДА ВАЗИЯТЛАР ТАЪСИРИДАН АҲОЛИНИ ВА ХУДУДЛАРНИ МУҲОФАЗАЛАШ ЧОРА-ТАДБИРЛАРИ Эгамбердиев А.А. -Наманган давлат университети Ҳаёт фаолияти хавфсизлиги кафедраси ўқитувчиси Нуралиев А. О. -Тошкент Давлат Техника Университети 1-босқич магистранти

Аннотация: Мамлакатимиз ҳудудида жойлашган кимёвий хавфли объектларда ишлатиладиган кучли таъсир этувчи заҳарли моддаларнинг турлари, уларнинг инсон организми ва атроф табиий муҳитга кўрсатиши мумкин бўлган салбий таъсирлари ҳамда улардан муҳофазаланишдаги мавжуд муаммолар кўтарилган. Шунингдек, кучли таъсир этувчи заҳарли моддаларга

карши курашнинг умумий усуллари кўрсатиб ўтилган ҳамда ушбу муаммоларни бартараф этишга доир тавсиялар кўрсатиб ўтилган.

Аннотация: Обострились виды высокоэффективных токсичных веществ, используемых в химически опасных объектах, расположенных на территории нашей страны, их возможное негативное воздействие на организм человека и окружающую природную среду, а также существующие проблемы в их защите. Также были показаны общие методы борьбы с токсическими веществами с сильным действием, а также даны рекомендации по устранению этих проблем.

Annotation: The types of highly effective toxic substances used in chemically dangerous objects located on the territory of our country, their possible negative effects on the human body and the surrounding natural environment, as well as existing problems in their protection have been exacerbated. Also, general methods of combating toxic substances with a strong effect have been shown, as well as recommendations on the elimination of these problems have been made.

Калит сўзлар: кучли таъсир этувчи захарли модда, кимёвий хавфли объект, концентрация, хавф, захарланиш, кутқарув тузилмалари, разведка, шахсий химоя воситалари, огохлантириш, муҳофаза.

Ключевые слова: сильнодействующее ядовитое вещество, химически опасный объект, концентрация, опасность, отравление, спасательные сооружения, разведка, средства индивидуальной защиты, предупреждение, защита.

Keywords: strong-acting poisonous substance, chemically dangerous object, concentration, danger, poisoning, rescue structures, intelligence, personal protective equipment, warning, protection.

Қирриш. Техноген тусдаги фавқулудда вазиятлар орасида кучли таъсир этувчи захарли моддалар билан боғлиқ объектлардаги авариялар ўзининг келтирадиган талофатлари юқорилиги билан ажралиб туради. Бундай объектларда авария содир бўлган тақдирда, фақат объект ишчиларининг саломатлигига хавф тугдирмасдан, балки унинг атрофида жойлашган худуд аҳолисига ҳам хавф тугдиради. Чунки, улар юқори захарлилик хусусиятига эга бўлган ва маълум шароитларда (асосан кимёвий хавфли объектлардаги аварияларда) одамлар ва жониворларнинг оммавий захарланишини келтириб чиқара оладиган, шунингдек атроф муҳитни зарарлай оладиган кимёвий бирикмалардир. Шу сабабли ҳам бундай турдаги авариялар содир бўлганда аҳоли хавфсизлигини таъминлашнинг илмий-услубий асосларини ишлаб чиқишга зарурат туғилмоқда [5].

Кучли таъсир этувчи захарли моддаларнинг асосий қисми автотранспортлар ёрдамида корхоналарга ташиб етказилади. Ташиш жараёнида уларнинг тўкилиши кузатилса ёки кучли таъсир этувчи захарли моддалар билан боғлиқ объектларда авария содир бўлган тақдирда зудлик билан тарқалган модданинг тури, унинг атроф-табiiй муҳит ва инсонларнинг ҳаёти ва саломатлигига кўрсатиши мумкин бўлган салбий таъсирлари аниқланади ҳамда олинган натижаларга асосан муҳофазаланиш усуллари қўлланилади [3].

Шу сабабли ҳам мустақиллик йилларида мамлакатимизда фавқулудда вазиятларнинг олдини олиш, улар содир бўлганида ҳаракат қилиш бўйича яхлит давлат тизими ва унинг мувофиқлаштирувчи органи сифатида Ўзбекистон Республикаси Фавқулудда вазиятлар вазирлиги ташкил этилди, соҳанинг зарур меъёрий-ҳуқуқий базаси шакллантирилди [1].

Бизга маълумки, объектларда ишчи-ҳодимларни кимёвий заҳарланишдан муҳофаза тадбирлари корхонадаги хизмат тузилмалари, кутқарув тузилмаларига кирувчи кутқарувчилар томонидан амалга оширилади. Шу сабабли ҳар бир кутқарувчи заҳарли моддаларнинг хоссаларидан хабардор бўлиши талаб этилади. Шу билан бирга заҳарли моддалар билан ишлайдиган ишчи ва ҳодимлар ҳам заҳарли моддаларнинг инсон организмга кўрсатадиган салбий таъсирлари, улурдан муҳофазаланиш усуллари, заҳарли моддалардан муҳофазаланишда қўлланиладиган замонавий шахсий ҳимоя воситалари турлари ва улардан фойдаланиш усуллари билишлари талаб этилади.

Мавзунинг долзарблиги. Мазкур соҳасидаги асосий долзарб масала бу кучли таъсир этувчи заҳарли моддалар ишлатиладиган ишлаб чиқариш корхоналарининг ишчи-ҳодимлари ҳамда корхона атрофидаги аҳолини ФВ юз берганда тўғри ҳаракат қилишга ўргатиш, корхона ҳодимларини малакасини ошириш ва дастгоҳлар созлигини доимий назорат қилиш орқали юзага келиши мумкин бўлган ФВнинг олдини олиш ёки унинг талофатларини минималлаштиришни таъминлашнинг илмий-услубий асосларини ишлаб чиқилмаганлиги ҳамда мамлакатимизда малакали кадрларни тайёрлашдан иборатдир. Шунингдек, фуқаро муҳофазаси борасида мунтазам равишда амалга ошириладиган ишларни узлуксиз равишда такомиллаштириб борилиши; фуқаро муҳофазаси мутахассислари илғор тажриба усуллари амалий тарзда эгаллаб олиши, методик, психологик ва бошқа жиҳатдан энг сўнгги ютуқларини мунтазам равишда ўзлаштириши, иш амалиётига татбиқ этиб бориши зарурлигини англай олиши; кутқарув ишлари ва бу жараёнини такомиллаштириш, уни мазмунини чуқурлаштириш ва сифатини ошириш мақсадига зарур ҳимоя ишларини ташкил этилиши зарурлиги муаммонинг долзарблигини белгилайди.

Асосий қисм. Кўпинча ишлаб чиқариш технологик жараёнларининг ва иншоотларни эксплуатация қилиш қондаларининг бузилиши натижасида заҳарли моддалар тарқалиши ва улардан аҳолини муҳофаза қилиш чора-тадбирларини амалга оширилиши талаб этилади.

Радиациявий, кимёвий ва ёнгин хавфи бор шаҳарлар ва аҳоли пунктларини, КТЭЗМ, портлаш хавфи бор бўлган ва биологик воситалари бўлган объектларни, одамга кучли таъсир этувчи моддалар ташийдиган транспорт воситаларининг темир йўл узелларини, нефт-газ конлари, нефт қувурлари, гидроузеллар ва бошқа объектларнинг рўйхати аниқ келтирилади. Талофат ҳудудидаги, шунингдек қўшни ҳудудлардаги эпидемиологик, эпизоотик, элифитотик ва сейсмик фаол ҳудудлар, табиий офатлар бўладиган жойлар, саноат ва қишлоқ ҳўжалигига етиши мумкин бўлган зарарлар ҳамда шу ҳудудлардаги аҳоли сони ва кўриладиган тахминий талофатлар миқдори кўрсатилади.

Кучли таъсир этувчи заҳарли моддаларнинг бир неча турлари мавжуд, уларнинг физикавий хоссалари турлича бўлиб, бўғувчи, нафас олиш органлари орқали инсон тана аъзоларига салбий таъсир кўрсатиш хусусиятига эга. Кучли таъсир этувчи заҳарли моддалар билан инсон организми заҳарланганда модда турига қараб заҳарланиш белгилари турлича бўлади.

Қуйида бир неча кучли таъсир этувчи заҳарли моддаларнинг физикавий хоссалари ва инсон организмга салбий таъсирларини кўриб чиқамиз [3]:

Аммиак

Аммиак NH_3 – рангсиз бўғувчи хусусиятга эга бўлган, ўекир хидли захарли газдир. У инсон организмга таъсир этганда аввало нафас олиш органларига салбий таъсир кўрсатиб, бурун битиши, йўтал, нафас олишнинг кийинлашиши, юракнинг тез-тез уриши, пульс уришнинг тезлашиши кузатилади. Аммиакнинг буги терини ва шиллиқ қаватларнинг таъсирчанлигини ошишига, қичишиш, терининг кизариши, кўзнинг ачишиши ва ёшланишига олиб келади. Унинг ишлаб чиқариш корхоналарида ҳаводаги йўл қўйиладиган концентрацияси 20мг/м^3 . 40мг/м^3 концентрациясида инсонлар хидидан сезишлари мумкин. 500мг/м^3 ни ташкил қилса, инсонларда нафас олган захоти ўлим ҳолати кузатилади.

Хлор

Хлор – Cl_2 яшил- сариқ тусли ўткир бўғувчи хидли захарли газ ҳисобланади. Инсон организми хлор билан захарланганда- кўкракда огрик пойдо бўлиши, кўз ёшланиши, қуруқ йўтал, кўнгил айнаш, қайт қилиш, мувозанатни йўқотиш, нафас етишмаслик ҳолатлари кузатилади.

Хлорнинг ишлаб чиқариш корхоналарида ҳаводаги йўл қўйиладиган концентрацияси 1мг/м^3 . Хлорнинг минимал сезиладиган миқдори 2мг/м^3 , 10мг/м^3 концентрацияси эса инсон организмга салбий таъсир кўрсатади. Агар унинг ҳаводаги миқдори $100\text{--}200\text{мг/м}^3$ га тенг бўлса $30\text{--}60$ дақиқа шу жойда бўлган инсон учун хавfli ҳисобланади, концентрацияси ундан ортиб кетса, кескин ўлим содир бўлади.

Юқорида кўрганмиздек, ҳар бир кимёвий захарли модданинг чегаравий йўл қўйиладиган концентрацияси мавжуд. Қуйидаги омиллар сабабли кучли таъсир этувчи захарли моддалар билан боғлиқ объектларда авария содир бўлиши ҳамда захарли моддаларнинг чегаравий йўл қўйиладиган концентрацияси ошиб кетиши оқибатида корхона ишчи-ҳодимлари ва ён атрофдаги аҳолининг саломатлигига салбий таъсир кўрсатиши мумкин:

- хавfli объектларнинг ноқулай жойлашуви;
- ишлаб чиқариш воситаларининг эскириши, авария ҳолатига келиши;
- кучли таъсир этувчи захарли моддалардан фойдаланиш, сақлаш ва ташишнинг ортиши;
- ишчилар касбий маҳоратининг, меҳнат маданиятининг тушиб кетиши ҳамда малакали кадрларнинг камайиб кетиши;
- раҳбар ҳодимларнинг масъулиятсизлиги, ишлаб чиқариш ва технологик жараёнларда интизомнинг тушиб кетиши;
- кимёвий хавfli объектлар ҳолатининг етарли даражада назорат қилинмаслиги;
- зарарли ва хавfli омилларни назорат қилиш тизимининг мукамал эмаслиги;
- техника хавфсизлиги қоидаларига амал қилиш даражасининг тушиб кетиши.

Кучли таъсир этувчи захарли моддалар (КТЗЭМ) билан боғлиқ бўлган объектларда авария ва ҳалокатлар оқибатларини бартараф этишда авария-қутқарув ва бошқа кечиктириб бўлмайдиган ишларни ташкил этиш, ўз вақтида ва сифатли разведка ишларини олиб бориш муҳим аҳамиятга эгадир.

Разведкани радиация ва кимёвий разведка тузилмаларидан ташкил этилган гуруҳ звенолари олиб боради ҳамда қуйидаги ишларни амалга оширади[2]:

1. Авария содир бўлган жой ва кучли таъсир этувчи заҳарли модда тури, шунингдек ҳудуд ва объектнинг заҳарланганлик даражаси ва қўлами аниқланади
2. Зарарланган ҳудуд чегарасини айланиб ўтилади ҳамда ҳудуддан чиқишнинг ҳавфсиз йўналишлари аниқланади.
3. Тупроқ, сув ва бошқа ташки мухит объектларидан намуналар олинади ва таҳлил қилиш учун лабораторияга юборилади.
4. Кимёвий зарарланган ҳудуд ўчогидаги одамлар ҳолатини баҳоланади.
5. КТЭЗМнинг ҳудудга ёки атмосферага таркалаётганлиги аниқланиши биланок объект ишчи ва хизматчилари ҳамда яқин атрофда яшовчи аҳолига ҳавф ҳақида хабар берилади.

Авария содир бўлган объектда биринчи навбатда кучли таъсир этувчи заҳарли моддаларнинг тўқилиши ёки тарқалишини тўхтатиш тадбирлари амалга оширилади ҳамда зарарланган ҳудуднинг чегараси белгиланади. Бу ҳудудга авариянинг оқибатларини бартараф этишда қатнашмайдиган шахсларнинг киришларига руҳсат этилмайди. Бу ҳудуд алоҳида махсус ишчи ва хизматчилардан ташкил топган гуруҳ томонидан ўраб олинади[3].

КТЭЗМлар билан зарарланган ҳавонинг тарқалиш йўналишини, зарарланган ҳудудлардан ҳавфсиз чиқиш йўллари ва мухитни аниқлаш учун гидрометеорологик кузатишларига алоҳида этибор берилади. Авария содир бўлган ҳудуддан чиқиш учун энг қисқа шамол эсадиган ва баландликдан ўтадиган шамол йўналишига перпендикуляр бўлган йўналиш танланади.

Жабрланганларга энг қисқа вақт ичида тиббий ёрдам кўрсатилади.

Зарарланган ўчоқ чеклангандан кейин заҳарланган ҳудудларни зарарсизлантириш ишлари олиб борилади. Объектларни, асбоб ускуналарни зарарсизлантириш манбаи сифатида КТЭЗМнинг нейтраллаштирувчи моддалар танланади.

КТЭЗМ билан зарарланган ўчоқда олиб борилаётган ишлар жараёнида ҳавфсизлик талабларига риоя қилиш лозим, жалб этиладиган мутахассислар газниқоб, муҳофаза кийими ҳамда шахсий химоя воситалари, дори-дармон қутиси билан таъминланадилар. Зарарланган ҳудудда иш бошлашдан олдин жалб этилган кутқарувчилар билан КТЭЗМ тури ва содир бўлган вазият ҳақида йўриқнома ўтказилади [4].

Хулоса. Ҳозирги кунда ишлаб чиқариш жараёнида, кишлоқ хўжалиги ва ҳаётимиз мобайнида юзлаб ҳар хил кимёвий бирикмалар ишлатилмоқда. Улар инсоният, ҳайвонот олами ва ўсимлик дунёси учун зарарли ҳисобланиб, уларнинг сони кун сайин ортаётганини кўришимиз мумкин. Шу сабабли ҳам, юзага келиши мумкин бўлган фавқулодда вазиятлар ҳавфи ортаверади. Табиий, техноген ва экологик тусдаги фавқулодда вазиятлар, авариялар ва фожиалар оқибатларини тугатиш бўйича тўпланган тажрибалар, фуқаролар муҳофазасида олинган назарий билимлар, юқорида таъкидланган ФВларда, фуқароларни онгли равишда тез, қатъиян ҳаракат қилишга, иқтисодиёт тармоқларини тезда қайта тиклаб, уни ишга тушириб юборишга ва талофот кўрганларга ўз вақтида керакли ёрдамларни кўрсата олишга ўргатади. Албатта, бу вазифалар, табиий офатлар, авария ва талофотларнинг табиати, тавсифи, келиб чиқиш сабаблари ва уларни келтирадиган оқибатларини чуқур ўрганиш натижасидагина амалга оширилади. Шу сабабдан фуқаро муҳофазаси ходимлари олдида жуда катта маъсулият (харбий даврда ҳам, тинчлик даврида ҳам) фуқароларни ФВлар руҳида ўқитиш вазифасини қўяди.

Ўзбекистонда турли характердаги фавқулодда вазиятларни бартараф этиш, талофатлар кўламини торайтириш, инсонлар ҳаёти ва улар томонидан яратилган моддий бойликларга етадиган зарарларнинг олдини олиш ёки уларни камайитиришни таъминлашда иштирок этадиган барча хизматларнинг ўзаро муносабатларини белгилувчи ва тартибга солувчи қатор қонунлар ва шу соҳага таалукли бўлган Вазирлар Маҳкамасининг қарорлари ва бошқа меъёрий-ҳуқуқий ҳужжатлар қабул қилинган ҳамда ҳаётга жорий этилмоқда.

Кучли таъсир этувчи заҳарли моддалар билан боғлиқ фавқулодда вазиятлардан аҳолини ва ҳудудларни муҳофаза қилиш тизимини янада такомиллаштириш бўйича тавсиялар [6]:

1. Кимёвий хавfli объектларда (бундан кейин матнда КХО деб юритилади) заҳарли моддаларни заҳарлилиги камроқ моддалар билан алиштириш ёки умуман ҳавога заҳарли моддалар ажралиши учун шароитни қирқадиган янги технологияларни жорий этиш;
2. Эскирган технология ва ускуналарни замон талабларига жавоб берадиганлари билан алмаштириш;
3. Ишлаб чиқариш жараёнларини механизациялаштириш. Натижада, меҳнат жараёни осонлашади, ишчиларни заҳарли моддалар билан мулоқотда бўлиши сезиларли даражада чегараланади.
4. Иш зонасидаги ҳаво муҳити ҳолати устидан доимий назорат олиб бориш ҳамда самарали шамоллатиш тизимларини ўрнатиш;
5. КХО ни аҳоли яшаш ҳудудидан узоқроқ майдонга жойлаштириш;
6. КХО ишчи-ҳодимлари билан доимий йўриқномалар ўтказиш, шунингдек босқичма-босқич уларни шахсий ҳимоя воситалари билан таъминлаш.

Фойдаланилган адабиётлар

1. Аҳолини ва ҳудудларни фавқулодда вазиятлардан муҳофаза қилишнинг ҳуқуқий асослари (меъёрий-ҳуқуқий ҳужжатлар тўплами). I том. 9-10 б.
2. Нигматов И., Тожиёв М. „Фавқулодда вазиятлар ва фуқаро муҳофазаси“. Дарслик –Т.:Иқтисод-Молия, 2011. 24-26 б.
3. Ф.А.Абидова, А.Б.Абидов. “Кучли таъсир этувчи заҳарли моддаларнинг хусусиятлари”. ЎзР ФВВ ФМИ – 2013. 4-7 б.
4. Р.С.Собиров. “Кучли таъсир этувчи заҳарли ва радиоактив объектлардаги ўзига хос ёнғинларни ўчириш”, услубий қўлланма. ЎзР ФВВ ФМИ – 2017. 15-18 б.
5. Турагалов Т.Ж., Илёсова З.Ф. Фавқулодда вазиятлар. (қисқача русча-ўзбекча энциклопедик изоҳли лугат). – Т.,ФМИ, 2016. 123 бет.
6. Шарипов А.Х. “Кимёвий хавfli объектда ва темир йўл транспортда кучли таъсир этувчи заҳарли моддаларни сақлаш”, услубий қўлланма. Тошкент темир йўл муҳандислари институти, 2010. 13-15 б.

Интернет ресурслари:

1. www.Lex.uz
2. www.zivonet.uz
3. www.google.ru

**TEKNOLOGIYA FANI MASHG'ULOTLARI JARAYONIDA
O'QUVCHILARNING KREATIV KOMPETENTLIGINI
SHAKLLANTIRISHDA PEDAGOGIK VA PSIXOLOGIK DARAJALARINI
NAMOYON QILISH SHAKLLARI**

**Ismatov A.M. - NamDU, Texnologik ta'lim kafedrasining o'quv-ishlab
chiqarish ta'lim ustasi**

**Abduraxmonova M. – Chust tuman XTBga qarashli 11-sonli umumta'lim
maktabi,
texnologiya fani o'qituvchisi**

Ta'lim tizimida yo'lga qo'yiluvchi pedagogik-psixologik xizmat mohiyatidan kelib chiqqan holda umumta'lim maktablarida undan foydalanish har bir o'quvchining ichki imkoniyatlarini o'rganish, keng ko'lamli tadqiq qilish, ularda muayyan yo'nalish bo'yicha namoyon bo'luvchi ijodkorlik qobiliyatni aniqlash va darajalarini belgilash, mavjud holatlarga muvofiq o'quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini yanada boyitishga xizmat qiluvchi rivojlanish dasturlarini yaratish mumkin bo'ladi. [1]

Hammasining zaminida yosh avlodga oilada, ta'lim muassasalarida, xalq ta'limi tizimining boshqa tarmoqlarida beriladigan maxsus ta'lim-tarbiya yotadi. Ayniqsa keng dunyoqarash, ilmiy salohiyat, mustaqil va ijodiy fikrlash xususiyatlari har bir o'quvchi-yoshlarda shakllangan bo'lishi maqsadga muvofiqdir. [2]

Kreativlikni rivojlantirishning eng unumli yo'llaridan biri barcha o'quvchilarni kichik yoshidan mahsuldor ijodga va kasbga o'rganish bilan mashg'ul bo'lishga jalb etish, darslarni ijodiy tarzda tashkil qilish, turli xil noan'anaviy dars usullaridan keng foydalanishdir. [3]

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib, texnologiya fani darslaridagi mashg'ulotlarini muvafaqiyatli o'tish, texnologiya fani ta'lim va tarbiyasida sifat samarasiga erishish ko'p jihatdan o'quvchilarning kreativ fikrlashiga bog'liq ekanligini ko'ramiz. Texnologiya fani darslarini hususiyatlari shundan iboratki, o'quvchilarda texnologiya fani va texnik ijodkorligini rivojlantirish jarayoniga oid ko'nikma va malakalarini xilma-xil nazariy va amaliy mashg'ulotlarni bajarish orqali o'zlariga kerakli va ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan bilimlarni egallab oladilar.

SHuningdek, umumta'lim maktabida faoliyat olib borayotgan texnologiya fani o'qituvchilari oldidagi mas'uliyat shundan iboratki, o'quvchilarni ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishni takomillashtirish, ichki imkoniyatlarni o'rganish, ijodkorlik qobiliyatlarini to'g'ri yo'naltirishdan iborat.

Texnologiya fanidan o'quv jarayonini tashkil qilish o'quvchilarni muayyan texnologiya fani bo'yicha malaka va ko'nikmalari bilan qurollantirishgagina xizmat qilib qolmay, balki ularning aqliy va ijodiy qobiliyatlarini o'stirish va ularni texnologiya faniga bo'lgan qiziqizshlari va munosabatini tarbiyalashda ham juda muhim ahamiyatga ega bo'lgan texnologiya fani darslari g'oyat muhim ahamiyatga egadir.

O'qituvchining o'z fanini yaxshi bilishi o'quvchilarni muvaffaqiyat bilan o'qitishning eng muhim shartlaridan biridir. O'z fanini yaxshi bilgan o'qituvchi biror buyumni tayyorlash usulini mahorat bilan tushuntirib va ko'rsatib bera oladi. bu esa texnologiya fani amallarini o'quvchi to'g'ri idrok etishni ta'minlaydi. Demak,

o'qituvchi shu munosabat bilan darsga puxta tayyorgarlik ko'rishi, o'quvchilarga amaliy mashg'ulot davomida tayyorlanishi kerak bo'lgan buyum yoki narsani o'qituvchining o'zi oldindan tayyorlab ko'rishi lozim, chunki buyumni tayyorlash davomida qiyin ish usullarini qo'llashga to'g'ri kelib qolishi mumkin. Agar o'qituvchining o'zi mahsulotlarni oldindan tayyorlasa, o'quvchilarga uni tayyorlashning metod va usullarini ko'zda tutgan bo'ladi.

Nazariy yoki amaliy mashg'ulotlar jarayonida yangi mavzuni o'quvchilar ongiga singdirish, yangi materialni tushuntirishda yoki shu mavzu bo'yicha biror-bir muammoli vaziyat metodini hosil qilishda sinf jamoasi bilan muloqotni to'g'ri tashkillashtirish o'qituvchi uchun juda ham muhim ahamiyatga ega, buning natijasida o'quvchilar ahil jamoa bo'lib, darsda, bilimlarni o'rganishda o'zaro erkin fikr yuritadilar va izlanadilar. Muloqot davomida o'qituvchining tashabbuskorligi ta'lim-tarbiyaviy hamda ijtimoiy- psixologik jihatdan qator strategik va taktik muammolar yechimini topish imkoniyatini beradi.

Texnologiya darslarida zamonaviy pedagogik texnologiya metodlarini qo'llash metod va vositalari ta'lim jarayonining muvaffaqiyati uning shakligagina emas, balki qo'llanilayotgan metodlar samaradorligiga ham bog'liqdir. Ta'lim nazariyasida o'qitish (ta'lim)da turli yangi pedagogik texnologiyalar metodlarini qo'llash asosiy o'rin egallaydi.

Yangi pedagogik texnologiyaning asosiy mohiyati o'qituvchi va o'quvchilarning o'zaro xamkorligi va uzviy ravishda faollik ko'rsatishidir. Chunki agar darsda o'qituvchi bosh figura, ya'ni yetakchi fikr bildiruvchi bo'lib qolsa, o'quvchilar ma'suliyati va javobgarlik hissi susayadi. Demak, ular mustaqil fikr yuritish, mushohada qilish, xulosa chiqarishdan yiroqda bo'ladi.

Pedagogik texnologiyani o'quv jarayonida qo'llash o'qituvchidan o'quvchilarda tashabbuskorlik va mustaqillikni, bilimlarni puxta o'zlashtirishni, zarur malaka va ko'nikmalarni, ularni kuzatuvchanlik, tafakkur va mantiqiy nutqni, xotira va ijodiy tasavvurni tarbiyalashga imkon beradi.

O'qituvchining o'quvchilarni kreativ kompetentligini oshirishda quyidagi ko'rsatmalarga amal qilishi maqsadga muvofiq bo'lar edi.

1. O'quvchi o'qituvchi tomonidan berilgan muammoli topshiriqni yaxshi tushuna olishi, qiyin va murakkab masalalarni turli jihatlarini ang'lay olishi.

2. Ko'plab xilma xil g'oyalar, fikrlar, taxminlar, variantlarni taklif etish va ilgari surish.

3. Biror goyani turli xil tasvirlar, tafsilotlar bilan to'ldira olish, bildirilgan fikrlarni takomillashtirish.

4. O'quvchi fikrining nostandartligi, antiqaligi, qiziqarliligiga e'tiborli bo'lish.

5. O'quvchilar tomonidan berilayotgan goya yoki fikrlarni rivojlantirish, to'pirlilikni shakllantira olish.

6. O'quvchining ijodiy faoliyatiga xissiy qiziqish, qiziquvchanlik, ijodiy motivatsiya, ehtiyojning mavjudligini rivojlantirish

7. O'quvchilarni biror yangicha fikr va g'oya o'ylab topishga ko'nikma va malaka hosil qilish.

8. Ushbu uslublarni qo'llash jarayonida o'quvchilardan ko'plab fikr va g'oyalar olish maqsadiga erishguncha harakat qilishi.

9. O'quvchilarning aytgan fikrlarini tasavvur kilishga harakat qilish.

10. O'quvchining to'g'ri javobi mavjud bo'lmagan taqdirda ham fikrlashga harakat qilishga o'rgatish.

11. O'quvchi to'g'ri javobni topgan bo'lsa ham, yana boshka javob variantlarini o'ylab topishga undash.

12. O'quvchining auditoriyada, o'quvchilar o'rtasida o'z fikrini erkin bayon qila olishga o'rgatish.

13. O'quvchining bildirgan o'z goyalarini o'quvchilar davrasida muhokama kilishga o'rgatish.

14. O'quvchilarni aytgan fikrlarini, xatto, ularni, amaliyotda qo'llab bo'lmasa xam, inobatga olish.

15. O'quvchilarning fikrlari uchun masu'liyatni xis etish, muayyan fikrlarni tashqi rag'batsiz xam amalga oshirish mumkinligini o'rganish.

16. O'quvchilarning taqdim etgan fikr va g'oyalarini to'g'ri yoki noto'g'ri ekanini tanqid qilmagan holda, tahlil qilib berish. (Auditoriyada fikr yoki g'oyaga berilgan tanqid o'quvchiga keyingi holatda fikr yoki g'oya berishiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin)

O'qituvchining yuqorida ko'rsatilgan ko'rsatmalarga amal qilishi o'quvchilarning darsga bo'lgan qiziqishini va auditoriya faolligini oshirish imkoniyatini yaratadi.

SHuningdek, o'qituvchi dars jarayonida yuqorida qayd etilgan ko'rsatmalarni amalga oshirish davomida o'quvchilarga nafaqat bilim berish balki shu bilan birga ularda kasbiy bilim, ko'nikma va malakalarni shakllantirish bilan o'quvchilarning kasbiy qiziqishlarini hamda ma'naviy dunyoqarashni shakllantiradi. Buning uchun texnologiya fanini o'qitishda - "Muammoli vaziyat", "Klaster", "Venn" diagrammasi, "O'zing o'yla, o'zing izla, o'zing top", "Kim ko'p yangilik biladi?", "Ijodkor kim", "Tabiat va texnologiya" va hokazo) kabi metod va o'yinlardan foydalanilsa, o'quv mashg'uloti davomida katta samaralarni qo'lga kiritish mumkin.

SHunday qilib, umumta'lim maktabi o'quvchilarining ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish ko'pqirrali, murakkab pedagogik-psixologik jarayon bo'lib, uni samarali tashkil etish pedagogning pedagogik-psixologik bilimlarni puxta o'zlashtirganligini, tashkiliy-texnologik va metodik jihatdan to'g'ri tashkillashtira olishini taqozo etadi. SHuningdek, bu jarayonni tashkil etishda o'quv jarayonidagi holatni to'la o'rganishi, bu yo'ldagi amaliy harakatni tizimli olib borish uchun zarur chora-tadbirlarni aniq belgilashni bilishi lozim.

Hulosa qilib, shuni aytish mumkinki, ta'lim oluvchilarda keng fikrlash, ijodiylik, ijodiy tafakkur – kreativlikni, ijodiy qobiliyat va iqtidorni rivojlantirish uchun ta'lim jarayonida turli xil usullar, bilim, ko'nikma va malakalarini yanada rivojlantiruvchi yangi pedagogik texnologiyalar qo'llash yordamida ularda avvalo keng tafakkurni, irodaviy xususiyatlarni, o'ziga nisbatan ishonch tuyg'usini, faollik va faoliyatni, mehnat qilish ko'nikmalarini, maqsad sari intilish xususiyatlarini tarkib toptirish lozim. Ana shunda ta'lim-tarbiya maqsadlariga to'la ma'noda erishish mumkin. O'qituvchi va o'quvchilar bu maqsadlar yo'lida o'z ustilarida tinmay izlanishlari, o'z ichki tabiiy imkoniyatlarini faol ishga solgan holda ijodiy qobiliyat va iqtidorlarini amalda keng namoyon qilishlari kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. N.A.Muslimov, Q.M.Abdullaeva, O.A.Qo'ysinov, N.S.Gaipova. "Bo'lajak o'qituvchilarning pedagogik kompetentligini shakllantirish nazariyasi va texnologiyasi". - Toshkent - 2014.

2. O.A.Qo'ysinov, V.N.Sattorov, H.S.Yakubova "Mehnat ta'limidan amaliy mashg'ulotlarni tashkil etish metodikasi" metodik qo'llanma. Toshkent- 2011 y.

3. SH.S.SHaripov, N.A.Muslimov "Texnik ijodkorlik va dizayn" metodik qo'llanma. Toshkent – 2007 y.

IZONIT SAN'ATINING O'QUVCHILARGA O'RGATISH

Akramov X.M. -NamDU, dotsent

Tursunboeva S.B. - NamDU, 1 kurs talabasi.

Izonit (iplar grafikasi) – bu qattiq buyumga iplar grafikasi yordamida biror-bir tasvirni yaratishdir.

Izonit (boshqacha nomlanishi – ipgrafikasi, iplar grafikasi, ip dizayni) – amaliy san'at turi, grafika texnikasi, kattiq jismda (karton, disk, plastmassa va boshqa materiallar)ga rangli iplar bilan grafik ko'rinishda tasvir tayyorlanadi.

Izonit (iplar grafikasi) XVII asrda Angliyalik to'quvchilar tomonidan yaratilgan. Dastlab ular yog'ochning ustki qismiga mixlar qoqib, mixlarga iplarni tortib, turli grafik naqshlarni hosil qilingan. Keyinchalik takomillashtirilib kortonlar, disklar ustiga tasvirlar tushirilgan.

Bu usul ingliz tili so'zidan foydalanib "embroidery on paper" – qog'ozga kashta tikish, nemis tilida "pickpoints" – nuqtali rasm ma'nosini bildiradi.

Izonit usulida tasvir tayyorlash ingliz to'quvchilari tomonidan o'ylab topilgan bo'lib, ular yupqa taxtalarga grafik usulida mixlarni qoqib, rangli iplar bilan tasvir yaratishgan. Bunday buyumlar chiroyli va ko'rkam bo'lganligi sababli o'z uylarini bezatishgan. Vaqt o'tishi bilan izonit tikish texnologiyasi rivojlanib, karton qog'ozlarni teshish orqali tasvir tikish rivojlangan.

Izonit tikish bilan shug'ullanuvchi o'quvchi: estetik va aqliy jixatdan rivojlanadi. San'atga bo'lgan qiziqishi ortadi. O'z ustida izlanadi va ijodkorlik qobiliyatlarini rivojlanadi. Ranglarni yaxshi uyug'unlashtira oladi. Bolalarni qo'l matorikasini rivojlanadi. SHu bilan birga sabrli bo'lishni o'rgatadi.

Izonit texnikasi orqali juda chiroyli dekarativ pannolar, natyurmortlar, tabiat manzaralari va xatoki portretlar tayyorlash mumkin. SHu bilan birga kitoblar uchun xatcho'p, kitob g'illoflari, qutichalar bezagini tayyorlash mumkin.

Izonit tikish uchun quyidagi materiallardan foydalaniladi: Izonit tikish uchun asos (karton qog'oz, disk, plastinka); Asosni teshish uchun bigiz yoki to'nog'ich; Rangli iplar (mulina, iris, g'altakli); Skotch yoki kley (asosni orqa tomonidan iplarni mustaxkamlash uchun); Igna; Ingichka penoplast – asosni tagiga qo'yiladi, chizilgan tasvirni teshish uchun;

Ishni asosdan boshlaymiz, asos tayyorlamochi bo'lgan buyum foni hisoblanadi. Izonit uchun asosan karton yoki qalinroq qog'ozdan foydalaniladi. Yupqa qog'ozlar tez g'ijimlanadi, shu bilan birga bormoqlar namligidan shaklini o'zgartirishi mumkin.

Qalin qog'ozda tishning afzaligi shunaki. teshiklardan iplarni tortayotganda karton yirtilib ketmaydi. Karton yoki qalin qog'ozlarni kerakli masofada teshish

imkonini beradi. Bu esa tayyorlamochi bo'lgan o'ylab qo'yilgan ijod maxsulotining chiroyli va nafis chiqishini ta'minlaydi.

Fon rangini tikmoqchi bo'lgan tasvirimizga moslab tanlashimiz kerak. Izonitni tikishda faqatgina bir rangli fondan foydalanmaydi. Har xil tabiat manzarasi yoki boshqa tasvir tushirilgan, yopishtirilgan rasmlar, shakllar, ustidan ham tikish mumkin.

Barxat qog'ozidan tayyorlangan tasvir juda ham chiroyli ko'rinadi. Lekin baxamal qog'oz ingichka bo'lganligi uchun karton qog'oz bilan kombinirovat (karton qog'ozga yopishtirish) qilish kerak.

Tasvirni tashqi ko'rinishi ranglarni to'g'ri tanlashga bog'liq. O'ylab qo'yilgan tasvirlarga qarab, yaltiroq yoki oddiy iplar tanlanadi. Yaxshi yigirilgan iplardan tasvirlar ozoda, puxta ishlanadi, lekin ba'zida tasvir uchun yaxshi yigirilmagan iplar ham ishlatiladi.

Izonit tikishda asosan ko'proq mulina iplaridan foydalaniladi. Mulina iplari bilan ishlash onson hamda tayyorlangan tasvirlar chiroyli ko'rinadi. Mulina iplarini tanlashda uning sifatiga, yani qalinligi, yaltiroqligi, bir xilda bo'yalganligi va tekisligiga etibor berish kerak. Izonit tikishda mulinadan ham ko'proq iris iplaridan foydalaniladi.

Iris iplari tukli va unchalik yorqin emas, undan tayyorlangan tasvirlar ko'rkam chiqadi. Bu iplar izonit tikishni o'rganishda va ba'zida buyum tayyorlashda ham foydalanish mumkin.

Izonit tikish texnikasida asosan uch turdagi usullardan foydalanib naqshlar tikiladi. **Bular,**

1. Burchak shakl.
 2. Duga (bargsimon, speral) shakl.
 3. Aylana shakl.
2. Izonit texnikasi

Kartonning pastki qismida naqsh konturini chizish, tasvirni bir-biriga o'shah qismlarga bo'lib, har bir nuqtani yupqa ipak yoki igna bilan teshik hosil qiling. Bo'limlar orasidagi masofa qanchalik kichik bo'lsa, unda tasvir yaxshi bo'ladi, lekin naqshinkor ishlov berish yanada qiyinlashadi.

Texnikani o'rganish uchun burchak, doira va kamon qanday to'ldirilganligini bilish kifoya.

Burchakni to'ldirish.

Kartonning pastki qismidagi burchaklari birlashtirilib, har bir tomonni teng qismlarga bo'linadi. Ingichka nuqtalarni birlashtirib, ipni igna ichiga buriladi va burchaklarni namuna bo'yicha to'ldiriladi (2-rasm).

Izonit, burchakni to'ldirish usuli.

Arkni to'ldirish.

Yassi burchak chizish, uni teng qismlarga bo'lish, bo'linish nuqtalarida teshiklarni hosil qilish. Ipni ignaga o'tkaziladi va shakliga ko'ra to'ldiriladi.

Doirani to'ldirish.

Doira atrofida aylana chizish, uni 12 ta teng qismga bo'linib, bo'linish nuqtalarida bir pinni yarating. Ipni ignaga o'tkaziladi va doiraga sxema bo'yicha tikib chiqiladi.

Materiallar, asbob-uskunalar.

Ishni bajarish uchun ma'lum materiallar, asbob-uskunalar zarur:

Materiallar:

1. Turli rang va to'qimalarning kartochkasi, rangli qog'oz, plastinka va zich oq karton qutilari.

2. Turli ranglar va to'qimalarning iplari.

Asboblari:

1. №1, №3 tikuv ignalari.

2. Qaychi (turli xil).

3. Oddiy va rangli qalamlar.

4. Qalam (turli xil).

5. PVA kley.

Qo'shimcha jihozlar:

1. Rasmlar uchun maxsus stend.

2. Naqsh solish paytida qo'l barmog'ini himoya qilish maxsus qo'lqop.

3. Asboblarni saqlash uchun quti.

Izonit juda qiziqarli usublardan hisoblanadi. Bu o'ziga xosligi bilan boshqa tikish uslublaridan ajralib turadi. Isonit texnologiyasi qimmatbaho materiallarni talab qilmaydi – faqat rangli yorqin iplar va bir nechta qattiq qattiq setkalar kerak bo'ladi. Texnikani o'rganish uchun burchak, doira va berilgan shakl qanday to'ldirilganligini bilish yetarli hisoblanadi.

Birinchi qarashda iplarning dizayni texnikasi murakkab va uning rivojlanishi ajoyib harakatlarni talab qiladi. Aslida, har bir bosqichni amalga oshirilishi juda oddiydir. Ishonch bilan aytilish mumkinki, har qanday kishi bu tikkish usulini egallay oladi va turli naqsh elementlaridan bundanda qiziqarli kompozitsiyalar yaratishi mumkin.

Quyida berilgan amaliy mashg'ulot ishlanmasi bilan tanishib chaqamiz.

1-amaliy mashg'ulot. Xavfsizlik texnika qoidalari:

1. Tikishda gavdani to'g'ri tutish, ko'z bilan igna orasidagi masofa 30-35 sm bo'lishi kerak.

2. Xona yaxshi yoritilgan va yorug'lik o'ng tomondan tushishi kerak.

3. Tikishda ishlatiladigan asboblari saranjom qilib maxsus qutichalarda saqlanishi kerak.

4. Ninani ishlatib bo'lgandan so'ng yostiqligiga qadab qo'yish kerak.

5. CHokni tikib bo'lgandan so'ng qolgan ipni qaychi yordamida uzish kerak.

Qaychidan foydalanish qoidalari (1-rasm).

1. Qaychidan foydalanishda sinfda ustozingiz, uyda esa ota-onangiz ko'magiga tayaning.

2. Qaychi belgilangan joyda, belgilangan holatda saqlang.

3. Qaychini uchini yuqoriga qaratib ushlamang.


4. Qaychini ochiq holda qoldirmang.

5. Qaychini yurib turganida ishlatmang.

6. Qaychini faqat yopilgan holda uchidan ushlab o'rtog'ingizga uzating.

7. Qaychini ishlatayotganda kesilishning yo'nalishi hamda materialni ushlab turgan chap qo'l barmoqlarni kuzatib turing.

8. Yaroqsiz qaychini ishlatmang, uni o'qituvchingizga topshiring.




1-рasm. Керак бунёдига асосан на уқудлар

Iplar grafikasi usullarini tikish jarayoni

Burchak shaklini hosil qilish jarayoni quyidagicha (2-rasm).

1. Kartonga kerakli burchak rasmini chizib olinadi.
2. Burchaklarni teng qismlarga bo'linadi. Qismlar kattaligi 0,5-1 sm.dan oshmasligi kerak
3. CHap tomondan boshlab nomerlanadi hamda teshikchalar hosil qilinadi.
4. Berilgan sxema bo'yicha tikiladi.



2-rasm. Burchak shaklini tikish

Dugalari (bargsimon, speral) shaklini hosil qilish jarayoni quyidagicha (3-rasm).

1. Kerakli dugalar (bargsimon, speral) rasmini chizib olinadi.
2. Teng qismlarga bo'linadi. Qismlar kattaligi 0,5-1 sm.dan oshmasligi kerak
3. Dugalarda sperallar boshidan nomerlanib tikilsa maqsadga muvofiq bo'ladi





3-rasm. Dugalarni to'ldirish

Aylana shaklini hosil qilish jarayoni quyidagicha (4-rasm).

1. Kerakli aylana rasmini chizib olinadi.
2. Teng qismlarga bo'linadi. Qismlar kattaligi 0.5-1 sm.dan oshmasligi kerak

3. Soat strelkasi bo'ylab nomerlanadi hamda teshikchalar hosil qilinadi.



4. Berilgan sxema bo'yicha tikiladi.



4-rasm. Aylana shaklini hosil qilish jarayoni

Sxemalar yordamida tinglovchilar namuna tikadilar.

“Gilamchani to'ldir” rasmi topshiriq. Bu topshiriqda biror- bir rasm fragmetini olib tashlanadi. Tinglovchilar bu fragmentlarni kekakligini topib rasmga joylashtirishlari lozim. Ushbu rasmi topshiriq tinglovchilarda kreativ qobiliyatini rivojlantirishga yordam beradi (5-rasm).



5-rasm. Rasmi topshiriq

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdullaeva Q.M., Maksumova M.A. va Raximjonova M. Gazlamaga badiiy ishlov berish. Toshkent. «Cho'lon» nashriyoti. 2016.
2. Tolipov O'.Q., Sharipov Sh.S., Islamov I.N. O'quvchilar dizaynerlik ijodkorligi. – T.: Fan, 2006. – 96 b.
3. Sharipov Sh.S., Muslimov N.A. Texnik ijodkorlik va dizayn. O'quv qo'llanma. – T.: TDPU, 2011. – 166 b.

TEXNOLOGIYA FANIDA FANLARARO INTEGRATSIYALAR VA ULARDAN YANGICHA INTEGRATSIYALASHGAN TA'LIM ASOSIDA YONDOSHISHNING FOYDALANISH USULLARI

Ismatov A.M. -NamDU, Texnologik ta'lim kafedrasining o'quv-ishlab chiqarish ta'lim ustasi

Boymirzayeva Y. -NamDU, TXT BU-20 guruh talabasi

XXI asr didaktika, shu jumladan o'qitish metodikasida chuqur islohotlar davrini boshlab berdi. Umumiy o'rta ta'limning maqsadlari o'zgardi, yangi ta'lim konseptsiyalari, o'quv rejalari standartlari yaratildi. Ta'lim mazmunini bayon qilish, ayrim o'quv fanlari orqali emas, balki yangicha integratsiyalashgan ta'lim asosida yondoshishni ko'zda tutmoqda. Umumta'lim maktab o'quv rejasidagi o'rganiladigan fanlar bo'yicha bir qator yangiliklar olib kirildi. Bu, o'z navbatida, tabiiy— ilmiy bilimlar sistemasini integrallash, uni o'qitishning tashkiliy shakllari, metodlari va vositalarini yangilash, yechimini topish zarur bo'lgan muammoni vujudga keltirdi. Bu muammoni yechish, ta'lim jarayonida yangi pedagogik texnologiyalardan samarali foydalanish bilan chambarchas bog'liqdir. Ta'limni yangilash -uning noan'anaviy tashkiliy shakllari va metodlaridan foydalanishni, jumladan, unga integrativ yondashuvni talab etadi. [1]

Bu muammoga A.V.Usova shunday fikr bildirib, u ta'limni standartlashtirish jarayonida fanlararo integratsiyani ko'rib chiqa turib, fanlararo integratsiyaning quyidagi jihatlarini ajratib ko'rsatdi.

Fanlararo integratsiyaning o'qitishdagi mohiyati va ahamiyati:

- Turdosh fanlarning chegarasida yangi fanlarning tashkil topishi;
- Turli fan sohalarini bilimlarni majmuaviy qo'llash orqali ilmiy bilishning yangi usullarini yaratish;
- O'quvchilarning ekologik tarbiyalanishida, o'quvchilarning ta'lim jarayonida ilmiy dunyoqarashining shakllantirishida, ularni mehnatga tayyorlashda;
- O'quvchilar zo'riqishini kamaytirish muammosining hal qilinishida; [2]

Fanlararo integratsiyaning asosiy tuzilmaviy komponentlari, ularning mazmuniy asosi.

- O'quv fanlari tsikllari uchun umumiy bo'lgan nazariy bilimlar (o'quv fanlari tsikllari uchun umumiy tushunchalar, qonunlar, nazariyalar, shuningdek materiya, harakat, sabab, oqibat singari umumilmiy tushunchalar);
- O'quv fanlari uchun umumiy bo'lgan bilishga oid malakalar;
- Ilmiy bilish usullari: kuzatish, tajriba o'tkazish, modellashtirish, nazariy tahlil va nazariy umumlashtirish;
- O'quv fanlari uchun umumiy bo'lgan amaliy malakalar: qurilmalar bilan ishlash malakasi, o'lchash, grafiklarda ishlash va hisoblash ko'nikmalari hamda malakalari;

Integratsiyani faqat turli predmetlardan o'rganiladigan bilimlarning o'zaro bog'lanishi deb tushunmay, balki o'qitish texnologiyalari, metodlari, shakllarining ham integratsiyasi sifatida tushunish lozim. Ularni to'g'ri amalga oshirish ta'lim samaradorligini ta'minlaydi.

Ma'lumki, jamiyat, fan va texnika taraqqiy etgan sari jamiyatning ta'limga bo'lgan talab va ehtiyojlari ham o'zgarib boradi. SHunday ekan ta'limni integrallash tamoyillariga asoslangan ta'lim dasturlari ham jamiyatning, fanning taraqqiyoti nuqtai-nazaridan o'zgarishlariga yuz tutishi takomillashishi lozim. O'quvchilarga

ta'lim berish jarayonida fanlarning integratsiya jarayonlarini quyidagicha modellashtirish mumkin.

1. Fan-texnika va ishlab chiqarish (STEAM ta'lim texnologiyasi bo'yicha);
2. Fanlararo;
3. Fan doirasida (tegishli fan bo'yicha sinflararo bog'lanish);
4. Bo'limlar yoki mavzulararo (tegishli fan kesimida)

Umumta'lim fanlarida integratsiyalab o'qitishda yangi pedagogik texnologiyalarini qo'llash, o'quv-uslubiy ta'minot muammolariga qaratilgan bir necha diqqatga sazovor ishlar amalga oshirilmoqda. Xalq ta'limi tizimini takomillashtirish hamda ularning o'quv-tarbiya jarayoniga Axborot kommunikatsion va zamonaviy pedagogik texnologiyalarini tadbiq etish respublikamizda ta'lim tizimining rivojlanishi va e'tiborga olinganligidan dalolatdir.

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki, biz ham an'anaviy o'tish uslublaridan farqli o'laroq ta'limni tadbiq etilayotgan interfaol uslublaridan ilg'or integrativ texnologiyalardan foydalanib, integratsiya tamoyili asosida, dars ishlanmalarini yaratishimiz lozim.

SHuningdek, fanlararo integratsiya o'qitishning ilmiyligi va yetariligidan oshirishga, o'quvchilarning bilishga oid faoliyatini sezilarli ravishda kuchaytirishga, ularning bilimi sifatini oshirishga yordam beruvchi va fikrlashning zamonaviy usulini samarali rivojlantirishga va ilmiy dunyoqarashni shakllantirishga imkon beruvchi didaktik tamoyil sifatida namoyon bo'lishi haqidagi nuqtai – nazarni qo'llab-quvvatlaymiz. Ular dastakli va tashkiliy jihatlariga ham egadir. Ularni amalga oshirish o'quv rejasi, dasturlari, darsliklarning tuzilmasini vaqt bo'yicha tejamliroq imkonini berib, bu umuman olganda o'quv jarayonlarini samarali amalga oshirishga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Abduquddusov .O. «Integrativ yondashuv – chuqur bilim,yaxshi fazilatlarini shakllantirish omili» Xalq ta'limi jurnali.
2. A.B.Усова. Межпредметные связи в преподавании основ наук в школе: Методическое рекомендации.- Челябинск: Изд.ЧПТУ «Факел», 2006.

ФИЗИКАДАН ЎҚУВЧИ КРЕАТИВЛИГИНИ ИННОВАЦИОН ТЕХНОЛОГИЯЛАР ВОСИТАСИДА РИВОЖЛАНТИРИШДА МУАММОЛИ ТАЖРИБАЛАРНИНГ ЎРНИ

**Иманов Б.Б. -Термиз давлат университети, педагогика фанлари
номзоди, доцент.**

Инновацион технологиялар ўқувчиларни назарий билимларни эгаллашга оид манбаларни излаб топишга, мустақил топшириқларни бажаришга, ўқув материалларини таҳлилий хулосалар чиқаришга ўргатади. Ўқитувчи мазкур жараёнда ўқувчи шахсининг шаклланиши, билим олиши, тарбияланишига педагогик шараит яратувчи ва бошқарувчи вазифасини бажаради.

Ўқитувчининг физикадан муаммоли тажриба бажаришда керакли лаборатория жиҳозларини тўғри танлаши, ўқувчиларнинг билим даражасини ҳисобга олиши, дарснинг мақсад ва вазифасини тўғри белгилаши, дарс режасини тўғри лойиҳалаши, замонавий педагогик, ахборот – коммуникация

технологияларидан ўринли фойдалана олиши, ўқувчи креативлигини ривожлантиришда муҳим омиллардан.

Лаборатория машғулотлари ўқитувчи ва ўқувчиларнинг тажрибани бажаришдаги ҳамкорликни бажаришда шакллантиришга, фикрлаш ва дунёқарашини ўстиришга қаратилган дарс шаклларидан ҳисобланади. Лаборатория машғулотларини бажаришда ушбу кўрсаткичлар бўлмаслиги ўқувчиларнинг руҳиятида зеркиш, умидсизлик ва тушкунлик каби ҳолатларнинг пайдо бўлишига сабаб бўлади. Ўтказилган педагогик тажриба-синов ишлари натижаларига кўра, кўпчилик ўқувчилар физикадан муаммоли тажрибани шунчаки оддий бажариш ўрнида тушунишлари кузатилди. Бизнинг фикримизга кўра ўқувчиларнинг бундай тушунчалари мутлақо нотўғридир.

Инновацион технологиялар таълим жараёнида ўқитувчининг билим бериши, ўқувчининг эса билим олишидаги янгиликларни самарали ўзлаштиришлари орқали амалга оширилади. Физикадан муаммоли тажриба бажаришда инновацион технологиялар ва интерфаол методлардан фойдаланишнинг ўзига хос хусусиятлари қуйидагилар бўлиш мумкинлиги ўрганилди:

- ўқувчиларнинг муаммоли тажриба бажаришга бефарқ бўлмасликлари, мустақил фикрлаш ва ижодий изланишга йўналтирилиши;

- ўқувчининг муаммоли тажриба бажаришга бўлган қизиқишининг доимийлигини таъминлаши;

- муаммоли тажриба бажаришда ўқитувчи ва ўқувчи ҳамкорлигининг ривожлантирилиши.

Физикадан муаммоли тажрибанинг бажарилишини лойиҳалаштиришда ўқитувчи физиканинг хусусияти, ўқувчи фикрининг раволиги, мослашувчанлик қобилиятларини ҳисобга олган ҳолда тузилиши ўринли бўларди.

Ўқитувчи физикадан муаммоли тажриба бажаришни режалаштириш учун муаммоли тажриба бажаришга доир кўрсатмалар билан танишади, бажариш мақсади ва вазибаларини белгилаб олади.

Муаммоли тажриба бажаришда ўқувчи қайси асосий тушунчаларни, ходисаларни, жараёнларни, қонунларни, назарияларни билиши, нималарни ҳал қила олиши кераклигини, қутиладиган натижаларни олдиндан аниқлаб олади.

Ҳар бир муаммоли тажриба бажариш учун етарлича вақт ажратиб, дастурда назарда тутилган фанлараро алоқадорликдан фойдаланиш, мазкур муаммоли тажриба мазмуни ва вазибаларини режалаштиради;

муаммоли тажриба бажаришда самарали таълим технологиялари ва методларини танлайди;

ўқувчининг умумий, кичик гуруҳда ва индивидуал ҳолда муаммоли тажриба бажаришини уюштириш шакллариининг ўзаро мос бирлашмасини танлайди;

дарс жараёнида танланган вариантни қўллаб, муаммоли тажриба бажариш шакллари ва методларига зарур тузатишлар киритиб боради.

Ўқувчи креативлиги физикадан муаммоли тажриба бажариш жараёнини лойиҳалаш фаолиятида намоён бўлади.

Физикадан муаммоли тажрибани яхши бажарган ҳар бир ўқувчини рағбатлантириш муҳим аҳамиятга эга. Чунки айрим ҳолларда муаммоли тажриба бажаришда ўқувчилар баъзи кийинчиликларга дуч келади ҳамда

муаммоли тажриба бажаришда ўйинлар ва ўқув мунозараларини ташкил қилиш маҳорати ҳали етарли даражада шаклланмаган бўлади.

Адабиётлар:

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Олий таълим муассасаларида таълим сифатини ошириш ва уларнинг мамлакатда амалга оширилаётган кенг қамровли ислохотларда фаол иштирокини таъминлаш бўйича қўшимча чора тadbирлар тўғрисида”ги 05.06.2018 йилдаги ПК-3775 сонли қарори.

2. Mahmudov Yu.G. The types of creative activities of pupils when doing laboratory works. European journal of Research and Reflection in Educational Sciences. Vol. 7 No. 12.2019. ISSN 2056-5852. (-Buyuk Britaniya, 2019.12.11.)

3. Mahmudov Yu. G. Laboratory work on determination of electrical conductivity of cotton fiber. European journal of Research and Reflection in Educational Sciences. Vol. 8 No. 2.2020. ISSN 2056-5852. (-Buyuk Britaniya, 02.2020.)

4. Imanov B.B. Lesson and its analysis as factor of increasing the quality of education. European scholar Journal. Available online at/ www.scolarzest.com. Vol. № 1 January 2021 ISSN: 2660-5562.

ТЕХНОЛОГИК ТАЪЛИМ ФАННИНИ ЎҚИТИШДА ПЕДАГОГИК-ПСИХОЛОГИК ОМИЛЛАРДАН ФОЙДАЛАНИШНИНГ АҲАМИЯТИ.

Алмарданов Ҳ. Б. -Термиз давлат университети Миллий хунармандчилик ва кулолчилик факультети Меҳнат таълим йўналиши 3-курс талабаси

Меҳнат инсоннинг ҳаётида муҳим ўрин тутибгина қолмай, турмушни меҳнатсиз, яратувчиликсиз тасаввур этиб бўлмайди. Меҳнат тарбияси тарбиянинг мағзини, мазмунини ташкил этади. Барча халқларнинг энг илгор анъаналари меҳнат жараёнида пайдо бўлиб такомиллашади. Меҳнат анъаналарининг таянчи сифатида ёшларни ҳаётга, ижтимоий меҳнат фаолиятида иштирок этишга тайёрлаш ҳам муҳим роль ўйнайди.

Бугунги кунда мамлакатимизда узлуксиз таълим тизимида олиб борилаётган кенг қамровли ислохотларнинг асосий максadларидан бири ёшларни чуқур билим олишлари, истеъодларини рўёбга чиқаришда ҳар томонлама қўллаб-қувватлаш, шу билан биргаликда уларнинг мустақил ҳаётга тайёрлаш кўникмаларини ҳам шакллантириб бориш таълим тизимининг устувор йўналишларидан бири ҳисобланади.

Айнан шунинг учун замонавий билим олиш билан бир қаторда ўқувчи ёшларда ҳаётий кўникмаларни шакллантириб бориш, оддий қилиб айтидиган бўлсак, ёшларни касб танлашга, уларни ижодий фикрлашга, ёки конструкцион буюмлардан материаллар яшаш, оддийгина электр чирогои патронини ўрнатиш, уйдаги сув тармоқлари тизимлари тўғрисида, шунингдек, оддий ёғочга ишлов бериш, уй рўзғорда кичик таъмирлаш ишлари ва ҳоказолар каби ҳаётий касбий кўникмаларни тўлиқ етказиб беролмаётганлигимиз ҳеч кимга сир эмас.

Биз ёшлар тарбиясида “Технология” фанига ҳаётий эҳтиёж сифатида қарашимиз билан ўқувчини бетартиблик ва дангасалик касалликларига чалинишини олдини олибгина қолмай, унинг келажакдаги маълум бир касб

эгаси бўлишига замин яратамиз. Акс ҳолда ўсиб келаётган ёш авлод ўз ҳолига ташлаб қўйилганда меҳнатга бўлган табиий интилиши сўнади ва ўз меҳнатидан каноат ҳосил қилишни эса ўйин-кулгидан қидира бошлайди. Ўйин-кулгида ривожланган эҳтиёж меҳнатга бўлган табиий эҳтиёжни батамом сиқиб чиқариши моддий ва маънавий қашшоқликка олиб келади. Мамлакатимизда фаолият юритаётган 9 500 дан ортиқ умумий ўрта таълим мактабларини ҳар йили 500 000 га яқин ўқувчи-ёшлар битириб, уларнинг 10-15 фоизи таълимнинг кейинги босқичларида (олий таълим муассасаларида) ўқишларини давом эттиришади. Қолган 85-90 фоиз битирувчилар ўзларининг меҳнат фаолиятларини бошлашлари ёки профессионал таълим муассасаларида касб-хунар ўрганишлари учун умумий ўрта таълим мактабларида ўқитилаётган «Технология» фанига ажратилган соатлар ҳажми, ўқув дастури мазмунини хорижий мамлакатларнинг таълим дастурлари асосида тубдан қайта кўриб чиқиш ва такомиллаштиришни тақозо қилади. Бугунги кунда янги педагогик технологиялардан фойдаланиб дарс машғулотларини олиб бориш кўпчилик педгоглар томонидан амалга оширилмоқда. Чунки, педагогик технологиянинг предмети - педагогик тизимини концептуал асосларига далил келтиришдан, мақсадларни қўйишдан, натижаларни шакллантиришдан, ўқув материални танлаш ва структуралаштиришдан, педагогик моделини танлашдан, то уларни амалга оширишгача, уларнинг муқобиллик ва самарадорлик даражасини баҳолашгача лойиҳалаштиришдан таркиб топади ва бу дарснинг самараси учун хизмат қилади. Дастлаб «технология» тушунчасига аниқлик киритайлик. Бу сўз техникавий тараққиёт билан боғлиқ ҳолда фанга 1872 йилда кириб келди ва юнонча икки сўздан – «texnos» (techne) маҳорат, санъат ва «logos» (logos) – фан, педагогикот сўзларидан ташкил топган. Бу ифода замонавий технология жараёнини тўлиқ тавсифлаб беролмайди. Технологик жараён ҳар доим зарурий воситалар ва шароитлардан фойдаланган ҳолда амалларни муайян кетма-кетликда бажаришни кўзда тутати. Бугунги кунда ўқувчи ёшларга таълим-тарбия бериш, яъни уларни ҳар томонлама давлат таълим стандартлари талабларига жавоб берадиган этук малакали мутахассис даражасида тайёрлаш мамлакатимизнинг долзарб вазибаларидан биридир. Бу ҳақида кадрлар тайёрлаш миллий дастурининг 3.1. ШАХС бўлимида шундай дейилади: «Кадрлар тайёрлаш соҳасидаги давлат сиёсати инсонни интеллектуал ва маънавий-ахлоқий жиҳатдан тарбиялаш билан узвий боғлиқ бўлган узлуксиз таълим тизими орқали ҳар томонлама баркамол шахс фуқарони шакллантиришни назарда тутати. Шу тарзда фуқаронинг энг асосий конституциявий ҳуқуқларидан бири билим олиш, ижодий қобилиятни намоён этиш, интеллектуал жиҳатдан ривожланиш, касби бўйича меҳнат қилиш ҳуқуқи рўёбга чиқарилади. «Таълим тўғрисида»ги Қонун умумий ўрта ва ўрта махсус, касб-хунар таълими стандартлари орқали сифатли таълим олиш, шунингдек таълим ва касб-хунар жиҳатдан тайёргарликнинг шакллари ва турларини танлашни, узлуксиз малака ошириб бориш, зарурат тақозо этса, тегишли қайта тайёргарликдан ўтиш ҳуқуқини ва кенг имкониятларини назарда тутати.»

Ҳозирги кунга келиб деярли барча фанларни ўқитишда ахборот коммуникацион технологияларидан кенг қўлланилиб келинмоқда. Технология фани дарслари мактабдаги бошқа фанлар учун умумий дидактик тамойилларни

қўллашда, унинг ўзига хос хусусиятлари ҳам мавжуд. Ўқувчилар билиш фаолияти билангина эмас, балки яратиш фаолияти билан ҳам шуғулланишлар. Технология фани меҳнат қуроллари, жараёнлари оддий ўрганиш объекти сифатида эмас, балки ўқувчилар амалий ишларини фаоллаштирувчи кўрсатмалilik воситаси, дидактик материал, таълимнинг техник воситаси сифатида хизмат қилади.

Технология фанини ўқитиш жараёнида таълимнинг замонавий методлари, педагогик ва психологик технологияларидан фойдаланишнинг ўзига хос жиҳатлари бор. Ўқувчиларни технология фанини тўлиқ ўзлаштиришлари учун ўқитишнинг илғор ва замонавий усулларида фойдаланиш, янги информацион-педагогик технологияларни тадбиқ қилиш муҳим аҳамиятга эгадир. Фанни ўзлаштиришда дарслик, ўқув ва услубий қўлланмалар, тарқатма материаллар, электрон материаллар, виртуал стендлар ҳамда ишчи ҳолатдаги машиналарнинг ишлаб чиқаришдаги намуналари ва макетларидан фойдаланилиши, технология фанига оид телевизор, радиода берилган эшиттиришларни кўриш, ўрганилган иш усуллари бажариш, журнал ва газеталарда берилган маълумотларни ўрганиб бориш, технология фанига оид атамаларни топишда медиа воситалардан фойдаланиб, дидактик топшириқларни бажариш ахборот манбаларидан (телевизор, радио, аудио-видео ёзув, телефон) фойдалана олиш; файлларни очишда медиа-маданиятга риоя қилиш муҳим аҳамият касб этади.

Мазкур фанни ўқитиш жараёнида таълимнинг замонавий ахборот коммуникация технологияларидан фойдаланишимизда фан бўйича ўтказиладиган амалий машғулотларда замонавий компьютер технологиялари ёрдамида тақдиротлар намойиш қилганимизда ўқувчилар кўриш орқали чуқурроқ тасаввур ва билимга эга бўладилар. Бизнингча технология дарсларида ахборот комуникацион технологияларидан фойдаланиш катта ижобий натижа беради. Чунки олдин ўқувчиларга технология дарсларида амалий машғулотлар жараёнида буюмлар тайёрлаш жараёнини ўқитувчи томонидан бирма-бар намойиш қилиб берилар эди, бу ортиқча вақт сарфланишига, айрим пайтларда ўқитувчининг қайта кўрсатиб беришига ҳам тўғри келар эди. Бугунги кунда эса ахборот комуникацион технологияларидан фойдаланиб тасвирга олинган меҳнат операцияларининг видеодарсларини ўқувчиларга ҳавола этиб, ўқувчилар ишини ўқитувчи томонидан бемалол назорат қилиш имконини беради, ўқувчиларнинг билим даражаларини сезиларли даражада оширишга имкон беради.

Педагогик психологик технологияларидан фойдаланишнинг яна бир аҳамиятли томони шундаки, ўқувчиларга малакали дурадгорлар, чилангарлар, ошпазлар, тикувчилар ва турли соҳадаги хунармандларимиз томонидан бажарилган ўқув машғулотлари “Мастер класс” ларни намойиш этиш орқали уларда турли хил меҳнат кўникмаларини шакллантириш, касб-хунарга йўналтириш ишларини ҳам яхши йўлга қўйиш имкониятини беради. Биз юкорида технология дарсларида педагогик психологик технологияларидан фойдаланишнинг айримларини кўрсатиб ўтдик. Хулоса қилиб айтганда технология дарсларида педагогик психологик технологияларидан кенг фойдаланилса технология таълими дарслари сифати самарали бўлади.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг Ахборотномаси, 1997 й., 11-12-сон, 295-модда; Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 05.01.2018 й., 03/18/456/0512-сон.

2. Г. Жабборова, А. Очилов: "Ўқувчиларни касбга йўналтириш муаммоларини бартарф бўлмайти?" 2019 йил. <https://xs.uz/uzkr/post/>

4. Немов Р.С. Психология. В 2-х кн. –Кн. 1. –М., 2003.

М., 1998.

ТЕХНОЛОГИЯ ФАНИ МАШҒУЛОТЛАРИДА ЎҚУВЧИЛАРДА ХУНАРМАНДЧИЛИККА ОИД ТАЯНЧ КОМПЕТЕНЦИЯЛАРНИ РИВОЖЛАНТИРИШ

Қодиров Б.Э.- Термиз давлат университети таянч докторанти

Ҳозирги кунда умумий ўрта таълим мактаблари ўқувчиларга Технология фани амалий фан сифатида ўқитилиб келинмоқда. Ушбу фан "Технология ва дизайн" ва "Сервис хизмати" йўналишларига бўлинади ҳамда ушбу йўналишларни ўзлаштириш жараёнида ўқувчиларда техник ижодкорликни, қобилиятни, тафаккурни, касб-хунарга йўналтиришни ривожлантириш, дарс жараёнида табиий, металл ва металлмас материалларга ишлов бериш усулларининг технологиясини ўргатиш орқали касб-хунарга йўналтиришни янада кучайтириш, халқ хунарамандчилиги асослари, ишлаб чиқариш ва рўзгоршунослик асослари, электроника асослари, электротехника ишларига оид ижодий лойиҳа тайёрлаш технологияси, касб-хунарга йўллаш бўйича ўзлаштирган билим, кўникма ва малакаларини ҳаётда қўллай олиш лаёқатини шакллантириш кўзда тутилган.

Технология фанида хунарамандчиликни синфда ва мактабдан ташқари машғулотлар жараёнида ёш авлодларга ўргатиш асосий муаммо сифатида бўлиб турибди.

Ўқувчиларнинг хунарамандчиликка оид эгаллашлари лозим бўлган таянч компетенциялар:

- хунарамандчилик ва уларнинг турлари тўғрисида маълумотлар;
- ёғоч ўймақорлиги ва уларнинг турлари тўғрисидаги маълумотлар ҳамда уларнинг ўзига хос хусусиятлари, бадиий манзарали талаблар;
- истеъмол буюмлари (товоқ, лаган, қошиқ), қурилиш буюмлари (устун, ёпик, ром), меҳнат буюм (бешик, сандик, жавон)ларни яшаш технологияси, кетма-кетлиги.
- турли хунарамандчилик тармоқлари (бўйрачилик, сават тўқиш, заргарлик, темирчилик, кулолчилик, пичоқчилик ва бошқа), уларнинг иш услублари, ўзига хос хусусиятлари.

Ушбу йўналишлардан келиб чиққан ҳолда биз ўқувчиларга хунарамандчиликка оид билим ва кўникмаларни ўргатишда қуйидаги муаммолар аниқланди: ёшларда халқ хунарамандчилигига оид маълумотлар етарли даражада эмаслиги; халқ хунарамандчилиги касблари асосан кўп меҳнат қилишни талаб этиши; халқ хунарамандчилиги буюмларини яшашда асосан кўл

меҳнати орқали ташкил этилиши; халқ хунармандчилигига нисбатан ўқувчиларнинг қизиқиши камлиги; халқ хунармандчилиги бўйича маълумот берадиган методик манбаларнинг талаб даражада эмаслиги.

Ушбу хунармандчиликка оид билим ва кўникмаларни ўргатишда муаммоларни қуйидагича бартараф этишни тавсия этамиз:

1) Ўқитувчилар, тўғарак раҳбарлари, психологлар ҳамда синф раҳбарлари синфда ва синфдан ташқари машғулотлар жараёнида халқимизнинг бой тарихи, ота-боболаримиз хусусан, Соҳибқирон Амир Темур хунарли кишиларни эъзозлагани, Аҳмад Дониш, Алишер Навоий, Абу Райҳон Беруний, Ал Хоразмий, Абу Али Ибн Синоларнинг хунар ҳақидаги фикрлари, Шайхул Машойх Абу Саид Харроз – этикдўз, Пайғамбар Довут алайҳиссалом темирчилик, Ал-Форобий боғбончилик, шоир Саккокий пичоқчилик, шоир Завқий эса маҳсидўзлик билан тирикчилик қилганликлари ҳақида маълумотлар бериш лозим.

2) синф раҳбари, фан ўқитувчилари, маҳалла фаоллари ҳамда ота-оналар ҳамкорлигида кўпроқ ёшларни меҳнатсеварлик гоёлари асосида меҳнат фахрийлари билан давра суҳбатлари, тадбирлар ташкил этиш.

Хунармандчиликка оид тадбирларни уюштиришда қуйидаги психологик - педагогик асосларга амал қилиш зарур: ўқувчиларда умумий жамоа манфаати учун меҳнат қилишга қизиқишни шакллантириш; ўқувчиларда хунармандчиликка оид креатив қобилиятларни ривожлантириш; меҳнат қилиш эҳтиёжи ва заруриятини ривожлантириш; тургун ирода сифатларини тарбиялаш; маҳалла жамоатчилик тарбиясини таркиб топтириш; ўқувчилар руҳиятига ва ёш хусусиятларига мос муносабатда бўлиш.

3) Ўқувчиларга дунёнинг ривожланган мамлакатларида хусусан, Англия, Франция, Туркия, Хитой, Италия, Япония ва бошқа давлатларнинг савдо расталарида замонавий дастгоҳларда ясалган буюмдан кўра тўлиқ қўл меҳнати билан тайёрланган хунармандчилик буюмларни кадрлашини тушунтириб бориш.

4) Маънавий маданиятни шакллантиришнинг асоси бўлган миллий ғурурни шакллантиришда хунармандчиликка оид тарбиявий тадбирларнинг ўрни бекиёслидир. Бундай хунармандчиликка оид тарбиявий тадбир учун материал танлашда ўқувчиларнинг ёши, руҳий ҳолатига мослиги, ўқувчиларда халқ хунармандчилик буюмларига ҳурмат ҳисси ва уларни асраб-авайлаш тўғуларини шакллантириш тарбиявий таъсирчанлигини ошириш ва чуқурлаштиришга хизмат қилиш.

5) халқ хунармандчилигини ёритиб берувчи ўқув қўлланмалар, методик тавсияномалар, мақолалар ва бошқа маълумотларни кўпайтириш;

6) технология фани ўқитувчиларини қўшимча ва қисқа муддатли халқ хунармандчилигига оид курсларга жалб этиш орқали уларнинг билим, кўникама ва малакаларини ошириш;

7) халқ хунармандчилигига оид машғулотларни ташкил этишда ўқитувчилар, хунармандчилик (“Дурадгорлик”, “Чевар қизлар”, “Ёш технологлар”, “Тикувчилик”, Тўқувчилик”) тўғараги раҳбарлари дарс ишланмаларни ананавий усулда тузмасдан, балки янги инновацион-ахборот коммуникация технологияларини қўллаб машғулотни қизиқарли ва мазмунли ташкил этиш орқали.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. Норбўтаев Х. Миллий тафаккурни шакллантириш омиллари. // “Таълим тизимида ижтимоий гуманитар фанлар”, 2007, 53-б

2. Қодиров Б.Э. Ўқувчиларни халқ хунармандчилиқ кўникмаларини ривожлантириш усуллари. Халқ таълими журнали. 4/2019 й. Б.67-71

ЎҚУВЧИЛАРНИ МИЛЛИЙ АНЪАНАЛАР РУҲИДА ТАРБИЯЛАШДА ТЎГАРАКЛАРНИНГ ЎРНИ

Эргашева Н.О., Нормуродова Н.Н., Номозова М.А. -Термиз давлат университети талабалари

Ўқувчиларни миллий анъаналар руҳида тарбиялашда тўғарақларнинг ўрни жуда катта аҳамиятга эга. Чунки, халқ амалий санъати намуналарини ишлатиш билан чегараланиб қолмасдан бу буюмларнинг шакллари, ишлаб чиқариш жараёнини тарбиявий, руҳий, фалсафий, шифобахш ҳислатларини ўргатиш лозим. Умуман олганда, бўлғуси меҳнат таълими ўқитувчилари тайёрлаган намуналарнинг маънавият оламини ҳам ўргатиш четда қолмаслиги лозим. Ахир, ота-боболаримиз ҳар бир нуқтани, чизиқнинг рангини, шакли, буюмларни бежиз яратмаганлар. Бу нарсаларнинг ичида чексиз маънавият ҳазиналари бор.

Хунармандчилик турларининг кўпчилиги йўқолиб кетиш арафасида турибди, уларни сақлаб қолиш, ёшларимизга ўргатиш ва келажак авлодга етказиш бурчимиздир.

Амалий санъат намуналарини фалсафий, руҳий, тарбиявий ва шифобахш ҳислатларини илмий ўрганиб, ота-боболаримиз қолдирган маънавият ҳазиналарини бирма-бир очиб, келажак авлодга етказиб бериш вақти келди.

Буларни амалга оширишда мактаб қошида ташкил қилинган халқ хунармандчилик тўғарақларининг ўрни жуда катта аҳамиятга эгадир. Чунки, ўқувчилар бундай тўғарақларга қатнашаётганларида, у ерда кўрган ота-боболаримиздан бизга мерос бўлиб қолган халқ-хунармандчилик буюмларини яшаш ва ишлаб чиқариш жараёнлари давомида қизиқишлари янада кучайиши давомида албатта ота-бувалари билан мулоқат қилишганда бошқа йўқолиб кетган ёки йўқолиб кетиш арафасида бўлган халқ-хунармандчилик санъатини билиб олиб, тўғарақларда ана шуларни ишлаб чиқаришга ёки яратишга ҳаракат қилишлари мумкин бўлади. Бундан ташқари уларни яратишда миллий анъаналаримизга ҳослигини йўқотмаган ҳолда, ҳозирги кун талабига мослаштириб ҳам яратишлари мумкин.

Ўқиш даврим мобайнида олган билимларим ва илмий тадқиқот ишларимдан келиб чиққан ҳолда, юқорида баён қилинган мактабнинг ўзида халқ-хунармандчилик тўғарақларини ташкил қилишда, ҳамда, мутахассислигим бўлган бичиш-тиқиш ва каштачилик тўғарақларини ташкил қилишда ва ўқувчиларни миллий анъаналар руҳида тарбиялашда тўғарақларнинг ўрни ҳақида фикр юритсак.

Юқорида таъкидлаб ўтилганидек, мактаб ўқувчиларини халқ-хунармандчилик тўғарақларига жалб қилишда ўқувчиларнинг ёшига қараб тўрт босқичга бўлган эдик.

Шу боисдан бошланғич синф ўқувчиларида касбга йўналтиришдаги амалиёт қуйидагиларда намоён бўлади:

- ⇒ Ўзининг шахсий буюмларига, ўқув қуролларига ва мактаб жиҳозларига эътиборда;
- ⇒ нафақат яхши эътибор билан қараш ва зарур бўлиб қолганда уларни таъмирлаш ишларини (елимлаш, тартибга келтириш) бажаришга интилишида;
- ⇒ ҳар қандай ишни бажаришда интилувчанлиги ва чакқонлигида;
- ⇒ табиатга ва атроф-муҳитга ва унинг бойликларини сақлашга бўлган ҳаракати, муносабати ва бошқаларда намоён бўлади.

Касбга йўналтиришнинг омилкорона йўналиши бу ёшдаги ўқувчиларда ўз меҳнати натижаларидан эстетик жиҳатидан руҳланишида намоён бўлади. Меҳнатга эстетик эътиборнинг йўналишида мотивлар турлича бўлиши мумкин. У ҳаракат қилишида, фаолликда, ўртоқлари билан алоқасида ва ишонч билдирганлигидан қониқишида сезилади.

5-7 синф (Ўрта ёшдаги) ўрта синфдаги ўқувчиларни касбга йўналтириш мазмуни улардаги қизиқиш, лаёқат, шахс сифатидаги жамиятда тутган ўрни тўғрисидаги тушунчалар ва касб танлаш кўникмасини шакллантириш зарурияти билан белгиланади. Бўлғуси касбий фаолиятлар бу ёшдаги ўқувчилар учун ҳаётдаги ўз ўрнини аниқлаш ва ҳаётга тайёрлашда туртки, ўз шаклланиш имкониятларини очиши ва ўзига муносиб бўлган касбни танлаши учун зарур бўлади.

5-7 синф таълим-тарбия жараёнида ўқувчиларнинг кизикишлари, изланишлари ва лаёқати бўйича касб танлашга, шунингдек, ҳаётда ўз ўрнини топишга ҳамда эгаллашга йўналтирилади.

Бунинг натижасида ўқувчилар тикувчилик тўғарагида материал ва рангларни бир-биридан ажрата олиш сирларини ўрганадилар. Шунингдек, тикув чокларининг турларини ва уларни қўлда тикиш сир-асрорларини ўрганадилар. Оқибатда, турмушда керак бўладиган оддий буюмларни мустақил бичиб-тикишни ўрганадилар.

Масалан, даструмолча, сочиқ, ётоқхона жамланмалари (ёстиқ жилти, простина, кўрпа қопламалри ва бошқалар) ва ҳаттоки дастурхонларни мустақил тикиш қобилиятига эга бўладилар.

8-9 синф ўқувчиларида олдинги босқичларда олган билим, кўникма ва тажрибалари асосида қуйидаги йўналишлар бўйича касбий фаолият амалга оширилади:

- ⇒ ўқув ва махсус фанларни чуқур ўрганиши асосида;
- ⇒ диққатнинг танланган фаолиятида касбий муҳим сифатларнинг шаклланишига қаратилишида;
- ⇒ касбий режалари устидан назорат ва уларнинг асосланиш даражасини очиб беришда;
- ⇒ касбий фаолиятга ўзини тайёрлаш йўллари, ўзига ташхис қўйиш натижаларини баҳолашда;
- ⇒ ижтимоий-касбий кўникиш, касбни танлаш сабаблари ва касбий йўналиш асослари шаклланишида.

Бундан ташқари, касбга йўналтириш босқичлари бўйича метёр ва кўрсаткичлар ишлаб чиқилади.

10-12 синф ўқувчиларини ёшига назар солсақ, улар 17-19 ёшни қаршилаган бўладилар. Бу ёшда олдинги босқичларда олинган билим, кўникма ва малакалари натижасида мустақил ишлашга ҳаракат қиладилар. Оддий бичиб-тикишдан мураккаб бичиш-тикишга ўтиб, унинг сир-асрорларини пухта ўрганадилар ва ўзлари мустақил ишлаб чиқадиладар.

Масала, болалар кийим-кечагидан бошлаб, катта ёшдаги кишиларнинг кийим-кечекларини, дереза ва эшик пардаларини, ранг-баранг кўрпа ва кўрпачаларнинг жилдларини ва пақривалларни ўзлари мустақил равишда бичиб-тикишни ўрганадилар ва ўзлари бевосита ишлаб чиқарадилар.

Бунинг натижасида эса, ўрта мактабни битириб чиқиш билан биргаликда тикувчилик касб-хунарини ҳам мукамал ўрганиб чиқишлари мумкин.

Маънавиятимиз қиёфасида истиклол шарофати туфайли катта ўзгаришлар содир бўлмоқда. Жумладан, миллий маданиятимиз, бой маданий меросимиз тарихига қизиқиш, уни ҳар томонлама ўрганишга катта эътибор берилмоқда. Шу боис мазкур ўрта таълим мактаблари қошида ташкил қилинадиган халқ-хунармандчилик тўғараклари ҳозирги давр учун энг долзарб мавзу бўлган маънавият тарбиясининг касб-таълими тўғаракларида ўқувчиларни касб-хунарга тайёрлашда тутган ўрни, ўзбек миллий хунармандчилигининг ўтмиши билан бугунини, бугуни билан келажagini бир-бирига узвий боғлаб ўқувчилар онгига сингдириш маънавиятимизни юксак даражага кўтаришнинг асосий пойдеворидир.

Сўнги йилларда республикамизда содир бўлаётган ижтимоий ўзгаришлар, маданият ва маънавиятнинг, илм-фан ва ахлоқнинг ўзаро боғлиқлигини яна бир бор кўрсатди. Натижада миллий анъана ва қадриятларимизга эътибор ортди. Миллий хунармандчиликнинг юздан ортиқ тури ривожланиб, халқ эҳтиёжларини қондираётганлиги диққатга сазовордир. Миллий маданиятни ривожлантиришда халқ бадий хунармандчилигини ва амалий санъатни ошириш, қўлда нафис буюмларни тайёрлаш асрий анъаналарини ва ўзига хос турларини қайта тиклаш ҳамда халқ хунармандаларига давлат томонидан мадад кўрсатиш мақсадидаги «Халқ бадий хунармандчиликлари ва амалий санъатини янада ривожлантиришни давлат йўли билан қўллаб-қувватлаш чора тadbирлари тўғрисидаги» миллий хунармандчилигини янада юксалтиришга, қобилиятли ёшларни танлаш ва имконига яраша иш билан таъминлашга асос бўлади.

Халқ хунармандчилигининг турли соҳаларини ўрта мактаб қошида ташкил қилинган тўғаракларда тизимли равишда ўқитиш ва касбга ўргатиш икки томонлама қулайлик яратади.

1. Меҳнат таълими ва касбга йўналтириш фани ўзининг тарихига ва методологик асосига эга бўлади.

2. Миллий қадриятларимиздан ҳисобланган халқ хунармандчилигининг танлаб олинган соҳалари мукамал фан асосида тизимли равишда ўқитила бошланди.

Миллий хунармандчиликни ривожлантириш, унинг маҳсулотларидан халқимизни баҳраманд қилиш, нафақат маънавий қадриятларимизни тиклаш ва ардоқлашдир, балки, иқтисодий талабларимизга ҳам ҳамоҳангдир. Бу эса хунармандчилик мактабларини, уста-шоғирд уюшмаларининг баракалини ишлашини таъминлашни тақозо этади. Мен ўз тадқиқот ишимда миллий қадриятларимиздан ҳисобланган халқ хунармандчилигини узлуксиз таълим-тарбия тизимида қўллашнинг педагогик томонларини тадқиқ қилишда шундай

хулосага келдимки, унга кўра, ҳар бир қадрият маълум бир фан негизда фойдаланилса, таълим-тарбияни самарали олиб боришда ижобий натижалар беради деб ўйлайман. Шунингдек, тизимли равишда мукамал тадқиқ қилинса, унинг таълимий аҳамияти юқори бўлади деб ўйлайман.

Фойдаланилган адабиётлар.

1. Андрианов П.Н. Мактаб қувчилари техник ижодкорлигини ривожлантириш // Ўқувчиларнинг техник ижодкорлиги. Тузувчи П.Н.Андрианов. – Т.: "Ўқитувчи", 1989. 128 б.
2. Ахатова Д. Фитратнинг таълим-тарбия ҳақидаги қарашлари. "Халқ таълими", 1998. № 4, 69-72 б.
3. Бабанский Ю.К. +озирги замон умумий таълим мактабида ўқитиш методлари. -Т.: Ўқитувчи, 1990. 230 б.
4. Бакалавр мутахассислиги бўйича малака тавсифномалари, фанлар бўйича Давлат таълим стандартлари. // Ўзбекистон Республикаси Педагогика институтларининг Саноат-педагогика факультети мутахассисларига оид меъёрий ҳужжатлар тўплами. - Т.: Низомий номли ТДПИ, 1996. 124 б.

ЎҚИТУВЧИЛАРНИ ТЎГАРАККА ЖАЛБ ҚИЛИШДА ХАЛҚ ХУНАРМАНДЧИЛИГИДАН ФОЙДАЛАНИШНИНГ ЎЗИГА ХОС ХУСУСИЯТЛАРИ

Каримов А.Т., Раҳматов Ж.Р. -Термиз давлат университети талабалари.

Қадимда ота-боболаримиз нафақат меҳнатсевар ва миришкорлиги, балки ўзи етиштирган рахтаси, ноз-неъматлари, деҳқончилик маҳсулотлари, яратган гўзал меъморий иншоотлари, хунармандчилиги билан ҳам жаҳонга машҳур бўлганлар. Бу эса халқимизнинг маънавий ва иқтисодий ривожланишига сабаб бўлиб, халқ фаровонлигини таъминлаган.

Республикамиз мустақиллика ва истиқболга эришиши, ўтмиш авлодларимиз томонидан яратилган бебаҳо маънавий бойликлар ҳазинасини, маданий меросини чуқур ва ҳар томонлама ўрганиб, келажак авлодга етказишнинг кенг йўқониятларини яратди. Ўзбекистон бадий академияси, хунармандчилик уюшмалари, миллий хунармандчилик лицейлари, Камолиддин Бехзод номидаги миллий рассомчилик ва дизайн институти очилди. Бу амалий санъат ҳамда хунармандчиликнинг ривожланишига ва бутун дунёга маънавият олашимиз тарқалишига олиб келмоқда.

Ўзбекистонимиз моддий ва маънавий жиҳатидан юксалишда бўлсада, ўрта мактабни тугатаётган фарзандларимизнинг 90 фоизининг бирортаси ҳам хунарга эга эмас. Бу эса мамлакатимизнинг маънавий ва моддий ривожланишига салбий таъсир этиши мумкин.

Биринчидан, мамлакатимизда ишчилар сони кўпайиши мумкин.

Иккинчидан, ёшларимизнинг тарбиясининг бузулишига таъсир этиш эҳтимоли бор.

Бунинг учун аввалам бор, ўрта мактаблардаги меҳнат таълими дарсидан ташқари, халқ хунармандчилиги тўғрисидаги жалб қилиш лозим.

Ҳозирги кунда баъзи ўрта мактабларда 3-4 хилдаги тўғрақлар мавжуд бўлса-да, улар ҳар йили мактабларни битираётган юзлаб ўқувчилар учун камлик қилади.


Чунки, шу мактаб ўқувчиларининг ҳаммаси ҳам бундай оз миқдордаги тўғарақларга қизиқмаслиги, қизиқиши бўлганда ҳам, ниҳоятда паст даражада бўлиши мумкин. Тўғри туманлар марказидаги маданият уйлари қошида очилган кўп миқдордаги тўғарақлар мавжуд. Лекин, тумандаги барча мактаблардаги ўқувчиларни марказдаги тўғарақларга жалб қилишнинг иложи, имконияти бўлмапти. Бундай салбий оқибатларга эса бир неча омиллар таъсир этмоқда:

Биринчидан, мактабдан уйга қайтаётган ўқувчиларнинг баъзи бирлари ота-оналари уйда йўқлигидан фойдаланиб, бекорчи ишлар билан шуғулланиб юришлари;

Иккинчидан, баъзи ўқувчилар эса қандайдир бир тўғарақка қизиқиши бўлсада, узок масофадан марказга қатнаш учун транспорт ҳаражатлари ва бошқа шарт-шароитлар таъсир (тўсқинлик) қилса;

Учунчидан, бундай тўғарақларнинг кўпчилиги пуллик бўлганлиги сабабли ҳам кўп оилаларнинг иқтисодий томонидан қурби етмаслиги оқибатидадир.

Шу нуқтан назардан мен ҳам қишлоқ мактабида ўқиганлигим ҳамда олий ўқув юртининг бакалавр талабалик давримда ва ҳозирги кунда тадқиқот ишларидан келиб чиқан ҳолда, халқ хунармандчилигининг барча соҳалари бўйича тўғарақлар мактаб қошида ташкил қилиниб, шунингдек, шу мактабнинг барча ўқувчиларни ташкил қилинган тўғарақларга жалб қилинса, айти мудоо бўлур эди. Бинобарин, буни қуйидаги схема кўринишида тасвирлаш мумкин.



Ушбу схемани таҳлил қилишдан олдин бир ўйлаб кўрайлик. Масалан, бирор бир мактаб мисолида кўрсак. Шу мактаб атрофида минглаб хонадонлар жойлашган. Ушбу хонадонларда яшайтган ота-оналар турли хил касб эгалари.

яъни мутахассисларидирлар. Шу ота-оналарнинг фарзандларидан айримлари, ўз ота-оналарининг касбига қизиқиб, анашу касбни пухта эгаллаб, ота-онасининг ишини давом эттирмоқчи бўлсалар. Баъзилари эса, бутунлай бошқа бир касбга қизиқиши мумкин. Ана шунда ўғил-қизлар умумтаълим ўрта мактабларида ўқиши даврида ўз билимига, дунёқаршига, қобилиятига ва қизиқишига қараб, мактаб қошида ташкил қилинган ҳар хил тўғарақлардан бирини танлаш ҳуқуқига эга бўлади ва бевосита қатнашиши натижасида ўз билим доирасини кенгайтириб боради, шунингдек, кейинчалик ўзи танлаган касбини пухта эгаллашида асос бўлиб хизмат мумкин бўлган, бошланғич маълумотларни, тушунчаларни олиши мумкин бўлади.

Бундай тўғарақларни мактаб қошида ташкил қилиш учун эса мавжуд мактабларда қўшимча устахоналар ташкил қилишга (қуришга) ва уларни замонавий техника-технологиялар билан жиҳозлашга, шунингдек, маъалакали кадрларни жалб қилишга тўғри келади. Келажакда қуриладиган замонавий мактабларда ҳам шундай устахоналарни ташкил қилишни ҳисобга олиш керак. Албатта, юқорида айтиб ўтилганидек, бундай устахоналарга малакали ва ўз ишининг устаси бўлган меҳнат таълими ўқитувчилари ва моҳир усталар жалб қилинса ва замонавий техник анжомлар билан жиҳозланса мақсадга мувофиқ бўлади. Бундан ташқари бу жалб қилинган кадрлар ўз фаолияти давомида янги замонавий технологияларни ўз ўрнида қўллаш билиш ва улардан самарали фойдалана олиши шарт. Чунки, бу ўтиш даври бўлган бозор иқтисодиёти шароитида, ҳозирги замон талаби ҳисобланади.

Тўғарақларни мактабларда ташкил қилишда ҳудудий бўлинишига, географик ўрнига ва саноатнинг ривожланишига ҳам катта аҳамият бериш керак. Масалан, Самарқанд, Ургут, Хива каби ҳудудларда кулолчилик ва бошқа шу каби ҳунар турларини ўргатиш керак. Чунки, у ернинг тупроғи кулолчиликка хос бўлган манбаага бой ҳисобланади.

Бундай тўғарақларни давлат томонидан тасдиқланган умумтаълим мактаблари программасидан ташқари вақтда ҳам икки хил йўналишда фаолият кўрсатиш мумкин.

1. Гуманитар фанлар бўйича – бунда ҳар бир фанларга махсуз хоналар ажратилади. Хоналарни кўргазмали плакатлар, шу фанларнинг ривожланишига муносиб ҳисса қўшган авлод-аждодаларимизнинг портретлари ва қилган янгиликлари ҳақида маълумотлар ва керакли бошқа анжомлар билан жиҳозланади. Бундан мақсад ўқувчилар ўқишдан ташқари бўш вақтларида ўзлари қизикқан ва севган фанларидан билимларини янада мукаммаллаштириб борадилар. Мактабни тугатганларидан сўнг ўзлари ҳолаган ва қизикқан олий ўқув юртларига кириб, у ерда мактабда эгаллаган бошланғич билимлари билан қийналмасдан таҳсил олишлари мумкин бўлади.

2. Касб-ҳунар бўйича – бунда тўрт босқичда амалга оширилади. Бунинг натижасида ўқувчилар ёшига қараб синфларга бўлинади.

1 – босқич: 1-4 синфлар.

2 – босқич: 5-7 синфлар.

3 – босқич: 8-9 синфлар.

4 – босқич: 10-12 синфлар.

1 – босқичда, ўқувчиларга ўқиш ва ёзишни ўргатиш билан бирга, халқ ўйинларини ўргатиш, экологик тарбия бериш ва бошқаларни ўз ичига олади.

2 – босқичда, ўқитувчилар билан ота-оналар биргаликда ўқувчиларни касб танлашида жуда катта ишларни амалга оширишига тўғри келади.

1) Ҳар бир касбнинг моҳияти, мазмуни ва шакли мукаммал тушунтирилиб борилади. Бунда кўргазмали плакатлардан кенг фойдаланилади.

2) Экскурсиялар уюштирилиб, ишлаб чиқариш соҳалари, устахоналар, цехлар, завод ва фабрикалардаги касбларнинг турлари, ишлаб чиқариш жараёнлари, шунингдек, тайёр ишлаб чиқарилган маҳсулотлар билан таништирилади, улар ҳақида турли маълумотлар бериб кенг тушунтирилади ва ҳокозолар.

3) Ўқувчиларнинг дунё қаршига, мойиллигига ва қизиқишига қараб мустақил касб танлашига ёрдам бериш.

4) Ўқувчиларнинг танлаган касби бўйича мактаб қошида очилган устахона ёки цехларда мураббий ва усталаarga бириктириб қўйиш.

3 – босқичда, ўқувчиларнинг ўзлари танлаган касблари бўйича тўғридан-тўғри мактабнинг ўқув программасидан ташқари вақтда шу мактаб қошида очилган устахона ва цехларда кўникма ва малакаларга эга бўладилар, шунингдек, ўз билим, кўникма ва малакаларини ошириб борадилар.

Шу ўқувчиларнинг баъзи бирлари 9-синфни тугатганларидан сўнг ўз ҳоҳишларига қараб, касб-ҳунар коллежларига ёки лицейларга ўқишга кириб, ўз билимларини янада бойитишлари мумкин.

4 – босқичда, ўқувчилар умумий ўрта таълим мактабларининг ўқув программасидан ташқари вақтда, шу мактабнинг қошида ташкил қилинган устахона ва цехларда уста ва мураббийларга бириктирилган ҳолда маҳсулот ишлаб чиқариш билан шугулланадилар.

Бунинг натижасида, ўқувчи мактабни битиргунча ўз танлаган касби бўйича тўлиқ мутахассис бўлиб етишади. Шу боисдан ҳам, мактабни битирганлиги тўғрисидаги аттестат билан бирга бирон-бир касб эгаси (мутахассиси) мақоми берилган шаходатнома берилса айни муддао бўлар эди.

Бундай мақомга қуйидагича таъриф бериш мумкин:

- 1) Дурадгор;
- 2) Косиб;
- 3) Газ ва электр пайвандчи;
- 4) Кулол;
- 5) Тўқувчи;
- 6) Бичувчи ва тикувчи, ва ҳокозолар.

Бундан асосий мақсад эса, ўқувчилар мактабни битириш билан бирга малакали мутахассис бўлиб етишишидир. Бундай ўқувчилар эса тўғридан-тўғри корхона, муассаса, ташкилот, завод, фабрика ва цехлардаги бўш ўринларга ишга кириб, мамлакатимиз тараққиётига ўз муносиб хиссаларини қўшишлари мумкин. Баъзи бирлари, яъни илмга, билимга чанқоқ ўқувчилар эса олий ўқув юртлирига ўқишга кириб ўқишлари, шунингдек, ўз билим, кўникма ва малакаларини янада ошириб, бойитишлари мумкин. Бунинг натижасида эса ўзлари севган ва қизиққан касблари бўйича юқори малакали мутахассислар бўлиб камолга етишишлари мумкин.

Фойдаланилган адабиётлар.

1. Андрианов П.Н. Мактаб ўқувчилари техник ижодкорлигини ривожлантириш // Ўқувчиларнинг техник ижодкорлиги. Тузувчи П.Н.Андрианов. – Т.: "Ўқитувчи", 1989.128 б.

2. Ахатова Д. Фитратнинг таълим-тарбия ҳақидаги қарашлари. "Халқ таълими". 1998. № 4. 69-72 б.

3. Бабанский Ю.К. +озирги замон умумий таълим мактабида ўқитиш методлари. -Т.: Ўқитувчи, 1990. 230 б.

4. Бакалавр мутахассислиги бўйича малака тавсифномалари, фанлар бўйича Давлат таълим стандартлари. // Ўзбекистон Республикаси Педагогика институтларининг Саноят-педагогика факультети мутахассисларига оид меъёрий ҳужжатлар тўплами. - Т.: Низомий номли ТДП, 1996. 124 б.

KASHTACHILIK SAN'ATI VA KASHTACHILIK NAQSHLARI ULARNING TUZILISHINI O'RGATISH UNING AHAMIYATI

Umirov A.T. (TerDU)

Jalolova G.Q (TerDU)

Annatsiya: Ushbu maqolada, milliy hunarmandchiligimiz turlaridan biri bo'lgan kashtachilik tarixi, tikish texnologiyasi va muhim jihatlari haqida ma'lumot keltirilgan. Kashtachilik va uni o'rganishda ahamiyat berilishi lozim bo'lgan jihatlari va Surxondaryo kashtachiligini o'rganishning ahamiyati haqida yoritilgan.

Kalit so'zlari: Kashtachilik, naqsh san'ati, xalq hunarmandchiligi, milliy, Surxon kashtasi, kasb-hunar.

Hozirgi kunda mamlakatimizda Xalq hunarmandchiligi yo'nalishlariga alohida e'tibor qaratib kelinmoqda. Ota-bobolarimizning asosiy hunarlari hisoblangan naqqoshlik, o'ymakorlik, zardo'zlik hamda kashtachilik san'ati turlarini o'sib kelayotgan yosh avlodga o'rganish asosiy vazifalar ekanligi belgilab berildi. Har bir xalqning ijtimoiy-madaniy hayotida azaliy an'ana, urf-odatlar, milliy hunarmandchiligi alohida o'rin tutadiki, bu inson tug'ilishi bilanoq uning ongida shakllanib, umri davomida o'chmas iz qoldiradi.

O'zbek milliy kashtachilik xalq hunarmandchilik san'atining eng qadimiy turlaridan bo'lib, u xalqning o'z turmushini go'zal qilish istagi natijasida yuzaga kelgan. Kashta kiyimlar va buyumlarni bezashda hamda ro'zg'or bezak buyumlari tayyorlashda qadimdan qo'llaniladi. O'zbek kashtachiligi iqlimi, tabiiy sharoit, muhit bilan bog'liq holda barcha kasb-hunarlar bilan birgalikda rivoj topgan. XIV - XV asrlarga mansub miniatyuralar orqali kashtachilikning juda qadimdan rivojlanganligini ko'rish mumkin. Ispan elchisi Rui Ganzales de Klavixo Amir Temur saroyida o'zbek milliy kashta bezaklarini ko'rganini kundaligida yozib qoldirgan. Kamoliddin Behzod "Zafarnoma"ga ishlagan.

"Temur taxtda" miniatyurasida chodirga ishlangan kashtani ham aks ettirgan.

Respublikamizning Surxondaryo viloyatida ham bu milliy hunarmandchiligimizning turi, ota-bobolarimizdan qolgan merosni o'rganish va rivojlantirish ishlari amalga oshirilmogda. Jumladan, Denov, Sariosiyo, Uzun, Termiz va ayniqsa Boysun tumanida ustoz-shogird tizimi asosida o'rganish ishlari yo'lga qo'yilgan. Bu san'at turi maktablarda, darsda va maktabdan tashqari mashg'ulotlarda, to'garaklarda, tumanlardagi mahallalarda ustoz-shogird an'analari asosida o'rganib kelinmogda.

Kashtachilik san'ati nafaqat mamlakatimizda, balki chet ellarda ham shuhrat qozongan. O'zbek chevar ustalari qo'llari bilan tikilgan kirpich, so'zana, zardevor, gulko'rpa, choyshab kabilar Fransiya, Italiya, Yaponiya, Germaniya, Belgiya, Amerika, Hindiston kabi xorijiy shuningdek, masalan, Respublikamizning Surxon vohasida faqat xonadonlarda emas, balki viloyatida joylashgan "Tarix va madaniyat" muzeyida ko'p namunalari to'planib, doimiy ekspozitsiyaga aylanib qolgan. O'zbek

kashtachiligi qo'shni xalqlar kashtachiligi ta'sirida boyidi va rivojlandi. O'zbek kashtalariga e'tibor bersak, unda hind, xitoy, rus, qozoq, qirg'iz va tojik kashtachiliklarining usullarini uchratamiz. Qadimiy an'analarga ko'ra, o'zbek qizlari-bo'lajak kelinchak seplari bo'lmish har xil kashtachilik buyumlarini ya'ni zardevor, yostiqqoshi, dastro'mol, parda, belbog', sumka, nimcha, joynomoz, gulko'rpa, kirpich, zardevor, choyshab, so'zana, palak, qiyiqcha, kiyim bezaklari va bosh kiyimlarini, sovg'alarni o'zlari tayyorlashgan.

So'zana- forscha so'zdan olingan bo'lib, igna bilan tikilgan degan ma'noni bildiradi. Palak- devorga osiladigan bezak buyumi bo'lib, naqshlari oy ko'rinishida aylanasimon bo'ladi.

Zardevor-uyning tepa qismiga osiladigan kashta buyumi bo'lib, balandligi 60 sm, uzunligi uyning o'lchamiga mos qilib olinadi.

Choyshab- forscha so'z bo'lib, tun chodiri degan ma'noni bildiradi.

Joynamoz- bir tomoniga mehrob shakli kashtada tikilgan bo'ladi.

Yostiqqosh- eni 30sm, uzunligi 60sm gazlamaga naqsh tushurilib tikiladigan bezak buyumi.

Qiyiqcha- belbog' erkaklar beliga bog'lanadigan ro'mol.

Naqsh- arabcha tadbir, gul degan ma'nolarni bildiradi. U elementlari ma'lum tartibda takrorlanadigan qush, hayvon, o'simliklar, geometrik shakllar va boshqalarning ma'lum tartibda takrorlanadigan hosil qilingan bezak. Naqshning quyidagi turlari mavjud:

1. Islimiy naqshlar-egri chiziq elementlaridan tashkil topgan bo'lib, barglar, gullar, novda, jingala va boshqa naqshlar kiradi.

2. Geometrik naqshlar- to'rtburchak, aylana va boshqa shakllar.

3. Qush va hayvon tasvirlari.

4. Murakkab naqshlar, masalan, novdada qush tasviri.

Kashtachilik san'atida har bir millatning o'ziga xos eng ko'p qo'llaydigan naqshlari bo'ladi. O'zbek kashtachiligida jumladan, Surxon kashtalarida o'simliksimon, geometrik shakl hamda gul naqshlari ko'p qo'llaniladi. Kashtachilik san'atini o'rgatishda oromental ko'rinishdagi geometrik o'simliksimon, naqshlar, gulli girix, ramziy va boshqa turlardagi naqshlar qo'llaniladi. Naqshlar buyumga qanday joyning bezatilishiga qarab o'ziga xos turli tuman uslubda bajarilish texnologiyasi va mazmuniga ega bo'ladi. Kashtachilikda chok yordamida turli ko'rinishdagi barf, band, daraxt, bitta, g'uncha va boshqa narsalarni naqqosh tomonidan stillashtirib, olingan shaklni ma'lum qonuniyatlar asosida takrorlanishidan hosil qilingan. Qo'lda kashta tikish uchun o'ziga xos asboblar bo'ladi. Kashtachilikda ignalar, angishvona, qaychi, santimetr lenta, ilmoqli va ilmoqsiz bigizlar hamda chambarak ishlatiladi.

Bigiz – nina uchli metall qurol; sifatli po'latdan yasaladi; odatda, dastasi yo'goch va plastmassadan qilinadi. Yo'g'onining ichkaligi bilan bir-biridan farq qiladi.

Kashtachilikda oq, kulrang, och sariq, och mallarangli surp, bo'z, shoyi, baxmal, chit yoki satin kabi matolar ishlatiladi. Bunday matolarda naqshlar chizilganda yaxshi ko'rinadi, rangli iplarning aksariyati unga mos tushadi.

Gul, rasm, naqshlar chizish uchun chizg'ichlar, yumshoq va qattiq qalamlar, daftar, al'bom, o'chirg'ich, millimetrlangan qog'oz, nusxa ko'chiradigan qog'oz va shaffof qog'ozlarkerak bo'ladi.

Chambarak gazlamani tarang tortib turish uchun ishlatiladi. 20-40 smli ikkita gardishdan iborat bo'lib, bir- birini ichiga tushib turadi. Agar kichik gardish katta

gardish ichiga qiyin tushadigan bo'lsa, katta gardishning ichki tomonini jilvir bilan tozalash kerak. U juda kichik bo'lib, katta gardishdan tushib ketadigan bo'lsa, atrofiga yupqa gazlama o'rab qo'yish mumkin.

Kashta tikish uchun cho'ziroq ko'zli kalta ignalar tanlanadi. Ignaning ko'zi katta bo'lsa, bir necha qavat ipni o'tkazish oson bo'ladi. Bunday ignalar sanama va oddiy choklarni tikishda, hamda ipni sanash va ajratib olish uchun qulay. Ipakni ikki qavat qilib, hosil bo'lgan petlya ichiga jun ipi uchun kiritiladi, ipakning ikkala uchini igna ko'zidan o'tkazib, jun ip bilan birga tortib olinadi. Zich va yupqa (markizet, shoyi, batis, shifon) gazlamaga kashta tikishda, ko'zi kichik, ingichka igna kerak bo'ladi. Yo'g'on igna sanchilgan joylarda teshik qoladi. Katta ko'zda esa ingichka ipni yaxshi tutib bo'lmaydi.

Qo'lda kashta tikishning ikki turi mavjud: birinchisi matoning arqoq hamda o'rim iplarini sanab kashta tikish; ikkinchisi esa matoga naqsh-gul, tasvir konturini chizib, erkin kashta tikish turlari. Arqoq va o'rish iplari kesishtirib to'qilgan mato polotno, bo'z shaklida to'qilgan matoga tikiladi. Chunki bunday mato ishlarini sanab tikish qulay. Bunday kashta gullari geometrik shakllar, uzun-qisqa to'g'ri chiziqlardan iborat. O'zbekistonda sanama kashtaning iroqi turi tarqalgan. Erkin kashta esa har qanday matoga tikilaveradi, tanlamaydi, tushirilgan tasvir chiziqlari asosida tikiladi. Kashta tikishni boshlaganda naqshlar cheti (konturi) oldin tikib chiqilib, keyin ichi to'ldiriladi. Kashta tikayotganda popop mashinasidan murakkab kashtalar yo'llarini, gullarning o'zaklarini, gul atroflarini tikishda foydalaniladi. Oqlanganda bosma chokida igna bilan buyumning yuza qismida ish bajariladi. Unda ipning uchi bog'lanib matoning tagidan ustiga igna sanchilib ip tortiladi, tugun kashtaning orqa tomonida qoladi. Ip tugagach yana shunday qilinadi. Bu ish kandaxayol, do'ro'ya, xamdo'zi, ilmoq choklarida ham amalga oshiriladi. Kashta tikilayotgan buyum tizza ustiga erkin tashlab qo'yilib tikiladi. Yirik buyumlar (so'zana, takiyapo'sh, gulko'rga, choyshab, palak va boshqalar) kompozitsiya va naqsh chizilgach bir necha paxtaga ajratilib, kashtachilik qilingach, qaytib birlashtirib tikiladi. Bunda har bir bo'lak boshqa-boshqa chevar tomonidan tikilishi mumkin, ammo ip-ranglar, uslub chizmada belgilab olinadi va umumiy ranglar gammasi saqlangan bo'ladi.

O'zbek kashtachiligida iroqi, ilma, bo'rma, bosma, xamdo'zi, chamak, chinda xayol, baxya choklari keng tarqalgan. Turli joylardagi badiiy kashtalarda choklar turlicha tikiladi. Chunonchi, Toshkentda ko'proq bosma choki, Shaxrisabzda yo'rma, kandaxayol, iroqi, Buxoro, Samarqand, Nurotada yo'rma choki bilan tikiladi.

Xulosa qiladigan bo'lsak, inson hayoti mobaynida milliy urf-odatlar va an'analarga amal qilishga urinadi. Chunki har bir inson o'zidan oldingi ajdodining ijodiy yo'lidan borishga va unga amal qilishga undaydi va intiladi. Shunday ekan xalqlar madaniyatida urf-odat, an'anal va hunarmandchilikning ahamiyatini inkor etib bo'lmaydi. Xalq hunarmandchiligi avloddan-avlodga o'tib taraqqiy etgan va asrlararo ajdodlar fikrini orzu o'ylari va boshqa qadriyatlarini mujassamlashtirgan boy merosga aylangan. O'zbek milly kashtachiligi uzoq davrlarga borib taqaladi va u asrlar osha bizgacha yetib kelgan. Demakki, kashtachilik san'ati nafaqat hunar balki milliy qadriyatimiz, milliyligimizning bir bo'laki hisoblanadi. Bizning vazifamiz esa ajdodlarimizdan qolgan bu merosni asarashimiz, o'rganishimiz, bizdan keyingi avlodlarga ham o'rgata borishimiz va uni barhayot saqlab qolishimizdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati:

1. S.S.Bulatov "O'zbek xalqi analiy bezak san'ati" T.: Mehnat-1991-yil.

2. R. Hasanov. Amaliy bezak san'ati mashg'ulotlari metodikasi. Toshkent. 2003 yil

3. Qosimova K.K. "Naqqoshlik" Toshkent "O'qituvchi" 1990.

4. Qo'ysinov O.A., Sattorov.V.N., Yakubova H.S. Mehnat ta'limidan amaliy mashg'ulotlarni tashkil etish metodikasi (Metodik qo'llanma). T.:Nizomiy nomli TDPU, 2011.

ТЕМИР ЙЎЛ ТРАНСПОРТИНИНГ ТОҒЛИ ҲАМДА ТОҒ ОЛДИ ХУДУДЛАРИДА РАДИОМОНИТОРИНГ ТИЗИМИНИ ҚЎЛЛАШ

Палванов И. -Хоразм вилояти Фавкулудда вазиятлар бошқармаси Ҳаёт фаолияти хавфсизлиги ўқув маркази бошлиғи катта лейтенант. Хоразм вилояти Фавкулудда вазиятлар бошқармаси Ҳаёт фаолияти хавфсизлиги ўқув маркази ўқитувчи

Ушбу мақола оптик толали алоқа воситалари интеграллашган датчиклари асосида тоғли ва тоғ олди ҳудудларида тоғ қатламларини ҳолатини назорат қилиш ва мониторинг услубини ишлаб чиқишга бағишланган.

Калит сўзлар: темир йўл, оптик тола, технологик жараён, оптик толали датчик.

Статья посвящена на разработку методика мониторинга и контроля состояние горных слоев в предгорных и горных территориях на основе датчиков, интегрированных оптико-волоконных средств связи.

Ключевые слова: железная дорога, оптическая волокна, технологический процесс, оптико-волоконный датчик.


This article is devoted to the monitoring of the state of mountain layers in the mountainous and mountainous terrain based on the integrated optical fiber optic detectors.

Key words: railway, optical fiber, technological process, optical fiber sensor.

Қириш. Темир йўл транспортининг юклар ва йўловчиларни ташиш бўйича режаларни бажарилишини таъминлаш, поездлар ҳаракатини бошқариш, юклаш ва тижорат ишларини ташил этиш, темир йўл транспортининг техникавий воситаларидан фойдаланиш ва уларни таъмирлаш, ташилаётган юклар ва йўловчиларни хавфсизлигини ташкил этиш ҳамда уларни ўз манзилларига ўз вақтида етиб боришини таъминлаш, янги техник янгиликларни киритиш йўли билан темир йўл соҳаларини ривожлантириш, темир йўл ишининг фойдалилигини ҳамда меҳнат унумдорлигини ошириш кабилар асосий масалалардан ва вазифалардан ҳисобланади. [1].

Юкларни ҳамда йўловчиларни ташиш жараёнида хавфсизликни таъминлаш темир йўл транспортида алоҳида аҳамият касб этади. Чунки тоғли ва тоғ олди ҳудудларида ҳаракатланиш жараёни мураккаб ва ўта эҳтиёткорликни талаб қилади. Тоғли ҳудудлар биз биламизки табиат таъсирига энг кўп учрайдиган ҳудудлар ҳисобланади. Айниқса зилзила, сел келиши ва шу каби табиат ҳодисалари натижасида содир бўладиган тоғ кўчиши поездлар ҳаракатига катта таъсир кўрсатади. Қуйида шу ҳолатлар бўйича реал мисоллар келтирилган:

1) 2017 йил 23 январда Қамчиқ давонида юз берган зилзила оқибатида




1-расм.



2-расм.


тоғ кўчиши юк поездига шикаст етказган ҳамда Андижон –Тошкент – Андижон йўналиши бўйича қатнайдиغان таркибни номаълум муддатга тўхтатилганлиги ҳақида ОАВ да хабар берилган (расм-1,2.). [2]

2) 2008 йил 30 июнь кечаси Хитойда Гуанчжоу шахридан Чунцин шахрига ҳаракатланаётган 6 вагондан иборат бўлган 1322-сонли йўловчи ташиш поезднинг кучли тоғ кўчиши оқибатида ағдарилиб кетиши ва бир неча одамнинг жароҳат олганлиги ҳақида ОАВда маълумот берилган (3-расм) [3].



3- расм.

3) 2013 йил Америка қўшма штатларининг Вайоминг штатида юз берган тоғ кўчиши ҳаракатланаётган юк поездини ҳалокатга учрашига сабаб бўлди (4-расм)[4].



4- расм.

Юқорида кўриб ўтилган ҳолатларнинг асосий сабаби сифатида хавфли геологик ҳодиса - зилзила туфайли пайдо бўлган тоғ кўчишидир. Юқоридаги нохуш ҳодисалар такорланмаслигини олдини олиш мақсадида тоғли ҳамда тоғ олди худудларида тоғ кўчиши келтириб чиқарувчи ер қатламини ҳолатини мониторингини ҳамда назоратини ўтказиш бўйича амалга оширилаётган ишлар муҳим аҳамият касб этади. Бунинг инновацион ечими сифатида оптик толали сенсорларга асосланган радиомониторинг тизими қўллаш мақсадга мувофиқдир.

Оптик толанинг вазнининг ҳамда ҳажмининг кичиклиги, ундан ёнгин чиқиш хавфининг йўқлиги, таъсир остида емирилишга юқори даражада чидамлилиги, кам ҳаражатлилиги ҳамда портлаш хавфи йўқлиги оптик толаларни ўлчаш натижаларини тўплаш тизими учун сезгир элементлар сифатида фойдаланиш имконини яратади.

Маълумотларни узатиш учун мўлжалланган оптик толали кабелларни ҳароратни, босимни, силкинишларни ҳамда физик таъсирга эга бўлган катталикларни аниқлашда сезгир элементлар сифатида ҳам қўллаш мумкин. Бундай тизимларнинг асосий устунлиги электр энергия тармоқлари сизга хизмат кўрсата олиши, электромагнит халақитларнинг таъсири йўқлиги, юқори сезувчанлиги ҳамда ҳажмининг кичиклиги ҳисобланади. Бундан ташқари, телекоммуникацияда қўлланиладиган стандарт оптик толали кабеллар ва элементларни қўллаш бундай сенсорларни нарҳларининг қиммат эмаслигини кўрсатади.

Оптик толали датчик (ОТД)- бу ўлчашларни амалга ошириш воситаси бўлиб, ўлчашларни ўзгартирувчидан (ЎЎ) ташкил топган бўлиб, оптик толадан узатилаётган, оптик сигналларни қайта ишлаш ва ўзгартириш қурилмаси билан оптик толали алоқа линияси орқали боғланган ва ўлчанаётган физик катталикни бирон бир оптик тала сигналининг катталигига ўзгартириб, ўлчанган маълумот сигналларини қўллаш кўринишида тақдим этишга мўлжалланган.

Оптик толали ўлчаш датчикларини турли объектлар ва жараёнларнинг мониторинг тизимида қўллаш афзалликлари қуйидагилардан иборат:

- ўлчаш қурилмасига таъсирларнинг йўқлиги;
- ерлатгич билан боғлиқ муаммоларнинг йўқлиги;
- ёй ҳосил бўлиш ва учкун чиқиш каби муаммоларнинг йўқлиги;
- атроф муҳитга таъсир этувчи ноқулай ҳолатларга юқори чидамлилиги

портлаш хавфи мавжуд ҳудудларда ўлчашларни амалга ошириш имконияти;

толанинг ўлчаш муҳити билан кимёвий реакцияга киришининг имкони йўқлиги;


юқори механик мустаҳкамликка эгаллиги ҳамда тизим тузилмасининг соддалиги;

хароратнинг ошишига чидамлилиги.

Энг асосий афзаллигидан яна бири бу, электрон датчикларни ишлатиш имкони бўлмаганда ёки ишлатиш тавсия этилмаган ҳолатларда масофадан туриб ўлчашларни амалга ошириш имкони мавжуд.

Юқорида санаб ўтилган оптик толада датчикларнинг афзалликлари ва имкониятларидан келиб чиқиб тоғли ҳамда тоғ олди ҳудудларида тоғ қатламларининг ҳамда тоғ кўчиш жараёнларининг узлуксиз мониторингини олиб бориш имкониятини беради.

Узлуксиз мониторинг жараёни (4-расм) маълумотларни қайта ишлаш маркази томонидан амалга оширилади.



4-

расм.

Радиомониторинг тизимини ташкил этиш тамойили.

Бу марказ поезд ҳаракатланаётган тоғли ҳамда тоғ олди участкадаги энг яқин станцияга ўрнатилиб, маълумотлар қайта ишланиб, ҳудуд агар хавфли деб ҳулоса чиқарилса поезд радиоалоқаси орқали поезд машинистига хабар берилади. Поезд машинисти олинган хабар асосан хавфсизликни таъминлашга қаратилган чора тadbирларни амалга оширади.

Темир йўл транспортда тоғли ва тоғ олди ҳудудларида ҳаракатланаётган поездалнинг ҳавфсизликни таъминлашга қаратилган шу каби инновацион усуллар аввало темир йўл транспортига бўлган ишончни ошириб республикамиз иқтисодиётига ҳам катта фойда келтиради.

Адабиётлар

1. А.Н. Раҳмангулов, О.А.Мирсағдиев / Анализ модели оценки качества передачи речи в Anylogic / Вестник Магнитогорского государственного технического университета им.Г.И.Носова № 2 (50) июнь 2015 г.

2. <https://ru.sputnik-ti.com/asia/20170126/1021575125>.

3. <https://www.epochtimes.com.ua/ru/china/incidents>.

4. <https://www.istockphoto.com>.

5. B.N.Rakhimov, A.A.Berdiyev, D.B.Ibragimov, G.E.Zoxidova. Forecasting Dynamic and Statistical Properties of Underground Pipelines under Conditions of "Safe City"//14th International scientific-technical conference on actual problems of electronic instrument engineering (APEIE) – 44894 Proceedings APEIE – 2018, Novosibirsk, -P. 206-210.

6. Степанов С.Ю. Сложная информационная система прогнозирования рисков

с применением фильтра Калмана – Бьюси / Истомин Е.П., Новиков В.В., Сидоренко А.Ю., Колбина О.Н., Степанов С.Ю. // Ученые записки РГГМУ, выпуск 36, РГГМУ, 2014. – 212 с., ISSN 2074-2762.

7. B.N.Rakhimov, A.A.Berdiyev, D.B.Ibragimov, G.E.Zoxidova. Forecasting Dynamic and Statistical Properties of Underground Pipelines under Conditions of "Safe City"//14th International scientific-technical conference on actual problems of electronic instrument engineering (APEIE) – 44894 Proceedings APEIE – 2018, Novosibirsk, -P. 206-210.

8. Степанов С.Ю. Сложная информационная система прогнозирования рисков

с применением фильтра Калмана – Бьюси / Истомин Е.П., Новиков В.В., Сидоренко А.Ю., Колбина О.Н., Степанов С.Ю. // Ученые записки РГГМУ, выпуск 36, РГГМУ, 2014. – 212 с., ISSN 2074-2762.

ТАЪЛИМ ТИЗИМИДА АҲОЛИДА ХАВФСИЗЛИК МАДАНИЯТИНИ ШАКЛЛАНТИРИШНИНГ ТУТГАН ЎРНИ

**Рустамов Ҳ. -Хоразм вилояти Фавкуллда вазиятлар бошқармаси Ҳаёт
фаолияти хавфсизлиги ўқув маркази ўқитувчиси.**

Мамадбоев Ш.- Наманган давлат университети ўқитувчиси

Аннотация: *Инсон фаолияти жараёнида унинг хавфсизлигини таъминлаш бугунги кунда долзарб сиёсий масалалардан биридир. Шу сабабли, Республикамиздаги ишчи-хизматчиларда, аёллар ва болаларда, шу жумладан, балогат ёшига етмаган болаларда хавфсизлик маданияти шакллантириш лозим.*

Securing the safety of human beings is one of the most pressing political issues today. Therefore, security culture should be shaped in the workforce, women and children of our country, including minors.

В процессе человеческой деятельности обеспечение ее жизнедеятельности на сегодняшний день является одним из актуальных политических вопросов. Поэтому у работников-служащих, женщин и детей, а также у подростков необходимо формировать культуру безопасности.

Хавфсизлик – алоҳида шахс, жамият ва табиат объектларини кучли даражадаги хавф-хатардан химояланганлик даражаси бўлиб, унинг асосий мезони келажакда ёки ҳозирда содир бўлувчи табиий ёки ижтимоий хатардан келиб чикувчи қурқув хисси [9].

Айни пайтда хавфсизлик масалаларини ҳал қилиш инсон омилини инобатга олинмасдан амалга оширилиши мумкин эмас. Шу боис, ҳар бир инсоннинг хавфсиз хатти-ҳаракати ва тайёргарлик даражасини ривожлантириш

фавкулудда вазиятларнинг олдини олиш ва уларнинг салбий оқибатларини камайтиришнинг ҳал қилувчи омиллари ҳисобланади. Бироқ, инсон ҳаёт хавфсизлигини таъминлаш жараёнида инсон омилини инobatга олмаган ҳолда, аҳолининг билим ва малакасини шакллантиришга эришиш мумкин эмас. Амалиёт шуни кўрсатадики, ҳар қандай соҳадаги фаолият муваффақиятли бўлиши инсоннинг фазилатлари ва қобилиятларига, унинг хатти-ҳаракатларининг сабабларига, ўзи ўтказган воқеаларнинг зарурияти ва самарадорлигига ишонч бағишлайди. Инсонларнинг, умуман, жамиятнинг барча фазилатлари ва хусусиятларини комплекс ривожлантириш фақат ҳаёт фаолияти хавфсизлик маданиятини шакллантириш орқали амалга оширилиши мумкин[2].

Аҳолини хавfli ва фавкулудда вазиятларда ҳаракатланишга тайёрлаш жараёнида мактаб ўқувчиларнинг хавфсизлик маданиятини шакллантириш учун таълим тизимининг аҳамияти ортиб бормоқда.

“Хавфсизлик маданияти” тушунчасининг асосий мазмунини аниқлаш учун “маданият” тушунчаси билан танишиб чиқиш керак.

«Маданият» атамаси арабча сўз бўлиб, «Мадинат» - «шаҳар» деган маънони англатади. Иккинчи яна бир «ранг-баранг» деган маънони ҳам касб этади. Пайғамбаримиз Муҳаммад Расулulloҳ (С.А.В.) Маккадан Мадинага хижрат қилганларида, бу шаҳарнинг эски номи Ясриб бўлиб, пайғамбаримиз келишлари муносабати билан «Мадинат ан-набий» (Пайғамбар шаҳри) деб атала бошлаган.

Шунинг учун ҳам унинг туб маъносида аниқ ижтимоий ҳодисалар, воқеа ва жараёнлар, табиат билан инсон орасидаги боғлиқлик, тараққиёт қонунлари ётади. Инсон меҳнатининг маҳсули у яратган тафаккур дурдоналари «маданият», сифатида қабул қилинади ва тарихга муҳрланади[5].

Агар америкалик маданиятшунос олимлар А. Кребер ва К. Клакхонларнинг 1952 йилдаги маълумотларига кўра маданият ҳодисасига берилган таъриф 164 та бўлса, сўнгги адабиётларда бу рақам 400 дан ортқни ташкил этади.

Маданиятнинг қўлланилишига қараб шахсий, оилавий, касбий, табақавий, миллий маданият, жамият маданияти, умуминсоний маданият каби шаклларга бўлиб ўрганиш ҳам мумкин. Кундалик ҳаётда “муомала маданияти”, “меҳнат маданияти”, “нутқ маданияти”, “ишлаб чиқариш маданияти”, “хизмат кўрсатиш маданияти”, “дам олиш маданияти”, “ҳуқуқий маданият” каби тушунчалар ҳам қўлланилади[1].

Маданият ҳақида феноменал нуктаи назардан гапирган М.С.Каган, унинг таркибий қисмлари орасида нафақат инсоннинг шахсий фазилатларини, унинг фаолиятининг турлари ва натижаларини, балки одамларнинг ўзаро таъсирида маданият объектларини объективлаштириш жараёнларини ҳам ажрата олади.

Ушбу олимнинг фикрига кўра, биз келажакдаги маданиятнинг қандай кўринишини олдиндан айтишимиз мумкин эмас, лекин унинг сифати бизнинг фаолиятимизга боғлиқ. Маданият назарияси ва тарихини билиш учун ҳар бир инсон ўз қобилиятларини энг яхши тарзда, инсониятни ўз маданиятини ривожланишининг янги таъсир доирасига чиқишида онгли ва мақсадли равишда иштирок этиши учун зарурдир.

Э.В.Бондаревская “инсон маданиятини” замонавий таълимнинг глобал мақсадига айлантириш имкониятини кўриб чиқади. Бу даврда у ўзининг

эркинлиги, инсоният, маънавият ва ҳаётни ўлчовини белгилайдиган табиатнинг ўзига хос хусусиятига эга бўлган бундай шахсни англатади.

Педагогик нуқтаи назардан, бу ўқувчиларнинг ўз-ўзини англаш, мустақиллик, ўз-ўзини тартибга солиш, суд қарорларининг мустақиллиги, бошқа одамларнинг фикрларини ҳурмат қилиш, атрофдаги ҳаёт шароитларига мослашиш, қарор қабул қилиш қобилияти ва уларнинг масъулиятини ўз зиммасига олиш каби юксак даражадаги ўқувчиларнинг ўзаро боғлиқлигини кучайтиришни назарда тутаяди. Уларнинг ҳаётий мазмунига оид тадбирлар ва бошқалар[8].

Ушбу олимнинг фикрича, маданиятни тарбиялашнинг мақсади маълум бир маданий маконда яшаш учун амалий тайёргарликни ўз ичига олади.

“Хавфсизлик маданияти” концепцияси аввал Халқаро атом энергияси агентлиги томонидан Чернобил АЭСдаги авария сабаблари ва оқибатларини таҳлил қилиш жараёнида 1986 йилда пайдо бўлган.

Ҳозирги кунда хавфсизлик маданиятининг турли таърифлари мавжуд.

Ҳаёт фаолият хавфсизлиги бўйича энциклопедик луғатда **хавфсизлик маданияти** «шахснинг, гуруҳ ва жамиятнинг хавфсиз шароит ва фаолият натижаларини яратиш, таъминлаш ва тартибга солиш бўйича қоидалари, нормалари ва ҳаракатларининг тўплами» деб тушунилади[3].

Британия Саноатчилар Иттифоқи 1991 йилда хавфсизлик маданиятини «ташқилотнинг барча аъзолари томонидан хавф-хатар, бахтсиз ҳодисалар ва саломатликка таҳдидлар ҳақида умумий фикр ва эътиқодлар тўплами» деб атаган.

Хавфсизлик маданиятининг моҳиятини таҳлил қилиш шуни кўрсатдики, таърифлар компонентлар билан бирлаштирилмаган индивидуал ва шахсий хусусиятлар рўйхатини тақдим этади, бу эса хавфсизлик маданиятини шакллантириш жараёнини ташкил этишни ва унинг самарадорлигини ўрганишни мураккаблаштиради.

Ўрта мактаб ёши инсон **хавфсизлик маданиятини шакллантириш** учун энг мақбулдир. Ушбу даврда ёшларнинг мустақил ҳаёт тарзини тарбиялаш учун асос бўладиган хавфсиз ҳаракатлар нормалари ва қоидаларига риоя қилишларини рағбатлантирадиган мотивларни шакллантириш осонроқдир.

Катта синф ўқувчиси (эрта ўсмирлик даври 14-15 ёшдан 17 ёшгача) ривожланишнинг янги ижтимоий ҳолатига киради. Ушбу давр мобайнида ўқувчиларни йўналтирилганлик фаолияти муҳим аҳамият касб этади. Бу муҳторият истаги, ўзини ўзи бўлиш ҳуқуқи билан боғлиқ.

И.С.Кон ўрта мактаб ўқувчиларининг асосий хусусиятларидан бири - бу ўз-ўзини англаш, дунёқарашни ривожлантириш, турмуш даражаси, касбий йўналиш ва уларнинг келажакда катталардаги ижтимоий мавқеининг таърифи деб ҳисоблайди.

Ҳаёт фаолияти хавфсизлиги маданияти – инсон ҳаётининг ривожланиши, ижтимоий гуруҳ, жамият хавфсиз ҳаёт ва меҳнат фаолиятини таъминлашга ва энг муҳими, хавф даражасини пасайтиришга қаратилган фаол амалий фаолият билан тавсифланади[6].

Хавфсизлик маданиятининг мақсади - инсон ҳаётининг моддий, техникавий, иқтисодий, фалсафий, фуқаролик ва бошқа жиҳатлари орқали эришилган хавфсизлик (атроф-муҳит ҳолати) бўлиб, бу шахсга шахснинг шаклланиши - ўзига хос фазилатларни (хавфсиз типдаги шахс) ташкил этиш орқали эришилади.

Хавфсизлик маданияти хавфсизлик соҳасида инсон рационал ҳаётининг йўллари ва натижаларини, шунингдек, ушбу соҳадаги шахс ва жамиятнинг ривожланиш даражасини англатади. Улар орасида соғлом турмуш тарзи, экстремал ҳолатларда тўғри хатти-ҳаракатлар стереотиплари, ёмон одатларни (спиртли ичимликлар, гиёҳванд моддалар, тамаки чекиш, компьютерга қарамлик) ва аτροφ-муҳитга эҳтиёткорона муносабатда бўлиш ва бошқаларни ҳурмат қилишни ўз ичига олади ва ҳоказолар.

Хавфсизлик маданиятини шакллантириш болаларни ва ўсмирларни хавфсизлик қондаларига риоя қилиш, уларни фавқулдда вазиятларда ҳаракат қилиш учун билим ва кўникмаларга эга бўлишни ўз ичига олади. Таълим жараёнида хавфсизлик чораларини қўллаш, ҳаёт фаолияти хавфсизлиги қондаларини бузмаслик, ҳаёт фаолияти хавфсизлиги соҳасидаги билимларни шакллантириш, фавқулдда вазият шароитида тўғри ҳаракат қилишни ўрганиш зарурлиги гоёсини шакллантиришдан иборат.

Хавфсизлик маданиятини шакллантиришнинг методологик асосини ишлаб чиқиш учун ҳаёт фаолияти хавфсизлиги маданиятини шакллантириш ва унинг ташувчиси бўлиши керак бўлган объектларни ва ушбу объектларни ўзларининг керакли сифат ва хусусиятларига эришиш учун таъсир ўтказиш усулларини аниқлаш керак.

Хавфсизлик маданиятининг энг юқори даражаси - жамият ва давлат бўлиб, хавфсизликни ташкил этувчи омил ижтимоий ва давлат кадриятларининг устунликлари ҳисобланади[4].

Ҳуқуқбузарлик, шикастланиш, касбий касалликларнинг олдини олишнинг ажралмас қисми - нафақат ўқувчилар, балки барча таълим муассасалари талабалари ўртасида хавфсизлик маданиятини яратишни таъминлашдир.

Таълим мазмунининг таркибий қисми сифатида хавфсизлик маданияти ўқувчиларнинг зарарли ва хавфли омилларни олдини олиш ва минималлаштиришга тайёргарлигини шакллантириш ва ривожлантириш ҳамда ижтимоий хавфсизлик омилларини қўллаш (В.Н. Мошкин, Л.Н. Горина, Л.А. Михайлов, В.В. Попадейкин, Ю.В. Репин, А.М. Якупов, С.В. Петров, Ю.Л. Воробьев, В.В. Гафнер ва бошқалар.).

С.В. Петров ўқувчиларнинг хавфсизлик маданиятини ривожлантиришнинг куйидаги мақсад ва вазифаларини алоҳида таъкидлаб ўтган:

- таълим муассасаларида бахтсиз ҳодисалар сонини камайтириш;
- хавфсизлик ва меҳнатни муҳофаза қилишга бўлган қизиқишни мунтазам таъминлаш;
- хавфсизликка онгли равишда муносабат билдириш;
- янги хавфсизлик воситаларини оммалаштириш;
- ўқув жараёнига замонавий меҳнат муҳити ва хавфсизлик воситаларини жорий этиш;
- ҳар бир иш жойида соғлом ва хавфсиз меҳнат ва ўқув шароитларини яратиш.

Хавфсизлик маданиятини шакллантиришга таъсир кўрсатишнинг асосий усуллари ва воситалари, ҳаёт фаолияти хавфсизлиги соҳасидаги билимларни такомиллаштириш билан бир қаторда, шахснинг маънавий ва ахлоқий нуқтан

назарини кўтариш, психологик ва ватанпарварлик таълимига эътибор бериш керак, буларнинг барчаси таҳдидлар ва хатарлар сонини камайтиради [6].

Умумтаълим мактабларининг 1-11 синф ўқувчилари учун “Ҳаёт хавфсизлиги асослари” ўқув дастурлари ишлаб чиқилган бўлиб асосан, мактаб ўқувчиларига турли хил хавфлар ва улардан ҳимояланиш, ўзлари ва ўзгалар хавфсизлигини таъминлашни шакллантириш асосий вазифаси бўлиб хизмат қилади. Аммо “Ҳаёт хавфсизлиги асослари” дастурига алоҳида хавфсизлик маданиятини шакллантиришга оид мавзулар киритиш керак. Албатта, хавфсизлик маданияти умумий маданиятнинг бир бўлаги бўлиб, умуман олганда барча фанлар билан узвий равишда боғлиқдир.

Ўрта мактаб ўқувчиси асосий маданиятнинг бир қисми сифатида хавфсизлик маданияти тушунчасини белгилашда компонент асосида ёндашувни қўллаш керак.

Ўқувчилар хавфсизлик маданиятнинг таркибий қисмлари: мотивацион эҳтиёж, когнитив, рухий, операцион фаолият.

Мотивацион эҳтиёжнинг таркибий қисмига қуйидагилар киради: соғлом турмуш тарзи нуқтаи назаридан таълим бериш; хавфсиз яшашга бўлган эҳтиёжни ривожлантириш; ўрта мактаб ўқувчиларининг хавфсиз яшаши учун ижобий туртки яратиш.

Когнитив компонент қуйидагиларни ўз ичига олади: ўрта мактаб ўқувчиларининг ҳаёт хавфсизлиги асосларининг асосий тушунчалари, таърифлар ва атамаларни билиб олишлари; содир бўлиши мумкин бўлган фавқулодда вазиятларда энг яхши мақбул ечимлар топиш; ҳаёт хавфсизлиги асослари бўйича илмий тадқиқот усулларини ўзлаштириб олиш.

Рухий компоненти қуйидагиларни назарда тутати: ҳаёт хавфсизлиги асослари масалаларига нисбатан ҳиссий жиҳатдан рангли муносабатни шакллантириш; қийинчиликлар ва мураккаб ҳаётий вазиятларни бартараф этиш учун рухий барқарорликни ва маънавий ўзини-ўзи бошқаришни ривожлантириш.

Операцион-фаолият компонентининг таркиби қуйидагиларни ўз ичига олади: соғлом турмуш тарзига онгли риоя қилиш, қийин ҳаётий вазиятларни бартараф этиш учун амалий кўникмалар; хавфсиз ҳаётий кўникмалар; соғлиқни сақлаш технологияларини қўллаш; хавфсизлик маданиятини шакллантириш жараёнини назорат қилиш ва ўзини-ўзи назорат қилиш [7].

Юқоридагиларга асосланиб, ўқувчиларнинг хавфсизлик маданиятнинг бир қисми, шахснинг ажралмас сифати, шу жумладан мотивацион эҳтиёж, когнитив, рухий ва операцион фаолият компонентлари эканлиги ҳақида хулоса чиқариш мумкин. Ушбу таркибий қисмлар хавфсиз турдаги хулқ-атворга, соғлом турмуш тарзи ва катталар ҳаётида профессионал фаолиятга тайёр бўлишни акс эттиради, ушбу фаолиятнинг маданий ва амалий жиҳатлари асосини ташкил этади ва ўрта мактаб ўқувчиларининг хавфсизлик маданиятнинг концептуал таркибий қисмини жамлайди. Хавфсизлик маданиятнинг таркибий қисмлари бир-бири билан боғлиқ.

Адабиётлар

1. А.Ғафуров Маданиятшунослик фанидан маърузалар матни Бухоро – 2014, 5-бет.

2. Белов, П.Г. О семантике, объектах и методах обеспечения национальной безопасности России Текст. / П.Г. Белов // Безопасность. -1998. С. 5-6.

3. Безопасность: теория, парадигма, концепция, культура: Словарь-справочник Текст. / Авт.-сост. профессор В.Ф. Пилипенко. 2-е изд., перераб. и доп. - М.: ПЕР СЭ-Пресс, 2005. - 483 с.
4. Гафнер В. В. Культура безопасности: аналитический обзор диссертационных исследований (педагогические науки, 2002-2012 гг.); ФГБОУ ВПО «Урал. гос. пед. ун-т». – Екатеринбург, 2013. – 200 с. – (Серия «Педагогика безопасности»).
5. М.Усмонов. «Маданият ва ахлоқ», 10- бет. Тошкент, «Фан» нашриёти, 1986 йил.
6. Мошкин.В.Н. Воспитание культуры безопасности школьников: Монография Текст. / В.Н. Мошкин. — Барнаул: Издательство БГПУ, 2002.-318 с.
7. Кузьмина, Н.В. Понятие «педагогическая система» и критерии ее оценки Текст. / Н.В. Кузьмина // Методы системного педагогического исследования. JL: ЛГУ, 2014. — С. 23.
8. Зимняя, И.А. Педагогическая психология: Учеб. пособие Текст. / И.А. Зимняя. -Ростов-н/Д.: Феникс, 2011. 158 с.
9. Л.Ю.Хотунцев, 2002.

АҲОЛИНИ ФАВҚУЛОДДА ВАЗИЯТЛАРДА КЎЧИРИШ ТАДБИРЛАРИНИ ИСТИҚБОЛЛИ МАСАЛАЛАРИ

**Ходжаев А. -Наманган вилояти Фавқулдда вазиятлар бошқармаси
Хаёт фаолияти хавфсизлиги ўқув маркази катта ўқитувчиси**

Ўзбекистон республикаси вазирлар маҳкамасининг 754-сонли қарорига асосан аҳоли табиий ва техноген тусдаги фавқулдда вазиятлардан муҳофаза қилиш соҳасида, шунингдек фавқулдда вазиятларда ҳаракат қилишга тайёргарликдан ўтаётган аҳоли гуруҳларини табиий таъирлашнинг асосий вазифаларини, шакллари ва усулларини белгилайди

Аҳолини эвакуация қилиш – эҳтимоли булган ёки юз берган табиий, техноген хусусиятли фавқулдда вазият худудидан аҳолини транспортда (пиёда) олиб чиқиш ва аввалдан тайёрлаб қўйилган хавфсиз (фавқулдда вазият таъсири бўлмаган) жойларга вақтинча жойлаштириш тадбирлари мажмуидир.

Аҳолини турли хусусиятлардаги фавқулдда вазиятлардан муҳофазалаш, барча объектлар, ташкилот ва муассасалар раҳбарларини энг асосий вазифаларидан бўлиб, ушбу "Аҳоли ва худудларни табиий ҳамда техноген хусусиятли фавқулдда вазиятлардан муҳофаза қилиш тўғрисида"ги Қонуннинг 11-моддасида баён этилиб белгиланган тартибда эвакуацияга онд тадбирларни ўтказиш ва одамларни жойлаштириш мақсадида олдиндан базалар тайёрлаб қўйиш лозимлиги қайд этилган.

Шу сабабли ҳозирги вақтда ҳам фавқулдда вазиятнинг қўламини қараб муҳофаза қилишни энг мақбул усулларидан бири, имкон даражасида аҳолини хавфли жойлардан олиб чиқиб кетиш, яъни эвакуация тадбирини ўтказиш ҳисобланади. Лекин ушбу тадбирларни ўтказиш анча мураккаб бўлиб, унда барча давлат органларини тайёргарлигини ошириш, фуқароларни қандай ҳаракат қилишга ургатиш масалаларига алоҳида эътибор қаратиш муҳим аҳамият касб этади.

Чунки, офат юз берган жойга махсус хизматларни етиб келгунча бирмунча вақт керак бўлади. Тезлик билан ҳаракат қилинмаса, фавқулодда вазиятлар аянчли оқибатларга олиб келиши мумкин.

Мисол учун 1999 йил Туркияда содир бўлган zilзила туфайли 30 минг одам ҳалок бўлган. Ёки бўлмаса 1995 йилда Япония давлатини Кобе шаҳрида бўлган zilзила оқибатида 6,0 мингдан ортик одам нобуд бўлган, кўрилган моддий зарар 100 млрд. АҚШ долларига тенг деб баҳоланган, Руминиянинг давлатини Байа-Борла шаҳри яқинида жойлашган ярим металл тоғ жинсларини қайта ишлаш корхонасида содир бўлган фавқулодда вазият туфайли 20 минг тонна ўта кучли захарловчи моддалар Вишеу ва Тиса дарёлари ирмогига оқиб кетган. Бразилия, Индонезия, Россия давлати, Европани бир қатор давлатларида содир бўлган сув тошқинлари, ўрмонларнинг ёниши, кучли шамоллар ҳам кўлами ҳар хил бўлган фавқулодда вазиятларни содир бўлишига олиб келган. Пировардида тинч аҳолини яшаш шароити, ниҳоятда ёмонлашиб, одамларни хавфсиз жойларга кўчишига сабаб бўлган.

Хавфни олдини олишга тайёргарлик, алоқа ва ахборот воситаларининг доимий шайлигини назорат қилишга, такомиллаштиришга, эвакуация режаларини ўз вақтида ўтказишга тиббий ёрдамни кўрсатишга чорлайди.

Бундан ташқари аҳолини, маъсул шахсларни тайёрлаш ва малакаларини ошириш, қутқарув кучларини ҳалокат ўчоғларига тезлик билан етиб келиши, тўғри ҳаракат қилишига ўргатиш тайёргарликни юқори савияга кўтаришга олиб келади.

2005 йилда Америка Қўшма Штатларининг Ново-Орлеан штатида кучли шамоли оқибатида 450 минг аҳоли хавфсиз жойга кўчирилган.

Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2006 йил 9 февралдаги ПҚ-279-сонли Қарори асосида, жорий йилнинг баҳор-ёз ойларида юзага келиши мумкин бўлган геологик ва гидрометеорологик жараёнлар билан боғлиқ фавқулодда вазиятлардан аҳолини ва ҳудудларни муҳофаза қилиш борасида сел келиши, ер кўчиши хавфи мавжуд бўлган ҳудудлардан 1251 та хўжаликдаги 6277 нафар фуқаролар хавфсиз ҳудудларга кўчирилган.

Тадбир ўтказилиш вақти ва муддатига қараб, аҳолини кўчириш 2 турга ажратилади :

- олдиндан ўтказиладиган кўчириш;
- шошилиш (кечиктириб бўлмайдиган) кўчириш

Олдиндан ўтказиладиган кўчириш, фавқулодда вазият (хавфли объектлардаги фалокатлар ёки табиий офатлар) юзага келиш эҳтимоли юқори даражада экани ҳақида, ишончли маълумот олинганда ўтказилади. Бунга бир неча ўн дақиқадан бир неча суткагача давр ичида фавқулодда вазият содир бўлиши мумкинлиги ҳақидаги олдиндан тахминлаш асос ҳисобланади.

Шошилиш (кечиктириб бўлмайдиган) кўчиришлар одамларнинг ҳаёти ва саломатлигига хавф туғиладиган даражада техноген еки табиий тусдаги фавқулодда вазият юзага келган, аҳолининг рисолагидек кун кечириши бузилган тақдирда ўтказилади.

Фавқулодда вазият ривожлана бориши ва фавқулодда вазият зонасидан олиб чиқиладиган аҳоли сонига қараб, кўчиришнинг 3 хил тури бўлади:

- чекланган (локал) кўчиришлар;
- маҳаллий кўчиришлар;
- минтақавий кўчиришлар

Чекланган (локал) кўчиришлар-фавкулдда вазият манбаи шикаст омилларининг эҳтимол бўлган таъсир зонаси шаҳар кичик тумани ёки қишлоқ аҳоли яшаш жойи чегараси ичидан чиқмай, кўчириладиган аҳоли сони бир неча минг кишидан ошмаган тақдирда ўтказилади. Бундай ҳолда кўчирилган аҳоли, одатда, фавкулдда вазият зонасига туташ аҳоли яшаш жойларига ёки шаҳарнинг шикастланмаган туманларига (фавкулдда вазият манбаининг шикастловчи омиллари таъсир зонасидан ташқарида) жойлаштирилади.

Маҳаллий кўчиришлар - ўртача катталиқдаги шаҳарлар, йирик шаҳарларнинг алоҳида туманлари, қишлоқ туманлари фавкулдда вазият зонасига тушиб қолган ҳолларда ўтказилади. Бунда кўчириладиган аҳоли сони бир неча мингдан ўнлаб минг кишигача етиши мумкин бўлиб, улар, одатда, фавкулдда вазият зонаси билан ёндош хавфсиз жойларга жойлаштирилади.

Минтақавий кўчиришлар - шикастловчи омиллар анчагина кенг майдонга ёйилиб, йирик шаҳарларни ҳам ўз ичига олган, аҳолиси жуда зич жойлашган битта ёки бир неча минтақа ҳудудини қамраб олганда амалга оширилади. Минтақавий кўчиришда фавкулдда вазият зонасидан транспортда (пиеда) олиб чиқиладиган аҳоли донмий яшаб турган жойларидан анчагина узоққа кўчирилиши мумкин.

Фавкулдда вазият зонасига тушиб қолган аҳолининг қанчаси кўчириш тадбирлари билан қамраб олинганига қараб, кўчиришнинг икки тури (варианти) бўлиши мумкин:

-Умумий кўчириш:

-қисман кўчириш.

Умумий кўчириш -фавкулдда вазият зонасидан ҳамма тоифа аҳоли олиб чиқилишини назарда тутати.

Қисман кўчириш -фавкулдда вазият зонасидан меҳнатга лаёқати бўлмаган аҳоли, мактабгача ёшдаги болалар, мактаб, касб-хунар-техника билим юртлари ўқувчилари олиб чиқилиши зарур бўлганда ўтказилади.

Аҳолини кўчиришнинг кўрсатилган вариантлари хавфнинг ёйилиши кўлами ва тавсифига, унинг амалга ошишининг олдиндан тахминлашни қанчалик ишончлилигига, шунингдек фавкулдда вазият манбаи шикастловчи омилларининг таъсир зонасидаги ишлаб чиқариш объектларидан хўжаликда фойдаланиш истикболига қараб танланади.

Одамлар ҳаёти ва саломатлигига хавф борлиги аҳолини кўчириш ҳақида қарорга келиш учун асос ҳисобланади.

Аҳолини кўчириш ҳақида қарорга келиш ҳуқуқи Ўзбекистон Республикаси субъектларининг ҳудудида фавкулдда вазият юзага келган ёки фавкулдда вазият хавфи олдиндан тахмин қилинаётган ижроия ҳокимият идораларининг маҳаллий ўзини ўзи бошқариш ташкилотларининг раҳбарларида (фуқаро муҳофазаси бошлиқларида) бўлади.

Фуқаро муҳофазаси кўламига ва кўчиришнинг қанчалик шошиличилиги талабларига қараб, маҳаллий ёки минтақавий кўринишдаги шошилич (кечиктириб бўлмайдиган) ёки олдиндан ўтказиладиган кўчириш тегишли фуқаро муҳофазаси бошлиқларининг кўрсатмалари ёки фармойишларига биноан амалга оширилади.

Кечиктирмай қарорга келиш талаб қилинадиган ҳолларда чекланган характердаги шошилич кўчириш потенциал хавфли объектнинг навбатчи-диспетчерлик хизмати бошлигининг кўрсатмасига биноан ўтказилиши мумкин.

Бошқарувнинг худудий, идоравий, объект идоралари фуқаро муҳофазаси бошлиқлари кўчиришга умумий раҳбарлик қилади. Аҳолини кўчириш тадбирларини бевосита ташкил этиш ва ўтказишга эса вилоят, шаҳар, туманлар маъмурияти ва иқтисодий объект объект бошқарув органлари ташкил этадиган аҳолини кўчириш комиссиялари (гуруҳлари) раҳбарлик қилади.

Аҳолини кўчириш тадбирлари яхшилаб ўйлаб режалаштиришни ҳамда транспортни, йўллари, кўчириладиган ташкилотларни, аҳоли борадиган хавфсиз жойларни олдиндан тайёрлаб қўйишни, шунингдек аҳолининг фавқулудда вазият соҳасида ҳар томонлама тайёргарлик кўришини талаб қилади.

Бундай тайёргарликни маҳаллий ҳокимият идораларининг ва иқтисодий объектлари бошқарув ташкилотларининг фуқаро муҳофазаси бошлиғи бўлган раҳбарлари ташкил этади ва ўтказилади.

Аҳолини кўчириш ишлаб чиқариш-худудий ёки худудий асосда режалаштирилади, ташкил этилади ва амалга оширилади.

Аҳолини кўчириш усулларига қараб, 3 та кўчириш усули бўлади:

-транспортда.

-пиёда тартибда

-аралаш усул.

Аралаш усул энг самарали ва энг мақбул усул ҳисобланади, у мавжуд транспорт ёрдамида илож борича энг кўп ишловчилар билан бир вақтда аҳолини қолган қисмини бирга қўшиб олиб чиқишга асосланади.

Бунда, асосан пиёда тартибда юра олмайдиган аҳолини транспортда олиб чиқиш режалаштирилади.

Аралаш усул ФВ зоналаридан аҳолини кўчириш тадбирларини энг қисқа муддатда ўтказиш талабларига жуда мос келади.

Кўчирилган аҳоли хавфсиз жойларда масхус буйруқ бўлганча жойлаштириб турилади.

Тегишли давлатлараро келишувлар бўлса, Ўзбекистон Республикасининг кўчирилган аҳолиси мустақил давлатлар ҳамдўстлиги қатнашчилари бўлган мамлакатлар ва бошқа қўшни давлатлар худудларида жойлаштирилиши мумкин. Ўз навбатида Ўзбекистон Республикаси худуди ҳам бошқа давлатлардан кўчириб келтирилган аҳоли учун берилиши мумкин. Бунда ҳамкорлик қиладиган давлатлар ваколатли идораларининг биргаликда иш тутиши ҳалқаро ҳуқуқ меъёрларига, икки томонлама ва кўп томонлама давлатлараро келишувларга, Ўзбекистон Республикаси ва бошқа мамлакатлар қонунларига асосланади.

Кўчириш тадбирларининг ҳажми кўплиги, ташкил этиш ва ўтказишдаги мураккабликлари кўчиришни ўтказувчи органларини тузишга ҳамда улар аҳолини кўчириши вақтида ва тайёргарлик кўришига оширилган талаблар қуяди.

Аҳолини кўчиришни ташкил қилишни режалаштириш, ташкил этиш ва ўтказиш бевосита шаҳар, туман ва вилоятларнинг кўчириш ташкилотларига, ҳокимият идораларига, фавқулудда вазият бошқармалари ва бўлимларига юклатилади.

Фойдаланилган адабиётлар

1. Безопасность: теория, парадигма, концепция. культура: Словарь-справочник Текст. / Авт.-сост. профессор В.Ф. Пилипенко. 2-е изд.. перераб.

и доп. - М.: ПЕР СЭ-Пресс, 2005. - 483 с.

2. Гафнер В. В. Культура безопасности: аналитический обзор диссертационных исследований (педагогические науки, 2002-2012 гг.); ФГБОУ ВПО «Урал. гос. пед. ун-т». – Екатеринбург, 2013. – 200 с. – (Серия «Педагогика безопасности»).

3. М.Усмонов. «Маданият ва ахлоқ», 10- бет. Тошкент, «Фан» нашриёти, 1986 йил.

4. Мошкин.В.Н. Воспитание культуры безопасности школьников: Монография Текст. / В.Н. Мошкин. — Барнаул: Издательство БГПУ, 2002.-318 с.

5. Кузьмина, Н.В. Понятие «педагогическая система» и критерии ее оценки Текст. / Н.В. Кузьмина // Методы системного педагогического исследования. JL: ЛПУ, 2014. — С. 23.

6. Зимняя, И.А. Педагогическая психология: Учеб. пособие Текст. / И.А. Зимняя. -Ростов-н/Д.: Феникс, 2011. 158 с.

INSON FAOLIYATINI XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHDA GAZ NIQOBLARINING O'RNI VA ULARDAGI MUAMMOLAR

Mamadboyev Sh.B Namangan davlat universiteti o'qituvchi
Xakimjonov A. Namangan davlat universiteti talaba

Kalit so'zlar: gaz niqobi, filtr, izolatsiya, oyna, kislorod, muhit, zahar, signal berish arqoni, qutqaruv arqoni, shlem-niqob.

Bugungi kunda shuni ko'rishimiz mumkin-ki, favqulodda vaziyatlar soni va ko'lamini kengayib bormoqda. Bu esa o'z navbatida favqulodda vaziyatlardan aholi va iqtisodiyot obyektlarini muhofazalash dolzarb masalalardan biriga aylanmoqda. Demak, favqulodda vaziyatlarda aholini harakat qilishga tayyorlashda gaz niqoblarni o'rni muhim ahamiyat kasb etadi.

Gaz niqobi– nafas olish organlarini, ko'z, yuz terisini havoda mavjud bo'lishi mumkin bo'lgan zaharli gazlar va toksik moddalardan himoya qiluvchi shaxsiy himoya vositasidir [3].

Gaz niqoblarining ikki turi, ya'ni filtrlovchi va izolyatsiyalovchi turlari mavjud. Filtrlovchi gaz niqoblar odamni o'zi turgan havoda muhitidagi zaharli gazlardan himoya qiladi va bu turdagi gaz niqoblarini kiygan holda uzoq muddat ish bajarish, zaharli havoda muhitida ishlashda va yurishda davom etish mumkin emas [1]. Chunki, o'z nomiga ko'ra, bu turdagi gaz niqobi, nafas olinayotgan havoda muhitidagi zaharli gazlarni filtrlab ushlab qoladi va nafas olish uchun faqat kislorod gazini o'tkazib beradi. Bunda, kislorod ham aynan o'sha muhitning o'zidan olinadi. Shu sababli ham, bunday gaz niqobini taqqan holda uzoq turib bo'lmaydi [2].

Chunki uning filtri zaharli gaz bilan to'yinib qolib, kislorodni o'tkazmay qolishi mumkin. Filtrlovchi gaz niqobidan foydalanish faqat to'satdan gaz xavfi paydo bo'lganda, tezkorlik bilan gaz niqobini kiyib, ushbu zaharlangan havoda muhitini tark etish uchun tavsiya etiladi. Filtrlovchi gaz niqobining filtr qutisini himoya qobiliyati vaqt o'tishi bilan yo'qolishi sababli, uni davriy almashtirish, ya'ni yangilash zarur bo'ladi. Filtrlovchi gaz niqoblar havoda muhitida erkin kislorod miqdori 18% dan kam bo'lmagan va zaharli gazlar miqdori 0.5% dan ko'p bo'lmagan holatlarda qo'llaniladi [6]. Chunki, aytib o'tilganidek, bunday gaz niqobida kislorod

bevosita odam turgan muhitdagi havoning o'zidan olinadi filtr uni qo'shimcha kislorod bilan boyita olmaydi. Agar havo muhitdagi erkin kislorod miqdori 18% dan kam bo'lsa, bu odamda nafas yetishmovchiligiga olib keladi va hushdan ketish yoki yanada og'ir oqibatlariga olib kelishi mumkin [1].

Izolyatsiyalovchi gaz niqoblar esa zaharli gaz muhitida yoki havoda nafas olish uchun erkin kislorod yetarli bo'lmagan muhitlarda ish olib borish uchun mo'ljallangan bo'lib, unda odam uchun kislorod uzun shlang orqali boshqa joydan, ya'ni, havosi toza muhitdan olib, uzatib berib turiladi [3]. Izolyatsiyalovchi gaz niqoblar ham ikki xil bo'ladi. Ularning birinchi turida shlang qisqaroq bo'lib, bunday gaz niqobida ishlayotgan odam shlang orqali havoni o'z o'pkasi kuchi bilan erkin nafas olib tortib olaveradi. Bunday gaz niqobilarida shlang uzunligi 10 metr gacha bo'ladi va u PSH-1 deb ataladi [5]. Lekin, agar toza havo muhiti 10 metrdan uzoq bo'lsa, bunday masofadan odam o'pkasi o'zi mustaqil havo tortib nafas olishga kuchi yetmaydi. Shu sababli, shlang uzunligi 10 metrdan uzoq bo'lgan (20 metr gacha bo'lgan) holatlarda, PSH-2 turdagi izolyatsiyalovchi gaz niqobidan foydalanish zarur bo'ladi. Bunday gaz niqobi qo'shimcha ravishda, odamga havo yetkazib berish uchun mo'ljallangan maxsus havo haydovchi kompressor bilan jihozlanadi. Bunday kompressor ham elektr tokida va ham qo'lda aylantirish orqali ishlaydigan bo'ladi. Sababi, elektr toki yetib bormagan joylarda ish bajarishga to'g'ri kelib qolsa, yoki, odam ishlayotgan paytda tok o'chib qolsa, u dimiqib qolishi tayin. Shuning uchun ham, bunday gaz niqobi bilan ishlashda juda qattiq ehtiyot choralari ko'riladi. PSH-1 izolyatsiyalovchi gaz niqobida ishlayotganda kamida ikki kishi ishlashi kerak bo'ladi. PSH-2 bilan ishlashda esa kamida uch kishi ishlaydi. Ulardan biri bevosita ish olib boradi, ikkinchisi esa har qanday holatga tayyor turib, ishning borishini kuzatadi. Agar, ishlayotgan odam o'zini sal noxush sezishni boshlasa, uni darhol chiqarib olinadi va ishni to'xtatiladi [5]. Ish 30 daqiqadan oshmagan holda, oraliq 15 daqiqadan kam bo'lmagan tanaffuslar bilan bajariladi. Bunday gaz niqobi komplektida albatta qutqaruv arqoni, signal berish arqoni, qutqaruv tasmasi va uch xil o'lchamdagi shlem-niqob bo'ladi.

Gaz niqoblarning yuqoridagi har ikki turini o'zida birlashtirgan kombinatsiyali, ya'ni, aslida izolyatsiyalovchi, lekin, favqulodda zaruriyat bo'lib qolsa, yengil harakat bilan filtrlovchi gaz niqobiga ham aylantirsa bo'ladigan turlari ham mavjud [1].

Gaz niqobilar qo'llanish sohalariga qarab to'rt turkumga ajratiladi. Ya'ni: harbiylar uchun gaz niqoblari, sanoat gaz niqoblari, fuqaro gaz niqoblari, hamda, bolalar gaz niqoblari farqlanadi. Harbiylar gaz niqoblari harbiy xizmatchilarning standart ekipirovkasi tarkibiga kiradi va asosan universal filtrlash qobiliyatiga ega bo'ladi. Harbiylardan tashqari, bunday gaz niqobi shuningdek favqulodda vaziyatlar vazirligi tarkibidagi qutqaruv xizmatlarida ham qo'llaniladi. Bunday gaz niqobilar ishonchlilikining yuqori ekanligi, hamda, deyarli barcha turdagi zaharli gazlardan himoya qilish xususiyati bilan ajralib turadi. Fuqaro gaz niqoblari esa favqulodda vaziyatlarda aholini gaz hujumidan himoya qilish va odamlarni xavfsiz hududga qochib chiqib olishlarini ta'minlash uchun foydalaniladi. Albatta, bunday gaz niqoblari ham yetarlicha ishonchlilikka ega bo'ladi. Ularni harbiy gaz niqoblaridan farqlash ham aslida birmuncha mushkul. Faqat harbiylarning gaz niqoblar nisbatan mustahkamroq materiallardan ishlab chiqariladi (masalan, ko'zoynagi olovbardosh shishadan tayyorlanishi mumkin) [2].

Sanoat gaz niqoblari esa gaz niqobilarining eng alohida ahamiyatga ega, maxsus turi bo'lib, bu ishlab chiqarish jarayonlarida va avariya holatlarida yuzaga

kelishi mumkin bo'lgan zaharli gazlardan hamda kimyoviy toksik moddalardan ishchilarni himoya qilishga mo'ljallangan. Bunday gaz niqoblarining filtr qutisi aynan bitta turdagi zaharli gazni filtrlashga mo'ljallangan maxsus bo'lishi, yoki, bir necha turdagi zaharli gazlardan himoya qila oladigan kombinatsiyalangan bo'lishi, yoki, bir vaqtning o'zida, hamma turdagi zaharli gazlardan, aerozollardan va changdan himoya qiladigan universal bo'lishi mumkin.

Bolalar gaz niqoblari esa, nomidan ham ma'lumki, o'smirlar va kichik yoshdagi bolalarni gazdan himoya qilish uchun mo'ljallangan bo'ladi va ularning fuqaro gaz niqoblaridan farqi odatda faqat niqobning o'Ichamlarida bo'ladi.

Turli yillarda gaz niqoblarining jangovar itlar va otlar uchun mo'ljallangan turlari ham ishlab chiqarilgan. Lekin, hayvonlarning hammasi ham gaz niqobiga to'g'ri munosabatda bo'la olmaydi va odatda bu hayvonning g'ashiga tegadi. Shunga qaramay, hozir ham keng qo'llanishda bo'lmasa-da, har holda, zarurat tug'ilganda jangovar itlar va otlar uchun taqsa bo'ladigan gaz niqoblari mavjud.

Gaz niqobi yuqorida aytilganidek, nafas yo'llarini, ko'zni va yuz terisini himoyalaydi. Oddiy qilib aytganda, gaz niqobi odamning butun bosh qismini va kallaning barcha qismini, jag' va quloqlarni ham himoyalaydi.

Gaz niqoblarining ilk namunalari o'rta asrlarda paydo bo'lgan bo'lsa-da, lekin, odamni zaharli gazlardan samarali himoya qila oladigan haqiqiy gaz niqoblarini yaratishga bo'lgan urinishlarning barchasi to' XX asr boshlarigacha muvaffaqiyatsiz ketgan. Olimlar laboratoriyalarda, kuchli chang chiqarib ishlovchi sanoat korxonalarida, tutunda va tumanda ishlashga mo'ljallangan turli himoya vositalarini, niqob va skafandrga o'xshash bosh kiyimlarni o'ylab topishgan. Lekin, bugungi ko'rinishdagi, haqiqiy himoya qobiliyatiga ega samarador gaz niqoblar birinchi jahon urushi yillarida ixtiro qilingan. Bunga sabab, o'sha urushda nemislar birinchi bor kimyoviy qurollarni ommaviy qo'llashga o'tgani bo'lgan edi.

Gaz niqoblarining muammolari bular asosan terlashi va quyosh nuri ta'sirida yemirilishining tezlashishi.

Gaz niqoblarining ishlash davri 5 yil bo'lib bu davr mobaynida gaz niqoblari quyosh nuri ta'sirida yemirilishi ko'p kuzatiladi. Biz bu yemirilishni oldini olish uchun ishlash davrini kamaytirishimiz kerak yoki quyoshga chidamliligini oshirishimiz kerak.

Keyingi muammolaridan biri bu ishlash jarayonida terlashi, ya'ni ko'zni xiralashishi, albatta bu jarayon ish davomida katta qiyinchilik tug'diradi. Biz bu jarayonni oldini olsak, ish vaqtida qiynalmaymiz. Buning uchun nima qilishimiz kerak? Albatta gaz niqobining oynalarini almashtirishimiz kerak. Shunday material kerak. Hozirgi kunda kundalik hayotda foydalanadigan qo'l telefonlarimizni ustidagi oynadan foydalansak, shunda biz gaz niqobining terlashini oldini olgan bo'lamiz. Bu oynalar juda silliq bo'lib, o'zida bug'ni unchalik ushlab turmaydi. Shunda bizga ish jaronida terlash halaqit bermaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. G'.Yormatov, O.R.Yo'ldashev, A.L.Hamrayeva "Hayot faoliyat xavfsizligi"
2. I.Nigmatov, M.Tojiyev "Favqulodda vaziyatlarda fuqaro muhofazasi" Toshkent 2011
3. A.Qudratov, T.G'aniyev, O'.Yo'ldashev, G'.Y.Yormatov, N.Habibullayev, A.D.Hudayev "Hayotiy faoliyat xavfsizligi" Toshkent 2005
5. O.Qudratov, T.G'aniyev "Hayotiy faoliyat xavfsizligi" Toshkent 2004
6. www.orbita.uz

КОРХОНАЛАРДА МЕХНАТ МУХОФАЗАСИ ИШЛАРИ САМАРАДОРЛИГИНИ ОШИРИШНИНГ МУҲИМ ОМИЛИ

Хожиева Ш. Тошкент фармацевтика институти ассистенти

Аннотация. Ишлаб чиқариш ҳеч бир жараён йўқки у инсонларга ўзининг салбий таъсирини кўрсатмай қолмайди. Шунингдек ишлаб чиқариш корхоналарида юз бериши мумкин бўлган бахтсиз ҳодисаларни олдини олиш ва жароҳатланишлар сонини камайтиришда, жойларда яратилган қулай меҳнат шaroитлари билан бир қаторда, ишчи-ҳодимларнинг меҳнат муҳофазасига доир билим-қўникмаларнинг шаклланганлиги, ҳамда инсонларни хавфли омиллардан муҳофаза қилиш бўйича тарғибот воситларнинг мавжудлиги ва меҳнат муҳофазаси бурчаклари ва хонасининг талаб даражасида эканлиги муҳим ўрин эгаллайди.

Калит сўзлар: бахтсиз ҳодисалар, меҳнат шaroитлари, меҳнат муҳофазаси, меҳнат муҳофазаси бурчаклари, хавфли омил, зарарли омил, касб касаллиги.

Қирш. Мустақиллигимизнинг илк даврларидан бошлаб кўплаб соҳаларда иқтисодий-ижтимоий ислохотлар ўтказилди. Шу баробарида аҳолини меҳнат шaroитларини яхшилаш, ишлаб чиқариш корхоналарида соғлом иш шaroитини ташкил қилиши юзасидан ҳам эътиборга лойиқ ишлар амалга оширилди. Жумладан меҳнат муҳофазасига доир бир қатор қонун ва қонун ости ҳужжатлари қабул қилинди.

Республикамизда аҳолиси учун қулай иш шaroитларини яратиш, ишлаб чиқаришда бахтсиз ҳодисаларни олдини олиш ва жароҳатланиш кўрсаткичларини камайтириш юзасидан тадбирларни белгилаш масалалари бир қатор қонун ҳужжатлари билан мустаҳкамланган. Жумладан Ўзбекистон Республикасининг Контитутсияси, Ўзбекистон Республикасининг Меҳнат кодекси, «Ўзбекистон Республикасининг «Меҳнатни муҳофаза қилиш тўғрисида» ги шулар жумласидандир.

Ўзбекистон Республикасининг 37-моддасида шундай дейилади: “Ҳар бир шахс меҳнат қилиш, эркин касб танлаш, адолатли меҳнат шaroитларида ишлаш ва қонунда кўрсатилган тартибда ишсизликдан ҳимояланиш ҳуқуқига эгадир”. Бундан кўринадики ҳар бир шахс ҳужжатларда белгиланган ёшга этганда эркин касб танлаши ва адолатли, муайян меъёрлар талабларига жавоб берадиган иш шaroитларида меҳнат қилиши ҳуқуқий жиҳатдан мустаҳкамланган.

Муаммонийннг қўйилиши. Иш жойларида тўлиқ зарарсиз ва хавфсиз ишлаш учун шaroит яратиш амалда мумкин эмас. Шу сабабли меҳнат муҳофазасининг вазифаси зарарли ва хавфли ишлаб чиқариш омилларининг ишловчиларга таъсирини энг кам даражага келтиришга имкон берадиган чора-тадбирларни кўришдан, ишчининг шикастланиши олдини олишдан, юқори меҳнат унумдорлигига эришишга ёрдам берадиган қулай шaroитларни яратишдан иборат. Шунингдек ишлаб чиқариш корхоналарида юз бериши мумкин бўлган бахтсиз ҳодисаларни олдини олиш ва жароҳатланишлар сонини камайтиришда, жойларда яратилган қулай меҳнат шaroитлари билан бир қаторда, ишчи-ҳодимларнинг меҳнат муҳофазасига доир билим-қўникмаларнинг шаклланганлиги, ҳамда инсонларни хавфли омиллардан муҳофаза қилиш бўйича тарғибот воситларининг мавжудлиги ва меҳнат

муҳофазаси бурчаклари ва хонасининг талаб даражасида эканлиги муҳим ўрин эгаллайди[3].

Ҳозирги замон фан ва техникасининг ўсиши янгидан янги технология ва машина-механизмларнинг жорий этилиши, ишлаб чиқаришда ишлаётган ҳар бир ходимнинг юқори малакали, техника қонунларини тушунадиган ва унга амал қиладиган бўлишларини талаб қилади. Ҳозирги вақтда ишчилар хавфсизлигини таъминлаш борасида қанчадан-қанча тавсияномалар, қоида ва нормалар ишлаб чиқилган бўлишига қарамадан саноат корхоналарида бахтсиз ҳодисаларнинг бутунлай йўқолиб кетишини таъминловчи шароит мавжуд эмас.

Ишлаб чиқариш корхоналарида меҳнат муҳофазасини тарғиботи учун мўлжалланган махсус жиҳозланган хоналар ёки бурчакларнинг ишчи-ходимлари олдида турган меҳнат муҳофазаси муаммоларини ечишга ва уларнинг билим даражасини кўтаришга ёрдам беради. Аммо айрим корхоналарда меҳнат муҳофазасини тарғиб этувчи воситаларнинг йўқлиги ёки мавжудлари ҳам талаб даражасида эмаслиги ушбу корхонада келиб чиқиши мумкин бўлган бахтсиз ҳодисалар ва жароҳатланишларнинг эҳтимолини оширади.

Бундан ташқари саноат корхоналарининг хилма-хиллиги, ҳаттоки маълум бир корхонада ҳам иш шароити бир-бирига ўхшаш иккита сеҳни топиш амри маҳол эканлиги, корхоналар умумий хавфсизлигини таъминловчи, тартибга солинган рецепт ишлаб чиқариш мумкин эмас. Шунинг учун ҳам ҳар бир саноат корхонаси ўзи учун меҳнатни муҳофаза қилиш ва меҳнат хавфсизлигини таъминлашга қаратилган йўриқномалар системаси ташкил қилинган ва бу системалар ишчиларнинг хавфсизлигини таъминловчи иш усулларини ўргатиш билан ишчининг меҳнат хавфсизлигини сақлаш чора-тадбирларини ҳам ўз ичига олади.

Натижалар. Барча ишлаб чиқариш корхоналарида меҳнат муҳофазаси тарғиботи учун мўлжалланган марказ махсус жиҳозланган хоналар бўлиши лозим. Ушбу хоналарни ташкил қилиш ишлаб чиқариш корхонаси ходимлари олдида турган меҳнат муҳофазаси муаммоларини ечишга ва ишчи-ходимларининг билим даражасини кўтаришга ёрдам беради.

Меҳнат муҳофазаси хоналари объектдаги барчаишлаб чиқариш участкалари билан доимий равишда алоқада бўлади, ўтказиладиган тадбирларда атрофлича ёрдам беради, участка ва целларда соғлом ва хавфсиз меҳнат шароитларини яратишда ижобий таърибни ўрганиб чиқади ва уни тарғибот қилади.


Корхона ва ташкилотлардаги меҳнат муҳофазаси хоналарининг асосий вазифалари- қўйидагилардан иборат:

- ишга қабул қилинаётган янги ходимлар билан кириш йўриқнома ўтказиш;
- касбига қараб меҳнат муҳофазаси бўйича машқлар ва белимлар текширувини ўтказиш;
- касаба уюшмаси фаоли ва муҳандис-техник ходимлар учун меҳнат муҳофазаси бўйича семинарлар ўтказиш;
- ишлаб чиқариш санитария ва техника хавфсизлигига оид маъруза, суҳбат, радиоешиттириш ва тарғиботнинг бошқа турларини ташкил қилиш;
- меҳнатнинг соғлом ва хавфсиз шароитларининг яратиш бўйича, ишлаб чиқаришда, техника хавфсизлиги йўриқномаларини ўтказиш;
- ишлаб чиқариш участкалари ва объектларида кўргазмалар ташкил этиш;

-корхона ва ташкилотларида касб касалликлари ва ишлаб чиқариш жароҳатланишини камайтириш бўйича илм ва фан янгиликлари тўғрисида ахборотлар йиғиш.

Қишлоқ ва сув ҳўжалиги ташкилотлари ва корхоналарида, қурилиш трестларда ҳамда бирлашмаларда ҳамда илмий текшириш масканларида меҳнат муҳофазаси бўйича доимий ҳамда кўчириладиган хоналар ташкил этилади. Белгиланган меъёрларга асосан корхонадаги ишчилар сонига қараб меҳнат муҳофазаси хоналари учун қуйидаги ўлчамда майдонлар ажратилиши керак:

Ишчилар сони - 1000 кишидан кам бўлса – 24 м²;
1000 кишидан ортиқ бўлса - 48 м²;
3000 дан ортиқ бўлса – 72 м²;
5000 дан ортиқ бўлса – 100 м²;
10000 дан ортиқ бўлса – 150 м².



1-расм. Замонавий жиҳозланган меҳнат муҳофазаси хонаси ва бурчаклари.

Демак, меҳнат муҳофазаси хонасида ўтказиладиган ишлар қуйидаги асосий йўналишлар бўйича оли борилиши керак: меҳнат муҳофазасига ўргатиш, ишнинг хавфсиз усуллари тарғибот қилиш; меҳнатнинг соғлом ва хавфсиз шароитларини яратишда сув ҳўжалиги корхоналари ходимларига консултатив-услубий ёрдам бериш.

Меҳнат муҳофазаси хонасини жиҳозлаш ва ишини ташкил қилиш учун унинг тузилиши муҳим аҳамият касб этади. Хонанинг тузилиш корхона ва ташкилотларида меҳнат муҳофазаси бўйича олиб бориладиган ишлар йўналишларининг ва меҳнат муҳофазаси бўйича ўқув режасининг мазмунининг акс эттиради.

Хулоса. Меҳнат муҳофазаси хонасининг тузилиши мавзуй режага боғлиқ бўлиб қуйидаги бўлимлардан иборат бўлса мақсадга мувофиқ бўлади:

1. Умумий. Меҳнат муҳофазаси ва гигиенаси масалаларининг, меҳнат қонунчилиги шовқин ва титрашдан ҳимояланиш, шахсий ҳимоя, ишлаб чиқаришдаги шамоллатиш ва ёритилганлик, электр хавфсизлиги ва ёнғин хавфсизлигига оид масалаларни ўргатиш учун мўлжалланган .

2. Ўқув. Ишчи хизматчиларни, муҳандис техника ходимларининг техника хавфсизлиги ва ишлаб чиқариш санитарияси қонун қоидаларини ўргатиш учун мўлжалланган .

3. Махсус. Корхона ва ташкилотларда ўзига хос хусусиятларга эга бўлган асосий жараёнларга хавфсизлик талаблари ва меҳнат шароитларини соғломлаштириш муаммоларини ўргатиш учун мўлжалланган .

4. Маълумот методик. Ҳар хил касб эгалари бўлган ишчилар ва мутахассислар учун нашр этилган меҳнатмуҳофазаси бўйича маълумотлар, янги китоблар, шунингдек амалда бўлган техника хавфсизлиги бўйича йўриқномалар учун мўлжалланган.

5. Ахборот-кўргазмали. Ўқувчиларни кўрик-танлов натижалари билан, меҳнат муҳофазасига оид бўлган ихтиролари ва илм-фан ютуқлари билан таништиради. Ишлаб чиқариш участкаларида меҳнат муҳофазаси бурчаклари ташкил этишда ёрдам берадиган.

Ишлаб чиқариш корхоналарида тўқис санитария-гигиена шароитларини таъминлаш, оғир қўл кучи билан бажариладиган меҳнатни тугатиш ва касб касалликларини бутунлай йўқотиш чора-тадбирларини амалга ошириш керак, зеро, меҳнат қилиш фақат меҳнат воситаси бўлиб қолмасдан балки ҳаёт талаби бўлиб қолиши керак.

Фойдаланилган адабиётлар.

1. Ахмедов И., Хожиев А. Ўқув лаборатория хоналарида хавфсизлик. "Муҳофаза +" журнали, 2013 йил. № 12, 30 б

2. Хожиев А.А., Саидхужаева Н.С. Меҳнат муҳофазасининг таҳлили. "Ҳаёт фаолияти хавфсизлигининг замонавий муаммолари" мавзусидаги илмий-амалий анжумани материаллар тўплами. Тошкент 2012 й, 162-163 б.

3. Ибрагимов Э. ва бошқ. Меҳнат муҳофазасининг махсус курси. Т.2015, 515 б.

4. Газиначарова С., Ибрагимов Э., Юлдашев О., Асилова С. „Ҳаёт-фаолият хавфсизлиги“ Тошкент, 2010 й, 162 б.

5. www.genral-stat.uz

TEKNOLOGIYA DARSLARIDA DEKORATIV BUYUMLAR TAYYORLASHNI O'RGATISH

Turdaliyeva Ozodaxon Ahmadjon qizi. Qo'qon davlatpedagogika instituti

Аннотация: Ushbu maqola negizida asosan ta'limda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlar yetakchi o'rinda turadi. Shu jumladan, texnologiya faniga bo'lgan e'tiborning kundan-kunga o'sib borishi bu fanning ochilmagan qirralarini ochilishiga, o'quvchilarning qiziqishlarini yanada ortishiga sabab bo'ldi. Aniq fanlarga qiziqishi past bo'lgan o'quvchi, talaba yoki har qanday insonning texnologiya faniga qiziqishi shubxasiz, albatta. Shunday ekan ularning qiziqishlarini yanada orttirish uchun oddiy usullar yordamida dekorativ buyumlar yasash texnologiyasini chuqurroq o'rgatish maqolaning asosiy maqsadi sanaladi.

Калит со'злар: dekorativ buyumlar, polimerlar, applekatsiya.

Аннотация: На основании данной статьи на первый план выходят масштабные реформы, в основном в сфере образования. В частности, растущее внимание к науке о технологиях привело к открытию неизведанных аспектов этой науки, интересу студентов. ... привело к дальнейшему увеличению. Нет сомнений в том, что студенту или любому человеку, мало интересующемуся точными науками, будет интересна наука о технологиях. Поэтому основная цель статьи - углубленно обучить технологии изготовления декоративных предметов простыми методами. повысить их интерес.

Ключевые слова: декоративные элементы, полимеры, аппликация.

Based on this article, large-scale reforms, mainly in education are at the forefront. In particular, the growing attention to the science of technology has led to

the discovery of undiscovered aspects of this science, further increasing the interests of students. There is no doubt that a pupil, a student or any person with a low interest in the exact sciences will be interested in the science of technology. Therefore, the main purpose of the article is to teach in depth the technology of making decorative items using simple methods for increasing their interests.

Keywords: dekorativ materials, polymers, application.

Mustaqil O'zbekistonning so'ngi yillar davomida to'xtovsiz rivojlanib borayotganligi hammamizga birdek ma'lum. Ayni vaqtda mamlakatimiz bosib o'tgan taraqqiyot yo'lining chuqur tahlili, bugungi kunda jahon bozori konyukturasi keskin o'zgarib, globallashuv sharoitida yurtimizdagi raqobat tobora kuchayib borayotgani, davlatimizni yanada barqaror va jadal sur'atlar bilan o'sishiga asosiy omil bo'la oladi. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 28 may kuni ilm-fan va oliy ta'lim sohasini rivojlantirish bo'yicha yig'ilish o'tkazdi. Ushbu uchrashuvda davlatimiz rahbari ilm-fan va innovatsiyalarni rivojlantirishga doir takliflarni ko'rib chiqdi. O'quv jarayoni hamda ta'lim sifatini alohida tahlil qildi. "Bu ishlardan asosiy maqsad mamlakatimizda homashyo va uni qayta ishlash, ishlab chiqarishda yangicha innovatsiyalar kerak. Shu bois ilm-fan taraqqiyotimizning muhim yo'nalishi, tayanchi bo'ladi", dedi Shavkat Mirziyoyev. Ta'lim muassasalarida barcha fanlar, e'tiborlisi texnologiya faniga ham bo'lgan e'tibor kuchaytirilmoqda. Jumladan, OTMlarda ham bir talay o'zgarishlar, yangiliklar uchramoqda, yangicha yondashuv, yangicha innovatsiyalar asosida dars tashkillanmoqda.

Texnologiya fanining mazmunida hozirgi kunda asosan plastik materiallardan foydalanish, turli applekatsiyalardan buyumlar yasash an'ana tusiga aylanmoqda. O'rganishlardan shu narsa ma'lum bo'ldiki, plastik materiallar yoki plastmassalar – tabiiy yuqori molekulyar birikmalar asosidagi organik materiallar hisoblanadi. Ular katta molekulyar massaga ega bo'lgan polimerdir. Plastmassaning monomerlari tabiiy yoki sintetik bo'lishi mumkin. Polimerlar esa bir xil strukturaviy birlikni qayta-qayta takrorlaydigan katta molekullardir. Ular yopishtiruvchi, moylash materiallari, bo'yoqlar, plyonkalar, tolalar, plastmassa buyumlari va shu kabilar sifatida foydalidir. Plastmassalardan turli shakldagi butilkalar, qutilar, plyonkalar va boshqalarda keng qo'llaniladi, kimyoviy moddalarga juda chidamli bo'lishi mumkin va ular issiqlik va elektr izolyatoridir. Polimerlar bir xil struktura birligi qayta-qayta takrorlanadigan katta molekullar, plastik esa katta molekulyar massaga ega bo'lgan polimerdir. Ikkalasining asosiy farqi shundaki, polimerlar tabiiy yoki sintetik bo'lishi mumkin, plastik esa sintetik polimerdir. Polimerlarning aksariyati ko'p qirrali, plastmassalar esa juda ko'p qirrali materiallardir. Plastmassalarning boshqa mahsulotlarga qaraganda ancha qulay jihatlari ko'p. Plastmassalar arzonligi va ba'zi xususiyatlar bo'yicha boshqa materiallardan qolishmasligi sababli, ishlab chiqarishda ko'p qo'llanilib kelinmoqda. Kundalik turmushda ko'p foydalanadigan materiallarimizdan biri bu qog'ozlardir. Qog'ozning nafaqat hayotimizda, balki texnologiyada ham o'rnini kattadir. Har xil gafri, rangli, gul qog'ozlar texnologiyaning asosiy ish qurolidir.

Rangli qog'ozlarga ishlov berib biror narsaga uni bezatish uchun yopishtirishimiz applikasiya deyiladi. Applekatsiya aslida – gazlama, qog'oz va boshqa materiallarga rang barang gazlama, qog'oz bo'laklarini tikish yoki yopishtirish yo'lib ilan naqsh ishlash, bezash deganidir.

Applekatsiya-badiiy asarlar yaratishning eng sodda va oson usullardan biridir. Bu applekatsiyadan faqatgina bezash maqsadlaridagina emas balki, ko'rgazmali

qog'ozlar, turli o'yinlar uchun qo'llanmalar, o'yinchoqlar, bayroqchalar, devoriy ro'znomalar va shu kabi ko'rgazmalarni tayyorlashda foydalanamiz.

Dekorativ buyumlar – foydalanayotgan buyum yoki plastik materiallarga bezaklar orqali ishlov berib bezatish. "Har qanday hunarmandchilik buyumi amaliy san'at darajasida bo'lmaydi" so'zidan ma'lum bo'lmoqdaki, haqiqatdan ham amaliy san'atning tayyorlanishidagi bosqich hunarmandchilikdan boshlanadi. Unga badiiy ishlov berish orqali amaliy san'at darajasiga ko'tariladi.

Inson biror bir plastik material yoki rangli qog'ozlar bilan ishlaganida, unga qo'l mehnati orqali ishlov berib, uning shaklini o'zgartirishi, foydalanishga yaroqsiz chiqindi materiallardan kundalik hayot uchun asqotadigan antiqa buyumlar yasashi mumkin. O'quvchi va talabalar uchun eng oson va har tomonlama qulay kerakli buyum yaratishni, ya'ni, chiroyli taqinchoq soladigan quticha yasash bilan tanishib chiqamiz. Bu buyum xonaga kirganda e'tiborni jalb qiladigan dekorativ buyumlardan biridir. Uni tayyorlash uchun bir qator o'lchash va ish asboblari: qog'oz, qaychi, kley, chizg'ich, ruchka, yaltiroq rangli qog'oz va chiqitka chiqarib yuborilgan plastik idish kerak bo'ladi. Birinchi navbatda, plastik idishning o'rtasidagi silliq joyidan 10 sm qilib qirqib olinadi. So'ngra nam mato bilan yaxshilab artib tozalanadi (1-rasm). So'ngra qo'llar yordamida yurakcha shakliga kirgizishga harakat qilinadi. Ichki tarafga qaytarib, ikkala tomonini bir qilib tekislasa, past tomonini ham bir-biriga mahkamlab yurakcha shakli hosil qilinadi (2-3-rasmlar).



1-rasm

2-rasm

3-rasm

4-rasm


Keyingi qiladigan ish yurakchanning tag qismini qilishdan iboratdir. Yurakchanning shakli bilan bir xil qilib qog'ozdan andoza olinadi (4-rasm). Keyin esa



shu qog'ozga moslab yaltiroq rangli qog'ozlar yopishtirib chiqiladi (5-rasm). Ikkita, ya'ni, tagi va qopqoq uchun hamolinadi.

Tag qismini yoniga 2sm liqog'ozdan (5-rasm) qirqib olib yopishtiriladi.

Navbatdagi texnologik operatsiyada qopqoq tayyorlanadi. Qopqoq uchun yurakcha shaklini ikkinchisiga yana 2sm dan yoniga yopishtirib mahkamlanadi (7-



9-rasm



10-rasm

rasm). Endigi navbat bezatishdan iborat. Bezatish uchun har xil usullardan foydalanish mumkin. Yurakcha shaklini qirg'og'iga to'rdan yopishtirib chiqiladi(8-9-rasmlar).

Oddiy lentadan kapalakcha yasab qo'yiladi. Rasmda quticha ichiga rangli qog'ozdan gul yasab solib qoyilgan. Uning o'rniga taqinchoq va kerakli narsalar solishda foydalanish ham mumkin.



11-rasm



12-rasm

Shunday ketma-ketlikdagi tuzilgan va tartiblangan texnologik operatsiyalar davomiyligida quticha buyum sifatida iste'molga tayyor holatda tugatiladi. Bu buyum xonaga kirganda chiroyli, ko'rkam dekorativ detal bo'lib ko'zga tashlanadi. Eng muhimi taqinchoqlarni bir joyga jamlash uchun eng yaxshi buyumdur.

Xulosa qilib aytish mumkinki, texnologiya fanidagi plastikmateriallardan dekorativ buyumlar tayyorlashni o'rgatish masalasi hozirgi kunning muhim vazifalaridan ekanligini e'tibordan chetda qoldirmasligimiz zarur. Maktabdan va sinfdan tashqari ishlarni tashkil etishda mazkur tavsiyalardan o'rinni foydalanish o'quvchilarning barkamol avlod sifatida tarbiya topishi uchun bir qator omillarni shakllantirish va rivojlantirish uchun xizmat qiladi. Bunda ularo'lichovva rejalar asboblari hamda zaruriy ish qurollaridan oqilona va tartibli foydalanishni o'rganadi, ulardagitejamkorlik hislatlari shakllanadi, estetik didlari yanada rivojlantirishga turtki bo'lishi muqarrar. Insonlar o'zlarini qiziqtirgan kasbga to'g'ri yo'nalib, yon atrofidagilarni ham jalb eta olsa demak u haqiqiy kasbining tom ma'noda fidoisidir. Raqobat paydo bo'ladi, zero raqobat bor joyda o'sish bo'ladi. Shunday ekan yurtimiz rivoji uchun barchamiz birdek mas'ulmiz.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. Toshkent.: "O'zbekiston" NMIU, 2017 yil.

2.X.Rixsitillayev "Uyro'zg'orisitishasobblari" Toshkent tezkorbosmaxonasi 2006 yil.

3.Asqarov M.A.,Ismoilov I.I.,Polimerlar kimyosi va fizikasi,T,2003.

4. Olimov Q. Tikuvchilik korxonalarini jihozlari va uskunlari T.G'.G'ulom nomidagi matbaa ijodiy uyi, 2008yil

INNOVATSION TA'LIM MUHITIDA O'QUVCHILARGA PLASTIK MATERIALLARDAN DEKORATIV BUYUMLAR TAYYORLASHNI O'RGATISH

Turdaliyeva Ozodaxon Ahmadjon qizi. Qo'qon davlat pedagogika instituti

Annotatsiya: Maqolaning maqsadi uzluksiz ta'lim tizimining texnologiya fani darslari davomida innovatsion ta'lim muhitida plastik materiallardan dekorativ buyumlarni tayyorlashni o'rgatishdan iborat.U o'quvchi va talaba yoshlarning qiziqishini,estetik didini yanada shakllantirishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar:Plastik material,dekorativ buyum,innovatsion ta'lim.

Аннотация: Целью статьи является обучение изготовлению декоративных изделий из пластических материалов в инновационной образовательной среде на занятиях по технологии в системе непрерывного образования. Он служит для дальнейшего формирования интереса и эстетического вкуса студентов и школьников.

Ключевые слова: Пластик, декоративный элемент, инновационное образование.

Annotation: The purpose of the article is to teach the production of decorative items from plastic materials in an innovative educational environment during technology classes in the system of uninterrupted education. It serves to configure further the interest and aesthetic taste of students and pupils.

Keywords: Plastic material, decorative item, innovative education.

O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishganidan so'ng tobora yuksalib bormoqda.Xususan, xalq xo'jaligini iqtisodiy jihatdan taraqqiy etishi yo'nalishida rang barang islohotlarning bo'lishi ayniqsa, sanoat sohasida ham ancha o'zgarishlar yuz bermoqda. Texnika, mexanika, yengil-og'ir sanoat, ishlab chiqarish, eksport, import, qishloq xo'jaligi, tikuv fabrikalari va shu kabi qator sohalarda ancha rivojlangan davlatlar qatoridan o'z o'rnini topib ulgurgan.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev tomonidan O'zbekistonni rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasini tasdiqladi. Shuni ham inobatga olishimiz kerakki strategiyaning mazmunida ham san'at sohasiga katta e'tibor qaratilgan. Uzluksiz ta'lim tizimining barcha bo'g'inlarida, ya'ni maktabgacha ta'lim, umumiy o'rta ta'lim, o'rta maxsus va kasb hunar ta'limi, oliy ta'lim, maktabdan tashqari ta'lim, kadrlarni qayta tayyorlash va ularni malakasini oshirish, oliy ta'limdan keyingi ta'lim muassasalarida ham hozirgi kunda amaliy san'atga e'tibor kuchaymoqda. Bu esa o'quvchilarning san'atga qiziqishlari, ishtiyoqlari ancha yuqori ekanligidan dalolat beradi.[1]

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil8-oktabrdagi "O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"giPF 5847-sonli Farmonlari.[2] 2020-yil6- noyabrdagi "Ta'lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar

to'g'risida"gi PQ-4884-sonli Qarorlari, "Maktabgacha, umumiy o'rta, professional va oliy ta'lim tizimlarida texnologik ta'limning uzviyligini ta'minlash konsepsiyasi va fanni rivojlantirish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Shuningdek, ta'lim jarayoniga tatbiq etilayotgan innovatsiyalar samarasi, texnologiya fani uzviyligi va uzliksizligini ta'minlashga bevosita bog'liq",deya Shavkat Mirziyoyev o'zining murojatnomalarida to'xtalib o'tadi.

Texnologiya fanining mazmunida hozirgi kunda asosan plastik materiallardan foydalanish,har xil buyum va gullar yasash birinchi o'rinni egallamoqda. O'rganishlardan shu narsa ma'lum bo'ladiki, plastik materiallar yoki plastmassalar-tabiiy yuqori molekullari birikmalar asosidagi organik materiallar hisoblanadi. Ular isitish va bosim natijasida o'z shaklini o'zgartirish va sovutilgandan keyin berilgan shaklni saqlab qolish qobilyatiga ega deb aytib o'tilgan.Foydali jihatlari:plastmassalardan yasalgan mahsulotlar boshqa mahsulotlarga qaraganda yengilligi, elekt tokini, issiq sovuqni o'tkazmasligi, atmosfera fa'sirlariga chidamliligi,yemiruvchi muhitga, haroratning keskin o'zgarishiga bardoshliligi, mexanik mustahkamligi yuqoriligi va murakkab shaklli buyumlar yasash mumkinligi bilan boshqa materiallardan ajralib turadi. Bu esa ularga bo'lgan ehtiyojni yanada oshiradi. Plastmassa so'zining ma'nosi plastik(yunon. qayishqoq)va massa (lot. yumaloqlangan narsa)so'zlarining birikmasidan tashkil topgan."MASSA-asosiy fizik o'lcham birliklaridan biri bo'lib, materiyaning inersion va gravitatsion xossalarni aniqlovchi skalyar kattalik. Massa-(lot:massa-katta tosh;bo'lak) fizikada -jismning inert va gravitatsion xususiyatlarini ifodalovchi fizik kattalik"-deb ta'rif berilgan

Plastmassalarning boshqa mahsulotlarga qaraganda ancha qulay jihatlari ko'p. Plastmassalar arzonligi va ba'zi xususiyatlari bo'yicha boshqa materiallardan qolishmasligi sababli, ishlab chiqarishda ko'p qo'llanilib kelinmoqda. "Hozirgi vaqtda ishlab chiqarilayotgan materiallarning 20%ini plastmassa tashkil etmoqda". Plastmassa materiallari qurilishda ham asosiy o'rinlardan birini egallamoqda.Plastmassalarning: mahsulot tannarxini arzonlashtirishi, mashinalarning muhim texnik iqtisodiy parametrlari massasi kamayishi, puxtaligi, ishonchiligi va h.k. oshishi so'zimizga yaqqol dalil bo'la oladi.Umuman olganda plastmassalardan hayotimizning turli jabhalarida duch kelamiz va foydalanamiz. Har qanday inson o'zining qiziqishlaridan kelib chiqqan holda, chiqindiga chiqarib tashlangan plastik material,bundan tashqari barcha keraksiz plastmassalardan juda chiroyli buyumlar yasashi mumkin.Dekorativ beztish san'ati esa odamlarning kundalik turmush ehtiyojlarini qondirish, tevarak -atrofqa, uylarning tashqi va ichki ko'rinishiga go'zallik kiritish vazifalariga xizmat qiladi.. Dekorativ san'at buyumlari birmuncha erkin, ijodkor fantazyasiga bog'liq. Plastik materiallardan va rangli qog'ozlardan dekorativ buyumlar yasash metodikasi bilan tanishib chiqish texnologiyasi:tayyorlash uchun bizga;qog'oz, qaychi, kley, chizg'ich, ruchka, yaltiroq rangli qog'oz va chiqitka chiqarib yuborilgan baklashka kerakbo'ladi. Birinchi navbatda baklashkani o'rtasidagi silliq joyidan 10 sm qilib qirqib olinadi. So'ngra nam mato bilan tozalanadi. So'ngra qo'llar yordamida yurakcha shakliga kirgizishiladi.Ichki tarafiga qaytarib ikkala tomonini bir qilib tekislasa, pas tomonini ham bir biriga maxkamlab yurakcha hosil qilinadi.Keying qiladigan ish yurakchaning tag qismini qilishdan iboratdir. Yurakchaning shakli bilan bir xil qilib qog'ozdan andoza olinadi. Keyin esa shu qog'ozga moslab yaltiroq rangli qog'ozlar yopishtirib chiqiladi.Ikkita ya'ni tagi va qopqoq uchun ham olinadi.Tag qismini yoniga 2sm li qog'ozdan qirqib olib yopishtiriladi.Keyin esa qopqoq tayyorlanadi. Qopqoq uchun yurakchani ikkinchisiga yana 2sm dan yoniga yopishtirib mahkamlanadiEndigi navbat bezatishdan iborat.

Bezatish uchun har xil usullardan foydalanish mumkin. Yurakchani qirg'og'iga to'rdan yopishtirib chiqiladi. Oddiy lentadan kapalakcha qilib qo'yiladi. Shunday ketma –ketlikdagi tuzilgan va tartiblangan texnologik operatsiyalar davomiyligida quticha buyum sifatida iste'molga tayyor holatda tugatiladi. Bu buyum xonaga kirganda chiroyli, ko'rkam dekorativ detal bo'lib ko'zga tashlanishi e'tibordan chetga qolmaydi. Eng muhimi u yoq bu yoqda turadigan taqinchoqlar uchun eng yaxshi joydir, bu esa taqinchoqlarning bir joyda bo'lishini va tezda topilishini ta'minlaydi.

Xulosa qilib aytish mumkinki, texnologiya fanidagi plastik materiallar va rangli qog'ozlardan dekorativ buyumlar tayyorlashni o'rgatish masalasi hozirgi kunning muhim vazifalaridan ekanligini e'tibordan chetga qoldirmasligimiz zarur. Maktabdan va sinfdan tashqari ishlarni tashkil etishda mazkur tavsiyalardan o'rinni foydalanish o'quvchilarning barkamol avlod sifatida tarbiya topishi uchun bir qator omillarni shakllantirish va rivojlantirish uchun xizmat qiladi. Bunda ular, o'lchov va rejalar asboblari hamda zaruriy ish qurollaridan oqilona va tartibli foydalanishni o'rganadi, ulardagi tejamkorlik hislatlari shakllanadi, estetik didlari yanada rivojlantirishga turkib bo'lishi muqarrar.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. X. Rixsitillayev "Uy ro'zg'or isitish asboblari" Toshkent tezkor bosmaxonasi 2006 yil.
2. Mirziyoyev Sh. M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. Toshkent.: "O'zbekiston" NMIU, 2017 yil.
4. A. S. Iskandarov. Materiallarni kesib olish, kesuvchi asboblari va stanoklar. -T.: Fan vatexnologiya. 2004 yil
5. R. S. Shermuxamedov, S. S. Yaxyaev, A. E. Parmonov. Chilangarlikdan amaliy ishlar. -T.: Iqtisod-moliya 2007 yil

TEKNOLOGIYA DARSLARIDA PLASTIK MATERIALLAR VA RANGLI QOG'OZLARDAN DEKORATIV BUYUMLAR TAYYORLASHNI O'RGATISHNING UZVIYLIGI

Olimov Baxtiyorjon Usmonovich, Qo'qon davlat pedagogika instituti Pedagogika fani nomzodi, dotsent

Ozodaxon Turdaliyeva Ahmadjon qizi. Qo'qon davlat pedagogika instituti 2-kurs talabasi.

Annotatsiya: Maqolada uzluksiz ta'lim tizimining texnologiya fani darslarida plastmassa va rangli qog'ozlardan dekorativ buyumlar tayyorlashni o'rgatish masalasi yoritilgan. O'quvchi, talaba yoshlarning estetik didi va qiziqishini oshirish uchun xizmat qiladi. Umumiy o'rta va oliy ta'lim muassasalarida texnologiya fani bo'yicha dolzarb mavzulardan biri yoritib berilgan. Kalit so'zlar: plastik material, dekorativ buyumlar, hunarmandchilik.

Аннотация: В статье рассматривается вопрос обучения изготовлению декоративных изделий из пластика и цветной бумаги в классах технологического, непрерывного образования. Он служит повышению эстетического вкуса и интереса учащихся. В общем среднем и высшем образовании раскрывается одна из важнейших тем предмета технологии.

Annotation: The article discusses the issue of teaching the production of decorative items from plastic and colored paper in the science of continuous

education technology. This serves to enhance the aesthetic taste and interests of the students. One of the current topics of technology in general, secondary and higher education institutions was enlightened.

Keywords: plastic, decorative items, crafts.

Texnologiya fanining mazmunida hozirgi kunda asosan plastik materiallardan foydalanish, rangli va gafri qog'ozlardan har xil buyum va gullar yasash an'ana tusiga aylanmoqda. Har qanday o'quvchi plastik materiallardan foydalanishdan oldin ularning xususiyatlari bilan tanishib chiqqan bo'lishi muhim ahamiyatga ega.

O'rganishlardan shu narsa ma'lum bo'ldiki, plastik materiallar yoki plastmassalar – tabiiy yuqori molekulari birikmalar asosidagi organik materiallar hisoblanadi. Ular isitish va bosim natijasida o'z shaklini o'zgartirish va sovutilgandan keyin berilgan shaklni saqlab qolish qobiliyatiga ega. Bunga ko'ra plastmassalar, plastik massalar, plastiklar – tabiiy yoki sintetik yuqori molekulari birikmalar asosida olinadigan materiallar. Issiqlik yoki bosim ta'sirida qoliplanadi va qoliplangan shaklini mustahkam saqlaydi. Agar foydali jihatlari haqida aytadigan bo'lsak, plastmassalardan yasalgan mahsulotlar boshqa mahsulotlarga qaraganda yengilligi, elekt tokini, issiqni va sovuqni o'tkazmasligi, atmosfera ta'sirlariga chidamliligi, yemiruvchi muhitga va haroratning keskin o'zgarishiga bardoshliligi, mexanik mustahkamligi yuqoriligi va murakkab shaklli buyumlar yasash mumkinligi bilan boshqa materiallardan ajralib turadi. Bu esa ularga bo'lgan ehtiyojni yanada oshiradi.

Kundalik turmushda ko'p foydalanadigan materiallarimizdan biri bu qog'ozlardir. U tabiatdan olinadigan va hayotimizda asosiy o'ringa ega bo'lgan mahsulotlardan biridir. Qog'ozning nafaqat hayotimizda, balki texnologiyada ham o'rni kattadir. Har xil gafri, rangli, gul qog'ozlar texnologiyaning asosiy ish qurolidir. Rangli qog'ozlar haqida o'rganishdan avval qog'ozning tarixi, uning xususiyatlari haqida ma'lumotga ega bo'lish zarur.

E'tibor beradigan bo'lsak, qog'oz-svilizatsiyasi tarixdagi eng muhim kashfiyotdan biridir. Qog'ozning oddiy ko'z bilan ko'rib chiqish va ushlab ko'rish hayot tajribalaridan kelib chiqqan holda qog'ozning umumiy xususiyatlarini bilish mumkin. Qog'oz-varaqli materialdir.

“Har qanday hunarmandchilik buyumi amaliy san'at darajasida bo'lmaydi” so'zlaridan ma'lum bo'lmoqdaki, haqiqatdan ham amaliy san'atning tayyorlanishidagi bosqich hunarmandchilikdan boshlanadi. Unga badiiy ishlov berish orqali amaliy san'at darajasiga ko'tariladi. Ya'ni har qanday oddiy buyumga ishlov berib bezatish uni amaliy san'at darajasiga ko'tarar ekan. Inson biror bir plastik material yoki rangli qog'ozlar bilan ishlaganida, unga qo'l mehnati orqali ishlov berib, uning shaklini o'zgartirishi, foydalanishga yaroqsiz chiqindi materiallardan kundalik hayot uchun asqotadigan antiqa buyumlar yasashi mumkin. Bunda inson o'zining qiziqishlaridan kelib chiqqan holda, oddiy rangli qog'ozlardan yoki chiqindiga chiqarib tashlangan ichimlik suvi plastik idishlardan juda chiroyli buyumlar yasashi mumkin. Shunday qilib, plastik materiallardan va rangli qog'ozlardan dekorativ buyumlar yasash metodikasi bilan tanishib chiqamiz.

O'quvchi va talabalar uchun eng oson va har tomonlama qulay kerakli buyum yaratishni, ya'ni, chiroyli taqinchoq soladigan quticha yasash bilan tanishib chiqamiz. Bu buyum xonaga kirganda e'tiborni jalb qiladigan dekorativ buyumlardan biridir. Uni tayyorlash uchun bir qator o'lchash va ish asboblari: qog'oz, qaychi, kley, chizg'ich, ruchka, yaltiroq rangli qog'oz va chiqitka chiqarib yuborilgan plastik idish kerak bo'ladi.

Birinchi navbatda, plastik idishning o'rtasidagi silliq joyidan 10 sm qilib qirqib olinadi. So'ngra nam mato bilan yaxshilab artib tozalanadi. So'ngra qo'llar yordamida yurakcha shakliga kirgizishga harakat qilinadi. Ichki tarafiga qaytarib, ikkala tomonini bir qilib tekislasa, past tomonini ham bir-biriga mahkamlab yurakcha shakli hosil qilinadi

Keyingi qiladigan ish yurakchani tag qismini qilishdan iboratdir. Yurakchani shakli bilan bir xil qilib qog'ozdan andoza olinadi. Keyin esa shu qog'ozga moslab yaltiroq rangli qog'ozlar yopishtirib chiqiladi. Ikki ta, ya'ni, tagi va qopqoq uchun ham olinadi. Tag qismini yoniga 2 sm li qog'ozdan) qirqib olib yopishtiriladi. Texnologik operatsiyada qopqoq tayyorlanadi. Qopqoq uchun yurakcha shaklini ikkinchisiga yana 2 sm dan yoniga yopishtirib mahkamlanadi Endigi navbat bezatishdan iborat. Bezatish uchun har xil usullardan foydalanish mumkin. Oddiy lentadan kapalakcha yasab qo'yiladi. Rasmda quticha ichiga rangli qog'ozdan gul yasab solib qoyilgan. Uning o'miga taqinchoq va kerakli narsalar solishda foydalanish ham mumkin.

Shunday ketma-ketlikdagi tuzilgan va tartiblangan texnologik operatsiyalar davomiyligida quticha buyum sifatida iste'molga tayyor holatda tugatiladi. Bu buyum xonaga kirganda chiroyli, ko'rkam dekorativ detal bo'lib ko'zga tashlanadi. Eng muhimi taqinchoqlarni bir joyga jamlash uchun eng yaxshi buyumdur.

Xulosa qilib aytish mumkinki, texnologiya fanidagi plastik materiallar va rangli qog'ozlardan dekorativ buyumlar tayyorlashni o'rgatish masalasi hozirgi kunning muhim vazifalaridan ekanligini e'tibordan chetda qoldirmasligimiz zarur. Maktabdan va sinfdan tashqari ishlarni tashkil etishda mazkur tavsiyalardan o'rinni foydalanish o'quvchilarning barkamol avlod sifatida tarbiya topishi uchun bir qator omillarni shakllantirish va rivojlantirish uchun xizmat qiladi. Bunda ular o'lchov va rejalar asboblari hamda zaruriy ish qurollaridan oqilona va tartibli foydalanishni o'rganadi, ulardagi tejamkorlik hislatlari shakllanadi, estetik didlari yanada rivojlantirishga turki bo'lishi muqarrar.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. Toshkent.: "O'zbekiston" NMIU, 2017 yil.
2. Mirziyoyev Sh.M. "Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz". Toshkent. "O'zbekiston" NMIU, 2016 yil.
3. X.Rixsitillayev "Uy ro'zg'or isitish asboblari" Toshkent tezkor bosmaxonasi 2006 yil.
4. Otaboyev Sh.T., Iskandarov T.I. "Komunal gigiena" Yangi asr avblodi, 2007 yil
5. Olimov Q. Tikuvchilik korxonalarini jihozlari va uskunalarini T.G'.G'ulom nomidagi matbaa ijodiy uyi, 2008 yil

TEXNOLOGIYA FANINI O'QITISHNING NOAN'ANAVIY USULLARDAN FOYDALANGAN HOLDA SHAKLLANTIRISH MAZMUNI VA VOSITALARI

Ismatov A. M., - NamDU, Texnologik ta'lim kafedrasining o'quv-ishlab chiqarish ta'lim ustasi

Normirzayeva O. - NamDU, TXT BU-20 guruh talabasi

O'qitish maqsadi va mazmuniga ko'ra mashg'ulotlarni dars tiplariga ajratish, ularga mos keluvchi o'qitishning noan'anaviy usullarini ishlab chiqish hamda tasniflash ishlarini amalga oshirish zarurati yuzaga keldi.

Texnologiya darslarida zamonaviy pedagogik texnologiya metodlarini qo'llash shakli, metod va vositalari texnologiya fani o'quv mashg'ulotlarining muvaffaqiyati uning shakligagina emas, balki qo'llanilayotgan metodlar samaradorligiga ham bog'liqdir. Texnologiya fani nazariyasida o'qitish (ta'lim) metodlari markaziy o'rin egallaydi.

Metodlar ta'lim jarayonida o'qituvchi va o'quvchi faoliyatining qanday bo'lishi, o'qitish jarayonini qanday tashkil etish va olib borish kerakligini hamda shu jarayonda o'quvchilar qanday ish harakatlarini bajarishlari kerakligini belgilab beradi.

Texnologiya fani metodi o'quv materialini bayon qilishga va uni o'quvchilar yaxshi bilib olishga qaratilgan faoliyatning yo'li, usulidir. Ta'lim jarayoni va natijalari o'qituvchining o'quvchilar bilish faoliyati harakatini belgilovchi ish usullariga bog'liqdir. Texnologiya fani metodlari o'qituvchi va o'quvchilar faoliyatining xususiyatini belgilaydi, ta'limning maqsadi va mazmuniga bog'lik bo'ladi.

Texnologiya fani metodlari o'quv materialini mazmunida ifodalangan ilmiy fikr mantig'iga bog'liqdir. O'quv materialining mazmuni tobora chuqurlashib, murakkablashib va ilmiy tus olib bormokda, shuning uchun ta'lim metodlari ilmiy bilishning mantiqi va metodlariga tobora ko'proq bog'liq bo'lib qolmoqda.

Metodlar bir qancha asosiy guruhlardan iborat bo'lib, ularning har biri o'z navbatida kichik guruhlar va ularga kiruvchi alohida metodlarga bo'linadi.

O'quv bilish faoliyatini tashkil qilish va amalga oshirish jarayonini o'zi uzatish, qabul qilish, anglash, o'quv axborotlarini esda saqlashni hamda olinadigan bilim va ko'nikmalarni amaliyotda qo'llay olishni nazarda tutishni hisobga olsak,

- birinchi guruh metodlariga so'z orqali uzatish va axborotni (informatsiyani) eshitish orqali qabul qilish metodlari, og'zaki metodlar, hikoya, ma'ruza, suhbat va boshqalar;
- o'quv axborotini ko'rgazmali uzatish va ko'rish orqali qabul qilish metodlari-ko'rgazmali metodlar;
- tasviriy, namoyish qilish va boshqalar; o'quv axborotini amaliy mehnat harakatlari orqali berish (amaliy metodlar, mashqlar, laboratoriya tajribalari, mehnat harakatlari va boshqalar) kiradi.

Sinfning barcha o'quvchilari javob berayotgan o'quvchini qunt bilan tinglashi, uning javobini to'ldirishi, tuzatishi, oydinlashtirishga yordam berishini ta'minlash lozim.

O'quv materialini tushuntirish o'rganilayotgan hodisa, qonun, qoida yoki harakatning mohiyatini ochib berishga qaratilgan. O'qituvchi muayyan bir predmetning u yoki bu mavzuga oid qonun-qoidalar qanchalik asosli ekanligini dalillar, misollar keltirish yo'li bilan isbotlab beradi,

Suhbat metodi ko'pincha savol-javob metodi deb ham yuritiladi. Chunki bu metodda dars o'tilsa, u asosan savol-javob yo'sinida olib boriladi.

Mashq qildirish metodi, asosan o'zlashtirilgan ilmiy bilimlarni mustahkamlash va uni amalda qo'llay olish, tegishli ko'nikma va malakalarga ega bo'lishni ta'minlashga xizmat qiladi. Odatda, mashq qildirish deganda ilmiy bilim va ma'lum bi ish-harakatni o'zlashtirish yoki takomillashtirish maqsadida rejali ravishda tashkil etilgan takrorlash tushuniladi.

Mashq qildirish metodida o'quvchilarning yozma ijodiy mashqlari alohida o'rin egallaydi. SHuningdek, ma'lum mavzularda ma'ruza tayyorlash, grafik ishlari ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Amaliy mashg'ulotlar metodi o'quvchilarga umumiy texnika ijodiy ta'lim berish va mehnat malakasi bilan qurollantirishda asosiy metod bo'lib xizmat qiladi.

Ta'lim jarayonida qo'llaniladigan vositalar ta'lim samaradorligini ta'minlashga xizmat qiladi.

Vosita muayyan o'qitish metodi yoki metodik usullarini muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun zarur bo'lgan yordamchi o'quv materiallaridir. Ta'lim vositalari asbob-uskunalar, laboratoriya jihozlari, axborot va texnik vositalar (qurilmalar), ko'rsatmali qurollar, ramziy belgilar, darslik o'quv qo'llanmalari, radio, televidenie va kompyuter va hokazolardan iborat bo'ladi.

Ta'lim jarayonida o'qitish vositalaridan foydalanish tabiiy yoki tasviriy ko'rgazma materiallar (sxema, diagramma, surat va boshqalar), laboratoriya yoki demonstratsiya mashg'ulotlarida qo'llaniladigan asbob-uskunalar, o'quv qurollari, mikroskop va boshqa apparatlar, shuningdek, mavzuga oid dalillar (ta'rif, qoida, formula va boshqalar) ning ishlatishni anglatadi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, ta'lim jarayonida ta'lim shakli, metod va vositalari muhim o'rin tutadi. Ta'limda ko'rsatmalilik metodining quyidagi turlaridan foydalaniladi. Namoyish etish, ekskursiya o'quvchilarning o'quv materiallarini aniq obrazlar orqali bevosita idrok qilishlarini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. J.Yo'ldoshev, S.Usmonov, "Pedagogik texnologiya asoslari", T., 2004.
2. J.Yo'ldoshev, "Ta'lim yangilanish yo'lida", T., 2000.
3. Ptiyukov V.Yu., "Osnov pedagogicheskoy texnologii", M., 1999.
4. www.psiholog1.ru
5. www.uzedu.uz
6. www.ziyonet.uz

XALQ HUNARMANDCHILIGI ELEMENTLARINI O'RGANISHDA KASHTACHILIK ISHLARINING O'RNI

Tursunbayeva O., Termiz davlat universiteti Texnologiya ta'limi yo'nalishi
3-bosqich talabasi

O'zbek milliy kashtado'zlik xalq hunarmandchilik san'atining eng qadimiy turlaridan bo'lib, u xalqning o'z turmushini go'zal qilish istagi natijasida yuzaga kelgan. Kashta kiyimlar va buyumlarni bezashda hamda ro'zg'or bezak buyumlari tayyorlashda qadimdan qo'llaniladi. Kashtachiligimiz san'ati nafaqat mamlakatimizda, balki chet ellarda ham shuhrat qozongan. O'zbek chevar ustalari qo'llari bilan tikilgan kirpich, so'zana, zardevor, gulko'rpa, choyshab kabilar Fransiya, Italiya, Yaponiya, Germaniya, Belgiya, Amerika, Hindiston kabi xorijiy, shuningdek Respublikamizning Farg'ona vodiysida faqat xonadonlarda emas, balki amaliy san'at muzeylarida ko'p namunalari to'planib, doimiy ekspozitsiyaga aylanib qolgan. Hozirgacha buyumlar o'ziga xos go'zallik, nafis bezaklarning rang-barangligi bilan kishilarni hayratga solib kelmoqda. Badiiy kashtachilik uzoq tarixga ega, buni arxeologik topilmalar va yozma manbalar isbotlab bermoqda.

O'zbek kashtachiligi iqlimi, tabiiy sharoit, muhit bilan bog'liq holda barcha kasb-hunarlar bilan birgalikda rivoj topgan. XIV - XV asrlarga mansub miniatyuralar

orqali kashtachilikning juda qadimdan rivojlanganligini ko'rish mumkin. Ispan elchisi Rui Ganzalning de Klavixo Amir Temur saroyida o'zbek milliy kashta bezaklarini ko'rganini kundaligida yozib qoldirgan. Kamoliddin Behzod "Zafarnoma"ga ishlagan. "Temur taxtda" miniatyurasida chodirga ishlangan kashtani ham aks ettirgan. O'zbek kashtachiligi qo'shni xalqlar kashtachiligi ta'sirida boyidi va rivojlandi. O'zbek kashtalariga e'tibor bersak, unda hind, xitoy, rus, qozoq, qirg'iz va tojik kashtachiliklarining usullarini uchratamiz. Kashtachilik san'atida har bir millatning o'ziga xos eng ko'p qo'llaydigan naqshlari bo'ladi. O'zbek kashtalarida o'simliksimon, geometrik shakl hamda gul naqshlari ko'p qo'llaniladi. Qadimiy an'analarga ko'ra, o'zbek qizlari-bo'lajak kelinchak seplari bo'lmish har xil kashtachilik buyumlarini ya'ni dastro'mol, choyxalta, parda, belbog', sumka, nimcha, joynomoz, gulko'rpa, kirpich, zardevor, choyshab, so'zana, kiyim bezaklari va bosh kiyimlarini, sovg'alarni o'zlari tayyorlashgan. To'yda kuyovning qarindosh-urug'lariga kelin o'zi tikkan buyumlarini sovg'a qilgan. To'ydan oldin sep yoyib ko'rgazma qilinar, bu kelinning chevarligini, mehnatsevarligini namoyish etishi va kashta qanchalik nozik, chiroyli bo'lsa yuqori baholanar edi. Qizlar juda yoshligidan boshlab kashta tikish o'rgatilib, ular uch, to'rt yildan keyin mustaqil kashta tikishni boshlaganlar. O'rta Osiyoda kashtachilik juda keng tarqalgan bo'lib, oilada kashta tikish bilan ayollar shug'ullanishgan. O'tmishda bu kashtalar oq va tabiiy malla shoyi, adras, hisoriga, baxmal matolarga tikilgan, keyinchalik satin, shoyi, baxmalga tikiladigan bo'ldi. Ish jarayonida ular o'z mahoratlarini oshirishgan, bir-biridan va kattalardan avlodlar tajribasini o'rganishgan. Xalq badiiy hunarmandchilik mahsulotlari faqat bizning mamlakatimizda emas, balki chet mamlakatlarda ham cheksiz talab qilinadi. Pliniyning aytishicha, Vavilon kashtachiligi qadimdan mashhur bo'lib, matoga turli rangdagi iplar bilan kashta tikishni o'sha yerda kashf etishgan. Keyinchalik Vavilon Rim imperiyasi tarkibiga kirgach ipak, zar yoki jun ip qo'shib tikilgan rang-barang kashtachiligi bilan shuhrat qozongan. Kashtachilik san'atining an'analari Vizantiyada ham rivoj topgan.

XIII va XV asrlarda Kichik Osiyo doirasida paydo bo'lgan hamda Vizantiya imperiyasini barbod qilgan usmoniy turklar ham ushbu san'atga o'zlarining munosib ulushlarini qo'shganlar. Qrim va Kavkazning qayeridaki Vizantiya madaniyati uzoq vaqt kuchli ta'sir o'tkazgan bo'lsa, o'sha yerda kashtachilik rivojlanavergan. Qadimgi Rus ham Vizantiyaga taqlid qilib kashtachilik san'atini o'rgangan. Rus kashtasi gullarining xarakteriga va tikilish usullariga ko'ra juda turli-tumandir. Popok (yo'rma) chokli kashta tikish Olonets, Vologda oblastlari va Arxangelsk oblastining g'arbiy qismida keng tarqalgan. Hozirgi vaqtda Rossiyada ellikdan ortiq baxyasimon kashtado'zlik korxonalari bor. Ivanovo, Ryazan, Kalinin, Smolensk va boshqa oblastlarda kashtado'zlik markazlari bo'lib, u yerdagi korxonalarda turli kiyimlar va uy ro'zg'orni bezaydigan turli buyumlar ishlab chiqariladi.

XIX asrning ikkinchi yarmida kashta tikish mashinasining ixtiro etilishi kashtachilik korxonalarining vujudga kelishiga asos soldi. Kashtado'zlikning yirik namoyandalaridan Andijondagi "Qizil bayroq" arteli rassom kashtado'zi X.Nazarov, Samarqanddagi "Xotin-qizlar mehnati" arteli kashtado'zi Usmon Shokirov, toshkentlik kashtado'z va chizmakash Xayri Sobirovalar kashta buyumlariga yangi turli xil naqsh kompozitsiya va tikish usullarini yaratdilar.

X.Sobirova onasi Zaxira Mirxoliqovadan qo'lda, mashinada tikish sirlarini va chizmachilikni o'rgandi. X. Sobirova 15 yoshidan boshlab onasining kashtado'zlik hunarini davom ettirib, "Sharq guli" va "Ilg'or" nomli Stalin artelida 16 yil ishlab ko'p shogirdlar yetishtirishda o'z hissasini qo'shdi. Yetishib chiqqan kashtachilar

o'zining san'ati va tabiatiga ko'ra go'zallik xaqidagi orzularini ifodalashga harakat qilganlar. Kashta tikish uchun gazlama bilan, ip buyumning nimaga mo'ljallanganiga, bezakning xarakteriga va tikish usuliga muvofiq tanlanadi. Kashta tikiladigan materialga muvofiq rangdagi ip tanlash kashtado'zlikda katta ahamiyatga ega. Bu kashtado'zdan katta mahorat va did talab qiladi. Kashtada foydalaniladigan iplar rangining o'zaro muvofiqligi ham kashtaning jozibador chiqishiga sabab bo'ladi. O'tmishda turli-tuman rangdagi matolarning kamligi sababli ko'pgina bezak kashtalari bugun mato sathini kashta bilan qoplab tikilgan. Hozirda so'zana, choyshab, zardevor kabi bezak buyumlari baxmal, shoyi, satin, shuningdek turli-tuman iplar ham ko'p. Bu kashtani jozibador chiqarishda rangdan keng foydalanish imkonini beradi. Kashtado'z kashta tikmoqchi bo'lgan kiyim shakliga, matosi rangiga qarab kashta nusxasini tanlashi kerak. Kashta iplari paxta tolasidan to'rt qavatli qilib, turli ranglarda tayyorlanadi, xira bo'ladi va 50 metrli kalava tarzida savdoga chiqariladi.

Mulina-yuqori sifatli paxta tolasidan tayyorlanadi. 12 qatli, maxsus ishlov berib sifati oshirilgan, chidamli bo'ladi. O'n yoki yigirma metrlik kalava tarzida chiqariladi. Ipak iplar-tabiiy va kimyoviy tolalardan tayyorlanadi. Pishitib-yigirilgan turli razmerdagi oq bo'yalgan bo'lib, kalava qilingan (40g li), g'altak va qog'oz patronlarga o'ralgan (50, 100, 200m uzunlikda) bo'ladi. 13-18-nomerli ipak iplar jun, zig'ir poyasidan, sun'iy tolalardan tayyorlangan iplar, mayin sim, zar ip, charmdan ensiz qilib tayyorlangan tasmlar bilan tikiladi.

Naqsh nusxasini har xil gazlamalarda har xil yo'llar bilan tushiriladi. Masalan, nusxa ko'chiradigan qog'ozlar axta yorug'lik yordamida, naqsh chizilgan qog'ozni gazlama ustidan ko'klab chiqiladi keyin bu qog'ozlar yirtib olinadi. Hamma hollarda ham oldin bezakni originaldan shaffof yoki millimetrli qog'ozga uchi yaxshi ochilgan qalamda ko'chirib olinadi. Shundan keyin uni gazlamaga o'tkaziladi.

Bezakni (naqsh) nusxa ko'chiradigan (kopirovka) yordamida ko'chirish.

Gazlamani oldin dazmollab, tekis yuza (stol, taxta) ustiga yozib qo'yiladi, bunda gazlamaning asos va arqoq iplari qiyshayib qolmasligiga qarash kerak. Naqsh (tekis chok, suv chok, ustki chok va hokazo bilan tikiladigan) chizilgan shaffof qog'ozni gazlama ustiga qo'yib, to'g'nog'ich bilan qadab qo'yiladi. Nusxa ko'chiradigan qog'ozini to'q tomonini gazlamaga qaratib shaffof qog'oz tagiga qo'yiladi, uchi yaxshi ochilgan qalam bilan bezak ustidan chizib chiqiladi. Turli rangdagi nusxa ko'chiradigan qog'ozlar bo'lgani ma'qul, shunda och rangdagi gazlamaga to'q rangli (qora, ko'k, yashil), to'q rangli gazlamaga och rangli (oq, sariq) nusxa ko'chiradigan qog'oz ishlatiladi. Bezakni ko'chirib bo'lingach nusxa kopirovka) qog'ozini olinib, bir tomondagi to'g'nog'ichlar chiqariladi va bezagi tekshiriladi. Shundan keyingina shaffof (kal'ka) qog'oz olib tashlanadi. Naqshni nusxa ko'chiradigan qog'oz bilan ko'chirishda bezakning chiziqlari qalin bo'lmasligini yodda tutish kerak, aks holda kashta tikayotganda gazlama va ip kir bo'lib qoladi. Shuning uchun ishlatiladigan kopirovka qog'ozidan foydalanish yaxshiroq, yangisini esa ishlatishdan oldin quruq paxta yoki latta bilan artish kerak.

Yupqa shaffof gazlamalarga kashta gulni gazlama tagidan yoritish yo'li bilan ko'chirish mumkin. Tagiga lampa qo'yilgan oyna ustiga yaxshi ko'rinadigan kashta gulni qo'yib, uning ustiga yaxshi tortilgan chambarakga (kergiga) o'rnatilgan gazlama qo'yiladi. Gazlama tagida ko'rinib turgan kashta gulni uchi yaxshi ochilgan qalam bilan gazlamaga chizib olinadi.

Movut baxmal va yaltiroq gazlamalar ustiga kashta gulni shaffof qog'oz ustidan ko'klash yo'li bilan ko'chiriladi. Buning uchun bezakni shaffof qog'ozga

ko'chirib olib, uni gazlama ustiga qo'yiladigan, butun chizig'i bo'ylab mayda zich qaviqlar bilan ninani oldinga yo'naltirib tikib chiqiladi. Keyin qog'oz yirtib tashlanadi.

Bezakni axta (andaza, ulgi) yordamida ko'chirish. Axta naqsh yoki biror rasmni shaffof (kal'ka) qog'ozga chizib, chiziq yo'llarini igna bilan teshib, buyum yuziga tushirish uchun tayyorlangan andoza.

Axtani tayyorlash uchun shaffof (xitoy) qog'ozga naqsh kompozitsiyaga moslab simmetriya o'qi bo'yicha qog'ozni ikkiga, to'rtga va hokazo buklanadi. Buklamaning bir qismiga naqsh chiziladi.

Naqshli shaffof qog'ozni yumshoq gazlama yoki bir necha qavat gazeta qog'oziga ustiga qo'yib, naqsh chiziqlari ustidan 2-3 mm oraliqda igna bilan teshib chiqiladi. Naqsh nusxasi igna bilan teshib bo'lingandan keyin, shaffof qog'oz yopib yuboriladi, natijada axta hosil bo'ladi. Tayyor bo'lgan axtani ish yuzasiga qo'yib, ustidan xoka urib va bosib yurgazib chiqiladi. Geometrik shakldagi bezakni teshma ko'chirishda uning kataklari vertikal va gorizontal chiziqlar kesishgan nuqtalarda teshib hosil qilinadi.

Kashta gul chizilgan shaffof qog'ozni kerosinlangan latta bilan artib, toza tomonini gazlamaga qaratib qo'yiladi-da, bir necha joyidan to'g'naladi. Movut yoki paxmog'ning (ochroq bo'lgani yaxshi) yoki paxtaning ustiga doka o'rab tampon qilinadi. To'q rangdagi gazlamaga bezakni ko'chirish uchun xokani bo'r yoki tish poroshogi aralashgan kerosinda ho'llab olinadi.

Shu maqsadda hech narsa bilan aralashmagan tish pastasini ishlatish ham mumkin. Teshib ko'chirishda kashta gulning gazlamasidagi tasviri aniqroq, buzilmay chiqadi, bu ayniqsa kashta gulning bitta bo'lagini bir necha marta tikish kerak bo'lganda, mehnatni osonlashtiradi va tezlashtiradi. Andozalarni bir necha marta ishlatish mumkin. Bu axtalar (andoza) alohida paketda saqlangani tuzik. Naqsh chizilgan gazlama parchasiga tikiladigan, uni dumaloq chambarakka tortish qiyin bo'lsa, bu gazlama parchasining chetlariga ish tugagandan keyin so'kib tashlanadigan, hohlagan boshqa gazlama parchasini ulab qo'yish mumkin.

Matoda gullarning o'rni-o'rnini topib qo'yish, xususan buyumlardagi gullarni joylashtirib chizish g'oyatda murakkab va mas'uliyat talab ishdir. Kashtado'zlik san'atida nushasi va chizmakash hunari ustalarining o'rni beqiyos. Chevar har qancha mohir bo'lmasin, naqshlarni nushasi, chizmakashlar asosan atroflicha o'ylab ko'rib, o'z kasb-hunarlarining an'analari va spetsifik xususiyatlari asosida chizib beradilar.

Ba'zan kashta tikish uchun tanlangan bezak mo'ljallangan buyum kattaligiga to'g'ri kelmay, uni kattalashtirish yoki kichiklashtirish kerak bo'ladi. Buning uchun bezak ustiga ixtiyoriy kattalikdagi o'zaro teng kvadratlar chiziladi. Bunda kvadratlar qancha mayda bo'lsa, bezakning nuqtalari shunchalik aniq ko'chiriladi va nusxasi ham oson chiziladi.

Millimetrlar qog'oz yoki toza qog'ozga buyum kattaligidagi to'g'ri to'rtburchak chizib, bezakdagi kvadratlar soni qancha bo'lsa, shuncha kvadratlar bo'linadi. Agar bezak gulni kattalashtirayotgan bo'lsa, bu kataklar originaldagi kataklardan katta bo'lib, rasm guli kichiklashayotgan bo'lsa, bu kataklar originaldagidan kichik bo'lib chiqadi. Shundan keyin kataklar bo'yicha originaldagi kashta gulning asosiy nuqtalari toza to'rtga ko'chiriladi. Bu nuqtalarni ravon chiziq bilan ehtiyotlab birlashtirib bezakning kattalashtirilgan yoki kichiklashtirilgan nusxasi hosil bo'ladi. Rasm nuqtalarini oson topish uchun chizilgan to'rtburchakning ikki tomoniga raqamlar qo'yiladi.

O'rta Osiyoda kashtachilik juda keng tarqalgan bo'lib, oilada har bir ayol kashta tikishni bilishi kerak bo'lgan. Shuning uchun har bir oila o'zi uchun buyumlarni o'zi

tayyorlagan. Bezak buyumlarining turi juda ko'p, masalan, so'zana, kirpich, choyshab, choy xalta, zardevor, palak, gulko'ra, dorpech, parda, belbog', do'ppi, ko'yлак, dastro'mol, hamyon, joynomoz, sumka, nimcha va boshqalar badiiy did bilan bezatiladigan bezak buyum turлари bilan tanishib chiqamiz.

Palak-devorlarga ilinadigan eng yirik, eng qimmat bezak buyumlaridan biri. Palakda osmon va to'lin oy aks ettiriladi. Uni qadimda oq yoki malla bo'zga kashta tikib tayyorlangan. U so'zanadan gullarning yirikligi, zaminining ham kashta qoplanishi bilan farq qiladi.

Palakni o'rtasida yirik oy tasviri qizil qirmizi, pushti ipak bilan kashtalanadi va atrofiga juda chiroyli qilib o'simliksimon naqshlar tikiladi. Naqshlar ichida ko'pincha bodom, qalampir elementlari qo'llaniladi. Palakda qirqtacha oy ham tasvirlash mumkin, shuning uchun oyini soniga qarab olti oyli palak, o'n ikki oylik palak, hattoki katta uylar uchun qirq oyli palaka tikilgani bizga ma'lum. Oylar turli ranglar bilan bir necha xil tasvirlangan.

Shu o'rinda Surxon vohasida tikilib kelayotgan kashtalar o'zining takrorlanmas jiloli ranglari, naqshlari bilan ajralib turadi. Kashta tikish jarayonida nafaqat go'zallik dunyosiga sayohat qilgandi, balki, insonlarni sabr-toqatli bo'lishga undaydi.

ТЕХНОЛОГИК ТАЪЛИМ ҲҚИТУВЧИСИНИНГ МУТАХАССИС МОДЕЛИНИ ИШЛАБ ЧИҚИШДАГИ АЙРИМ ЖИХАТЛАР

Ҳайдаров Р.М.-Термиз давлат университети ўқитувчиси

Сўнги йилларда Ўзбекистон Республикаси Президенти, Вазирлар Маҳкамаси томонидан чиқарилаётган қарор ва фармонларда ҳамда 2020 йил 23 сентябрдаги Ўзбекистон Республикасининг янги таҳрирдаги “Таълим тўғрисида”ги қонуннинг асосий мазмунида бугунги кун ўқитувчи фаолиятини яхлит тизим сифатида ўрганиш муҳим илмий-амалий муаммолардан бири сифатида қаралган.

Ўқитувчи фаолиятини яхлит тизимини ишлаб чиқишда бугунги куннинг мутахассис моделини ишлаб чиқиш муҳим ўрин тутди. «Мутахассис модели» тушунчасига нисбатан турли қарашлар мавжуд. Психологик-педагогик олимлар ушбу тушунчани қуйидагича таърифлайди *“Муайян соҳа мутахассисининг умумлаштирилган образи сифатида ўрганилаётган объектининг асосий хусусиятларини акс эттирувчи тасвирий ўхшатишни тушуниш кераклиги...”*.

Технология фани ўқитувчисининг мутахассис моделини ишлаб чиқишда технология фанига оид меъёрий хужжатларни чуқур таҳлил қилиб чиқмасдан бирор натижага эришиб бўлмайди. Таҳлиллардан келиб чиқиб, 5112100-Технологик таълим бакалавриат таълим йўналишининг Давлат таълим стандарти ва малака талабларида умумий ўрта таълим мактаблари бўлажак технология фани ўқитувчисига қўйиладиган талаблар:

1. Фаолиятнинг асосий соҳаси ва турлари:

а) фаолият соҳаси: 1) таълим; 2) бошқарув ва бошқалар.

б) фаолият турлари: 1) ўқув; 2) методик; 3) тарбиявий; 4) ташкилий; 5) илмий (раҳбарлик); 6) кадрлар билан ишлаш; 7) тadbirkorлик; 8) экспертлик ва бошқалар.

II. Бўлажак мутахассислар фаолият олиб боровчи ташкилотлар:

1) таълим; 2) умумий ўрта таълим муассасалари; 3) ўрта махсус, касб-хунар таълими муассасалари (академик лицейлар, профессионал таълим муассасалари; 4) мутахассислигига бўйича олий таълим муассасалари; 5) олий таълимдан кейинги таълим муассасалари (малака ошириш курслари ва кадрларни қайта тайёрлаш марказлари); 6) таълимни бошқариш органлари; 7) ўқув курслари, махсус ўқув юртлири, бизнес марказлари, тилга жадал ўргатиш курслари.

III. Шахсий сифатларга талаблар:

1) психологик; 2) мулоҳазали; 3) ахлоқий; 4) фаолиятни ташкил этиш маҳорати ва усулларига қўйилувчи талаблар.

Бизнинг назаримизда касбий тавсифнома мазмунида, яна шунингдек, касбий жиҳатдан тайёрлаш ва қайта тайёрлаш, алоҳида психологик сифатларини машқ қилдириш, ўзгартириш, ўрнини тўлдириш, касбий малакани ошириш ва турдош касбга йўналтириш (шахснинг индивидуал хусусиятларини инobatта олиш асосида) масалаларининг ёритилиши мақсадга мувофиқдир.

Мутахассис шахси ва фаолиятини моделлаштиришга нисбатан ёндашувларнинг турлича бўлишига қарамай, психологик-педагогик илмий тадқиқотларда касбий педагогик тайёргарлик тизимида айнан технология фани ўқитувчисининг касбий ва шахсий камолоти, шунингдек, мутахассисни касбий тайёрлаш жараёнининг моделини яратиш муаммосига аълоҳида эътибор қаратилмаган.

Бўлажак технология фани ўқитувчисининг касбий-педагогик фаолиятни моделлаштиришга оид қиёсий таҳлилларимиз асосида технология фани ўқитувчини тайёрлашнинг мақсади, жараёни ва натижали блоклардан иборат бўлган модели ишлаб чиқиш кераклигини аниқлади. Бўлажак технология фани ўқитувчисининг фаолиятли модели маданий генетик жараён негизига қурилиши, унда ўқитувчи раҳбарлигида ҳамда мустақил таълим олиш билан боғлиқ таълим шакллари асос сифатида олиниши керак деган хулосага келдик. Бўлажак технология фани ўқитувчисини тайёрлашда замонавий таълим тури сифатида инновацион ёндашган ҳолда интерфаол методлар ва ахборот коммуникацион технологиялардан фойдаланиш методикаларини ишлаб чиқиш бугунги кун талабидир.

Юқоридаги талабларда педагогик, техник-технологик муаммоли вазиятли топшириқлар технология фани ўқитувчисини тайёрлашда педагогик, умуммуҳандислик ҳамда мутахассислик туркуми фанлари уйғунлигини таъминлаб, меҳнат таълими ўқитувчисининг касбий-педагогик тайёргарлигини юқори сифат даражасига кўтариш зарурлигини кўришимиз мумкин.

Бўлажак технология фани ўқитувчисининг касбий шаклланиши муайян индивидуал сифатларнинг ўзаро боғлиқлиги ва шахснинг ижтимоий-маданий фаоллик даражасига боғлиқ бўлади. Кузатишларимиз натижаларига кўра ушбу сифатлар мотивацион, иродавий, ақлий, ҳиссий, амалий ҳамда ўз-ўзини бошқара олиш лаёқати кабилардан таркиб топиши аниқланди.

Фаолиятли моделда таълим мазмуни уч даражада:

таянч компетентлик (ўқув режасидаги барча блок фанлари учун);
фанлараро компетентлик (ўқув режасидаги бир блок фанлари тўплами учун);
предмет доирасидаги компетентлик (ўқув режасидаги бир блок юзасидан)
шаклида келтирилган;

Давлат таълим стандарти мутахассисларни тайёрлаш ва сифатини назорат қилиш механизми вазифасини ўтайди.

Технология фани ўқитувчисини шакллантириш модели – таълим ва ишлаб чиқариш жараёнида юзага келадиган педагогик ҳамда техник-технологик муаммоли вазиятларни муваффақиятли ҳал этилишини таъминловчи, мотивацион ҳислатлар, интеллектуал салоҳият, иродавий сифатлар, амалий кўникмалар, ҳиссий сифатлар ҳамда ўз-ўзини бошқара олиш сифатларини таърифловчи, касб эгасининг мустақил билим олиши ва ўзини ривожлантиришини акс эттирувчи андоза ҳисобланади.

Технология фани ўқитувчиларининг маданий-генетик жараён маҳсули сифатида ахборот коммуникацион технологияларни қўллаш асосида педагогик ҳамда техник-технологик муаммоли вазиятли топшириқлар негизда тайёрланиши уларда зарурий индивидуал сифатлар ҳамда таянч компетентликни таркиб топтириш учун асос вазифасини ўтайди. Бу эса бўлажак ўқитувчи шахсининг давлат таълим стандартлари талабларига тўла жавоб берувчи етук мутахассис сифатида касбий шаклланишини таъминлайди.

Хулоса қилиб айтиладиган бўлсак, бўлажак технология фани ўқитувчисини тайёрлашда Давлат таълим стандарти, малака талаблари, ўқув режа ва ўқув дастурларини буюртмачи эҳтиёждан келиб чиққан ҳолда ишлаб чиқилса таълим олувчилар ҳамда буюртмачилар ўртасидаги ўзаро алоқадорлик мустаҳкамланиб, таълим сифати ҳамда самарадорлиги ошишига эришилади деб ўйлаймиз.

Адабиётлар рўйхати

1. Ишмухамедов Р, Абдуқодиров А, Пардаев А. Таълимда инновацион технологиялар. – Т.: “Истеъдод”, 2008. – 180 б.
2. Муслимов Н.А. Бўлажак касб таълими ўқитувчиларини касбий шакллантириш. Монография. – Т.: “Фан”, 2004. – 126 б
3. Нишоналиев У.Н., Толипов Ў.К., Шарипов Ш.С.. Касбий таълим педагогикаси. Ўқув қўлланма. – Т.: ТДПУ, 2007.

BOYSUN QUROQCHILIK SAN'ATINI O'RGATISHDA TARIXIY AN'ANALAR O'RNINI

Jo'rayeva B., Termiz Davlat Universiteti „Mehnat ta'limi“ 3-kurs talabasi

Ko'p asrlik rivojlanish yo'lini bosib o'tgan o'zbek xalqining turli-tuman hunarlarini o'ziga xos qadimiy an'analarga ega bo'lib, Markaziy Osiyoda xususan hunarmandchilik rivojlangan o'lkalaridan biri hisoblangan Boysunda ham avloddan-avlodga, ustozdan shogirtga meros tarzida o'tib hozirgi kumngacha saqlanib kelinmoqda.

O'zbekistonda o'tkazilgan arxeologik tadqiqotlar Boysunda uch ming yillar ilgari keng rivojlangan, hunarmandchilik mavjud bo'lgan. Bu davrda sinfiy qatlamlar paydo bo'lib, yirik mehnat taqsimoti negizida hunarmandchilik mustaqil soha bo'lib ajralib chiqdi. Oqibatda Boysun shaharl savdo-sotiqning rivojlanishi ro'y berdi. Butun yirik shaharlar nafaqat iqtisodiy va ijtimoiy, balki siyosiy va madaniy markazlarga aylangan.

Ayniqsa Boysunda IX-XII asrlarda hunarmandchilik keng miqyosda rivojlanib. O'rta Osiyoning shu jumladan o'zbek elining chet ellar bilan iqtisodiy madaniy aloqalari avj oldi. Mahalliy hunarmandchilik mahalliy an'analarning zarur maxsulotlarini ishlab chiqarish yuksak darajaga ko'tarildi. Boysunda

hunarmandchilikning eng qadimiy va noyob buyumlar topilgan. 1897-yili birinchi aholi ro'yxati vaqtida O'zbekiston xududidagi katta shaharlarda axolining ko'pchilik qismi hunarmandlar hisoblangan.

Shuni alohida qayd qilish lozimki, o'tmishda o'troq o'zbeklar nafaqat qo'shni ko'chmanchi elatlar maxsulotlarini iste'mol qiluvchilari, balki ular uchun zarur bo'lgan hunarmandchilik mahsulotlarini yetkazib beruvchilar sifatida ham nomoyon bo'lgan. Shuning uchun mahalliy ustalar ko'lab teri va jundan, yog'och va metallardan, paxta va ipakdan, tabiiy materiallardan turli buyumlardan kiyimkechaklarni ishlab chiqib bozorlarda sotganlar. O'rta asr hunarmandlarining yana bir xususiyati bu o'ziga xos jamoatchilik an'analarga tayangan holda savdo sotiq ishlarini olib borgan.

O'zbek hunarmandchiligining yana bir xususiyati uning ko'p sohalarining bevosita uy-ro'zg'or xo'jaligi bilan bog'langanligi edi. Ko'p hunarmandlar asosiy kasbidan tashqari ayniqsa qishloq sharoitida dehqonchilik, bog'dorchilik va sabzavotchilik bilan ham shug'ullanib kelganlar. Bunday holat qishloq jamoatchiligi an'analari bilan bog'liq bo'lib, hunarmandchilikning ip yigirish, to'qish, kigiz bosish, kashtado'zlik, quroqchilik kabi kasblar bilan shug'ullanganlar. Ish quollarining oddiyliги texnikaviy jihatdan qoloqligiga qaramay o'zbek hunarmandchiligining ko'p sohalari nihoyatda yuksak san'at namunalari yaratgan ajoyib amaliy kasb-hunar sifatida tanilgan.

Har bir xalqning ijtimoiy-madaniy hayotida azaliy an'ana, urf-odatlar, milliy hunarmandchiligimiz alohida o'rin tutadiki, bu insonning tug'ulishi bilanoq uning ongida shakllanib, umri davomida o'chmas iz qoldiradi. Inson hayoti mobaynida shu urf-odatlar va an'analarga amal qilishga urinadi. Chunki har bir inson o'zidan oldingi ajdodining ijodiy yo'lidan borishga va unga amal qilishga undaydi va intiladi. Ajdodlar urf-odatiga hurmatsizlik qilish yoki unga amal qilmaslik xolati jamiyatda qoralangan. Bunga tarixda juda ko'p misollar keltirish mumkin. Bu borada birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov "Bugun O'zbekiston xalqi ulug' ajdodlarining an'analari urf-odatlarini davom ettirib, taqdirini o'z qo'liga olib, qaddini rostlab, el yurtimizda osoyishtalik, barqarorlikni, millatlararo ahillikni fuqorolar totuvligini avaylab asrab yangi tarixiy sharoitga kelajagini qurmoqda, milliy davlatchiligini tiklamoqda", degan edi. Shunday ekan xalqlar madaniyatida urf-odat, an'analalar va hunarmandchilikning ahamiyatini inkor etib bo'lmaydi. Xalq hunarmandchiligi avloddan-avlodga o'tib taraqqiy etgan va asrlararo ajdodlar fikrini orzu o'ylari va boshqa qadriyatlarini mujassamlashtirgan boy merosga aylangan.

Odatda ko'pchiligimiz hunarmand deganda yirik sanoat korxonalari bilan tuzilgan shartnoma asosida uy sharoitida maxsulot ishlab chiqaruvchi yoki xizmat ko'rsatuvchi kishilarni tushunamiz. Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolar jamiyatini rivojlantirishda hunarmandchilikning muhim tarmog'i bo'lgan quroqchilik alohida o'rin tutadi. Tadbirkorlik faoliyatida quroqchilikdan samarali foydalanish nafaqat oilalar, balki davlat farovonligini ta'minlashga xizmat qiladi, albatta. Xususiyl tadbirkorlikfaoliyatida va aholi bandligini ta'minlashda quroqchilikning tutgan o'ri juda muhim.

Respublikamiz mustaqillikka erishgandan so'ng barcha sohalarda bo'lgani kabi, xalq hunarmandchiligining "Quroqchilik" sohasiga alohida e'tibor berilmoqda. Jumladan "Ta'lim to'g'risidagi qonun", "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi"da hamda "umumiy o'rta ta'limining davlat ta'lim standarti va o'quv

dasturi” ning qabul qilinishi bu sohada olib borilayotgan ishlar namunasidir. Hozirgi kunda ota –bobolarimizning, momolarimizning qadimiy odatlari, milliy qadriyatlarini va kasblarini hunarlarini o’rganish muhim vazifalardan hisoblanadi.

Qadimiy Turon xalqlari yaratgan madaniy meros boy va rangbarangdir. Asrlar davomida shakllanib, mazmunan boyigan. Bu ma’naviy xazinaning asosiy qismini xalq amaliy san’ati tashkil etadi. Asrlardan-asrlarga meros bo’lib kelayotgan xalq amaliy san’ati turlari o’ziga xosligi bilan mashhurdir. O’zbekistonda “Quroqchilik” san’ati xalq amaliy san’ati turlari ichida alohida o’rin tutadi. Mato parchalaridan ip va igna mo’jizasidan yaralgan bu quroqchilik san’ati barchani lol qoldirmay qoymaydi.

Quroq – bu matoga bir materialni har xil rangdagi qirqimlarini yopishtirish yoki tikish orqali badiiy bezak hosil qilinadi. Quroqchilik u o’ziga xos tayyorlashjarayoniga ega. Quroq tikish jarayoni o’rganayotgan kishining qobilayatini sobir toqatini yangilik yaratish sezgisini rivojlantiradi. Bu quroqchilik usulida tikilgan buyumlar yuqori didni, go’zallikni, sabr-toqatlilikni, mehnatsevarlikni talab qiladi. Bizda bu tikish usuli “Quroq” deb ataladi.

Milliy quroqchilik san’ati bu o’lmas san’atlardan biri ya’ni xalq amaliysan’atlaridan bir hisoblanadi. Quroqchilik san’ati tarixiga nazar tashlaydigan bo’lsak bu quroqchilik usullarini ildizlarini sharqdan topish mumkin. Masalan Yegiptda ya’ni Kair shahrining chekka qishloqlarida bu usul bilan 3000 yil avval tikilgan buyumlar topilgan. Quroq tikish usuli bilan yer yuzining ko’pgina joylarida ham shug’ullanib kelingan. Keyinchalik o’rta ta’minlangan oilalarda uylar bezatilib va ro’zg’or mahsulotlari tayyorlanib asta-sekin dunyo bo’ylab hamma xalqlar orasida tarqalib ketgan va amaliy san’atiga aylangan.

Bunday bajarilgan ishlar Angliya, Amerika, Shvetsariya, Germaniya, shvetsiya va Avstraliya muzeylarida joy topgan. O’zbekistonning barcha viloyatlarida jumladan Surxondaryo, Qashqadaryo viloyatlarida xalq amaliy san’atining “Quroqchilik” usuli bilan shug’ullanishadi.

Surxondaryo viloyatida viloyatida xalq hunarmandchiligi hisoblangan quroqchilikning “kvadrat”, “mag’izli kvadrat”, “olma”, “yulduzcha”, “shaxmati”, “turna” va ularning xakozo shakllaridan foydalaniladi. Gazlama qoldiqlarini isrof qilmasdan ko’rpa-ko’rpachalar, yostiqlar, chimildiq, poyandozlar, dasturxonlar, divan-kreslo jihozlari va xakozo. Uy ro’zg’or buyumlari va xonalarni bezash uchun kerakli bo’lgan buyumlar tayyorlanadi. Quroqchilik buyumlarini tayyorlashdan maqsad unutiladyotgan “Quroqchilik” amaliy san’atimizni qayta tiklash va istiqomat qiladigan, xordiq chiqaradigan ya’ni yashab turgan uyimiz sh inam, qulay va albatta chiroyli bo’lishi kerak. Bunday sharoitga erishish uchun qimmat baho matolardan tikilgan uy ro’zg’or buyumlari sotib olish shart emas, balki ularni o’z qo’limiz bilan yaratishimiz ham mumkin. Bunda uy bekalari uchun nafaqat yangi gazlamalar, balki avval ishlatilgan yoki gazlama chetlaridan ortib qolgan mato qoldiqlari kiyishga yaroqsiz bo’lib qolgan buyumlardan ajoyib antiqa uy anjomlari tayyorlash imkoniyatiga ega bo’ladilar. Buning uchun ulardan sabr -toqat ishga ijodiy yondoshish va mavjud bo’lgan xomashyodan unumli foydalanish talab qilinadi. Uy anjomlarini ko’p qismini gazlama qoldiqlaridan tayyorlash mumkin.

Quroq – bu bitta buymdan rang va shakl turiga bo’lgan gazlama qoldiqlarini birlashtirishdir. Bu usul bilan yostiqlar, divan va stol uchun g’iloflar, gilamchalar, to’shama shuningdek, kiyimlar uchun bezaklar tayyorlash mumkin. Quroq usullaridan istalgan gazlamadan ham yangi yoki avval ishlatilgan gazlamalardan foydalanish nazarda tutiladi. Yangi gazlamani ishlatishdan avb

val dekatrofka (ipak va jun gazlamalarni kirishmaydigan qilish uchun bug' yoki qaynoq suv bilan ishlov berish usuli) bug'lash lozim. Chunki, bitta buyumlardan tayyorlanganda bir necha xil gazlama ishlatilishi natijasida buyum yuviladi, so'ng o'z ko'rinishini o'zgartirishi mumkin. Avval ishlatilgan gazlama bo'laklarini esa kraxmallash va dazmollash kerak. Paxta tolali gazlama qoldiqlarini ishlatish uchun qulay xisoblanadi. Ulardan "Lola" tasviri tushirilgan suratlarini quroq usulidan foydalanib tikish yoki gazlama qoldiqlaridan har xil gullar, tabiat manzaralari, hattoki insonlarning tasvirini ham tushurish mumkin.

Tikilayotgan gazlama qoldiqlarining pishiqligini orttirish maqsadida ularni asosga birlashtirish. Asos bo'lib vatin, sintipon yoki qalin zich gazlama xizmat qiladi. Ko'pincha naqsh gullari bir xil shaklli, o'lchamlari alohida elementlardan iborat bo'ladi. Bichishda qulay bo'lishi uchun karton yoki qattiq qog'ozdan shablonlar tayyorlanadi. Karton kerakli elementni (kvadrat, uchburchak va xakozo) chok haqqisiz chizib olinadi, so'ng hamma tomonidan 0,5-1 sm chok haqqi qoldirib ikkinchi chiziqni o'tkazamiz. Shundan so'ng ichki va tashqi kontir chiziqzlari bo'yicha extiyotkorlik bilan qirg'iladi. Gazlama qoldiqlaridan tayyorlanayotgan quroq yostiqlar shu ketma-ketlikda tayyorlanadi.

Quroq uy ro'zgor buyumlari va kiyimlarni bezashda keng qo'llanib kelinmoqda. Quroq ipak, paxta, zig'ir, sun'iy va kiyoviy tolali matolardan tayyorlanadi. Paxta tolasining pishiqligi uning pishiganlik darajasiga bog'liq. Paxta tolasini yorug'lik ta'sirida pishiqligini asta-sekin yo'qotadi. quyosh nuri 940 soat ta'sir qilib turganda tolalarning pishiqligi 50% pasayadi.

Zig'ir tolasining fizik xossalari paxtaning xossalriga yaqin. Normal sharoitda gigroskopligi 12%. Zig'ir namlikni tez shimiydi va tez ketkazadi. Suv ta'sirida tolalarning pishiqligi oshadi. Zig'ir tolasining o'ziga xos xususiyatlaridan biri issiqlikni yaxshi o'tkazuvchanligidir. Shuning uchun zig'ir tolalari paypaslab ko'rilganda barmoqlarga sovuq unaydi. Sharq xalqlari san'atidagi naqshlarning mohiyati qadimdan odamlarning borliq haqidagi taassurotlarini mujassamlashtirilgan belgi ramzlarning o'ziga xos tizimini namoyon etadi. Quroq naqshlari asosan koinot, bizni o'rab turgan olamni eslatuvchi o'simlik va xo'jalik buyumlari bo'ladi. Bularning barchasida mavjud olamning tasviri yotadi.

Qadimgi quroqchilik usullarini zamonaviylik usullari bilan uyg'unlashtirib milliy liboslarni tayyorlash mumkin. Qadimda oilada qiz uzatilayotganda albatta quroqlar bilan bezatilgan buyumlar tayyorlanib, seplarga qo'shib qo'yilgan va bu muhim an'analardan hisoblangan. Quroqchilik qo'l ishi bo'lib O'zbekistonning deyarli barcha viloyatlarida saqlanib qolgan. Quroqchilik san'ati O'zbekistonda ko'p yillar davomida rivojlangan. Respublikamizning har bir viloyatida o'ziga xos naqshli quroqlar vujudga kelgan.

Quroqchilik bilan Toshkent, Buxoro, Samarqand, Shahrisabz, Farg'ona, Surxondaryo, Qashqadaryo viloyatlari keng rivojlangan. Quroqlar asta-sekinlik bilan yaxshilanib bormoqda, bu takrorlanmas xarakterga ega bo'lgan quroq namunalari vujudga kela boshladi. Agar quroq san'atining markazlarini alohida qarab o'tadigan bo'lsak, u holda Surxondaryo vohasiga xos bo'lgan quroqchilik naqshlarida ma'lum bir ma'nolarni aks ettirgan hayot, tun, kun, yulduz, osmon, yer, tabiat ma'nolarini bergan. Bunday naqshlar bilan kelgusi avlodlarga milliy qadriyatlarini yetkazish bo'yicha fikrlar yuritilgan. Surxondaryo vohasiga xos bo'lgan quroqlarning shakllari har bir detali ya'nimatolarning rangi har xil ma'nolarni bildirgan. Masalan: qizil – hayotning yangi sifatlarini ochish va avlodlar bardavomligini ta'minlashni bildirgan.

Oq rang – yangilanish, ezgulik ma'nolarin ibildiradi. Tillo rang – quyosh nuri va barhayotlik, yorqinlik ma'nolarini anglatadi. Quroq naqshalrida shuni aks ettirishga harakat qildim ya'ni tabiatga bo'lgan cheksiz muhabbatni, turli shakllarda ya'ni "Dondana" shaklida. Bu shaklda quyoshni aks ettirganman, undagi ranglar ketma-ketligi kamalak ranglarida aks etgan. Quroqchilikda qilgan yangiliklarimdan biri "Lola" tasviri, bunda tabiatimizning, borliqning cheksiz chiroyini, go'zalligini tasvirladim. Odamlarni daryolarning musaffoligi va tuproq unumdorligi haqida g'amxo'rlik qilishga da'vat etgan zardo'shtiylik aynan bizning zaminimizda vujudga kelganligi tasodifiy emas. Boshqa ta'limotlar – buddizm va man xeylik ham tabiatni avaylab-asrash ideal jamiyatga olib boradigan eng muhim yo'llardan biri ekanligini targ'ib qilgan. Inson bilan tabiatning uyg'un munosabatlari to'g'risidagi ana shu g'oyalar Movorounnahrda musulmon uyg'unish davriga juda katta xissa qo'shgan. Markaziy Osiyodagi sufiylik ta'limotlarida ham uchrashi tasodifiy emas. Mana shu misol biz uchun chuqur ramziy ma'noga ega. Xulosa qilib shuni aytish joizki, hozirgi kunda yoshlarga bilim berish bilan birgalikda, ularni hunarga o'rgatish, milliy urf-odatlarimizni hurmat qilishga o'rgatish, tarixi, hayotda o'z yo'llarini topib qiynalmasliklari uchun ham har xil to'garaklar ish olib borilmoqda. Yurtboshimiz tomonidan yaratib berilayotgan ta'lim sohasiga katta shart-sharoitlarning hammasini yoshlar uchun desak hato qilmagan bo'lamiz.

ISHLAB CHIQARISHDA QO'LLANILAYOTGAN TEXNIK O'LCHOV VOSITALARI O'RNI YOHUD METROLOGIK TA'MINOT

Karimova Madinabonu Dilshodbek qizi - ADU magistranti.

Turg'unboyeva Maftuna Oybek qizi - ADU magistranti.

To'rayev Muhammadjon Uzoqovich - ADU., Umutexnika fanlari va mehnat ta'limi kafedrası dosenti.t.f.n.

Kalit so'zlar: texnik o'lchov vositalari, metrologik ta'minot, o'lchov sifati, ekspertiza.

Ключевые слова: средство технических измерений, метрологическое обеспечение, качество измерений, экспертиза.

Key words: technical measuring instruments, metrological support, measurement quality, the examination.

Annotatsiya: Ushbu maqolada qo'llanilayotgan texnik o'chov vositalari haqidagi ma'lumotlar o'rin topgan.

Аннотация: В данной статье рассматриваются

Annotation: This article gives you a brief overview on technical measurement tools used.

Respublikamizda iqtisodiyotda, ijtimoiy sohada va bevosita ta'lim sohasida amalga oshirilayotgan islohatlar ta'lim tizimi oldida o'ta muhim vazifani qo'yadi, ya'ni har tomonlama rivojlangan, mustaqil fikrga ega bo'lgan barkamol shaxsni tarbiyalashvatayyorlashdir.

Ishlab chiqarish soharlarida zamonaviy texnika va texnologiyalarni kirib kelishi va ularda bajariladigan texnologik jarayonlarni mustaqil bajarish va o'zlashtirib borish bo'yicha bilim. ko'nikma va malakalarga ega bo'lgan mutaxassislar bilan ta'minlash zaruriyatini keltirib chiqaradi.

Hozirda barcha soxalarda tez suratda rivojlanish davom etmoqda. Shu jumladan zamonaviy o'lchash texnikasi ham barcha sohalar bilan yagona bog'lamda takomillashib bormoqda. Ilmiy-texnik taraqqiyotni ta'minlashda talimning roli juda kattadir. Shu sababdan olimlar va muhandis-asbobsozlar oldida turgan muhim vazifalardan biri ilmiy texnik taraqqiyot yo'lida ortda qolmaslik, bu taraqqiyot yo'lidagi to'siq bo'lmasdan, aksincha, uni olg'a siljituvchi qudratli omil bo'lishdir! Albatta bu oson emas.

Yurtimiz rivojiga o'z xissamizni qo'shish bizning oliy maqsadimiz bo'lishi lozim. Bugungi kunda oldimizda juda ko'p, o'ta murakkab, hal qilinishi lozim bo'lgan muammolar turibdi. Bulardan progressiv yutuqlarni tez va keng ko'lamda ishlab chiqishga tadbiiq etish va xalq xo'jaligida, talimda qo'llash. Ishlab chiqarishda o'lchash jarayonida olib borilayotgan nazoratga nafaqat miqdor bo'yicha talablar, balki sifat bo'yicha ham talablar qo'yiladi. Bunga uning (o'lchashning) aniqligi, ishonchliligi, tannarxi va samaradorligi kabi tavsiflar kiradi. Ushbu sifat tavsiflarining barchasining asosida metrologik ta'minot yotadi. Metrologik ta'minotni shunday ta'riflash mumkin: "barcha o'lchashlar birililigini ta'minlash va talab etilgan aniqlikka erishish uchun zarur bo'lgan texnikaviy vositalar, tartib va qoidalarning, me'yorlarning, ilmiy va tashkiliy asoslarning belgilanishi va tadbiiq etilishi" tushiriladi.

Yuqoridagi tavsifdan kelib chiqib aytish mumkinki, metrologik ta'minotning vazifasiga quyidagilar yuklatilgan:

~ o'lchash vositalarining ishga yaroqliligini tashkil etish, ta'minlash va tadbiiq etish;

~ o'lchashlarni amalga oshirish, uning natijalarini qayta ishlash va tavsiya etish borasidagi me'yoriy hujjatlarni ishlab chiqish va tadbiiq etish;

~ hujjatlarni ekspertizadan o'tkazish;

~ o'lchash vositalarining davlat sinovlari;

~ o'lchash vositalarining va uslublarining metrologik attestatsiyasi va hokazolar;

Bundan tashqari metrologik ta'minotning o'z oldiga qo'ygan asosiy maqsadlari, mahsulot sifatini, ishlab chiqarish va uni avtomatlashtirishning samaradorligini oshirish, detallar va agregatlarning o'zaro almashuvchanligini ta'minlash, moddiy boyliklarning va energetik resurslarining hisobini olib borish ishonchliligini ta'minlash, atrof-muhitni himoya qilish salomatlikni saqlashdan iboratdur. Demak metrologik ta'minot darajasi mahsulotning sifatiga bevosita ta'sir qiladi. Bu ta'sir samaradorligini yanada oshirish maqsadida metrologik nazorat ishlariga va ishlab chiqarishni tayyorlashdagi metrologik ta'minot masalalariga alohida ahamiyat beriladi. Bu esa o'z vaqtida respublikamizda bozor munosabatlarini yanada chuqurroq shakllanishiga va ishlab chiqarilgan mahsulotlarning eksport imkoniyatini oshirilishiga munosib zamin yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ismatullayev P.R., Qodirova Sh.A., A'zamov A.A. "Metrologiya asoslari"
2. Haitov R.O., G'afforov A.X. "Standartlashtirish, metrologiya, sertifikatlashtirish va maxsulot sifatini boshqarish".

**POLITALOGIYA (SIYOSATSHUNOSLIK) FANINING RIVOJLANISHI
VA HOZIRGI KUNDAGI AHAMIYATI. BOSHQA FANLAR BILAN
ALOQADORLIGI**

Sobirov B. H. -Samarqand viloyati Urgut tuman 93-maktab Xo'jalik ishlari bo'yicha direktor o'rinbosari

Xushnazarova G. E. -Samarqand viloyati Urgut tuman 93-maktab O'quv ishlari bo'yicha direktor o'rinbosari

Annotatsiya: Maqola politalogiya yani siyosatshunoslik fanining tashkil topishi va rivojlanishi, ahamiyati, predmeti va o'rganilish darajasi haqida ilmiy adabiy ma'lumotlarni o'z ichiga oladi.

Kalit so'zlar: Politalogiya fani, metod, predmet, hokimiyat, siyosat, qonun ustuvorligi, falsafiy nazariyalar.

Annotation: the article contains scientific literature information about the organization and development, importance, subject and level of study of political science i.e. political science.

Keywords: the science of Politology, method, subject, power, politics, rule of law, philosophical theories.

Аннотация: статья содержит научно-литературную информацию об учреждении и развитии, значении, предмете и степени изученности политологии и политической науки.

Ключевые слова: Наука политология, метод, предмет, Власть, Политика, верховенство права, философские теории.

Politologiya –siyosiy tafakkurning ilk ko'rinishi sifatida bundan deyarli 3000 yil avval paydo bo'ldi. Uning mustaqil fan sifatida shakllanishi esa XIXasr oxiriga to'g'ri keladi. Politologiya –so'zi yunoncha, ikkita so'z birikmasidan iborat. Rolis(polis) va logos (logos). Polis –davlat, hokimiyat, ijtimoiy hayot; Logos – uni o'rganish, ta'limot, ilm ma'nosida. Politologiya ijtimoiy – siyosiy fanlar tizimida muhim o'rin tutadi. O'zbekistonda o'tgan asr 90- yillaridan boshlab o'rganila boshlandi. Politologiya fani predmeti, qonun va tushunchalari, uslub, funksiyasi hamda hozirgi davrda bu fanni o'rganishni ahamiyati kabi masalalar diqqate'tiborda bo'lishligi lozim. Bu fan jamiyatning siyosiy tizimi, siyosat, tarix kabi fanlarni ham qiziqitirib kelgan va kelmoqda. Bu siyosatning murakkab va turli xil hodisalar bilan bog'liq boy iqtisodiy hodisa ekanligini ko'rsatadi. Siyosatga, jamiyatning boshqa ijtimoiy xodisalar singari, umumiy va o'ziga xos hususiyatlar, jihatlar xosdir. Bu siyosatni turli fanlar nuqtai nazaridan o'rganish inkoniyatini beradi. Ayni paytda yana shuni ta'kidlash lozimki, yuqorida qayd etilgan fanlar siyosat to'g'risida yaxlit. tugal tasavurni bermaydi.

Politologiya esa jamiyatning siyosat sohasi bilan bevosita bog'liqdir. Siyosiy fanlar – politologiya, siyosiy falsafa, siyosiy iqtisod, xalqaro munosabatlarning siyosiy nazariyasi, geosiyosat. siyosiy tarix. siyosiy etika va siyosiy antropologiya va boshqa sohalarni o'z ichiga oladi. Politologiya ob'ekti – siyosat. jamiyatning siyosiy

sohasi. Predmeti – siyosiy hokimiyatning qaror topishi, amal qilishi va o'zgarish qonuniyatlari tashkil etadi. Politologiya fanining boshqa ijtimoiy fanlardan farqi shundaki, u jamiyatning siyosiy jarayonlari to'g'risida fikr yuritadi. Jamiyat hayotida siyosiy hokimiyat muhim o'rin tutadi. Jamiyatning siyosiy hokimiyati, davlat hokimiyatining mohiyati va tuzilishini aniqlash, uning jamiyatda taqsimlanishi hamda mexanizmlarini bilish Politologiya fanining muhim ob'ekti hisoblanadi. Siyosiy hokimiyatini kim, qaysi siyosiy yoki ijtimoiy guruhlar tomonidan qanday maqsadlar, manfaatlar va tamoyillar tizimida amalga oshirilishi qiziqtiradi. Politologiya fani siyosiy hokimiyat, uni amalga oshirishda o'rnatilgan siyosiy rejim faoliyati doirasi, shuningdek muayyan guruhlar mavqei va munosabati, hokimiyat qamrovi, uni boshqarish usullarini aniqlab beradi. Politologiya fanida etakchi o'rinni jamiyat siyosiy hayoti, uni harakatga keltiruvchi siyosiy tuzilmalar va mehanizmlar faoliyatini o'rganish egallaydi. Ya'ni, u asosiy e'tiborini siyosiy institutlarning asl mohiyatini tashkil etgan davlat, parlament, hukumat, siyosiy muassasalar va partiyalar rolini o'rganishga qaratadi.

Politologiya fani jamiyatdagi siyosiy institutlar va siyosiy jarayonlar, siyosiy madaniyat, xalqaro tizimlar, uning mexanizmi, vositalari hamda amaliyotini o'rganishda muayyan qonunlarga tayanadi hamda amal qiladi. Politologiya fani amal qiladigan qonunlar ko'lamini turli xil bo'lib, mamlakat ichki hayoti, mintaqaviy va xalqaro tizimlar, umumbashariy taraqqiyot sohalari bilan bevosita dohdordir. Siyosiy hayotning barcha sohalarini erkinlashtirish, jamiyatda demokratiya, fikr va vijdon erkinligi tamoyillarini, gumaniz g'oyalari va umuminsoniy qadriyatlarni qaror toptirishni nazarda tutadi.

Politologiya ham boshqa fanlar kabi o'zining qonun va tushunchalarga ega. Bu fan qonunlarni ikki guruhga ajratish mumkin:

1. Davlat hokimiyati va mamlakat ichki siyosiy hayotida amal qiladigan.

2. Xalqaro munosabatlarda amal qiladigan qonuniyatlar Ushbu qonuniyatlar Politologiyada qo'llanilgan tushunchalarni uch guruhga ajratish mumkin:

1. Shu fanning xususiy tushunchalari – siyosat, siyosiy hokimiyat, siyosiy partiya va tashkilot, siyosiy tizim, siyosiy rejim, siyosiy plyuralizm, siyosiy qadriyat, siyosiy ong, siyosiy madaniyat, siyosiy mafkura va boshqalar.

2. Politologiyaga yaqin tushunchalar – huquqiy davlat, huquqiy madaniyat, xususiy mulk, bozor iqtisodi, raqobat, fuqarolik jamiyati, ijtimoiy qatlam, murosas, harbiy-siyosiy ittifoq kabi.

3. Umumijtimoiy – gumanitar tushunchalar, jamiyat, aholi, xalq, erkinlik, huquq, madaniyat, taraqqiyot, tafakkur, silivizatsiya va boshqa. Politologiya ijtimoiy fanlar bilan uzviy aloqada bo'ladi. Politologiya ijtimoiy fanlarning ilmiy xulosalarini qanday bo'lsa, shundayligicha foydalanmasdan, balki, jamiyat, davlat va fuqarolar hayotida bo'ladigan siyosiy o'zgarishlar va ularning hokimiyatiga munosabatlarini hamda bu o'zgarishlarni amalga oshirish usullari, mehanizmlarini o'rganadi, siyosiy xulosa, amaliy takliflar beradi. Politologiya tubandagi ijtimoiy-siyosiy fanlar bilan bevosita aloqador: sotsiologiya, iqtisod, psixologiya, huquqshunoslik, falsafa, tarix. Ana shu fanlardagi umumqoida va aniq voqea, xulosalardan foydalaniladi. Masalan, Sotsiologiya muayyan guruh ongi va madaniyatini, huquqshunoslik huquqiy ongi va madaniyatini, Politologiya esa siyosiy ongi va madaniyatini tahlil qiladi. O'z navbatida yuqoridagi ijtimoiy-siyosiy fanlar ham politologiyaning nazariy va amaliy xulosalardan keng keng foydalaniladi. Jumladan, "Falsafa"da siyosat ijtimoiy xodisa sifatida tafakkur qilinadi, jamiyat hayotida ro'y beradigan voqea-xodisalarda siyosatning ta'sir kuchi umumiy qonuniyat sifatida ifodalab beriladi. Siyosiy

muammolar, voqea-hodisalarning falsafiy jihatdan umumlashtirish asosida ishlab chiqilgan nazariy qoida va xulosalar, falsafaga xos bo'lgan umumiy qonuniyatlar "Politologiya" fani uchun metodologik asos bo'lib xizmat qiladi. Chunki politologiya fanida o'rganiladigan masalalar, xal qilinishi zarur bo'lgan vazifalar, avvalo "Falsafa" fanida ishlab chiqilgan ilmiynazariy xulosalarga tayangan holda amalga oshiriladi. Bu kabi holatlar "Politologiya"ning "Falsafa" bilan qanchalik bog'liq ekanligini ko'rsatadi. "Politologiya" sotsiologiya fani bilan ham chambarchas bog'liq. Bu bog'liqlikning asosi ularning siyosatni ijtimoiy muhitga qiladigan ta'sirini o'rganishi bilan belgilanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. E.Giddens. Sotsiologiya. (qo'llanma) T.:Sharq. 2002. 848 b.
2. Politologiya asoslari B.Aliev., G'.Rafiqov., T.Sultonov., M.Mullajonova., B.Rahmonov va boshqalar.
3. "Ta'lim to'g'risida"gi qonun. - T.: O'zbekiston, 2001, 3-11b.

EPISTEMOLOGICAL APPROACHES AND THE PSYCHOLOGY OF KNOWLEDGE

Qurbonova G. A. -Teacher Termez branch of Tashkent State Pedagogical University named after Nizami

Annotation: Epistemology is the study of the nature of knowledge, justification, and the rationality of belief. Much debate in epistemology centers on four areas: (1) the philosophical analysis of the nature of knowledge and how it relates to such concepts as truth, belief, and justification, (2) various problems of skepticism, (3) the sources and scope of knowledge and justified belief, and (4) the criteria for knowledge and justification. Epistemology addresses such questions as: «What makes justified beliefs justified?», «What does it mean to say that we know something?», [4] and fundamentally «How do we know that we know?».

Key words: epistemology, knowledge, psychology, concept of knowledge.

Epistemology, the philosophical study of the nature, origin, and limits of human knowledge. The term is derived from the Greek *epistēmē* ("knowledge") and *logos* ("reason"), and accordingly the field is sometimes referred to as the theory of knowledge. Epistemology has a long history within Western philosophy, beginning with the ancient Greeks and continuing to the present. Along with metaphysics, logic, and ethics, it is one of the four main branches of philosophy, and nearly every great philosopher has contributed to it.

The term "epistemology" comes from the Greek «episteme», meaning «knowledge», and «logos», meaning, roughly, «study, or science, of». «Logos» is the root of all terms ending in «-ology» – such as psychology, anthropology – and of «logic», and has many other related meanings.

The word «knowledge» and its cognates are used in a variety of ways. One common use of the word «know» is as an expression of psychological conviction. For instance, we might hear someone say, «I just knew it wouldn't rain, but then it did.» While this may be an appropriate usage, philosophers tend to use the word «know» in

a factive sense, so that one cannot know something that is not the case. (This point is discussed at greater length in section 2b below.)

Even if we restrict ourselves to factive usages, there are still multiple senses of «knowledge,» and so we need to distinguish between them. One kind of knowledge is procedural knowledge, sometimes called competence or «know-how;» for example, one can know how to ride a bicycle, or one can know how to drive from Washington, D.C. to New York. Another kind of knowledge is acquaintance knowledge or familiarity; for instance, one can know the department chairperson, or one can know Philadelphia.

Epistemologists typically do not focus on procedural or acquaintance knowledge, however, instead preferring to focus on propositional knowledge. A proposition is something which can be expressed by a declarative sentence, and which purports to describe a fact or a state of affairs, such as «Dogs are mammals,» « $2+2=7$,» «It is wrong to murder innocent people for fun.» (Note that a proposition may be true or false; that is, it need not actually express a fact.) Propositional knowledge, then, can be called knowledge-that; statements of propositional knowledge (or the lack thereof) are properly expressed using «that»-clauses, such as «He knows that Houston is in Texas,» or «She does not know that the square root of 81 is 9.» In what follows, we will be concerned only with propositional knowledge.

Propositional knowledge, obviously, encompasses knowledge about a wide range of matters: scientific knowledge, geographical knowledge, mathematical knowledge, self-knowledge, and knowledge about any field of study whatever. Any truth might, in principle, be knowable, although there might be unknowable truths. One goal of epistemology is to determine the criteria for knowledge so that we can know what can or cannot be known, in other words, the study of epistemology fundamentally includes the study of meta-epistemology (what we can know about knowledge itself).

The studies made of philosophy and the history of philosophy are countless. It is not the intention of this section to present a long, comprehensive view of the different theories, but to present the bases for the position defended in this paper. One could argue that there are main approaches in traditional epistemology. The first has its origins in Plato and is based on the idea that knowledge exists independently of empirical reality. Descartes would be in line with this position too (see e.g. Markie, 1998; Garber, 1998).

The second is referred to as the empiricist approach. Here Aristotle is the main figure and he contends that knowledge is created through experience. And finally a third approach, mainly represented by Kant, which would be placed between the two previous ones, holds that knowledge is a combination of experience and inner capacities.

This is obviously an oversimplification of the approaches, reducing them to some specific characteristics that make them similar. A deeper analysis would be needed in order to fully understand the work of the different authors presented, such as Plato, Aristotle and Kant, but here only few specific aspects of their theories are considered.

More recently, the field of psychology has made some interesting contributions to the field of epistemology. Three main approaches have been proposed in classical

epistemology, and similarly, three main approaches to psychology are presented: (1) psychology of the inner mental world, corresponding to the epistemology of Plato and Descartes, (2) behaviorist psychology, corresponding to traditional empiricism, and (3) constructivist psychology, related to the third approach to epistemological thought: critical rationalism. The first approach in psychology combined contributions from quite diverse authors: Wundt, Köhler and Freud. It is argued, however, that all of them share the conviction that the inner mental world is crucial in understanding the nature of knowledge. For them, knowledge is in one way or another generated mainly from the inside out. This approach to psychology, therefore, considers an inner world that is partially (if not totally) independent of empirical reality. Knowledge is mainly produced inside our heads from our own resources.

Behaviorism is a psychology tradition rooted in physiology. Behaviorism has its basis in Pavlov's work on classical conditioning (see e.g. Pavlov, 1904 or 1928). For Watson (1924, p. 5), behavioristic psychology attempts to formulate, through systematic observation and experimentation, the generalizations, laws and principles which underlie man's behavior.

Behaviorism is, therefore, not so much concerned with knowledge as it is with behavior. However, learning has a central role in their theories, since learning is the result of a successful training process, in which the conduct has been modified. Skinner, in his work with animals, especially pigeons, managed to "teach" them to get food by pressing a button. This "intelligent" behavior elicited the correct reinforcements – giving food – when the pigeon produced the correct response – pressing the button. Skinner (1953, p. 153) argues: The whole process of becoming competent in any field must be divided into a very large number of small steps, and reinforcement must be contingent upon the accomplishment of each step... By making each successive step as small as possible, the frequency of reinforcement can be raised to maximum, while the possible aversive consequences of being wrong are reduced to a minimum.

Behaviorists claim that the human mind cannot be studied; only its consequences, behavior, can be empirically studied (Saettler, 1990, p. 13). The different types of reinforcements that we receive will shape our behavior. Thinking is for the behaviorists "sub-vocal talking", just one type of "implicit habit responses" (Watson, 1924, p.15).

Knowledge is therefore external to the human mind; it occurs "from the outside-in"; it is the association of stimulus and responses (Shuell and Moran, 1996, p. 3340). Complex learning occurs through the operant conditioning of different sequences of responses.

Constructivism

The third approach to psychology proposed here consists of an intermediate paradigm between the two previous approaches. It is the one that inspired the approach used in this paper, and it is, therefore, presented in more detail. Piaget is probably the most prominent exponent of this approach. He is one of the writers on education who is most frequently cited. His genetic epistemology has had, and still has, a great influence on curriculum design, educational theory and development psychology (Perner, 1996).

When confronting a new object or situation the script will assimilate or accommodate the new object or situation. Piaget defines assimilation as “the incorporation of objects into patterns of behavior” (Piaget, 1950, p. 9); this means that the script grows, adding a new object (or situation) where the script will be functional. For example, assimilation occurs when a child is confronted with a pencil. The child can use the schema “grab and thrust” that s/he has already used with other similar objects. Using the schema will be successful, and therefore, the object “pencil” will be incorporated into the functional schema of “grab and thrust”.

Accommodation, on the other hand, occurs when the application of previously known schema to a given object is not successful; for example, the child cannot use the schema “grab and thrust” with a big ball. In this case, it is the “script” that changes, and the child will accommodate his/her schemata to the ball (see e.g. Flavel, 1963; Boeree, 2002).

Used literature:

1. Kurbonova Gulnoza Abdukhalik qizi. № 17 (255) / 2019 The notions of “knowledge”, “action” and “learning” p217 “Молодой ученый” Международный научный журнал
2. Ausubel, D. P. and Robinson, F. G. (1969). School learning: And introduction to educational psychology. London: Holt, Rinehart and Wiston.
3. Bender, S. and A. Fish (2000). The transfer of Knowledge and the Expertise: the continuing need for Global Assignments. Journal of Knowledge Management, Vol. 4, No. 2, pp. 125-137
4. Blacker, F. (2002). Epilogue: Knowledge, knowledge work and organizations: An overview and interpretation, Organization studies. In Wei Choo, C. and Bontis, 35.N., The strategic management of intellectual capital and organizational knowledge. Oxford: Oxford University press, Pp. 63-64.
5. Cleveland, H., (1985). The knowledge executive: Leadership in an information society. New York: Truman Tally books, E.P. Dutton.

Т/Р	Муаллиф Ф.И.Ш	Мақола номи	Саҳифа
1.	Тургунов С.Т.	Кириш сўзи	3
2.	Али Назаров А.	Ривожланган мамлакатларда олий таълим муассасаларида таълим, фан, ишлаб чиқариш интеграциясини шаклланиши ва ривожланиш тажрибаси	5
3.	Раззоқов Ҳ.Ҳ.	Ҳаёт фаолияти хавфсизлиги фанини ўқитиш долзарблиги ва унинг ҳуқуқий асослари	7
4.	Акрамов Х.М.	Талабаларда хавфсиз ҳаётини фаолият маданиятини шакллантиришнинг педагогик имкониятлари	10
5.	Каримов И.	Ўқувчиларнинг ижодкорлик қобилиятини ривожлантириш масалалари	13
6.	Зияев И.Н.	Профессионал таълим тизимида махсус фанларни ўқитишда инновацион электрон платформалардан фойдаланиш	22
7.	Абдиев И.М.	Ҳаёт фаолияти хавфсизлиги фанининг ўқитишда бугунги кундаги муаммолар	25
1-ШУЎБА			
8.	Ҳалимов Ў.Ҳ. Пўлатов Б.С.	Техника йўналиши талабаларининг касбий кизиқишларини ривожлантиришда математика	30
9.	Ochilov A.O.	Hayot faoliyati xavfsizligi muammolari	32
10.	Носиров Н.В.	Дарснинг сифати ва самарадорлигини таъминловчи субъектлар	34
11.	Abdullaev A. Musaeva D.	Assisting women's rehabilitation	36
12.	Ғалимова, Л.Г. Курбонов А.Ж.	Психологические проблемы в сфере защиты населения и территории от чс в республике узбекистан.	38
13.	Kurbonov A.J. Ziyavaddinova S.A.	FVV tizimi harbiy xizmatchilari va qutqaruvchilarining Psixik hamda psixofiziologik holatlarini baholash	42
14.	Kurbonov A.J Abdulazizov A. Hayitaliyeva Sh.	Monitoring va prognoz qilishda, seysmikaning asosiy vazifalari	52
15.	Egamberdiyev A. Ahmadxanov A.	Kuchli ta'sir etuvchi zaharli moddalar ta'sirida jabrlanganlarga tibbiy yordam ko'rsatish qoidalari	56
16.	Egamberdiyev A. Xakimjonov A.	Elektr tokidan jarohat olganlarga birinchi yordam ko'rsatish qoidalari	58
17.	Камалова М.Ш.	Мехнат жараёнида инсон рухий	62

		хусусиятларининг бахтсиз ходисалар, жароҳатланиш эхтимоллига таъсири	
18.	Бахриддинов Н.С., Игамбердиева Д.А., Алимова М.Ш.	Аҳоли ўртасида ҳаёт фаолияти хавфсизлигини тушунтириш орқали Бахтсиз ходисаларни камайтириш усуллари	66
19.	Иброхимов, М.А. Рустамова З.Ф	Электрон ахборот таълим муҳитида ўқувчиларнинг хунармандчиликка оид таянч компетенцияларини ривожлантириш	68
20.	Тўрабеков Ф.С.	“Технология фанини ўқитиш методикаси” фани бўйича мультимедиали электрон дарслик яратиш методикаси	71
21.	Nabiyev A.B. Usmanov M.A., Botirjanov A.A.	Akademik litsey va kasb-hunar kollejarida fizika fanining o'qitish usuli	74
22.	Nabiyev A.B. Botirjanov, A.A. Usmanov M.A	Interfaol usullardan foydalanib Fizika fanini o'qitish	77
23.	Nabiyev A.B, Haydarov B.M., Nuriddinov R.K.	Sanitariya gigienik va epidemiyaga qarshi tadbirlar o'tkazish uchun jalb etiladigan kuch va vositalar	79
24.	Haydarov B.M. Jakbarov I.Y	Sanitariya-gigiyena muhofaza qilish qonunlarining ahamiyatligi	82
25.	Botirjanov A.A.	Fizika darslarida o'quvchilar ishlarini faollashtirish	84
26.	Nabiyev A.B. Qayumova K.A.	Fuqaro muhofazasining asosiy vazifalari, fm tashkilotining tarkibiy tuzilishi	86
27.	Nabiyev A., Xakimjonov A	Aholini xavfli hududdan xavfsiz hududga ko'chirish chora-tadbirlari	89
28.	Nabiyev A.B. Abduxamidov K.A.	Favqulodda vaziyatlarni bartaraf etish, fuqoralar hayoti va salomatligi	93
29.	Ismatova S.R.	Kasb hunar kollejarida ingliz tili darslarini o'qitishda kasbga yo'naltirish tamoyilini amalga oshirishning ahamiyati	96
30.	Nabiyev A.B, Haydarov B.M. Xudayberganov E.E.	O'quv ustaxonalaridagi ta'lim metodikasi	98
31.	Усмонова М.Б. Мухитдинова Ж.Р.	Ўзбек аёлларига хос миллий характерларни бадний асарларда ёритилиши	99
32.	Мухитдинова Ж., Хайитмирзаева М.	Технология фанини ўқитишда ўқувчиларда ижодий-ижтимоий фаолликни шакллантириш йўллари	103
33.	Usmonova M.S. Aminov M.M.	Tehnologiya fani mashg'ulotlarini samarali tashkil etish metodlari	106
34.	Рахронов Х..	Техника фанларини ўқитишнинг ўзига	109

	Каримов И.	хослиги	
35.	Рахмонов Х.Т.	“Тупрок чуқурлиги ва сифатини аниқлаш” мавзусида инновацион таълим технологиясини қўллаш	111
36.	Қутлымуратдов К. А.	Миллий кадриятлар асосида талабаларда касбий сифатларни масъулият хусусиятини, шакллантириш омили	112
37.	Atabekova L. Nosirov N.	Umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'quvchilarni kasb - hunarga yo'naltirish	116
38.	Хамдамова В.А.	Технология дарсларининг тарбиявий аҳамияти	118
39.	Shuxratov Sh.Sh., Shuxratova Sh., Axmadjonova X.X.	Oliy ta'lim tizimida faoliyat ko'rsatuvchi pedagoglarni tayyorlashda ta'lim jarayonida qo'llaniladigan innovatsion usullar	122
40.	Isxakova G.A., Sultonov B.E.	Azotli o'g'itlarning qishloq xo'jaligidagi ahamiyati	124
41.	Xudayqulov Sh.S.	Professional ta'lim jarayonida o'quv didaktik vositalardan samarali foydalanish	126
42.	Rahimov X.U.	Zamonaviy ta'lim tizimida tasviriy san'at darslarini gumanitar o'quv fanlari bilan bog'lash metodlari.	129
43.	Ирматов Ф.М.	Нофизик таълим йўналишлари талабаларига физика фанини ўқитишнинг ўзига хос хусусиятлари	132
44.	Иброхимов М.А. Рахимжонова М. Д.	Профессионал таълимда ижтимоий ҳамкорликни Амалга ошириш ва такомиллаштириш	134
45.	Doniyorova SH. Norboyev B.	Tehnologik ta'limi yo'nalishida hunarmandchilik sohalarini milliylik asosida amaliy o'rgatish asoslari	137
46.	Алибоев Т.Ч.	Технология дарсларида ўқувчиларда креативлик сифатларининг ривожланганлигини баҳоловчи мезонлар	140
47.	Рахмонов Ш. Юлдошев Ш.	Ҳаёт фаолияти хавфсизлиги фанининг амалий машғулотларини педагогик технология асосида ўқитиш	145
48.	Акравов Х.М. Matkarimov A Sayfitdinov S.	Talabalarni olov bilan yaqindan tanishtirish	147
49.	Raxmonov Sh.V. Turgunov A.A Yuldoshev Sh.X.	Hayot faoliyati xavfsizligi fanining maqsadi asosiy vazifalari va tuzilish hamda mehnatni muhofaza qilishda ergonomikasi va ahamiyati	151
50.	Бахриддинов Н.С. Мамадалиев Ш.М.	Ишлаб чиқариш корхоналарида захарланишга қарши кураш	155
51.	Улуханов И.Т.	Машинасозликда қўлланиладиган	159

	Хусайинова Г.	материалларга талаблар	
52.	Akramov X.M. Matkarimov A. Sayfitdinov A.S. Xusanboev G.	Talabalarga xona mikroiklim haqida ma'lumot berish	161
53.	Uluxanov I.T. Xusayinova G.A Hamdamova M. Quvvatova Z.	O'quvchilarga to'garaklarda zargarlik buyumlar tayyorlashni o'rgatish.	166
54.	Uluxanov I.T. Hamdamova M. Quvvatova Z.	O'quvchilarga gazlamalarni fizik-mexanik xossalarini o'rgatishning zarurati	171
55.	Kabilova S.	Metaforalarni o'qitish orqali o'quvchilarning obrazli tafakkurini shakllantirish usullari	174
56.	Eshaliyev U.	The importance of the use of innovative technology in educating the competence of future computer science teacher	179
57.	Умаров Х.А.	Технологик таълим ўқитувчиларини тайёрлашда компететияга йўналтирилган ҳолда ташкил этиш касбий-педагогик таълим ҳамкорлигини таъминлашнинг усули сифатида	182
58.	Каримов И. Улуханов И.	Технология дарсларида электротехника машгулотларида вертуал дастурлардан фойдаланиш	186
59.	Husanov U.B. Husanov U.B	Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi sharoitida sotsiologiya, politalogiya va texnika fanlarini o'qitishning ahamiyati.	190
60.	Каримов О.О. Норбоев Б.М.	3d-принтерлари асосида ўқувчиларнинг ижодкорлик қобилиятларини ривожлантириш	193
61.	Norboyev B.M.	Texnologiya darslarida 3d printerlardan foydalanishni joriy qilish masalalari	197
62.	Alimnazarov O. Shamayev Y. Toshniyozov H. Choriyev R.	Effects of hydrocylinder status changing plowing place on tractor fuel savings and efficiency	199
2-ШУЪБА			
63.	Тожибоев М.И.	Инсонларда экологик маданиятни ривожлантириш орқали соғлом турмуш тарзини шакллантириш	211
64.	Tursunov R.A.	Hayot faoliyati xavfsizligining Huquqiy asoslari	213
65.	Зикриёев А.	Инсон капиталини ривожлантириш яниги босқичда: касбий соғлиқни таъминлашда санитария хизматини самарали ташкил	216

		ЭТИШНИНГ ЗАМОНаВИЙ ЙЎНАЛИШЛАРИ	
66.	Ollaberganov I. Atajanova M.	Favqulodda vaziyatlarda aholini xabardor qilishning usullari	219
67.	Akramov X.M Matkarimov A. Tursinaliyeva N.X.	Amaliy fanlarni o'qitish jarayoniga ilg'or pedagogik texnologiyalarni tanlash	222
68.	Palvanov I., Ollaberganov I.	O'zbekistonda zararli chigirtkalarga qarshi kurash ishlarini yanada takomillashtirish	226
69.	Хожиев А., Курбонов А.Ж	Факторы влияющие на обеспечение эвакуации	231
70.	Kurbonov A.J., Ziyodullayev T.K., Хайиталиева D.A.	Cho'milishda ehtiyotkorlik – xavfsizlik garovi	238
71.	Абдуллаева Г.	Мактабгача ёшдаги болаларни фавқулдда вазиятлардан муҳофазаланишга тайёрлашда психологик Тайёргарликнинг роли	242
72.	Nabiyev A.B., Haydarov B.M., Dedahanov A.G'.	Favqulodda vaziyatlarda aholi o'rtasida sanitariya-epidemiya qarshi tadbirlarni o'tkazilishining asosiy tamoyillari va vazifalari	247
73.	Haydarov B.M., Mamadboyev Sh.B., Olimov B.M.	Iqlim o'zgarishining inson salomatligiga ta'siri	251
74.	Nabiyev A.B. Qayumova K.A., Mamadaliyeva A.	O'zbekistonda iqlim o'zgarishi muammosi va oqibatlar	252
75.	Nabiyev A.B. Qayumova K.A.	Ekologik tusdagi favqulodda vaziyatlarni kelib chiqish sabablari	255
76.	Алиазаров, А.Х. Атамов А.А., Набиев А.Б.	Техникумлар учун «тайёрлаш, пайвандлаш ва йиғув ишларининг техника ва технологияси» дарслик ва ўқув қўлланмаларни тайёрлашнинг ўзига хос хусусиятлари	259
77.	Rustamova Z.F.	Texnologiya fanlarini o'qitishda o'quvchilarni kasb tanlashga yo'naltirish	261
78.	Мирхасилова З., Тиллаев Ш, Саидахметов Ш.	Способы предупреждения и защиты от ботулизма	264
79.	Xusayinova G.A.	Texnologiya yo'nalishi talabalarini o'qitishda informatika fanlarida ijodiy vazifalardan foydalanishning samarali usullari	268
80.	Xusayinova G.M.	Maktablarda ona tili darslarini innovatsion yondashuv asosida tashkil etish	271
81.	Xusayinova G.A.	Ўқувчиларини касб-хунарга	274

		Йўралтиришда “устоз-шоғирд” анъанасининг мазмун-моҳияти	
82.	Muxitdinova J., Mamadaliyeva M.	O'quvchilarni kasb – hunarga yo`naltirishda texnologiya fanining ahamiyati va o`rni	276
83.	Суюнов С.Ф. Мусурмонова М.А., Рўзиева М.Ш	Учет неоднородности кристаллов при изучении их Оптических свойств	280
84.	Uluxanov I.T., Quvvatova Z.R.	Tehnologiya darslarida antropometrik va morfologik bilimlarni o`rgatishning amaliy ahamiyati	282
85.	Назарова Н.Н. Хамроев Т.З.	Олий ўқув юрти талабаларида ҳаёт фаолияти хавфсизлиги маданиятини шакллантириш орқали волонтерлик фаолиятига йўналтириш механизми	286
86.	Sayfitdinov A. Nabiyev A.	Darsda atrof-muhit muhofazasining ekologik Muammolarini o`qitilishi	290
87.	Бойматов Н.	Йирик гидротехника иншоотлари хавфсизлигига таъсир этувчи омиллар	292
88.	Shonazarov A.	Sel va suv toshqinlari bilan bog`liq favqulodda vaziyatlarga aholini tayyorlash – doimiy zaruriyat	296
89.	Атамирзаев Б.	Табий ва техноген офатларнинг узвий боғлиқлиги	299
90.	Исоқов А.	Табий хусусиятли фавқулдда вазиятлар, улардан огохлантириш чоралари ва тўғри харакатланиш усуллари	303
91.	Igamberdiyeva D., Yuldoshev Sh., Zokirova D .	Hayot faoliyati xavfsizligi fanining rivojlanishi va uning tarqqiyoti hamda jamiyatdagi o`rni va rivojlanishi	305
92.	Allamuradov A.	The role of didactic conditions in the use of digital technologies by teachers of technological education	308
93.	Тоҳиров Ў.О.	Технология фани миллий ўқув дастурини Амалиётга жорий қилиш масалалари	311
94.	Мамадбоев Ш.Б. Рахимова Х.	Меҳнат муҳофазаси ва техника хавфсизлиги фанини касб-хунар мактабларида ўқитишнинг долзарблиги	313
95.	Исоқов А.Қ. Эгамбердиев А.А. Тошпўлатов Т.Б.	Кучли таъсир этувчи захарли моддалар таъсирдан аҳолини ва худудларни муҳофаза қилишда шахсий ва жамоавий химоя воситаларидан фойдаланиш	316
96.	Улуханов И. Т. Умаров К.М., Турғунпўлатов М.О.	Қаттиқ қотишмалар ва улардан амалда фойдаланишдаги аҳамиятли масалалар	323

3-ШҮҮБА

97.	Ahadov M.Sh.	Kimyo ta'limida virtual laboratoriyalarni bajarishda xafsizlik texnikasi	326
98.	Murodilov X.T.	Development of ecological mapping and opportunities for ist use	328
99.	Орипов Ф.Й.	Ёшлар ахлокий онги ва ижтимоий тараққиёт	330
100.	Ахмедов К.К.	Образовательные технологии на занятиях по дисциплине безопасность жизнедеятельности (бжд).	335
101.	Бахриддинов Н.С. Абдурахманов Х. Холматова М.М.	Хаёт фаолияти хавфсизлиги фанини кичик гуруҳларга бўлиб ўқитиш усули	339
102.	Бахриддинов Н.С., Собиров М.М., Тургунов А.А	Хаёт фаолияти хавфсизлиги фанини ўқитишнинг интеграцион усули	342
103.	Назарова Н.Н.	Талабалар ҳаёт фаолияти хавфсизлиги маданиятини инновацион муҳитни яратиш орқали таъминлаш йўллари	344
104.	Murodilov X.T. Rahmonov A.A.	Teaching arcgis program as an achievement of technical sciences	347
105.	Бахриддинов Н.С., Атамирзаева С.Т.	Хаёт фаолияти хавфсизлигини ўқитишда талабанинг инновацион ғоясини ривожлантириш	349
106.	Иброхимов М.А. Жумаева М.М.	Талабаларни умумкасбий фанлар негизда инновацион муҳандислик касбий фаолиятига тайёрлаш	352
107.	Олимов Б.У. Турсунов Ж.Э.	Умумий ўрта таълим мактабида ўқувчилар креатив ёндашувининг узвийлиги ва узлуксизлиги	355
108.	Muhitdinova J.R. Nabiyeva G.	Axborot texnologiyalarini ta'lim jarayoniga tadbiiq etish orqali o'quvchilarda ijodiy-ijtimoiy faollikni oshirish	360
109.	Gafurov N.N. Erxonboyev N.A.	Xonadonlarda tabiiy gaz sizib chiqishi va hosil bo'lgan is gazidan zaharlanish holatlarida hayot faoliyati xavfsizligini ta'minlashning zamonaviy usullari va vositalari	363
110.	Haydarova G.M., Shuxratova Yu.Sh, Shuxratov Sh.Sh.	Kreativ usullarni doimiy ravishda professional ravishda o'qitishda qo'llash	366
111.	Axmadjonova X.X., Shuxratova Yu.Sh, Shuxratov Sh.Sh.	Oliy ta'lim tizimida faoliyat ko'rsatuvchi pedagoglarni tayyorlashda ta'lim jarayonida qo'llaniladigan innovatsion usullar	369
112.	Олимов Б.У. Олимова Х.И.	Умумий ўрта таълим мактабларида технология фанини ўқитишнинг муаммо	371

		ва ечимлари	
113.	Ibroximov M.A. Saidmamatova N.A.	Professional ta'limda innovatsion texnologiyalar va rivojlangan mamlakatlarning tajribasi	373
114.	Akramov X.M Matkarimov A.M Xusanboev G.	Metallarning turmushda va xalq xo'jaligidagi ahamiyati	377
115.	Алибоев Т.Ч. Норбоев Б.	Технология дарсларида ўқувчиларнинг креативлик сифатларини ривожлантиришга бўлган муҳим ёндашувлар	380
116.	Эгамбердиев А.А., Нуралиев А.О.	Кучли таъсир этувчи захарли моддалар билан боғлиқ фавқулудда вазиятлар таъсиридан аҳолини ва ҳудудларни муҳофазалаш чора-тадбирлари	384
117.	Ismatov A.M. Abduraxmonova M.,	Tehnologiya fani mashg'ulotlari jarayonida o'quvchilarning kreativ kompetentligini shakllantirishda pedagogik va psixologik darajalarini namoyon qilish shakllari	389
118.	Akramov X.M, Tursunboeva S.B.	Izonit san'atining o'quvchilarga o'rgatish	393
119.	Ismatov A.M., Boymirzayeva Y.	Tehnologiya fanida fanlararo integratsiyalar va ulardan yangicha integratsiyalashgan ta'lim asosida yondoshishning foydalanish usullari	398
120.	Иманов Б.Б.	Физикадан ўқувчи креативлигини инновацион технологиялар воситасида ривожлантиришда муаммоли тажрибаларнинг ўрни	399
121.	Алмарданов Ҳ. Б.	Технологик таълим фанини ўқитишда педагогик- психологик омиллардан фойдаланишнинг аҳамияти	401
122.	Қодиров.Б. Э.	Технология фани машғулотларида ўқувчиларда хунармандчиликка оид таянч компетенцияларни ривожлантириш	404
123.	Эргашева Н.О., Нормуродова Н.Н., Номозова М.А.	Ўқувчиларни миллий анъаналар руҳида тарбиялашда тўғаракларнинг ўрни	406
124.	Каримов А.Т., Рахматов Ж.Р.	Ўқитувчиларни тўғаракка жалб қилишда халқ хунармандчилигидан фойдаланишнинг ўзига хос хусусиятлари	409
125.	Umirov A.T. Jalolova G.Q	Kashtachilik san'ati va kashtachilik naqshlari ularning tuzilishini o'rgatish uning ahamiyati	413
126.	Палванов И. Оллаберганов И.	Темир йўл транспортининг тоғли ҳамда тоғ олди ҳудудларида радиомониторинг	416

		ТИЗИМИНИ Қўллаш	
127.	Рустамов Ҳ. Мамадбоев Ш.	Таълим тизимида аҳолида хавфсизлик маданиятини Шакллантиришнинг тутган ўрни	420
128.	Ходжаев А.	Аҳолини фавқулудда вазиятларда кўчириш тадбирларини истиқболли масалалари	425
129.	Mamadboyev Sh., Xakimjonov A.	Inson faoliyatini xavfsizligini ta'minlashda gaz niqoblarining o'rni va ulardagi muammolar	429
130.	Хожиева Ш.	Корхоналарда меҳнат муҳофазаси ишлари самарадорлигини оширишнинг муҳим омили	432
131.	Turdaliyeva O.A.	Texnologiya darslarida dekorativ buyumlar tayyorlashni o'rgatish	435
132.	Turdaliyeva O.A.	Innovatsion ta'lim muhitida o'quvchilarga plastik materiallardan dekorativ buyumlar tayyorlashni o'rgatish	439
133.	Olimov B. U., Turdaliyeva O.A.	Texnologiya darslarida plastik materiallar va rangli qog'ozlardan dekorativ buyumlar tayyorlashni o'rgatishning uzviyligi	441
134.	Ismatov A. M., Normirzayeva O.	Texnologiya fanini o'qitishning noan'anaviy usullardan foydalangan holda shakllantirish mazmuni va vositalari	443
135.	Tursunbayeva O.,	Xalq hunarmandchiligi elementlarini o'rganishda kashtachilik ishlarining o'rni	445
136.	Ҳайдаров Р.М.	Технологик таълим ўқитувчисининг мутахассис моделини ишлаб чиқишдаги айрим жиҳатлар	449
137.	Jo'rayeva B.	Boysun quroqchilik san'atini o'rgatishda tarixiy an'analar o'rni	451
138.	Karimova M.D., Turg'unboyeva M.O., To'rayev M.U.	Ishlab chiqarishda qo'llanilayotgan texnik o'lchov vositalari o'rni yohud metrologik ta'minot	455
139.	Sobirov B. H. Xushnazarova G. E.	Politalogiya (siyosatshunoslik) fanining rivojlanishi va hozirgi kundagi ahamiyati. boshqa fanlar bilan aloqadorligi	457
140.	Qurbonova G. A	Epistemological approaches and the psychology of knowledge	459

Bosishga ruxsat etildi: 25 may 2021 yil
Bichimi 148x210. 1/32. Xajm 18 bosma taboq
RIZO 3750 apparatida nusxa ko'chirish usulida 100 nusxada bosildi
Buyurtma raqami № _____

Namangan davlat universiteti
Namangan shahri, Boburshox ko'chasi. 130-uy.

